

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**“TOSHKENT IRRIGATSIYA VA QISHLOQ XO‘JALIGINI
MEXANIZATSIYALASH MUHANDISLARI INSTITUTI”
MILLIY TADQIQOT UNIVERSITETI**

MAMADAMINOVA BAXTIGUL

BOTIROVA HALIMA

O'ZBEKISTONNING ENG YANGI TARIXI

O`quv qo`llanma



Toshkent-2022

Annotasiya. Mazkur o'quv qo'llanmada necha ming yillik tarixga ega davlatimizning yangi davr tarixi, O'zbekistonning davlat mustaqilligiga erishishi arafasida yuzaga kelgan murakkab ijtimoiy - iqtisodiy vaziyat, davlat mustaqilligining e'lon qilinishi, mustaqillik yillarida respublikada amalga oshirilgan ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, ma'naviy sohalardagi islohotlar va ularning bosqichlari, O'zbekistonning jahon hamjamiyatiga qo'shilishi kabi muhim masalalar haqida so'z yuritiladi. Davlatchilik masalarini yorituvchi darsliklar yozish, uni keng kitobxonlar ommasiga, yosh avlodga yetkazish, shu asosda zarur hayotiy, amaliy xulosalar chiqarish tarix fani oldidagi dolzarb vazifalardan biri bo'lib qolmokda. Ushbu o'quv qo'llanma anu shu muhim vazifalarni amalga oshirishga bag'ishlangan bo'lib, turli tarixiy manbalar hamda davriy matbuot materiallari asosida yoritilgan.

O'quv qo'llanma O'zbekistondagi ijtimoiy - iqtisodiy va siyosiy jarayonlar tarixi bilan shug'ullanuvchi tadqiqotchilar, ijtimoiy-gumanitar soha mutaxassisligi bo'yicha tahsil olayotgan talabalar, magistrlar hamda bevosita tarixga qiziquvchi keng kitobxonlarning barchasiga mo'ljallangan.

Ma`sul muharir:

S. N. Tursunov- professor t.f.d

Taqrizchilar

Q.N.Nazarov - Gumanitar fanlar. kafedrası
professori f.f.d

Xidirova N. O'. Nizomiy nomidagi Toshkent
Davlat pedagogika universiteti
«O'zbekistonning eng Yangi tarixi»
kafedrası dotsenti

KIRISH

Mamlakatimizda mustaqillik yillarida amalga oshirilgan keng ko'lamli islohotlar milliy davlatchilik va suverenitetni mustahkamlash, xavfsizlik va huquq-tartibotni, davlatimiz chegaralari daxlsizligini, jamiyatda qonun ustuvorligini, inson huquq va erkinliklarini, millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglik muhitini ta'minlash uchun muhim asos bo'lib kelmoqda. Xususan, tarix fani va unga oid bilimlar ham jamiyat manfaatlariga, insonlarning ma'naviy dunyosiga ijobiy ta'sir qilishi, kishilarda tarixiy xotira, ajdodlar merosidan faxrlanish tuyg'usini uyg'ota olishi lozim. Bu borada o'z fikrlarini bayon qilgan Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev 2018-yil 28-dekabrda Oliy Majlisga qilgan Murojaatnomada, oldimizga qo'ygan ulkan vazifalarni amalga oshirishda biz uchun kuch-qudrat manbai bo'ladigan milliy g'oyani rivojlantirishimiz zarur. Vatanimizning qadimiy va boy tarixini o'rganish, bu borada ilmiy-tadqiqot ishlarini kuchaytirish, gumanitar soha olimlari faoliyatini har tomonlama qo'llab-quvvatlashimiz lozim. O'tmishga berilgan baho albatta xolisona, eng muhimi, turli mafkuraviy qarashlardan xoli bo'lishi zarur, - degan edi. Shundan kelib chiqib aytadigan bo'lsak, Oliy o'quv yurtlarida O'zbekistonning eng yangi tarixini chuqur o'rganish yosh mutaxassis kadrlarning bugungi davr siyosatini, jahon hamjamiyatidagi o'rnini, ayniqsa o'zining ham shu ijtimoiy-siyosiy jarayon ishtirokchisi ekanligini to'g'ri va aniq anglashi jamiyat taraqqiyotida muhim ahamiyat ega.

Ushbu o'quv qo'llanmada, O'zbekistonning davlat mustaqilligiga erishishi arafasida yuzaga kelgan murakkab ijtimoiy - iqtisodiy vaziyat, davlat mustaqilligining e'lon qilinishi, mustaqillik yillarida respublikada amalga oshirilgan ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, ma'naviy sohalaridagi islohotlar va ularning bosqichlari, O'zbekistonning jahon hamjamiyatiga qo'shilishi kabi muhim masalalarning ilmiy va amaliy jihatlarini ochib berishga harakat qilingan.

O'zbekistonning eng yangi tarixi fanining asosiy maqsadi - tarixni o'qitish orqali o'quvchilar yurtimiz hududida kechgan ijtimoiy-siyosiy jarayonlarni mustaqil tahlil qilishga o'rganadi, mazkur jarayonlarning rivojlanish qonuniyat-lari, sabab va oqibatlarini tushunib hamda ochib berish orqali yoshlarning ilmiy dunyoqarashlarini shakllantirish, ularning ma'naviy-ma'rifiy salohiyatlarini yuksaltirish ajdodlar an'anasiga sadoqat, milliy o'zlikni anglashga o'rgatish asosiy maqsad qilib belgilanadi. Shuningdek, istiqlol yillarida mamlakatimizda amalga oshirilgan demokratik islohotlar ularning mazmun-mohiyati hamda ahamiyati ochib beriladi. O'zbekistonda demokratik jamiyat qurishda yangi tarixiy davrning boshlanishi, mamlakat Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning tashabbusi bilan olib borilayotgan islohotlar samarasini yanada oshirish, davlat va jamiyatning har tomonlama jadal rivojlanishi uchun shart-sharoitlar yaratish, mamlakatimizni modernizatsiya qilish hamda hayotning barcha sohalarini liberallashtirish bo'yicha ustuvor yo'nalishlarni amalga oshirish maqsadida tasdiqlangan, O'zbekiston Respublikasi 2017 - 2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi

bo'yicha Harakatlar strategiyasida ilgari surilgan ilmiy-nazariy metodologik belgilangan vazifalar ham asosiy vazifa etib belgilandi .

1-Mavzu: “O‘zbekistonning eng yangi tarixi” o‘quv fanining predmeti, maqsadi va vazifalari, nazariy-metodologik tamoyillari

Reja:

1. O‘zbekistonning eng yangi tarixi fanining predmeti, ob’ekti, maqsad va vazifalari
2. O‘zbekistonning eng yangi tarixi fanining nazariy-metodologik tamoyillari
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev barkamol avlod va ma’naviy yetuk shaxsni tarbiyalashda tarix fanining o‘rni va saboqlari xususida
4. O‘zbekiston tarixining jahon xalqlari tarixi bilan bevosita uyg‘unligi

Darsning o‘quv maqsadi: talabalarda O‘zbekistonning eng yangi tarixi fanining predmeti, maqsadi va vazifalari, uni o‘rganishning nazariy-metodologik tamoyillari, manbalari va O‘zbekiston tarixining jahon tarixi bilan bog‘liqligi to‘g‘risida bilimlar tizimini shakllantirishdan iborat.

Mavzu yuzasidan tayanch so‘z va iboralar: O‘zbekiston tarixi, fanning predmeti, ob’ekti, nazariy-metodologik asoslari, tarixiy manbalar, moddiy va yozma manbalar, sivilizatsiya, metod va metodologiya, ibtidoiy jamiyat, paleolit, mezolit, neolit, eneolit, “homo Sapienc”, kromanon, urug‘chilik jamoasi, matriarxat, patriarxat, o‘q-yoy, diniy tassavurlar, mis-tosh davri, bronza davri, temir davri.

O‘zbekistonning eng yangi tarixi fanining predmeti, ob’ekti, maqsad va vazifalari.

Tarix fani insoniyatning o‘tmishi, aholining turmush tarzi, jamiyat ijtimoiy taraqqiyotiga oid sodir bo‘lgan voqea va hodisalarni, insoniyat jamiyatining barcha tadrijiy (evolyusion) rivojlanish jarayonlarini o‘rganadi. Vatanimiz tarixi jahon tarixining ajralmas qismi bo‘lib, u ajdodlarimizning bosib o‘tgan tarixiy yo‘li, turmush tarziga oid ma’lumotlarni ma’lum izchillikda va ketma-ketlikda o‘rganadi. O‘zbekiston tarixi fanini o‘rganish orqali biz ajdodlarimizning hayoti, turmush tarzi xususida tushunchalarga ega bo‘lish barobarida, ularning jahon xalqlari tarixiy taraqqiyotiga qo‘shgan hissalarini haqida zarur ma’lumotlarga ega bo‘lamiz.

Tarix xususida xolis ma’lumotlarga ega bo‘lish uchun fanning predmeti va ob’ektini to‘g‘ri belgilab olish muhim ahamiyatga ega. Zero, hozirgi kunda tarixchilar oldida turgan muhim masalalardan biri bu, o‘zbek xalqi va uning davlatchilik tarixini fanning predmeti va uni o‘rganish ob’ektidan kelib chiqib, ma’lum nazariy-metodologik tamoyillarga suyangan holda haqqoniylik, xolislik asosida yoritishdan iboratdir. Ikkinchidan, tarix fanini o‘rganishda barcha ijtimoiy-gumanitar fanlar uchun xos barcha shakl va uslublarga tayaniladi, hatto uni o‘rganishda matematik usuldan ham foydalanilishi bejiz emas. Chunki tarixiy voqea va hodisalar qat’iy aniqlikda, davriy ketma-ketlikda, xronologik asosda o‘rganiladi. Ularni o‘rganishda tarixiy hujjat va dallilarning haqiqiy ekanligi, ular qachon, qayerda, qanday tarixiy muhit va sharoitda yaratilganligiga ham ahamiyat bermoq lozim. O‘zbekiston tarixi fani o‘tmishdagi ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy jarayonlarni, ularning

rivojlanishi va tanazzulining sabab hamda oqibatlarini o'rganadi, kishilarni ulardan kelajak uchun saboq va xulosalar chiqarishga undaydi. Bu esa bo'lg'usi avlodlar kamolotida katta ahamiyatga ega.

Fanning predmeti shu mintaqada sodir bo'lgan jamiki voqea va hodisalar, ulardagi umumiylik va aloqadorlik qonuniyatlari, tarixiy hodisa va jarayonlar, umuman insoniyatning barcha tarixiy faoliyat jarayonlarini o'rganishdir. O'zbekiston tarixi fanini o'rganish ob'ekti O'zbekiston tarixida sodir bo'lgan barcha voqea va hodisalaridir. Tarixiy ob'ekt (makon)ga nisbatan fanning maqsadi, vazifasi, yo'nalishini belgilaydi. Ma'lum bir ma'noda ob'ekt bilan predmet bir-biriga juda yaqin tushuncha bo'lsa-da, ular tarix fanida tutgan o'рни va vazifasi bilan farqlanadilar.

Ob'ekt, aniq tarixiy davr, makon, zamon va geografik va umumiy mintaqaviy chegaralar, ma'lum xalqlar, mamlakatlar tarixi bilan bog'liq jarayonlar bo'lib, ular voqea va hodisalarni bir butun va yaxlitlikda qamrab oladi. Shu boisdan ijtimoiy gumanitar fanlarning ob'ekti, aniq reallikda sodir bo'lgan va bo'layotgan ijtimoiy-siyosiy jarayonlar, o'zgarishlar, voqea va hodisalaridir. Predmet esa mana shu ob'ekt ichidagi aniq tarixiy-madaniy, ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlardan iborat bo'lgan aniq voqea va hodisalarni o'rganishdir.

Yuqorida tarix fani bir qator fanlar, xususan ijtimoiy-gumanitar fanlari bilan mustahkam va uzviy aloqada o'rganiladi, dedik. Shuni ham aytish lozimki, tarix va boshqa aksariyat ijtimoiy-gumanitar fanlarning o'rganish ob'ekti inson, davlat va jamiyatdir. Shuning uchun ham boshqa fanlar tarix fani taraqqiyotiga hissa qo'shadi, tarixiy haqiqat ro'yobga chiqishiga bevosita yordam beradi. Tarix fanini ya'ni, Vatan tarixini xolis o'rganish xalqimiz o'tmishi haqida zarur ma'lumotlarga ega bo'lishda muhim o'rin tutadi, xalqimiz kelajak taqdirini ravnaq topishida muhim ahamiyatga ega.

Zero, o'zbek xalqi va O'rta Osiyo mintaqasida azaldan birga istiqomat qilib kelayotgan xalqlar tarixi o'zaro mushtarak bo'lib, ular insoniyat tarixining ajralmas qismi hisoblanadi. Fanni o'qitishdan asosiy maqsad, vatanimiz tarixining qadimgi davridan hozirgi kungacha bosib o'tgan uzoq va murakkab tarixiy yo'lini, xalqning ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, madaniy va ma'naviy hayotini holisona o'rganish orqali fuqarolar, ayniqsa yoshlar ongida tarixiy xotira, ular qalbida vatanparvarlik, g'urur va iftixor tuyg'ularini shakllantirishdan iboratdir.

Talabalar fanni o'rganish jarayonida o'tmishda xalqimizning, ya'ni ajdodlarimizning hayoti, turmush-tarzi, ularning ajnabiy bosqinchilarga qarshi mustaqillik va ozodlik uchun kurashlari, mardligi va jasorati haqida kerakli ma'lumotlarga ega bo'ladilar, xalq qahramonlari, davlat arboblari, olimu-fuzalolar keng faoliyatlarini o'rganadilar. Shu bilan birgalikda talabalar mamlakatimizning mustaqillikka erishishi, mustaqillik yillarida jamiyatimizda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar, xalqimiz ma'naviy qadriyatlarining tiklanishi, demokratik fuqarolik jamiyat qurish yo'lida amalga oshirilayotgan o'zgarishlar xususida ma'lumotlarga ega bo'ladilar.

O'zbekistonning eng yangi tarixi fanining nazariy-metodologik tamoyillari. Tarixiy voqealarni o'rganishda to'g'ri ilmiy-nazariy, metodologik asoslarga tayanishning ahamiyati juda katta. Har qanday fan kabi O'zbekistonning eng yangi

tarixi fani ham o'zining metodologik ilmiy-nazariy asoslari va tamoyillariga ega. Bular O'zbekiston tarixi fanining asosini tashkil etib, uni rivojlanishi, jamiyat va millat manfaati yo'lidagi nufuzining ortib borishi uchun o'ta muhim hisoblanadi. Eng asosiysi, ilmiy-nazariy tamoyillar Vatan tarixining haqqoniy yozilishi, tarixiy haqiqatni yuzaga chiqishiga xizmat qiladilar.

Sovetlar hukmronligi davrida tarixiy tadqiqotlar, uni o'qitish va o'rganish ishlari markscha-lenincha metodologiyaga bo'ysundirildi. Har qanday voqeani yoritishga sinfiylik, partiyaviylik nuqtai-nazarlaridan yondoshildi. Tarixiy voqea va hodisalar kambag'allarni va yo'qsillarni himoya qilgan tarzda, ularning manfaatiga bo'ysundirilgan holda yoritildi. Tarix faqat jang-u jadal urushlardan iboratdek qilib ko'rsatildi.

Tarix fanining rivoji, uning metodologiyasi rivojiga bog'liq bo'lganidek, tarix fani metodologiyasi yuksak darajada takomil topishi tarix fani qay darajada ekanligiga ham bog'liq. Bu holdagi uzviy ikki tomonlama bog'liqlik umumiy qonuniyatidir. Mana shu o'zaro aloqadorlik qonuniyati, qadim mumtoz tarixshunosligimiz va hozirgi zamon tamadduni sivilizatsiyasiga asoslangan holda O'zbekistonning eng yangi tarixi fani metodologiyasi asoslariga quyidagilarni kiritish mumkin:

- tarixni milliy, umuminsoniy, muqaddas hodisa hamda qadriyat deb tushunmoq;
- tarixga hozirgi zamon sivilizatsiyasi nuqtayi nazari va bag'rikenglik asosida yondashish;

- tarixiy taraqqiyot asosini tadrijiy yo'l va islohotchilik tashkil etadi deb anglamoq;

- tarix va jamiyat taraqqiyotini markscha-lenincha soxta inqilobiy ta'limotga bog'lash, mutloq xato bo'lgan deb tushunmoq;

- tarix, jamiyat va tabiat hamda insoniyat (barcha tarixiy voqelik va jarayonlar) dialektika hamda sinergetika qonuniyatlari asoslarida rivojlanishi haqiqat ekanligi;

- tarix milliy va umuminsoniy xotira, millat va xalqlarning joni, tani hamda g'oyaviy-mafkuraviy muhofaza quroli ekanligi.

O'zbekistonning eng yangi tarixi fanining metodologik tamoyillari quyidagilardan iborat:

1. Tarixiylik tamoyili deganda ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy va madaniy jarayonlarni tarixiy jihatdan davriy ketma-ketlikda, o'zaro aloqadorlikda, yaxlit tarixiy jarayon sifatida, o'rganilayotgan zamon ruhi, axloqiy va huquqiy me'yorlari, hayot mezonlari nuqtai nazaridan talqin qilish va sharhlash tushuniladi.

2. Xolislik tamoyili o'rganilayotgan tarixiy jarayonlar xolis va betaraf o'rganilishini, voqea va hodisalarni biror g'oya yoki mafkura nuqtai nazaridan sharhlamaslikni, tarixiy jarayonlarni qanday bo'lsa shundayligicha qabul qilish va o'rganishni, yutuqlar bilan birga yo'l qo'yilgan kamchiliklardan ham ko'z yummaslikni, tarixni bayon qilishda ehtirolarga berilib ketmaslikni, tadqiqotchining g'oyaviy, siyosiy, mafkuraviy, diniy qarashlari, milliy mansubligi ustunlik qilmasligini, bir yoqlamalikka yo'l qo'ymaslikni, voqealarni tahlil qilishda bugungi kun nuqtai nazaridan yondashmaslikni, manbalarga tanqidiy munosabatda bo'lib, boshqa zamondosh manbalar bilan tasdiqlangan dalillargagina tayanishni, dalillarni soxtalastirmaslikni, ertak va afsona elementlaridan xoli bo'lishni anglatadi.

3. Manbalar bilan asoslanganlik tamoyili: bayon qilinayotgan tarixiy jarayon, keltirilayotgan har qanday faktlar chinakam ilmiy va asl manbalarga asoslangan bo'lmog'i lozim. Manbadagi xabarning haqiqatga qanchalik to'g'ri kelishi manbaga zamondosh bo'lgan boshqa manbalar ma'lumotlari bilan, agar ular mavjud bo'lmasa arxeologiya, numizmatika singari yordamchi tarix fanlari ma'lumotlari bilan qiyoslash orqali aniqlanadi.

4. O'zbekistonning eng yangi tarixining mintaqa va jahon tarixi bilan bog'liqligi tamoyili: har bir xalqning tarixi alohida ahamiyatga ega bo'lishi bilan birga ular umuminsoniyat tarixining ajralmas va uzviy tarkibiy qismini tashkil etadi. O'zbekiston tarixini umumjahon tarixining bir bo'lagi, ajralmas va muhim tarkibiy qismi sifatida o'rganish maqsadga muvofiqdir.

5. Milliy qadriyatlar, xalq an'analari, urf-odatlar, diniy e'tiqodlar, turli ijtimoiy tabaqalar manfaatlari va tarixiy-madaniy taraqqiyot nuqtai nazaridan yondashish tamoyili: har bir tarixiy voqea va hodisani o'rganishda milliy hamda mahalliy xususiyatlar, ya'ni har bir millat va elatning tili, dini, yashash hududi, ishlab chiqarish va boshqaruvni tashkil etish usuli, ruhiyati, urf-odatlar, rasm-rusum va an'analari va marosimlarini o'rganilayotgan davr axloqi nuqtai nazaridan to'la anglagan va har tomonlama hisobga olgan holda munosabatda bo'lish nazarda tutiladi.

O'zbekiston tarixi fanini o'rganishda tarixiy manbalarning o'rni va ahamiyati katta. Ular xalqning bebaho moddiy va ma'naviy merosi, boyligi hisoblanib muzeylarda, arxivlarda, kutubxonalarda saqlanmoqda. Manbalar o'z mazmuniga ko'ra, moddiy va yozma turlarga bo'linadi. Yozma manbalar eng qadimgi rasmlar, yozuvlar, bitiklar, hujjatlar va kitoblardan iboratdir. O'tmishda mamlakatimiz hududida va boshqa hududlarda bitilgan qadimgi va o'rta asrlarga oid yozma manbalarni o'rganish bo'yicha talaygina ishlar amalga oshirilgan bo'lishiga qaramay, bu yo'nalishda bajariladigan ishlar hali ko'p. Jumladan, mavjud manbalar ham xalqimiz tarixi, moddiy va ma'naviy qadriyatlari xususida to'liq, zarur va etarli ma'lumotlarni beravermaydi. Shu boisdan ularni sinchiklab o'rganish, tarjima qilish ilmiy tadqiq etish muhim. Xususan, Markaziy Osiyo, Eron, Ozarbayjon xalqlari tarixida muhim o'rin tutuvchi eng qadimgi manbalar qatorida zardushtiylik dinining muqaddas kitobi «Avesto», qadimgi davr tarixiga oid muhim manba, Erondagi Behistun qoyatosh bitiklari, qadimgi Rim, Yunoniston tirixchilarining yozib qoldirgan ayrim asarlarida hozirgi O'rta Osiyo xalqlari tarixi, turmush tarzi, moddiy va ma'naviy madaniyatiga oid zarur ma'lumotlar mavjud. Tarixiy manbalar qatorida shuningdek Abulg'oziyning «Shajari turk», Mirzo Ulug'bekning «To'rt ulus tarixi», Sharafiddin Ali Yazdiyning «Zafarnoma», Muhammad Yusuf Bayoniyning «Shajarai Xorazmshohiy» va shu kabi boshqa asarlarni ham tarixiy manba sifatida misol qilish mumkin. Shu bilan birga Amir Temurning «Temur tuzuklari», Zahiriddin Muhammad Boburning «Boburnoma» asarlarining ham muhim yozma manba sifatida keltirish o'rinli.

Tarixni o'rganishda arxeologik, etnografik, numizmatik va toponimik manbalar va ma'lumotlarning ham o'rni katta. Ular qatoriga qadimgi aholi manzilgohlari, shaharlar xarobalari, mozor va qo'rg'onlarning qoldiqlari, aholi turmushi va xo'jaligida ishlatilgan buyumlar, mehnat va jang qurollari, turli-tuman ro'zg'or

ashyolarini kiritish mumkin. Shunday manzilgohlar bugungi kunda respublikamizning Surxondaryo, Qashqadaryo, Toshkent vohasi, Xorazm, Farg‘ona vodiysi hududlaridan ko‘plab topilmoqda. Aslida maoddiy manbalar, bu inson qo‘li va mehnati bilan yaratilgan moddiy ashyolar va narsalardir. Moddiy manbalarga quyidagilar misol bo‘ladi:

- uy-joylar, ro‘zg‘or buyumlari;
- kiyim kechaklar va oziq-ovqatlar;
- transport vositalari, mashina va jihozlar;
- turli tarixiy topilmalar, moddiy ashyolar;
- bino va inshootlar, tarixiy yodgorliklar va boshqalar.

Tarixiy moddiy manbalar bu, asosan ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan va bizgacha etib kelgan ashyolar, narsa va buyumlardir. Moddiy va yozma manbalar asosida tarixiy ma‘lumotlarni solishtirib, haqqoniy tarixni talqin etish va o‘rganish bugungi muhim vazifalardan biridir. Umuman, talabalar manbalarni o‘rganish jarayonida o‘tmishda xalqimizning, ya‘ni ajdodlarimizning hayoti, turmush tarzi, ularning ajnabiy bosqinchilarga qarshi mustaqillik va ozodlik uchun kurashlari, mardligi va jasorati haqida kerakli ma‘lumotlarga ega bo‘ladilar. Xalq qahramonlari, davlat arboblari, olimu-fuzalolar faoliyatlarini o‘rganadilar.

Manbalar orqali talabalar mamlakatimizning mustaqillikka erishish yo‘lining murakkab jarayonlarda kechganligini, unga ulkan kurashlar evaziga erishilganiga, mustaqillik yillarida jamiyatimizda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar, xalqimiz ma‘naviy qadriyatlarining tiklanishi, fuqarolar ongida tarixiy xotira tuyg‘usini shakllantirish yo‘lida amalga oshirilayotgan ijobiy o‘zgarishlar xususida ma‘lumotlarga ega bo‘ladilar.

Shuningdek dars jarayonida muhim manbalar qatorida arxiv materiallaridan ham foydalanish muhim rol o‘ynaydi. Zero, arxivlarda xalq va davlat tarixiga oid yozma hujjatlar saqlanadi. Ma‘lumki arxiv materiallari barcha moddiy va ma‘naviy hamda yozma manbalar qatori tarixiy jarayonlarni haqqoniy, xolis o‘rganishda muhim ahamiyatga ega. Shu boisdan fanga oid mavzuni yoritishda arxiv materiallaridan foydalanish muhim rol o‘ynaydi. Zero tarix fanini o‘rganish ko‘p jihatdan tarixiy manbalarga tayanadi, usiz fanni va uning ob‘ektini tasavvur etib bo‘lmaydi. Xususan Respublikamiz Milliy Davlat Arxivlari, viloyatlar va tumanlarda joylashgan arxivlar mamlakatimiz tarixiga oid ko‘plab hujjatlar saqlanadigan muhim markazlardir. Darsda ular saqlanayotgan hujjatlardan unumli hamda o‘z o‘rnida foydalanish o‘qituvchidan katta mahorta talab qiladi.

Uzoq yillik sovet tuzumi hukmronligi yillaridagi mafkuraviy tazyiqlar, tarixni soxtalashtirishga urinishlar, ma‘naviy cheklashlarga qaramasdan ana shu hujjatlar va kitoblarning arxivlarda saqlanib qolganligi vatanimiz tarixini yanada to‘laroq, xolisona yoritilishiga, tariximiz sahifalaridagi «oq» va «qora» dog‘larning barham topishiga ko‘maklashmoqda. Bugungi kunda ulardan unumli foydalangan holda oliy o‘quv yurtlarida turli usulda darslar tashkil etish ham muhim ahamiyat kasb etadi. Umuman arxiv hujjatlaridan ilmiy-tadqiqot, xalq xo‘jaligi, ilmiy- ma‘rifiy va o‘quv maqsadlarida keng foydalaniladi. Hujjatli manbalar tarix fanini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etishi bilan birga, olimlar ularga asoslanib tariximizni haqqoniy yoritishga erishmoqdalar. Avvalombor arxiv hujjatlaridan nusxalar olib

ko'rgazmalar va muzeylar tashkil etilishi mumkin yoki O'zbekiston tarixining ayrim mavzulari bo'yicha hujjatlar to'plami tayyorlanib, ulardan ma'ruza yoki seminar darslarida foydalanish mumkin.

Darsda arxiv hujjatlaridan foydalanishda boshqa idoralar bilan hamkorlikda ishlash ham mumkin. Masalan, hujjatlar ko'rgazmasini muzeylar bilan birgalikda tayyorlash, hujjatlarni gazeta va jurnallar orqali e'lon qilish, ular asosida radioeshittirishlar va teleko'rsatuvlar tayyorlash, gazeta va jurnallar tahririyatlari, telestudiyalar, radioqo'mitalar bilan hamkorlikda amalga oshirish ham mumkin.

Shu bilan birga bugungi kunda yaqin va uzoq tariximiz bilan birgalikda, tarixning eng yangi davrini ham o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi. O'zbekistonning eng yangi tarix davrini o'rganishning ahamiyati shundaki, bunda biz nafaqat mustaqillik yillarida amalga oshirilgan islohot va o'zgarishlar haqida ma'lumotlarga ega bo'lamiz yoki o'rganamiz, balki buyuk kelajak bilan bog'liq istiqboldagi strategik maqsadlarimizni ham teran anglaymiz.

Avvalombor biz bugungi tinch osoyishta kunlarning qadriga etishimiz, mustaqilligimizni mustahkamlash, o'sib kelayotgan yosh avlod yaqin tariximizni chuqur o'rganishi, bunday kunlarga osonlik bilan erishmaganimizni tushunib, anglab etmog'imiz zarur. O'zbekistonning eng yangi tarixi – bu tarix fanining yangi yo'nalishidir. Shu bois, u o'z institutsional xarakteriga, o'z tadqiqot metodologiyasi, tadqiqot izlanishlariga va o'quv-metodik ta'minotiga ega bo'lgan fan sifatida shakllanganligi bejiz emas.

O'tgan davr mobaynida mamlakatimiz tarixidagi voqealar ko'lami va o'sish sur'ati fan va ta'lim oldiga ularni tizimli ravishda o'rganish vazifasini qo'ydi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012-yil 27-yanvardagi "O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta-maxsus ta'lim vazirligi huzurida O'zbekistonning eng yangi tarixi bo'yicha Jamoatchilik Kengashini tuzish to'g'risida"gi Qarorining qabul qilinishi hamda Kengashning ishchi organi bo'lgan Muvofiqlashtiruvchi-metodik markazning tashkil etilishi bunday tizimli anglashning naqadar muhimligidan dalolat beradi.

Kengashning vazifalariga O'zbekistonning yangi tarixini tizimli o'rganishni tashkil etish, tarixiylik va ob'ektivlik tamoyillariga asoslanib, o'zbek xalqining o'tmishi va bugunini tarixiy baholashda dogmatizm, bir tomonlama yondashuvlarga yo'l qo'ymaslik, darslik, ilmiy, o'quv-metodik adabiyotlarning yangi avlodini tayyorlash va nashr qilish ishlarini muvofiqlashtirishdir.

Bundan tashqari, O'zbekiston milliy davlatchiligining vujudga kelishi va taraqqiy topishining eng yangi tarixi bo'yicha o'quv-metodik, ilmiy-ommabop, ma'rifiy adabiyotlarni o'rganish, tayyorlash va chop etish borasida ilmiy, madaniy, ta'lim, jamoat muassasalari va tashkilotlari faoliyatini muvofiqlashtirish ishlarining samaradorligini oshirish, yoshlarda, avvalambor umumta'lim maktablari, kasb-hunar kollejlari, akademik litseylar o'quvchilarida, oliy o'quv muassasalari talabalarida mamlakat tarixi haqidagi chuqur bilimlarni shakllantirish masalalari dolzarb muammo sifatida e'tirof etildi.

Prezident Qarorida O'zbekistonning eng yangi tarixini tizimli ravishda tarixiylik va xolislik prinsiplariga asoslangan holda o'rganishni tashkil etish, shuningdek buyuk tarixiy-madaniy merosga ega bo'lgan va jahon sivilizatsiyasining rivojiga ulkan hissa

qo'shgan o'zbek xalqining tarixiy o'tmishi va bugungi kuniga baho berishda bir yoqlama yondashuvlarga, aqidaparastlikka yo'l qo'ymaslikka yo'naltirilgan bo'lib, unda O'zbekiston ilmiy jamoatchiligi oldiga o'quv, ilmiy, o'quv-metodik adabiyotlarni tayyorlash va yangi avlod nashrlarini chop etish bo'yicha ishlarni muvofiqlashtirish, ularda O'zbekistonning eng yangi tarixini umumjahon va mintaqaviy jarayonlar bilan, shuningdek hozirgi O'zbekiston hududida shakllangan xalqlar va davlatlar sivilizatsiyasining tarixiy-madaniy merosi bilan uzviy bog'liq holda ko'rib chiqishni ta'minlash kabi vazifalar belgilab qo'yildi.

Ushbu masalaning yana bir jihatini alohida takidlash joiz. Mafkura va milliy g'oya, ma'naviyat va ma'rifat bo'yicha ilmiy maqolalar, nashrlar va televideniedagi ko'rsatuvlar, ma'ruzalar tahlili shuni ko'rsatdiki, zamonaviy hayot (eng yangi tarix) masalalarining, voqealar va jarayonlarning muhokamasi ham muhim hisoblanadi.

Eng yangi tarixni o'rganishda yana bir muhim omil borki, u bugungi kun butunjahon tadqiqotlari tizimida ustuvor o'rinni egallab kelmoqda. Bu "tarixdagi inson" mavzusini tadqiq qilish, boshqacha aytganda, shaxsning, tarixiy siymoning hamda oddiy insonning uni o'rab turgan dunyodagi rolini o'rganish. Eng muhim vazifa eng yangi tarixni jiddiy metodologik va ilmiy asosga qurishdan iborat. Agarda biz fanning nazariy-metodologik asosni chuqur anglab etsak, bu bir vaqtning o'zida tarixni qalbakilashtirish va buzib ko'rsatishning oldini oladi.

Bizningcha, O'zbekiston Respublikasining mustaqillik yillarida bosib o'tgan yo'lining mazmun-mohiyatini ob'ektiv baholash hamda ularning xos xususiyatlarini inobatga olgan holda, O'zbekistonning eng yangi tarixi davrini bir qator bosqichlarga bo'lib o'rganish maqsadga muvofiq.

Bugungi kunda darslarni yangicha o'quv-uslubiy yondashuvlar, yangicha manbalar va materiallarga tayangan holda o'qitishga katta ahamiyat berilmoqda. Zero, bu O'zbekistonning umumjahon sivilizatsiyasining qadim o'choqlaridan biri ekanligini, uning jamiyatimiz uchun har tomonlama etuk, barkamol avlodni tarbiyalashdagi o'rni katta ekanligidan kelib chiqib, tarix avvalombor insonlarni g'oyaviy tarbilab, ularda milliy g'urur va iftixorni shakllantirishga katta hissa qo'shishini ta'kidlash o'rinli.

Shuningdek, talabalar fanni o'rganish jarayonida o'tmishda xalqimizning ya'ni ajdodlarimizning hayoti, turmush-tarzi, ularning ajnabiy bosqinchilarga qarshi mustaqillik va ozodlik uchun kurashlari, mardligi va jasorati haqida nazariy ma'lumotlarga ega bo'ladilar, xalq qahramonlari, davlat arboblari, olimu-fuzalolar keng faoliyatlarini o'rganadilar. Shu bilan birgalikda talabalar mamlakatimizning mustaqillikka erishishi, mustaqillik yillarida jamiyatimizda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar, xalqimiz ma'naviy qadriyatlarining tiklanishi, demokratik fuqarolik jamiyat qurish yo'lida amalga oshirilayotgan ijobiy o'zgarishlar xususida ma'lumotlar oladilar.

Albatta, bu qadimiy va tabarruk tuproqdan buyuk allomalar, fozillar, olimu ulamolar, siyosatchilar, sarkardalar etishib chiqqan. Ko'plab diniy va dunyoviy ilmlarning asoslari mana shu zaminda yaratilgan, sayqal topgan. Eramizgacha va undan keyin qurilgan murakkab suv inshootlari, shu kungacha o'z ko'rkini, mahobatini yo'qotmagan osori aktiqlarimiz qadim qadimdan yurtimizda

dexqonchilik, hunarmandchilik madaniyati, me'morchilik, shaharsozlik san'ati yuksak bo'lganidan dalolat beradi.

Tarixning muhim asoslaridan biri bu ilm va ma'rifatga intilishdir. Ma'rifiy va axloqiy fazilatlariga ega bo'lmagan kishilarda ilm – fanni o'rganishga, halol mehnat qilib, hunar egallashga ishtiyoq bo'lmaydi. Shu sababli, jamiyat taraqqiyotining barcha bosqichlarida avvalo o'sib kelayotgan yosh avlodni tarbiyalab, ularni tarixli qilishga muhim ahamiyat qaratilgan. Ma'rifatparvar alloma Abdulla Avloniy fikricha: *“Ilm dunyoning izzati, oxiratning sharofatidir. Ilm inson uchun g'oyat muqaddas bir fazilatdur, zeroki ilm bizga o'z ahvolimizni, harakatimizni oyna kabi ko'rsatur, zehnimizni, fikrimizni qilich kabi o'tkir qilur, ilmsiz odam mevasiz daraxt kabidur”*. Alloma ilmning nazariy ahamiyatini ko'rsatibgina qolmasdan, balki amaliy faoliyat uchun tarixiy zaruriyat ekanligini ham ta'kidlab o'tadi. *“Ilm bizni jaholat qorong'usidan qutqarur, madaniyat, tarix dunyosiga chiqarur, yomon fe'llardan, buzuq ishlardan qaytarur, yaxshi xulq, odob sohibi qilur. Butun hayotimiz, salomatligimiz, saodatimiz, sarvatimiz, maishatimiz, himmatimiz, g'ayratimiz, dunyo va oxiratimiz ilmga bog'liqdur”*.

Tarixga e'tibor jamiyatga e'tibordir. Uning yana bir ahamiyatli jihati shundaki, undagi uzviylik jamiyatning ma'naviy va intellektual salohiyatini kengaytirmoqda, davlatning ijtimoiy va ilmiy-texnik taraqqiyotini takomillashtirish omili sifatida jamiyatning barqaror rivojlanishini ta'minlamoqda.

Tarix insonning umumiy ma'naviy madaniyati saviyasini yuksaltirishga qaratilgan ta'lim va tarbiyadir. Tarixiy bilimlar turli sohalar, uslublar orqali insonlarga singdiriladi. Bular oila, maktabgacha tarbiya muassasalari, maktab, akademik litsey, professional ta'lim muassasalari, oliy o'quv yurtlari, jamoat tashkilotlari va boshqalardir. Tarix tom ma'noda insonning bugungi va o'tmish faoliyatining barcha jihatlarini qamrab oladi.

Agar o'tmishga murojaat qilsak, tarixning asosiy manbalari sifatida zardushtiylik dinining muqaddas kitobi “Avesto”, islom dinining muqaddas kitobi Qur'oni Karim, hadislar, Qobusnoma, Zafarnoma, Boburnoma, Temurnoma, Abu Rayhon Beruniyning “O'tmish xalqlardan qolgan yodgorliklar”, Abu ali Ibn Sinoning “Tib qonunlari”, Ahmad Yassaviy, Bahovuddin Naqshbandiylarning tariqatlari, Abu Nasr al-Forobiyning falsafiy qarashlari, Sohibqiron Amir Temurning o'g'itlari va boshqa manbalarni keltirish mumkin.

Buyuk alloma va mutafakkirlar, aziz-avliyolar etishib chiqqan joyda, avvalo, ilmu tarix, madaniyat va ma'naviyat o'choqlari rivojlangan bo'lishi kerak. Bo'm-bo'sh joyda hech qachon buyuk sivilizatsiya paydo bulmaydi. Jahon tarixi buni ko'p-ko'p misollarda isbotlab beradi.

Bunda asosiy manba sifatida xalqimizning chuqur moddiy va ma'naviy merosi, xalq og'zaki ijodiyoti namunalari, Vatanimizning boy tarixiy merosiga murojaat qilish orqali ularning teran negizlarini tushuntirish zarur. Yoshlarlarda milliy qadriyatlarni o'rganish, ularni asrab-avaylash, milliy qahramonlarimiz, ulug' ajdodlarimiz hayotiga qiziqishni uyg'otish muhim. Ayniqsa ommaviy tadbirlarda, bayramlar va turli yig'inlarda, mahallalarda, ta'lim muassasalarida turli mashg'ulotlar va to'garaklarda, darslarda va darsdan tashqari tadbirlarda yuqorida qayd qilingan masalalar xususida ma'lumotlar berib borish, bugungi kunda qo'lga kiritilayotgan

yutuqlarimiz zamirida buyuk o'tmishimiz va ota bobolarimizning tinimsiz mehnatlari yotganligini to'g'ri tushuntirmog'imiz lozim. Shu bilan birga mavjud yutuq va muammolarni chuqur tahlil etish, yoshlarni shaxsiy javogarlik, tanqidiy tahlil asosida ish yuritishga o'rgatishimiz lozim. Ayniqsa bunda ta'lim muassasalari, xususan professor-o'qituvchining shaxsiy ibrati, ta'lim va tarbiyasi muhimdir.

Ota-bobolarimizdan bizga meros qolgan bebaho asarlar insonlarning yanada ma'naviyatli, ma'rifatli bo'lishiga undab kelmoqda. Abu Ali ibn Sino, Abu Nasr Forobiy, Burxoniddin Marg'inoniy, Abu Rayhon Beruniy, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Mirzo Ulug'bek va boshqa ulug' allomalarimiz asarlari bunga yorqin misol bo'la oladi.

Shuningdek qadimiy yodgorliklarda xalqimizning azaliy urf-odatlarini, turmush tarzi aks etadi. Ma'naviy meros bu, madaniyatning tarkibiy qismlari: tarixiy madaniy boyliklar, yodgorliklar, qadriyatlar, adabiyot, san'at durdonalari, rivoyat va ertaklar, folklor namunalari, urf-odatlar, insonlardagi poklik, halollik, komil insonni tarbiyalash, ota-onaga hurmat-izzat, diniy e'tiqod, kiyinish madaniyati va boshqalardir. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, ajdodlarimiz jamiyat tarqqiyotidagi ma'naviy, iqtisodiy, siyosiy, madaniy va boshqa turli sohalarni o'zlarida mujassamlashtirgan va shu sohalarda o'z bilim malakalari orqali bitmas-tuganmas meros qoldirganlar.

Binobarin, Abu Nasr Forobiy falsafa, siyosat, adabiyot, musiqa, mantiq, Abu Ali Ibn Sino tibbiyot, falsafa, matematika, adabiyot; Abu Rayhon Beruniy mineralogiya, geodeziya, falsafa, tarix, geografiya, mantiq, matematika; Al-Xorazmiy matematika, astronomiya; Mirzo Ulug'bek astronomiya, tarix; Alisher Navoiy adabiyot, tasavvuf, Zahiriddin Muhammad Bobur tarix, adabiyot va ilm-fanning boshqa sohalarda bitmas-tuganmas meros qoldirdilarki, bu meros hozirgi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotgani yo'q.

Buyuk sarkardalar, olimlar, mutafakkirlarning davlat va jamiyatni boshqarish usullari haqidagi pand-nasihatlarini sifatida qoldirgan ma'naviy va moddiy merosi ma'naviyatimiz uchun muhim manbalardir. Xususan Sohibqiron Amir Temurning "Temur tuzuklari" o'z hukmronligi davridagi binolari, inshootlari kabi ma'naviy va madaniy meros namunalari sifatida asrlardan-asrlarga o'tib kelmoqda. Biz esa ularni ko'z-qorachig'idek asrashimiz zarur.

Sohibqiron davrida o'rnatilgan boshqaruv tizimi mamlakatning iqtisodiy va madaniy jihatdan mustahkamlanishiga, uning xalqaro mavqeining oshishiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi. Shuni aytish mumkinki, Amir Temur tomonidan olib borilgan adolatli boshqaruv siyosati xalq turmushining yaxshilanishiga, rivojiga katta ta'sir ko'rsatdi. Ikkinchidan esa tashqi siyosiy aloqalar, savdoga bo'lgan e'tibor tufayli xorijiy mamlakatlar bilan har tomonlama iqtisodiy aloqalar kuchayib, karvonlar qatnovi yo'lga qo'yilgan bir sharoitda chetdan keltiriladigan mahsulotlar tannarxining arzonlashishini ta'minladi. Bu esa, o'z navbatida, xalq farovonligi va turmush tarzining yaxshilanishiga xizmat qilgan.

Demak, yuqoridagi fikrlarimizni muxtasar qilib aytganda, avvalombor o'qituvchi o'z sohasini yaxshi biladigan, fidoyi, zamonaviy pedagogik texnologiyalardan unumli foydalanadigan, ularning yangi usullarini kashf eta oladigan, ijodkor pedagog bo'lishi lozim. Ta'lim tarbiya berishda o'qituvchi har

qanday vaziyatda oddiy usullarda ham mukammal ta'lim va tarbiya berish yo'llarini izlab topmog'i va ularni mohirona qo'llamog'i kerak.

Ayniqsa yoshlarni mamlakatimiz poytaxtining va tarixiy shaharlarimizning diqqatga sazovor joylari, maydon va xiyobonlari, muzeylariga tashriflarini ko'proq tashkil etish lozim. Samarqand, Buxoro, Xiva, Marg'ilon, Qo'qon, Termiz, Shaxrisabz kabi qadimiy shaharlarimiz yoki poytaxt Toshkent shahridagi "Mustaqillik" maydoni, "Shahidlar xotirasi" yodgorlik majmuasi, ikkinchi jahon urushida jonini fido etgan xalqimizning munosib farzandlari xotirasini abadiylashtirish maqsadida bunyod etilgan "G'alaba bog'i", "Shon-sharaf" muzeyi, "Matonat madhiyasi" monumenti, "Xotira maydoni", sohibqiron Amir Temur xotirasiga bag'ishlab barpo qilingan "Amir Temur xiyoboni" ga uyushtiriladigan har bir tashrif yoshlarlarda mustaqilligimiz, ona-yurtimizning shon-shuhratiga yuksak hurmat tuyg'ularini yuksaltirishi tabiiy.

Albatta, tarixiy merosimizning bir qancha turlari mavjudki, ular orasida muzeylar faoliyatining ham o'rni beqiyosdir. Hozirda birgina Madaniyat ishlari vazirligi tizimida turli sohalar bo'yicha 68 ta muzey mavjud bo'lib, bular 21 ta o'lkashunoslik, 10 ta badiiy, 14 memorial, 5 ta adabiy-memorial, 7 ta badiiy, 1 ta tabiiy-ilmiy muzeylardir. Madaniyat ishlari vazirligi qoshida "O'zbekmuzey" jamg'armasi tashkil etildi, o'zbek, ingliz, rus tillarida chop etiladigan ilmiy-amaliy, ma'naviy-ma'rifiy, rangli "Moziydan sado" jurnali ta'sis etilgan. Muzeylar ham yoshlarlarda milliy g'urur va iftixorni, boy madaniy merosimizga mehr muhabbat tuyg'ularini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Ta'lim tarbiya sifati bu shaxsning, insonning jamiyatning, davlatning xilma-xil ehtiyojlari, manfaatlariga muvofiqta'lim va tarbiya olayotgan shaxsni har tomonlama rivojlantirish yuzasidan, ularning ehtiyojlarini ta'minlashdir. Bunda ta'lim tarbiya olayotgan shaxsni har tomonlama rivojlanishi uchun ular ehtiyojlarini ta'minlovchi xizmatlarning iste'mol xususiyatlari muhim hisoblanadi. Ta'lim jarayonining har qaysi sub'ekti (pedagog, ta'lim tarbiya oluvchi, ota-ona, ma'muriyat va b.) ta'lim sifatini ta'minlanishdan manfaatdordir.

Hozirgi jadal o'zgarishlar va yangilanishlar sharoitida yoshlar dunyoqarashi, fikrlash tarzida teran o'zgarishlar ro'y bermoqda. Ta'lim tarbiya sifati va ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirishda birinchi navbatda yoshlarga tarixiy, ma'naviy, g'oyaviy bilim va tarbiya berish hamda ularda jamiyat manfaatlariga zid zararli g'oyalarga qarshi mafkuraviy immunitetni tarkib toptirish orqali O'zbekistonni buyuk kelajagiga erishish, har tomonlama etuk, yoshlarni voyaga etkazish muhim ahamiyat kasb etadi.

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev barkamol avlod va ma'naviy yetuk shaxsni tarbiyalashda tarix fanining o'rni va saboqlari xususida. Tarix fanini o'rganishda ma'lum nazariy-metodologik tamoyillar, ilmiy g'oya va nazariyalarning o'rni va ahamiyati katta. Ular tarix fanining mazmun va mohiyatini chuqurroq anglashga shuningdek fanni o'rganishning maqsad va vazifalarini kengroq ochib berishga yordam beradi. Shuning uchun ham uni ma'lum nazariy-metodologik tamoyillar, ilmiy-nazariy asoslariga tayangan holda o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu boisdan Birinchi Prezident Islom Karimov tarixning eng muqaddas milliy va umuminsoniy xotira hamda qadriyat ekanligini ta'kidlab,

“Tarixiy xotirasiz kelajak yo‘q”, “Yuksak ma’naviyat-engilmas kuch” nomli asarlarida "O‘zlikni anglash tarixni bilishdan boshlanadi, "Tarix-xalq ma’naviyatining asosidir" degan so‘zlarida tarixiy haqiqatni va ma’naviy o‘zlikni angalashga undovchi, teran ilmiy-nazariy fikrlarni ilgari surgan edilar.

Ushbu tamoyillar Prezident Shavkat Mirziyoev tomonidan izchil davom ettirilib, mustaqillik yillarida haqqoniy tariximizni o‘rganish borasida ko‘plab ilmiy va nazariy xulosalarni berib kelmoqda. Ayniqsa uzoq yillar mobaynida yo‘l qo‘yilgan ayrim xato va kamchiliklarni ro‘y rost tanqidiy tahlil qilinishi ham muhim voqea bo‘ldi. Bu borada o‘z fikr mulohazalarini bildirgan Prezidentimiz quyidagilarni qayd etadi: “Afsuski, yurtimiz tarixini o‘rganishda o‘tgan davrlarda arxeologik tadqiqotlar yetarli darajada olib borilmadi. Shuning uchun Fanlar akademiyasining Arxeologiya va San’atshunoslik institutlari faoliyatini, oliy o‘quv yurtlari va muzeylardagi arxeologik izlanishlarni chet ellik hamkorlar bilan birga tashkil etish zarur. Buyuk alloma va adiblarimiz, aziz-avliyolarimizning bebaho merosi, engilmas sarkarda va arboblarning jasoratini yoshlar ongiga singdirish, ularda milliy g‘urur va iftixor tuyg‘ularini kuchaytirishga alohida e‘tibor qaratishimiz kerak. Shu maqsadda, O‘zbekiston Milliy teleradio kompaniyasi tarkibida “O‘zbekiston tarixi” kanalini tashkil etib, ilmiy jamoatchilik, ijodkor ziyolilarimiz bilan birgalikda uning dasturlarini puxta shakllantirish kerak. Mamlakatimiz muzeylarida saqlanayotgan tarixiy eksponatlarni to‘liq xatlovdan o‘tkazish, har bir muzeyning katalogini yaratish lozim”.

Qadimgi noyob yodgorliklar, madaniy meros ob’ektlarining tarixiy-madaniy qimmatini, ularni asrab avaylash, xalqimiz, jumladan yosh avlod tarbiyasi va ma’naviyatida tutgan o‘rni xususida gapirgan mamlakatimiz Prezidenti Shavkat Mirziyoev, birgina Axsikent arxeologik yodgorligi misolida qayd etadi: Tarixiy manbalarda, xususan, “Boburnoma”da bu kentning alohida ahamiyati haqida ko‘p yozilgan. Qadimdan bu yerda yer osti suv inшоati bo‘lgani bois mudofaa uchun qulay sanalgan 60 gektarga yaqin qismi saqlanib qolgan Axsikent xarobalari Farg‘ona vodiysidagi eng katta arxeologik yodgorlikdir. Arxeologlar tomonidan temirchilar ustaxonasi, X-XIII asrlarga oid hammom qoldiqlari, askarlar xonalari, jome masjidi, mudofaa devorlari, yer osti irrigatsiya tarmoqlari, hunarmandlar mahallasi, hukmdor qarorgohi – Ark qazib o‘rganilgan. Bunday tarixiy yodgorliklar O‘zbekiston hududida ko‘plab topiladi. Tarix fanini o‘rganish ko‘p ma’nodan tarixiy manbalarga tayanadi. Busiz umuman fanni va uning ob’ektini tasavvur etib bo‘lmaydi. Zero, bizgacha etib kelgan bunday moddiy va yozma manbalar O‘zbekiston tarixini o‘rganishda muhim ahamiyatga ega ekanligi bilan xarakterlidir”.

Tarix fani va unga oid bilimlar jamiyat manfaatlariga, insonlarning ma’naviy dunyosiga ijobiy ta’sir qilishi, kishilarda tarixiy xotira, ajdodlar merosidan faxrlanish tuyg‘usini uyg‘ota olishi lozim. Bu borada o‘z fikrlarini bayon qilgan Prezidentimiz Shavkat Mirziyoev 2018-yil 28-dekabrda Oliy Majlisga qilgan Murojaatnomada, oldimizga qo‘ygan ulkan vazifalarni amalga oshirishda biz uchun kuch-qudrat manbai bo‘ladigan milliy g‘oyani rivojlantirishimiz zarur. Vatanimizning qadimiy va boy tarixini o‘rganish, bu borada ilmiy-tadqiqot ishlarini kuchaytirish, gumanitar soha olimlari faoliyatini har tomonlama qo‘llab-quvvatlashimiz lozim. O‘tmishga berilgan baho albatta xolisona, eng muhimi, turli mafkuraviy qarashlardan xoli

bo'lishi zarur, - degan edi. Aynan ushbu Murojaatnomada xalqimiz tarixi, moddiy va ma'naviy madaniyatini keng jamoatchilikka etkazish hamda jahon miqyosida targ'ib qilish maqsadida O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi negizida "O'zbekiston tarixi telekanali"ni tashkil qilish taklifini ilgari surgan edi. Mazkur taklif asosida 2019-yil 1-sentyabrdan boshlab ushbu telekanal o'z ish faoliyatini boshladi.

Davlat rahbari o'z chiqishlari va murojaatlarida 2020-yilda xalqimiz tarixining murakkab damlarida, ma'rifat mash'alini baland ko'tarib chiqqan alloma va adib Mahmudxo'ja Behbudiyning 145 yillik tavallud sanasini keng nishonlanishini bildirib o'tdi. Xususan, Prezidentimizning ta'kidlashicha, *"...biz jadidchilik harakati, ma'rifatparvar bobolarimiz merosini chuqur o'rganishimiz kerak. Bu ma'naviy xazinani qancha ko'p o'rgansak, bugungi kunda ham bizni tashvishga solayotgan juda ko'p savollarga to'g'ri javob topamiz. Bu bebaho boylikni qancha faol targ'ib etsak, xalqimiz, ayniqsa, yoshlarimiz bugungi tinch va erkin hayotning qadrini anglab etadi"*.

2020-yilda Oliy Majlisga qilingan Murojaatnomada Prezident Shavkat Mirziyoev "bir haqiqatni hech qachon unutmaylik: Biz buyuk tarix, buyuk davlat, buyuk madaniyat yaratgan xalqimiz. Biz – hech qachon mehnatdan qochmaydigan, qiyinchilikdan qo'rqmaydigan, adolatni qadrlaydigan, azmu shijoatli buyuk xalqimiz. Barchamiz bir tanu bir jon bo'lib, yakdil va ahil bo'lib harakat qilsak, halol-pok bo'lib, yaxshi niyat bilan mehnat qilsak, har qanday marralarni egallashga, boshqacha aytganda, tarixning yangi sahifasini yaratishga qodirmiz. Bu yo'lda qanday qiyinchilik va mashaqqatlar bo'lmasin, barchasini mardona engib o'tishga tayyormiz. Bunday ezgu ishlarda bizga Yaratganning o'zi, buyuk ajdodlarimizning pok ruhlari madadkor bo'ladi, deb ishonaman" deganligi yanada ahamiyatli bo'ldi.

Xalqimiz yangi tarixining muhim voqelaridan biri sifatida Prezidentimiz tashabbusi bilan poytaxt Toshkent shahrining Olmazor tumanida ikkinchi jahon urushida qozonilgan buyuk g'alabaning 75 yilligiga bag'ishlab "G'alaba bog'i", "Shon-sharaf" muzeyi, "Matonat madhiyasi", "Mangu jasorat" monumenti barpo etildi.

Mazkur ulug'vor majmuaning barpo etilishi xalqimiz tarixining hamda shonli o'tmishining yorqin namunasi bo'ldi. Chunki o'zbekistonliklar ikkinchi jahon urushining g'alaba bilan yakunlanishida ulkan hissa qo'shdilar. Lekin shu paytgacha bu jasoratni bor ko'lami bilan ko'rsatib beradigan yaxlit majmua hali respublikamizda yo'q edi. Davlatimiz ilmiy-ijodiy jamoatchiligining takliflari, xorijiy mamlakatlar tajribasi asosida tez 1-



orada alohida badiiy-me'moriy konsepsiya ishlab chiqildi. Ushbu konsepsiya asosida g'alaba sharafiga ulug'vor va betakror majmua bunyod etildi.

Har jihatdan puxta ishlangan loyihlar asosida shakllantirilgan bu yerdagi majmua timsolida xalqimizning qonli janglardagi mardligi va front ortidagi mashaqqatli mehnati va fidoiyligi aks ettirildi. 2020-yilning 9-may kuni “Buyuk g‘alabaning 75 yilligi hamda Xotira va qadrlash kuni” ga bag‘ishlab o‘tkazilgan tantanali tadbirda davlatimiz rahbari quyidagilarni qayd etdi: *“Men avvalgi chiqishlarimda el-yurtimizning buyuk g‘alabaga qo‘shgan hissasi hali to‘liq o‘rganilmagani haqida gapirib, jaoatchiligimiz e‘tiborini shu masalaga qaratgan edim. Bugun mamnuniyat bilan aytmqochimaniki keyingi yillarda shu yo‘nalishda juda katta ishlarni amalga oshirdik”*.

Avvalo, ilgari yopiq bo‘lgan arxiv hujjatlarini ilmiy jamoachilik uchun ma‘lum bo‘lmagan materiallarni o‘rganish uchun imkoniyat yaratildi. Bu borada sobiq ittifoq respublikalari va chet ellardagi arxiv tashkilotlari, muzeylar va fondlar, tarixchi olimlar va mutaxassislar, keng jamoatchilik bilan hamkorlik kuchaytirildi. Ana shunday ilmiy izlanishlar natijasida xalqimizning ikkinchi jahon urushidagi ishtiroki haqida, qahramon ajdodlarimiz haqida juda muhim yangi ma‘lumotlarga ega bo‘ldik. Hozirgi vaqtda ular ommaviy axborot vositalarida, kitob va albomlarda keng yoritilmoqda. Ikkinchi jahon urushi yillaridagi tariximizni o‘rganishda tom ma‘noda yangi davr boshlandi, deb aytishga bugun barcha asoslarimiz bor. Masalan, shu vaqtga qadar urush boshlangan paytda yurtimiz aholisi 6 million 551 ming kishini tashkil etgan va ularning 1 million 500 mingga yaqini urushda ishtirok etgan, deb hisoblanar edi. Yangi topilgan ma‘lumotlarga ko‘ra, O‘zbekistondan 1 million 951 mingga yaqin kishi urushga safarbar etilgani aniqlandi. Demak, har uch nafar o‘zbekistonlikdan bittasi qo‘liga qurol olib, fashizmga qarshi jang qilgan. Ayovsiz janglarda mardona qatnashgan qariyb 451 ming nafar yurtdoshimizning nomlari va taqdiri shuncha yillar mobaynida e‘tibordan chetda qolib kelganini, albatta, adolatdan deb, bo‘lmaydi.

4 . O‘zbekiston tarixining jahon xalqlari tarixi bilan bevosita uyg‘unligi. O‘zbekiston insoniyatning qadimgi o‘choqlaridan biri ekanligi, o‘lkamiz hududlaridan topilgan qator moddiy yodgorliklar, xususan qadimgi aholi manzilgohlari, shaharlar va qo‘rg‘onlar, qadimgi qabrlar, uy-joy qoldiqlari o‘rnidan topilgan ashyolar to‘la tasdiqlaydi. beriladi. Bular qatorida Machay, Qo‘shilish, Selung‘ur, Obiraxmat, Omonqo‘ton, Teshiktosh, Qo‘turbuloq, Zamonbobo,



Sopollitepa, Jarqo‘ton, manzilgohlari va yodgorliklari alohida o‘rin egallaydi. Shuningdek Farg‘ona vodiysidagi Selung‘ur (So‘x tumanida joylashgan) g‘ori ilk paleolit davriga oid manzilgoh bo‘lib, u o‘n uchta madaniy qatlamdan iborat ekanligi aniqlangan.

Bu qatlamlardan juda ko‘plab ibtidoiy tosh qurollar, turli ashyolar va buyumlar

topilgan bo‘lib, olimlarning fikricha ularning yoshi 1 mln. yildan ziyodroq ekanligi qayd etilmoqda. Selung‘ur topilmalari orasidan eng ahamiyatlisi qadimgi odam jag‘ suyaklari, tishlari va elka suyaklari qoldiqlari bo‘lib, ushbu topilma fanda "*Farg‘ona odami*"-"*Fergantrop*" deb nomlangan. Bu qazilmalar va qadimgi odam qoldiqlari O‘rta Osiyo, xususan Farg‘ona vodiysida ibtidoiy odamlar izlari mavjud ekanligini tasdiqlaydi. Zero, bu davrda dunyoning boshqa mintaqalarida Zinjantrop, Pitekantrop, Sinantrop va Neandertal kabi insoniyatning ilk vakillari yashaganlar.

Ma‘lumki, odamzot birinchi bor mehnat qila boshlaganidan boshlab to dastlabki urug‘ jamoalari bo‘lib uyushishiga qadar bo‘lgan “ibtidoiy to‘da” davrini boshidan kechirgan. Bu davr odamzotning ilk shakllanish bosqichi bo‘lib, bu davrda Zinjantrop, Pitekantrop, Sinantrop va Neandertal kabi ilk inson ajdodlari tabiatdan o‘z rizqini termachilik va yirik hayvonlarni ov qilish yo‘li bilan topgan o‘ljasi hisobiga yashaganlar. Bu davrda na ishlab chiqarish, na jamoatchilik bo‘lgan edi. Aslida, “ibtidoiy urug‘chilik jamoasi davri” tarixi urug‘ jamoalarining tashkil topishidan, ya‘ni ona urug‘i jamoasi qaror topgan davrlardan boshlanadi.

Insoniyat tarixini arexologik davrlashtirishda bu davr qadimgi tosh davrining yuqori paleolit bosqichiga to‘g‘ri keladi. Bu davrga kelib, odamzot har tomonlama mukammal odam holiga keladi. Shuning uchun ham bu davr odami “*homo sapiens*” odami, ya‘ni aql-idrokli odam deb yuritiladi. Bu davrga kelib kishilik tarixida qator ixtirolar yuz bergan. Xususan odamzotning ilk jamoasi, jamiyatning dastlabki kurtagi-matriarxat, ya‘ni ona urug‘i, urug‘chilik jamoasi tarkib topgan. Buyuk muzliklar erib, shimolga chekinishi bilan odamlar g‘or va ungurlardan chiqib birinchi bor o‘zlariga kulbalar qurishni o‘rganadilar. Aynan shu davrga kelib, insoniyatning uch irqi shakllanadi. Shu davrdan boshlab “ibtidoiy urug‘chilik jamoasi” davri tarixi boshlanadi.


Umuman olimlarning tadqiqotlariga ko‘ra eng qadimgi davr ilk paleolit ya‘ni ilk tosh davri, bundan taxminan 3-2,5 million yilliklardan, 100 ming yilliklargacha bo‘lgan davrni, o‘rta paleolit bundan taxminan 100-40 ming yilliklarni, so‘ngi paleolit miloddan taxminan 40-12 ming yilliklarni o‘z ichiga oladi. Ibtidoiy jamiyatning ikkinchi bosqichi mezolit davri deb yuritiladi. Bu davr miloddan avvalgi 12-7 ming yilliklarni, neolit davri ya‘ni yangi tosh davri esa miloddan avvalgi 6-4 ming yilliklarni, eneolit ya‘ni mis-tosh davri esa miloddan avvalgi 4-3 ming yilliklar boshlarini, bronza davri miloddan avvalgi 3-2-ming yilliklar oxirlarini va ilk temir davri esa miloddan avvalgi 2 ming yilliklar oxiri va 1 ming yillar boshlarini qamrab oladi.

Turonzamin hududlarida shakllangan qadimiy din - zardushtiylikning muqaddas kitobidir. Unda o‘zbek, tojik, turkman, ozarbayjon, fors, afg‘on va boshqa xalqlarning ibtidoiy va qadimiy axloqiy tasavvurlari, koinot va yerdagi dunyoning yaratilishi bilan bog‘liq tushunchalar, afsona va rivoyatlar, falsafiy-axloqiy qarashlar o‘z ifodasini topgan.

“Avesto”da zardushtiylarning muqaddas olovi – “azar-xurra” birinchi marta yoqilgan mamlakat, hamda Axuramazda Zardushtga nomoyon bo‘lgan mamlakat sifatida “Aryonam vayjo” eslatiladiki “Avesto”da keltirilgan geografik-iqlimiy sharoitlar ko‘proq Xorazmga mos keladi. Shuningdek, “Avesto”da Axuramazda tomonidan yaratilgan mamlakatlar sanab o‘tilgan. Birinchi o‘rinda “Aryanam-vayjo” (Xorazm) turib, “go‘zallikda u bilan dunyoda hech narsa tenglasha olmaydi” deyiladi. Keyin “odamlarga va chorvaga boy Gava (So‘g‘d)”, “Qudratli va muqaddas Mouru (Marg‘iyona)”, “Bayroqlari baland ko‘tarilgan mamlakat Bahdi (Baqtriya)” ta‘riflanadi. Yuqoridagi ma‘lumotlarga asoslanib “Avesto” Vatani O‘rta Osiyo ekanligi haqida xulosa chiqarishimiz mumkin. “Avesto”ni fransuz olimi Anketil Dyu Peron birinchi bo‘lib tadqiq etgan. 1771-yilda u “Avesto”ni fransuz tiliga tarjima qiladi. Dastlabki “Avesto” 21 ta kitobdan iborat bo‘lgan. Bizgacha “Avesto”ning Yasna – “qurbonlik keltirish”, Visprat –“hamma hukmronlar”, Yasht –“qadrlash”, Videvdat –“devlarga qarshi qonun” qismlari saqlanib qolgan. “Avesto”da ahmoniylargacha bo‘lgan geografik, hududiy nomlar, atamalar, ijtimoiy-iqtisodiy ma‘lumotlar, siyosiy tarix, diniy falsafa va turli ma‘lumotlar saqlangan. “Avesto”da tilga olingan ko‘plab mamlakatlar – Markaziy Osiyo (Xorazm, Zarafshon vohasi) va O‘rta Sharq, Afg‘oniston, Eronning shimoliy-sharqiy hududlari bilan bog‘liqdir. Yasht qismlari oriylarning yerlari haqida quyidagicha e‘lon qiladi: “U mamlakatning jasur sardorlari ko‘pdan ko‘p harbiy yurishlar qiladi, Uning keng yaylovlarga ega, suvga serob tog‘larida chorva tinch o‘tlov va emish bilan ta‘minlangan, bu yerdagi sersuv chuqur ko‘llar to‘lqinlanib turadi, kema qatnaydigan keng daryolarning oqimi Pourutadagi Eskta, Xaravaydagi Mouru, So‘yoddagi Gava va Xvarizam tomoniga toshib intiladi”.

“Avesto” ma‘lumotlariga ko‘ra, Kayoniylar sulolasining so‘nggi vakillaridan biri Kavi Vishtasp payg‘ambar Zaratushtraga homiylik qiladi. Zaratushtra yashab faoliyat ko‘rsatgan davr xaqida aniq fikr yo‘q. Tadqiqotchilar bu davrni mil.avv. II ming yillik o‘rtalaridan milodiy I ming yillik o‘rtalarigacha deb belgilaydilar.

Zardushtiylik dini Ahmoniylar saltanatining (mil.avv.VI-IV asr) davlat diniga aylantirilgan. Zardushtiylikning g‘oyalari matnlari miloddan avvalgi



IV asrda to‘planib, 21 kitob qilinadi. Abu Rayhon Beruniyning yozishicha “Podsho Doro ibn Doro xazinasida 12 ming qoramol terisiga tillo bilan bitilgan bir nusxa bor edi. Iskandar otashxonalarni vayron etib, ularda xizmat qiluvchilarni o‘ldirgan

vaqtida uni kuydirib yubordi. Shuning uchun ham Avestoning 3/5 qismi yo‘qolib ketdi”.

Sosoniylar (224-651-yillar) davriga kelib “Avesto” tili “o‘lik”, tushunarsiz bo‘lib qolgan, ammo to‘plamda eski so‘zlar va tushunchalarning hammasi saqlangan. “Avesto” tili eroniy tillarning eng qadimgi shevalaridan biri bo‘lgan va, olimlar fikriga ko‘ra, qadimgi fors tiliga nisbatan ancha oldingi bosqichda, miloddan avvalgi II ming yillikning oxiri I ming yillikning boshlarida paydo bo‘lgan.

Zardushtiylarda oilaning muhim tarkibiy qismi bo‘lgan muomala odobi, xulqi, insonning tashqi madaniyati, o‘zaro munosabatlaridagi o‘zni tutish qonun-qoidalari xususida atroflicha bayon etilgan. Unda bayon qilingan yaxshilik va yomonlik mezonlarini teran anglash har bir insonning halol mehnat asosida rizq topishiga, hunar va ilm olishiga, o‘zgalarni hurmat qilishiga, oila va jamiyatni teran anglab etishiga xizmat qiladi.

Shuningdek u butun insoniyatni ezgulikka chorlovchi, komillik sari etaklovchi, tabiat, jamiyat va insonni axloqiy va estetik mezonlar asosida uyg‘unlashtiruvchi har qanday ma‘naviy tarbiya jarayonining tamal toshlaridan biridir. Ajdodlarimizning tabiat va jamiyatda yaxshilik va go‘zallikni qaror toptirish uchun yer, olov va havoni ilohiylashtirgan holda insonda yuksak insonparvarlik fazilatlarini ko‘zda tutganlari hamon o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan. Unda oila va jamiyat, inson olamining azaldan yaxlit va bir butun ekanligini uqtirish natijasida har bir inson tabiat ne‘matlaridan bo‘lgan suvni tejash, bulg‘amaslik, tuproqni iflos qilmaslik, hayotda doimo ozodalikka rioya qilib yashash tamoyillariga amal qilsa, uning doimo g‘olib bo‘lishiga ishonch tuyg‘usini shakllantirib, har bir insonni ana shu tamoyil asosida yashash ruhida tarbiyalaydi. Bu borada diniy va ijtimoiy ta‘limotga ko‘ra oilada sog‘lom turmush tarzi, tozalik, ozodalik, pokizalik kabi madaniyatning muhim elementlari targ‘ib etiladi. Unda nafaqat xalqimizning yuksak axloqiy-estetik madaniyatining namunasi, balki umuman Markaziy Osiyo xalqlarining buyuk ma‘naviy xazinasidir. Zero, “Avesto” Turon, Xuroson, Ozarbayjon, Iroq, Eron, Kichik Osiyo xalqlarining miloddan avvalgi qadimgi davrdagi ijtimoiy-iqtisodiy hayoti, diniy qarashlari, olam va odam to‘g‘risidagi tasavvur, urf-odat va ma‘naviy qadriyatlari haqida ma‘lumot beruvchi manbadir.

Axloqiy madaniyatning ko‘rinishlari, ayniqsa oilada farzandlarga va ota onaga bo‘lgan munosabat muammolari bilan bog‘liq masalalarga katta e‘tibor qaratilganini ko‘rish mumkin. Zardushtiylar uchun butun tabiatni – yer, suv, daraxt, o‘simlik, jonivorlarni e‘zozlash, yerga ishlov berib, sug‘orib, bog‘-rog‘lar va ekinzorlar barpo etish, chorvachilikni keng yo‘lga qo‘yish, suv va olovni muqaddas tutish bir so‘z bilan aytganda bunyodkorlik, yaratuvchanlik hayotiy maqsad bo‘lgan. Muqaddas manbadagi axloqiy-estetik madaniyat insonlarni mehnat qilib, o‘z qo‘llari bilan moddiy boyliklar yaratib to‘q, farovon hayot kechirishga dav‘at etilganligida aks etadi. Zero inson o‘z mehnati orqali tevarak-atrofdagi narsa va hodisalarni o‘zgartiradi, ularni insoniylashtiradi va nafoslashtiradi. Shu asnoda o‘zining ham axloqiy-estetik madaniyatni yuksaltiradi.

Mazkur muqaddas manba butun insoniyatni ezgulikka chorlovchi, komillik sari etaklovchi, tabiat, jamiyat va insonni axloqiy va estetik mezonlar asosida uyg‘unlashtiruvchi qadriyatdir. Har qanday ma‘naviy tarbiya jarayonining tamal

toshlaridan biridir. Insoniyat tarixi yaxshilik va yomonlik, go‘zallik va xunuklik, ezgulik va yovuzlik, bunyodkorlik va buzg‘unchilik o‘rtasidagi tinimsiz kurashlardan iborat ekanligini ko‘rsatar ekan, bunda kimki “ezgu fikr, ezgu so‘z, ezgu amal” tamoyiliga amal qilsa, uning doimo g‘olib bo‘lishiga ishonch tuyg‘usini shakllantirib, har bir insonni ana shu tamoyil asosida yashash ruhida tarbiyalaydi.

Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar

1. O‘zbekistonning eng yangi tarixi fanining predmeti nimalar iborat?
2. O‘zbekistonning eng yangi tarixi fanining maqsad va vazifalari?
3. O‘zbekistonning eng yangi tarixi fanining nazariy-metodologik tamoyillari
4. Barkamol avlod va ma‘naviy yetuk shaxsni tarbiyalashda tarix fanining o‘rni va saboqlari xususida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning fikrlari haqida nima deya olasiz?
5. O‘zbekiston tarixining jahon tarixi bilan bog‘liqligi to‘g‘risida nimalarni bilasiz?
6. Hozirgi jadal o‘zgarishlar va yangilanishlar sharoitida yoshlar dunyoqarashi, fikrlash tarzida qanday o‘zgarishlar ro‘y bermoqda?
7. Tarixiylik tamoyili deganda nimalarni tushunasiz?
8. Turonzamin hududlarida shakllangan qadimiy din - zardushtiylikning muqaddas kitobi haqida nimalarni bilasiz?

Testlar

1. O‘zbekiston Respublikasining mustaqilligi qachon qabul qilingan?
A. 1991- yil 29- mart B. 1991-yil 31- avgust
C. 1990-yil 20 - iyun D. 1992- yil 1- sentyabr
2. Sovet davrida afsona, ertaklar, dostonlarimizning yo‘q qilinishi haqida qaysi olim ma‘lumot bergandi?
A. M. Murodov B. A. Asqarov C. B. Ahmedov D. I. Begaliyev
3. “Marifat- shijoatdir” ushbu so‘zlar kinga tegishli?
A. Mahmudxo‘ja Behbudiy B. Munavvarqori Abdurashidxonov
C. Fayzulla Xo‘jayev D. Abdulla Avloniy
4. Ey ulug‘ Turon, arslonlar o‘lkasi! Senga ne bo‘ldi?..... misralarining muallifi kim?
A. Abdurauf Fitrat B. Cho‘lpon
C. Abdulla Avloniy D. Usmon Nosir
5. “Biz uchun mustaqillik eng avvalo o‘z taqdirimizni o‘z qo‘limizga olish, o‘zligimizni anglash, milliy qadriyatlarni, urf-odatlarimizni tiklash, hammamiz uchun mo‘tabar shu Vatanda har bir xonadonda tinchlik- totuvlikni, barqarorlikni saqlashdir” quyidagi ushbu fikrlarning muallifi kim?
A. Sh. Mirziyoyev B. O. Sharafiddinov
C. I. Karimov D. H. Ziyoyev
6. SSSR parchalanib nechta mustaqil mamlakatlar tashkil topdi?
A. 18 ta B. 22 ta C. 15 ta D. 12 ta
7. SSSR Prezidentlik Kengashida Bosh Ministirning mamlakatni bozor iqtisodiyotiga o‘tkazish haqidagi axboroti qachon bo‘lib o‘tdi?

- A. 1990- yil 25- iyul B. 1992- yil 16- sentyabr
C. 1991-yil 27- iyun D. 1993- yil 26-mart
8. “500 kun” programmasi qachon qabul qilindi?
A. 1989-yil 7-iyun B. 1990- yil 11-sentabr
C.1991- yil 6-fevral D. 1992- yil 19-aprel
9. O'zbekistonning iqtisodiy konsepsiyasi muhokama uchun qachon e'lon qilindi?
A. 1991-yil 3-fevral B. 1990-yil 14-avgust
C. 1991-yil 2-dekabr D. 1990-yil 17-oktabr
10. O'zbekiston Respublikasining mustaqillik deklaratsiyasi qachon qabul qilindi?
A. 1991y B. 1989y C. 1992y D. 1993y

2-mavzu: Mustaqillikka erishish arafasida O‘zbekistondagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlar

Reja:

1. XX asr 80-yillari o‘rtalarida respublika ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va ma’naviy hayotidagi inqirozli holat
2. Markazning O‘zbekistonda amalga oshirgan qatag‘on siyosati. “Paxta ishi” “O‘zbek ishi” nomli siyosiy kampaniyalar va ularning oqibatlari
3. XX asr 80-yillarida O‘zbekistondagi ekologik vaziyat. Orol fojiasi.
4. Farg‘ona voqealari. Milliy manfaatlar ustuvorligining o‘sib borishi
5. O‘zbekistonda prezidentlik lavozimining joriy etilishi
6. 1991-yil avgust voqealari. Milliy mustaqillik sari ilk qadamlar

Darsning o‘quv maqsadi: *Talabalarga XX asr 80-yillari o‘rtalarida O‘zbekiston ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va ma’naviy hayotidagi ahvol, mustaqillikka erishish arafasida respublika hayotida ro‘y bergan ijtimoiy-siyosiy jarayonlar haqida ma’lumot berish.*

Mavzu yuzasidan tayanch so‘z va iboralar: *ijtimoiy-iqtisodiy hayot, paxta monokulturasi, “qayta qurish”, “Paxta ishi”, demokratiya, mustaqillik ostonasi, deklaratsiya, ekologik muammolar, ijtimoiy-siyosiy vaziyat, suvernitet, tanazzul, inqiroz.*

XX asr 80-yillari o‘rtalarida respublika ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va ma’naviy hayotidagi inqirozli holat. Ajdodlarimizning tabiat bilan bog‘liq an’anaviy odob-axloq qoidalari, milliy an’analari, udum va marosimlari unutildi. Jumladan, ming yillar mobaynida shakllanib, sayqal topib, nishonlanib kelingan “Hosil bayrami”, “Qovun sayli”, “Gul sayli”, “Navro‘z” kabi bayram va udumlar unutildi yoki ta’qiqlab qo‘yildi. Navro‘zning sun‘iy ravishda Navbahorga aylantirilishi yoki unga eskilik sarqiti deya qaralishi oqibatida Navro‘z bilan aloqador odamlarning tabiatga, o‘simliklarga, yerga munosabati o‘zgardi, ular bilan bog‘liq an’analar unutilish arafasida qoldi. Xalqimizning ko‘proq qishloq xo‘jaligi mehnatiga jalb qilinishi, paxta yakkahokimligi kabi salbiy holatlar, o‘lka asosan xom ashyo, ayniqsa paxta xom ashyo bazasiga aylantirilishi boshqa qishloq xo‘jalik ekin turlariga nisbatan teskari munosabatni shakllanishiga olib keldi. Qishloq xo‘jaligi maydonlariga maksimal darajada kimyoviy o‘g‘itlar berilishi natijasida xalq sog‘lom turmush tarzi ayniqsa yosh avlod genofondi uchun xavf paydo bo‘ldi. Keyingi chorak asr davomida muammo bo‘lib kelayotgan Orol dengizi muommasini hal etish uchun bir qator loyihalar taklif etilganligiga qaramay, ularning birortasi ham joriy etilmadi. XX asr 60-yillaridan boshlab yangi yerlar keng qo‘lamda o‘zlashtirilishi, sanoat, chorvachilik komplekslarining ekstensiv rivojlantirilishi, kollektor-zovur tizimlari qurilsada, ular asosan paxtachilik uchun xizmat qildi hamda kanal, lotoklar suvlari sug‘orish uchun muttasil yuqori hajmlarda olindi. Shu bois havzalardagi suvning salmog‘i kamaya boshladi. Orol dengizining qurishi keskin muammo, aytish mumkinki, milliy ekoinqiroz xavfini kuchaytirdi. Yuqoridagi fikrlarimizdan kelib chiqib xalqning ma’naviy hamda tarixiy an’analarining e’tiborga olinmaganligi va ekoinqirozning kelib chiqish sababalarini quyidagi omillar bilan izohlash mumkin:

Birinchidan, ekologiyaga zarar yetkazmaslik nuqtai nazaridan ishlab chiqarish korxonalarining mahalliy shart-sharoitlarga moslab joylashtirilmaganligi; Ikkinchidan, qishloq xo‘jaligida suvni va mehnatni ko‘p talab qiladigan ekinlarni, ayniqsa, paxta ekin maydonlarining kengaytirilishi; Uchinchidan, qishloq xo‘jaligida son ortidan quvilib, sifatiga kam e‘tiborberilishi; To‘rtinchidan, ekoinqirozning yana muhim ko‘rinishi bu, fuqarolar ma‘naviyatida tabiatga oqilona munosabat faqatgina sotsializm qaror topgan jamiyatdagina mavjud bo‘ladi, degan umuminsoniy qarashlarga zid dunyoqarash shakllantirilishi; Beshinchidan, mintaqani iqtisodiy rivojlantirishda atrof-muhitga salbiy ta‘sir etish mumkin bo‘lgan jarayonlar e‘tiborga olinmaganligi va ilmiy asoslanmaganligi; Oltinchidan, mahalliy aholi turmush darajasini yaxshilashga qaratilgan ijtimoiy siyosatning kuchsizligi kabilardir. Bularning barchasi tabiatga nisbatan ma‘naviy axloqiy qarashlar, to‘g‘ri munosabatni aks ettiruvchi odat va marosimlar unutilishiga olib keldi. Bir so‘z bilan aytganda, sobiq ma‘muriy buyruqbozlik tizimi, mafkuraviy hukmronlik mintaqadagi ekologik holatga ham o‘z salbiy ta‘sirini ko‘rsatmasdan qolmadi. Bunday siyosat xalqning ming yillar mobaynida shakllanib kelgan atrof muhitga ma‘naviy-axloqiy munosabatlarini yo‘qolishiga sabab bo‘ldi, Faqat mamlakatimiz mustaqilligi tufayli xalqimizning ma‘naviy ruhiy tiklanishi insonning tabiatga bo‘lgan munosabatini ham tubdan o‘zgarishiga imkoniyat yaratdi.

Markazning O‘zbekistonda amalga oshirgan qatag‘on siyosati. “Paxta ishi” “O‘zbek ishi” nomli siyosiy kampaniyalar va ularning oqibatleri. 1982-yil noyabrda KPSS MQ Bosh kotibi L.I. Brejnev vafotidan so‘ng hokimiyatni egallagan Yu.V. Andropov mamlakatda kadrlarni tanlash va joy-joyiga qo‘yish siyosatida ta‘qib va tazyiqqa asoslangan qattiqqo‘llik yo‘lini tanladi. Yu.V. Andropov o‘zining Davlat xavfsizlik qo‘mitasidagi uzoq yillik tajribasiga tayanib, mamlakatning tobora og‘irlashayotgan iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy hayotiga doir bo‘lgan barcha ma‘lumotlardan, xususan, rahbar-kadrlar faoliyatidagi nuqson va kamchiliklardan xabardor edi.

O‘zSSRning ijtimoiy-siyosiy hayotida 1984-yil 23-iyunda bo‘lgan O‘zbekiston Kompartiyasi MK XVI-plenumi mash‘um rol o‘ynadi. Moskva tashabbusi va ko‘rsatmasi bilan tashkil qilingan mazkur plenumda qabul qilingan hujjatlar respublikada o‘zbek xalqini asossiz badnom etish kompaniyasini boshlab berdi. Sobiq respublika rahbarlari Markazga murojaat qilib O‘zbekistonga Markazdan rahbar kadrlarni yuborishni iltimos qildilar. Markazning tazyiqi ostida 1984-yildan O‘zbekistondagi rahbarlik lavozimlariga sobiq ittifoqning har xil joylaridan «kadrlar desanti» kela boshladi. Birgina 1984–1987-yillarda Moskva, Leningrad va Rossiyaning boshqa shaharlaridan 400 dan ortiq kishi O‘zbekistonning partiya, sovet, ma‘muriy-xo‘jalik organlariga ishga yuborilgan. Kadrlarni almashtirish siyosati ayanchli tus oldi. Natijada Markazdan o‘zbek xalqining urf-odatleri, ana‘nalari haqida umuman tasavvurga ega bo‘lmagan rahbar xodimlarning respublikaga yuborilishi va mazkur “kadrlar desanti”ning faoliyati ko‘plab salbiy holatlarning kelib chiqishiga sabab bo‘ldi.

O‘zbekiston Kompartiyasi Markaziy Komitetining ikkinchi kotibligiga Anishchev, Ministrlar Soveti raisining birinchi o‘rinbosari Ogarok, Oliy Sovet Prezidiumi raisining o‘rinbosari etib Romanovskiy, Respublika prokurori etib

Buturlin, uning o‘rinbosarligiga Gaydanov, tergov boshliqligiga Laptev, Ichki ishlar vazirligiga Didorenkolar tayinlandi. Toshkent shahri partiya rahbari etib Satin qo‘yildi. Barcha viloyatlarda ham ahvol shunday bo‘lib, ular respublikadagi hukmronlikni to‘la qo‘lga olgan edilar. Bundan ko‘zlangan maqsad jamiyatni sotsialistik asosda isloh qilish, jamiyatning barcha sohalarida to‘la demokratik jarayonlarni boshlash edi. Ammo hukumatning olib borgan ichki siyosati va ko‘p millatli mamlakat fuqarolari qarashlari o‘rtasida o‘ziga xos nomutanosiblik sodir bo‘ldi. Xususan 1987-yildagi mavjud siyosiy tuzumni va iqtisodiyotga partiyaviy rahbarlikni saqlab qolgan holda, xo‘jalik mexanizmini isloh qilish yo‘lidagi urinishlar ham samara bermadi.

KPSS MQ ning 1985-yil (aprel) Plenumi mamlakatda vujudga kelgan vaziyatni tahlil qilib, sovet jamiyatini “qayta qurish” zarurligi borasida ko‘rsatmalar berdi. Plenum ijtimoiy hayotni “demokratlashtirish”, “oshkoralikni joriy qilish”, milliy siyosatni “takomillashtirish”, umuman jamiyat hayotining barcha sohalarini “chuqur isloh qilish” yo‘lini e‘lon qildi. Lekin amalda bu siyosat islohotlarni amalga oshirishning aniq konsepsiyasi bo‘lmasdan, balki chuqur inqirozga yo‘l tutgan sovet mustabid tuzumini saqlab qolishga, markazning milliy respublikalar ustidan nazoratini kuchaytirishga yo‘naltirilgan edi. O‘zbekistonning sobiq partiya va hukumat rahbarlari (R.Nishonov, R.Abdullayeva) sovetlarning ko‘zbo‘yamachilik, ulug‘ millatchilik va shovinistik siyosati mohiyatini anglab yetmadilar. Natijada respublikadagi ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy vaziyat yomonlashib, ziddiyatli tus oldi. Shunday murakkab ijtimoiy, siyosiy vaziyatda respublikada keng munozaraga sabab bo‘lgan muammolardan biri o‘zbek tiliga davlat tili maqomini berish masalasi bo‘ldi. Ma‘lumki, shaxsga sig‘inish, turg‘unlik yillarida o‘zbek tilinining mavqei qo‘llanish doirasi juda ham torayib ketdi. O‘zbek tili davlat idoralarida ham, majlislar, yig‘lishlarda ham deyarli ishlatilmay deyarli qo‘yildi. XX asr 80-yillarning o‘rtalariga kelib SSSRning parchalanishi real ob‘ektiv haqiqatga aylanib qoldi. Xalq milliy ongini o‘sishi, jamiyatning ijtimoiy qonuniyatlari va talabi o‘zbek tili masalasini ko‘rib chiqishni kun tartibiga qo‘yilishiga turtki bo‘ldi. Shu tarzda hukumat va mamlakatimiz ilmiy jamoatchiligi sa‘yi harakatlari bilan 1989-yil 21-oktabrda xalqimiz ma‘naviy hayotida muhim voqea sodir bo‘ldi, o‘zbek tiliga “Davlat tili” maqomi berildi.

“Qayta qurish” va uning cheklanganligi shunda namoyon bo‘ldiki, demokratiya, oshkoralik deya bong urilgan bo‘lsada, 1985–1990-yillar oralig‘ida respublika hayotida katta siyosiy, ijtimoiy o‘zgarishlar sodir bo‘ldi. Asosiysi ijtimoiy siyosiy vaziyat keskinlashib, millatlararo nizolar, iqtisodiy muammolar yuzaga kela boshladi. Ana shunday muammolardan biri, shubhasiz paxta monokulturasi va uning oqibatlari bo‘ldi. Respublikada hamon paxta monokulturasi va uning salbiy oqibatlari natijasida kelib chiqqan og‘ir vaziyat davom etdi. Mazkur sa‘lbiy voqealar bilan bog‘liq bo‘lgan jarayonlar natijasida ko‘pgina rahbarlar va oddiy fuqarolar jabr ko‘rdilar. Ya‘ni “Paxta ishi”, “O‘zbeklar ishi” va ular bilan bog‘liq ayanchli holat yanada kuchaydi. Sovet tuzumi va u bilan bog‘liq Markaz rahbarligida O‘zbekistonda navbatdagi oshkora qatag‘onlar boshlanib ketdi. “Paxta ishi” deb atalgan mash‘um siyosat niqobi ostida minglab begunoh kishilar jinoiy javobgarlikka tortildi. Markaz ko‘rsatmasiga ko‘ra “Paxta ishi” va “O‘zbeklar ishi” deb nomlangan tergovlar olib

borildi. Gdlyan va Ivanovlar guruhi ilg'or paxtakorlar, davlat boshliqlari, umuman o'ylab topilgan va bevosita "paxta ishi" bilan bog'liq minglab kishilarga nisbatan qonunsiz, beshafqat ishlarni boshlab yuboradilar. Ularning zo'ravonligi oqibatida sudlar adolatsiz hukmlar chiqara boshladilar.

Markazdan yuborilgan Gdlyan va Ivanov guruhi ming-minglab rahbarlik mahoratini puxta egallagan rahbar kadrlarga nisbatan turli aybnomalarni o'ylab topdilar, qamash, ozolikdan mahrum qilish kabi hollar kuchaya boshladi. O'zbekistonning mustaqillik sari tashlangan eng muhim qadamlardan biri esa O'zSSR KP Markaziy Komitetining 1989-yil 25-noyabr plenumida O'zbekiston hukumati avvalo paxta monokulturasi oqibatida respublika va o'zbeklar boshiga yog'ilayotgan malomat toshlariga chek qo'yish, matbuotda paxta monokulturasi va ekologik holatga haqidagi mish mishlarni tugatish haqida edi.

Tarixiy adabiyotlarda qayd etilishicha 1989-yilgacha Respublikamizda mazkur ishlar bo'yicha 4,5 mingdan ko'proq kishi sudlanadi. Aybsiz odamlarni, ularning oila a'zolarini qamoqqa olish, jismoniy va ruhiy qiynoqqa solish avj oldi. Hisobga olinganlar tergov usullariga dosh berolmay o'z jonlariga qasd qilishgacha borib yetdilar. O'zbekistonda inson huquqlari behad toptalayotganligi haqida Moskvaga xatlar jo'natildi. Afsuski, bu xatlar tekshirilmasdan, hatto javob yozishga ep ko'rilmadi. Respublikada o'ylab topilgan "Paxta ishlari"ni ko'rib chiqish uchun maxsus komissiya tuzildi. Komissiya ish faoliyatiga 40 ming tomdan iborat ishni ko'rib chiqish topshirildi. 1990-yilning iyun oyiga kelib, komissiya muhim bir xulosaga keldi. 1990-yil 13-iyun kuni Moskva shahriga SSSR Bosh prokurori, SSSR Oliy sudining raisi va SSSR Adliya ministirligi nomiga yozilgan xatda komissiya xulosalari batafsil ko'rsatildi. Bu xatda "Paxta ishi" chuqur tahlil qilinib, sudlanganlarni oqlash masalasi qo'yilgan edi. Biroq yuqoridagi tashkilotlar ko'mak o'rniga tayziqni kuchaytirdilar.

T.X. Gdlyan va N.V. Ivanov guruhining faoliyati natijasida respublikadagi jamoa xo'jaliklari raislari va sovxoz direktorlarining 60%, qishloq xo'jaligi yetakchi mutaxassislarining 45%, paxtachilik brigada boshliqlarining 35%, shuningdek, ko'plab rahbarlar, viloyatlar va tumanlar partiya komiteti kotiblari, respublika miqyosidagi partiya, sovet va xo'jalik rahbarlari o'z vazifalaridan olib tashlandi va ularga nisbatan jinoiy ish qo'zg'atildi. 1983-yildan Markazqo'mning ko'rsatmasi asosida rahbarlar ustidan jinoiy ishlar qo'zg'ash boshlandi. 1983–1988 yillarda O'zbekiston bo'yicha jinoiy ish yuzasidan qamalganlarning 600 tasi rahbar xodimlar edi. Bu jarayonda mas'ul, KPSS MQ nomenklaturasidagi 172, O'zSSR KP MQ nomenklaturasidagi 1813 nafar xodim javobgarlikka tortildi. Ularning 70 foizi viloyat, shahar, tuman partiya qo'mitalarining rahbarlari edilar.


O'sha paytda respublikadagi qamoqxonalarda joy qolmagani sababli sudlanganlarning mingdan ortig'i jazoni o'tash uchun Sibir qamoqxonalariga jo'natildi. Aybsiz odamlarni, ularning oila a'zolarini qamoqqa olish, jismoniy va ruhiy qiynoqqa solish avj oldi. Hibsga olinganlar tergov usullariga dosh berolmay o'z jonlariga qasd qilishgacha borib yetdilar. Ana shu tariqa desantchilar o'zbek xalqini ko'zbo'yamachilikda, poraxo'rlikda, qo'shib yozishlarda, boqimandalikda ayblab, partiya va davlat rahbarlaridan tortib oddiy dehqonlarni ham ta'qib ostiga oldilar. Shunday qilib, soxta ayblar natijasida respublikamizning minglab fuqarolari

qiynoqlarga solindi, sudsiz, tergovsiz qamaldi. Ularning orasida keksalar, homilador ayollar, nogironlar ham bor edi. Aybsiz kishilarga jismoniy kuch ishlatib, qo‘rqitish yo‘li bilan ayblar qo‘yildi. Oddiy mehnatkashlardan katta miqdorda pul, o‘z rahbarlari to‘g‘risida noto‘g‘ri ko‘rsatmalar berish talab qilindi.

Bu davrda Markaz tomonidan totalitar tuzumning barcha kirdikorlari vafot etib ketgan partiya va davlat arboblari yuklanib, 1980-yillar qatag‘onida nohaq qoralandi. Eng avvalo, qatag‘on qilichi Sharof Rashidovga qarshi ko‘tarilib, uning nomi ham badnom qilindi. 1959–1983-yillarda Sh.R. Rashidov O‘zbekiston SSR Kompartiyasi MQning birinchi kotibi bo‘lib ishlagan va rahbarlik yillarda qator bunyodkorlik ishlari amalga oshirildi. Bunga xolis tarix guvoh. Ammo Markazning tazyiqi bilan qishloq xo‘jaligi yerlaridan ekstensiv foydalanish oqibatida ekologik vaziyatning buzilishi, paxta yakkahokimligining qaror topishi kabi noxush holatlar ham yuz berdi. Albatta, bunday holatlarni uning faoliyati natijasida yuzaga kelgan deb bo‘lmaydi, balki sovet hokimiyatining ijtimoiy-siyosiy tuzumi keltirib chiqargan edi.

“Paxta ishi” oqibatda butun respublikamizda parokandalik, loqaydlik, umidsizlik va ishonchsizlik kayfiyati chuqurlashdi. O‘zbekiston fuqarolari o‘z haqu-huquqlarini himoya qilishlarini so‘rab tuman, viloyat va respublika partiya hamda sovet organlariga murojaat qildilar. 1986–1987-yillarda faqat O‘zbekiston Kompartiyasi MQga fuqarolardan 50 mingdan ortiq xat va shikoyatlar tushdi. 20 mingdan ortiq kishi esa Markazqo‘m kotiblari va bo‘lim boshliqlari qabulida bo‘lib, o‘zlarining talablarini bildirdilar. Norozilik, ayniqsa, xotin-qizlar orasida ko‘paydi. 1986–1987-yillarda respublikada 270 ayol o‘zini-o‘zi yondirib yubordi. Bu holat ularning sha‘ni, qadr-qiyamatining toptalishi, haq-huquqlarining buzilishiga nisbatan ko‘rsatilgan norozilik edi. Shu tariqa, XX asrning 80–90-yillarida hukmron partiya va sovet davlati tomonidan mavjud turg‘unlik holatidan chiqish, shuningdek, sobiq ittifoqdosh respublikalarning mustaqillik yo‘lidagi harakatlarini bartaraf etish, sobiq SSSRda yuzaga kelgan inqirozli harakatlar sabablarini ittifoqdosh respublikalardan qidirish, ularni ayblash uchun turli nayranglar, “siyosiy o‘yinlar” o‘ylab chiqdilar.

XX asr 80-yillarida O‘zbekistondagi ekologik vaziyat. Orol fojiasi. XX asr sobiq Ittifoqda davom etgan ijtimoiy-siyosiy jarayonlar O‘zbekistondagi ekologik holatga ham ta‘sir ko‘rsatmasdan qolmadi. Mamlakatdagi ma‘muriy buyruqbozlik tizimi, mafkuraviy hukmronlik mintaqadagi ekologik holatga ham o‘z salbiy ta‘sirini o‘tkazdi. Zero, sobiq Ittifoq davrida totalitar, mustamlakachilik tuzum zo‘rovnligi O‘zbekistonda yuz bergan ekoijtimoiy inqirozlar o‘z mohiyatiga ko‘ra ma‘naviy fojea hamdir. Ekologik shovinizm barcha sohalarda siyosiy va iqtisodiy qaramliklar, milliy ma‘naviy qadriyatlarining toptalishi, kadrlar tayyorlashning imperiya manfaatlariga moslashtirilishi, tabiiy boyliklarga nisbatan talonchilik siyosati kabilarda namoyon bo‘ldi. Amalga oshirilgan shovinistik siyosat natijasida tabiatga vaxshiyona munosabat Orol fojeasiga



olib keldi, flora va fauna buzildi, turli xil kasalliklar, jumladan, bepushtlik, ayollar va bolalar o'limi oshdi. Birgina misol, o'sha paytda AQSH va Yaponiyada tug'ilgan 1000 ta boladan 1-2 tasi yoshiga yetmay o'lgan bo'lsa, bu ko'rsatkich, O'zbekistonda 46 taga yetganligini qanday izohlash mumkin? Ekoijtimoiy ma'naviy inqirozlar ko'rsatkichi aholining salomatligining yomonlashishida ham o'z aksini topdi. Jumladan, 1976-yildan 1990-yilgacha faqat O'zbekistonning o'zida katta yoshdagi va bolalar orasida umumiy kasalga chalinish (har 10 ming kishi hisobiga) muntazam o'sib borgan. Respublika bo'yicha kattalar va o'smirlarning umumiy kasallanish intensiv ko'rsatkichi 1976-yilda 2466,5 tadan 1990-yilda 3598,6 taga yetgan. Tashqi muhitning salbiy ta'siri tufayli asab tizimi, teri, teri osti kasalliklari 1989-yilning o'zida 1,4, qon aylanish tizimi kasallanishi 1,3 marta ko'paygan. Sil kasalligiga chalinish 3 foizga ortgan. Bolalar jumladan, go'daklar o'limi sobiq Ittifoqning boshqa hududlaridagi ko'rsatkichidan ikki marta yuqori bo'lgan. Respublikada har yili 200 mingga yaqin kishi gepatit kasaliga duchor bo'lgan. Yer, suv, havoga ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo'lish kabi ekoko'nikmalarimiz milliy qadriyatlarimiz va urf-odatlarimiz kommunistik mafkura asosida shakllantirilgan sovet udumlarini qaror toptirish orqali unutildi. Ekomilliy ko'nikmalarimizning unutilishi esa yuz bergan fojeaning navbatdagi ma'naviy inqirozi edi.

Bu davrda ijtimoiy va xo'jalik vazifalarini ma'muriy-buyruqbozlik bilan hal etish mumkin bo'lmay qoldi. Iqtisodiy o'sish esa yildan-yilga kamayib boraverdi. Respublika xalq xo'jaligida umumiy ijtimoiy mehnat unumdorligining pasayishi hisobiga mo'ljaldagidan 4,3 foiz yoki 850,4 million so'mga kam milliy daromad olindi. 1989-yilda O'zbekistondagi har bir kishiga sobiq ittifoqdagi o'rtacha darajadan bir yarim baravardan kam kapital mablag' to'g'ri keldi. O'sha davrda respublikada milliy ongning o'sishi, o'zlikni anglash darajasining kuchayishi yana ko'plab muammolarning yechimini kun tartibiga qo'ydi. Ammo sobiq respublika rahbarlari bu muammolarni yechish uchun qilinayotgan harakatlarni "jamiyatga qarshi harakat" sifatida tushundilar.

Farg'ona voqealari. Milliy manfaatlar ustuvorligining o'sib borishi. XX asrning 80-yillari oxirlariga kelib sobiq ittifoqda iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy inqiroz chuqurlashib, beqarorlik kuchayib bordi. O'z navbatida necha yillar davomida hal etilmagan, xalqning sabr kosasini to'ldirgan muammolar oxir-oqibatda ijtimoiy larzalarga, milliy nizolarga olib keldi. Bunday salbiy holatlar, afsuski, O'zbekistonni ham chetlab o'tmadi. 1989-yilning may oyi oxirlari – iyunning boshlari butun Farg'ona viloyati millatlararo to'qnashuvlar alangasi ichida qolib ketdi. Dastlab 23-may kuni boshlangan fojea ikki kundan keyin Toshloq tumaniga, undan so'ng esa Marg'ilon va Qo'qon shaharlariga ham yoyildi.

Qadimdan o'zining bag'rikenglik, mehmondo'stlik, mehr-shafqatlilik fazilatlari bilan shuhrat qozongan xalqimiz hech qachon birovga nisbatan adovatda bo'lmagan, qo'l ko'tarmagan. Biroq, sobiq ittifoqdagi buzg'unchi kuchlar ta'sirida ana shunday favqulodda kutilmagan fojea sodir etildi va begunoh insonlar qurbon bo'ldi. Keyinchalik, aniq tarixiy dalillar asosida ma'lum bo'ldiki, ana shu tartibsizliklarga, xalqimiz, yurtimiz manfaatlariga mutlaqo zid bo'lgan harakatlarga milliy kiyimlarni kiyib olgan, aslida boshqa millatlarga mansub bo'lgan, maxsus tayyorgarlik bilan ko'chaga chiqqan kishilar tashkilotchilik qilishgan, ular tinch aholini qo'zg'ab, janjal

chiqarishga da'vat etgan. Ular mesxeti turklari va boshqa millat vakillariga qarshi ig'vo va bo'hton gaplarni tarqatib, sodda olamni g'alayon ko'tarishga chaqirdilar va ba'zi holatlarda bunday yovuz niyatlarini amalga oshirishga erishdilar ham.

O'sha paytdagi O'zbekiston Kompartiyasining birinchi kotibi Rafiq Nishonov boshchiligidagi siyosiy rahbariyati yuzaga kelgan bu murakkab vaziyatni to'g'ri baholay olmagan uchun, oddiy mojaro Farg'ona, Marg'ilon, Toshloq, Qo'qon, Andijon, Namangan, Toshkent viloyatida aholining, ayniqsa, yoshlarning ommaviy chiqishlariga aylanib ketdi va millatlararo to'qnashuvlarda namoyon bo'ldi.



Mamlakatga ana shunday mushkul pallada rahbar etib saylangan Islom Karimov eng avvalo, mamlakatda tartib o'rnatishga kirishdi. O'zbekistonning turli mintaqalaridan chiqqan etnik nizolar va ijtimoiy tanglik o'choqlari shaxsan o'zi ishtirokida bartaraf etildi. 24-iyun kuni Ministrlar Sovetida Farg'ona voqealariga bag'ishlangan katta majlis o'tkazadi. Islom Karimov masalani keskin qo'yadi: *"Biz bundan buyon eskicha yasholmaymiz va bunday yashashga zamonning o'zi yo'l qo'ymaydi"* - deya ta'kidlaydi. Ertasigayoq respublika rahbari janjal-to'polonlar ichida qolib ketgan Farg'onaga boradi. Lovillab yonayotgan uylar, tahlika va sarosimaga tushgan shahar va qishloqlar, qahr-g'azabga to'lgan odamlarning ichiga dadil kirib boradi. Ular bilan chin dildan, hech narsani yashirmasdan ochiq gaplashadi. Bu insonlarning shu vaqtga qadar hech kim eshitmagan ohu-nolalarini tinglab, o'zining yurakdan chiqqan samimiy va haqqoniy so'zlari bilan bamisoli ularning qalbidagi yaralariga malham qo'ygandek bo'ladi. Ammo voqelar qaltis tus olgan kezlarda Farg'ona fojialari haqida respublika matbuotida va boshqa ommaviy axborot vositalarida to'g'ri ma'lumot berilmaganligi, bu mojarolarning kelib chiqishida asosan "mahalliy aholi aybdor" deb bir tomonlama va noxolis baholanishi vaziyatni yanada keskinlashtirdi. Ta'kidlash joizki, 1989-yil 11-iyunda Toshkent shahrida ishlayotgan va o'qiyotgan farg'onalik yoshlardan yuzga yaqini ommaviy axborot vositalarining voqealarga munosabati haqida bir qator to'g'ri talablarni qo'yadilar. Bunday ommaviy chiqishlarga, kommunistik mafkura tartibiga qarshi borishlarga "ko'nikmagan" mustabid tuzum siyosiy rahbariyati namoyishchilarga qarshi harbiy qism tashlaydi. 1989-yil 8-iyunda Qo'qonda tinch namoyishchilar ana shu harbiy qism askarlari tomonidan o'qqa tutildi, natijada 50 dan ziyod namoyishda qatnashgan aholi halok bo'ladi (ularning ko'pchiligi yoshlar edi), 200 dan ortig'i esa yarador qilinadi. Umuman 3-12 iyun kunlari Farg'ona viloyatida bo'lgan millatlararo to'qnashuvlar va ularning harbiylar tomonidan o'qqa tutilishi oqibatida 103 kishi halok bo'lgan, 1009 kishi jarohatlangan va 650 xonadonga o't qo'yilib, vayron qilingan. Voqealarning keng miqyos va fojiali tus olganligi sababli sovet va ma'muriy organlar tomonidan mesxeti turklarini Farg'onadagi harbiy qism poligonidagi lagerga hamda Tojikistonning Leninobod (hozirgi Sug'd viloyati)

viloyati Asht tumanidagi Novgarzon posyolkasiga shoshilinch ko'chiriladi. Minglab odamlarni bunday lagerlarda uzoq saqlab bo'lmas edi. Shuning uchun 16.282 kishi Farg'ona viloyatidan Rossiyaning Smolensk, Orlovsk, Kursk, Belgorod va Voronej viloyatlariga ko'chirib olib borib joylashtiriladi. Rasmiy ma'lumotnomada qayd etilishicha, O'zbekiston SSRda hammasi bo'lib 117653 nafar mesxeti turklari yashagan bo'lsa, ularning Farg'ona viloyatidan 16289 nafari ko'chirilgan.

O'zSSR KPSS MKning birinchi sekretari Islom Karimovning puxta o'ylagan siyosati va faol sa'y-harakatlari hamda jarayonda Markaz vakillari ham bevosita qatnashishi lozimligi haqidagi qat'iy talablari tufayli qonli ixtilof avj olmasdan to'xtatib qolindi. Aks holda, butun respublikada beqarorlik yuzaga kelishi mumkin edi. Shu narsa ayonki, deya yozadi Birinchi Prezident Islom Karimov *"...o'shanda barcha voqealarning ildizi - Farg'ona vodiysida yashayotgan aholining og'ir ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli bilan chambarchas bog'liq edi. Yuzaga kelgan qaltis vaziyatni bartaraf etish uchun, eng avvalo, viloyatda, umuman vodiylarida yangi ish o'rinlarini yaratish, bir so'z bilan aytganda, odamlarga ta'minot va daromad manbaini topib berish zarur edi"*. 1989-yilning iyul oyiga qadar Farg'ona viloyati aholisining hayot darajasini oshirish, mehnatga yaroqli aholining bandligini ta'minlash bo'yicha maxsus dastur ishlab chiqildi va bosqichma-bosqich amalga oshirildi.

Keyinchalik Islom Karimov O'zbekistonning turli hududlarida alanga olayotgan millatlararo ziddiyatlarni bartaraf etish bo'yicha dadil va mardonavor chora-tadbirlarni amalga oshirdi. Shu tariqa u 1990-yil fevral-mart oylarida Bo'ka va Parkentda, 1990-yil iyun oyida O'shda qonli etnik ixtiloflarning oldi olindi.

O'zbekistonda prezidentlik lavozimining joriy etilishi. Sobiq ittifoq Respublikalari orasida birinchi bo'lib O'zbekistonda Prezidentlik lavozimi joriy etilgan edi.

XX asr 80-yillarining oxirlari - 90-yillarining boshlarida respublikada ma'muriy-buyruqbozlik tizimi o'z umrini o'tab, bozor munosabatlariga o'tish harakatlari endigina ro'y berayotgan bir davrda, O'zbekistondagi og'ir ijtimoiy-iqtisodiy sharoitda jamiyatni demokratlashtirish, O'zbekistonning haqiqiy suverenitetini o'rnatish, mamlakatda yashayotgan ko'p sonli millatlarning totuvligi va tengligini ta'minlashga kirishildi. 1989-yil 21-iyundan O'z KP MQ birinchi kotibi lavozimiga kirishgan Islom Karimov boshliq siyosiy rahbariyatning asosiy vazifalaridan biri O'zbekiston xalqi respublika rahbariyatining yuzaga kelgan vaziyatni barqarorlashtirish, iqtisodiy va siyosiy mustaqillikni ta'minlashdan iboratligi ma'lum bo'ldi. Vujudga kelgan o'ta og'ir sharoit, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy qiyinchiliklarga, turli to'siqlarga qaramasdan, o'zbek xalqi o'zining asriy orzusi - O'zbekistonning davlat suvereniteti va mustaqilligi sari dadil va qat'iyat bilan harakat qilishda davom etdi. Shu bilan birga, respublikada do'konlarni va maishiy xizmat ko'rsatish sohasini xususiylashtirish boshlanib, 1990-yilning o'zida 170 ming gektar yer oilalarga meros qoldirish huquqi bilan ijaraga berildi. Bu raqamni yarim million gektargacha yetkazish belgilab olindi. So'nggi paytlargacha yerlarning bor-yo'g'i 4,5 foizida dehqonchilik qilgan shaxsiy xo'jaliklar respublikadagi oziq-ovqat resurslarining 40 foiziga qadar bergani hisobga olinadigan

bo'lsa, yerlarning umumiy salmog'ida bunday uchastkalar hajmi ikki barobardan ziyod oshganda oziq-ovqat mahsulotlari hajmi sezilarli darajada oshishi muqarrar edi.

1990-yil 23-martida O'zbekiston Kompartiyasi Markaziy Komitetining Plenumi bo'ldi. Unda O'zbekiston SSRning siyosiy suvereniteti masalalariga oid muammolarni tahlil etishga va konsepsiyalarini ishlab chiqishga jiddiy e'tibor berildi. Plenum yangilanayotgan siyosiy tizimda respublika Kompartiyasining o'rni va mavqei, uning davlat hokimiyati idoralari va jamoat tashkilotlari bilan o'zaro munosabati prinsiplari to'g'risidagi masalalarni muhokama qilib, buyruqbozlikdan, ma'muriyatchilikdan voz kechish lozimligini uqtirdi. Shu bilan birga, plenum respublika siyosiy tizimi to'g'risidagi masalani ko'rib chiqishni hayot taqozo qilayotganini ko'rsatib, real hokimiyat O'zbekiston Kompartiyasidan, uning barcha darajalaridagi komitetlaridan xalq deputatlari sovetlariga berilishi bilan bog'liq barcha qiyinchiliklarni yengib o'tishlari lozimligini ta'kidlab, yuzaga kelgan vaziyatda O'zbekiston SSR Prezidenti lavozimini ta'sis etish muhim ahamiyat kasb etadi, deb ta'kidladi.

O'zbekistonda prezidentlik boshqaruvi masalasining ko'tarilishi prinsipial amaliy va tarixiy hodisa bo'ldi. Respublikada boshqaruvning ayni ana shunday shakli joriy etilishi, avvalo, siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy, millatlararo va boshqa sohalardagi muammolarni hal qilish jarayonini tezlashtirishga ko'maklashish vositasi sifatida joriy qilindi. Eng muhimi shundan iboratki, Prezident lavozimining joriy etilishi – respublika uchun suverenitet va davlatchilikda mohiyat jihatidan yangi bosqichga o'tishni bildirar edi. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, ayni shu paytda keng miqyosda tartib va intizomni, eng avvalo, boshqaruvning barcha darajalarida va jabhalarida ijro mexanizmini qayta qurishni tezlashtirish vazifalarini o'z vaqtida hal etish masalasi, fuqarolar huquqlarini himoya qiluvchi barcha davlat muassasalarini nazorat qilish ham katta ahamiyat kasb etmoqda edi. Ana shu ob'ektiv holatni hisobga olib, 1990-yil 24-martda XII chaqiriq O'zbekiston SSR Oliy Sovetining birinchi sessiyasi bo'lib o'tdi. Sessiya O'zbekiston tarixida birinchi marta prezidentlik lavozimini ta'sis etish to'g'risida qaror qabul qildi. O'zbekistonda Prezident lavozimining ta'sis etilishi respublikaning siyosiy va iqtisodiy mustaqilligi uchun kurash borasida qo'yilgan navbatdagi dadil qadamlardan edi.

Respublikaning Prezidenti sessiyada *“Bu katta ishonch uchun o'zimning minnatdorchiligimni bildiraman, men buni, eng avvalo, o'zbek xalqi, O'zbekiston SSRning barcha mehnatkashlari, ishchilar sinfi, dehqonlar, ziyolilar, jumhuriyatimizda yashovchi hamma millat va xalqlar taqdiri uchun o'z zimmasiga tushgan ulkan burch va javobgarlik deb qabul qilaman. Har bir grajdanning konstitutson huquqi va erkinliklarini ta'minlash yo'lida katta mas'uliyat deb tushunaman”*, dedi. Shu tariqa Prezident eng qiyin, ziddiyatli, tahlikali bir paytda butun mas'uliyatni o'z zimmasiga oldi. Yana muhim siyosiy voqealardan biri, bu 1990-yil 20-iyunda bo'lib o'tgan O'zbekiston SSR Oliy Sovetining 2-sessiyasida Mustaqillik deklaratsiyasi qabul qilindi. U 12 bo'limdan iborat bo'lib, unda milliy armiyani shakllantirish bilan bog'liq bo'lgan ayrim bandlar quyidagilardan iborat edi:

1. O'zbekiston SSRning demokratik davlat mustaqilligi respublikaning o'z hududida barcha tarkibiy qismlarida va barcha tashqi munosobatlardagi tanho hokimligidir.

2. O‘zbekiston SSRning davlat hududi chegarasi daxlsiz va bu hudud xalqning muhokamasiga qo‘yilmay turib, o‘zgartirilishi mumkin emas.

3. O‘zbekiston SSRda davlat hokimiyati uning hududiga kiradigan barcha tarkibiy va bo‘linmas qismlari ustidan amalga oshiriladi va shu hududda yashaydigan aholiga taalluqlidir va h.k.

Mustaqillik deklaratsiyasida o‘zbek xalqining asrlar davomida qo‘lga kiritgan davlat qurilishi va madaniy taraqqiyot borasidagi boy tarixiy tajribasi va an‘analari hisobga olinishi uqtirildi.

1991-yil avgust voqealari. Milliy mustaqillik sari ilk qadamlar. 1991-yil 18-avgustda Moskva shahrida bir guruh avanturistlar M.Gorbachevni rahbarlikdan chetlashtirib, Favqulodda holat davlat komitetini tuzadi. Bu voqea “GKCHP voqeasi” nomi bilan tarixga kirdi. GKCHP rahbarlarining asosiy maqsadi mustaqillik sari intilayotgan milliy respublikalarga nisbatan tazyiq va ta‘qiblarni kuchaytirib, tobora zaiflashib borayotgan qizil imperiyani saqlab qolishdan iborat edi.

O‘zbekistonning mustaqillikka erishish yo‘lida “GKCHP voqeasi” paytidagi qat’iy pozitsiyasi hal qiluvchi rol o‘ynadi. Davlat rahbari bu vaqtda Hindiston safarida bo‘lib, Respublika rahbarining yo‘qligidan foydalangan O‘zbekiston SSR vitse-prezidenti va O‘zbekiston Kompartiyasining ikkinchi kotibi O‘zbekiston SSR hududida SSSRda Favqulodda holat davlat qo‘mitasining faoliyatini qo‘llab-quvvatlash haqida ko‘rsatma berib yuboradilar. Favqulodda holat e‘lon qilinganini eshitib, zudlik bilan Toshkentga qaytadi va 19 avgust kuni kechqurun respublika rahbarlari va Toshkent shahri faollari bilan uchrashib, qat’iy tarzda GKCHPga munosabat borasida O‘zbekiston nuqtayi nazarini ma‘lum qildi. Respublika rahbariyati: *“Markazdan, kim bo‘lishidan qat’i nazar, qonunga xilof ko‘rsatmalarni bajarish mumkin emas”*, deb hisobladi. 20-avgustda O‘zbekiston SSR Oliy Kengashi Rayosati, O‘zbekiston SSR Prezidenti huzuridagi Vazirlar Mahkamasining, Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri rahbarlari ishtirokida qo‘shma majlis bo‘ldi. Unda O‘zbekistonning mustaqillikka erishish yo‘li o‘zgarmasligi haqida Bayonot qabul qilindi. Shu kuni Prezident respublika aholisiga murojaat bilan chiqdi. Ushbu murojaatda O‘zbekistonning o‘z mustaqilligiga erishish yo‘li qat’iy ekanini yana bir bor alohida uqtirildi. Jumladan, unda shunday deyildi: *“O‘zbekiston Jumhuriyati, uning rahbariyati qayta qurish davrida ham hech qachon bironing gapiga kirib ish tutgan emas. Markazdan, boshqa ba‘zi bir jumhuriyatlardan qanday qarorlar chiqmasin, va‘dalar berilmasin, har qanday chaqiriqlar, da‘vatlar, yo‘l-yo‘riq ko‘rsatishga harakatlar bo‘lmasin, biz o‘zimiz tanlagan yo‘limizdan va belgilab olgan maqsadimizdan qaytganimiz yo‘q. Bu yo‘l bizning xalqimiz tarixiga, urf-odatlariga, tabiatimiz shart-sharoitlariga, xullas, xalqimiz manfaatlariga mos yo‘ldir”*, - deb qat’iy ta‘kidlandi. Ana shunday sharoitda, ya‘ni Markaz va respublikalar o‘rtasidagi munosabatlar tobora taranglashib, Markaz boshqaruv qobiliyatini yo‘qotgan, har bir mintaqa, har bir respublika o‘z holiga tashlab qo‘yilgan bir sharoitda tarixiy vaziyatni to‘g‘ri baholagan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Oliy Kengash sessiyasini chaqirish va unda O‘zbekiston mustaqilligi haqida Qonun qabul qilish masalasini keskin qo‘ydi. Chunki har bir milliy respublikaning chinakam teng huquqliligi va mustaqilligi ta‘minlangandagina tanazzuldan chiqish mumkin edi. Buning uchun mustaqillik yo‘lidagi barcha to‘siqlar

olib tashlanishi, respublika soʻzda emas, balki amalda tenglar orasida teng boʻlishi lozim edi.

Oʻzbekistonning mustaqil davlat deb eʼlon qilinishida mazkur sessiya katta tarixiy ahamiyat kasb etganini alohida taʼkidlash lozim. Unda “Oʻzbekiston Respublikasining davlat mustaqilligi toʻgʻrisida”gi hamda “Oʻzbekiston Respublikasining Davlat bayrogʻi toʻgʻrisida”gi masalalar kun tartibiga qoʻyilib, qizgʻin muhokama qilindi. Oʻzbekiston Respublikasining davlat mustaqilligi toʻgʻrisida Prezident maʼruzasi tinglandi. U oʻz nutqida 1991-yil oʻrtalarida markaziy hukumat olib borayotgan ichki siyosatni tahlil qildi. 1991-yil 19-21-avgust kunlari Moskvada Favqulodda holat davlat komiteti aʼzolarining fuqarolar boshiga azob-uqubatlar solishga intilganini, butun-butun xalqlarning ozodligini, respublikalar mustaqilligini yana kishanlamoqchi boʻlganini ochib tashladi. Algʻov-dalgʻovli kunlarda ham Oʻzbekistonning oʻz yoʻli va maqsadi borligini, bu xalq manfaatiga mos yoʻl ekanini, qanday qilib boʻlmasin, undan qaytmaslik lozimligini aytdi.

Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar

1. Mustabid sovet tuzumidan bizga qanday iqtisodiy meros qolgan edi?
2. XX asr 80-yillari oʻrtalarida respublika ijtimoiy-siyosiy vaziyat haqida fikringiz?
3. Iqtisodiy va maʼnaviy hayotidagi inqirozli holat deganda nimalar nazarda tutiladi?
4. Markazning Oʻzbekistonda amalga oshirgan qatagʻon siyosati?
5. “Paxta ishi”, “Oʻzbek ishi” nomli siyosiy kampaniyalar va ularning oqibatlari qanday kechdi?
6. XX asr 80-yillarida Oʻzbekistondagi ekologik vaziyat va Orol fojiasi haqida nima deya olasiz?
7. Fargʻona voqealari, milliy manfaatlar ustuvorligining oʻsib borish jarayoni qanday kechdi?
8. Qachondan Oʻzbekistonda prezidentlik lavozimining joriy etildi?
9. 1991-yil avgust voqealari haqida nimalarni bilasiz?
10. Qachon Oʻzbekistonning mustaqil davlat deb eʼlon qilinishi amalga oshirildi?

Testlar

1. OʻzSSRning ijtimoiy-siyosiy hayotida mashʼum rol oʻynagan Oʻzbekiston Kompartiyasi MK XVI – plenumi qachon boʻlib oʻtgan?
A) 1984-yil 23-iyunda B) 1985-yil 26-iyulda
S) 1987-yil 21-mayda D) 1988-yil 23-aprelda
2. Markazning tazyiqi ostida 1984-yildan Oʻzbekistondagi rahbarlik lavozimlariga sobiq ittifoqning har xil joylaridan “kadrlar desanti” kela boshladi. Oʻzbekiston Kompartiyasi Markaziy Komitetining ikkinchi kotibligiga kim tayindandi?
A) Ogarek B) Anishchev
S) Romanovskiy D) Buturlin
3. Qachon hukumat va mamlakatimiz ilmiy jamoatchiligi saʼyi harakatlari bilan oʻzbek tiliga “Davlat tili” maqomi berilib xalqimiz maʼnaviy hayotida muhim voqea sodir boʻldi?
A) 1989-yil 21-oktabr B) 1989-yil 21-noyabr
S) 1988-yil 24-oktabr D) 1990-yil 18-noyabr

4. Tarixiy adabiyotlarda qayd etilishicha, 1989-yilgacha Respublikamizda “Paxta ishi” bo‘yicha necha kishi sudlanadi?

A) 2,5 mingdan ko‘proq B) 3,5 mingdan ko‘proq

S) 4,5 mingdan ko‘proq D) 6,5 mingdan ko‘proq

5. Qaysi yillarda Sh.R. Rashidov O‘zbekiston Kompartiyasi MQning birinchi kotibi bo‘lib ishlagan va rahbarlik yillarda qator bunyodkorlik ishlari amalga oshirildi?

A) 1953–1964 yillarda B) 1959–1988 yillarda

S) 1964–1982 yillarda D) 1959–1983 yillarda

6. XX asrning 80-yillari oxirlariga kelib sovet tuzumi parchalanishi arafasida mamlakatdagi inqirozli vaziyat millatlararo munosabatlarning keskinlashuvida ham o‘z aksini topdi. Bunday vaziyat respublikaning qaysi hududida bo‘lib o‘tdi?

A) Xorazm viloyati B) Buxoro viloyati

S) Fargona viloyati D) Samarkand viloyati

7. Farg‘ona viloyatidagi millatlararo mojarolar paytida O‘zbekiston kompartiyasining birinchi kotibi kim edi?

A) Rafiq Nishonov B) Sharof Rashidov

S) Sobir Kamolov D) Amin Niyozov

8. 1989-yil 24-mayda qayerda yoshlar o‘rtasida bo‘lgan bezorilik millatlararo (mahalliy yoshlar bilan mesxeti turklar o‘rtasida) to‘qnashuvni keltirib chiqardi?

A) Bo‘ka shahrida B) Qo‘qon shahrida

S) Andijon shahrida D) Quvasoy shahrida

9. Qachon O‘zbekiston tarixida birinchi marta prezidentlik lavozimini ta‘sis etish to‘g‘risida qaror qabul qilindi?

A) 1984-yilning 23-iyunida B) 1989-yilning 23-iyunida

S) 1988-yilning 18-iyulida D) 1990-yilning 24-martida

10. 1991-yil 25-avgustdagi O‘zbekiston SSR Prezidentining Farmoniga ko‘ra:

1. Respublika hududida joylashgan SSSR IIV va Davlat Xavfsizligi komiteti O‘zbekiston SSRning qonuniy tasarrufiga olindi.

2. Respublika va uning fuqorolari xavfsizligini, manfaatlarini muhofaza qilishni nazarda tutadi.

3. Respublika hududida joylashgan SSSR IIVning ichki qo‘shinlari bevosita O‘zbekiston SSR Prezidentiga bo‘ysundirildi.

4. O‘zbekiston SSR IIV, DXQ, prokuraturasi va adliya organlari, shuningdek, respublika hududida joylashgan ichki qo‘shinlar, Turkiston harbiy okrugi qismlari va qo‘shilmalari partiyadan xoli qilindi.

A) 1.4 B) 1.3 S) 2.4 D) 1.2.3.4

3-Mavzu: Mustaqil O‘zbekiston Respublikasining tashkil topishi va uning tarixiy ahamiyati

Reja:

1. XX asr 90-yillari boshlaridagi ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy vaziyat O‘zbekiston Respublikasining e‘lon qilinishi
2. O‘zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining umumxalq tomonidan ma‘qullanishi
3. Mustaqil O‘zbekiston Respublikasining tashkil topishi va mustahkamlanishida I.A. Karimovning tarixiy xizmatlari

Darsning o‘quv maqsadi: *Talabalarga XX asr 90-yillari boshlarida sobiq Ittifoqdagi ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy vaziyat, O‘zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining e‘lon qilinishi va uning umumxalq tomonidan ma‘qullanishi, O‘zbekiston Respublikasining tashkil topishi, mustahkamlanishida I.A. Karimovning tarixiy xizmatlari haqida ma‘lumot berish.*

Mavzu yuzasidan tayanch so‘z va iboralar: *“Davlat tili to‘g‘risida”gi Qonun, SSSR ning tanazzulga yuz tutishi, “Mustaqil davlatlar ittifoqi to‘g‘risida shartnoma”, Prezident saylovlari, O‘zbekiston Konstitutsiyasi, Davlat ramzlari.*

XX asr 90-yillari boshlaridagi ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy vaziyat O‘zbekiston Respublikasining e‘lon qilinishi. Mustaqillik tushunchasi o‘zida azaldan insoniyatning orzu-umidlarini, armon va iztiroblarini mujassam etgan. Darhaqiqat, inson tabiatning gulto‘ji sifatida hamisha ozodlik va hurriyatga intilib yashaydi. U hamisha har jihatdan o‘zini erkin his qilishga, ozod yashashga, tahlikasiz turmush kechirishga ehtiyoj sezadi. Shuning uchun ham kishilik tarixi turli davrlarda Yer sharining barcha mintaqalarida ozodlik uchun kurashni, shaklan turlicha, mohiyatan o‘xshash bo‘lgan hurriyatga intilish hodisalarini ko‘p ko‘rgan.

XX asr intihosida dunyoning qariyb uchdan bir qismida misli ko‘rilmagan hodisalar sodir bo‘ldi. Sotsializm deb atalgan totalitar tuzum, zo‘ravonlik va tazyiqqa asoslangan kommunistik mafkura tanazzulga uchradi. Jahonga, Yer yuziga hokimi mutlaqlikni da‘vo etgan SSSR jamiyat sifatida ham, davlat sifatida ham «jar»ga quladi. Uning tarkibiga kirgan ittifoqdosh respublikalar tom ma‘nodagi mustaqil davlat maqomini oldilar.

Mustaqillikka erishish g‘oyasi xalqimizga azaldan meros. Bu orzu avloddan avlodga o‘tib, ming yilliklar qa‘ridan bizgacha yetib kelmoqda. O‘zbekistonning milliy Mustaqillikka erishishi uchun tarixiy vaziyatga qarab goh oshkora, goh yashirin tarzda olib borgan kurashlarini qator manbalar orqali tobora chuqurroq bilib boryapmiz. Bir so‘z bilan aytganda xalqimiz azal-azaldan o‘z fikri-zikri bilan Mustaqil, Ozod, Erkin yashash uchun tinimsiz intilgan. Xo‘sh, Mustaqillikning o‘zi nima? U nimalarga asoslanadi va uning mazmun-mohiyati nimalardan iborat?

Eng avvalo shuni aytish kerakki, Mustaqillik tenglik sari qo‘yilgan birinchi qadam. Chunki, tenglik bo‘lmagan joyda kimdir kimgadir tobe bo‘ladi. Mutelik bor joyda hukmronlik, o‘zgalar hisobiga yashash kabi illatlar paydo bo‘ladi. Natijada biz so‘nggi bir yarim asr mobaynida boshimizdan o‘tkazgan mustamlakachilik dunyoga keladi. “Tenglik” so‘zining qudrati shundaki, u odamlarning o‘zaro munosabatlaridan

tortib, davlatlararo munosabatlarga hamma narsani me'yor-mezonga soladi, turli kamsitishlar yoki mantiqsiz ta'zim-tavozega chek qo'yadi.

Istiqlol - o'zaro hurmat, bir-birini tan olish, bir-birini e'zozlash orqali inson qadr-u qimmatini asrashdir. Demak, mustaqil har bir shaxs, har bir inson mohiyatidan kelib chiqadigan butun jamiyat va insoniyatni baholaydigan umuminsoniy qadriyat! Mustaqillik -jamiyatdan ajralmagan holda dunyo muammolari va o'z taqdiri bilan bog'liq bo'lgan istiqbol haqida o'ylashdir. Istiqlol - erkin dunyoqarash, erkin tafakkurga suyanib yashash salohiyatidir. Mustaqil yashashga, Mustaqil fikrlashga, o'z taqdirini o'zi belgilashga, o'z hayotini o'zi izga solishga qodir odam ziddiyatlami osonlik bilan yengadi, dunyoning shiddatli muammolar buhronida dovdirab qolmaydi. Har bir inson ruhiyati, fe'l-atvori jihatidan qaraganda ana shu oddiy hayotiy haqiqatni keng ma'noda davlat musta- qilligiga ham qiyoslash mumkin.

Mustaqillik mustamlakachilikning har qanday shaklini, u taqozo etadigan tazyiqlar, kamsitishlar va zo'rvonliklami inkor etadi. Ayni paytda mustaqillik jahon taraqqiyotining ilg'or tajribalari asosida o'z ravnaqining o'ziga xos tamoyillarini ishlab chiqish bilan birga yagona zamin, yagona makon taqdirini belgilashda o'zaro hamkorlikning yangi, sifat jihatidan yuqori bo'lgan, umuminsoniy manfaatlarga mos keladigan andozasi asosida yashash demakdir. Agar u hamkorlik, o'zaro hamjihatlik, mamlakatlararo, davlatlararo va mintaqalararo siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy munosabatlami qaror toptirmasa o'z qobig'ida qolib ketishi, milliy mahdudlik doirasidan chiqolmasligi mumkin. Shuning uchun ham istiqlolning g'oyatda zalvorli tajribasidan o'tgan tamoyillari hamma vaqt dolzarb bo'lib qolaveradi. Chunki u doimiy ravishda rivojlanib, o'z-o'zini boyitib, takomillashib, fuqarolar ongi va tafakkurini o'tirib borayotgan tarixiy voqelikdir.

Mustaqillik - tabiatan ongli yashash, ongli munosabatni qaror toptirish mezon. Ayni paytda u harakatlaming, intilishlar va qobiliyatlaming kuchayishini, doimiy kamolotni taqozo etadigan ma'naviy-ruhiy, ma'rifiy-axloqiy hodisa. Bu, ayniqsa, sobiq ittifoq tarkibidan ajralib chiqqan, mustamlakachilik azobini ko'rgan mus-taqil mamlakatlar, xususan O'zbekiston hayotida muhim ahamiyat kasb etadi. Nima uchun? Totalitar tuzum davrida davlat mamlakat boshqaruv tizimidan tortib alohida-alohida shaxslaming kundalik turmushiga va istiqboliga daxldor bo'lgan har qanday katta-kichik masalalami hal etishni o'z zimmasiga olgani uchun mehnatkash xalq moddiy va fikriy boqimandalik kayfiyatiga duchor bo'lgan edi. U faqat ishlash huquqiga ega edi, xolos. Mehnat deb atalgan hissiz mashinaning murvatiga aylanib qolgan edi. Ertadan kechgacha mehnat qilasan, mehnatingga yarasha ochdan o'lmaslikka yetadigan haqqingni olasan, tamom-vassalom. Bu - sobiq ittifoqda qonun kuchiga ega bo'lgan davlat siyosati edi. Odamzod shunchaki ishlar, shunchaki umr kechirardi, xolos. Tiriklik degan buyuk ne'mataing, hayot degan oliy tushun- chaning mag'zini chaqishga o'zida rag'bat ham, ehtiyoj ham sezmas edi. Binobarin, aql bilan ish tutish, voqelikni idrok qilish, bunyod etish, yaratish, ijodkorlik tuyg'ulari butunlay so'ndirilgan edi. Shuning uchun ham mamlakat taraqqiyoti sustlashib, odamlar turmush darajasi pasayib borardi.

Umuman olganda, har qanday faollik tamoyillari harakatlar er- kinligiga zamin yaratishi, unga suyanishi kerak. Aks holda boqi- mandalik illatlari surunkali kasallikka aylanadi. Demak, har qanday xatti-harakat, har qanday intilish o'z-o'zidan

bunyodkorlik, yara- tuvchilik ruhi bilan yo'g'rilgan bo'lishi darkor. Ana shunda erkinlik samarasiz, faoliyatsiz hodisaga aylanmaydi.

XX asrning so'nggi yillariga kelib SSSR tarkibidagi respublikalar suverentetini va inson hukuklarini poymol qilgan ma'muriy buyruqbozlik tizimi o'z davrini o'tab bo'lganligi yanada yaqqolroq namoyon bo'la boshladi. Bu hol o'zbek xalqining mustaqillik uchun bo'lgan kurashini tezlashtirib yubordi va bozor iqtisodiyotiga asoslangan fuqarolik demokratik davlat qurish asoslari shakllana boshladi.

XX asr 90-yillarning boshlariga kelib O'zbekistonda xalqning mustaqillikka erishishidan iborat azaliy orzusini amalga oshirish bosh masala bo'lib qoldi. Mamlakatda shunday vaziyat vujudga keldiki, bir tomondan, bir-biriga qarama-qarshi bo'lgan turli qarashlar shakllandi. Ikkinchi tomondan, o'sha davrdagi markaziy davlat rahbariyati mamlakat ichkarisidagi vaziyatni to'g'ri baholay olmadi, milliy respublikalarda mustaqillikka erishish tobora kuchayib borayotganining oldini ololmay qoldi. XX asr 80-yillar oxiriga kelib, sobiq mamlakatda xalq xo'jaligini bozor iqtisodiyotiga o'tkazishni hayotning o'zi kun tartibiga qo'ya boshladi va uning huquqiy asoslarini yaratishni zaruratga aylantirdi. Shunday bo'lsa-da, 1990-1991-yillarda iqtisodiyot orqaga qarab keta boshladi va xalqning turmush tarzi, sharoiti yomonlasha bordi. Mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan tanazzulga yuz tuta boshladi. Mutaxassislar ana shunday tisarilish hodisasini mamlakat ijtimoiy-siyosiy hayotiga uchta yo'nalishdagi kuchlar manfaatlari to'qnashgani bilan izohlaydilar. Jumladan: Birinchi kuchlar - N.Rijkov va V.Pavlov Dasturi tarafdorlari. Ular sobiq SSSRni saqlab qolish, xalq xo'jaligini markazdan boshqarish, huquqni ko'proq markazda to'plash niyatida edilar. Ular iqtisodiyotni rivojlantirishda sotsialistik yo'ldan voz kechmaslikni talab qilar edilar. 1990-yil sentabr boshlarida SSSR Oliy Kengashi IV sessiyasida N.Rijkov "Boshqariladigan bozor iqtisodiga o'tishga tayyorgarlik va mamlakat xalq xo'jaligida barqarorlikni vujudga keltirish haqida" ma'ruza qildi. Unda deputatlaming avvalgi fikrlari inobatga olingan variant ishlab chiqilgani aytilsada, sessiya Hukumat Dasturini qabul qilmadi. Buning muhim sababi deputatlarda Hukumatga nisbatan ishonch yo'qola borgan edi.

Ikkinchi kuchlar - S.Shatalin guruhi a'zolari tarafdorlari. 1990- yil 11-sentabrda RSFSR Oliy Soveti II sessiyasi S. Shatalinning "500 kun" Programmasini qabul qildi. Unda quyidagi masalalar ko'tarilgan edi:

-Fuqarolami mulkka egalik huquqini, iqtisodiy mustaqillikni, erkin iste'mol bozori va unda erkin narx;

- korxonaning mustaqil iqtisodiy faoliyat huquqi;

- ittifoqdosh respublikalaming mutlaq suvereniteti;

- aholi turmush darajasini pasaytirmaslikni ko'zda tutar edi.

Bu yo'l tarafdorlari SSSRni tarqatib yuborish, ittifoqdosh respublikalar o'rnida suveren, Mustaqil Davlatlar tuzish, cheksiz xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish, mulkni davlat tasarrufidan chiqarish, xususiylashtirish, kolxoz va sovxozlarni tugatib, fermer xo'jaliklari tuzishni ko'zda tutdilar. Bu mohiyatan iqtisodiy rivojlanishning sotsialistik yo'lidan voz kechishni bildirar edi.

Uchinchi kuchlar - bu M.Gorbachyov Dasturini quvvatlovchilar. Ular murosa yo'lini qidirib, yuqorida tilga olingan har ikki dastur yo'nalishlarini uyg'unlashtirish va SSSRni saqlab qolish, markazlashgan ma'muriy buyruqbozlik hokimiyatini

yo‘qotmaslik, “шоковая терапия” (“falaj qilib davolash”) usulidan foydalanish g‘oyasini ilgari surar edi. Yangi Ittifoq Shartnomasini tayyorlash ham shu maqsadlarga yo‘naltirilgan edi. Jumladan, yangi Ittifoq Shartnomasida mamlakat nomini ham “Sotsialistik Respublikalar Ittifoqi” deb emas, “Mustaqil Sovet Respublikalari”, “Mustaqil Davlatlar Ittifoqi” deb atash to‘g‘risidagi takliflar ham o‘rtaga tashlana boshladi.

Biroq markazni kuchaytirish tarafdorlari boshqa usullardan: namoyishlar o‘tkazish, mitinglar tashkil qilish, hatto, g‘ayrikonstitutsion yo‘llar bilan davlat to‘ntarishi qilish bilan bo‘lsa-da, barcha huquqni Markazda to‘plash, avvalgi buyruqbozlik usulini qaror toptirishga harakat qilaverdilar.

Shunday sharoitda 1991-yil avgust oyida SSSR Prezidenti M.S. Gorbachyov Foros (Qrim)ga dam olish uchun jo‘nab ketdi. Markaziy hokimiyatni saqlab qolish, respublikalarga mustaqillikni bermaslik payida yurganlar uchun qandaydir bir

“imkoniyat” vujudga kelgan edi. Moskvada markaziy hokimiyatni saqlab qolishga, respublikalar jilovini o‘z qo‘lida ushlab qolishga urinuvchilar tomonidan fitna tayyorlandi. Fitnachilar 1991-yil 18-avgust kuni tayyorlangan va 19-avgustda matbuotda e‘lon qilingan “Sovet rahbariyatining Bayonoti”da M.S. Gorbachyovning salomatligi yomonlashdi, shu sababli uning SSSR Prezidenti vazifalarini ijro etish imkoniyati yo‘q, degan soxta axborot bilan chiqdilar. Bayonotda Prezident vakolatlari vitseprezident G.I. Yanayevga o‘tkazilganligi e‘lon qilindi. Aslida esa Prezident M.S. Gorbachyov sog‘-salomat edi, ammo o‘zini himoya qila olmadi. Fitnachilar uni mamlakatdan, xalqdan, dunyodan ajratib, barcha aloqa vositalarini uzib, 72 soat qamal qilib qo‘ygan edi. Fitnachilar tomonidan mamlakatni idora qilish uchun quyidagi tarkibda sobiq Ittifoqda favqulodda holat davlat qo‘mitasi (FHDQ) tuzildi:



- O.D. Baklanov - SSSR Mudofaa Kengashi Raisining birinchi o‘rinbosari,
- V.A. Kryuchkov - SSSR Davlat xavfsizligi qo‘mitasining raisi,
- V.S. Pavlov - SSSR Bosh vaziri,
- B.K. Pugo - SSSR ichki ishlar vaziri,
- V.A. Starodubsev — SSSR dehqonlar uyushmasi raisi,
- Tizyakov - SSSR sanoat, qurilish, transport va aloqa davlat korxonalari hamda inshootlari uyushmasining Prezidenti,
- D.T. Yazov - SSSR mudofaa vaziri,
- G.I. Yanayev - SSSR Prezidenti vazifasini bajaruvchi.

Shu tarzda fitnachilar M.S. Gorbachyovni noqonuniy yo‘l bilan hokimiyatdan chetlashtirib, o‘zlari hokimiyatni egallab oldilar. 1991-yil 19-21-avgustida Moskvada davlat to‘ntarishi qilishga urinib ko‘rildi. Ularning maqsadlari Ittifoq hududida yashovchi barcha xalqlarning mustaqillikni qo‘lga kiritishlariga, o‘z taqdirini o‘zlari hal qilishlariga yo‘l qo‘ymaslik edi. Qaltis vaziyatda 1991- yil 19-avgustda

O‘zbekiston Prezidenti I.A. Karimov Hindistonga qilgan rasmiy tashrifidan qaytib keldi va Toshkent shahri faollari bilan uchrashuv o‘tkazdi. Uchrashuvda Prezident O‘zbekistonning nuqtayi nazarini bildirib, respublikamizda favqulodda holat joriy etishga hojat yo‘qligi, O‘zbekistonda vaziyat barqarorligi, qonunga xilof ko‘rsatmalar bajarilmasligini qat’iy ta’kidladi.

1991- yil 20 avgust kuni Toshkentda O‘zbekiston SSR Oliy Kengashi Rayosati va O‘zbekiston Prezidenti huzuridagi Vazirlar Mahkamasining Qoraqalpog‘iston, viloyatlar va Toshkent shahar rahbarlari ishtirokidagi qo‘shma majlisi bo‘lib o‘tdi. Majlis mamlakatda vujudga kelgan vaziyatni muhokama qilib Bayonot qabul qildi. Bayonotda O‘zbekiston Respublikasi tinch vaqtda kuch, avvalo, harbiy kuch ishlatishga qarshi ekanligi ta’kidlandi. Unda tinchlik, osoyishtalikni saqlash va mustahkamlash, har qanday ig‘vogarona harakatlarning oldini olish, hamma joyda qattiq intizom va tartibni saqlash, mish-mishlar va ehtiroslarga berilmaslik vazifalari ilgari surildi. Bayonotda O‘zbekiston Davlat mustaqilligi to‘g‘risidagi deklaratsiya qoidalarini og‘ishmay va izchil amalga oshirish yo‘lidan boraveradi, deb ko‘rsatildi.

Shunday sharoitda, 1991-yil 25-avgustda O‘zbekiston Prezidentining maxsus farmoni e‘lon qilindi. Farmonga binoan Respublika ichki ishlar vazirligi va Davlat xavfsizlik qo‘mitasi O‘zbekiston SSRning qonuniy tasarrufiga olindi. Respublika hududida joylashgan SSSR ichki ishlar vazirligining ichki qo‘shinlari bevosita O‘zbekiston Prezidentiga bo‘ysundirildi. Respublika ichki ishlar vazirligi, Davlat xavfsizlik qo‘mitasi, prokuraturasi va adliya organlari, shuningdek, respublika hududida joylashgan ichki qo‘shinlar, Turkiston harbiy okrugi qismlari va qo‘shilmalari partiyadan butunlay xoli qilindi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov Oliy Kengash Rayosatiga juda qisqa muddatda Respublikaning davlat mustaqilligi to‘g‘risidagi qonun loyihasini tayyorlash va uni Oliy Kengashning navbatdan tashqari sessiyasi muhokamasiga taqdim etishni taklif qildi. Tayyorlangan takliflar asosida xalqning xohish irodasi o‘laroq 1991-yil 31-avgust kuni O‘zbekiston Respublikasi Oliy Soveti XII chaqiriq navbatdan tashqari VI sessiyasi davlat mustaqilligi va mustaqil suveren O‘zbekiston Respublikasi davlati tashkil topganligini e‘lon qildi. Unda “O‘zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligini e‘lon qilish to‘g‘risida” Oliy Kengash Qarori va “O‘zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligi asoslari to‘g‘risida”gi qonun qabul qilindi hamda 1-sentabr Mustaqillik kuni, milliy bayram, deb belgilandi. Bu asosiy hujjatlar O‘zbekiston oldida turgan maqsad va vazifalarini ko‘rsatib berdi. Xususan, 1991-yil 31-avgust kuni qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasining Davlat Mustaqilligi to‘g‘risidagi Bayonotda quyidagi xulosalar ilgari surilgan edi:

- “O‘tmishdan saboq chiqarib va SSR Ittifoqining siyosiy hamda ijtimoiy hayotidagi o‘zgarishlarni e‘tiborga olib;
- xalqaro-huquqiy hujjatlarda qayd etilgan o‘z taqdirini o‘zi belgilash huquqiga asoslanib;
- O‘zbekiston xalqlarining taqdiri uchun butun mas’uliyatni anglab;
- shaxs huquq va erkinliklarining, Mustaqil davlatlar o‘rtasidagi chegaralarning buzilmasligi to‘g‘risidagi Xelsinki shartnomalariga qat’iy sadoqatini bayon etib;
- millati, diniy e‘tiqodi va ijtimoiy mansubligidan qat’i nazar, respublika hududida yashovchi har bir kishining munosib hayot kechirishini, sha’ni va qadr-

qimmatini ta'minlaydigan insonparvar demokratik huquqiy davlat barpo etishga intilib;

•Mustaqillik Deklaratsiyasini amalga oshira borib, O'zbekiston Sovet Sotsialistik Respublikasi Oliy Kengashi O'zbekiston- ning davlat Mustaqilligini va ozod suveren davlat - O'zbekiston Respublikasi tashkil etilganligini tantanali ravishda e'lon qiladi.

O'zbekiston Respublikasining o'z tarkibidagi Qoraqalpog'iston Respublikasi bilan birga, hududi bo'linmas va daxlsizdir. O'zbekiston Respublikasining boshqa davlatlarga hududiy da'volari bo'lmay, u o'z hududi va tabiiy boyliklariga nisbatan oliy huquqqa egadir.

O'zbekiston parlamentining bu bayonoti o'zining qonun kuchi bilangina emas, siyosiy mantig'i, ma'naviy qudrati, xalqaro huquq normalariga mos kelishi va, eng muhimi, millat taqdirini hal etadigan tarixiy qadriyat ekanligi bilan alohida ajralib turadi. Bu hujjat SSSRning 73 yillik hayoti naqadar ayanchli va fojiali kechganligini ko'rsatadi. Darhaqiqat, bu mamlakatda inson huquqlari har tomonlama poymol etilganligini, endi bu tuzumda ortiq yashab bo'lmashligini hayotning o'zi tasdiqlab turardi. Biroq, mamlakat aholisining aksariyat qismi va ayrim milliy respublikalar rahbariyati ongiga singib qolgan tobelik va mutelik tuyg'ulari keskin harakat qilishga, o'z xalqi manfaatini mardona turib himoyalashga yo'l qo'ymas edi. Ammo, o'sha paytda O'zbekistondagi ijtimoiy-siyosiy vaziyat - O'sh, Farg'ona, Qo'qon, Guliston, Parkent va Bo'kada yuz bergan mash'um voqealar - millatlararo nizolarning yuz bergani, xalq hayotining tahlikali tus olgani ortiqcha kutib turishni taqozo etmas edi. Jarayonlarga o'z vaqtida yetarli baho berib, zarur xulosaga kelish kerak edi. Shuning uchun ham Farg'ona voqealari birmuncha izga tushgach, mamlakat aholisining ijtimoiy-iqtisodiy ahvolini yaxshilash, turmush sharoiti va farovonligini oshirish borasida amaliy choralar ko'rildi.

Ta'kidlash kerak, O'zbekiston o'z suverenitetini qo'lga kiritgandan so'ng respublika ichkarisida ham, uning tashqarisida ham ayrim kishilar "*O'zbekiston osongina, kurahsiz mustaqil bo'lib oldi*", - degan qarashlarni ilgari surdilar. To'g'ri, 1991-yilning o'rtalariga kelib sobiq SSSRning yemirilishi, Ittifoq hukumati esa boshqaruv jilovini qo'ldan chiqarib yuborganligi mustaqillikka erishish uchun qulay tarixiy shart-sharoit paydo qildi. Biroq, tarixiy tajriba shuni isbotladiki, o'ta murakkab rahbarlik siyosatining muhim jihatlaridan biri hal qiluvchi qadamni to'g'ri belgilash va qat'iy harakat boshlashdan iborat. O'zbekiston rahbariyati ana shunday donolik bilan harakat qildi, eng qulay paytdan dadillik bilan foydalanib, respublikaning davlat mustaqilligini e'lon qildi. Mustaqillik bu in'om emas, balki butun xalqning, millionlaming uzoq yillik intilishi tufayli qo'lga kiritilgan tarixiy kurashning natijasi hisoblanadi.

Milliy mustaqillikning qo'lga kiritilishi natijasida birinchidan, o'zbek xalqi o'z taqdirini o'zi belgilash huquqiga ega bo'ldi. Ikkinchidan, O'zbekiston mustaqilligi respublikada adolatli, demokratik, insonparvar jamiyat qurish uchun yo'l ochib berdi, o'z milliy davlatchiligini barpo qilishga imkoniyat yaratdi. Uchinchidan, mustaqillik tufayli O'zbekiston xalqaro miqyosda o'zini tanitish, ayni chog'da xalqaro huquq me'yorlari asosida jahondagi barcha davlatlar bilan teng hamkorlik qilish imkoniyatini qo'lga kiritdi. To'rtinchidan, iqtisodiyotda tub o'zgarishlar qilish uchun

imkoniyat yaratildi. Mulkka munosabat tubdan o'zgarib, jamiyatda yangi mulkdorlar sinfini shakllantirish uchun imkon ochildi. Beshinchidan, milliy tarix, qadimiy madaniyat tiklana boshladi. Dinga munosabat mutlaqo ijobiy tomonga o'zgardi.

Mustaqillikning e'lon qilinishi mamlakat tarixida muhim voqea bo'lib, u nafaqat butun davlat uchun, balki O'zbekistonda yashaydigan har bir aholi uchun katta ahamiyat kasb etdi. Ko'pincha mustaqillikka qon to'kishlar yo'li bilan erishiladi. Lekin O'zbekiston bunday yo'ldan bormadi. XXI asr arafasida jahon xaritasida yana bir mustaqil, teng huquqli davlat – O'zbekiston Respublikasi paydo bo'ldi. Mustaqil O'zbekiston dunyoga, jahonga yuz tutdi, qariyb yuz yildan ortiq vaqt davomida yopib qo'yilgan chegaralari ochildi. Jahon hamjamiyati O'zbekistonni quchoq ochib qabul qildi. Mustaqillikning dastlabki kunlaridanoq O'zbekiston Respublikasini suveren davlat sifatida Turkiya, Amerika Qo'shma Shtatlari, Kanada, Yaponiya, Buyuk Britaniya, Saudiya Arabistoni, Eron, Pokiston, Hindiston, Xitoy singari yirik davlatlar tan oldilar

Mustaqil demokratik respublikaning tashkil topishi jahonshumul tarixiy ahamiyatga ega bo'ldi. Xalqning asrlar davomidagi mustaqillik uchun kurashi ro'yobga chiqib, mamlakatda huquqiy, demokratik jamiyat shakllanishiga shart-sharoit yaratildi. O'zbekistonning boy imkoniyatlaridan xalq turmushini yaxshilash uchun foydalanish mumkin bo'ldi.

O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining umumxalq tomonidan ma'qullanishi.

O'zbek xalqining milliy mustaqillikni naqadar orziqib kutganligini XX asr 90-yillarida o'tkazilgan yalpi ovoz berish jarayonlarida yaqqol kuzatish mumkin. Bu holatni 1991-yil 17-martidagi umumxalq referendumini yakunlarida ham ko'rish mumkin. 1991-yil 20-fevralda O'zbekiston SSR Oliy Kengashi Rayosatining yig'ilishi bo'lib, unda SSSR Oliy Kengashi tomonidan belgilangan referendumda ovoz berishga mo'ljallangan asosiy byulleten bilan birga "*O'zbekiston yangilanayotgan Ittifoq (Federatsiya) tarkibida mustaqil, teng huquqli respublika bo'lib qolishiga rozimisiz?*" - degan savol qo'yilgan qo'shimcha byulleten kiritishga qaror qilindi. Referendum yakuni shuni ko'rsatdiki, O'zbekistonning mustaqil, teng huquqli respublika sifatida yangilangan Ittifoq (Federatsiya) tarkibida bo'lishiga doir qo'shimcha byulleten bo'yicha ovoz beruvchilarning 93,9 foizi ovoz berdi.

Referendumda O'zbekiston xalqining mutlaq ko'pchiligida O'zbekistonni mustaqil respublika sifatida ko'rish xohishi borligining o'ziyoq respublika rahbariyatining bu boradagi dadil kuch-g'ayratini qo'llab-quvvatlash ifodasi edi.

O'zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligi e'lon qilinganidan keyingi tarixiy vaziyat shunday ediki, endi davlat, xalq o'z taqdirini o'zi belgilaydi, deyishning o'zi yetarli emas, erishilgan mustaqillikni sobitqadamlik bilan mustahkamlash, buning uchun izchil kurashish lozim edi.

O'zbekiston erishgan istiqlolni mustahkamlashda xalq tomonidan uning ma'qullanishini hisobga olib, mamlakatda yana referendum o'tkazishga qaror qilindi. 1991-yil 18-noyabrida Oliy Kengash VIII sessiyasi O'zbekiston Respublikasi referendumini o'tkazish to'g'risida qaror qabul qildi. Shunga muvofiq 1991-yil 29-dekabr, yakshanba kuni O'zbekiston Respublikasining Davlat mustaqilligi to'g'risidagi masala bo'yicha referendum o'tkazish belgilandi.

“Siz Oliy Kengash tomonidan O‘zbekiston Respublikasi mustaqil davlat deb e‘lon qilinishini ma‘qullaysizmi?” - degan masalada referendum o‘tkazishga katta tayyorgarlik ko‘rildi. Referendumni uyushqoqlik bilan o‘tkazish maqsadida Markaziy saylov komissiyasi 13 okrug, 7 ming uchastka saylov komissiyalarini tuzdi. Ular joylarda referendum o‘tkazish haqidagi Qonunning so‘zsiz bajarilishini ta‘minlash borasida katta tashkiliy ishlarni olib bordilar. Umumxalq referendumiga 10 millionga yaqin kishi qatnashdi. Referendumda qatnashganlarning 98,2 foizi O‘zbekiston Respublikasining mustaqil davlat, deb e‘lon qilinishini yoqlab ovoz berdi.

Markaziy saylov komissiyasi “O‘zbekiston Respublikasi referendum to‘g‘risida“gi Qonunning 26-moddasiga asosan O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi tomonidan e‘lon qilingan O‘zbekiston Respublikasining Davlat mustaqilligi umumxalq tomonidan ma‘qullandi, deb topdi.

Referendumda AQSH, Turkiya, Malayziya va boshqa mamlakatlardan kelgan betaraf kuzatuvchilar ham ishtirok etishdi.

O‘zbekistonning mustaqil respublika, deb e‘lon qilinishi nafaqat xalqimiz, jahon jamoatchiligi tomonidan ham iliq bilan kutib olindi. Buni mustaqillik kunlarida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti nomiga kelgan tabriklarda ham bilsa bo‘ladi. Jumladan, Amerika Qo‘shma Shtatlarining o‘sha paytdagi Prezidenti Jorj Bush, Shvetsiya Bosh vaziri Karl Bilodt va boshqalar yosh respublika rahbarini samimiy qutlashdi. Xususan, Jorj Bush tomonidan I. Karimov nomiga yuborilgan telegrammada shunday deyiladi: *“Qadrli janob Prezident. SSSR tarqatilgandan so‘ng, Sizning mamlakatingizda yuz bergan tarixiy o‘zgarishlar munosabati bilan shuni ma‘lum qilish menga qoniqish beradiki, Amerika Qo‘shma Shtatlari Hukumati O‘zbekistonni mustaqil davlat sifatida tan oldi”*.

Mustaqil O‘zbekiston Respublikasining tashkil topishi va mustahkamlanishida I.A. Karimovning tarixiy xizmatlari. Islom Abdug‘aniyevich Karimov 1938-yilning 30-yanvarida Samarqand shahrida oddiy xizmatchi oilasida tavallud topdi. Uning bolaligi urush va urushdan keyingi yillarga to‘g‘ri keldi. Islom Karimov 1945-yilda Samarqanddagi A.S.Pushkin nomidagi 21-maktabga o‘qishga kirib, uni oltin medal bilan tamomladi. O‘quvchilik yillari mobaynida ko‘p adabiyotlarni, ayniqsa, tarix bo‘yicha adabiyotlarni o‘qidi. U aniq fanlarni yoqtirardi, shaxmatga, modellashtirish va stol tennisiga qiziqardi.

1955-yilda Islom Abdug‘aniyevich O‘rta Osiyo politexnika institutiga o‘qishga kirdi. 1960-yilda uni tamomlab va “muhandis-mexanik” mutaxassisligi bo‘yicha diplom olib, “Toshselmash” zavodida o‘z mehnat faoliyatini boshladi va qisqa davr ichida usta yordamchisi, usta va texnolog kabi lavozimlarda ishlashga ulgurdi. 1961-yilda u Toshkent aviatsiya zavodida muhandis lavozimiga tayinlandi. Bu yerda u 1966-yilgacha ishlab, yetakchi muhandis-konstruktor lavozimigacha ko‘tarildi.

U ishlab chiqarishdan ajralmagan holda ta‘lim oldi. Aynan shu tarzda 1967-yilda u Toshkent xalq xo‘jaligi institutining kechki bo‘limini tamomladi. 1973-yilda Toshkent xalq xo‘jaligi institutida “O‘zbekiston SSR sanoatining tarmoq tuzilishi va uni takomillashtirishning asosiy yo‘nalishlari” mavzusida nomzodlik dissertatsiyasini himoya qildi. 1994-yilda unga iqtisod fanlari doktori ilmiy darajasi, “makroiqtisodiyot” ixtisosligi bo‘yicha professor ilmiy unvoni berildi. U O‘zbekiston Fanlar akademiyasining “iqtisodiyot” ixtisosligi bo‘yicha haqiqiy a‘zosi etib saylandi.

1966-yildan e'tiboran Islom Abdug'aniyevich O'zbekiston Davlat reja qo'mitasiga o'tib, fan bo'limi bosh mutaxassisi lavozomidan Davlat reja qo'mitasi



raisingining birinchi o'rinbosari lavozimigacha yo'lni bosib o'tdi. 1983-yilda Moliya vaziri, 1986-yilda Ministrlar Kengashi raisingining o'rinbosari - O'zbekiston Davlat reja qo'mitasi raisi bo'ldi. 1986-yil dekabridan O'zbekiston Kompartiyasi Qashqadaryo viloyati partiya komitetining birinchi kotibi. 1989-yil iyunidan O'zbekiston Kompartiyasi Markaziy Komitetining birinchi kotibi. 1990-yil 24-martdagi O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi sessiyasida O'zbekiston Prezidenti etib

saylandi. I. Karimov 1991-yil 29-dekabrda birinchi bor muqobillik asosida o'tkazilgan umumxalq saylovida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti etib saylandi. I.A.Karimov muqobillik asosida to'g'ridan-to'g'ri, umumiy, yashirin ovoz berish yo'li bilan bir necha marotaba O'zbekiston Respublikasi Prezidenti etib saylandi va har safar saylovchilarning mutlaq ko'pchilik ovozini oldi. Bu 2000-yil 9-yanvar, 2007-yil 23-dekabr, 2015-yil 29-mart kunlari kuzatildi.

Islom Abdug'aniyevich sevimli farzand, er, ota va bobo ham edi. U o'zining ota-onalari haqida, ayniqsa, onasi Sanobar oyini katta mehr va iliqlik bilan eslagan. Olti nafar aka-ukalariga hurmat munosabatida bo'lgan. O'zining yagona opasi Mehrinisodan doim minnatdor bo'lgan. Uning uch nafar farzandi va olti nafar nabirasi bo'lib, ular bilan muloqot unga katta quvonch keltirardi. Uning rafiqasi - Tatyana Akbarovna uning haqiqiy do'sti, yordamchisi, fikrdoshi edi, Islom Abdug'aniyevich bilan 47 yil baxtli turmush qurib, u bilan hayotning barcha zahmatlarini baham ko'rdi.

Mustaqil davlatimizning asoschisi Islom Abdug'aniyevich Karimov 2016-yil 2-sentabr kuni soat 20:55 da Toshkentda miya qon aylanishining o'tkir buzilishi (insult) oqibatida vafot etdi. O'zbekistonning Birinchi Prezidenti 2016-yil 3-sentabr kuni o'zining kichik vatani - Samarqand shahrining qadimiy Hazrati Hizr masjidida dafn etildi.

I.A. Karimov O'zbekiston Fanlar akademiyasining akademigi (1994-yil), o'ndan ortiq xorijiy mamlakatlar universitet, akademiyalarining faxriy fan doktori, professor va akademikligiga saylangan. I.Karimov "O'zbekiston Qahramoni" unvoni va "Oltin Yulduz" medali sohibi (1994-yil), "Mustaqillik" (1996-yil), "Amir Temur" (1998-yil) ordenlari bilan mukofotlangan.

Shu o'rinda aytish kerak, I.A.Karimov juda murakkab pallada O'zbekiston boshqaruvini o'z zimmasiga oldi. Aynan o'sha kunlari respublikadagi vaziyat keskin va nafaqat Farg'ona vodiysida, balki Toshkent, Sirdaryo viloyatlari va boshqa viloyatlarning ayrim hududlarida yer go'yoki yonib turgan bir paytda O'zbekiston shaxsiy jasorati va yuz berayotgan voqealarning mazmun-mohiyatiga davlat qarashi, o'z xalqi va o'z mamlakati uchun alohida mas'uliyati bo'lgan rahbarga ega bo'ldi.

Xalokatli vaziyat xom ashyo yo‘nalishiga moslashgan iqtisodiyotda ham vujudga kelgan edi. Respublikada, ayniqsa, aholisi zich yashagan Farg‘ona vodiysida o‘z ijtimoiy-iqtisodiy ahvolidan norozi bo‘lgan kishilarning sabr kosasi to‘lgan edi. Endilikda aniqlik bilan aytish mumkin: aynan Islom Karimov millatlararo ziddiyatni to‘xtatdi, fuqarolar urushi olovini o‘chirdi, yuz minglab, balki millionlab kishilarning hayotini saqlab qoldi, respublikamizda ham, ko‘p millatli aholi yashaydigan Markaziy Osiyo mintaqasida ham tinchlik va xotirjamlikni ta‘minladi. Qisqa muddatlarda tubdan ko‘rilgan boshqa choralar bilan birga 1989-yil avgustidayoq tarixiy qaror qabul qilindi - 400 ming gektarga yaqin sug‘oriladigan yerlar qariyb 2,5 million oilaga tomorqa sifatida ajratib berildi. Bu, shubhasiz, dolzarb ijtimoiy muammolarni hal qilishda mamlakatimizda tinchlik va barqarorlikni saqlashga xizmat qildi.

1989-yil oktabrida juda uzoq vaqt mobaynida ikkinchi darajali o‘rinlarda bo‘lgan o‘zbek tiliga davlat tili maqomini bergan “Davlat tili to‘g‘risida”gi qonun qabul qilingani Islom Karimovning dadil siyosiy qadami bo‘ldi. Bu o‘zbek xalqining milliy ongi yuksalishi uchun muhim ahamiyatga ega bo‘lib, mustaqillikni qo‘lga kiritish yo‘lida birinchi g‘alaba edi.

Mutlaqo yangi asosda va qisqa muddatlarda huquqni muhofaza qiluvchi organlar va milliy xavfsizlik organlari tizimi shakllandi, Qurolli Kuchlar Oliy Bosh qo‘mondoni - O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Abdug‘aniyevich Karimov rahbarlik qilgan Qurolli kuchlarimiz tuzildi.

I.A.Karimov sud hokimiyati tizimini shakllantirishga va mustahkamlashga, uning demokratlashuvi va liberallashtirishiga, sudning mustaqilligi, xolisligi va odilligini ta‘minlashga katta e‘tibor qaratdi. Sudlarning ixtisoslashuvi amalga oshirildi, kassatsiya instituti isloh qilindi, ishlarni qayta ko‘rib chiqish apellyatsiya tartibi joriy qilindi, sud muhokamasining barcha bosqichlarida tomonlarning tengligi ta‘minlandi.

Birgalikda O‘zbekistonda fuqarolik jamiyati institutsional tuzilmasini tashkil qiluvchi fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari, siyosiy partiyalar, harakatlar, kasaba uyushmalari, jamoat birlashmalari va jamg‘armalar, nodavlat notijorat tashkilotlari (NNT), mustaqil ommaviy axborot vositalari faoliyatining erkinligi kafolatlandi. Ularning nafaqat soni, balki ishining samaradorligi oshib bordi.

O‘zbekiston xalqi hayotida mahalla singari noyob, asrlar davomida vujudga kelgan o‘zini o‘zi boshqarish jamoat instituti ulkan ahamiyatga ega. Istiqlol yillarida mahalla hayoti bilan bog‘liq yaxshi qo‘shnichilik va o‘zaro hurmat, bag‘rikenglik, mehribonlik, yordamga muhtoj kishilar haqida g‘amxo‘rlik qilish kabi an‘analar tiklandi va rivoj topdi.

Savol va topshiriqlar

1. Qayta qurish siyosati nima va uning mohiyatini tushuntiring..
2. Nima uchun qayta qurish inqirozga yuz tutdi?
3. Mustaqillikka qo‘yilgan ilk qadamlar...
4. O‘zbekistonda Prezidentlik instituti qachon joriy etilgan?
5. O‘zbekiston Respublikasi Davlat mustaqilligi qachon e‘lon qilindi?
6. O‘zbekiston Respublikasi Davlat ramzlarini sanang...
7. O‘zbekiston qachon BMTga a‘zo bo‘ldi?

8. O'zbekiston Respublikasi tashqi siyosatining asosiy tamoyillarini ayting...
9. O'zbekiston YuNESKO bilan qanday ishlarni amalga oshirdi.
10. Mustaqillik tushunchasining mazmuni qanday?

Mavzu yuzasidan testlar

1. Sobiq SSSRda Ittifoqni yangilash dasduri qachon ishlab chiqilgan edi?
 - A) 1991-yil iyunda B) 1990-yil avgustda
 - C) 1989-yil iyunda D) 1990-yil yanvarda
2. Tarixga "9+1" nomi bilan kirgan shartnoma qaysi shaharda imzolangan edi?
 - A) Novo-Ogoryovoda B) Kiyevda
 - C) Toshkentda D) Moskvada
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentligiga umumxalq saylovlari qaysi yillarda bo'lib o'tgan edi?
 - A) 1990, 1991, 2000, 2005-yillar B) 1990, 1991, 1995, 2000-yillar
 - C) 1991, 2000, 2007-yillar D) 1990, 1991, 2000-yillar
4. O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Karimov qachon "Amir Temur" ordeni bilan mukofotlangan?
 - A) 1996-yil B) 1997-yil C) 1999-yil D) 1998-yil
5. 1991yil 19-avgustda ...
 - A) SSSRda Prezident vakolatlari vitse-prezident G. I. Yanayevga o'tkazilganligi e'lon qilindi
 - B) "Sovet rahbariyatining Bayonoti" loyihasi tayyorlandi"
 - C) O'zbekiston Prezidenti I. A. Karimovning Hindistonga rasmiy tashrifi boshlandi
 - D) SSSR ichki ishlar vazirligi va Davlat xavfsizlik qo'mitasi O'zbekiston SSRning qonuniy tasarrufiga olindi
6. 1991-yil 29-dekabr kuni bo'lib o'tgan referendumda necha foiz saylovchi O'zbekiston Respublikasi mustaqilligini ma'qullaymiz, deb ovoz berdi?
 - A) 98, 2 % B) 94, 2 % C) 93, 4 % D) 96, 2 %
7. O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimov qaysi oliygohlarni tugatgan?
 - 1) O'rta Osiyo politexnika instituti; 2) Toshkent Qishloq xo'jaligi instituti; 3) Toshkent xalq xo'jaligi instituti; 4) O'rta Osiyo Davlat universiteti.
 - A) 1, 3 B) 1, 2, 3 C) 2, 4 D) 1, 4
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentligiga birinchi umumxalq saylovida qatnashganlarning necha foizi Islom Karimov nomzodini qo'llab ovoz berdi?
 - A) 96 % B) 86 % C) 84 % D) 92 %
9. O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimov 1961-1966-yillar oralig'ida qayerda o'z mehnat faoliyatini olib borgan?
 - A) Chkalav nomidagi Toshkent Aviatsiya zavodi
 - B) Toshkent xalq xo'jaligi instituti
 - C) Toshkent qishloq xo'jalik mashinasozligi zavodi
 - D) O'zbekiston SSR reja komiteti

10. 1991-yil 25-avgustda O'zbekiston Prezidenti tomonidan chiqarilgan farmonning mazmuni qaysi javobda to'g'ri berilgan?

1) Respublika ichki ishlar vaziriigi va Davlat xavfsizlik qo'mitasi O'zbekiston SSRning qonuniy tasarrufiga olindi; 2) Respublika hududida joylashgan SSSR ichki ishlar vazirligining ichki qo'shinlari bevosita O'zbekiston Prezidentiga bo'ysundirildi; 3) O'zbekiston Respublikasining Davlat mustaqilligi haqidagi masalani muhokama qilish belgilab qo'yildi; 4) Respublika Kompartiyasini KPSS MQ bilan har qanday aloqalarni to'xtatishga qaror qilindi; 5) Respublika prokuraturasi va adliya organlari, shuningdek, Turkiston harbiy okrugi qismlari va qo'shilmalari partiyadan butunlay xoli qilindi.

A) 1, 2, 3, 4, 5 B) 1, 3, 4 C) 1, 2, 5 D) 1, 2, 3, 4

4-Mavzu: O'zbekistonning o'ziga xos istiqlol va taraqqiyot yo'li

Reja

1. Taraqqiyotning "O'zbek modeli" va uning o'ziga xos xususiyatlari
2. O'zbekistonning ijtimoiy-siyosiy rivojlanish strategiyasi: yangilanish va taraqqiyot yo'li
3. Mustaqillik - me'yoriy-huquqiy asoslarining yaratilishi
4. O'zbekiston Respublikasining davlat ramzlari

Darsning o'quv maqsadi: *Talabalarga O'zbekistonning taraqqiyot yo'li, uning o'ziga xos jihatlari, "o'zbek modeli" va uning mohiyati, Konstitutsiyaning davlat rivojidagi o'rni hamda davlat ramzlari to'g'risida tushuntirish berish.*

Mavzu yuzasidan tayanch so'z va iboralar: *Konstitutsiya, "o'zbek modeli", bozor iqtisodiyoti, vaucher, milliy valyuta, soliq, xususiy lashtirish, davlat ramzlari, gerb, bayroq, madhiya.*

Taraqqiyotning "O'zbek modeli" va uning o'ziga xos xususiyatlari. O'zbekiston mustaqillikka erishganidan so'ng kun tartibida jahon andozalariga mos keladigan davlat qurish, siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy sohada tub islohotlarni amalga oshirish, ularni qonun bilan mustahkamlaydigan huquqiy tizimni vujudga keltirish vazifasi turar edi. Chunki sobiq sotsialistik tuzumga xos ijtimoiy munosabatlar va jarayonlar endilikda respublikada barpo qilinajak yangi jamiyat manfaatlariga mos kelmas edi. Mulkchilik, mulkka egalik qilish va uni boshqarish, ishlab chiqarish omillari, bozor mexanizmi, davlatning ijtimoiy-iqtisodiy hayotini normal izga solish ana shunday jiddiy yangilanishlarni taqozo etar edi. Shuni ham aytish kerakki, jahonda hamma mamlakatbop ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning tamoyillari, barcha uchun tavsiya etish lozim bo'lgan tayyor andozalari hech qachon bo'lmagan va bo'lmaydi ham. Shu bilan birga rivojlanishning madaniy-ma'rifiy, tarixiy jihatdan asrlar mobaynida shakllangan an'analari mavjud bo'lgan O'zbekistonda qadimiy makonda o'ziga xos yo'l tanlash uchun ancha-muncha izlanish lozim edi.

Dunyoda XX asrning boshlarida mamlakatlar iqtisodiy rivojlanishining Amerika va Yevropa modellari, Ikkinchi jahon urushidan keyin esa o'ziga xos Germaniya va Yaponiya modellari shakllandi. Keyinchalik o'zini to'liq oqlagan Janubiy Koreya, Janubi-Sharqiy Osiyo mamlakatlarida taraqqiyot modellari yuzaga keldi. Shuningdek, mustaqillikka erishgan Osiyo va Afrika mamlakatlarida ko'proq boshqa modellardan andoza olingan yo'llar tanlandi. Lekin ushbu davlatlar tajribasi biron bir davlatning rivojlanish yo'lini to'g'ridan-to'g'ri qabul qilib bo'lmashini amalda isbotladi. Yuqorida ko'rib chiqilgan bozor iqtisodiyotiga o'tishning turli modellari barcha mamlakatlarni bitta manzilga – erkin bozor iqtisodiyoti tizimiga olib keladi. Ammo, bozor munosabatlari shakllanishining ijtimoiy-iqtisodiy, tarixiy, milliy va xalqaro sharoiti har xil bo'lganligi tufayli, unga o'tishning milliy xususiyatlari ham mavjud bo'ladi. Shu nuqtai nazardan biror mamlakatning taraqqiyot yo'lini yoki taraqqiyot modelini borligicha qabul qilib bo'lmaydi.

1990-yil mart oyidayoq sobiq ittifoq respublikalari ichida birinchilardan bo'lib, O'zbekistonda Prezidentlik boshqaruvining tashkil etilishi, g'oyaviy qarashlari,

siyosati yangilanayotgan jamiyatga mos bo'lmayotgan O'zbekiston Kompartiyasini Xalq demokratik partiyasiga aylantirilishi, hokimiyatning asta-sekin va izchillik bilan partiya idoralaridan Prezident, hukumat, mahalliy idoralar qo'liga o'tishi, o'zbek tiliga davlat tili maqomi berilib, milliy qadriyatlarning tiklana boshlagani O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li shakllanayotganini ko'rsatar edi.

Islom Karimov o'n ikkinchi chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining navbatdan tashqari to'qqizinchi sessiyasida (1992-yil 4-yanvarda) so'zlagan dasturiy nutqida hamda 1992-yil avgust oyida nashr etilgan "O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li" asarida O'zbekistonning taraqqiyot yo'lini har tomonlama puxta asoslab berdi. Xususan, O'zbekistonning mustaqil taraqqiyot yo'li ishlab chiqilar ekan, *"o'tmishdan, sobiq sovet tuzumidan meros bo'lib qolgan tajribadan saboq chiqarish, shu asosda soxta inqilobiy sakrashlarsiz, fojiali oqibatlarsiz va ijtimoiy larzalarsiz, evolutsiya yo'l bilan dinamik taraqqiyot yo'liga o'tish"* - tanlab olingan yo'lning asosiy mazmun va mohiyatini tashkil qildi.

Yangi iqtisodiy munosabatlarga o'tish tamoyillari asosida g'oyat mas'uliyatli va murakkab vazifa – iqtisodiy islohotlar strategiyasi ishlab chiqildi. Iqtisodiy strategiyaning boshlang'ich nuqtasi ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlarning pirovard maqsadini belgilab olishdan iboratdir. Bu vazifa markazlashtirilgan, ma'muriy buyruqbozlikka asoslangan iqtisodiyotdan bozor munosabatlariga, bir sifat holatidan ikkinchi sifat holatiga o'tishdan iboratdir. Bozor islohotlarini amalga oshirish dasturiga ko'ra ustuvor vazifalar bosqichma-bosqich hal qilinadi. Birinchi bosqichda totalitar tuzumdan hozirgi zamon bozor munosabatlariga o'tish davridagi bir-biriga bog'liq ikki vazifani bir vaqtda hal qilishga to'g'ri keldi: ma'muriy buyruqbozlik tizimining og'ir oqibatlarini tugatib, iqtisodni barqarorlashtirish va bozor munosabatlarining negizini shakllantirish. Bu bosqich jarayonida iqtisodiy islohotning asosiy yo'nalishlari O'zbekistonning Birinchi Prezidenti tomonidan belgilab berildi:

- o'tish jarayonining huquqiy asoslarini shakllantirish, islohotlarning qonuniy-huquqiy bazasini mustahkamlash va rivojlantirish;
- qishloq xo'jaligida mulkchilikning yangi shakllarini vujudga keltirish;
- ishlab chiqarishning pasayib borishiga barham berish.

Dastlabki vaqtning o'zida iqtisodiy munosabatlarning huquqiy negizini barpo etadigan 100 ga yaqin asosiy qonun hujjatlari qabul qilinindi.

I. Karimov O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'lini ishlab chiqar ekan, avvalo, mamlakatda yaratilajak jamiyat qanday mazmun kasb etishiga e'tibor berdi va uning fikricha, O'zbekistonda bunyod etiladigan jamiyat barcha "tizimlardan va u qanday nomlanishidan qat'i nazar adolatli, xalqchil, insonparvar jamiyat bo'lmog'i lozim edi". Shuning uchun ham, respublika ichki va tashqi siyosatining asosiy yo'nalishlari pirovard natijada chinakam mustaqil O'zbekistonda yangi, adolatli jamiyat barpo etishga qaratildi. Shuningdek, yangilangan jamiyat har bir a'zosining siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy turmush tarzini kafolatlovchi yo'llarini ham ko'rsatib berdi. Jumladan, siyosiy sohada:

– xalq, ham bevosita, ham o'z vakillari orqali davlat hokimiyatini amalga oshirishda to'liq ishtirok etishi lozimligini;

– hokimiyat bo‘linishining jahon tan olgan qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatiga bo‘linish tamoyilini joriy etish asosida demokratiyani chuqurlashtirish hamda milliy davlatchilikni barpo qilishni;

– jamiyatning siyosiy tizimini, davlat idoralarning tuzilmasini tubdan yangilashni;

– barcha fuqarolarning qonun oldidagi huquqiy tengligini va qonunning ustunligini ta‘minlashni;

– bir mafkuraning, bir dunyoqarashning yakka hokimligidan voz kechish, siyosiy tashkilotlar, mafkuralar va fikrlar xilma-xilligini tan olishni;

– demokratiyaning qonuniy tarkibi sifatida ko‘ppartiyaviylikni shakllantirish.

Iqtisodiy sohada:

– milliy boylikning ko‘payishini ta‘minlaydigan barqaror, rivojlanib boruvchi iqtisodiyotni barpo etishni;

– ijtimoiy jihatdan yo‘naltirilgan bozor iqtisodiyotini bosqichma-bosqich shakllantirishni;

– mulk egalari huquqlarining davlat yo‘li bilan himoya qilishini ta‘minlash va barcha mulkchilik shakllarining huquqiy tengligini qat‘or toptirishni;

– iqtisodiyotni o‘ta markazlashtirmasdan korxonalar va tashkilotlarning mustaqilligini kengaytirishni, davlatning xo‘jalik faoliyatiga bevosita aralashuvidan voz kechish.

Ijtimoiy va ma‘naviy sohada bu:

– insonparvarlik g‘oyalariga sodiqlikni, inson, uning hayoti va shaxsiy daxlsizligi, erkinligi, qadr-qimmatini, yashash joyini tanlash huquqi saqlanib qolishini;

– ma‘naviyatni qayta tiklashni;

– o‘zbek tilini rivojlantirishni;

– hurfikrlilik, vijdon va din erkinligini qaror toptirishni;

– ijtimoiy adolat qoidalarini ro‘yobga chiqarish, aholining eng nochor qatlamlari - keksalar, nogironlar, yetim-yesirlar, ko‘p bolali oilalar, o‘quvchi-yoshlarning davlat tomonidan iqtisodiy muhofazaga bo‘lgan kafolatli huquqlarini ta‘minlashni;

– odamlarning iste‘dod qobiliyatlarini namoyon etish uchun shart-sharoit yaratish, ma‘naviy mulkni himoya qilishni bildiradi.

I. Karimov yangilanayotgan jamiyat mazmun-mohiyatini ko‘rsatish bilan birga dolzarb vazifa qilib, eng avvalo ijtimoiy yo‘naltirilgan bozor iqtisodiga o‘tish masalasini qo‘ydi. Faqat iqtisodiy baquvvat davlatgina kuchli bo‘ladi va u har qanday islohotlarga qodir bo‘ladi, degan g‘oyani ilgari surdi. Shuning uchun ham 1993-yilda nashr etilgan “O‘zbekiston - bozor munosabatlariga o‘tishning o‘ziga xos yo‘li” nomli asarida Islom Karimov yangi jamiyat qurishning besh tamoyilini asoslab berdi. Ular quyidagilar:

1. Iqtisodiyotni mafkuradan xoli etish, iqtisodning siyosatdan ustunligi, o‘ziga xos ichki qonunlarga muvofiq rivojlanishi.

2. Davlat bosh islohotchi, iqtisodiy o‘zgartirishlarning tashabbuskori.

3. Qonun ustuvorligi, qonun oldida hammaning barobarligi va hammaning qonunga bo‘ysunishi.

4. Bozor iqtisodiyotiga o‘tishning barcha bosqichlarida kuchli ijtimoiy siyosat yuritish, aholining muhtoj tabaqalarini ijtimoiy himoyalashning ustuvorligi.

5. Bozor iqtisodiyotiga bosqichma-bosqich va izchil ravishda o'tish, islohotlarni inqilobiy sakrashlarsiz amalga oshirish.

“Ayni mana shunday yo'l O'zbekiston xalqining munosib turmushini, uning huquqlari va erkinliklarini kafolatlashi, milliy an'analari va madaniyatining qayta tiklanishi, insonni shaxs sifatida ma'naviy axloqiy kamol topishini ta'minlashi mumkin”, - deb ko'rsatib berilgan edi.

Chorak asr mobaynida muxim modelga aylanib ulgurgan, jamiyatimizni isloh etish, demokratlashtirish va liberallashtirish, mamlakatimizni modernizatsiya qilish hamda tub tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish bo'yicha puxta o'ylangan, dunyoda “o'zbek modeli” nomi bilan tan olingan taraqqiyot strategiyasini amalga oshirish orqali O'zbekiston zamonaviy jadal va barqaror rivojlanib borayotgan davlatga aylandi.

Shunday qilib, O'zbekistonning o'ziga xos taraqqiyot yo'li nazariy va amaliy jihatdan belgilab olindi. Amaliy islohotlar jarayonida, xususan XXI asr arafasi va uning dastlabki yillarida mamlakatimizning rivojlanish strategiyasi, islohotlarni chuqurlashtirish va jamiyatni yangilash borasidagi faoliyatimizni jadallashtirish maqsadida bu tamoyillar Oliy Majlisning XIV-sessiyasida (1999-yil 14-aprel) qator ustuvor yo'nalish bilan to'ldirildi.

O'zbek modelining hayotga izchil tatbiq etilishi yurtimizning iqtisodiy va ijtimoiy qiyofasini tubdan o'zgartirib yubordi. Bugun O'zbekiston iqtisodiyoti izchil, barqaror va jadal o'sayotgan jahondagi juda kam sonli mamlakatlar safidan mustahkam o'rin oldi. Ijtimoiy, madaniy sohalarda erishilayotgan ulkan yutuqlar nufuzli xalqaro tashkilot va ekspertlar tomonidan keng e'tirof etilib, yuksak baholanmoqda.

Taraqqiyotning o'zbek modeli qotib qolgan statik tushuncha emas, albatta. Uning xarakteri va shakl-shamoyilini belgilaydigan asosiy tamoyillar saqlanib qolgan holda doimo yangi vazifa va qoidalar bilan boyitilib, takomillashtirilib borilmoqda. Zero, hayot barcha tartib qoidalarga o'z tuzatishlarini kiritib boraveradi. Jamiyat hayotining barcha jabhalarini modernizatsiyalash, ishlab chiqarishning tarkibiy tuzilishini diversifikatsiyalash, innovatsion texnologiyani izchil rivojlantirish, sanoat mahsulotlari yetkazib berishni yanada kengroq mahalliyashtirish – “o'zbekcha taraqqiyot”ning mantiqiy davomidir.

O'zbekistonning ijtimoiy-siyosiy rivojlanish strategiyasi: yangilanish va taraqqiyot yo'li. O'zbekiston Respublikasi mustaqillikning dastlabki yillaridanoq aholini ijtimoiy himoya qilishni ustuvor vazifalardan biri sifatida belgilab oldi. Bu esa olib borilayotgan islohotlarning avvalo inson manfaatlariga xizmat qilishining yorqin dalili ekanligini isbotlaydi. Dunyo e'tirof etgan bozor iqtisodiyotiga o'tishning besh tamoyilning aynan biri ham kuchli ijtimoiy himoyaga yo'naltirilgan. O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I.A.Karimov ta'kidlab o'tganlaridek, “bozor mexanizmlarini joriy etishdan oldin insonlarni ijtimoiy himoya qilish tadbirlari amalga oshirilmog'i lozim. Davlat o'z aholisini himoya qila olgan taqdirdagina, insonparvar hisoblanadi” deyilgan. Shu maqsadda har yili ijtimoiy himoya tizimiga ajratiladigan saramoyalarning ko'lami ortib bormoqda. Masalan, 2006-yilda byudjet mablag'larining 51,9%, 2008-yil Ijtimoiy himoya yili Davlat dasturi doirasida aholining ijtimoiy himoyasiga 484 mlrd, so'mdan ortiq (53,8%),

“Yoshlar yili”da 1,5 trln. soʻmdan ortiq (54,6%), mablagʻ ajratildi. 2016-yil – Sogʻlom ona va bola yilida mamlakatimiz tibbiyot muassasalarini zamonaviy diagnostika va davolash uskunalari bilan jihozlash uchun 80 million dollar qiymatidagi kredit va grant mablagʻlari yoʻnaltirildi, farzand koʻrish yoshidagi ayollar va bolalar tibbiy koʻrikdan oʻtkazilib, sogʻlomlashtirildi.

Yuqoridagi raqamlardan koʻrinib turganidek aholining ijtimoiy himoyasiga yoʻnaltirilgan mablagʻlarning miqdori yildan-yilga ortib bormoqda va bu boshqa sohalarga nisbatan ham koʻpni tashkil qiladi.

Aholining kam taʼminlangan qatlamlarining davlat tomonidan moddiy taʼminlash doimiy ravishda takomillashtirilib borildi. 1997-yil sentabr oyidan boshlab, har yili 1-sinf oʻquvchilariga bepul oʻquv anjomlari, darsliklarni berish joriy etildi kam taʼminlangan oilalarning boshlangich sinflarda oʻqiydigan bolalariga bepul qishki issiq kiyimlar berish yoʻlga qoʻyildi. Kam taʼminlangan oilalarga 1998-yilda toʻlangan nafaqalarning umumiy miqdori 3 mlrd. soʻmni tashkil qildi, 16 yoshgacha boʻlgan farzandli oilalarga toʻlangan nafaqalar - 15,6 mlrd. soʻmni tashkil qildi.

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 18-yanvardagi “Uy-joylar qurishni rivojlantirish boʻyicha maqsadli Dasturlarini samarali amalga oshirish toʻgʻrisida”gi PQ-3480-sonli qaroriga asosan 2018-yil Dasturiga 22145 ta yangilangan namunaviy loyihalar boʻyicha arzon uy-joylar qurilishi belgilangan. 2019-yillarda nogironligi boʻlgan, kam taʼminlangan xotin-qizlarga jami 3 mingta uy berilishi rejalashtirilgan, shundan 1 ming 640 tasi sentabr oyigacha berilishi moʻljallangan boʻlib, shu kungacha jami 1 ming 691 nafar uy-joyga muhtoj, nogironligi boʻlgan xotin-qizlarga uy-joy ajratildi.

Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 12-apreldagi “Ogʻir ijtimoiy vaziyatga tushib qolgan xotin-qizlarni, nogironligi boʻlgan, kam taʼminlangan farzandlarini toʻliqsiz oilada tarbiyalayotgan va uy joy sharoitini yaxshilashga muhtoj onalarga arzon uylarni berish toʻgʻrisida”gi 285-son qaroriga muvofiq, Xotin-qizlar qoʻmitasi qoshidagi Xotin-qizlarni va oilani qoʻllab quvvatlash jamoat fondi orqali 2020-yilning 1-yanvar holatiga 1207 nafar uy-joyga muhtoj, ogʻir turmush sharoitidagi va nogironligi boʻlgan xotin-qizlar uchun jami 47,7 mlrd. soʻmlik boshlangʻich toʻlov miqdori toʻlab berildi. Umumiy qilib olganda, Oʻzbekiston Respublikasida ijtimoiy yordam va ijtimoiy xizmat koʻrsatishning kompleks tizimi yaratildi.

2017-yilda Oʻzbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy surʼati tubdan oʻzgardi. Harakatlar strategiyasiga muvofiq, iqtisodiy rivojlanish, avvalo, aholining hayot darajasi va sifatini oshirishga qaratilgan mutlaqo yangi bosqichga oʻtdi. Amalga oshirilgan barcha islohotlar - Inson manfaatlarini va farovonligini hamma narsadan ustun degan tamoyilga asoslandi. Bu borada, eng avvalo, mamlakatimizda makroiqtisodiy barqarorlikni yanada mustahkamlash, qatʼiy pul-kredit siyosatini yuritish, milliy valyuta va ichki bozordagi narxlar barqarorligini taʼminlash, soliq-budjet islohotlarini olib borishga asosiy eʼtibor qaratildi. Valyuta bozorini liberallashtirish boʻyicha aniq maqsadga yoʻnaltirilgan kompleks chora-tadbirlar amalga oshirildi va 2017-yil 5-sentabrdan milliy valyutamiz – soʻmning erkin ayirboshlanishi taʼminlandi. Xoʻjalik yurituvchi subʼektlarning oʻz valyuta resurslarini erkin tasarruf etishlari yoʻlidagi barcha sunʼiy toʻsiqlar bartaraf etildi va

ular tomonidan valyuta tushumlarini sotish majburiyatlari bekor qilindi. Yuridik shaxslar uchun mahsulotlarni import qilishda chet el valyutasini erkin xarid qilish va chet el investorlarining foydani erkin olib chiqish imkoniyati yaratildi. Fuqarolarga chet elda ta'lim olish yoki davolanish, turizm, biznes va boshqa maqsadlar uchun valyuta mablag'larini hech qanday to'siqlarsiz qonuniy sotib olishi va sotish imkoniyati yaratildi. Mazkur islohotlar dunyoning yetakchi moliya institutlari, shu jumladan, Xalqaro valyuta fondi, Jahon banki va Osiyo tarraqiyot banki tomonidan e'tirof etildi. Inflyatsiya darajasi hamda ichki bozorda iste'mol tovarlar narxlarining barqarorligini nazorat qilish kuchaytirildi. Ushbu maqsadda, resurs bazasi 100 million dollarga teng ichki iste'mol bozorida narx-navoni barqarorlashtirish jamg'armasi tashkil etildi. Hayot uchun zarur bo'lgan dori-darmonlarni sotib olish uchun qo'shimcha 70 million dollar ajratildi. Tashqi savdoni liberallashtirish va samarador bozor iqtisodiyotini yaratish maqsadida bojxona to'lovlari stavkalari ikki baravar pasaytirildi. Ichki bozor uchun zarur bo'lgan 8 ming turdan ziyod import tovarlari uchun bojxona to'lovlari keskin pasaytirildi, jumladan, import boji bo'yicha 3 550 ta va aksiz solig'i bo'yicha 1 122 ta mahsulotlarga nisbatan nol darajali stavkalar belgilandi. Xalqaro andozalarga mos ravishda, hukumat, barcha vazirlik va idoralar hamda Markaziy bank tomonidan makroiqtisodiy ko'rsatkichlar, davlat budjeti ijrosi, pul muomalasi va oltin-valyuta zaxiralari holati to'g'risidagi barcha statistik va tahliliy ma'lumotlarni doimiy ravishda ochiq chop etib borilishi yo'lga qo'yildi.

Iqtisodiyotni isloh qilishning yana bir o'ziga xos ustuvor yo'nalishi, bu davlatning iqtisodiyotdagi ishtirokini qisqartirish, iqtisodiyotda xususiy sektorning o'рни va ahamiyatini oshirishdir. Bunda, eng avvalo, xususiylashtirilgan korxonalar bilan ishlash, ularning faoliyati samaradorligini oshirish, shuningdek, davlat mulkini boshqarish uslublari tamoman o'zgartirilib, quyidagi ijobiy natijalarga erishildi: birinchidan, korxonalarni xususiylashtirishdan keyingi qo'llab-quvvatlashning yangi amaliyoti joriy etildi, ishlamayotgan korxonalar faoliyatini qayta tiklash bo'yicha investitsiya loyihalarini ishlab chiqishda davlat tomonidan ko'maklashish yo'lga qo'yildi. Tadbirkorlik sub'ektlariga faoliyat yuritmayotgan va to'liq quvvat bilan ishlamayotgan korxonalar maydonlarida yangi ishlab chiqarish quvvatlarini tashkil etish imkoniyati berildi. Bu esa, yuqori qiymatdagi investitsiyalarni o'zlashtirish va minglab ish o'rinlarini tashkil etish imkoniyatini berdi. Ushbu loyihalarni moliyaviy qo'llab-quvvatlash uchun Xususiylashtirilgan korxonalarga ko'maklashish maxsus jamg'armasi tashkil etildi va ushbu jamg'arma tomonidan tegishli kredit liniyalari ochildi.

Energetika, neft-gaz, geologiya, transport, yo'l qurilishi, qishloq va suv xo'jaligi, ichimlik suvi va issiqlik ta'minoti hamda boshqa qator tarmoqlarda chuqur tarkibiy islohotlar boshlandi. Sanoatning 12 ta yetakchi tarmog'ida modernizatsiyalash va raqobatdoshlikni kuchaytirish dasturlari jadal amalga oshirilmoqda. Natijada o'tgan yili iqtisodiy o'sish 5,6 foizni tashkil etdi. Sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi 6,6 foizga, eksport 28 foizga ko'paydi. Oltin-valyuta zaxiralарimiz 2019-yil davomida 2,2 milliard dollarga ortib, 28,6 milliard dollarga yetdi.

Erkin iqtisodiy zonalar, texnoparklar, kichik sanoat hududlarining tashkil qilinishi to'g'ridan-to'g'ri chet el investitsiyalarini jalb qilish, yangi yuqori

texnologik ishlab chiqarishni tashkil qilish, hududlarning tabiiy-iqtisodiy salohiyatidan samarali foydalanishning asosiy omili bo'ldi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev joylarda ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarning borishi, xalqimizning hayot darajasi va sifatini yanada oshirishga qaratilgan bunyodkorlik va obodonlashtirish ishlari bilan yaqindan tanishish, hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo'yicha aniq maqsadga yo'naltirilgan dasturlarni qabul qilish maqsadida 2017-yilning o'tgan davri mobaynida respublikaning barcha mintaqalariga, ayrimlariga esa takror tashrif buyurdilar. Har bir tashrif natijasi bo'yicha har bir hududni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar tasdiqlandi.

Iqtisodiyotni tarkibiy o'zgartirish mamlakat eksport hajmini barqarorligini oshirish va uning tarkibida ijobiy o'zgarishlarga erishish muhim omilga aylanib, eksport tarkibida raqobatbardosh tayyor mahsulotlar ulushi barqaror sur'atlar bilan o'sib bormoqda. 2017-2021-yillarga mo'ljallangan Harakatlar strategiyasini amalga oshirish bo'yicha dasturda - Sanoatni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratish, investitsiya loyihalarini amalga oshirishga yangicha yondashuv chora tadbirlari belgilab berilgan. Birinchidan, hamkor mamlakatlar va xalqaro moliya institutlari bilan munosabatlardagi yondashuv o'zgartirildi. Oliy darajadagi tashriflar chog'ida, Xitoy Xalq Respublikasi, Rossiya, AQSH, Koreya, Turkiya, Qozog'iston va Qirg'iziston bilan savdo-iqtisodiy va investitsiyaviy aloqalarni rivojlantirish bo'yicha ikki tomonlama davlatlararo shartnomalar imzolandi. Yevropa tiklanish va tarraqqiyot banki bilan to'laqonli munosabatlar tiklandi, bank tomonidan kichik biznes va xususiy tadbirkorlikka 190 million AQSH dollari miqdorida kredit liniyasi ajratildi. Turli yo'nalishlarda 20 dan ortiq loyihalar ishlab chiqildi. Yevropa investitsiya banki, Fransiya rivojlanish agentligi bilan hamkorlik o'rnatildi. O'zbekiston yangi tuzilgan Osiyo infratuzilmaviy investitsiyalar bankining teng huquqli a'zosiga aylandi. Ikkinchidan, tashqi savdo faoliyatidagi barcha sun'iy to'siqlar olib tashlandi. Xususan, oldindan to'lovlarisiz va kafolat majburiyatlarisiz eksport qilish tartibi joriy etildi. Ortiqcha va eskirgan ruxsat beruvchi talablar bekor qilindi. Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini eksport qilish mexanizmlari soddalashtirildi. Amalga oshirilgan chora-tadbirlar natijasida eksport hajmi 11,3 milliard AQSH dollarini tashkil etdi va oldingi yil shu davr ko'rsatkichiga nisbatan 126 foizga oshdi. Tashqi savdo saldosi 519,5 million dollarni tashkil etdi. MDH davlatlari ichida mahsulot eksport qilinadigan eng yirik davlatlar qatoriga Rossiya, Qozog'iston, Qirg'iziston va Tojikiston hamda uzoq xorijiy mamlakatlar – Xitoy, Turkiya, Afg'oniston, Eron, Koreya Respublikasi va Fransiya davlatlarini kiritish mumkin. Barcha qayd etib o'tilgan mamlakatlar bo'yicha eksportning o'sish dinamikasiga erishildi.

Mustaqillik – me'yoriy-huquqiy asoslarining yaratilishi. O'zbekiston mustaqillikka erishganidan so'ng, huquqiy jamiyat va demokratik davlat barpo etish yo'lida siyosiy islohotlarni amalga oshirishni kun tartibidagi dolzarb masala sifatida belgilab oldi.

O'zbekistonda davlat boshqaruvining Prezidentlik shakli zamonaviy tizim o'zagini tashkil etadi. 1991-yil 18-noyabrda Oliy Kengash VIII-sessiyasida "Prezident saylovlari to'g'risida" qonun va "Prezident saylovini tayinlash to'g'risida"

qaror qabul qilindi. Bu qonunga ko'ra, Prezident lavozimiga 35 yoshga to'lgan, davlat tilini biladigan, saylovgacha kamida 10 yil O'zbekistonda muqim yashayotgan O'zbekiston fuqarosi saylanishi mumkin. Prezident 7 (hozirgi kunda 5 yil) yil muddatga saylanadi. Prezident saylashning asosiy prinsiplari: umumiy, teng, to'g'ridan to'g'ri, yashirin ovoz berish bilan, fuqarolarning saylovda ixtiyoriy qatnashishi, saylov kunigacha 18 yoshga to'lgan fuqarolarning saylovda qatnashishi hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining konstitutsiyaviy maqomi respublika Konstitutsiyasining 19-bobida aniq belgilab qo'yilgan. Konstitutsiyaning 89-moddasida *“Prezident davlat boshlig'i va davlat organlarining faoliyatini ta'minlashi qayd etilgan. Prezidentning shaxsi daxlsiz bo'lib, u qonun bilan muhofaza etiladi”* - deya, belgilab qo'yilgan. Konstitutsiyaning 93-moddasida Prezidentning vazifalari, uning vakolatiga kiradigan masalalar doirasi belgilangan. Prezident bir vaqtning o'zida Konstitutsiya, inson va fuqaro huquqlarining kafili bo'lib, davlat hokimiyat organlari faoliyatini ta'minlaydi, qonunlar ishlab chiqishda bevosita ishtirok etadi. Prezident bir vaqtning o'zida Qurolli kuchlar Oliy bosh qo'mondoni, Xavfsizlik kengashining raisi bo'lib ham hisoblanadi. Vakolati tugagach, iste'foga chiqqan Prezident umrbod parlament yuqori palatasi - senat a'zosi lavozimini egallaydi.



Shu o'rinda qayd etish kerakki, Prezident vakolat muddati 2007-yil dekabrda tugashi munosabati bilan 2007-yil 23-dekabrda navbatdagi Prezident saylovi o'tkazildi. O'zbekiston xalq demokratik partiyasi (XDP)dan A.Rustamov, O'zbekiston Adolat sotsial-demokratik partiyasi (ASDP)dan D.Toshmuhammedova, saylovchilar tashabbuskor guruhi (STG)dan A.Saidov, O'zbekiston Liberal Demokratik Partiyasi (LDP)dan I.Karimov nomzodi ko'rsatildi. Saylovda ro'yxatga olingan 16.297.000 saylovchidan 90,6 %i qatnashdi. I.Karimov uchun saylovchilarning 88,1 % ovoz berdi. 2007-yil 27-dekabrda bo'lgan Markaziy saylov komissiyasi majlisida I.Karimov Prezident lavozimiga saylandi deb qaror qilindi. 2015-yil 29-mart kuni muqobilik asosida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi bo'lib o'tdi. Uning natijalariga ko'ra Konstitutsiyaga kiritilgan o'zgarishlarga muvofiq Islom Karimov 5 yillik muddatga mamlakatning oliy lavozimiga saylandi.

2016-yil 2-sentabr kuni amaldagi Prezident Islom Karimovning vafot etishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasi Prezident saylovi kunini belgiladi. Saylovoldi kampaniyasiga 9-sentabrdan ruxsat berildi. Siyosiy partiyalar tomonidan prezidentlikka nomzodlar 30-sentabrdan 20-oktabrgacha taqdim etildi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovining natijalariga ko'ra, Sarvar Sa'dullayevich Otamuratovni yoqlab 421 ming 55 nafar saylovchi yoki ovoz berishda ishtirok etgan saylovchilar umumiy sonining 2,35 foizi ovoz berdi, Shavkat Miromonovich Mirziyoyevni yoqlab 15 million 906 ming 724 nafar saylovchi yoki ovoz berishda ishtirok etgan saylovchilar umumiy sonining 88,61 foizi ovoz berdi, Xatamjon Abduraxmonovich Ketmonovni yoqlab 669 ming

187 nafar saylovchi yoki 3,73 foizi, Narimon Majitovich Umarovni yoqlab 619 ming 972 nafar saylovchi yoki 3,46 foiz saylovchilar ovoz berdi. Dastlabki natijalarga ko'ra, O'zbekiston Liberal Demokratik Partiyasidan nomzod Shavkat Mirziyoyev g'olib bo'ldi hamda 2016-yil 14-dekabrda rasman o'z vazifasini bajarishga kirishdi.

Davlat hokimiyati oliy organlarining tuzilishi, hokimiyatlarning bo'linish tamoyili Konstitutsiyada keltirilgan. Davlat hokimiyatining har biri mustaqil faoliyat yurituvchi 3 hokimiyatga: qonun chiqaruvchi; ijro etuvchi; sud hokimiyatiga bo'linishi qonunlashtirilgan. Konstitutsiyaning 76-moddasiga ko'ra Oliy davlat vakillik organi bo'lgan – Oliy Majlis qonun chiqaruvchi hokimiyatni amalga oshiradi. Bu vazifani bajaruvchi vakillik organlari parlament deb ham yuritiladi.

Oliy Majlis 1995-1999-yillar davomida 10 ta kodeks, 2 ta milliy dastur, 145 ta qonun, 452 ta qaror qabul qildi, qonunlarga esa 216 ta qo'shimcha va o'zgarishlar kiritildi. 70 ta xalqaro shartnoma ratifikatsiya qilindi, xalqaro konvensiyalarga qo'shilish to'g'risida 58 ta qaror qabul qilindi. Shubhasiz, yuqorida qayd qilingan raqamlar respublika parlamentining 90-yillardagi hali saqlanib qolayotgan nisbatan murakkab iqtisodiy ahvol, ijtimoiy hayotdagi qator muammolar davrida bunday samarali faoliyati izsiz ketmadi. Qonunlarning izchilligi va hayotbaxshligi, demokratik ruh va zamonaviylik bilan sug'orilganligi natijasida mavjud muammolarning asta-sekin bartaraf etilishi boshlandi.

1999-yil dekabrda bo'lgan saylovlar natijasida 250 deputatdan iborat parlamentning yangi tarkibi shakllandi. Qonunlarni ishlab chiqish jarayonida Oliy Majlis qo'mitalarining butun tarkibi ishtirok etadi. Qonun loyihalarini tayyorlashda maxsus ishchi guruhlar tuzilib, unda olimlar va mutaxassislar kengroq jalb etish kabi xalqaro tajribadan foydalanildi. Inson huquqlari bo'yicha Vakil instituti Oliy Majlis Kengashi tomonidan tasdiqlangan Nizom asosida faoliyat olib bormoqda.

Mustaqillikning dastlabki davridayoq, davlat boshqaruvi sohasida, tegishli sohalar bo'yicha o'zgarishlar amalga oshirila boshlandi. Shu boisdan ham tez orada ijtimoiy-iqtisodiy sohalarda muhim o'rin tutuvchi idoralar xususan, Davlat reja qo'mitasi o'rniga Iqtisodiyot vazirligi, Davlat ta'minot qo'mitasi o'rnida respublika ulgurji va birja savdosi aksiyadorlik uyushmasi, Davlat narx qo'mitasi o'rniga Moliya vazirligi tarkibida narxlarni nazorat qiluvchi maxsus boshqarmalar tuzildi. Respublikada moliya va bank tizimi ham tubdan o'zgarib, Moliya vazirligi respublika budjetini shakllantirish bilan bir qatorda, davlat soliq va moliya siyosatini belgilashi va valyuta ishlarini boshqarishi belgilab qo'yildi.

Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy Markazi Prezidentning 1996-yil oktabrdagi Farmoni bilan tashkil etildi. Milliy Markaz o'z faoliyatini Vazirlar Mahkamasining 1996-yil 13-noyabrdagi qarori bilan tasdiqlangan Nizomga ko'ra faoliyat olib bormoqda. Inson huquqlari va erkinliklarini ta'minlashda 1997-yil 26-apreldagi "Oliy Majlisning Inson huquqlari bo'yicha Vakili (Ombudsman) to'g'risida"gi Qonun alohida ahamiyatga ega. Oliy Majlisning Inson huquqlari bo'yicha Vakili (Ombudsman) mansabdorlar, tadbirkorlar va davlat organlarining inson huquqi, erki va qonuniy manfaatlarini davlat tomonidan himoya qilish maqsadida faoliyat ko'rsatadi. Zero, inson huquqlariga oid 2017-2019-yillar mobaynida qator farmon va hukumat qarorlari chiqdi. 2018-yil noyabrda Samarqandda o'tkazilgan inson huquqlari bo'yicha "Osiyo forumi" O'zbekistonda

inson haq-huquqlariga bo'lgan munosabatning dolzarbligini va yangicha yechimini namoyon etdi.

Ta'kidlash joizki, mustaqillik yillarida yaratilgan boshqaruv tizimi va uning qonunchilik asoslari, fuqarolik jamiyati mamlakatda inson huquqlarini himoya qilishga va huquqiy demokratik davlat barpo etilganligini kafolatlaydi.

O'zbekiston Respublikasining davlat ramzlari. O'zbekiston o'zmustaqilligini qo'lga kiritishidan ancha oldin respublikaning davlat mustaqilligiga doir mutlaqo yangi davlat ramzlarini tayyorlash va qabul qilish ishlari boshlab yuborilgan edi. Xususan, 1991-yil 15-fevralda O'zbekiston Oliy Kengashi "O'zbekistonning davlat ramzlari to'g'risida" maxsus qaror qabul qildi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining 1991-yil 18-noyabrda bo'lib o'tgan VIII sessiyasi "O'zbekiston Respublikasining davlat bayrog'i to'g'risida" Qonun qabul qilindi. Bavroqdagi havorang zangori osmon va musaffo suv ramzi. Moviy rang sharqda azaldan qadrlangan. Amur Temur ham o'z bayrog'iga shu rangni tanlagan. Oq rang - tinchlik va poklik timsolidir. Yosh mustaqil davlat yo'lining oq va beg'ubor bo'lishi uchun yaxshi niyat ifodasi. Qizil chiziqlar - bu har bir tirik jonning qon tomiri, unda jo'sh urib turgan hayotiy kuch, tiriklik ramzi. Yashil rang - O'zbekistonning saxovatli va tabarruk tuprog'i, go'zal tabiati timsoli. Yarim oy - o'zbek xalqining ko'p asrlik an'alariga mos kela-di. Yarim oy va yulduzlar musaffo osmon va tinchlikning ifodasidir. 12 ta yulduz tasviri - qadimdan mukammallik, barkamollik timsoli.

Xullas, mamlakatimiz davlat bayrog'i yurtimizning o'tmishi, bugungi kuni va kelajagining yorqin ramzi bo'lib qoldi.

1992-yil 2-iyulda O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining X sessiyasida "O'zbekiston Respublikasining davlat gerbi" to'g'risida qonun qabul qilindi. Davlat gerbidagi har bir belgi chuqur ma'noga ega. Gerb markazidagi humo qushi - baxt-saodat va erksevarlik ramzi. Gerbning yuqori qismidagi sakkiz qirrali yulduz respublika- mizning sobit va barqarorligi timsoli sifatida tasvirlangan. Quyosh - davlatimizning yo'li hamisha nurafshon bo'lishi bildirilgan yaxshi niyat, ayni paytda u O'zbekistonning noyob iqlimga ega mamlakat, serquyosh o'lka ekanligini bildiradi. Boshqoq - rizq-ro'zimiz timsoli, to'kin-sochinlik ifodasi. Oppoq paxta - O'zbekiston dong'ini dunyoga taratgan bebaho boyligimiz ramzi. Bug'doy va paxta chanoqlarini Davlat bayrog'i lenta bo'lib o'rganligi O'zbekistonda yashayotgan xalqlar do'stligi va yakdilligi ifodasi hisoblanadi. Gerb rangli tasvirda bo'lib, humo qushi kumush rangda, quyosh, boshqoqlar, paxta chanog'i va "O'zbekiston" degan yozuvlar tilla rangda, g'o'za shoxlari, barglari va vodiylar yashil rangda, tog'lar havo rangida, chanoqdagi paxta, daryolar, yarim oy va yulduz oq rangda, O'zbekiston Respublikasining davlat bayrog'i tasvirlangan lenta to'rt xil rangda berilgan.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining 1992-yil 10-dekabrda bo'lib o'tgan XI sessiyasida "O'zbekiston Respublikasining Davlat madhiyasi to'g'risida"gi qonun qabul qilindi. Sessiyada shoir Abdulla Oripov va bastakor Mutal Burhonov tomonidan tayyorlangan madhiya varianti tasdiqlandi. Davlat madhiyasi davlat mustaqilligining timsoli bo'lib, u O'zbekiston fuqarosida vatanparvarlik tuyg'ularini uyg'otadi. O'zbekiston Respublikasining davlat madhiyasi jamoatchilik oldida ijro

etilganida ishtirokchilar uni tik turib, qo'lini ko'ksiga qo'yib kuylaydilar va tinglaydilar.

Mustaqil, erkin davlatning asosiy belgisi, asl poydevori – milliy valyutadir. O'z valyutasiga ega bo'lmagan davlat o'z manfaatlarini ko'zlab mustaqil ravishda moliya-kredit, bank siyosatini yurita olmaydi, o'z taqdirini, tashkilotlar, xo'jaliklar va fuqarolar taqdirini belgilay olmaydi. Shu boisdan milliy valutaga o'tish O'zbekiston uchun oliy maqsad edi. Biroq milliy valutaga o'tish oson ko'chmaydi, yangi valutani muomalaga kiritish inqilob bilan teng. Dunyo tajribasi ko'rsatadiki, davlatlar o'z milliy valyutasiga erishish uchun uzoq va mashaqqatli yo'llar bosib o'tgan, bor qudratini safarbar etgan. O'zbekistonda milliy valutani muomalaga kiritish uchun ham ma'lum vaqt, tajriba kerak edi. Avvalo, haqiqiy mustaqil iqtisodiyotga erishish lozim edi. Shu boisdan O'zbekiston mustaqillikning dastlabki payti 1991-1993-yillarda sobiq Ittifoqdan meros qolgan rubl zonasida bo'lib turdi. Biroq sovetlardan keyingi makonda yalpi ichki mahsulot ishlab chiqarishning keskin pasayishi natijasida rublning qadri ham shunga mos ravishda tushib bordi. 1993-yil may oyi boshlarida 800-900 rublning qadri 1 AQSH dollari darajasiga tushib ketgan edi. Shu yili Rossiyada oldingi rubl kursiga tenglashtirilgan yangi namunadagi rubl chiqarildi. Rossiya hukumati 1993-yil 26-iyulda O'zbekiston mutasaddi vakillarini Moskvaga taklif qilib, birgalikda rubl zonasida bo'lamiz deb aytdi. Keyinroq Rossiya, O'zbekiston va Qozog'iston rahbarlari Moskvada uchrashib, rubl zonasini saqlashga, O'zbekiston va Qozog'istonni 1993 - yilgi yangi rubl namunasi bilan ta'minlashga qaror qilindi. Biroq, amalda boshqacha yo'l tutildi, to'g'rirog'i Rossiya hukumati bu tadbirlardan o'z manfaati yo'lida foydalanmoqchi bo'ldi. Rossiya hukumati O'zbekiston oldiga o'z shartlarini qo'ydi. Birinchidan, kerakli rublni davlatlararo qarz sifatida, keyinchalik boylik yoki mahsulot bilan to'lash sharti qo'yildi. Ikkinchidan, rublni olishdan oldin uning 50 % miqdoridagi AQSH dollari yoki O'zbekiston oltinini garovga qo'yish talab qilindi. Uchinchidan, O'zbekistonda muomalada bo'lgan 1961-1992-yilgi namunadagi pulni (rubl) yangi 1993-yil namunasiidagi rublga uchga bir nisbati bilan almashtirish sharti qo'yildi. To'rtinchidan, birorta shart bajarilmay qolsa, tovon puli to'lash majburiyati belgilandi. Beshinchidan, O'zbekiston Markaziy Banki Rossiya Markaziy Bankiga hisobot berishi, ya'ni tobe bo'lishi kerak edi. O'zbekiston bunday shartlarga rozi bo'lolmas edi, rozi bo'lmadi ham. Shu boisdan muomalaga yangi milliy valyuta kiritish ishiga jiddiy kirishildi. O'zbekiston rahbariyati „kata og'a“ ning o'yinlariga qarshi oldindan chora-tadbirlar ko'rib qo'ygan edi. 1992-yildayoq muomalaga chiqarishga mo'ljallangan so'm-kupon nusxalari tayyorlab qo'yilgan edi. Nihoyat, 1993 - yil 1 noyabrda O'zbekistonda so'm-kupon muomalaga kiritildi, uning kursi oldin muomalada bo'lib kelgan rublga tenglashtirilgan edi. Shu yil noyabr oyi davomida aholi qo'lidagi rubl namunasiidagi pullarini jamg'arma banklari orqali so'm-kuponga almashtirish ta'minlandi. So'm-kupon joriy etilayotgan dastlabki paytlarda chetdan rubl oqib kelmoqda, degan mish-mishlar ko'paydi. Bozorda narxlar osmonga chiqdi. Toshkent bozorlarida bir kg go'sht 25 - ming so'mkupongacha ko'tarildi. Hukumat buning oldini olish choralari ko'rildi. Aholi ortiqcha tashvish, aziyat chekmadi, aksincha aholi, iqtisodiyot himoya qilindi. O'zbekiston rahbariyati so'm-kuponlar asosida zarur tajriba orttirdi, haqiqiy milliy valutani joriy qilish

tadbirlarini ko'rdi. 1994 - yil 16- iyundagi „O‘zbekiston Respublikasining milliy valutasini muomalaga kiritish to‘g‘risida“ gi Prezident farmoni va Vazirlar Mahkamasining qaroriga binoan 1994 - yil 1- iyuldan boshlab milliy valuta – so‘m muomalaga kiritildi. 1 so‘m kursi 1000 so‘m-kuponiga tenglashtirilgan holda joriy qilindi.

Milliy valuta – so‘m O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining qiymati 1, 3, 5, 10, 25, 50, 100 so‘m bo‘lgan bank qog‘oz pullari (banknotlar) holida muomalaga chiqarildi. Aholi qo‘lidagi so‘m-kuponlar jamg‘arma banklari orqali 1000 ga 1 qiymatda almashtirildi. Keyinroq 200, 500, 1000 so‘mlik qog‘oz pullari ham muomalaga kiritildi. Shuningdek, qiymati har xil miqdordagi tangalar ham naqd pul holida muomalaga chiqarildi. Milliy valutaning muomalaga kiritilishi mamlakatimiz hayotida muhim voqea bo‘ldi. O‘zbekistonning xalqaro maydonda mavqeyi oshdi, o‘zining pul-kredit, moliya siyosatini amalda mustaqil yuritadigan bo‘ldi. Bu iqtisodiy islohotlarni yanada chuqurlashtirish uchun ulay imkoniyat yaratdi. 2003 - yil 15-oktabrdan boshlab, so‘m qisman konvertatsiyalanadigan valyuta maqomiga ko‘tarildi.

Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar

1. Taraqqiyotning “O‘zbek modeli” va uning o‘ziga xos xususiyatlari haqida nimalarni bilasiz?
2. O‘zbekistonning ijtimoiy-siyosiy rivojlanish strategiyasi qanday amalga oshirildi?
3. Mustaqillikning me‘yoriy-huquqiy asoslarining qachondan yaratildi?
4. Davlat ramzlari deganda nimalarni tushunasiz?
5. “O‘zbekiston Respublikasining davlat bayrog‘i to‘g‘risida” gi Qonun qachon qilindi?
6. O‘zbekiston Respublikasining davlat bayrog‘ini tasvirlab bering, u qanday hollarda ko‘tariladi?
7. “O‘zbekiston Respublikasi davlat Gerbi tog‘risida” gi Qonun qachon qabul qilingan?
8. “O‘zbekiston Respublikasining Davlat madhiyasi to‘g‘risida”gi Qonun qachon qabul qilingan?
9. O‘zbekistonning o‘ziga xos taraqqiyot yo‘lini ishlab chiqishda nimalar asos qilib olindi?
10. O‘zbekiston – kelajagi buyuk davlat, deganda nimalarni tushunasiz?

Testlar

1. Respublikamiz gerbida tasvirlangan sakkiz qirrali yulduz nimaning ramzi hisoblanadi?

A) barkamollik, mukammallik

B) erkinlik

C) tinchlik

D) sobit va barqarorlik

2. O‘zbekistonda so‘m-kupon muomalaga kiritilgani ko‘rsatilgan javobni aniqlang?

A) 1993-yil

B) 1993-yil

C) 1994-yil

D) 1994-yil

3. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining nechanchi bobida O'zbekiston Prezidentining konstitutsiyaviy maqomi aniq belgilab qo'yilgan?
 A) 16 B) 17 C) 18 D) 19
4. O'zbekiston Respublikasi bayrog'ida tasvirlangan 12 yulduz tasviri...
 A) musafo osmon va tinchlik ramzi B) ozoddlik timsoli
 C) sodi-hurramlik ramzi D) barkamollik, makammallik timsoli
5. O'zbekiston Konstitutsiyasining mohiyatini ochib beruvchi uchinchi tamoyilini aniqlang?
 A) demokratiyaga sodiqlik
 B) xalq hokimiyatchiligi
 C) davlat hokimiyatining tarmoqlarga bo'linishi
 D) Konstitutsiya va qonunlar ustivorligi
6. "Humo qushini barcha tirik mavjudotlar ichida eng saxovatlisi" deb ta'riflagan davlat arbobini aniqlang?
 A) Z.M.Bobur B) I.A.Karimov C) A.Navoiy D) A.N.Forobiy
7. O'zbekiston Respublikasi Gerbidagi qaysi elementlar yashil rangda berilgan?
 A) Humo qushi, quyosh, boshoqlar, paxta
 B) "O'zbekiston" degan yozuv
 C) g'o'za shoxlari va barglari
 D) tog'lar, daryolar, yarim oy va yulduz
8. 1994-yil 16-iyunda ...
 A) "O'zbekiston Respublikasining milliy valutasini muomalaga kiritish to'g'risida" gi Prezident farmoni e'lon qilindi
 B) "Bayram kunlari haqida"gi qonun qabul qilindi
 C) "O'zbekistonda so'm-kuponni muomalaga kiritish to'g'risida" qaror qabul qilindi
 D) "Do'stlik" ordeni ta'sis etildi
9. Ma'lumki, 1994-yil 1-iyuldan boshlab milliy valuta – so'm muomalaga kiritildi. 1 so'm qancha so'm-kuponga tenglashtirildi?
 A) 500 B) 800 C) 100 D) 1000
10. O'zbekiston Respublikasi Gerbidagi qaysi elementl kumush rangda berilgan?
 A) Humo qushi B) boshoqlar
 C) "O'zbekiston" degan yozuv D) g'o'za shoxlari

5-Mavzu: O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining ishlab chiqilishi va qabul qilinishi

Reja

1. Konstitutsiyani yaratish bo'yicha dastlabki harakatlar: loyiha va takliflar
2. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining qabul qilinishi, uning tarixiy ahamiyati
3. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga kiritilgan o'zgarishlar va mohiyati

Darsning o'quv maqsadi: *Talabalarga O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini yaratish bo'yicha dastlabki harakatlar, uning qabul qilinishi, Konstitutsiyaning davlat rivojidagi o'rni hamda kiritilgan o'zgarishlar to'g'risida tushuntirish berish.*

Mavzu yuzasidan tayanch so'z va iboralar: *Konstitutsiya, Oliy Kengash, xalqaro tajriba, loyihalar, Asosiy Qonun, umumxalq muhokamasi, takliflar, moddalar, bo'lim.*

Konstitutsiyani yaratish bo'yicha dastlabki harakatlar: loyiha va takliflar. Tarixiy rivojlanish ko'rsatganidek, har qaysi jamiyat kelajakni ko'zlab yashaydi va uning poydevorini imkon qadar mustahkamroq qurishga harakat qiladi. Shu nuqtayi nazardan qaraganda mustaqillik yillarida davlatimiz, jamiyatimiz erishgan buyuk yutuqlardan biri O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi bo'ldi.

Konstitutsiya lotincha "constitutio" so'zidan olingan bo'lib, "tuzilish", "o'rnatish" degan ma'nolarni bildiradi. Konstitutsiya alohida yuridik xususiyatlarga ega bo'lgan yagona siyosiy-huquqiy hujjat bo'lib, unda shaxs, jamiyat va davlat o'rtasidagi munosabatlarning asosiy prinsiplari o'rnatiladi; davlat hokimiyatining tuzilishi, sub'ektlari, hokimiyatni amalga oshirish mexanizmi belgilanadi; jamiyat, inson va fuqaroning davlat tomonidan qo'riqlanadigan huquqlari va erkinliklari mustahkamlanadi.

Konstitutsiya o'z mohiyati va yuridik tabiatiga ko'ra boshqa huquqiy hujjatlardan quyidagi muhim jihatlari bilan ajralib turadi: a) konstitutsiya maxsus sub'ekt tomonidan yoki uning nomidan chiqariladi; b) konstitutsiyaviy qoidalar ta'sis etuvchi, yo'naltiruvchi, birlamchi ahamiyatga ega; v) konstitutsiyaviy tartibga solish hajmining keng qamrovliligi bilan tavsiflanadi, ya'ni u nihoyatda muhim va keng ko'lamdagi ijtimoiy munosabatlar doirasiga ta'sir ko'rsatadi; g) konstitutsiya alohida yuridik xususiyatlarga ega, ya'ni boshqa qonunlardan ustunlikka, oliy yuridik kuchga, o'ziga xos muhofaza shakliga, maxsus tarzda qabul qilinish va o'zgartirilish tartibiga ega.

Mustaqil O'zbekiston Konstitutsiyasini yaratish g'oyasi 1990-yil 20-iyunda "Mustaqillik deklaratsiyasi"ning qabul qilinishi bilan bevosita bog'liq. Mazkur Deklaratsiya qabul qilingan Oliy Kengashning ikkinchi sessiyasida bu hujjatdagi muhim tamoyillar asosida davlatning yangi Konstitutsiyasi ishlab chiqilishi lozim, degan xulosaga kelindi. Sessiya Prezident I. Karimov raisligida 64 kishidan iborat Konstitutsiya komissiyasini tuzish to'g'risida qaror qabul qildi. Uning tarkibiga

deputatlar, Qoraqalpog‘iston Respublikasi va viloyatlarning vakillari, davlat hamda jamoat tashkilotlarining, korxonalar, xo‘jaliklarning rahbarlari, taniqli huquqshunolar, olimlar va mutaxassislar kirdi. Oliy Kengashning o‘ninchi sessiyasida Komissiya tarkibi qisman yangilandi. Shuni alohida aytish kerakki, O‘zbekistonda konstitutsiyaviy ahamiyatga molik islohotlar Konstitutsiyaviy komissiya tuzilishidan ancha avvalroq boshlangan edi. Ma’lumki, 1990-yil 24-martida respublika Oliy Kengashining birinchi sessiyasi muhim tarixiy qaror qabul qilib, O‘zbekiston Prezidenti lavozimini ta’ sis etgan edi. Prezidentlik boshqaruvining joriy etilishi sovetlar hukmron bo‘lgan davlat boshqaruv shakliga barham berib, amalda davlatimizning prezidentlik respublikasi shakliga o‘tishini anglatardi. Prezidentlik institutining kiritilishi davlat hokimiyati vakolatlarining yangicha taqsimlanishini taqozo etar edi. Shu munosabat bilan ijroiya boshqaruv hokimiyatining tizimi takomillashtirildi.

1990-yil 1-noyabrda “O‘zbekiston SSRda ijroiya va boshqaruv hokimiyatining tuzilishini takomillashtirish hamda O‘zbekiston SSR Konstitutsiyasi (Asosiy Qonuni)ga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida” qonun qabul qilindi. Mazkur qonunga muvofiq, Prezidentlik hokimiyati bilan Respublika Ministrlar Soveti qo‘shilib, O‘zbekiston Prezidenti huzuridagi Vazirlar Mahkamasiga aylantirildi. Ijroiya hokimiyat Prezident qo‘lida birlashtirildi. U ham hukumat rahbari, ham davlat boshlig‘i vazifasini zimmasiga oldi. Navbatdagi konstitutsiyaviy islohot qadami viloyatlar, shaharlar va tumanlarda davlat hokimiyatining vakillik hamda ijroiya idoralariga rahbarlik qiluvchi hokimlar lavozimini ta’ sis etishdan iborat bo‘ldi.

Ijtimoiy-siyosiy taraqqiyotimizda hayotiy ehtiyoj tarzida ro‘y berayotgan real o‘zgarishlar o‘z navbatida siyosiy va huquqiy tafakkurni shakllantirib bordi. Konstitutsiya loyihasi ustida bevosita ishlashni faollashtirishga vaziyat yetilgach, Konstitutsiyaviy komissiya 1991-yil 12-aprelda I. Karimov raisligida o‘zining birinchi majlisiga to‘plandi. Konstitutsiya loyihasini yaratish bilan bog‘liq barcha tashkiliy va ijodiy jarayonni muvofiqlashtirib borish uchun Konstitutsiyaviy komissiya a‘zolari hamda yetakchi mutaxassislar va olimlardan iborat 32 kishilik ishchi guruhi tashkil etildi. Uning tarkibiga qonun chiqaruvchi idora, bir necha qo‘mitalarning raislari, vazirliklar, sud, prokuratura idoralarining rahbarlari, Respublika Prezidenti devoni va Oliy Kengashning mas’ul xodimlari kirdi. Shuningdek, Konstitutsiya loyihasi mo‘ljallanayotgan bo‘limlarini tayyorlash uchun akademik Shavkat Urazayev rahbarligida 6 ta kichik guruhlar tashkil etildi. Kichik guruhlar tarkibiga 44 nafar ilmiy xodim va mutaxassis jalb qilindi. Bu kichik guruhlar Konstitutsiyaning quyidagi bo‘limlari bo‘yicha ish olib bordi: 1) Konstitutsiyaning muqaddimasi; 2) O‘zbekiston konstitutsiyaviy tuzumining asoslari bo‘limi; 3) fuqarolarning huquqlari, erkinliklar va majburiyatlari bo‘limi; 4) fuqarolik jamiyati bo‘limi; 5) davlat tuzilishi bo‘limi; 6) davlat hokimiyati tizimi va yakuniy qoidalar.

Ishchi guruhi oldiga konstitutsiyaviy rivojlanishning jahon tajribasi o‘rganib chiqish, boshqa mamlakatlarning inson huquqlari borasida, demokratiya va qonunchilik sohasida qo‘lga kiritgan yutuqlarini hisobga olish, keng xalq ommasi diliga yaqin va tushunarli bo‘lgan siyosiy-yuridik hujjatlarni yaratish kabi vazifalar qo‘yildi. Shuningdek, AQSH, Fransiya, Kanada, Germaniya, Shvetsiya, Yaponiya, Italiya, Ispaniya, Portugaliya, Gretsiya, Turkiya, Eron, Hindiston, Pokiston, Misr,

Vengriya, Bolgariya, Litva davlatlarining konstitutsiyalari chuqur o'rganildi, Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligiga kiruvchi Rossiya Federatsiyasi, Belorusiya, Ukraina, Qozog'iston, Qirg'iziston va Turkmaniston respublikalarining Asosiy qonunlari hamda konstitutsiya loyihalari diqqat bilan ko'rib chiqildi. Yuqorida keltirilgan manbalarni tahlil etish asosida xorijiy davlatlar konstitutsiyalari mazmuni va tuzilishini tavsiflovchi katta hajmli qiyosiy jadval tayyorlandi. Ushbu tahliliy jadvalni jahon konstitutsiyashunosligi tajribasi namunalari umumlashmasi sifatida Respublika Prezidenti o'rganib chiqdi. Yana shuni ham aytish kerakki, o'zbek xalqi ajdodlarining davlatchilikni mustahkamlash yo'lidagi g'oya va fikrlari ham bo'lajak Asosiy Qonunga tayanch manba qilib olindi. Jumladan, Amur Temurning "Temur tuzuklari"dagi davlatni idora qilishga doir muhim qoidalari ham e'tiborga olindi.

Shu tariqa O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi loyihasini yaratish salmoqli nazariy-konseptual zaminga tayandi. Konstitutsiyaviy komissiya Raisining topshirig'i bilan 1991-yil boshlaridayoq bo'lg'usi konstitutsiyaning g'oyaviy mag'zi, ya'ni



konsepsiyasi ustida ish boshlab yuborildi. Natijada uchta muqobil konsepsiya yaratildi. Respublika Fanlar Akademiyasi Falsafa va huquq institutining konsepsiyasi, Siyosatshunoslik va boshqaruv institutining konsepsiyasi va Prezident devoni yuridik bo'limi tayyorlagan konsepsiya.

Ishchi guruh majlisida uchinchi konsepsiya asos uchun qabul qilindi. U qolgan ikki konsepsiyaning diqqatga sazovor g'oyalari bilan boyitilib, umumlashgan, puxta, yagona g'oyaviy asos shakliga keltirildi. Konstitutsiyaviy komissiya va uning Raisi tomonidan ma'qullangan ana shu konsepsiya asosida bo'lajak Konstitutsiya loyihasini yaratishga kirishildi.

Loyihaning dastlabki varianti 1991-yil oktabr-noyabrigacha tayyorlab bo'lindi. U muqaddima, olti bo'linga bo'lingan 158 moddadan iborat edi. Ushbu loyiha yuzaga kelayotgan paytda mamlakatimiz tarixida tub burilish yuz berdi. 1991-yil 31-avgustda O'zbekiston Respublikasi o'zining davlat mustaqilligi asoslari to'g'risidagi konstitutsiyaviy Qonunni va O'zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligi to'g'risida Oliy Kengash Bayonotini qabul qildi. Bu bilan respublika parlamenti mustaqil O'zbekiston Respublikasi, suveren davlat qaror topganligini butun dunyoga e'lon qildi. Qonunda xalq hokimiyatchiligi, demokratik davlatchilik, inson huquqlari muqaddasligi, qonun ustuvorligi, hokimiyat bo'linishi, mamlakatning hududiy yaxlitligi kabi muhim prinsiplar mustahkamlandi. Ushbu ilg'or demokratik g'oya va prinsiplar Konstitutsiya loyihasi mazmuniga ham singdirildi. Shunga qaramasdan dastlabki loyiha hali mukammallik darajasidan ancha yiroq edi. Yanada jiddiyroq va talabchanlik bilan ishlash lozim edi. 1992-yil bahorida loyihaning 149-moddadan iborat ikkinchi varianti ishlab chiqildi. Mamlakat Prezidenti ishtirokida Konstitutsiyaviy komissiyaning navbatdagi majlisi bo'lib o'tdi. Majlisda Konstitutsiya loyihasi ustida olib borilgan ishlar to'g'risidagi axborot tinglandi. Ta'kidlanishicha, ishchi guruh O'zbekiston xalq deputatlari, mehnat jamoalari

rahbarlari, olimlar va mutaxassislar bilan hamkorlikda loyihaning beshinchi ko‘rinishini tayyorladi. Unda o‘zbek xalqining tarixiy, milliy va ma’naviy xususiyatlarini imkon qadar to‘laroq aks ettirishga harakat qilindi. Majlisda Konstitutsiya loyihasini uzil-kesil ishlab chiqish uchun 25 kishidan iborat ishchi guruh (komissiya) tuzishga qaror qilindi va uning zimmasiga quyidagi vazifalar yuklandi:

– huquqiy demokratik davlat barpo etish tajribasini har tomonlama umumlashtirish va uni Konstitutsiya loyihasida hisobga olish;

– O‘zbekistonning demografik va ijtimoiy-siyosiy turmush tarzi, uning taraqqiyoti tajribasini hamda deputatlarining, turli ijtimoiy guruhlarning milliy-madaniy markazlarining taklif-mulohazalarini umumlashtirish;

– Konstitutsiyaviy komissiya a‘zolaridan tushgan takliflarni ko‘rib chiqish va loyihaga tegishli o‘zgarishlar kiritish.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining qabul qilinishi, uning tarixiy ahamiyati. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining loyihasi puxta ishlovlardan so‘ng Konstitutsiyaviy komissiya qarori bilan 1992-yil 26-sentabrda umumxalq muhokamasi uchun matbuotda e‘lon qilindi. Mustaqil davlatimizning har bir fuqarosi, butun xalq ommasi Konstitutsiya loyihasini katta qiziqish va ozod Vatan uchun cheksiz iftixor tuyg‘ulari bilan kutib oldi. Bu o‘z-o‘zidan tushunarli holat. Zero, davlatimizning kelajagi, xalqimizning taqdiri ko‘p jihatdan Konstitutsiyamiz qanday bo‘lishiga bog‘liq. Aniqrog‘i har qanday davlatning Konstitutsiyasi unda yashovchi xalqning irodasini, ruhiyatini, ijtimoiy ongi va madaniyatini aks ettiradi. Konstitutsiya loyihasining umumxalq muhokamasi nihoyatda keng ko‘lamli bo‘lib, yuksak ijodiy ko‘tarinkilik va ishchanlik kayfiyatida o‘tdi. U jamiyatimizda chinakam demokratiya qaror topishining yorqin namoyishi bo‘ldi. Loyihaning qizg‘in hamda manfaatli muhokamasi xalqimizning o‘zi Mustaqil O‘zbekiston Asosiy Qonunining bevosita ijodkori bo‘lganligini ko‘rsatadi. Umumxalq muhokamasi uch oy davom etdi. Shu davrda O‘zbekiston Respublikasi davlat-huquqiy tajribasida muhim bir yangilik bo‘ldi. Uning mazmuni shundaki, Konstitutsiya komissiyasi dastlab belgilagan ikki yarim oylik muddat mobaynida (1992-yil 26-sentabrdan boshlab) loyiha mehnatkashlar takliflari asosida qayta tuzatilib, 1992-yil 21-noyabrda muhokamani davom ettirish uchun yana ikkinchi marotaba matbuotda e‘lon qilindi. Shunday qilib, umumxalq muhokamasi ikki bosqichda amalga oshirildi. Bu holat muhokama ishtirokchilarini siyosiy jihatdan faollashtiruvchi qudratli turtki bo‘ldi. Uning maqsadi fuqarolarga ulaming muhokamadagi jonbozligi mahsuli va samalarini aniq ko‘rsatishdan iborat edi.

Umumxalq muhokamasi davomida jami 6 mingdan ortiq taklif va mulohazalar bildirildi. Faqatgina Konstitutsion komissiyaga mingdan ziyod xatlar tushdi. Ularda loyihaning ixcham, lo‘nda, chuqur ma’noli va barchaga tushunarlilikiga yordam beruvchi mulohazalar bildirildi. Taklif va mulohazalar Konstitutsiya loyihasining hamma moddalariga daxldor bo‘lib, matnning deyarli yarmiga tuzatishlar qilindi. Loyihadagi 127 moddadan 60 tasiga tuzatish va aniqliklar kiritildi. Dastlabki variantdan 4 ta modda chiqarilib, matnga bir necha yangi modda kiritildi.

Taklif va mulohazalarning aksariyati fuqarolar huquqi va burchlari, shaxs daxlsizligi, dinning jamiyatdagi o‘mi va roli, iqtisodiy huquqlar, jumladan, mulk

huquqi, bozor munosabatlari va tadbirkorlikni rivojlantirish, huquqiy tartibot va qonuniylikning konstitutsiyaviy asoslarini mustahkamlashga qaratilgan moddalar, boblar va bo'limlarga taalluqli bo'ldi. Masalan, Konstitutsiya loyihasining "Inson va fuqarolarning asosiy huquqlari, erkinliklari va burchlari" degan bo'limi bo'yicha 1978 ta taklif va mulohazalar tushgan. Shulardan Shaxsiy huquqlar va erkinliklar, Siyosiy huquqlar, Iqtisodiy va ijtimoiy huquqlar, Inson huquqlari va erkinliklarining kafolatlari, fuqarolarning burchlari degan VII-XI boblaridagi 29 ta modda yuzasidan 1656 ta taklif va mulohaza bildirilgan. Bular ichida qizg'in muhokama va munozaraga sabab bo'lgan o'n bitta moddani ya'ni insonning yashash huquqi, fuqaroning aybsizlik prezumpsiyasi, shaxs daxlsizligi, fikr, so'z va e'tiqod erkinligi, har kimning istalgan axborotni olishi va uni tarqatish huquqi, din erkinligi va diniy tashkilotlarning siyosiy maqomi, fuqarolarning mitinglar, yig'ilishlar va namoyishlar shaklida faollik ko'rsatish huquqi, mulkdor bo'lish va mulkni meros qoldirish huquqi, mehnat qilish va ishsizlikdan muhofaza etilish huquqi, bilim olish huquqi, fuqarolarning atrof tabiiy muhitga ehtiyotkorona munosabatda bo'lish majburiyati, Vatanni himoya qilish va harbiy xizmatni o'tash majburiyati kabi masalalami alohida ko'rsatib o'tish mumkin. Mazkur dolzarb masalalar bo'yicha tushgan takliflar soni 1050 ta bo'lib, ular Konstitutsiyaviy komissiya nomiga kelgan takliflar-ning salkam 20% ini tashkil etdi. Bu raqam VII-XI boblardagi moddalarga oid takliflar miqdoriga nisbatan esa 63% tashkil qiladi.

Shunday qilib, Konstitutsiya loyihasining umumxalq muhokamasi O'zbekiston xalqining irodasini bevosita aniqlash, shuningdek, muhokama davomida to'plangan boy materialni har tomonlama va chuqur o'rganib, umumlashtirib, uni yaxlit davlat irodasi tarzida Asosiy Qonunda ifodalash imkonini berdi. Konstitutsiya xalqimizning siyosiy donoligi va tafakkuri mahsuli bo'ldi.

Umumxalq muhokamasi davom etayotgan davrda ham Konstitutsiya komissiyasi loyihani takomillashtirishga katta e'tibor qaratdi. Fuqarolar va mehnat jamoalaridan tushayotgan taklif-mulohazalar jamlanib, Rais e'tiboriga havola etib turildi. Mamlakat Prezidenti Konstitutsiya loyihasi ustida ishlar ekan, uning ortida millionlab fuqarolarning taqdiri turganligini qayta-qayta ta'kidladi. Prezident ishlagan loyihalar nusxasidan ayrimlarini misol tariqasida keltiramiz: Loyihaning 1-moddasida "O'zbekiston - demokratik respublika" deb yozilgan edi. Prezident bunga aniqlik kiritib, "suveren" so'zini qo'shib qo'ygan. Natijada bu modda "O'zbekiston - suveren demokratik respublika" tarzida bo'ldi. Ma'lumki, suverenitet har qanday davlatning muhim belgisidir. Konstitutsiyada bu jihatga urg'u berilishi O'zbekiston uchun alohida ahamiyatga ega. Chunki, O'zbekiston endi ilgarigidek ittifoq davlatining tarkibida emas. Ikkinchi tarafdin, uning Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligiga qo'shilganligi mustaqillikni va davlat suverenitetini yo'qotdi, degan ma'noni anglatmaydi. Bu MDH shakllanayotgan va uning atrofida turli qarama-qarshi mulohazalar bildirilayotgan bir paytda katta siyosiy ahamiyatga ega edi.

Dastlabki loyihaning 7-moddasi, 2-qismi quyidagicha edi: "O'zbekiston Respublikasida davlat hokimiyati Konstitutsiya va vakolat bergan idoralar tomonidagina amalga oshiriladi". Prezident nihoyatda muhim tuzatish kiritdi. Ya'ni, respublikada davlat hokimiyati xalq manfaatlarini ko'zlab amalga oshiriladi. Bu bilan Konstitutsiyaning "Xalq davlat hokimiyatining birdan bir manbayidir" degan qoidasi

bilan yuqorida keltirilgan qoidasi o'rtasidagi mantiqiy bog'liqlik kuchaydi. Loyihaning 17-moddasi, 2-qismida quyidagi me'yor mustahkamlangan edi: "respublika o'zining suveren huquqlarini boshqa davlatlar bilan birgalikda amalga oshirishi sharti asosida umumiy farovonlik va xavfsizlikni ta'minlash maqsadida hamdo'stlik va boshqa davlatlararo birikmalarga kirishi, ittifoqlar tuzishi hamda ittifoqlardan, hamdo'stlik va boshqa davlatlararo birikmalardan chiqishi mumkin". Prezident matndan "o'zining suveren huquqlarni boshqa davlatlar bilan birgalikda amalga oshirishi" so'zlarini chiqarib tashladi va loyihaning quyidagi tahririni bayon qildi: "Respublika davlatning, xalqning oliy manfaatlari, farovonligi va xavfsizligini ta'minlash maqsadida ittifoqlar tuzishi, hamdo'stliklarga va boshqa davlatlararo tuzilmalarga kirishi va ulardan ajralib chiqishi mumkin".

Inson huquqlari, erkinliklari va burchlarini mustahkamlovchi qoidalar alohida diqqat-e'tiborga molik bo'ldi. Bu masala dastavval loyihada quyidagicha edi: "O'zbekiston Respublikasi fuqarosi tabiiy, ajralmas, buzilmas huquq va erkinliklarga ega. Ular daxlsiz va hech kim sudsiz ulardan mahrum etishga va ularni cheklashga haqli emas" (19-modda). Bir qarashda hammasi xalqaro huquq mezonlariga muvofiqdek ko'rinadi. Ammo Konstitutsiyaviy komissiya Raisi bu moddani chiqarib tashlab, uni 20-moddaning ikkinchi jumlasini oxiriga qo'shishni taklif etdi. Natijada modda quyidagi ko'rinishga ega bo'ldi: "...Fuqarolarning Konstitutsiya va qonunlarda mustahkamlab qo'yilgan huquq va erkinliklari daxlsizdir, ulardan sud qarorisiz mahrum etishga yoki ularni cheklab qo'yishga hech kim haqli emas". Kiritilgan tuzatish ijodiy tafakkur va donishmandlik mahsulidir. Uning to'g'riligi loyihadagi 19-modda mazmunini qo'shimcha tahlil etganda ayon bo'ladi. Ilgarigi ma'noga ko'ra: shaxsning barcha tabiiy huquq va erkinliklari daxlsiz deb tanilib, ular sud muhofazasiga da'vogarlik qilar edi. Mazkur normaning yuridik jihatdan noaniq va bo'shligi ko'rinib turibdi. Aks holda inson va fuqaroning barcha tabiiy huquqlari to'la ro'yxatini qanday aniqlash mumkin? Bu noaniqlik sharoitida hamma huquq va erkinliklar sud himoyasi bilan ta'minlanishi aqlga sig'adimi? Albatta, yo'q. Konstitutsiya loyihasidagi "fuqarolarning huquq va erkinliklarini amalga oshirishlari ularning o'z majburiyatlarini bajarishlaridan ajralmasdir" - degan so'zlarni Prezident quyidagi aniq ifodalar bilan almashtirdi: "Barcha fuqarolar Konstitutsiyada belgilab qo'yilgan burchlarini bajaradilar". Endi bu me'yor huquqiy jihatdan sodda, tushunarli, lo'nda va aniq ko'rinishga ega bo'ldi.

Konstitutsiyaviy komissiya Raisining tashabbusi bilan loyihaga shaxsning daxlsizligi, aybsizlik prezumpsiyasi, onalik va bolalikning davlat tomonidan muhofaza qilinishi to'g'risidagi moddalar kiritildi. Konstitutsiyaviy komissiyaning 1992-yil 7-dekabrda bo'lib o'tgan majlisida Prezident Konstitutsiya loyihasini xotin-qizlar bilan erkaklar teng huquqli ekanligi haqidagi, shuningdek, madaniy yodgorliklar davlat tomonidan muhofaza qilinishi haqidagi moddalar bilan to'ldirishni taklif etdi. Mazkur majlis ishtirokchilaridan biri prezidentiik boshqaruvi shaklini mustahkamlashni, "Davlat hokimiyatining tashkil etilishi" degan bo'limni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti to'g'risidagi bob bilan boshlashni taklif qildi. Konstitutsiyaviy komissiya Raisi bunga e'tiroz bildirib: "Avvalo Parlament haqidagi, so'ngra Prezident haqidagi bob bayon etiladi. Konstitutsiyamizda birinchi navbatda xalq demokratiyasi ustuvorlik qilishi lozim", dedi.

1992-yil 8-dekabrda XII chaqiriq O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining XI sessiyasi bo‘ldi. Unda “O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini qabul qilish haqida”gi masala ko‘rildi. Bu xususda Konstitutsiya komissiyasi Raisi ma‘ruza qildi. Ushbu ma‘ruzada sessiya muhokamasiga havola qilingan O‘zbekistonning asosiy Qonuni respublikada avvalgi yillarda qabul qilgan qonunlardan farqli o‘laroq, demokratik yo‘l bilan tayyorlangan bo‘lib, unda yillar davomida sinovdan o‘tgan umuminsoniy qadriyatlar o‘z aksini topganligi, u ko‘plab taraqqiy etgan mamlakatlarning tajribalarini o‘ziga singdirganligi alohida uqtirildi. Shuning uchun ham mazkur Konstitutsiya har qanday yetakchi mamlakatning Konstitutsiyasi bilan bahslash olishi mumkin”, - deb ta‘kidlandi. Sessiyada deputatlar loyihaga 80 ga yaqin o‘zgarish, qo‘shimcha va aniqliklar kiritdilar. Jumladan, Konstitutsiyaviy, Oliy va Oliy xo‘jalik sudlarining vakolat muddati o‘n yildan besh yilgacha tushirildi. Oliy Kengash 84-moddani quyidagi yangi qism bilan to‘ldirdi: “Oliy Majlis Raisi va uning o‘rinbosarlari O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga har yili hisobot berib turadilar”. 78-moddaning 8-bandiga esa yangi jumla qo‘shildi: “Vazirlar Mahkamasining taqdimiga binoan O‘zbekiston Respublikasining budjetini qabul qilish va uning ijrosini nazorat etish, soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarni joriy qilish” va hokazo. Albatta, deputatlar takliflarining rad etilganlari, loyihaga qo‘shilmaganlari ham bo‘ldi. Masalan, deputat V.A.Kozlov Oliy Majlis ikki palatadan iborat bo‘lishini taklif etdi. Biroq, bu taklif qabul qilinmadi, tajribada sinalgan bir palatalik tizim saqlab qolindi. Sababi, o‘sha davrda O‘zbekistonda hali ikki palatali parlamentga o‘tish sharoiti, tajriba va ko‘nikma yetarli emas edi. Shuningdek, mamlakatda xalqlar o‘rtasida barqarorlik, millatlararo munosabatlar, milliy totuvlik yo‘lga qo‘yilgani bilan ajralib turadi. Gap ko‘p pog‘onali parlament tuzishda emas, balki davlatning dono, puxta o‘ylangan milliy siyosatida, asrash va rivojlantirish zarur bo‘lgan xalq an‘analarida edi. Shuning uchun O‘zbekistonda tuzilajak parlament dastlab bir palatali bo‘lishi lozim topildi.

Viloyatlarda, shaharlar va tumanlarda hokimlar va sudyalarni tayinlash emas, balki saylash to‘g‘risida ham takliflar tushdi. Sudyalarni va mahalliy hokimiyat organlarini saylash haqidagi qonun uzoq vaqt ishlab keldi, ammo bu amalda hech narsa bermadi. Konstitutsiya komissiyasi boshqa mamlakatlar tajribasiga suyanan holda o‘zga yo‘lni tanladi. Mansabdor shaxslarning shaxsiy mas‘uliyatini oshirish maqsadida ularni tayinlashga va ulardan zimmalariga yuklatilgan vazifalarni bajarishni talab qilishga qodir bo‘lgan tayinlash tamoyilini maqbul ko‘rildi.

Sog‘lom, oqilona fikrlar aytilgan ko‘plab boshqa takliflar ham tushdi. Biroq, konstitutsiya xarakteridagi hujjatni qabul qilishda ularning barchasini inobatga olish mumkin emas edi. Shu bois ba‘zi takliflar Oliy Kengashning komitetlari va komissiyalariga o‘rganib chiqish va tegishli qonun hujjatlarini ishlab chiqishda foydalanish uchun yuborildi. Xullas, ikki yil tayyorgarlik va ikki yarim oy umumxalq muhokamasidan so‘ng Konstitutsiya loyihasi sessiya tasdig‘iga havola qilindi.

Ba‘zi deputatlar loyihaning 58-moddasida kasaba uyushmalariga a‘zolik majburiy ravishda bo‘lishi haqidagi qoida mustahkamlansin, degan takliflarni ilgari surdilar. Ushbu fikr ham qo‘llab-quvvatlanmadi. Chunki bu jamoat birlashmalarining ixtiyoriylik asosida tuzilishi prinsipiga zid edi. Deputat M.Yusupov 118-moddaning 3-qismida “viloyat, shahar va tuman prokurorlari tegishli ma‘muriy-hududiy

birlikning hokimi bilan kelishilgan holda tayinlanadilar”, degan qoida yozilishini taklif etdi. Bu taklifga Oliy Kengash deputatlarining ko‘pchiligi qo‘shilmadi. Sababi amaldagi qonunchilik va tajribaga muvofiq, prokuratura organlari yakkahokimlik tamoyili asosida tuziladi va faoliyat yuritadi. Shu bois barcha bo‘g‘indagi prokurorlar Respublika Bosh Prokurori tomonidan lavozimga tayinlanadilar. Bundan tashqari, prokuratura organlari xuddi sudlar singari mahalliy hokimiyat organlari ta’siri ostida bo‘lishi mumkin emas. Boz ustiga prokuratura tegishli hududdagi hokimlar faoliyatining qonuniyligi ustidan nazoratni amalga oshiradi. Deputatlarning bir qator taklif va mulohazalari Konstitutsiya loyihasining tahririni, uslubiy ravonligini barkamollashtirishga ko‘mak berdi.

Shunday qilib, suveren demokratik O‘zbekiston Respublikasining birinchi Konstitutsiyasi qabul qilindi. Asosiy Qomusimiz davlat mustaqilligimizning mevasi, samarador mahsuli sifatida dunyoga keldi va hurligimiz, ozod-erkinligimiz qalqoni sifatida yashamoqda.

Konstitutsiya kelajagi buyuk O‘zbekistonning qad rostlashi uchun, adolatli huquqiy davlat barpo etish uchun mustahkam huquqiy poy- devor bo‘lib xizmat qilmoqda. Konstitutsiyaviy komissiyaning Raisi I. Karimov Oliy Kengashning o‘n birinchi sessiyasida Konstitutsiya loyihasi yuzasidan so‘zlagan nutqida shunday deb ta’kidladi: “Hur O‘zbekistonimizning tarixida birinchi Konstitutsiyani qabul qilish - jumhuriyatimizning yangidan tug‘ilishidir, huquqiy mustaqilligimizga mustahkam poydevor qurishdir,.. Konstitutsiyamiz asosiy qonunimiz sifatida davlatni davlat qiladigan, millatni millat qiladigan qonunlarga asos bo‘lishi muqarrar... Konstitutsiya o‘zining tub mohiyati, falsafiy g‘oyasiga ko‘ra yangi hujjatdir. Unda kommunistik mafkura, sinfiylik, partiyaviylikdan asar ham yo‘q. Jamiki dunyoviy ne‘matlar orasida eng ulug‘i - inson degan fikrni ilgari surdik va shu asosda “fuqaro - jamiyat – davlat” o‘rtasidagi o‘zaro munosabatning oqilona huquqiy yechimini topishga intildik.

O‘zbekiston Konstitutsiyasi oliy darajadagi qonun sifatida davlatimizning qiyofasini, uning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy tuzumini, boshqaruvning demokratik tamoyillarini, jamiyat rivojlanishining strategik yo‘nalishlarini, fuqarolarning huquq va erkinliklari kafolatlanganligini, hamda, ma’naviy qadriyatlarimiz asoslarini mustahkamlab berdi. Sessiya ishtirokchilari yakdillik bilan 6 bo‘lim, 128 moddadan iborat Konstitutsiyani qabul qildilar. Shunday qilib, O‘zbekiston Respublikasi tarixida birinchi marta xalqaro huquqning hamma tomonidan e’tirof etilgan tamoyillari va me’yorlariga, umuminsoniy qadriyatlarining ustuvorligiga asoslangan real, tub ma’nodagi demokratik Konstitutsiya yaratildi va kuchga kiritildi. Bu Konstitutsiya 1990-yil 20-iyunda qabul qilingan “Mustaqillik Deklaratsiya”si va “O‘zbekiston Respublikasining davlat Mustaqilligi asoslari to‘g‘risida”gi qonunda mustahkamlangan prinsiplar va g‘oyalarni o‘zida to‘la mujassamlashtirdi, ularni rivojlantirdi. Konstitutsiya loyihasi ishlab chiqilishi jarayonida ishchi guruhi BMTning xalqaro huquqiy hujjatlariga, ayniqsa, 1984-yil 10-dekabrda qabul qilingan Inson huquqlari umumiy deklaratsiyasiga, Siyosiy va fuqarolik huquqlari to‘g‘risidagi Bitimga (1966-yil), Xelsinki imzolangan Yevropada Xavfsizlik va Hamkorlik Tashkilotining (OBSE) yakunlovchi hujjatiga asoslanganligi ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Faqat milliy istiqlol, davlat mustaqilligiga erishish tufayli O'zbekiston Respublikasining tamomila yangi, inson manfaatlarini, haq-huquqini himoya qiluvchi chinakam demokratik Konstitutsiyasini yaratishdek ulkan tarixiy imkoniyat vujudga keldi. O'zbekiston Respublikasi XII chaqiriq Oliy Kengashining 1992-yil 8-dekabrda o'n birinchi sessiyasi tomonidan O'zbekistonning birinchi Konstitutsiyasi qabul qilinishi mamlakat tarixida olamshumul voqea edi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga kiritilgan o'zgarishlar va mohiyati. Konstitutsiya O'zbekiston Respublikasining mustaqil taraqqiyot yo'lidagi, zamonaviy demokratik va huquqiy davlat barpo etishdagi asosiy huquqiy hujjat bo'lib shakllandi. U o'z mazmun-mohiyatiga ko'ra, jahondagi eng ilg'or va demokratik jihatlarni o'z ichiga singdirgan. Keyinchalik jamiyatni yanada erkinlashtirish va demokratiyalash, ikki palatali parlament tuzish zaruriyatidan kelib chiqqan holda Konstitutsiyaga tegishli o'zgartirish va qo'shimchalar kiritildi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga hozirgi kunga qadar 14 marta o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilgan.

Xususan, 2002-yil 27-yanvarda shu maqsadda umumxalq Referendumi o'tkazildi. Referendum yakunlariga ko'ra 2003-yil aprelda ikkinchi chaqiriq Oliy Majlisning o'n birinchi sessiyasi "O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga o'zgartirishlar va qo'shimchalar kiritish to'g'risida" qonun qabul qildi. Ushbu qonun asosida O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi moddalariga kiritilgan o'zgartirishlar asosan uning beshinchi bo'limi XVIII, XIX, XX, XXIII boblariga taalluqli bo'ldi. Ma'lumki, 2002-yil 27-yanvarda umumxalq Referendumi O'zbekiston Respublikasining ikki palatali parlamentini saylash va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining



Prezidentining Konstitutsiyaviy vakolat muddatini besh yildan yetti yillik qilib o'zgartirish to'g'risidagi masalalarga bag'ishlangan edi. Referendum qarorlariga muvofik, "Referendum yakunlari hamda davlat hokimiyati tashkil etilishining asosiy prinsiplari to'g'risida"gi "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati to'g'risida"gi, "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining qonunchilik palatasi to'g'risida"gi Konstitutsiyaviy qonunlar qabul qilingan bo'lib, ular O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga tegishli o'zgartirishlar va qo'shimchalar kiritish uchun asos bo'lib hisoblandi. Shunga ko'ra, 2004-yil 25-dekabrda bo'lib o'tgan saylovga muvofiq O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining qonunchilik palatasi hududiy saylov okruglari bo'yicha ko'p partiyaviylik asosida bir yuz yigirma deputatdan iborat tarzda shakllantirildi. Konstitutsiyaga muvofiq 2005-yil, yanvar oyida O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati hududiy vakillik palatasi bo'lib, Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi, viloyatlar, tumanlar va shaharlar

davlat hokimiyati vakillik organlari deputatlarining tegishli qo'shma majlislarida mazkur deputatlar orasidan ovoz berish yo'li bilan Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahrida teng miqdorda - olti kishidan saylandi. Ayni chog'da O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining o'n olti nafar a'zosi fan, san'at, adabiyot, ishlab chiqarish sohasida hamda davlat va jamiyat faoliyatining boshqa tarmoqlarida katta amaliy tajribaga ega bo'lgan hamda alohida xizmat ko'rsatgan eng obro'li fuqarolar orasidan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan tayinlandi. Yana shuni aytish joizki, Saylov kuni yigirma besh yoshga to'lgan hamda kamida besh yil O'zbekiston Respublikasi hududida muqim yashayotgan O'zbekiston Respublikasi fuqarosi O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining qonunchilik palatasi deputati, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining a'zosi bo'lishi mumkin. Deputatlikka nomzodlarga qo'yiladigan talablar qonun bilan kafolatlandi. Ayni bir shaxs bir paytning o'zida O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining qonunchilik palatasi deputati va Senati a'zosi bo'lishi mumkin emasligi ko'rsatib qo'yildi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining qonunchilik palatasi majlislari sessiyalar davrida o'tkaziladi. Sessiyalar, qoida tariqasida, sentabning birinchi ish kunidan boshlab kelgusi yilning iyun oyi oxirgi ish kuniga qadar o'tkaziladi. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati majlislari zaruratiga qarab, lekin yiliga kamida uch marta o'tkaziladigan bo'ldi. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining majlislari, agar ular ishida barcha deputatlar, senatorlar umumiy sonining kamida yarmi ishtirok etayotgan bo'lsa, vakolatli hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasining Prezidenti O'zbekiston Respublikasining fuqarolari tomonidan umumiy, teng va to'g'ridan to'g'ri saylov huquqi asosida yashirin ovoz berish yo'li bilan yetti yil muddatga saylanadi. Prezidentni saylash tartibi O'zbekiston Respublikasining qonuni bilan belgilanadi. 97-modda quyidagi tahrirda bayon etiladi: "Vakolati tugashi munosabati bilan iste'foga chiqqan Prezident umrbod Senat a'zosi lavozimini egallaydi". Istiqlolimizning dastlabki yillaridanoq hayotining demokratik huquqiy asoslarini yaratish, jamiyat boshqaruvning ma'muriy-buyruqbozlik tizimiga barham berish maqsadida davlat hokimiyatini tarmoqlarga bo'linishi asosida milliy davlatchiligimizning poydevorini barpo etishga katta e'tibor qaratildi. Konstitutsiyamizda jamiyat va davlat qurilishining asosiy tamo-yillari, fuqarolarning huquq va erkinliklari jamiyat taraqqiyotining iqtisodiy asoslari va strategik yo'nalishlari mustahkamlanib qo'yildi.

Haqiqiy demokratik me'yor va tartiblar asosida O'zbekiston Respublikasi davlat hokimiyatining tizimi qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatiga bo'linishi prinsipiga asoslandi. Vazirlar Mahkamasi, ya'ni Hukumat ijroiya hokimiyati tizimida markaziy o'rinni egallaydi. 98-modda quyidagi tahrirda bayon etildi: "O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi ijro etuvchi hokimiyatini amalga oshiradi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi "O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri, uning o'rinbosarlari, vazirlar, davlat qo'mitalarining raislaridan iborat. Qoraqalpog'iston Respublikasi hukumatining boshlig'i Vazirlar Mahkamasi tarkibiga o'z lavozimi bo'yicha kiradi. Vazirlar Mahkamasining tarkibi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan shakllantiriladi. O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri nomzodi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining taqdimiga binoan

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining palatalari tomonidan ko‘rib chiqiladi va tasdiqlanadi. Vazirlar Mahkamasining a‘zolari O‘zbekiston Respublikasi Bosh vaziri taqdimiga binoan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan tasdiqlanadi. Vazirlar Mahkamasi iqtisodiyotning, ijtimoiy va ma‘naviy sohaning samarali faoliyatiga rahbarlikni, O‘zbekiston Respublikasi qonunlari, Oliy Majlis qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlari ijrosini ta‘minlaydi. Vazirlar Mahkamasi amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq O‘zbekiston Respublikasining butun hududidagi barcha organlar, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, mansabdor shaxslar va fuqarolar tomonidan bajarilishi majburiy bo‘lgan qarorlar va farmoyishlar chiqaradi.

O‘zbekiston Respublikasi Bosh vaziri Vazirlar Mahkamasining faoliyatini tashkil etadi va unga rahbarlik qiladi, uning samarali ishlashi uchun shaxsan javobgar bo‘ladi. Vazirlar Mahkamasining majlislariga raislik qiladi, uning qarorini imzolaydi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining topshirig‘iga binoan xalqaro munosabatlarda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi nomidan ish ko‘radi. O‘zbekiston Respublikasi qonunlarida, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarorlari va farmoyishlarida nazarda tutilgan boshqa vazifalarni bajaradi.

O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti Vazirlar Mahkamasi majlislarida raislik qilishga, Vazirlar Mahkamasi vakolatiga kiruvchi masalalar yuzasidan qarorlar qabul qilishga, shuningdek, ushbu Konstitutsiyaning 89-moddasi va 93-moddasiga asosan Vazirlar Mahkamasi qarorlari va farmoyishlarini, O‘zbekiston respublikasi Bosh vaziri farmoyishlarini bekor qilishga haqli.

Prezidentning 2001-yil 4-yanvarda “O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini o‘rganishni tashkil etish to‘g‘risida” farmoyish chiqardi. Ushbu farmoyishga asosan, Konstitutsiyaning jamiyatdagi o‘rni va ahamiyatini, mazmuni va mohiyatini o‘rganish, yosh avlodning huquqiy ongini yuksaltirish, talaba va o‘quvchi yoshlarda mustahkam bilimlarni shakllantirish talablari qo‘yildi.

Mamlakatimizda uzluksiz ta‘lim tizimida, maktabgacha ta‘lim muassasalaridan to oliy ta‘limning yuqori bosqichi - magistraturagacha, yoshlarning huquqiy bilimlarini oshirishning yaxlit va izchil tizimi vujudga keldi. Ushbu tizimga fan sohasidagi doktoranturagacha bo‘lgan bosqich ham kiradi.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasidagi mamlakat Prezidenti bir paytning o‘zida ijro etuvchi hokimiyat rahbari ham ekanini belgilaydigan normalarning o‘zgartirilishi muhim siyosiy-huquqiy qadam bo‘ldi. Bugungi kunda Konstitutsiyaga muvofiq O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti davlat rahbari bo‘lib, davlat hokimiyati organlarining o‘zaro uyg‘un va hamjihat faoliyat yuritishini ta‘minlaydi. “Davlat boshqaruvini yangilash va yanada demokratlashtirish, mamlakatni modernizatsiya qilishda siyosiy partiyalar rolini kuchaytirish to‘g‘risida”gi konstitutsiyaviy qonunning qabul qilinishi, hech shubhasiz, demokratik islohotlarni chuqurlashtirish borasida asosiy va hal etuvchi rol o‘ynadi.

Hozirgi sharoitda siyosiy partiyalar fuqarolarning siyosiy va ijtimoiy faolligini oshirish, aholining ayniqsa saylov jarayonlarida xohish-irodasi va fikri ifodalash, markazda va joylarda davlat hokimiyati organlarini shakllantirishning muhim ta‘sir o‘tkazuvchi vositasiga aylanishi alohida ahamiyat kasb etadi. Mazkur vazifani hal etish maqsadida parlamentdagi ko‘pchilik ovoz bilan siyosiy partiyalar fraksiyalari

rahbarlarini Qonunchilik palatasi Spikerining o‘rinbosari etib saylash bo‘yicha tashkiliy-huquqiy choralar ko‘rildi. Qabul qilingan ushbu huquqiy mexanizmlar siyosiy partiyalarning mamlakat parlamenti faoliyatini tashkil etishda, shuningdek, vakillik va ijro hokimiyati organlarini shakllantirish, ularning faoliyatini nazorat qilishdagi roli va ahamiyatini tubdan kuchaytirdi. Xususan, Bosh vazir lavozimiga nomzod bo‘yicha siyosiy partiyalar fraksiyalari bilan maslahatlashish tartibi, uning parlament tomonidan tasdiqlanishining qat’iy belgilangan tartib va mexanizmining joriy etilgani davlat qurilishi sohasida demokratik islohotlarni chuqurlashtirish yo‘lidagi muhim qadam bo‘ldi. Konstitutsiyaviy qonunga muvofiq siyosiy partiyalarning Qonunchilik palatasidagi fraksiyalariga Bosh vaziri iste’foga chiqarish, mahalliy kengashlardagi partiya guruhlariga esa viloyat hokimlarini iste’foga chiqarish to‘g‘risida tashabbus bilan chiqish huquqining berilishi ham mutlaqo muhim ahamiyat kasb etadi.

Bundan tashqari 2007-yil 11-apreldagi Qonun bilan Konstitutsiyaning 89-moddasiga, 93-moddasining 15-bandiga, 102-moddasining ikkinchi qismiga tuzatishlar kiritilgan. 2008-yil 25-dekabrda Konstitutsiyaning 77-moddasi birinchi qismiga, 2011-yil 18-aprelda 78, 80, 93, 96 va 98-moddalariga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritilgan. 2011-yil 12-dekabrda qabul qilingan Qonun bilan Konstitutsiyaning 90-moddasi ikkinchi qismiga tuzatish kiritilgan. 2014-yil 16-aprelda Konstitutsiyaning 32, 78, 93, 98, 103 va 117-moddalariga, 2017-yil 6-aprelda 80, 81, 83, 93, 107, 110 va 111-moddalariga 2017-yil 31-mayda 80, 93, 108, va 109-moddalariga, 2017-yil 29-avgustda qabul qilingan Qonun bilan Konstitutsiyaning 99 va 102-moddalariga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritilgan.

2018-yil 15-oktabrda qabul qilingan Qonun bilan 105-moddaning birinchi qismidagi “ikki yarim yil muddatga raisni (oqsoqolni) va uning maslahatchilarini” degan so‘zlar “raisni (oqsoqolni)” degan so‘zlar bilan almashtirilgan. 2019-yil 18-fevralda qabul qilingan Qonun bilan 80 va 93-moddalariga o‘zgartirish kiritilib, Milliy xavfsizlik xizmati Davlat xavfsizlik xizmati deb yuritila boshlandi.

2019-yil 5-martda 79, 93 va 98-moddalarga, 2019-yil 4-sentabrda esa saylov to‘g‘risidagi qonun hujjatlari takomillashtirilishi munosabati bilan 96 va 117-moddalarga o‘zgartirishlar kiritildi.

Mustaqillikning o‘tgan davri shuni ko‘rsatdiki, Konstitutsiya mamlakatimizda siyosiy, iqtisodiy, ma’naviy sohalarida amalga oshirilgan ishlarning huquqiy asosi sifatida o‘zini namoyon qildi. Xalqimiz shu bois ham uni muhim hayotiy qo‘llanma deb hisoblaydi. O‘zbekistonda istiqomat qilayotgan millati, dini va tilidan qat’i nazar barcha fuqaro uchun mustahkam qalqon bo‘lib xizmat qilmoqda. Shuning uchun ham O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini o‘rganishni, uning mohiyatini chuqurroq o‘zlashtirishni hayot taqozo qila boshladi.

Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar

1. Konstitutsiyani yaratish bo‘yicha dastlabki harakatlar haqida qanday fikrdasiz?
2. O‘zbekiston Respublikasida Konstitutsiya komissiyasi qachon tuzildi?
3. O‘zbekiston Respublikasi konstitutsiyaviy tarixi haqida nimalarni bilasiz?

4. O'zbekistonda 2002-yil 27-yanvarda o'tkazilgan umumxalq Referendumini mazmuni haqida qanday fikrdasiz?
5. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga kiritilgan o'zgarishlar haqida nima deya olasiz?
6. Qonunchilik palatasi Spikeri qanday tartibda saylanadi?
7. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasini ishlab chiqish, qabul qilish jarayonini tushuntirib bering?
8. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining asosiy tamoyillarini bilasizmi?
9. Konstitutsiyaga muvofiq O'zbekiston Prezidenti qanday vakolatlarga ega?
10. Konstitutsiyaning tub mohiyati, falsafiy g'oyasi nimada deb o'ylaysiz?

Testlar

1. Sessiyada deputatlar loyihaga o'zgarish, qo'shimcha va aniqliklar kiritdilar.
A.35 ta B.64ta C.15 ta D.80 ta
2. Konstitutsiyamizga necha marta o'zgartirish kiritilgan?
A. 16 marta B. 14 marta C. 20 marta D. 10 marta
3. Turkiston ASSR ning konstitutsiyasi qachon qabul qilingan?
A. 1918-yil B. 1920-yil C. 1917-yil D. 1919-yil
4. Mustaqil O'zbekistonning Yangi Konstitutsiyasi yaratish g'oyasi bevosita nima bilan bog'liq?
A. Mustaqillik deklaratsiyasi ning qabul qilinishi bilan.
B. Gerbning qabul qilinishi bilan
C. Bayroqning qabul qilinishi bilan
D. Prezidentlik lavozimining joriy etilishi
5. Konstitutsiyaviy komissiya a'zolari necha kishidan iborat edi?
A. 35 ta B. 64 ta C. 15 ta D. 20 ta
6. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini yaratishda qaysi davlatlar Konstitutsiyalari o'rganildi.
A. AQSH, Fransiya, Kanada, Germaniya
B. Shvetsiya, Yaponiya, Italiya, Ispaniya, Portugaliya
C. Gretsiya, Turkiya, Eron, Hindiston, Pokiston
D. Barcha javoblar to'g'ri
7. Konstitutsiyaning ikkinchi variant qachon tayyor bo'ldi?
A. 1991-yil B. 1992-yil C. 1994-yil D. 1989-yil
8. Ikkinchi loyihasida Konstitutsiyasida qancha moddadan iborat?
A. 200 ta B. 129 ta C. 128 ta D.149 ta
9. Loyihani uzil-kesil hal qilish uchun nechchi kishidan iborat ishchi guruh tashkil qilindi?
A. 35 ta B. 64ta C. 25 ta D. 20 ta
10. Umumxalq muhokamasi uchun qacho matbuotda e'lon qilindi?
A. 1992-yil 26-sentabrda B. 1992-yil 8-dekabrda
C. 1992-yil bahorida D.1990-yil 20-iyunda

6-Mavzu: O‘zbekistonda demokratik, fuqarolik jamiyati asoslarining shakllanishi, amalga oshirilgan siyosiy islohotlar

Reja:

1. Milliy davlat boshqaruvi tizimining shakllantirilishi. Mustaqil O‘zbekistonda hokimiyatlar bo‘linishi prinsipi
2. O‘zbekistonda ko‘ppartiyaviylik tizimi: uning ahamiyati, siyosiy partiyalar faoliyatidagi xususiyatlar
3. O‘zbekistonda nodavlat-notijorat tashkilotlar va ularning siyosiy, ijtimoiy hamda iqtisodiy jarayonlardagi ishtiroki
4. O‘z-o‘zini boshqaruv organlarining faoliyati va ularning jamiyatni demokratlashtirishdagi o‘rni
5. O‘zbekistonda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi. Inson huquqlarini ta‘minlash va himoya qilish

Darsning o‘quv maqsadi: *Talabalarni milliy davlat boshqaruv tizimi, hokimiyat va uning bo‘linish tamoyillari, parlament va professional parlament tizimini shakllanish bosqichlari, siyosiy islohotlar, huquq-tartibot organlari va sud tizimidagi o‘zgarishlar, O‘zbekistonda nodavlat-notijorat tashkilotlar faoliyati, O‘z-o‘zini boshqaruv organlarining jamiyatni demokratlashtirishdagi o‘rni hamda ularning mohiyati bilan tanishtirish.*

Mavzu yuzasidan tayanch so‘z va iboralar: *Vazirlar Mahkamasi, demokratik tamoyillar, kadrlar siyosati, Mahalliy hokimiyat organlari: hokim, viloyat, tuman, shahar kengashlari, «fuqaro-jamiyat-davlat», Oliy Kengash, Oliy Majlis, Ikki palatali parlament, Senator, Spiker, Senat raisi, demokratik - huquqiy davlat, yangi jamiyat, bozor munosabatlari, iqtisodning siyosatdan ustunligi, davlat bosh islohatchi, qonun ustuvorligi, kuchli ijtimoiy siyosat, bozor iqtisodiyotiga bosqima-bosqich o‘tish..*

Milliy davlat boshqaruvi tizimining shakllantirilishi. Mustaqil O‘zbekistonda hokimiyatlar bo‘linishi prinsipi. Mustaqillik tufayli biz o‘zligimizni angladik, ozod xalq, mustaqil davlat sifatida O‘zbekistonning ulkan salohiyatini butun dunyoga namoyon qilish imkoni tug‘ildi. Qisqa davr ichida davlat va jamiyat qurilishida, siyosiy-huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy sohalarida ulkan yutuqlar qo‘lga kiritildi, odamlarimiz ongida tom manoda yangicha qarash va yangicha fikrlash asoslari shakllandi. Yurtimizda ijtimoiy yo‘naltirilgan bozor iqtisodiyotiga asoslangan huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyati barpo etish maqsadida keng qamrovli islohotlar boshlab yuborildi.

Demokratik davlat tushunchasining o‘zagini “demokratiya” tashkil qiladi. “Demokratiya” so‘zi yunoncha “demos” - xalq va “kratos” - hokimiyat so‘zlaridan kelib chiqqan bo‘lib, “xalq hokimiyati” degan ma‘noni bildiradi. Konstitutsiyaning 2-bobi “Xalq hokimiyatchiligi” deb ataladi. Bu yunoncha “demokratiya” so‘zining o‘zbekchasidir. Demokratik davlat – davlatning tamomila yangi tarixiy shaklidir. Demokratik davlat – xalq hokimiyatchiligiga asoslangan davlatdir. Unda xalq hokimiyati o‘rnatiladi.

Mustaqillik yillarida O‘zbekistonda davlat hokimiyati va boshqaruvini demokratlashtirish sohasida amalga oshirilgan islohotlar hokimiyatlar bo‘linishi konstitutsiyaviy prinsipini hayotga izchil tadbqiq qilish, boshqaruv tizimini markazlashtirishni cheklash, markazda va joylarda qonun chiqaruvchi va vakillik hokimiyatining vakolatlari va nazorat vazifalarining rolini kuchaytirish bo‘yicha dolzarb chora-tadbirlarni ko‘rishga qaratilgan. O‘tgan davrda O‘zbekistonda demokratik jamiyatga xos boshqaruv tizimi shakllantirildi. Shunday bo‘lsada bu tizim hayot talablariga muvofiqlashtirilib, demokratik prinsip asoslariga ko‘ra takomillashtirilib borilishi muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekistonda Prezident lavozimi 1990-yil 24-martda Oliy Kengashning 1-sessiyasida ta’ sis etildi. O‘zbekistonda prezidentlik institutini mustahkamlanishida 1992-yil 8-dekabrda qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi muhim o‘rin tutadi. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining XIX bobi “O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti” deb nomlangan. Mazkur bob Mamlakatimizda davlat hokimiyati subektlari Davlat boshlig‘i bo‘lgan Prezident (Prezidentlik instituti) Ijro etuvchi hokimiyat (Vazirlar Mahkamasi) Qonun chiqaruvchi hokimiyat (Oliy MajlisParlament) modda (89-97 moddalar)ni qamrab olgan bo‘lib, ularda prezidentlikka nomzod oldiga qo‘yiladigan talablar, Prezident saylash tartibi, Prezident qasamyodining matni, uning vakolatlari, Prezident chiqaradigan normativ-huquqiy hujjatlar va boshqa huquqiy normalar belgilangan.

O‘zbekistonda demokratik huquqiy davlat va erkin fuqarolik jamiyatini qurish jarayonida davlat hokimiyati organlari ichida qonun chiqaruvchi oliy davlat vakillik organi – Oliy Majlisning o‘rni va ahamiyati kattadir. O‘tish davrining mashaqqatli bosqichlarida respublika siyosiy hayotini yangilash va demokratlashtirish jarayonida Oliy Majlis o‘zining salmoqli hissasini ko‘shib kelmoqda.

Milliy parlamentarizmning eng yangi tarixi umum e’tirof etilgan uchta asosiy davrga bo‘linadi. Birinchi davr: 1991–1994 yillar, ikkinchi davr: 1995–2004 yillar va uchinchi davr: 2005 yildan hozirgi paytgacha. Birinchi davr: O‘zbekiston mustaqilligi e’lon qalangan paytda 1990-yil 18-fevralida saylangan qonun chiqaruvchi hokimiyat organi – Oliy Kengash faoliyat ko‘rsatmoqda edi. O‘zbekiston demokratik islohotlarni bosqichma – bosqich amalga oshirish yo‘lidan borib, birdaniga Oliy Kengashni tarqatib yubormadi. U 1990–1994-yillarda qonun chiqaruvchi hokimiyat organi sifatida faoliyat ko‘rsatdi.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi o‘z faoliyatini boshlagan paytda sobiq Ittifoq tuzumining qonunlari amalda bo‘lgan. Mustaqil O‘zbekistonning mustaqal taraqqiyoti dastlab ana shu qonunlar doirasida boshlandi. 1990–1994 yillarda Oliy Kengash 200 ga yaqin qonun, 500 dan ziyod qaror qabul qildi, mamlakatimiz tarixida birinchi bor mamlakat Prezidentini sayladi, Mustaqallik Deklaratsiyasini qabul qilib, yosh davlatimizning suverenitetini mustahkamlashga qaratilgan tarixiy qonunlarni, jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyani qabul qalغانligi ham yurtimiz tarixidagi ulkan hodisalar hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining 1993-yil 28-dekabrda bo‘lib o‘tgan XIV sessiyasida “O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylovlar to‘g‘risida”, 1994-yil 22-sentabrda bo‘lib o‘tgan XVI sessiyada “O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi to‘g‘risida” Qonunlar qabul qilindi. Ularda qonunchilik

sohasida tub islohotlarni amalga oshirish zaruriyati kun tartibiga qo'yiladi. Oliy Majlis oliy davlat vakillik organi bo'lib, qonun chiqaruvchi hokimiyatni amalga oshiradi, hududiy saylov okruglari bo'yicha ko'ppartiyaviylik asosida besh yil muddatga saylanadigan 250 nafar deputatdan iborat bo'lishi belgilanadi. Shu maqsadda 1994-yil 25-dekabrda Oliy Majlis va mahalliy kengashlarga saylov o'tkazish uchun 250 okrug va 7192 uchastka sayloa komissiyasi tuzildi. Oliy Majlisning 1-chaqirig'i deputatligiga XDPdan 247, Vatan taraqqiyoti partiyasi (VTP)dan 146, hokimiyat vakillik organlari (HVO)dan 250 nomzod ko'rsatildi. Saylovlar qonun talablari asosida umumiy, teng, to'g'ridan to'g'ri saylov huquqi asosida yashirin ovoz berish yo'li bilan o'tkazildi. Oliy Majlis deputatligiga 139 saylov okrugidan 3 tadan, 106 saylov okrugida 2 tadan nomzod ovozga qo'yildi. Saylovda ro'yxatga olingan 11,2 mln. saylovchining 93,6 %, ya'ni 10,5 mln.dan ortiq kishi o'z konstitutsion huquqidan foydalandi. Qayta saylovlar 1995 yil 8 va 25 yanvarda bo'lib o'tdi, Oliy Majlisga 250 deputat saylandi.

Oliy Majlis 1995-1999 yillarda 1-chaqiriq 15 ta sessiya o'tkazdi, sessiyalarda: 10 ta kodeks, 2 ta milliy dastur, 145 qonun, 452 qaror qabul qilindi; qonunlarga 216 ta qo'shimcha va o'zgarishlar kiritildi; 70 ta xalqaro shartnomani ratifikatsiya qildi, xalqaro konvensiyalarga qo'shilish to'g'risida 58 ta qaror qabul qildi. Oliy Majlisning 2-chaqirig'iga deputatlar saylovi 1999-yil 5-dekabrda ko'ppartiyaviylik va demokratik tamoyillar asosida o'tdi. 1999-yil dekabr va 2000-yil yanvarda bo'lgan asosiy va qayta saylovlar natijasida 250 deputatdan iborat Parlamentning yangi tarkibi shakllandi.

Ikki palatali parlament zaruratini hal etish masalasi 2001-yil 6-dekabrda Oliy Majlisning 2-chaqiriq 7-sessiyasida ko'rib chiqildi va Referendum o'tkazish to'g'risida qaror qabul qilindi. 2002-yil 27 yanvarda Parlament ikki palatali qilib saylanishi haqida Referendum o'tkazildi, 93,6 % yoqlab ovoz berdi. 2002-yil 12-dekabrda Oliy Majlisning 2-chaqiriq 10-sessiyada "Oliy Majlisning Senati" va "Qonunchilik palatasi to'g'risida"gi Konstitutsiyaviy Qonunlar qabul qilindi. Oliy Majlis ikki palatadan - Qonunchilik (quyi) palata va Senat (yuqori palata)dan iborat bo'ladi; Oliy Majlisning Qonunchilik palatasi va Senat vakolat muddati - 5 yil.

Ilk bor ikki palatali parlamentga saylovlar 2004-yil dekabr – 2005-yil yanvarda bo'ldi. Quyi (qonunchilik) palatasiga ko'ppartiyaviylik asosida 120 ta deputat saylandi. Senat (yuqori palata)ga Qoraqalpog'iston, viloyatlar va Toshkent shahrining har biridan teng miqdorda – 6 nafardan, jami 84 kishi saylandi. Senatning 16 nafar a'zosi fan, san'at, adabiyot, ishlab chiqarish, jamiyat va davlat faoliyatida xizmat ko'rsatganlar orasidan Prezident tomonidan tayinlandi. Qonunchilik palatasining Spikeri etib Qonunchilik palatasining 2005-yil 27-yanvarda bo'lgan 1-majlisida E.H.Xalilov saylandi. Senat raisi etib Senatning 2005-yil 27 yanvarda bo'lgan 1-majlisida M.Sharifxo'jaev saylandi. 2 palatali Oliy Majlis 2005-2009-yillarda 250 dan ziyod qonun qabul qildi.2019-yil 22-dekabr kuni Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va mahalliy Kengashlar deputatlarining saylovi bo'lib o'tdi. 2019-yil 22-dekabrda bo'lgan saylovlarda jami 13 963 627 nafar saylovchi ishtirok etdi va bu saylovchilar umumiy sonining 67,8 foizini tashkil qildi. Markaziy saylov komissiyasining 2019-yil 25-dekabrda qaroriga muvofiq O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasiga saylov o'tkazuvchi 25 ta saylov okruglarida

birinchi turda g'oliblar aniqlanmaganligi uchun, ya'ni ushbu saylov okruglaridan nomzodlari ko'rsatilgan beshta siyosiy partiya nomzodlarining birortasi ham ovoz berishda ishtirok etgan saylovchilarning 50 foizidan ko'p ovozini olaolmaganligi sababli ushbu saylov okruglarida ovoz berishda ishtirok etgan saylovchilarning eng ko'p ovozlari olgan ikki nafardan nomzodlar o'rtasida takroriy ovoz berishni o'tkazish 2020-yil 5-yanvar kuni belgilandi. Dastlabki hamda takroriy ovoz berish natijasida, ya'ni saylovlarning umumiy yakunlariga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasida siyosiy partiyalar quyidagicha deputatlik o'rinlariga ega bo'ldilar:

1. Tadbirkorlar va ishbilarmonlar harakati - O'zbekiston Liberal-demokratik partiyasi 53 ta deputatlik o'ri;
2. O'zbekiston "Milliy tiklanish" demokratik partiyasi 36 ta deputatlik o'ri;
3. O'zbekiston "Adolat" sosial-demokratik partiyasi 24 ta deputatlik o'ri;
4. O'zbekiston Xalq demokratik partiyasi 22 ta deputatlik o'ri;
5. O'zbekiston Ekologik partiyasi 15 ta deputatlik o'rnini egallashdi.

2019-yil 10-dekabr kuni yangi tahrirda qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 6-moddasida Bosh vazir nomzodi O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasiga saylovda eng ko'p deputatlik o'rinlarini olgan siyosiy partiya yoki teng miqdordagi eng ko'p deputatlik o'rinlarini qo'lga kiritgan bir necha siyosiy partiya tomonidan taklif etilishi belgilangan. Ushbu qonunga muvofiq Bosh vazir nomzodini ko'rsatish huquqiga Tadbirkorlar va ishbilarmonlar harakati - O'zbekiston Liberal-demokratik partiyasi ega bo'ldi. Ushbu partiya tomonidan O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri lavozimiga A.Aripov ko'rsatildi. Tanzila Narbayeva esa Oliy Majlis Senati raisi lavozimiga saylandi. Sobiq Ittifoq (SSSR) davridagi ijro qiluvchi va boshqaruvchi oliy organ – Ministrlar Sovetining maqomi tubdan o'zgartirildi. Prezidenti lavozimini ta'sis etish va O'zSSR Konstitutsiyasiga o'zgartirish kiritish to'g'risida 1990-yil 24-martda O'zSSR Oliy Kengashining 12-chaqiriq 1-sessiyasida Qonun qabul qilindi. Prezident va hukumat apparati birlashib Prezident endi ayni paytda Vazirlar Mahkamasi Raisi ham bo'ldi. Prezident ikkinchi bosqichda respublikada oliy ijroiya va boshqaruv hokimiyatini amalga oshiruvchi oliy martabali shaxs, ayni paytda davlat boshlig'i ham hisoblanib, endilikda faqat farmonlar emas, balki qaror va farmoyishlar ham qabul qiladigan bo'ldi. Vazirlar Mahkamasiga rahbarlik qiluvchi Vitse-Prezident (1990-yil 15-noyabr) lavozimi 1992-yil 4-yanvarda tugatildi, o'rniga Bosh Vazir lavozimi ta'sis etildi. Ijro etuvchi hokimiyat (Vazirlar Mahkamasi) - davlat hokimiyatining uch asosiy tarmoqlaridan biri. O'zbekistonda davlat hokimiyatining bo'linish tamoyili mavjud sharoitlarning o'ziga xosligini inobatga olish, jahondagi rivojlangan demokratik mamlakatlar tajribasidan ijodiy foydalanish asosida amalga oshirilmoqda. Shunga ko'ra, ijroiya hokimiyat davlat hokimiyati tizimining bir tarmog'i hisoblanadi. Qonunlar ro'yobga chiqarilishi uchun shart-sharoitlarni ta'minlash ijro etuvchi organlarning asosiy vazifasidir. Hokimiyatlar bo'linishi prinsipiga muvofiq, ijro etuvchi hokimiyat, ya'ni mamlakat hukumati Vazirlar Mahkamasiga yuklatiladi. Odatda ijroiya hokimiyat parlamentga o'tkazilgan saylovlardan so'ng kamida bir oy ichida shakllantiriladi. Vazirlar Mahkamasining asosiy huquqiy maqomi – uning

mustaqil O'zbekiston hukumati ekanidadir. Unga, o'z vakolati doirasida, qonunlarni va Prezident farmonlarini ijro etish masu'liiyati yuklangan. Vazirlar Mahkamasi iqtisodiyotning, ijtimoiy va ma'naviy sohaning samarali faoliyatiga rahbarlikni ta'minlaydi. Vazirlar Mahkamasi davlat boshqaruv idoralari tizimiga va o'zi tashkil etadigan xo'jalik boshqaruvi muassasalariga rahbarlik qiladi. 2007-yilda Islom Karimov ilgari O'zbekiston Respublikasi Prezidenti egallab turgan Vazirlar Mahkamasi Raisi lavozimining tugatilishi – davlat hokimiyati va boshqaruvini liberallashtirish va demokratlashtirish yo'lida muhim qadam bo'ldi. Mustaqillik yillarida Vazirlar Mahkamasi, ya'ni ijroiya hokimiyat - hukumat tarkibi 4 marta yangidan tasdiqlandi. 2010 yil 12 martda amaldagi Vazirlar Mahkamasi tarkibi belgilandi. 2005-yili Vazirlar Mahkamasi rahbari - Bosh vazir lavozimi joriy etildi. Konstitutsiyaning 89-moddasi birinchi bandidagi Prezidentga tegishli vakolatlar ijroiya hokimiyatga o'tkazildi. Bu holat Fransiya va Rossiya davlatlari Konstitutsiyalari normalarida ham mavjud. Vazirlar Mahkamasi qonun, farmon, farmoyish, qaror ijrolarini ta'minlash maqsadida maxsus qarorlar qabul qiladi hamda nazorat yo'li bilan boshqaruvini amalga oshiradi, ijro hokimiyatini ta'minlaydi. Umuman, xozirgi kunda mazkur islohotlarning mantiqiy davomi sifatida islohotlar chuqurlashtirilmokda. Oliy Majlisga Bosh vazirga nisbatan ishonchsizlik votumi (lot. erk, ihtiyor, hoxish) bildirish huquqi berildi. Vazirlar Mahkamasi vakolatiga taalluqli masalalar yuzasidan qarorlar qabul qilish huquqi Prezident vakolati doirasidan chiqarildi. Saylovlarda yutib chiqqan siyosiy partiya taqdim etgan Bosh vazir nomzodining Parlament tomonidan ko'rib chiqilishi va tasdiqlanishi haqidagi konstitutsiyaviy tartib belgilanib, hukumatga nisbatan ishonchsizlik votumi (saylovchi tashkilot vakillarining ko'pchilik ovozi bilan qabul qilingan qarorlar) instituti joriy qilindi. Oliy Majlisga hokimiyat vakillik organlari va tashabbuskor guruhlardan nomzod ko'rsatish instituti tugatildi. Qonunchilik palatasi deputatligiga nomzod ko'rsatish huquqi faqat siyosiy partiyalarga berildi. Oliy Majlisga saylovlarni tayinlash instituti tugatildi va uning o'rniga "Saylov kampaniyasi boshlanishini e'lon qilish" instituti joriy etildi. Bu vazifani Markaziy saylov komissiyasi amalga oshiradigan bo'ldi. Siyosiy partiyalarning vakolatli vakili Qonunchilik palatasiga kiritildi. Bu institut saylov uchastkalarida ovozlarni sanab chiqishda qatnashadi. Unga to'ldirilgan imzo varaqalarini tekshirishda qatnashish huquqi berildi. Oliy Majlis deputatligiga nomzodlarning ishonchli vakili 5 nafardan 10 nafargacha ko'paytirildi. O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri va O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi o'rtasida ziddiyatlar doimiy tus olgan holda Qonunchilik palatasi deputatlari umumiy sonining kamida uchdan bir qismi tomonidan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti nomiga rasman kiritilgan taklif bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining ko'shma majlisi muhokamasiga Bosh vazirga nisbatan ishonchsizlik votumi bildirish haqidagi masala kiritilishi, Oliy Majlis palatalari qaroriga asosan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti O'zbekiston Respublikasi Bosh vazirini lavozimidan ozod etish bo'yicha qaror qabul qilishi, bunda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining butun tarkibi Bosh vazir bilan birga iste'foga chiqishi borasidagi kiritilgan takliflar ushbu yo'nalishdagi islohotlarni yangi bosqichga ko'taradi. Vazirlar Mahkamasi vakolatiga kiruvchi masalalar yuzasidan Bosh vazirning qaror qabul qilishi, viloyatlar va Toshkent shahar

hokimiga nomzodlar Bosh vazir tomonidan taqdim etilishi Vazirlar Mahkamasi va Bosh vazir vakolatlarini oshirib, uning mas'uliyatini kuchaytiradi.

Sud hokimiyati – O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining XXII bob, 106-moddasiga ko'ra, O'zbekiston Respublikasida sud hokimiyati qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyatlardan, siyosiy partiyalardan, boshqa jamoat birlashmalaridan mustaqil holda ish yuritadi. O'tish davrida sud sohasida ham islohotlar amalga oshirilmoqda. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va 1993 yil 2 sentyabr Oliy Kengashning XI sessiyasida qabul qilingan "Sudlar to'g'risida"gi Qonuni (yangi tahrirda 2000-yil 14-dekabr) sud islohotlarining huquqiy asosidir. Sud tizimiga kirgan barcha sudlar O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 107-moddasida va "Sudlar to'g'risida"gi qonunida ko'rsatilgan. Bunga ko'ra O'zbekiston Respublikasi sud tizimiga besh yil muddatga saylanadigan quyidagi sudlar kirgan:

- O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy sudi;
- O'zbekiston Respublikasining Oliy sudi;
- O'zbekiston Respublikasining Oliy xo'jalik sudi;
- Qoraqalpog'iston Respublikasi fuqarolik va jinoyat ishlari bo'yicha oliy sudlari;
- Qoraqalpog'iston Respublikasi xo'jalik sudi;
- fuqarolik va jinoyat ishlari bo'yicha viloyat va Toshkent shahar sudlari;
- fuqarolik va jinoyat ishlari bo'yicha tumanlararo, tuman, shahar sudlari;
- viloyatlar va Toshkent shahrining xo'jalik sudlari;
- harbiy sudlar.

Bank tizimi isloh etildi, Davlat banki va uning bo'limlari tugatilib Markaziy bank, Tashqi iqtisodiy faoliyat milliy banki; Ixtisoslashtirilgan aksiyadorlik-tijorat banklari – "O'zsanoatqurilishbank", "Paxtabank" (Agrobank), "O'zjamg'armabank", "G'allabank", "Tadbirkorbank", "Savdogarbank", xususiy banklar tuzildi. Davlat nazorati tizimi tartibga solindi: Davlat nazorati qo'mitasi, uning joylardagi organlari tugatilib, Davlat Soliq va Bojxona qo'mitalari; Prezident devonida nazorat inspeksiyasi, Hokimiyatlarda tegishli nazorat inspeksiyalari tuzildi. Davlat suverenitetini amalga oshiruvchi tuzilmalar: Tashqi ishlar vazirligi, Ichki ishlar vazirligi, Mudofaa vazirligi, Milliy xavfsizlik xizmati (Davlat xavfsizlik xizmati), Oliy attestatsiya komissiyasi va boshqa hukumat organlari tashkil etildi. Islohatlarni chuqurlashtirish va muvofiqlashtirish maqsadida Prezident huzurida Iqtisodiy islohat, tadbirkorlik va chet el investitsiyalari bo'yicha idoralararo Kengash tuzildi. Davlat mulkini boshqarish va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash davlat Qo'mitasi tashkil etilib, mulkni davlat tasarrufidan chiqarish, xususiylashtirish va ko'p ukladli iqtisodiyotni shakllantirishda muhim tadbirlarni amalga oshirdi. O'zbekistonning xorijiy mamlakatlar bilan aloqasini yo'lga qo'yish maqsadida tarixda ilk marta Tashqi iqtisodiy aloqalar vazirligi tuzildi. Ishlab chiqarish va transport bo'yicha tarmoq vazirliklari tugatilib, ular o'z-o'zini mablag' bilan ta'minlaydigan uyushmalarga, konsernlarga, korporatsiyalarga va boshqa xo'jalik birlashmalariga aylantirildi. Avtomobil transporti va qurilishda boshqaruv tizimi qayta tuzildi. Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, Xalq ta'limi vazirligi, Sog'liqni saqlash vazirligi, Madaniyat ishlari vazirligining strukturasi, faoliyati va ish yuritish usullari tubdan

o'zgard. Umummilliy ahamiyatga molik bo'lgan tarmoqlar: sayyohlik, transport, madaniyat, kino, televideniye va radio tizimida iqtisodiy jihatdan mustaqil bo'lgan milliy kompaniyalar tashkil etildi.

O'zbekistonda ko'ppartiyaviylik tizimi: uning ahamiyati, siyosiy partiyalar faoliyatidagi xususiyatlar. Ko'ppartiyaviylik zamonaviy demokratik jamiyatlar siyosiy hayotini tashkil qilishning asosiy konstitutsiyaviy tamoyillaridan biri hisoblanadi. Aynan ko'ppartiyaviylik tufayli demokratiyaning siyosiy plyuralizm, qonun ustuvorligi, imkoniyatlar tengligi kabi tamoyillarini o'zida mujassam etgan siyosiy partiyalar va ularning vakillari o'rtasida doimiy muloqot ta'minlanadi.

“Partiya” so'zi lotincha “part” so'zidan kelib chiqqan bo'lib, “ish”, “qism” degan ma'nolarni anglatadi. Siyosiy partiya - aholining, sinfnings, ijtimoiy qatlam yoki qatlamlarning bir qismi. Hozirgi zamon jamiyatining siyosiy hayoti murakkab, ziddiyatli va xilma-xildir. Bugun siyosiy partiya mavjud bo'lmagan biror-bir davlatni tasavvur qilish qiyin. Hozirga dunyoning aksariyat demokratik mamlakatlarida ikki partiyaviy yoki ko'ppartiyaviy tizimlar mavjud. Siyosiy partiyalar siyosiy hokimiyat mexanizmining faoliyat ko'rsatishida ishtirok etadi yoxud unga muayyan ta'sir o'tkazadi.

Siyosiy partiyalar faoliyatining muhim yo'nalishlari quyidagilardan iborat:

- tegishli ijtimoiy guruhlarning manfaatlarini aniqlash, bayon qilish va asoslash, ularni faollashtirish va integratsiyalash;

- siyosiy doktrinalar va dasturlar yaratish;

- davlatda hokimiyat uchun kurashga va davlatning faoliyat dasturlarini yaratishda, davlat hokimiyatini amalga oshirishda ishtirok etish;

- umuman, jamiyatni yoxud uning bir qismini siyosiy jihatdan tarbiyalash, ijtimoiy fikrni shakllantirish;

- davlat apparati, kasaba uyushmalari, jamoat tashkilotlari uchun kadrlar tayyorlash va ularni yuqori mansablarga ko'tarish;

- partiya ichidagi tashkiliy faoliyat.

Har bir mamlakat demokratiya, parlamentarizm va ko'ppartiyaviylikni shakllantirishda o'z yo'liga ega. O'zbekiston ham bundan mustasno emas. O'zbekiston tanlab olgan yo'lning o'ziga xosligi sobiq sovet totalitar, yakkapartiyaviylik tizimining uzoq vaqt hukmronlik qilganligi bilan izohlanadi. Mustaqillikning ilk yillaridayoq yakkapartiyaviy diktaturaga barham berildi va ko'ppartiyaviy siyosiy tizimni shakllantirish maqsad qilib olindi. Yakka partiya hukmronligi bartaraf etilgandan so'ng jamiyatimizda siyosiy plyuralizmning vujudga kelishi, siyosiy partiyalarning shakllanishi bilan bog'liq jarayonlar shiddat bilan boshlanib ketdi. Biroq bu yo'l birdaniga yoki dabdurustdan, biror-bir xorijiy mamlakat andozasini qabul qilish evaziga emas, balki asta-sekinlik bilan, bosqichma-bosqich amalga oshirilishi belgilab olindi. 1992-yil 8-dekabrda Respublika Konstitutsiyasi qabul qilingandan so'ng, siyosiy partiyalarning shakllanishi uchun muhim huquqiy shart-sharoitlar yaratildi. Qisqa fursat ichida mamlakatimizda huquqiy asosda, parlamentda faoliyat ko'rsatuvchi partiyalarning shakllanish jarayoni sodir bo'ldi.

Respublikamizda ko'ppartiyaviylikning shakllanish jarayonini har biri muayyan voqea bilan ajralib turadigan quyidagi beshta bosqichga bo'lish mumkin:

1) 1991–1994-yillar: yakkapartiyaviylikning tugatilishi va ko‘ppartiyaviylikning shakllanishi uchun zarur bo‘lgan shart-sharoitlarining yaratilishi;

2) 1995–1999-yillar: ko‘ppartiyaviylikning qonunchilik asoslari yaratilishi va yangi partiyalarning tashkil topishi;

3) 2000–2004-yillar: siyosiy tajriba to‘plash va moliyaviy mustaqillikni ta‘minlash, doimiy elektoratni belgilab olish;

4) 2005–2006-yillar: siyosiy partiyalar parlament nazoratining kuchayishi, konstruktiv muxolifatning shakllanishi;

5) 2007-yilda to hozirgi kunga qadar.

Hozirga paytda respublikada beshta siyosiy partiya faoliyat ko‘rsatmoqda. Eng tajribali, ko‘p sonli va shakllangan deb, 1991-yil 1-noyabrda tashkil qilingan O‘zbekiston xalq demokratik partiyasini (O‘XDP) aytish mumkin. O‘XDPning II s‘ezdi 1994-yil 1-noyabrda bo‘lib o‘tdi. U O‘zbekiston Oliy Majlisi va xalq deputatlarining mahalliy Sovetlariga saylovlar o‘tkazilishi bilan bog‘liq ravishda Nizomda belgilangan muddatdan ilgari chaqirildi. Unda Partiya saylovoldi dasturining masalalari, parlament deputatlariga nomzodlar ko‘rsatilishi, uning Nizomiga o‘zgartirishlar kiritilishi ko‘rib chiqildi. O‘zbekiston Xalq demokratik partiyasi O‘zbekiston Respublikasining ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashga va himoyaga muhtoj fuqarolari manfaatlarini ifodalaydi va himoya qiladi. Shuni aytish joizki, 2012-yilga kelib O‘XDP saflarida 360 mingdan ortiq a‘zolar bor. Partiya a‘zolarining yarmidan ko‘pini xizmatchilar, 40 foizdan ortig‘ini ayollar, 50 foizini yoshlar tashkil qiladi. Ziyolilar, xizmatchilar va talabalar a‘zolarining 50 foizdan ko‘pini, 40 foizini moddiy ishlab chiqarishda bandlar, 10 foizini nafaqadagilar va uy bekalari tashkil qiladi. Partiyadagi ishni 60 dan ortiq millat vakillari – o‘zbeklar, qoraqalpoqlar, qozoqlar, tojiklar, ruslar, ukrainlar, tatarlar, uyg‘urlar, turkmanlar, qirg‘izlar, koreyslar va hokazolar yuritadilar Partiyaning matbuot organlari o‘zbek va rus tilida chop etiladigan gazetalar “O‘zbekiston ovozi” va “Golos Uzbekistana” gazetalaridir.

1995-yil fevralda tashkil qilingan “Adolat” sotsial-demokratik partiyasi tarkibida fan-texnika ziyolilari, muhandis va olimlar, davlat muassasalari ishchilari yetarli darajada keng ifodalangan. O‘zbekiston “Adolat” sotsial-demokratik partiyasining asosiy maqsadlari quyidagilardan iborat:

- kuchli ijtimoiy-huquqiy davlat barpo etish;
- adolatli fuqarolik jamiyatini yaratish;
- ijtimoiy yo‘naltirilgan bozor iqtisodiyoti rivojlanishiga ta‘sir qilish;
- jamiyatda ijtimoiy adolat tamoyillarini, inson huquq va erkinliklarini mustahkamlash.

O‘zbekiston “Adolat” SDP 2012 yilda o‘z taraqqiyotining yangi sifat bosqichida turibdi. Bu partiya saflarining mintaqalardagi sonining ortishi va tashkiliy mustahkamlashuvida namoyon bo‘lmoqda. 2012 yilda O‘zbekiston “Adolat” SDP saflarida salkam 90 mingdan ziyod a‘zoni birlashtirib, O‘zbekistonning 188 aholi hududida 2500 dan ortiq boshlang‘ich tashkilotga ega. O‘z navbatida, bu partiya ijtimoiy bazasining kengayotganligidan dalolat beradi. “Adolat» sotsial-demokratik partiyasi, avvaldan o‘zining tutgan o‘rnini, sotsial-demokratizmning umumjahon mafkuraviy oqimi bilan solishtiradi. “Adolat” ijtimoiy-siyosiy va xuquqiy gazetasi partiyaning bosh matbuot organidir. 1995-yil may oyida “Milliy tiklanish”

demokratik partiyasi tashkil qilindi, uning asosiy maqsadi – milliy o‘zini o‘zi anglashni rivojlantirish jarayonlarini faollashtirish, aholini vatanparvarlik ruhida tarbiyalash va hokazo. “Milliy tiklanish” partiyasi o‘z dasturida konservativ jihatlariga tayanib, o‘zini fuqarolarning milliy ruh, dunyoqarash, milliy anglash va vatanparvarlikka asoslangan nuqtai nazarlari va manfaatlarini birlashtiruvchi siyosiy tashkilot, deb ta’riflaydi. Partiyaning o‘z oldiga qo‘ygan maqsadi:

- O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarida milliy o‘zlikni anglashning o‘sishi, milliy g‘urur, Vatanga muhabbat va sadoqat tuyg‘usini shakllantirish hamda mustahkamlash uchun qulay sharoitlar yaratish;

- o‘z safida yurt vatanparvarlarini birlashtirish, ularning intellektual va ijodiy salohiyatini O‘zbekiston manfaatlari hamda uning xalqaro obro‘-e’tiborini oshirish yo‘lida safarbar etish;

- yoshlarni o‘z Vatanini hurmat qilish, sevish va u bilan faxrlanish, har qanday sharoitda milliy mustaqillikni, xalqning qadriyatlarini, an’ana va urf-odatlarini asrash va himoya qilish ruhida tarbiyalash, shuningdek, uning ma’naviy ehtiyojlari va qiziqishlarini cheklashga bo‘lgan urinishlarga qarshi kurashishga yetarlicha hissa qo‘shish. O‘zbekiston “Milliy tiklanish” demokratik partiyasi xalqimizni komil millat maqomiga olib chiqishni o‘zining muqaddas maqsadi deb hisoblaydi. Milliy uyg‘onish, tiklanish va yuksalish orqali O‘zbekiston xalqi yer yuzidagi hech bir xalqdan kam bo‘lmagani va kam bo‘lmasligini ko‘rsatishga intiladi. 1995-yil iyun oyidan partiya “Milliy tiklanish” gazetasiga ega. Ushbu gazetaning turli bo‘limlari milliy va umumbashariy boyliklarni tiklashga, yoshlarni tarbiyalashga, milliy tiklanish g‘oyalarini targ‘ibot qilishga qaratilgan. Mamlakatimizdagi eng yosh siyosiy partiya – O‘zbekiston ishbilarmonlar va tadbirkorlar harakati – Liberal demokratik partiyasi (O‘zLiDeP) hisoblanadi. U 2003-yil 15-noyabrda tashkil topgan. Kichik biznes vakillari va xususiy tadbirkorlar, fermerlar, moddiy va intellektual mulk egalari hamda o‘rta sinfni tashkil etuvchi boshqa tabaqalar ushbu partiyaning elektoratini tashkil etadi. O‘zLiDeP mamlakatimizda liberaldemokratik yo‘nalishdagi ilk siyosiy partiya hisoblanadi. O‘zLiDePning o‘z oldiga qo‘ygan maqsadlari:

- birinchidan, siyosiy kuch sifatida birlashgan holda tadbirkorlar va ishbilarmonlarning yanada kengroq faoliyat yuritishlari uchun yangi imkoniyatlar ochish, ularning istiqbolini ham nazariy, ham amaliy jihatdan asoslab berish, jamiyatning ushbu tabaqasi manfaatlarini himoyalash barobarida uning ertangi kunini ta’minlash;

- ikkinchidan, partiyaning kuch va imkoniyatlarini boshqa siyosiy partiya va harakatlar bilan hamkorlikda mamlakatning milliy manfaatlari va taraqqiyotining strategik istiqbollariga javob beradigan bozor iqtisodiyotiga asoslangan demokratik, huquqiy davlat qurish, fuqarolik institutlarining rivojiga keng yo‘l ochib berish va demokratik qadriyatlarni xalqimiz, avvalo, yoshlar ongi va hayotiga singdirishga qaratilgan harakat dasturini ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq etish;

- uchinchidan, partiyaning davlat boshqaruvi, jamiyatda shakllanayotgan qarashlarga ta’sir o‘tkazish, siyosiy va iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishdagi ishtirokini ta’minlash. Davlatning ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy taraqqiyoti bilan bog‘liq muammolarni hal qilish, O‘zbekistonning xalqaro obro‘-sini oshirish, yurtimizda tinchlik va osoyishtalikni saqlash, millatlararo va fuqarolararo ahillik va

totuvlikni mustahkamlash ishida faol qatnashish, yoshlarimizni Vatanga muhabbat va sadoqat, o'z elim, o'z yurtim, jon O'zbekistonim, deya g'ururlanib yashash ruhida tarbiyalashga munosib hissa qo'shish, har qanday sharoitda mustaqillik yo'limiz, qadriyatlarimiz, milliy va diniy an'analarimiz, urf-odatlarimizni qadrlash, shu bilan birga, boshqa millat va elatlar qadriyatlarini kamsitishga yo'l qo'ymaslik, bunday xurujlarga qarshi izchil kurash olib borish;

- to'rtinchidan, o'zi uchun siyosiy platforma deb tanlab olgan liberal-demokratik g'oya va maqsadlarni o'z faoliyati orqali keng omma ongiga singdirish, bu borada safini kengayishtirishga yo'naltirilgan har tomonlama chuqur o'ylangan partiya siyosatini targ'ib qilish ishlarini amalga oshirish.

O'zbekistonda nodavlat-notijorat tashkilotlar va ularning siyosiy, ijtimoiy hamda iqtisodiy jarayonlardagi ishtiroki.

Rivojlanib kelayotgan mamlakatimizda keyingi yillarda fuqarolik jamiyati institutlari, nodavlat notijorat tashkilotlari jadal shakllandi va rivojlandi. Ular mamlakatimiz aholisining keng qatlamlari tomonidan qo'llab-quvvatlanmoqda. Shuning uchun ham fuqarolik institutlari, nodavlat notijorat tashkilotlarining ahamiyati borgan sari oshib bormoqda. Chunki ular demokratik qadriyatlar, inson va fuqarolarning huquq va erkinliklari hamda qonuniy manfaatlarini himoya qilishning muhim omiliga aylanib bormoqda, fuqarolarning o'z iqtidorini ro'yobga chiqarishi, ularning ijtimoiy-iqtisodiy faolligi va huquqiy madaniyatini oshirish uchun sharoit yaratmoqda, jamiyatimizda turli manfaatlar muvozanatini ta'minlashga ko'maklashmoqda. Fuqarolik jamiyati institutlari rivojlanib borgani sari ularning davlat va hokimiyat tuzilmalari faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirishdagi faolligi yanada kuchaymoqda. Aytish mumkinki, jamoatchilik nazoratining ta'sirchanligi bois kishilar qalbi va ongida jamiyatimiz hayotida ro'y berayotgan tub ijobiy o'zgarishlarga nisbatan kechayotgan xayrixohlik va birdamlik kayfiyati faollashmoqda.

O'zbekistonda fuqarolik jamiyati institutlarining tashkil etilishi va faoliyat yuritishining huquqiy asoslarining o'zagi sifatida dastavval O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasini tilga olish o'rinlidir. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining kasaba uyushmalariga, siyosiy partiyalarga va boshqa jamoat birlashmalariga uyushish, ommaviy harakatlarda ishtirok etish huquqiga ega ekanini e'tirof etish bilan birga, siyosiy partiyalarda, jamoat birlashmalarida, ommaviy harakatlarda, shuningdek, hokimiyatning vakillik organlarida ozchilikni tashkil etuvchi muxolifat shaxslarning huquqlari, erkinliklari va qadr-qimmatini hech kim kamsitishi mumkin emasligi belgilab qo'yilgan. Asosiy qonunning 12-moddasida O'zbekiston Respublikasida ijtimoiy hayot siyosiy institutlar, mafkuralar va fikrlarning xilma-xilligi asosida rivojlanishi hamda hech qaysi mafkura davlat mafkurasi sifatida o'rnatilishi mumkin emasligi to'g'risidagi konstitutsiyaviy prinsip o'z ifodasini topgan.

Birlashishga bo'lgan konstitutsiyaviy huquq yoki xalqaro hujjatlar terminologiyasi bilan aytganda, boshqalar bilan birga muayyan assotsiatsiyalarga uyushishga bo'lgan huquq o'z ichiga fuqarolarning umumiy manfaatlarini himoya qilish va umumiy maqsadlarga birgalikda erishish asosida ixtiyoriy ravishda tuziladigan jamoat tashkilotlarini tashkil etish huquqini hamda mavjud jamoat

tashkilotlariga kirish yoki ulardan chiqish huquqini qamrab oladi. Ma'lum bir jamoat tashkiloti faoliyatida qatnashish yoki qatnashmaslik har bir fuqaroning shaxsiy ishi hisoblanadi. Fuqarolarni jamoat tashkilotiga a'zo bo'lib kirishga majburiy tarzda undash yoki undan chiqishga to'sqinlik qilish huquqqa zid faoliyat deb tan olinadi. Shu bilan birga, jamoat tashkilotlariga uyushish erkinligi muayyan chegaralar doirasida amalga oshiriladi. Bunda mazkur huquqdan jamiyatga qarshi maqsadlarda foydalanish mumkin emas. Shu jihatdan olganda, O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga binoan, konstitutsiyaviy tuzumni zo'rlik bilan o'zgartirishni maqsad qilib qo'yuvchi, mamlakatimizning suvereniteti, yaxlitligi va xavfsizligiga, fuqarolarning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklariga qarshi chiquvchi, urushni, ijtimoiy, milliy, irqiy va diniy adovatni targ'ib qiluvchi, xalqning sog'ligi va ma'naviyatiga tajovuz qiluvchi, shuningdek, harbiylashtirilgan birlashmalarning, milliy va diniy ruhdagi siyosiy partiyalarning hamda jamoat birlashmalarining tuzilishi, faoliyati hamda maxfiy jamiyatlar va uyushmalar tuzish taqiqlanadi.

O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksiga jamiyat va davlat qurilishi, hududlarda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning turli sohalarida nodavlat-notijorat tashkilotlari huquqlarini belgilab bergan qonun hujjatlari talablarini buzganlik uchun davlat organlari mansabdor shaxslarining javobgarligini kuchaytirishni nazarda tutuvchi tegishli normalar kiritilishi fuqarolik jamiyati barpo etilishining asosi bo'lib xizmat qilishi shubhasiz. Shuningdek nodavlat notijorat tashkilotlarining quyidagi masalalar yuzasidan ham faol ishtirokining asoslarini ko'zda tutuvchi qonun hujjatlari majmuini ishlab chiqish ko'zda tutilmoqda: sog'liqni saqlash masalalari; atrof-muhitni muhofaza qilish masalalari; aholini, ayniqsa, yoshlarni ish bilan ta'minlash masalalari; ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarni qo'llab-quvvatlash masalalari; katta sotsial ahamiyatga molik boshqa masalalar.

O'zbekistonda fuqarolik jamiyati institutlari faoliyatining yanada jadal rivojlanishida O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senati Kengashlarining "Nodavlat notijorat tashkilotlarini, fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarini qo'llab-quvvatlashni kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qo'shma qarori muhim ahamiyat kasb etdi. 1991-yilda qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasida jamoat birlashmalari to'g'risida"gi jamoat tashkilotlari faoliyatini huquqiy tartibga solish sohasidagi qonunning qabul qilinishi ushbu sohadagi ijobiy jarayonlarning tamal toshi bo'ldi. Mazkur qonunda ilk marotaba jamoat birlashmasi (tashkiloti) institutiga huquqiy ta'rif berilishi bilan birga, uni tashkil etish maqsadi, faoliyati prinsiplari hamda huquq va majburiyatlar doirasi belgilab berildi. Qonunda belgilab qo'yilgan shakllardagi har qanday jamoat tashkilotini kamida o'n nafar fuqaroning tashabbusi bilan tuzish tartibi mustahkamlab qo'yildi.

O'z-o'zini boshqaruv organlarining faoliyati va ularning jamiyatni demokratlashtirishdagi o'rni. Fuqarolik jamiyati institutlari tizimida o'zini o'zi boshqarish organlari (mahalla)ning o'rni beqiyosdir. Ko'pchilik mamlakatlardan farqli o'laroq, mahalla instituti yurtimizda ming yillar davomida sinalgan va chuqur ildiz otgan, aholini birlashtirib turadigan ijtimoiy hodisa sifatida rivojlanib kelmoqda. Ayniqsa, uning hozirgi bozor iqtisodiyotiga o'tish sharoitida xalqimizning urf-odatlarini, an'analari va qadriyatlarini saqlab qolish, ularni jipslashtirish kafolati

sifatida maydonga chiqayotganligini yaqqol ko‘rib turibmiz. O‘zbekistonda fuqarolar o‘zini o‘zi boshqaruvini amalga oshirishda mahalla o‘rnak bo‘ladi. Mahalla o‘zbeklarning tarixan shakllangan jamiyat taraqqiyotini yuksaltirish uchun yagona maqsad bilan yashab, faoliyat ko‘rsatish makoniga aylangan. U o‘zbek xalqining turmush tarzi, ruhiyati, ijtimoiy hayotining o‘ziga xos xususiyatlarini aks ettiruvchi, milliy an‘analarini, urf-odatlarini, axloqiy-ma‘naviy qadriyatlarini avloddan-avlodga etkazuvchi muqaddas maskan bo‘lib kelgan. Mahalla insonlarning millati, yoshi, jinsi, dini, irqi, tili, e‘tiqodi, ijtimoiy kelib chiqishi, shaxsiy va ijtimoiy mavqeidan qat‘i nazar ularni ezgulik yo‘lida jipslashtiruvchi va birlashtiruvchi katta va muqaddas oila hisoblanadi. Mahalla sharqona an‘analar, urf-odatlar va marosimlarni jamoada amalga oshirib, avloddan-avlodga etkazib kelmoqda. Mahalla faollari an‘anaviy, oilaviy to‘ylar, bayramlar, motam marosimlarini o‘tkazish bilan bog‘liq tashkiliy ishlarni amalga oshirishda bosh-qosh bo‘lishadi. Ularni dabdabasiz, isrofgarchiliksiz, ortiqcha xarajatlarsiz, ixcham qilib o‘tkazish, mahalla oqsoqoli va maxsus mutasaddi komissiyalarga bog‘liq. Mahallada o‘tayottan har bir tantana yoki marosim uchun mahalla ahlining kattayu kichigi birday mas‘uldir. Bunday tadbirlarda kattayu kichikka, boyu kambag‘alga, mansabdoru oddiy fuqaroga bir xil hurmat va ehtirom ko‘rsatiladi. Chunki mahallaning barcha a‘zosi yagona, teng huquqli va mustahkam bitta oila hisoblanadi. Mahallada kelajak avlodimiz tarbiya topadi. Bu erda o‘sayotgan har bir yigit-qizning axloq-odobi uchun butun mahalla ahli mas‘uldir. Shuning uchun ham “Bir bolaga yetti qo‘shni ota-ona”, “Bir bola tarbiyasi uchun etti mahalla ota-ona” kabi naqlar bejiz paydo bo‘lmagan. Yoshlarning har bir xatti-harakati barchaning diqqat-markazida bo‘ladi. Mahalladoshlarning har bir yosh taqdiriga javobgarligi, ularni nazorat qilishi – barkamol insonni tarbiyalab etishtirishning negizidir. Xulq-odobi yaxshi har tomonlama namunali farzand mahallaning obro‘sidir, noqobil, axloqan nomaqbul farzand esa mahalla uchun qora dog‘idir. Mahalladan yurtga taniqli insonlar yetishib chiqsa, butun mahalla ahli, ularning avlod-ajdodlari g‘ururlanadilar. O‘zbekiston Respublikasida “Jamiyatda aholining huquqiy madaniyatini yuksaltirish Milliy dasturi”ning qabul qilingani mazkur masalani hal qilishning tashkiliy-huquqiy asoslarini belgilab berdi. Faol shaxslargina o‘z manfaatlarini anglab, ularni bevosita o‘zlari yoki turli guruhlarga, xususan hududiy jamoalarga uyushgan holda amalga oshiradilar. Fuqarolarning uyushganlik darajasi, o‘zaro aloqalarining yaqinligi, hududiy jamoalarning turli ko‘lamda tashkil etilishiga qarab farqlanishi tabiiy holdir. Aynan ushbu holat turli ko‘lamdagi hududiy jamoalarning faolligiga salbiy ta‘sir ko‘rsatadi. Eng quyi qishloq, shaharcha, mahalla jamoalari a‘zolari aloqalarining yaqinligi, ularning boshqaruvdagi bevosita ishtiroki tufayli, hududiy hamjamiyatlarni shakllantiradi. Aynan shunday hamjamiyatlar manfaat guruhlarini tashkil etib, hududiy o‘zin o‘zi boshqaruvchi sub‘ekt hisoblanadi. Bundan har bir hududiy jamoa, uning ko‘lamidan qat‘i-nazar, rivojlangan kommunikatsiyalar tizimiga ega bo‘lishi lozim degan xulosa kelib chiqadi. Hududiy jamoalarning faolligi ular tomonidan shakllantirilgan ijtimoiy-siyosiy institutlar faoliyatiga bevosita bog‘liqdir. Bunday institutlar, xoh ijtimoiy, xoh siyosiy bo‘lsin, ijtimoiy guruhlarga siyosat sohasida o‘z manfaatlarini tartibli qondirish imkonini beradi. Ular munosabatlarni barqarorlashtirib, individlar va guruhlar yurish-turishini tartibga solib, ularning

harakatlarini muvofiqlashtiradi va integratsiyalashuvini ta'minlaydi. Ijtimoiy institutlar, avvalo, muassasalar tizimi bo'lib, ularda ijtimoiy guruh a'zolari tomonidan tayinlangan yoki saylangan muayyan shaxslar jamiyat va individual manfaatlarni qondirish, shuningdek guruhning boshqa a'zolari yurish-turishini tartibga solish maqsadida umumiy boshqaruv funksiyalarini bajarish vakolatini oladilar. Fuqarolar yig'inlari bunday institut vazifasini o'taydi. 2015-yilning 1-yanvar holatiga ko'ra respublika hududida 9 787 ta fuqarolar yig'ini faoliyat ko'rsatmoqda, jumladan, 189 ta shahar fuqarolar yig'ini, 1295 ta qishloq, 157 ta ovul va 8 146 ta mahalla fuqarolar yig'inlaridir. Hozirgi kunda har bir fuqarolar yig'inidagi shtat lavozimida fuqarolar yig'ini raisi, diniy ma'rifat va ma'naviy-ahloqiy tarbiya masalalari bo'yicha maslahatchi, ma'sul kotib va "Mahalla posboni" jamoat tuzilmasi rahbari – jami 40 mingga yaqin kishi faoliyat ko'rsatmoqda. Undan tashqari, fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyatida jamoatchilik asosida fuqarolar yig'inining obro'li va hurmatga sazovor a'zolari o'rtasidan saylangan maslahatchilar faoliyat yuritadi, ular faoliyatining asosiy yo'nalishlari bo'yicha saylangan komissiyalarga rahbarlik qiladi. Ularning soni 100 ming kishiga yaqin. O'zbekistonda o'zini o'zi boshqarish organlarini qo'llab-quvvatlashda Respublika "Mahalla" xayriya jamoat fondining roli katta. Respublika "Mahalla" xayriya jamoat fondi 1992-yilda tashkil etilgan bo'lib, fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlarini mustahkamlashda, ularning qonunchilikda belgilangan huquq va vakolatlarini samarali tatbiq etishda, jamoatchilik nazoratini amalga oshirishdagi o'rnini yuksaltirishga ko'maklashadigan etakchi jamoat tashkiloti hisoblanadi. Ushbu jamoat fondi fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyatini muvofiqlashtirish bo'yicha Respublika kengashi ishchi organi maqomiga ega. O'z navbatida "Mahalla" xayriya jamoat fondining hududiy bo'linmalari maqomiga ko'ra fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyatini muvofiqlashtirish bo'yicha hududiy kengashlar ishchi organlari hisoblanadi. Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari xodimlari faoliyati mamlakat aholisi tomonidan keng miqyosda qo'llab-quvvatlanishga va hukumatning yuksak e'tirofiga sazovor bo'lmoqda. 2010-2013-yillar davomida fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlarining 150 nafarga yaqin xodimi turli davlat mukofotlariga sazovor bo'lgan. 2014-yilda fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari 27 nafar xodimi davlat mukofotlari bilan taqdirlandi. 2014-yil 21-dekabrda bo'lib o'tgan saylovlarda fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarining 692 nafar xodimlari xalq deputatlari tuman va shahar Kengashlari deputatligiga, 29 nafari viloyat Kengashi deputatligiga va 3 nafari Oliy Majlis Senati a'zoliciga saylanganlar. Bu fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarida bugungi kunda hurmat va ehtiromga loyiq insonlar faoliyat yuritishayotganini ko'rsatadi. Fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlarining mustaqilligi ularning mahalliy hokimiyat organlari bilan munosabatlarida aks etadi. O'zbekiston Respublikasining "Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari to'g'risida"gi Qonunining 2133-moddasiga muvofiq fuqarolarning o'zini o'zi boshqarishi fuqarolarning mahalliy ahamiyatga molik masalalarni o'z manfaatlaridan, rivojlanishning tarixiy xususiyatlaridan, shuningdek milliy va ma'naviy qadriyatlardan, mahalliy urf-odatlar va an'analardan kelib chiqqan holda hal qilish borasidagi O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlari bilan kafolatlanadigan mustaqil faoliyatidir. Mazkur Qonun 8-moddasining

ikkinchi qismida esa fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari davlat hokimiyati organlari tizimiga kirmaydi va qonun bilan berilgan o'z vakolatlarini tegishli hudud doirasida amalga oshirishi mustahkamlangan. "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi Qonunning 4-moddasida mahalliy davlat hokimiyati va fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarining o'zaro munosabatlari belgilangan. Mazkur moddaga muvofiq xalq deputatlari viloyat, tuman, shahar Kengashi va viloyat, tuman, shahar hokimi tegishli hududda o'zini o'zi boshqarishni rivojlantirishga ko'maklashishlari, o'zini o'zi boshqarish organlarining faoliyatini yo'naltirib turishlari belgilangan. Ushbu Qonunning 1-moddasida esa Xalq deputatlari Kengashi va hokim davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari bilan fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari o'rtasidagi aloqalarni, aholini viloyat, tuman va shaharni boshqarishga jalb etishni ta'minlashi belgilangan. Mahalliy davlat hokimiyati va fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari turli masalalar yuzasidan o'zaro munosabatlarga kirishadilar. Ushbu munosabatlar fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlarini qo'llab-quvvatlash, mahalliy boshqaruvdagi ishtirokini ta'minlash, shuningdek mahalliy hokimiyat organlarini o'zini o'zi boshqarishni yo'naltirishdan iboratligi ayon bo'ldi. "Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari to'g'risida"gi Qonunning 7-moddasiga muvofiq davlat organlari fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyatini amalga oshirishi uchun zarur sharoit yaratadi, qonun hujjatlari bilan berilgan vakolatlarni amalga oshirishda ularga ko'maklashadi. Ushbu moddaga binoan davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari, xususan hukumat va parlament boshqa davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyatiga aralashmasligini ta'minlaydilar. Bunday faoliyat qonunlar va boshqa qonun hujjatlarida, dasturlarda tegishli me'yorlarni hamda choralarni belgilash, ularning ijrosini ta'minlashdan iborat. Mahalliy davlat hokimiyati organlarining o'zini o'zi boshqarishni rivojlantirishga ko'maklashishini tashkil etish barcha davlatlarda dolzarb masalardan biri hisoblanadi. Masalan, Italiya Respublikasi Konstitutsiyaning 5-moddasida mahalliy avtonomiyani tan olishi va uning rivojlanishiga ko'maklashishi konstitutsiyaviy tuzum tamoyili sifatida belgilangan. O'zbekistonda o'zini o'zi boshqarishni o'rganish ko'plab muammolarning mavjudligi, ularni hal qilish borasida metodik ko'rsatmalar, mahalla raislari (oqsaqollari), ularning maslahatchilari va faollari malakalarini oshirish va boshqa masalalarda ko'maklashishga muhtojligi ayon bo'ladi. Ushbu va boshqa masalalarni hal qilishda mahalliy hokimiyat organlari tomonidan ko'maklashishning shakl va uslublarini takomillashtirish ehtiyoji namoyon bo'lmoqda. O'zbekistonda mahalla faoliyatini tashkil etish, uni rivojlantirishga ko'maklashishga alohida e'tibor berilmoqda. O'zbekiston Respublikasida 2003-yil "Obod mahalla yili", - deb e'lon qilindi. 2013-yilning oktyabrida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari xodimlarining malakasini oshirish bo'yicha o'quv kursini tashkil etish to'g'risida"gi qarori amaliy choralardan biri bo'ldi. Ushbu qarorga muvofiq har bir hududda tashkil qilingan fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlari xodimlarining malakasini oshirish bo'yicha o'quv kurslari o'zini o'zi boshqarishni rivojlantirish, bu borada mavjud muammolarni hal etishga katta ko'mak bo'ldi. 2014-yil mobaynida ushbu o'quv kurslarida, jami o'zini o'zi boshqarish organlari xodimlarining 35% ni tashkil etuvchi 13 ming 983 nafar

xodimlar malaka oshirib, o'quv kurslarining sertifikatlarini qo'lga kiritishdi. O'zbekistonda ham demokratik davlatlar kabi fuqarolar yig'inlarining ijtimoiy-siyosiy funksiyalari e'tiborga olinib, ularning davlat va mahalliy boshqaruvdagi ishtiroki, bu borada mahalliy hokimiyat organlarining vazifalari alohida e'tirof etiladi. Masalan, "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi Qonunning 1-moddasida xalq deputatlari Kengashi va hokim O'zbekiston Respublikasi davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari bilan fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari o'rtasidagi aloqalarni, aholini viloyat, tuman va shaharni boshqarishga jalb etishni ta'minlashi belgilangan.

Mustaqillikka erishilishi bilan O'zbekistonda mahalla institutiga mustahkam huquqiy poydevor yaratishning faol jarayoni boshlandi. Birinchi huquqiy hujjat O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi bo'ldi, uning 105-moddasida quyidagicha belgilab qo'yilgan: "Shaharcha, qishloq va ovullarda, shuningdek ular tarkibidagi mahallalarda hamda shaharlardagi mahallalarda fuqarolarning yig'inlari o'zini o'zi boshqarish organlari bo'lib, ular ikki yarim yil muddatga raisni (oqsoqolni) va uning maslahatchilarini saylaydi". Konstitutsiyaning ushbu qoidasi mahallaning huquqiy asoslarini yanada rivojlantirish uchun dasturulamal bo'lib xizmat qildi. Shunday qilib, 1993-yil 2-sentyabr kuni "Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari to'g'risida"gi qonun qabul qilindi. Ushbu qonun ilk marta qonunchilik darajasida mahalla faoliyatini tartibga soldi, ya'ni uning huquqiy maqomini belgilab berdi. Fuqarolarning moddiy mustaqilligi va siyosiy-huquqiy ongi oshishiga sabab bo'layotgan demokratik islohotlar chuqurlashib, bozor munosabatlari rivojlanib borgani sari mahalla institutining huquqiy asoslarini takomillashtirish zarurati tug'ildi. Natijada 1999-yil 14-aprel kuni "Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari to'g'risida"gi qonun yangi tahrirda qabul qilindi. Unda fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish huquqi bevosita mustahkamlab qo'yildi, mahalla faoliyatining asosiy tamoyillari, uning faoliyatini qo'llab-quvvatlashga davlat kafolati belgilab berildi, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari vakolatlari kengaytirildi. 2004-yil 29-aprel kuni "Fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) va uning maslahatchilari saylovi to'g'risida"gi qonun mahalla faoliyatini demokratlashtirish yo'lidagi ulkan qadam bo'ldi. Ushbu qonunda, birinchidan, fuqarolar yig'ini organlariga saylovning demokratik tamoyillari belgilab berildi va mahalla organlariga saylov tizimi barpo etildi, ikkinchidan, saylov jarayonining barcha bosqichlari batafsil tartibga solindi, uchinchidan, qonun darajasida mustahkam huquqiy kafolat yaratildi. Mahalla o'z faoliyatini moliyalashtirish bo'yicha ham davlat ko'magini ola boshladi. Shunday qilib, rais, mas'ul kotib, "Mahalla posboni" jamoatchilik tuzilmasi rahbari va fuqarolar yig'inlarining diniy ma'rifat va ma'naviy-axloqiy tarbiya masalalari bo'yicha maslahatchisidan iborat to'rt nafar mas'ul shaxs ishi, shuningdek, mahallaning qo'shimcha xarajatlari davlat hokimiyatining mahalliy organlari byudjetidan moliyalashtirilmoqda. Mahallaning boshqaruvi milliy va davlatchiligimiz tajribasidan kelib chiqib, rais, ya'ni oqsoqol tomonidan amalga oshirilmoqda. Mahallalarda aholi bandligini ta'minlashga ko'maklashish borasida keng qamrovli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Xususan, oilaviy tadbirkorlik va hunarmandchilikni qo'llab-quvvatlash maqsadida Fondning hududiy tuzilmalari hamda fuqarolar yig'inlari tomonidan joriy yilning o'tgan davrida 9 mingdan ortiq

targ'ibot-tashviqot tadbirlari o'tkazildi, mahallalarda 41 mingdan ortiq maishiy xizmat ko'rsatish shoxobchalarini tashkil etish, hududlarda 112 mingdan ziyod yangi ish o'rinlarini yaratishga ko'maklashildi. Ayni paytda, fuqarolar yig'inlari hududida tadbirkorlik faoliyatini, jumladan, oilaviy tadbirkorlik va hunarmandchilik faoliyatini rivojlantirishga ko'maklashish maqsadida maslahat markazlari tashkil etilmoqda. Bu borada manfaatdor vazirlik va idoralar tomonidan 2013-yilning 24-iyunida ushbu markazlarning namunaviy Nizomi qabul qilinib, amaliyotga tatbiq etildi.

Aholini manzilli ijtimoiy qo'llab-quvvatlash borasida qonunga fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlarining bandlikka ko'maklashish va aholini ijtimoiy muhofaza qilish markazlari bilan birgalikda ijtimoiy qo'llab-quvvatlashga muhtoj kam ta'minlangan oilalar, yolg'iz keksalar, pensionerlar va nogironlarni aniqlash, fuqarolarning bandligiga ko'maklashish, fuqarolar yig'ini hududida yashovchi fuqarolarni ish bilan ta'minlash haqidagi me'yorlar kiritildi. Qonunda fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlariga jamoatchilik nazoratini amalga oshirish bo'yicha qo'shimcha vakolatlar berish bilan bir qatorda, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari tomonidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirish shakllari hamda fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarining jamoatchilik nazoratini amalga oshirish kafolatlarini belgilovchi alohida modda kiritildi. Mahallani xususiy tadbirkorlik, shu jumladan oilaviy tadbirkorlik va hunarmandchilikni rivojlantirish markaziga aylantirish borasida fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlariga fuqarolar yig'ini hududida xususiy tadbirkorlik, shu jumladan oilaviy tadbirkorlik va hunarmandchilikni rivojlantirishga ko'maklashish, tegishli maslahat markazlarini tashkil etish to'g'risida qaror qabul qilish bo'yicha qo'shimcha vakolatlar berildi. Xususan, fuqarolar yig'inlari huzuridagi maslahat markazlari tadbirkorlik faoliyatini tashkil qilmoqchi bo'lgan fuqarolar yig'ini hududida yashovchilar uchun qisqa muddatli kurslar tashkil etib, tadbirkorlik faoliyati sub'ektlari uchun mavjud imtiyozlar va preferensiyalar haqida ma'lumotlar beradi, fuqarolar yig'ini hududida yashovchilarga tadbirkorlik faoliyatini tashkil etishda har tomonlama ko'maklashmoqda.

O'zbekistonda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi. Inson haq-huquqlarini ta'minlash va himoya qilish. Mustaqillik tufayli boshlangan mamlakatimizdagi keng qamrovli demokratik islohotlar insonlarning huquq va erkinliklarini izchil va uzluksiz takomillashtirishda yangi davrni boshlab berdi. Inson erkinliklari va manfaatlarini ifodalashga qaratilgan chora-tadbirlar tufayli bir qator yutuqlarga erishilib, inson huquqlariga oid qonun hujjatlari tizimi izchil takomillashtirildi.

Inson huquqlarini ta'minlashning tom ma'nodagi huquqiy asosini 1992-yil 8-dekabrda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi yaratdi. Asosiy qonunning ikkinchi bo'limi inson va fuqarolarning asosiy huquqlari, erkinliklari va burchlariga bag'ishlanib, 18-moddasida Respublikamizdagi barcha fuqarolar huquqlarining tengligi kafolatlandi.

Mamlakatimizda Ombudsman institutining shakllanishi esa huquqiy - demokratik davlat qurishda yangi bosqichni boshlab berdi. Avvalombor ushbu tuzilmaning shakllanishi va taraqqiyoti xususida so'z yuritishdan oldin, uning mazmun hamda mohiyatiga to'xtalish muhim. Umuman "Ombudsman" so'zi

shvedcha “vakil”, “agent”, “delegat”, “advokat” tushunchalariga hamohang, biror kishining vasiysi, biror kishining nomidan ish ko‘ruvchi ma’nolarini anglatadi. Oliy Majlisda Inson huquqlari bo‘yicha vakillik (Ombudsman) institutini tashkil etish zarurati ilk bor 1995-yil 23-fevralda bo‘lib o‘tgan birinchi chaqiriq birinchi sessiyasida ilgari surildi. Shu tariqa mamlakatimiz mustaqillik yillari tarixida ilk bor 1995-yilning 23-fevralida Oliy Majlisning Inson huquqlari bo‘yicha vakili tashkil etildi.

Inson huquqlari bo‘yicha vakil zimmasiga yuklangan vazifalarni samarali bajarishga ko‘maklashish maqsadida 1995-yil 6-mayda Oliy Majlis tomonidan “Oliy Majlisning Inson huquqlari bo‘yicha vakili huzurida Fuqarolarning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklariga rioya etilishi komissiyasini



tuzish to‘g‘risida”gi 881-sonli qaror qabul qilindi. Ushbu qarorga ko‘ra Inson huquqlari bo‘yicha vakil huzurida jamoatchilik asosida faoliyat olib boruvchi fuqarolarning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklariga rioya etilishi bo‘yicha 10 kishidan iborat komissiya tasdiqlandi.

Ombudsman instituti faoliyatining yanada takomillashuvida O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidentining 1999-yil 14-aprelda Oliy Majlisning XIV sessiyasidagi ma‘ruzasidagi quyidagi fikrlari muhim ahamiyat kasb etdi: “Insoniy mezonlar, hukumatga qarashli bo‘lmagan huquqni muhofaza qiluvchi tashkilotlar va ommaviy axborot vositalarini rivojlantirish masalalari bo‘yicha Yevropa xavfsizlik va hamkorlik tashkiloti va boshqa tashkilotlar bilan hamkorlikni kuchaytirish lozim. Respublika mintaqalarida Inson huquqlari bo‘yicha vakil samarali faoliyat ko‘rsatishi uchun shart-sharoit yaratish, Ombudsman institutining haqiqiy mustaqilligini ta‘minlash zarur”. 1999-yilning 12-avgustida O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Kengashining 7981-sonli “Insonning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklariga rioya etilishi bo‘yicha komissiyasi tarkibiga o‘zgartirish kiritish to‘g‘risida”gi qarori bilan komissiya tarkibiga yana 10 nafar komissiya qo‘shilib, Ombudsmanning mintaqalardagi vakillik instituti vujudga kelishi uchun ilk “tamal tosh”i qo‘yildi. Parlament Vakil va Komissiyaning asosiy faoliyati esa Oliy Majlis Kengashi tomonidan 1995-yil 29-avgustda qabul qilingan Oliy Majlisning Inson huquqlari bo‘yicha vakili to‘g‘risidagi nizom bilan tartibga solindi. Shuningdek, Nizomda Vakilning saylanish tartibi, uning asosiy vazifalari, shikoyatlarni taqdim etish (Vakilga) va ko‘rib chiqish tartibi, Vakilning va shikoyat etuvchining huquqlari hamda Inson huquqlari bo‘yicha vakil huzurida fuqarolarning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklariga rioya etilishi bo‘yicha komissiyaning Vakilga o‘z faoliyatini amalga oshirish jaryonidagi vakolatlari belgilandi. Mustaqil O‘zbekiston tarixida ayniqsa, 2001-2010-yillarni o‘z ichiga olgan davr Ombudsman instituti faoliyati uchun muhim qadam bo‘ldi. Mazkur bosqichda O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Inson huquqlari bo‘yicha vakili institutining oyoqqa turishi uchun muhim ahamiyat kasb

etdi. Vakil vazifalari va funksiyalarini amalga oshirish mexanizmlari yanada takomillashtirildi. Bosqichma-bosqich mustahkamlanib borayotgan Oliy Majlisning Inson huquqlari bo'yicha vakil instituti dastlabki yillarda O'zbekiston Konstitutsiyasida mustahkamlanmagan edi. Ombudsmanga konstitutsiyaviy maqom berishning dolzarbligi va uning mohiyati masalasi Oliy Majlisning Inson huquqlari bo'yicha vakili S.Rashidova tomonidan asoslab berilgan edi. 2003-yil 24-aprelda O'zbekiston parlamenti Konstitutsiyaga o'zgartirishlar va to'ldirishlar kiritish to'g'risida Qonun qabul qildi, unga ko'ra, Konstitutsiyaning 7-8-moddasiga, Oliy Majlisning Inson huquqlari bo'yicha vakilini Oliy Majlisning Qonunchilik palatasi va Senati tomonidan saylash to'g'risida 16-band kiritildi. Ushbu qoida Ombudsmanga konstitutsiyaviy maqom berilganligini ko'rsatadi. Ancha urinishlardan so'ng nihoyat Oliy Majlisning 2004- yil 27-avgustdagi o'n beshinchi sessiyasida "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Inson huquqlari bo'yicha vakili (Ombudsman) to'g'risida"gi Qonun parlament Vakilini isloh qilishni hamda ijtimoiy hayotda erkinlashtirish va demokratlashtirish jarayonlarini hisobga olgan holda yangi loyihada qabul qilindi. Yangi Qonun tuzilish jihatidan Muqaddima va 22-moddadan tashkil topib, Qonunchilik palatasiga saylovlar va O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Senatining shakllanishi natijalari bo'yicha 2005-yil yanvar oyida kuchga kirdi. Qonunda parlament palatalari maqomlari to'g'risidagi yangi qonunlar qoidalari, shuningdek, Ombudsman faoliyatining amaliyoti, inson huquqlari bo'yicha milliy institutlariga oid xalqaro standartlar, Ombudsman maqomini huquqiy belgilash bo'yicha xorijiy tajribalar hisobga olindi. O'zbekistonda vakillik institutining taraqqiyoti va takomillashuvida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008-yil 1-mayda "Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi qabul qilinganligining 60 yilligiga bag'ishlangan tadbirlari to'g'risidagi" dasturi muhim ahamiyat kasb etdi. Ushbu farmonda va uning ilovasida inson huquqlarini himoya qilishga qaratilgan milliy institutlar, jumladan, Ombudsman institutining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, ularning samarali ishlashi uchun zarur boshqa shart-sharoit yaratishga doir kompleks chora-tadbirlarni ishlab chiqish, "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Inson huquqlari bo'yicha vakili (Ombudsman) to'g'risida"gi Qonunni amalda tatbiq etilishini o'rganish va zarur takliflarni ishlab chiqish vazifalari belgilab berildi. Davlat rahbarining yuqoridagi farmondan kelib chiqqan holda, 2008-yil 30-sentabrda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik Palatasi Kengashining va O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashining qo'shma "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining inson huquqlari bo'yicha vakili (Ombudsman) kotibiyati faoliyatini takomillashtirish to'g'risida"gi va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Inson huquqlari bo'yicha milliy institutlarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari kompleksi to'g'risida"gi qarorlari qabul qilinib, unda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Inson huquqlari bo'yicha vakili kotibiyatiga O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining zahira jamg'armasidan asoslangan hisob-kitoblar bo'yicha zarur zamonaviy ofis mebeli, avtotransport, kompyuter texnikasi, dasturiy vositalar va boshqa moddiy-texnika vositalari, Davlat byudjetidan Vakil va uning Kotibiyatining joriy ta'minoti, bosma materiallar chiqarish, axborot nashrlari va adabiyotlarga obuna bo'lish, xalqaro Ombudsman institutlariga a'zolik badallari to'lash, Vakil va uning

Kotibiyati xodimlarining xalqaro forumlar ishida qatnashishi uchun har yili mablag'lar ajratilishini, shuningdek, Internet tarmog'i bilan ta'minlash masalalariga e'tibor qaratildi. Vazirlar Mahkamasi tomonidan Qonunchilik palatasiga kiritilib, 2008- yil 25-noyabrda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi tomonidan "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Inson huquqlari bo'yicha vakili (Ombudsman) faoliyati takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi qonun qabul qilinib, u 2009-yilning 27-martida Senat tomonidan ma'qullandi va 2009-yilning 10-aprel kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan imzolandi.

Shunday qilib, mamlakatimizda Ombudsman institutining shakllanishi va faoliyati mamlakatimizda qonun va inson huquqlari ustivorligini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etdi. Bu esa fuqarolarning tengligi, erkinligi kabi tamoyillarning amalda to'liq ta'minlanishi uchun hamda fuqarolik jamiyatini qurish jarayonlarida har tomonlama boshqa institutlarga nisbatan jamiyat a'zolariga yaqinligi fuqarolarning huquqiy ongi va madaniyatini yuksaltirishga bo'lgan zaruratni oshirishga imkoniyat yaratdi.

Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar

1. Milliy davlat boshqaruvi tizimining shakllantirilishi tushunchasi?
2. O'zbekistonda davlat hokimiyatining bo'linishi prinsipi?
3. O'zbekistonda ko'ppartiyaviylik tizimi va uning ahamiyatli tomoni nimada?
4. Siyosiy partiyalar faoliyatidagi asosiy xususiyatlar qanday namoyon bo'lishi kerak?
5. O'zbekistonda nodavlat-notijorat tashkilotlar va ularning siyosiy, ijtimoiy hamda iqtisodiy jarayonlardagi ishtiroki qanday bo'lishi kerak?
6. O'z-o'zini boshqaruv organlarining faoliyati va ularning jamiyatni demokratlashtirishdagi o'рни haqida nima deya olasiz?
7. Demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish qanday amalga oshirilishi kerak deb o'ylaysiz?
8. Fuqarolik jamiyati tushunchasi?
9. Inson huquqlarini ta'minlash va himoya qilish qanday amalga oshirilishi kerak?

Testlar

1. 1993-yil 2-sentabrda qaysi qonun qabul qilingan?
A. Sudlar tog'risidagi qonun B. Qishloq xo'jaligi to'g'risidagi qonun
C. Uy-joy qurilishi haqida qonun D. Mahalla to'g'risida
2. Mustaqillik yillarida dastlab nechta partiya faoliyat yuritdi?
A. 5 ta B. 6 ta C. 4ta D. 2 ta
3. Tashkil qilingan davrda Xalq-demokratik partiyasining nechta a'zosi bo'lgan?
A. 120 ming B. 200 ming C. 420mingdan ortiq D. Bunday partiya bo'lmagan
4. Mamlakatimizda nechta kasaba uyushmalri faoliyat ko'rsatadi?

- A. 100 ta B. 150 ta C. 200 ga yaqin D. 160 dan ortiq
5. 1997-yil mamlakatimizda qancha gazeta nechta tilda faoliyat yuritgan?
A. 8 tilda 495 ta gazeta B. 3 ta tilda 500 ta gazeta
C. 5 ta tilda 300 ta gazeta D. 4 ta tilda 200 dan ziyod
6. O'zbekistonda o'lim jazosi qachon bekor qilindi?
A. 2004-yil B. 2006-yil C. 2008-yil D. 2000-yil
7. "Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari to'g'risida" qonuni qachon qabul qilingan?
A. 1999-yil 14 aprelda B. 2002-yil C. 1999-yil 10-sentabr D. 2003-yil 12-oktabr
8. "Prokuratura to'g'risida"gi qonunning yangi tahriri qachon qabul qilindi?
A. 2001-yil B. 2004-yil C. 2006-yil D. 2010-yil
9. Umrbod ozodlikdan mahrum qilish jazosi Germaniya va Polshada nechtani tashkil etadi (yiliga)?
A. 5 ta B. 7 ta C. 10 ta D. 4 ta
10. Mamlakatimizda 1997-yil nechta jurnal chop etilgan.
A. 200 ta B. 150 ta C. 300 ta D. 250 ta

7-Mavzu: Korrupsiyaga qarshi kurashish – jamiyat taraqqiyotining asosi

Reja:

1. Korrupsiya va uning tarixiy ildizlari
2. O‘zbekistonda korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlari
3. Korrupsiyaga qarshi kurashish Agentligining tashkil etilishi

Darsning o‘quv maqsadi: *Talabalarga “korrupsiya” tushunchasi, uning tarixiy ildizlari, O‘zbekistonda korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlari, qonunchilik asoslari, korrupsiyaga qarshi kurashish Agentligining tashkil etilishi, uning vakolat va vazifalari haqida ma’lumot berish.*

Mavzu yuzasidan tayanch so‘z va iboralar: *“korrupsiya”, Agentlik, qonunlar, jahon tajribasi, shaffoflik, Konvensiya, davlat organlari .*

Korrupsiya va uning tarixiy ildizlari. Korrupsiya – bu jamiyatni turli yo‘llar bilan iskanjaga oladigan dahshatli illatdir. Mazkur illat demokratiya va huquq ustuvorligi asoslariga putur yetkazadi, inson huquqlari buzilishiga olib keladi, bozorlar faoliyatiga to‘sqinlik qiladi, hayot sifatini yomonlashtiradi va odamlar xavfsizligiga tahdid soladigan uyushgan jinoyatchilik, terrorizm va boshqa hodisalar ildiz otib, gullashi uchun sharoit yaratib beradi.

Ta’kidlab o‘tish o‘rinliki, ushbu zararli hodisa katta va kichik, badavlat va kambag‘al bo‘lishidan qat’iy nazar, barcha mamlakatlarda uchraydi. Ushbu zararli illatni bartaraf etish bo‘yicha jahon hamjamiyati tomonidan bir qator samarali ishlar amalga oshirilayotgan bo‘lsada, hanuzgacha u bartaraf etilmayapti.

Biz quyida korrupsiyaning tarixiy ildizlariga va unga qarshi kurashish xususida fikr yuritmoqchimiz. Korrupsiya (lot. Corruptere - buzmoq) termini odatda mansabdor shaxslar tomonidan unga berilgan mansab vakolatlari va huquqlardan o‘zlarining shaxsiy manfaatlarini ko‘zlab qonunchilik va axloq qoidalariga zid ravishda foydalanishini anglatadi. Ko‘p hollarda bu atama siyosiy elitadagi byurokratik apparatga qarata ishlatiladi. Korrupsiya ko‘plab davlatlarning jinoyat va ma’muriy qonunchiligi bilan huquqqa qarshi harakat sifatida ta’qib qilinadi. Makroiqtisodiy va siyosiy-iqtisodiy tadqiqotlar, korrupsiya — davlatlarning iqtisodiy o‘sishi va rivojlanishiga ulkan to‘siq ekanligini ko‘rsatdi.

Korrupsiyaning tarixiy o‘zakkari juda juda qadimga borib taqalib, bu hol qabilada ma’lum mavqega ega bo‘lish uchun qabila sardorlariga sovg‘alar berish odatidan kelib chiqqan deb taxmin qilinadi. O‘sha davrlarda bu normal holat sifatida qabul qilingan. Biroq davlat apparatining murakkablashuvi va markaziydashuvi korrupsiyaning davlat rivojlanishiga katta to‘siq ekanligini ko‘rsatdi. Korrupsiyaga qarshi kurashgan birinchi davlat sifatida qadimgi Shumer davlati tan olinadi. Qadimgi davlatlarni ayniqsa huquqni muhofaza qiluvchi organlarning poraxo‘rligi qattiq tashvishga solganligi bizgacha saqlanib qolgan manbalardan ma’lum. Chunki bu holat davlatning obro‘-sigi juda qattiq putur yetkazardi. Dunyoning yetakchi dinlarida ham birinchi navbatda huquqni muhofaza qiluvchi organlarning poraxo‘rligi qattiq qoralanadi. Jumaladan, Injilda “Sovg‘alarni qabul qilma, chunki sovg‘a ko‘rni

ko‘radigan qiladi va haqiqatni o‘zgartiradi” deyilgan bo‘lsa, Qu‘roni Karimda “Boshqalarning mulkini nohaq yo‘l bilan olmangiz va boshqalarga tegishli bo‘lgan narsalarni olish uchun o‘z mulkingizdan hokimlaringizga pora qilib uzatmangizlar” deyilgan.

XVIII asrning ikkinchi yarmiga kelib jamiyat davlat boshqaruv apparatining ish sifatiga toboro ko‘proq ta’sir ko‘rsata boshladi. Bu o‘sha davrda qabul qilingan bir qator qonun hujjatlarida o‘z aksini topgan. Jumladan, 1787-yilda qabul qilingan AQSH Konstitutsiyasida pora olish AQSH prezidentini impechmentga tortish mumkin bo‘lgan ikki jinoyatning biri sifatida ko‘rsatib o‘tilgan. Siyosiy partiyalarning vujudga kelishi va ularning mamlakat hayotidagi o‘rnining oshib borishi XIX-XX asrlarda rivojlangan davlatlarda korrupsiyaning dunyoning boshqa mamlakatlariga nisbatan ancha kamayishiga olib keldi. Ushbu illatni tadqiq qilgan bir qator yirik mutaxassislar quyidagi faktorlarni korrupsiyani yuzaga keltiruvchi omillar sifatida ko‘rsatadi. Ikki xil ma’noni anglatuvchi qonunlar - ushbu vaziyat huquqni qo‘llovchi mansabdor shaxs tomonidan qonunlarni turlicha qo‘llash imkonini yaratadi. Shuningdek, ayrim mutaxassislar jinoyat, ma’muriy qonunchilikdagi “vilka” sanksiyalarni ham korrupsiyaga qulay sharoit yaratishi mumkinligi haqida fikr yuritishgan. Ya’ni, sanksiyaning aniq miqdori yo‘qligi sudyada uni o‘z xohishiga qarab qo‘llashga sharoit yaratib beradi. Aholi huquqiy savodxonligining pastligi - aholi tomonidan qonunlarni bilmaslik yoki tushunmaslik mansabdor shaxsga o‘zining shaxsiy manfaati yo‘lida qonunlardan foydanishga qulay sharoit yaratadi. Mamlakatdagi siyosiy vaziyatning notinchligi - mamlakatdagi notinchlik birinchi navbatda aholi ongida hayotda yuksak turmush darajasiga erishishning asosiy usuli qonunga xilof faoliyat bilan bog‘liq, degan mutlaqo axloqqa zid nuqtai nazar shakllanishiga olib keladi. Bu esa o‘z navbatida korrupsiyaga qulay sharoit yaratadi. Ijro hokimiyatining birligi tamoyilining buzilishi - aynan bitta faoliyatning turli instansiyalar tomonidan tartibga solinishi:

- aholining davlatni nazorat qilishdagi sust ishtiroki;
- davlat sektoridagi xizmat qilayotgan xizmatchilar daromadlarining xususiy sektorda topish mumkin bo‘lgan daromadlardan kamligi;
- iqtisodiyotning davlat tomonidan tartibga solinishi;
- inflyatsiyaning yuqori darajasi;
- mamlakat yuqori boshqaruv organlarining aholidan uzilib qolganligi;
- mamlakatdagi diniy va axloq qoidalari.

Jahon mamlakatlarida korrupsiyaga qarshi kurashning quyidagi usullari mavjud. Ichki nazorat - bu usul boshqaruv apparatining o‘zida nazoratni kuchaytiruvchi tuzilmalar (har xil ichki inspeksiyalar va boshqa nazorat organlari tuzish orqali) yaratishni taqazo etadi. Bu tuzilmaning asosiy vazifasi xodimlarning ichki etiket qoidalariga rioya qilishini nazorat qilishdir. Hozirgi kunda bizning yurtimizda ham bir qator huquqni muhofaza qilish organlarida aynan shu vazifani bajaruvchi ichki tuzilmalar yaratilgan. Tashqi nazorat - bu usulda ijro apparatidan mustaqil tuzilmalarning mustaqilligini oshirish nazarda tutilib, aynan ushbu tuzilmalar orqali korrupsiyaga qarshi samarali kurash olib boriladi. Ya’ni, sud hokimiyatining maksimal darajada mustaqilligiga erishish ommaviy axborot vositalariga ko‘proq erkinlik berish va h.k. Saylov tizimi orqali kurashish -demokratik davlatlarda

saylangan vakillarni korrupsiya uchun jazolashning asosiy usullaridan biri keyingi saylovlarda unga ovoz bermaslik hisoblanadi. Korrupsiyaga saylovlar orqali ta'sir o'tkazish eng samarali usul hisoblanadi.

Korrupsiyaga qarshi kurashda yuqori natijalarga erishgan Shvetsiya, Singapur, Gonkong, Portugaliya kabi davlatlarning tajribasini o'rganish shuni ko'rsatadiki, korrupsiyani yuzaga keltiruvchi omillarni bartaraf etish korrupsiyaga qarshi kurashda muhim o'rin egallaydi. Bunda Konstitutsiyaviy nazorat organlari, huquq-tartibot organlarining ahamiyati ortadi. Ya'ni, korrupsiyaga olib kelishi mumkin bo'lgan normalarni konstitutsiyaviy nazorat organi tomonidan konstitutsiyaga zid deb topish, aholining huquqiy savodxonligini oshirish kabi metodlardan unumli foydalanish ushbu davlatlarni korrupsiya darajasi juda past bo'lgan davlatlar qatoriga olib chiqqan. Biz quyida Singapur davlatida korrupsiyaga qarshi kurashda qo'llanilgan usullar haqida batafsil to'xtalib o'tamiz.

Singapur davlati 1965-yil mustaqillikka erishgach korrupsiya darajasi eng yuqori bo'lgan davlatlar qatorida turar edi. Lekin bu illatga qarshi o'tkazilgan bir qator tadbirlar bu davlatda korrupsiyaning minimal darajaga tushishiga olib keldi. Birinchi navbatda bu yerda byurokratik jarayonlar yengillashtirilib sud tizimining mustaqilligi oshirildi (sudyalarning daromadlari va imtiyozlarini oshirish evaziga). Shu bilan birga korrupsiya jinoyatlari uchun sanksiyalar og'irlashtirilib, fuqarolarga korrupsiyaga qarshi jinoyatlarni tergov qilishda hamkorlik qilishda bosh tortganligi uchun juda katta moliyaviy sanksiyalar belgilandi. Bir qator davlat idoralarida ommaviy "tozalashlar" o'tkazilib bu jarayonlar telekanallar orqali butun mamlakatga namoyish qilindi. Yuqorida sanab o'tilgan omillarning hammasi Singapurni qisqa muddatlarda korrupsiya darajasi eng past mamlakatlar ro'yxatida ilg'or davlatlar qatoriga olib chiqdi. Shuningdek, davlat xizmatchisining ahloq standartlariga rioya etishini qattiq nazorat ostiga olish ham Singapur davlatida korrupsiyaga qarshi kurashda muhim dastaklardan biri bo'lib xizmat qiladi.

I.A.Karimovning "O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari" asarida "jinoyatchilik, korrupsiya bizning o'z xavfsizligimizga ham, xalqaro xavfsizlikka ham tahdid soluvchi real manbadir. Binobarin, mazkur hodisaga qarshi kurash masalalari birgina bizga taalluqli emas. Shuning uchun ham biz jinoyatchilik haqida butun jahon hamjamiyati qayg'urmog'i lozim, deb hisoblaymiz. Suveren O'zbekiston xalqi va rahbariyati esa ular bilan faol hamkorlik qilishga tayyor va buni dunyoni poklash, uning xavfsizligini ta'minlash ishiga qo'shilgan hissa, deb biladi" deb fikr bildirgan edi. Jinoyatchi unsurlarning xo'jalik munosabatlari tizimini shakllantirish jarayonida faol va xufyona ishtirok etishi jamiyatda axloqsizlik vaziyatini tug'dirishi, bu esa o'z navbatida, mamlakat uchun ham, jahon hamjamiyati uchun ham nomaqbul jinoiy bozor iqtisodiyotining alohida turi shakllanishiga olib kelishini keyinchalik BMT tomonidan ham tan olinib, 2003-yil 9-dekabrda Meksikaning Merida shahrida korrupsiyaga qarshi kurashishda davlatlar o'rtasidagi aloqalarni yanada kuchaytirish maqsadida 3 kun davom etgan konferensiya tashkil etildi. Bu konferensiya davomida 100 dan ortiq davlat tomonidan Korrupsiyaga qarshi haqaro konvensiya imzolandi. Konferensiyaning birinchi ish kuni (9-dekabr) BMT tomonidan butun dunyoda korrupsiyaga qarshi kurash kuni deb e'lon qilingan. Ushbu konvensiyaning qabul

qilinishi va kuchga kirish (2003-yil 31-oktabr) dunyo mamlakatlarining korrupsiyaga qarshi kurashdagi hamkorligini yangi pog‘onaga ko‘tardi.

Konvensiyada korrupsiyaning rivojlanishi uyushgan jinoyatchilik, terrorizm va boshqa jamiyat uchun xavfli bo‘lgan salbiy omillarga qarshi kurashga ulkan to‘siq bo‘lishi mumkinligiga alohida urg‘u berilgan.

Ushbu Konvensiyaning maqsadi quyidagilardan iborat:

- korrupsiyaga qarshi qaratilgan yuqori samarali chora tadbirlarni qabul qilish va ularni mustahkamlash;

- korrupsiyaga qarshi kurashda halqaro hamkorlikni kengaytirish, yengillashtirish va qo‘llab quvvatlash.

O‘zbekiston Respublikasi Birlashgan Millatlar tashkilotining Korrupsiyaga qarshi konvensiyasiga 2008-yil 7-iyuldagi O‘RQ-158-sonli Qonuni bilan qo‘shilgan bo‘lib, ushbu Qonunga muvofiq O‘zbekiston Respublikasining Bosh prokuraturasi, Ichki ishlar vazirligi, Milliy xavfsizlik xizmati (Davlat xavfsizlik xizmati) va Adliya vazirligi korrupsiyaning oldini olish bo‘yicha aniq chora-tadbirlar ishlab chiqish va ularni amalga oshirishda boshqa Ishtirokchi-davlatlarga yordam ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan organlar sifatida belgilab qo‘yilgan.

Ushbu Konvensiyada nazarda tutilgan va korrupsiya sifatida e’tirof etilishi mumkin bo‘lgan qilmishlar O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat Kodeksining bir qator moddalari bilan jinoiy qilmish sifatida ta’qib qilinadi.

O‘zbekistonda korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlari. Mamlakatimizda mustaqillik yillarida amalga oshirilgan keng ko‘lamli islohotlar milliy davlatchilik va suverenitetni mustahkamlash, xavfsizlik va huquq-tartibot va jamiyatda qonun ustuvorligini, inson huquq va erkinliklarini ta’minlash uchun muhim poydevorni shakllantirdi hamda xalqning hayot kechirish darajasi va sifatini oshirish uchun zarur shart-sharoitlar yaratdi. Iqtisodiyotda boshqaruv tizimining ma’muriybuyruqbozlik tizimidan voz kechilib, bozor islohotlari bosqichma-bosqich amalga oshirish va puxta o‘ylangan budjetsoliq siyosati natijasida makroiqtisodiy barqarorlik, iqtisodiyotning yuqori sur‘atlar bilan o‘sishi, inflyatsiyani prognoz ko‘rsatkichlari darajasida saqlab qolish ta’minlanishiga erishildi hamda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, fermerlik harakatini rivojlantirish uchun keng imkoniyat va qulay sharoitlar yaratildi.

O‘zbekistonda Korrupsiyaga qarshi kurash ishlarini tashkillashtirish maqsadida Vazirlar Mahkamasining 1992-yil 3-martdagi “O‘zbekiston Respublikasi Prokuraturasi tuzilmasida tashqi iqtisodiy faoliyat sohasidagi poraxo‘rlik, o‘g‘irliklar va boshqa suiiste’molchiliklarga qarshi kurash boshqarmasini tashkil etish to‘g‘risida”gi; 1994-yil 11-maydagi “Xususiy mulkchilik va tadbirkorlikni korrupsiya, reket va uyushgan jinoyatchilikning boshqa ko‘rinishlaridan himoya qilishning tashkiliy chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi; 1997-yil 28-maydagi “Korrupsiya, reket va terrorizmga qarshi kurashni takomillashtirish ishlarini yanada rivojlantirish to‘g‘risida”gi qarorlari qabul qilindi va ularning ijrosini ta’minlash yuzasidan chora-tadbirlar ishlab chiqildi.

Ta’kidlash lozimki, korrupsiya keltiradigan zarar barcha davlatlar uchun teng sanalib, mazkur illat davlatning turli sohalariga, xususan siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy,

madaniy jabhalarida amalga oshirilayotgan islohotlarga hamda mamlakatning xalqaro maydondagi imidji va investitsiyaviy jozibadorligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2020-yil 24-yanvar kuni O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga qilgan Murojaatnomasida ta'kidlaganidek, "Jamiyatimizda korrupsiya illati o'zining turli ko'rinishlari bilan taraqqiyotimizga g'ov bo'lmoqda. Bu yovuz baloning oldini olmasak, haqiqiy ishbilarmonlik va investitsiya muhitini yaratib bo'lmaydi, umuman, jamiyatning birorta tarmog'i rivojlanmaydi" Korrupsiyaga qarshi kurashishning ustuvor huquqiy asoslari qator xalqaro huquqiy normalarda o'z ifodasini topgan bo'lib, ularga quyidagilarni kiritish mumkin: 2003-yil 31-oktabrda qabul qilingan BMT ning Korrupsiyaga qarshi Konvensiyasi, 2000-yil 15-noyabrda qabul qilingan BMT ning Transmilliy uyushgan jinoyatchilikka qarshi Konvensiyasi, 1999-yil 27-yanvardagi Yevropa Kengashining "Korrupsiya uchun jinoiy javobgarlik to'g'risida" gi Konvensiyasi, 1999-yil 4-noyabrdagi "Korrupsiyaga uchun fuqarolik huquqiy javobgarlik to'g'risida"gi Konvensiyalari va boshqalar.

O'zbekiston yuqorida ta'kidlangan xalqaro normalardan 2008-yilda Birlashgan Millatlar Tashkilotining Korrupsiyaga qarshi Konvensiyasi, shuningdek, 2010-yilda Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti doirasida qabul qilingan Korrupsiyaga qarshi kurash bo'yicha Istanbul Harakat rejasini ratifikatsiya qilgan.

Ta'kidlash joizki, mamlakatimizda korrupsiyaga qarshi kurashish hamda ushbu turdagi jinoyatlarni sodir etilishini oldini olishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar tizimli ravishda amalga oshirilmoqda. davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarida korrupsiya omillarini keltirib chiqarayotgan tizimli muammolarni bartaraf etishga qaratilgan qator normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilinib, amaliy hayotga tatbiq etilmoqda. Xususan, 2017-yil 4-yanvarda kuchga kirgan "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi qarorni misol qilish mumkin. Qarorga binoan O'zbekiston Respublikasi korrupsiyaga qarshi kurashishning asosiy prinsiplarini qonuniylik, fuqarolar huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarining ustuvorligi, ochiqlik va shaffoflik, tizimlilik, davlat va fuqarolik jamiyatining hamkorligi, korrupsiyaning oldini olishga doir chora-tadbirlar ustuvorligi, javobgarlikning muqarrarligi va boshqalar tashkil etadi.

Korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari quyidagilardan iborat:

aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirish, jamiyatda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish;

davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarida korrupsiyaning oldini olishga doir chora-tadbirlarni amalga oshirish;

korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni o'z vaqtida aniqlash, ularga chek qo'yish, ularning oqibatlarini, ularga imkon beruvchi sabablar va shart-sharoitlarni bartaraf etish, korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni sodir etganlik uchun javobgarlikning muqarrarligi prinsipini ta'minlash.

2017-yildan Qoraqalpog'iston Respublikasida, viloyatlarda va Toshkent shahrida korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha hududiy kengashlar belgilangan tartibda tashkil etilib, ularga quyidagi asosiy vazifalar yuklatildi:

korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi davlat dasturlarining va boshqa dasturlarning ishlab chiqilishi hamda amalga oshirilishini tashkil etish;

korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha faoliyatni amalga oshiruvchi va unda ishtirok etuvchi organlar hamda tashkilotlarning faoliyatini muvofiqlashtirish va hamkorligini ta'minlash;

aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirishga, jamiyatda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirishga doir chora-tadbirlarning ishlab chiqilishi hamda amalga oshirilishini tashkil etish;

korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarning oldini olishga, ularni aniqlashga, ularga chek qo'yishga, ularning oqibatlarini, shuningdek ularga imkon beruvchi sabablar va shart-sharoitlarni bartaraf etishga doir chora-tadbirlar samaradorligi oshirilishini ta'minlash;

korrupsiyaning holati va tendensiyalari to'g'risidagi axborotni yig'ish hamda tahlil etish;

korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha chora-tadbirlar amalga oshirilishi yuzasidan monitoringni amalga oshirish, ushbu sohadagi mavjud tashkiliy-amaliy va huquqiy mexanizmlarning samaradorligini baholash;

korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risidagi qonunchilikni takomillashtirish va ushbu sohadagi ishlarni yaxshilash yuzasidan takliflar tayyorlash.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-iyundagi PF-6013-sonli "O'zbekiston Respublikasida Korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" gi Farmoni qabul qilindi. Mazkur Farmon asosida quyidagi chora-tadbirlarni bosqichma-bosqich amalga oshirish belgilanligi ahamiyatlidir, xususan:

2020–2021 yillarda barcha davlat va xo'jalik boshqaruvi organlarida korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tizimi ("komplayens-nazorat") ni bosqichma-bosqich joriy etish;

davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi faoliyati, shuningdek ushbu sohadagi davlat va boshqa dasturlar samaradorligini monitoring qilish hamda baholash imkonini beruvchi E-Anticor.uz elektron platformasini joriy etish;

korrupsiya holatlari haqida xabardor qilish imkonini beruvchi maxsus mobil dasturiy ta'minotni joriy etish.

Xorijiy amaliyot tahlili shuni ko'rsatdiki, bozor iqtisodiyoti qonunlarga asoslangan mamlakatlarda korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida davlat va xususiy sektor ishtirokchilarining xalqaro standartlar, qonun hujjatlari va boshqa zamonaviy usullarga muvofiq samarali faoliyat yuritishini ta'minlovchi muhim vositalardan biri o'z tarkibida korrupsiyaga qarshi kurashish komplayens nazorat (compliance control) tizimini tashkil etish hisoblanadi.

Korrupsiyaga qarshi komplayens nazorati – davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari, xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatini korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi xalqaro standartlar, qonun va boshqa me'yoriy huquqiy hujjatlarga muvofiq tashkil etuvchi, korrupsiya xavf-xatarlari, manfaatlar to'qnashuvini o'z vaqtida aniqlash va chek qo'yish, qonun buzilishi va korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar haqida xabar berishni o'zida mujassam etgan profilaktik tizimdir.

Qayd etish lozimki, olib borilayotgan islohotlarni amaliy hayotga tatbiq etish maqsadida 2020 yil 4 fevralda Oliy Majlisning Inson huquqlari bo'yicha Vakili (Ombudsman) tomonidan Korrupsiyaga qarshi kurash bo'yicha idoraviy chora-tadbirlar dasturi tasdiqlangan bo'lib, fuqarolar va yuridik shaxslar vakillari tomonidan korrupsiya haqida xabar berish mexanizmlari joriy etilganligi ahamiyatlidir, xususan bugungi kunda:

– Ombudsmanning “10-96” ishonch telefoni va virtual qabulxonasi faoliyat yuritmoqda;

– fuqarolar va yuridik shaxslar vakillarining korrupsiyaviy holatlar bo'yicha hamda xodimlarning boshqa qonunga xilof ishlari to'g'risidagi murojaatlari tahlil qilinib boriladi, ularning natijalari odob-axloq komissiyasi yig'ilishlarida muhokama qilinadi. – Ombudsman Kotibiyatiga ishga birinchi marta qabul qilinayotgan shaxslar uchun korrupsiyaga qarshi kurashish maqsadida yo'l-yo'riqlarni tushuntirish, xizmat vazifasiga qo'yiladigan asosiy majburiyatlar, ta'qiqlar, cheklovlar, talablar va idoraviy odob-axloq qoidalari mazmun-mohiyati 3 ish kunidan kechiktirmay tushuntiriladi.

– Vakilga korrupsiya bilan bog'liq bo'lgan murojaatlarga e'tibor qaratadigan bo'lsak, 2020 yilning 6 oy davomida “Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 26-moddasiga muvofiq Ombudsman tomonidan Bosh prokuraturaga 17 ta murojaat yuborilgan (2019 yil – 21 ta). Ushbu murojaatlardan 2 tasi o'z tasdig'ini topgan.

Sohada amalga oshirilayotgan ushbu mazmundagi islohotlarning natijasi sifatida Transparency International xalqaro nohukumat tashkiloti tomonidan har yili e'lon qilib boriladigan “Korrupsiyani qabul qilish indeksi” da O'zbekiston 180 ta davlat orasida 2017-yilda 157-o'rin, 2018 yilda esa 158-o'rinni egallagan bo'lsa, 2019-yilda 25 ball bilan 153-o'rinni egallab, 5 pog'onaga ko'tarildi. Bundan tashqari, Jahon odil sudlov loyihasining Huquq ustuvorligi indeksidagi “Korrupsiyadan holilik” indikatorida O'zbekiston 2019-yilda 0,38 ball bilan 95-o'rinni egallagan bo'lsa, 2020-yil bo'yicha 128 davlat orasida 0,40 ball bilan 89-o'rinni egallab, 6 pog'onaga ko'tarildi.

Mamlakatimizda korrupsiyani oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlar amalga oshirilayotgan bo'lsa-da, huquqni qo'llash amaliyotida mansabdor shaxslarning korrupsiya bilan bog'liq jinoyatlarni sodir etayotganlik holatlari hali hamon uchramoqda. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, 2017–2019-yillar davomida 6127 nafar mansabdor shaxsning pora olishi bilan bog'liq jinoiy javobgarlik masalasi hal qilinganligi, 2019-yilning dastlabki olti oyida jami 661 nafar turli toifadagi mansabdor shaxslarga nisbatan korrupsiya bilan bog'liq 590 ta jinoyat ishlari qo'zg'atilganligi, korrupsiyaga qo'l urgan va jinoyati fosh qilingan mansabdor shaxslarning 25 nafari respublika, 36 nafari viloyat va 476 nafari tuman-shahar miqyosidagi vazirliklar, idoralar hamda korxonalar va tashkilotlarda ishlab kelganligi, korrupsiya jinoyatlarining asosan tibbiyot, ta'lim, davlat xizmati ko'rsatish, xususan tadbirkorlik subyektlari faoliyatiga litsenziya va ruhsat berish bilan bog'liq sohalarda hali hamon kamaymayotganligi tashvishlidir.

Davlat organlari faoliyatining ochiqligini va ularning hisobdorligini ta'minlash, davlat boshqaruvi tizimining samaradorligini oshirish, davlat organlarining, ular

mansabdor shaxslarining va boshqa xodimlarining o'z zimmasiga yuklatilgan vazifalarni bajarishi yuzasidan mas'uliyatini kuchaytirish, korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida davlat organlarining faoliyati ustidan parlament va jamoatchilik nazoratini amalga oshirish, davlat organlarining va ular xodimlarining faoliyatida korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarga yo'l qo'ymaslik, davlat organlarining mansabdor shaxslari va boshqa xodimlari tomonidan o'z mansab yoki xizmat majburiyatlarining bajarilishi samaradorligi mezonlarini, standartlarini va uning sifatini baholash tizimlarini joriy etish, davlat organlari xodimlarining kasbiy hamda xizmatdan tashqari faoliyatdagi odob-axloqning yagona prinsiplari va qoidalarini belgilovchi odob-axloq qoidalarini samarali amalga oshirish, davlat organlari xodimlari manfaatlarining to'qnashuvini hal qilishning tashkiliy-huquqiy asoslarini takomillashtirish, ularga rioya etilishi yuzasidan monitoring o'tkazilishini ta'minlash, davlat organlari xodimlarining huquqiy maqomini belgilash, xizmatni o'tashning shaffof tartibini o'rnatish, shaxsiy va kasbiy sifatlar, ochiqlik, beg'arazlik, adolatlilik va xolislik prinsiplari asosida tanlov bo'yicha saralash hamda xizmatda ko'tarilish tizimini joriy etish, davlat organlari tomonidan jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to'g'risidagi qonunchilik talablariga rioya etilishi, murojaatlarning to'liq, xolisona va o'z vaqtida ko'rib chiqilishi, ular tomonidan jismoniy va yuridik shaxslarning buzilgan huquqlari, erkinliklarini tiklash hamda qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha o'z vakolatlari doirasida choralar ko'rilishi ustidan nazoratni ta'minlash kabilar davlat boshqaruvi sohasida korrupsiyaning oldini olishga doir chora-tadbirlarini tashkil etadi.

Xorijiy davlatlar tajribasiga nazar tashlaydigan bo'lsak, ko'plab davlatlarda, xususan Singapur, Buyuk Britaniya, Germaniya, AQSH kabi rivojlangan mamlakatlarda "Davlat xizmati to'g'risida" gi, "Davlat xizmatida jamoatchilik nazorati to'g'risida" gi Qonunlar hamda davlat xizmatchilari, mansabdor shaxslar, shuningdek sudyalarning xatti-harakat me'yorlarini tartibga soluvchi Axloq kodekslari mavjud ekanligini ko'rishimiz mumkin. E'tiborli jihat shundaki, mazkur normalar bilan davlat xizmatchilarining olishi mumkin bo'lgan sovg'a yoki hadyalarning aniq miqdori ham belgilab qo'yilgan. Masalan, AQSH da ushbu miqdor 20 AQSH dollarini, Fransiyada 35 yevro, Buyuk Britaniyada 140 funt, Rossiyada 3000 rubl etib belgilangan, Kanadada esa mansabdor shaxslarning pul ko'rinishidagi sovg'alar qabul qilishi qat'iy qat'iy taqiqlanadi, Singapurda davlat boshqaruvida faoliyat ko'rsatuvchi mansabdor shaxslarning gonorar, zaym, qimmatli qog'ozlar kabi to'lovlarni olishi ta'qiqlangan. Shuni alohida ta'kidlab o'tish joizki, O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan yuqoridagi xorij tajribasi vazirlik tizimida joriy qilingan bo'lib, unga ko'ra xodimlarning fuqarolar, boshqa tashkilotlar xodimlari, jumladan turli joylar va xorijiy mamlakatlarga uyushtiriladigan xizmat safarlari davomida sovg'alar olishi taqiqlandi. Xorijiy safarlar davomida olingan sovg'alar, vazirlikka o'tkaziladigan tartib joriy qilindi. Bundan tashqari, bugungi kunda ilg'or xorijiy davlatlarning korrupsiyaga qarshi samarali kurash olib borish jarayonida qo'llayotgan usullaridan biri bu davlat xizmatchilarining mol-mulki, daromadlari hamda katta hajmdagi harajatlarini deklaratsiya qilishning majburiy etib belgilanganligidir. Bundan ko'zlangan asosiy maqsad mansabdor shaxslarning noqonuniy daromad olishni oldini olish va manfaatlar to'qnashuvini bartaraf etishdan

iboratdir. Davlat xizmatida ushbu usul bugungi kunda 150 dan ortiq mamlakatda qoʻllanilmoqda

Taʼkidlash joizki, davlat xizmatchilarining mulkiy deklaratsiya tizimi korrupsiyaning oldini olish, noqonuniy boyish va manfaatlar toʻqnashuvini aniqlashning qudratli vositasidir. Jahon banki maʼlumotlariga koʻra, Yevropa xavfsizlik va hamkorlik tashkilotiga aʼzo mamlakatlarning aksariyatida aktivlarni deklaratsiyalashning keng jamoatchilik uchun oshkora tizimi yoʻlga qoʻyilgan. Korrupsiyaga qarshi amaldagi xalqaro standartlar, jumladan, BMTning Korrupsiyaga qarshi konvensiyasi va boshqa qator huquqiy hujjatlarda davlat xizmatchilari tomonidan aktivlarning eʼlon qilinishi korrupsiyaga qarshi samarali vosita ekani eʼtirof etilgan.

Bu borada Daniya tajribasiga koʻra, 2002 yilda qabul qilingan “Korrupsiya toʻgʻrisida” gi Daniya Qonuni korrupsiyaning oldini olish chora-tadbirlarining ustuvorligini belgilovchi, taʼsirchan ogohlantiruvchi xususiyatga ega boʻlgan asosiy normativ-huquqiy hujjatdir. Xususan, ushbu qonunning qoidalari Daniya hukumati vakillarini har yili oʻz mol-mulki va shaxsiy daromadlari toʻgʻrisidagi maʼlumotlarni nashr etishga, xorijiy kompaniyalarda aksiyalarga ega boʻlishni taqiqlashga majbur qiladi, bu ularning boshqaruv faoliyatining oshkoraligi va shaffofligini, korrupsion holatlarini oldini olishga yordam beradi.

Korrupsiyani oldini olishning muhim omili shundaki, mamlakatda davlat xizmatchilari yuqori darajadagi ijtimoiy muhofazaga ega: ular bepul tibbiy xizmat va taʼlim olish huquqiga va ijtimoiy kafolatlarga tayanishlari mumkin, bu esa korrupsion harakatlar ehtimolini sezilarli darajada kamaytiradi. Bundan tashqari, Finlyandiya Moliya vazirligi davlat xizmatchilari axloqining asosiy muvofiqlashtiruvchi organi hisoblanishi bilan xarakterlidir. Moliya vazirligi hukumat amaldorlari uchun imtiyozlar va sovgʻalarni berish va olish tartibini belgilaydi, shuningdek davlat xizmatchilari daromadlarini tekshirish vakolatiga ham ega. Finlyandiya milliy taftish byurosi (NAOF) esa mamlakatda korrupsiyani oldini olish maqsadida yilda ikki marotaba markaziy hukumat moliyasini tekshiradi, soliq siyosatini nazorat qiladi va siyosiy partiyalar va saylov kompaniyasini moliyalashtirishni nazorat qiladi.

Yuqoridagi tahlillar, korrupsiyaga qarshi kurashish hamda mazkur turdagi jinoyatlarni oldini olish borasida mamlakatimizda quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish lozimligini koʻrsatmoqda: birinchidan, “Davlat xizmati toʻgʻrisida” gi Qonun loyihasi ishlab chiqilib, muhokama qilinayotgan boʻlsa-da, hali hamon mazkur Qonun qabul qilinganicha yoʻq. Shu sababdan “Davlat xizmati toʻgʻrisida” gi Oʻzbekiston Respublikasi Qonunini, shuningdek davlat xizmatchilarining Axloq kodeksini qabul qilish, mazkur normalarda davlat xizmatchilarining oʻz faoliyatini olib borish jarayonida amal qilishi lozim boʻlgan hamda korrupsiyani vujudga kelishiga imkon yaratib beruvchi sabab va shart-sharoitlarni oldini olishga qaratilgan meʼyorlar aks ettirilishi maqsadga muvofiqdir; ikkinchidan, xalqaro va ilgʻor xorijiy davlatlar tajribasini chuqur oʻrgangan holda davlat xizmatchilarining mol-mulki, daromadlari hamda katta hajmdagi harajatlarini deklaratsiya qilishni tartibga soluvchi normalarni milliy qonunchilik tizimiga implemetatsiya qilish maqsadga muvofiqdir. Bu esa oʻz navbatida mansabdor shaxslarning mol-mulkidagi oʻzgarishlarni muntazam ravishda kuzatish imkoniniyatini beradi, deklaratsiyalarning

ommaviyligi, ya'ni jamoatchilik uchun ochiqligi esa ularning korrupsiyaga qarshi kurashishdagi ahamiyatini yana-da oshirishi shubhasizdir.

Korrupsiyaga qarshi kurashish Agentligining tashkil etilishi. So'nggi yillarda mamlakatimizda korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish, davlat va jamiyat qurilishining barcha sohalarida korrupsiogen omillarga chek qo'yishga qaratilgan keng ko'lamlı islohotlar izchil amalga oshirilmoqda.

Davlat organlari zimmasidagi vazifa va funksiyalarni bajarishda yuzaga keladigan korrupsiyaga oid xavf-xatarlarni baholash tizimini takomillashtirish hamda davlat xizmatiga halollik standartlarini joriy etish bo'yicha ishlar amalga oshirilmoqda. Mamlakatda byurokratik to'siqlarni bartaraf etish va "yashirin iqtisodiyot"ni qisqartirish choralari ko'rilmoqda hamda "Korrupsiyasiz soha" loyihalari amalga oshirilmoqda. Shu bilan birga, korrupsiyaga qarshi kurashish samaradorligini tubdan oshirish bo'yicha belgilangan vazifalar korrupsiya holatlarining sabab va shart-sharoitlarini aniqlash, ularni bartaraf etishning ta'sirchan tizimini yaratishni taqozo etmoqda. Ushbu ishlarga fuqarolik jamiyati institutlari va nodavlat sektorning boshqa vakillarini ham keng jalb etish zarurati tug'ilmoqda.

2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini "Ilm, ma'rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturini izchil ro'yobga chiqarish, shuningdek, jamiyat va davlat hayotining barcha sohalarida korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashishga qaratilgan davlat siyosatining samaradorligini oshirish maqsadida Korrupsiyaga qarshi kurash Agentligi tashkil etildi. Agentlik direktori etib, "Yuksalish" umummilliy harakati raisi Burxanov Akmal Eshonedaevich tayinlandi.

Agentlik korrupsiyani oldini olish va unga qarshi kurashish sohasida davlat siyosatini shakllantirish va amalga oshirish, davlat organlari, ommaviy axborot vositalari, fuqarolik jamiyati institutlari va boshqa nodavlat sektor vakillarining birgalikdagi samarali faoliyatini ta'minlash, shuningdek, mazkur sohadagi xalqaro hamkorlik uchun mas'ul bo'lgan maxsus vakolatli davlat organi hisoblanadi.

O'z faoliyatini qonuniylik, xolislik, hisobdorlik, ochiqlik va shaffoflik prinsiplari asosida boshqa davlat organlari, tashkilotlar va ularning mansabdor shaxslaridan mustaqil ravishda amalga oshiradi, O'zbekiston Respublikasi Prezidentiga bo'ysunadi va Oliy Majlis palatalari oldida hisobdordir;

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan lavozimga tayinlanadigan va lavozimdan ozod etiladigan direktor tomonidan boshqariladi. Prezidentning Agentlik direktorini lavozimga tayinlash va ozod qilish to'g'risidagi farmonlari Oliy Majlis Senati tomonidan tasdiqlanadi.

Agentlikning asosiy vazifalari va faoliyat yo'nalishlari quyidagilardan iborat:

- korrupsiya holatini tizimli tahlil qilish, korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar sodir etilishining sabab va shart-sharoitlarini aniqlash;

- korrupsiyani oldini olish va unga qarshi kurashish sohasidagi davlat siyosatini, korrupsiyaga qarshi kurashish choralarining samaradorligini oshirishga qaratilgan davlat va boshqa dasturlarni shakllantirish va amalga oshirish;

- jamiyatda korrupsiyaning barcha ko'rinishlariga murosasiz munosabatni shakllantirish;

- korrupsiyani oldini olish va unga qarshi kurashish sohasida vazirlik va idoralarning faoliyatini muvofiqlashtirish, OAV, fuqarolik jamiyati institutlari va boshqa nodavlat sektor vakillarining ushbu masalalar bo'yicha birgalikdagi samarali faoliyatini tashkil etish;

- davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari, davlat korxonalari va ustav kapitalida davlat ulushi bo'lgan korxonalar, shu jumladan banklarda korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tizimi ("komplayens-nazorat") hamda korrupsiyaga qarshi kurashishning boshqa xalqaro vositalarini joriy etish, ularning mazkur sohadagi faoliyati bo'yicha reytingini tuzish;

- normativ-huquqiy hujjatlar va ularning loyihalarini korrupsiyaga qarshi ekspertizasi samaradorligini ta'minlash;

- davlat xizmatchilarining daromad va mol-mulkini deklaratsiya qilish tizimi joriy etish;

- davlat xizmatiga halollik standarti ("halollik vaksinasi") va manfaatlar to'qnashuvini hal etish standartlarini joriy etishda ko'maklashish bo'yicha ta'sirchan choralarni ko'rish, shuningdek, ularga rioya etilishi ustidan nazoratni amalga oshirish;

- byudjet mablag'lari, xalqaro tashkilotlar va xorijiy davlatlarning qarzlaridan foydalanish, davlat aktivlarini realizatsiya qilish va davlat xaridlari sohasida korrupsiyaga qarshi nazorat tizimining samaradorligini tahlil qilish;

- xalqaro hamkorlikni rivojlantirish, mamlakatning imidjini mustahkamlash va xalqaro reytinglardagi o'rnini yaxshilash bo'yicha tizimli chora-tadbirlarni amalga oshirish;

- sotsiologik, ilmiy va boshqa tadqiqotlarni tashkil etish va korrupsiyani oldini olish, unga qarshi kurashishning ta'sirchanligini oshirish bo'yicha takliflarni ishlab chiqish;

- korrupsiyani oldini olish va unga qarshi kurashish bo'yicha faoliyatning ochiqligi va shaffofligini ta'minlash.

Shuningdek, Farmon bilan, Agentlikka Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkilotining Sharqiy Yevropa va Markaziy Osiyo mamlakatlari uchun korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha tarmog'ining Istanbul harakatlar dasturi doirasidagi ishlar hamda ishlab chiqilgan tavsiyalarning amalga oshirilishini ta'minlash, BMTning Korrupsiyaga qarshi konvensiyasi va O'zbekiston Respublikasining korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi boshqa xalqaro shartnomalari qoidalarining bajarilishi bilan bog'liq chora-tadbirlarni amalga oshirish hamda ushbu yo'nalishdagi faoliyatni muvofiqlashtirish bo'yicha O'zbekiston Respublikasi milliy koordinatori vazifa va vakolatlari, shuningdek fuqarolik jamiyati institutlari bilan birgalikda hududlar, iqtisodiyot tarmoqlari va boshqa sohalar kesimida korrupsiyaning darajasini baholovchi milliy indeks tuzishni tashkillashtirish yuklatildi.

O'zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi o'z vakolatlari doirasida:

korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish sohasidagi davlat siyosatini shakllantiradi va amalga oshiradi;

har yili O‘zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida milliy ma’ruza tayyorlaydi hamda uni ko‘rib chiqish uchun O‘zbekiston Respublikasi Prezidentiga va O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalariga kiritadi;

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining va Senatining korrupsiyaga qarshi kurashishga daxldor bo‘lgan qo‘mitalari, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesining tegishli qo‘mitasi, xalq deputatlari viloyatlar hamda Toshkent shahar, tuman va shahar Kengashlarining korrupsiyaga qarshi kurashish komissiyalari bilan hamkorlik qiladi;

korrupsiyaga oid jinoyatlarni, birinchi navbatda O‘zbekiston Respublikasining milliy manfaatlariga va xalqaro obro‘sigga putur yetkazadigan korrupsiyaga oid jinoyatlarni tergov qilish natijalarini kompleks tahlil qiladi, uning yakunlari to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentiga va O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalariga axborot beradi;

korrupsiyaga oid jinoyatlar tufayli jamiyat va davlat manfaatlariga yetkazilgan zararining o‘rni to‘liq qoplanishiga erishilishi ustidan nazoratni amalga oshiradi;

normativ-huquqiy hujjatlar va ularning loyihalarining korrupsiyaga qarshi ekspertizasini o‘tkazish tizimi samaradorligini tahlil qiladi, ushbu tizimni takomillashtirish yuzasidan takliflar kiritadi;

fuqarolik jamiyati institutlari bilan birgalikda korrupsiyaning darajasini, shu jumladan hududlar, iqtisodiyot tarmoqlari va boshqa sohalar kesimidagi darajasini baholovchi Korrupsiyani idrok etish milliy indeksini tuzishni tashkil etadi;

davlat xaridlari sohasida korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish maqsadida davlat buyurtmachisining ISO: 37001 korrupsiyaga qarshi standartni qo‘llashini nazarda tutuvchi talabni belgilaydi;

joylarda korrupsiyaning oldini olishga qaratilgan hududiy dasturlar ishlab chiqilishi va amalga oshirilishini tashkil etadi;

korrupsiya holatlariga doir materiallarni qonunchilikda belgilangan tartibda ommaviy axborot vositalariga taqdim etadi;

vazirliklar va idoralarning korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish sohasidagi faoliyatini muvofiqlashtiradi, davlat organlarining, ommaviy axborot vositalarining, fuqarolik jamiyati institutlarining va boshqa nodavlat sektor vakillarining ushbu masalalar bo‘yicha samarali hamkorligini tashkil etadi;

ijro hokimiyati va xo‘jalik boshqaruvi organlari hamda ularning mansabdor shaxslari qarorlarida korrupsiya belgilari aniqlangan hollarda ularning ijrosini to‘xtatish yoki bekor qilish to‘g‘risida ko‘rib chiqilishi majburiy bo‘lgan taqdimnomalar kiritadi.

Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar

1. Korrupsiya tushunchasi?
2. Korrupsiyaning tarixiy ildizlari haqida nimalar deya olasiz?
3. O‘zbekistonda korrupsiyaga qarshi kurashish uchun qanday ishlar amalga oshirilmoqda?
4. O‘zbekistonda korrupsiya sohasida davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlari nimalardan iborat bo‘lish kerak deb o‘ylaysiz?

5. Korrupsiyani oldini olish uchun nimalarga e'tibor qaratishimiz kerak deb hisoblaysiz?

6. Korrupsiyaga qarshi kurashish Agentligining qachon tashkil etilildi?

7. Korrupsiyani oldini olish va unga qarshi kurashishda ommaviy axborot vositalari o'rni qanday bo'lishi kerak?

8. "O'zbekiston Respublikasida Korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmoni qachon qabul qilindi?

Testlar

1. Korrupsiya atamasi qaysi tildan olingan?

A. lotin B. yunon C. arab D. krill

2. Ozbekiston konstitutsiyasining nechanchi moddasida yashash huquqi kafolatlangan ?

A. 31- modda B. 24 - modda C. 67 - modda D. 18 - modda

3. Meksikaning Meriada shahrida nima maqsadda konferensiya o'tkazildi?

A. Korrupsiyaga qarshi kurash B. Yevropada tichlikni saqlash

C. Orol muammosi D. Rossiyaga qarshi sanksiyalar qo'llash bo'yicha

4. O'zbekiston Respublikasi BMTning qaysi konsepsiyasiga qo'shilgan?

A. Xavfsizlik kengashiga

B. Yadroviy qurollarni cheklash

C. Korrupsiyaga qarshi kurash

D. O'zbekiston hech qaysi konsepsiyasiga a'zo bo'lmagan

5. Oliy Majlis Inson huquqlari bo'yicha vakili kim?

A. Bosh vazir B. Prezident C. Ombudsman D. Deputat

6. Korrupsiyaga qarshi kurash agentligi rahbari etib kim tayinlandi?

A. Akmal Burxanov B. Sherzod Shermatov

C. Nig'matilla Yuldashev D. Sayyora Rashidova

7. "Korrupsiya, reket va terrorizmga qarshi kurashni takomillashtirish ishlarini yanada rivojlantirish to'g'risida"gi qarori qachon qabul qilindi?

A. 1965-yil B. 1950-yil C. 1940-yil D. 1997-yil

8. BMTning Korrupsiyaga qarshi Konvensiyasi qachon qabul qilindi?

A. 2003-yil 31-oktabr B. 2000-yil 15-noyabr

C. 1999-yil 27-yanvar D. Bunday Konvensiya qabul qilinmagan

8-Mavzu: O'zbekiston Respublikasida inson va fuqarolarning asosiy huquqlari, erkinliklari va burchlari

REJA:

1. O'zbekiston Respublikasida shaxsning huquqiy holati tushunchasi
2. Fuqarolik tushunchasi va O'zbekiston Respublikasida fuqarolik
3. O'zbekiston Respublikasida inson va fuqarolarning konstitutsiyaviy huquqlari, erkinliklari va burchlari tizimi

Darsning o'quv maqsadi: *Talabalarni O'zbekiston Respublikasida shaxsning huquqiy holati tushunchasi, fuqarolik tushunchasi va O'zbekiston Respublikasida fuqarolik, O'zbekiston Respublikasida inson va fuqarolarning konstitutsiyaviy huquqlari, erkinliklari va burchlari tizimi hamda ularning mohiyati bilan tanishtirish.*

Mavzu yuzasidan tayanch so'z va iboralar: *Inson huquqlari Umumjahon deklaratsiyasi, shaxs, fuqarolik, konstitutsiyaviy huquq, naturalizatsiya .*

O'zbekiston Respublikasida shaxsning huquqiy holati va tushunchasi.
O'zbekiston davlat mustaqilligiga erishgach, ijtimoiy-siyosiy hayotning barcha tarmoqlarini demokratlashtirish yo'liga o'tdi. Jahon tajribasidan ma'lumki, shaxsning asosiy huquq hamda erkinliklarini qat'iy himoya qilmasdan va amalda ta'minlamasdan turib, jamiyatni demokratlashtirish mumkin emas. Xalqimizning boy ma'naviy salohiyati, uning tasarrufida bo'lmish ulkan tabiiy boyliklar va texnikaviy imkoniyatlar, mustahkamlanib borayotgan xalqaro aloqalar demokratik rivojlanish hamda inson huquqlariga rioya etilishi uchun zarur shart-sharoitlarni bosqichma-bosqich yaratish imkonini bermoqda. Inson huquqlari negizida inson shaxsi qadriyati turadi. Odatda, inson huquqlarining uch bo'g'ini bir-biridan farqlanadi: fuqarolik va siyosiy huquqlari; yashash huquqi, qiynoqqa solishning ta'qiqlanishi, adolatli sudlov huquqi, shaxsiy hayotning dahlsizligi huquqi, fikr va so'z erkinligi huquqi, uyushmalarga birlashish huquqi va boshqalar; iqtisodiy va ijtimoiy huquqlar; bilim olish huquqi, mehnat qilish huquqi, ijtimoiy ta'minot olish huquqi, malakali tibbiy xizmatdan foydalanish va uchinchi bo'g'in huquqi, deb ataluvchilar (tinchlikka bo'lgan huquq, rivojlanishga bo'lgan huquq va h.k.). Mazkur qoida O'zbekiston qonun hujjatlarining butun bir tizimida mustahkamlab qo'yilgan. Unga ko'ra; fuqarolarning faqat ayrim qatlamlari nafaqa oluvchilar, nogironlar, talabalar, bolalar, urush va mehnat fahriylariga qonunga binoan biror bir imtiyozlar berilishi mumkin.

Huquqiy davlat barpo etish ko'p jihatdan fuqarolarning siyosiy tafakkuri hamda madaniyat darajasiga bog'liq. Agar insonlar qonunlarni bilsalar va unga rioya qilsalar, yuksak e'tiqodli bo'lsalar, ular jamiyat a'zolarining huquq, erkinlik va majburiyatlarini hurmat qilib, ular manfaatlariga, huquq va erkinliklariga putur yetkazmaydilar, chunki jamiyatda barcha fuqarolar bir-biri bilan o'zaro aloqada bo'ladilar. Fuqaro agar faqat o'zining shaxsiy manfaatlarini ta'minlash uchun harakat qilsa yoki burchlarini unutib, shu bilan boshqalar manfaatiga ziyon yetkazsa, uning oqibati qonunsizlikka olib keladi. Aynan shuning uchun barcha fuqarolar bir-biriga

hurmat bilan munosabatda bo`lsalar jamiyatda barqarorlik, tinchlik va yuksalish bo`ladi.

Insonning jamiyatdagi holati haqida gap borganda, uning boyliklarini ishlab chiqarish hamda taqsimlashda, jamiyat va davlat ishlarini boshqarishda qanday o`rin tutishi, uning hulq-atvori, hatti-harakatlari, qilmishlari, boshqa odamlar bilan o`zaro munosabatlari nazarda tutiladi. Insonning jamiyatdagi holati tegishli norma va qoidalar bilan belgilanadi. Siftsiz jamiyatda odamlarning ahvoli, ularning hulq-atvori va bir-biri bilan munosabatlari an`analar, urf-odatlar, ahloqiy normalar bilan belgilangan, ularga rioya etish esa jamoatchilik fikri, oqsoqollar yoki ota-onalarning obro`-e`tibori bilan ta`minlab turilgan. Shaxs huquqiy holatining muhim jihatlaridan biri - shu huquqiy holatni vujudga keltiradigan qoidalardir. Bu jamoatchilik manfaatlarini shaxsiy manfaatlar bilan birga qo`shishdan hamda huquq va burchlarning shunga asoslangan birligidan, huquq va burchlarning umumiyligidan, insonparvarlikdan iborat. Fuqarolar huquqiy holatining birligi haqida gapirganda shuni nazarda tutish kerakki, aholining ayrim guruhlari uchun ba`zi husussiyatlar fuqarolarning huquqlari va burchlarda, ularning kafolatlarida hamda ana shularning hammasini ro`yobga chiqarish tizimida namoyon bo`ladi. Masalan, hotin- qizlar, yoshlar nafaqaho`rlar, ho`jalik ishlarida va madaniyatning ayrim tarmoqlarida band bo`lgan shaxslar muayan imtiyozlar va afzalliklardan foydalanadilar. Kishining yoshi va sog`ligi uning o`ziga berilgan huquqlardan amalda foydalanishi va uz burchlarini bajarishda muhim ahamiyatga ega.

O`zbekiston Konstitutsiyasi inson huquq va erkinliklari borasida BMT ning 1948-yilda qabul qilingan " Inson huquqlari Umumjahon deklaratsiyasi"ifodasini topgan qoidalarni yahlit mushtaraklikda mujassamlashtirib olgan. O`zbekiston Respublikasida barcha fuqarolar bir xil huquq va erkinliklarga ega bo`lib, jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e`tiqodi, shaxsi va ijtimoiy mavqeidan qat`I nazar, qonun oldida tengdirlar. Imtiyozlar faqat qonun bilan belgilab qo`yiladi hamda ijtimoiy adolat prinsipiga mos bo`lishi shart.

Inson huquqlari jahonda yetakchi maqomga ega. Har qanday rivojlangan demokratik fuqarolik jamiyatini barpo etishda inson huquqlari roliga yetarli baho bermaslik mumkin emas. Asosiy huquq va erkinliklarning rag`batlantirilishi hamda himoyalaniishi yanada muhimrog`i, jamiyatda har bir inson huquqlari kafolatlarining amaldagi tizimining tashkil etilishi huquqiy davlat qurishning bosh sharti hisoblanadi. O`zbekiston Respublikasi o`zining ichki va tashqi siyosatida BMT ning ikkinchi Umumjahon konferensiyasida 1993-yili tasdiqlangan " Inson huquq va erkinliklarining universalligi" talablariga qat`iy rioya etib, ular himoyasi barcha davlatlarni qonuniy ravishda tashvishlantirib turuvchi muammo ekanligi haqiqatidan kelib chiqadi. Bugun jahonda 300 dan ortiq hujjat inson va fuqarolar huquqi sohasidagi xalqaro-huquqiy hujjatlar tizimini tashkil etadi. Ularning aksariyatini BMT ning xalqaro-huquqiy hujjatlari tashkil etadi.

Universal maqomdagi hujjatlardan tashqari, inson huquqlarini ta`minlash va himoyalashning mintaqaviy tizimlari faol shakillantirmoqda. Bugungi kunda Yevropa, Amerika va Afrika tizimlari mintaqada inson huquqlarini ta`minlashning ko`proq rivojlangan tizimi hisoblanadi. O`zbekiston Respublikasi hozir inson huquq va erkinliklarini himoyalash sohasidagi 60 dan ortiq xalqaro-huquqiy hujjatlarga

qo'shilgan. Inson huquqlari-inson shaxsi va turmushining tarkibiy qismi. Odatda, inson huquqlarining uch bo'g'ini bir-biridan farqlanadi: fuqarolik va siyosiy huquqlari; yashash huquqi, qiynoqqa solishning, adolatli sudlov huquqi, shaxsiy hayotning daxlsizligi huquqi, fikr va so'z erkinligi huquqi, uyushmalarga birlashish huquqi va boshqalar; iqtisodiy va ijtimoiy huquqlar; bilim olish huquqi, mehnat qilish huquqi, ijtimoiy ta'minot olish huquqi, malakali tibbiy xizmatdan foydalanish va uchinchi bo'g'in huquqi, deb ataluvchilar (tinchlikda bo'lgan huquq, rivojlanishga bo'lgan huquq va h. k). Mazkur qoida O'zbekiston qonun hujjatlarining butun bir tizimida mustahkamlab qo'yilgan. Unga ko'ra; fuqarolarning faqat ayrim qatlamlarinafaqa oluvchilar, nogironlar, talabalar, bolalar, urush va mehnatfaxriylariga qonunga binoan biror-bir imtiyozlar berilishi mumkin. Belgilangan imtiyozlar ijtimoiy adolat va qonun oldida tenglik prinsiplariga asoslanishi darkor.

Jamiyatda shaxsning tutgan o'rni, fuqarolarning asosiy huquq va erkinliklari hamda burchlari konstitutsiyaviy huquq normalarida o'z ifodasini topqdi. Inson va jamiyat, shaxs va davlat munosabatlaridagi qator muammolar yechimini topishda, avvalambor huququy holatiga qanchalik yondashilganligi katta ahamiyatga ega. Shaxsning huquqiy holatining asoslari, uning tarkibiy qismlari har bir taraqqiy etgan mamlakatlar konstitutsiyalari, konstitutsiyaviy qonunlari va qonunlarida mustahkamlab qo'yilgan. Har bir shaxs jamiyat a'zosi sifatida namoyon bo'lar ekan, shu jamiyat va uning a'zolari oldida ma'lum mas'uliyatlarni o'z bo'yniga oladi. Chunki shu jamiyat a'zosi sifatidagina u ma'lum mavqeiga ega ekan, shu sababli jamiyatning faol a'zosiga aylanishi lozim.

Jamiyat o'z navbatida davlat bilan ham ma'lum munosabatlar o'rnatadiki, bunday munosabatlarning eng yuqori ko'rinishi, o'zining har bir a'zosining huquq va erkinliklari davlat tomonidan himoya qilinishi, himoya qilinishining muammosini qanchalik darajada hal qilinganligi bilan ifodalanadi. Davlat jamiyat hayotidagi barcha ijtimoiy –iqtisodiy, siyosiy munosabatlari tartibga solib borish vazifasini amalgam oshirishda huquqiy vositalardan qanchalik mohirona foydalana olsa, jamiyat hayoti ham shunchalik erkin muhitga ega bo'ladi.

Shaxsning huquqiy holati asosan ikki mezon asosida belgilanadi. Birinchidan, shaxsning jamiyat a'zosi sifatidagi munosabatlarida, ikkinchidan, shaxsning muayyan davlat bilan yuzaga keladigan munosabatlar asosida. Shaxs huquqiy holatini belgilovchi, ya'ni shaxsning tartibga solinishi jamiyatda amalda bo'lgan ijtimoiy normalar ta'sirida yuzaga keladi. Bunda urf-odat, odob-axloq normalarining, jamiyatda mavjud va shakllanayotgan an'analarning alohida o'rni mavjud. Shunga qaramay, ijtimoiy normalar shaxsning huquqiy holatiga salmoqli ta'sir o'tkazmaydi. Shaxs bilan davlat o'tasidagi munosabatlar hujjatlar bilan tartibga solinadi.

Davlat mavjud bo'lgan barcha huquq sohalarining vazifasim ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishga qaratilgan bo'lsada, eng asosiy tomoni-konstitutsiyaviy huquq sohasi asosida shaxsning huquqiy holatiga ma'lum baho berish mumkin. Shaxsning huquqiy holatiga ta'sir etuvchi qator omillar mavjudki, ular bevosita shaxsning jamiyat va davlat bilan bo'lgan munosabatlarida ko'rinadi.

Avvalambor shaxsning muayyan davlat bilan uzviy huquqiy munosabatda bo'lishi, ya'ni shu davlat fuqaroligiga ega bo'lishlikning o'zi alohida huquqiy holatni belgilab beradi. Fuqaroligi bo'lmagan, ya'ni hech bir davlat fuqaroligini olmagan

shaxslarning huquqiy holati muayyan davlat alohida holatda bo'ladi. Ikki fuqarolikka yoki ko'p fuqarolikka ega bo'lgan shaxslarning huquqiy holati ham ma'lum munosabatlarda o'zgacha holat kasb etadi. Demak, fuqarolik, fuqarolikka ega bo'lmaslik, ko'p fuqarolik masalalari shaxsning huquqiy holatiga ta'sir etuvchi omildir. Ikkinchidan, shaxsning huquqiy holatiga ta'sir etuvchi omillardan yana biri, shaxsning ma'lum yoshga to'lishi va natijada muomala layoqatiga ega bo'lishi

hisoblanadi.

Huquqiy layoqatga ega bo'lish ham alohida ahamiyat kasb etadi, ya'ni o'z xatti-harakatiga ongli ravishda yondasha olishlik lozim. O'zbekiston qonunlari bilan inson huquq va erkinliklarini davlat tomonidan qonuniy cheklashlarga qo'yiladigan aniq talablar quyidagicha belgilangan:

1. faqat qonunga asoslanish;
2. boshqalarning huquq va erkinliklarini xurmatlash, axloq talablarini, demokratik jamiyatda jamoat tartibi va ijtimoiy farovonlik talablarini qondirish maqsadlarida amalgam oshirish. Shu bilan birga huquq va erkinliklarni cheklashga favqulotda hollardagina yo'l qo'yiladi.

Fuqarolik tushunchasi va O'zbekiston Respublikasida fuqarolik. Fuqarolik deganda jismoniy shaxsning ma'lum bir davlat bilan mustahkam huquqiy bog'lanishiga aytiladi. Bunda fuqaroning shu davlatga nisbatan huquq va burchlari hamda uning suveren hukumatga bo'ysunishida ifodalanadi. Mazkur huquqiy aloqa insonning tug'ilganida yuzaga kelib, uning butun umri davomida saqlanib qoladi. Ushbu bog'liqlik insonning tug'ilgan va yashayotgan hudud bilan cheklanmay, davlat tashqarisida ham o'z kuchini yo'qotmaydi. Fuqarolar huquqi va burchlarini davlat o'zi belgilab beradi. Turli mamlakatlarda fuqarolarning huquq va burchlari bir xil emas. Ular mamlakatning siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy darajasiga bog'liq. Fuqarolik tushunchasi jamiyatning hozirgi davr demokratik, huquqiy davlati tomon rivojlanishida katta yo'lni bosib o'tdi. U jamiyatning demokratik rivojlanishida qo'lga kiritilgan ulkan yutuqlardan biri. Fuqarolikning jamiyat taraqqiyotidagi ijobiy tomoni shudan iboratki, mamlakatda istiqomad qilib turgan har bir kishining muayyan, aniq sanab o'tilgan huquqlari, jamiyatdagi o'rnini mamlakatning konstitutsiyasida, maxsus qaror yoki qonunda yozib qo'yilgan va ularga rioya qilish, ularni bajarish barcha fuqarolardan talab qilinadi. Ya'ni jamiyatda boshboshdoqlik, o'zboshimchalik, zo'ravonlik, qonunsizlikga o'rin qo'ymaydi. Chunki, bunday xatti-harakatlar fuqarolik haqidagi qonunga xilofdir. Fuqarolik tushunchasi qadimiy Yunoniston va Rimda mavjud bo'lsa-da, asosan, feodalizm inqirozga uchrab, jamiyatdagi siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy hayot demokratiya va bozor munosabatlari zaminiga o'ta boshlaganda, hozirgi shaklida paydo bo'la boshladi va ilk bor "shaharlik" (fransuzcha "situayyan", inglizcha "situzen", ruscha "grajdanin" va h. k.), ya'ni qoloq qishloqdan, mustabid feodal munosabatlardan ozod degan ma'noni bildirgan. Mustaqillik e'lon qilingandan so'ng, o'zbek tilida o'tmishdagi "grajdanlik" so'zi o'rniga "fuqarolik" degan atama qabul qilindi. O'zbekiston Respublikasi mustaqil taraqqiyot yo'liga chiqib olgach, o'z oldiga asrlar davomida o'zbek xalqi orzu qilgan demokratik, adolatli, fuqarolar jamiyati va huquqiy davlat qurish vazifasini qo'ydi, qabul qilgan fuqarolik to'g'risidagi huquqiy hujjatlarda esa o'zining insonparvarlik ruhida ekanini namoyon qildi. Fuqarolik deganda, insonni

huquqiy yoki siyosiy- huquqiy tomondan himoyalaniishi va qonuniy manfaatlarining ushbu davlat ichida va uning tashqarisida himoyalaniishi tushuniladi. O'zbekiston

Respublikasi fuqaroligi, yangi turdagi jamiyat va shaxs o'rtasidagi munosabatlardan kelib chiqib, quyidagi ijtimoiy qoidalarga asoslanadi:

- mamlakatimiz hududida istiqomat qiluvchi barcha millatlar va elatlar tili, dinidan qat'i nazar teng huquqliligi;
- erkaklar va ayollarning tengligi;
- fuqarolarning shaxsiy, ijtimoiy kelib chiqishi, mulki, ijtimoiy mavqeidan qat'i nazar qonun oldida tengligi;
- fuqarolikni qay tarzda qilganligidan qat'i nazar, ularning huquqiy holatining bir xil belgilanganligi;
- butun O'zbekiston hududida yagona fuqarolik o'rnatilganligi;
- "ikki davlat fuqarosi" bo'lish qonun bilan man etilganligi;
- fuqarolikni olish va to'xtatish tartibi huquqiy hal etilganligi;
- ota-onalarning fuqaroligi o'zgartirishida bolalar fuqaroligining o'zgarishi tartibi aniq belgilanganligi;
- fuqarolik masalalari bo'yicha huquqiy aktlarni qabul qiluvshi va ijrosini tekshiruvchi davlat organlari tizimi birligi;
- fuqarolik masalalariga oid qarorlar yuzasidan shikoyat qilish tartibining aniq ravshanligi;
- fuqarolik bo'yicha xalqaro shartnomalar turlari, xarakteri qonunda aniq belgilanganligi.

1948-yilda BMT tomonidan qabul qilingan Inson huquqlari to'g'risidagi Umumjahon Deklaratsiyasiga binoan, har bir kishi tabiiy, ajralmas, daxlsiz huquq va erkinliklarga egadir. Barcha davlat idoralari inson huquqlari va erkinliklarini oily ijtimoiy qadriyatlarini, deb bilib, ularni ta'minlashga va muhofaza qilishga majburlar. O'zbekiston Konstitutsiyasining 21-moddasiga ko'ra O'zbekiston Respublikasining butun hududida yagona fuqarolik o'rnatiladi. Qoraqalpog'iston Respublikasining fuqarosi ayni vaqtda O'zbekiston Respublikasining fuqarosi hisoblanadi. Fuqaro tomonidan huquqlarning amalga oshirilishi boshqa kishilarning huquqlariga zid bo'lmasligi lozim. Har bir kishi Konstitutsiyada belgilangan vazifalarni bajaradi, jamiyatning normal rivojlanishi uchun shu vazifalar bajarilishi zarur. Konstitutsiyaning qoidalariga bevosita amal qiladi va barcha davlat idoralari, mansabdor shaxslar, jamoat tashkilotlari, fuqarolar tomonidan ijro etilishi majburiydir. Konstitutsiyada mustahkamlab berilgan barcha huquqlar va erkinliklar sud yo'li bilan himoya qilinishi lozim.

O'zbekiston Respublikasining Oliy Kengashi tomonidan 1992-yil 2-iyulda "O'zbekiston Respublikasining fuqaroligi to'g'risidagi" qonunda fuqarolik masalalari, uning huquqiy holati qonun yo'li bilan mustahkamlangan. O'zbekiston Respublikasining fuqaroligi shaxs bilan davlatning doimiy siyosiyhuquqiy aloqasini belgilaydi, bu aloqa ularning o'zaro huquq va burchlarida ifodalanadi. O'zbekiston Respublikasida har bir kishi fuqaro bo'lishi huquqiga egadir. Hech kim fuqarolikdan yoki fuqarolikni o'zgartirish huquqidan mahrum qilinishi mumkin emas. O'zbekiston Respublikasi o'z idoralari va mansabdor shaxslar orqali fuqarolar oldida mas'uldirlar, fuqaro esa davlat oldida mas'uldir.

Quyidagilar O'zbekiston Respublikasining fuqarolari bo'ladilar:

1. Kelib chiqishi, ijtimoiy va mulkiy holatidan, irqi va millatidan, jinsi, ma'lumoti, tili, siyosiy qarashlari, diniy e'tiqodlaridan, mashg'ulotining turi va saviyasidan qat'iy nazar, ushbu qonun kuchga kirgan vaqtda O'zbekiston Respublikasida doimiy yashab turgan, boshqa davlatlarning fuqarolari bo'lmagan hamda O'zbekiston Respublikasining fuqarosi bo'lish istagini bildirgan shaxslar;

2. Davlat yo'llanmasi bilan O'zbekiston Respublikasidan tashqarida ishlayotgan, harbiy xizmatni o'tayotgan yoki o'qiyotgan shaxslar, agar ular O'zbekiston Respublikasining hududida tug'ilgan

bo'lsalar yoki doimiy yashaganliklarini isbot qilgan bo'lsalar, boshqa davlatlarning fuqarolari bo'lsalar va ushbu qonun kuchga kirganidan keyin kechi bilan bir yil ichida O'zbekiston Respublikasining fuqarosi bo'lishi istagini bildirgan bo'lsa.

O'zbekiston Respublikasida inson va fuqarolarning konstitutsiyaviy huquqlari, erkinliklari va burchlari tizimi. O'zbekiston Respublikasi fuqarosi bo'lgan erkak yoki ayolning chet el fuqarosi bilan yohud fuqaroligi bo'lmagan shaxs bilan nikohdan o'tish, shuningdek, bunday nikohning bekor qilinishi er yoki xotinning fuqaroligini to'xtatishiga olib kelmaydi. Konstitutsiyaning 22-moddasiga muvofiq O'zbekiston Respublikasi o'z hududida ham, uning tashqarisida ham o'z fuqarolarini huquqiy himoya qilish va ularga homiylik ko'rsatishni kafolatlaydi.

Fuqarolikni qabul qilish, o'zgartirish va yo'qotish alohida davlatlarning ichki qonunchiligi – Konstitutsiyalar, fuqarolik qonunlari va qonunchilik aktlari asosida amalgam oshiriladi. Fuqarolikning kelib chiqishi naturalizatsiya (tabiiy – tug'ilganda yoki fuqarolikni qabul qilganda) yo'li bilan, xalqaro shartnoma asosida va ayrim hollarda – fuqaroligini yo'qotgan shaxslarning reintegratsiya (tiklanish) orqali va taqdim etish yo'li bilan amalga oshiriladi. Fuqarolikni qabul qilishning asosiy yo'li tug'ilish orqali kelib chiqadi, qolgan barcha usullari kam uchraydi. Sababi, ko'p kishilar tug'ilishi bilan fuqarolikni qabul qilib, o'z umri davomida o'zgartirmaydi. Fuqarolikni tug'ilish bilan amalga oshirish keng tarqalgan. Xorijiy davlatlarning qonunchiligi tug'ilish bo'yicha fuqarolikka ega bo'lish bo'yicha 2 ta asosiy maqsadni belgilaydi. "Qon huquqi" (jus sanguinis) asosida chaqaloqning fuqaroligi ota-onasining fuqaroligi bilan belgilanib, tug'ilgan joyiga bog'lanmaydi. Bu maqsadga Yevropaning ko'p mamlakatlari, jumladan, Avstriya, Norvegiya, Finlandiya, Italiya va boshqalar amal qiladi.



“Zamin huquqi” (jus soli) asosiga ko’ra, fuqarolik chaqaloqning tug’ilgan joyidan kelib chiqib, uning ota-onasi fuqaroligi bilan bog’liq bo’lmaydi. Masalan, Braziliya qonunchiligida belgilanishicha, bu davlat hududida tug’ilgan har bir shaxs Braziliya fuqarosi hisoblanadi. Shu asosda Lotin Amerikasidagi ko’p mamlakatlar fuqaroligi belgilanadi. Rivojlangan davlatlarda nisbatan ko’proq ikkala asos qo’shilmasi, ya’ni aralash asos qo’llaniladi. Ushbu asosga ko’ra, shu davlatda yoki undan tashqarida tug’ilgan mahalliy fuqarolar farzandlari, shuningdek, shu asosga bo’ysungan davlat hududida tug’ilgan chet ellik fuqarolar farzandlari shu davlat fuqarosi deb tan olinadi. Aralash asosni AQSh, Angliya, Fransiya, Hindiston va boshqa mamlakatlar qo’llaydi.

Fuqarolikni qabul qilishning usullaridan biri naturalizatsiya (fuqarolikni qabul qilish) bo’lib, bu umuman fuqaroligi bo’lmagan yoki boshqa davlat fuqarosi bo’lgan shaxs tomonidan fuqarolik olinishidir. Naturalizatsiya tartibda fuqarolik quyidagi hollarda qabul qilinadi:

- a) fuqaroligi bo’lmagan yoki fuqaroligini o’zgartirmoqchi bo’lgan shaxs so’rovnomasiga asosan;
- b) bir davlat fuqarosining boshqa davlat fuqarosi bilan nikohdan o’tishi asosida;
- v) fuqaroligi bo’lmagan yoki boshqa davlat fuqarosi bo’lgan bolani farzandlikka olishda.

Naturalizatsiya asosida fuqarolik berish yoki rad etish davlatning huquqidir. Naturalizatsiya asosida fuqarolik berish yakka tartibda yoki manfaatdor shaxs (farzandlikka olishda) roziligi bilan amalga oshadi. Barcha mamlakatning qonunchiligi bir qator cheklanishlaega ega bo’lib, ular asosida shaxslarga siyosiy, ijtimoiy, diniy, milliy va boshqa sabablardan kelib chiqqan holda naturalizatsiyada rad etiladi. Reintegratsiya (dastlabki fuqarolikni tiklash) huchraydi. Qoida bo’yicha reintegratsiya jarayonida soddalashtirilgan tartibdagi fuqarolikni qabul qilish tartibi qo’llaniladi.

O’zbekiston Respublikasi fuqaroligi quyidagi hollarda olinadi:

- 1) tug’ilganda;
- 2) O’zbekiston Respublikasi fuqaroligiga qabul qilinishi natijasida;
- 3) O’zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalarida nazarda tutilgan asoslar bo’yicha;
- 4) Fuqarolik to’g’risidagi qonunda nazarda tutilgan boshqa asoslar bo’yicha. Tug’ilgan paytida ota-onasi O’zbekiston Respublikasi fuqarosi bo’lgan bola, O’zbekiston Respublikasi hududida yohud O’zbekiston Respublikasidan tashqarida tug’ilgan bo’lishidan qat’i nazar, O’zbekiston Respublikasi fuqarosi hisoblanadi.

Ota-onasining fuqaroligi har xil bo’lib, ulardan biri bola tug’ilgan paytida O’zbekiston Respublikasining fuqarosi bo’lgan quyidagi hollarda bola O’zbekiston Respublikasining fuqarosi hisoblanadi:

- 1) agar u O’zbekiston Respublikasi hududida tug’ilgan bo’lsa;
- 2) agar u O’zbekiston Respublikasi hududidan tashqarida tug’ilgan bo’lsa, ota-onasi yoki ularning biri shu vaqtda O’zbekiston Respublikasida doimiy istiqomat joyiga ega bo’lsa.

Fuqaroligi bo’lmagan, O’zbekiston Respublikasida doimiy istiqomat joyiga ega bo’lgan shaxslarning O’zbekiston Respublikasi hududida tug’ilgan bolasi

O'zbekiston Respublikasi fuqarosi hisoblanadi. Ota-onasi noma'lum bo'lgan va O'zbekiston hududida yashayotgan bola O'zbekiston Respublikasi fuqarosi hisoblanadi. Chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar o'z iltimoslariga ko'ra ushbu qonunga binoan kelib chiqishidan, irqi va millatidan, jinsi, ma'lumoti, tilidan, dinga munosabatidan, siyosiy va boshqa e'tiqodlaridan qat'li nazar, O'zbekiston Respublikasi fuqaroligiga qabul qilinishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasining fuqaroligiga qabul qilish shartlari quyidagilardan iborat:

1) chet el fuqaroligidan voz kechish;

2) so'nggi bosh yil davomida O'zbekiston Respublikasi hududida doimiy yashaganlik. Ushbu qoida O'zbekiston Respublikasining fuqarosi bo'lish istagini bildirgan shaxslarga, basharti ular shu yerda tug'ilgan va hech bo'lmasa ota-onasidan biri, bevosita yoki bilvosita O'zbekiston Respublikasi hududida tug'ilganligi va boshqa davlatlarning fuqarosi emasligini isbotlasa, taalluqli bo'lmaydi;

3) qonuniy tirikchilik manbalarining mavjudligi;

4) O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasining "Fuqarolik to'g'risida"gi qonuni chet ellik shaxslarni O'zbekiston fuqaroligiga qabul qilishda Respublikadagi osoyishtalikni, tinchlikni ta'minlash maqsadida bir necha to'siqlar qo'ygan. Chunonchi, fuqarolikka kirishga da'vogar shaxslar:

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy tizimini ishlatib o'zgartirishni yoqlab chiqayotgan bo'lsa;

faoliyati O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy prinsiplari zid bo'lgan partiyalar va o'zga tashkilotlarga a'zo bo'lsa.

O'zbekiston Respublikasining qonunlariga muvofiq jazolanadigan xatti-harakatlar uchun ozodlikdan mahrum etilgan va jazoni o'tayotgan bo'lsa, bunday shaxslarni O'zbekiston Respublikasining fuqaroligiga qabul qilish to'g'risidagi iltimosnomasi rad etiladi. Shuningdek, qonunda, quyidagi hollarda O'zbekiston Respublikasi fuqaroligi yo'qotiladi:

1. Shaxs chet davlatda harbiy xizmatga, xavfsizlik xizmati idoralariga, militsiyaga, adliya idoralariga yoki davlat hokimiyati va boshqaruvining boshqa idoralariga ishga kirganligi natijasida;

2. Chet elda doimiy yashovchi shaxs besh yil davomida uzrli sabablarsiz konsullik hisobida turmagan bo'lsa;

3. O'zbekiston Respublikasi fuqaroligi yolg'onligi shak-shubhasiz ma'lumotlar yoki soxta hujjatlar taqdim etish natijasida olingan bo'lsa.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni chiqqan kundan boshlab O'zbekiston Respublikasining fuqaroligi yo'qotiladi. O'zbekiston Respublikasida fuqarolik quyidagi hollarda to'xtatiladi:

1. O'zbekiston Respublikasi fuqaroligidan chiqish oqibatida;

2. O'zbekiston Respublikasi fuqaroligini yo'qotish oqibatida;

3. O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasida nazarda tutilgan asoslarga binoan;

4. Qonunda ko'zda tutilgan boshqa asoslarga binoan.

O'zbekiston Respublikasi fuqaroligini to'xtatilishi Qoraqalpog'iston Respublikasi fuqaroligining to'xtatilishi sabab bo'ladi. Fuqarolik masalalariga oid

arizalar O'zbekiston Respublikasi Prezidenti nomiga ariza beruvchilarning doimiy istiqomat joyidagi ichki ishlar idoralari orqali, chet elda doimiy yashovchi shaxslar tomonidan esa O'zbekiston Respublikasining tegishli diplomatik vakolatxonalar yoki konsullik muassasalari orqali topshiriladi. Chet davlat fuqarosi bo'lgan shaxs o'z fuqaroligini o'zgartirish niyatida mazkur davlatning munosabatini ko'rsatuvchi hujjatni taqdim etishi shart. Shaxsning O'zbekiston Respublikasi fuqaroligiga mansubligi to'g'risidagi ariza uning doimiy istiqomat joyida ichki ishlar idorasiga, chet elda doimiy yashaydigan shaxs tomonidan esa O'zbekiston Respublikasining tegishli diplomatik vakolatxonasi yoki konsullik muassasasiga beriladi.

O'zbekiston Respublikasi fuqaroligi masalalariga oid arizalar ariza beruvchi shaxsan murojaat etgan taqdirda uning doimiy istiqomat joyidagi ichki ishlar idoralari, chet elda doimiy yashovchi shaxslarga nisbatan esa O'zbekiston Respublikasining tegishli diplomatiya vakolatlari yoki konsullik muassasalari tomonidan rasmiylashtiriladi. O'zbekiston Respublikasida yashab turgan, lekin O'zbekiston Respublikasining fuqaroligi to'xtatilgan, boshqa davlat fuqarosi bo'lmagan shaxslar ichki ishlar idorasi tomonidan fuqaroligi bo'lmagan shaxslarga mo'ljallangan istiqomat guvohnomasi beriladi.

O'zbekiston Respublikasi hududidagi chet el fuqarolarining va fuqaroligi bo'lmagan shaxslarning huquq va erkinliklari xalqaro huquq normalariga muvofiq ta'minlanadi. Ular O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, qonunlari va xalqaro shartnomalari bilan belgilangan burchlarni ado etadilar.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining ikkinchi bo'limida quyidagi boshqa ko'pchilik davlatlarning Konstitutsiyalari qatori inson va fuqarolarning asosiy huquq va burchlari to'g'risidagi muhim qoidalar mustahkamlaydi. Konstitutsiyaviy huquqning o'ziga xos xususiyati shundaki, u fuqarolarning asosiy huquq, erkinlik va burchlarni mustahkamlaydi, qonun va qonun osti hujjatlarida esa, ular asosida vujudga keladigan hosila huquq, erkinlik va burchlarni belgilash bilan birga ular mazmunini keng yoritish imkonini beradi. Konstitutsiyaviy huquqda, erkinlik va burchlarning yuridik xususiyatlari unda mustahkamlangan har qanday qoida singari, ular oily yuridik kuchga va o'zgartirishning maxsus tartibiga ega ekanligini, shuningdek, uning asosida ishlab chiqiladigan boshqa sohalar qonunchiligi uchun asosiy yo'nalishlarni belgilashini ta'kidlash joiz.

Inson huquq va erkinliklari har bir shaxsga taalluqli bo'lib, fuqarolarning huquq va erkinliklari esa faqat o'sha davlat fuqaroligiga ega bo'lgan shaxslargagina tegishlidir. Fuqarolarning huquq va erkinliklari fuqaroligidan qat'i nazar, har bir shaxsga tegishli bo'lgan inson huquq va erkinliklari bilan aralashirib yubormaslik kerak. Ushbu yondashuvga doir misol sifatida insonning tabiiy va ajralmas huquqlari belgilangan va hozirgacha harakatda bo'lgan 1789-yilgi "Inson va fuqaro huquqlari fransuz Deklaratsiyasi"dan ko'chirma keltiramiz: "Barcha inson huquqlarda erkin va teng bo'lib tug'iladilar va shunday bo'lib qoladilar. Ijtimoiy tavofutlar faqat ko'pchilikning umumiy manfaatlarigagina asoslanishi mumkin. Har qanday davlat ittifoqining maqsadi insonning ajralmas va tabiiy huquqlarini ta'minlashga qaratiladi. Erkinlik, mulkka egalik qilish, xavfsizlik va zulm-qiynoqlarga solinishiga qarshilik ko'rsatish shular jumlasidandir. Boshqalarga zarar yetkazmaydigan darajada hamma narsani qilish imkoniyati erkinlikni tashkil etadi. Shunday qilib, har bir insonga tabiiy

huquqlarining amalga oshirish chegarasi faqat jamiyatning boshqa a'zolarini ham huddi shunday huquqlarining ta'minlanishi doirasi bilan chegaralanishi mumkin. Bu cheklashlar faqat qonun bilan belgilanadi.

Huquq va erkinliklar o'rtasidagi keskin yuridik farqni ko'rsatish ancha mushkul ish. Umumiy huquqning nazariyasidan bizga ma'lumki, sub'ektiv huquq bu shaxs yo'l qo'yishi mumkin bo'lgan xulqi chegarasining o'lchovi. Fikrimizcha, bu ta'rif erkinlik tushunchasiga ham mos keladi. Inson va fuqarolarning huquq va erkinliklari va ikkinchi tomondan, ularning boshqa kishilar, davlat va jamiyat oldidagi burchlari orasidagi o'zaro aloqadorlikni imkor qilish xato bo'lar edi. Zero, umumiy huquq nazariyasidan bizga ma'lumki, burch buxulqning zaruriy me'yori hisoblanadi. Inson muayan qoidalarga rioya qilishi kerakki, u o'zining huquq va erkinliklaridan foydalanganida, boshqa kishilarga asossiz ravishda ziyon yetkazmasligi va jamiyatning normal hayot kechirishiga to'sqinlik qilmasligi lozim. Konstitutsiyalar hayotiylugini ta'minlashning zaruriy sharti-o'z mazmuni va mohiyatini inson va fuqarolar huquq-erkinliklari bilan boyitilishida ifodalanadi. Yuridik adabiyotlarda inson huquqlarining ajralmas ekanligi ta'kidlanib, uning mavjudligi tegishli burchlarni bajarishga yoki bajarishga bog'liq emas, degan qarashlar mavjud. Fuqarolarning huquqlari esa davlat oldida qator burch va majburiyatlarni bajarish bilan bog'liq, deb ko'rsatiladi. Ammo shuni ta'kidlash lozimki, shaxsning armiyada xizmat qilganligini ro'kach qilib, uni saylov huquqidan mahrum qilish mumkin emas. Bundan shunday xulosaga kelish mumkin: har qanday huquq va erkinliklarni amalga oshirishni muayyan burchni bajarish bilan bog'lab qo'yish to'g'ri emas. Shu bilan bir vaqtda, inson va fuqarolarning o'z burchlarini bajarishi davlat va jamiyatning normal hayot kechirishi umumiy omil hisoblanadi va nihoyat, shuni qayd qilish kerakki, Konstitutsiyaviy burchlar ikki qirraliligi, ya'ni insonlarni muayyan burchlari va fuqarolarning burchlari bilan ajralib turadi. Huquq va erkinliklarning konstitutsiyaviy ifodalanishining ikki usuli-pozitiv va negativ usullari mavjud:

a) pozitiv usulda, konstitutsiya sub'ektning muayyan huquqqa egaligini belgilaydi yoki ta'kidlaydi;

b) negativ usul shunday ifodalanadiki, unga ko'ra har qanday sub'ektga o'zga sub'ektning huquq yoki muayyan erkinligini buzish yoki cheklash ta'qiqlanadi.

Konstitutsiyaviy huquq, erkinlik va burchlar doirasining doimiy ravishda kengayib borishi, ularni ma'lum guruhlarga ajratishni talab qiladi. Tasniflash (klassifikatsiyalash) turli hil maqsadlarda va asoslarda o'tkazilishi mumkin. Biroq shuni yodda tutish kerakki, guruhlantirish shartli ravishda kechadi, chunki ko'p hollarda biror huquq yoki erkinlik yohud burch bir paytda ikki yoki undan ko'p tasnifiy guruhlarga tegishli bo'lishi mumkin. Ular qiyida taklif etilayotgan tasniflashtirishda o'zlarining asosiy mazmunlari jihatidan yaqin bo'lgan guruhlarga kiritiladi. Masalan, vijdon erkinligi shaxsiy erkinliklar turkumiga kiradi, ayrim mamlakatlarda esa u aniq ifodalangan siyosiy xarakter tusini oladi. Tasniflashtirishning yana bir ko'rinishi huquq, erkinlik va burch sub'ektlarining xarakteri bilan bog'liq asosda amalgam oshirishdir. Bunda huquq, erkinlik va burchlarning individual va jamoa turlariga ajratish mumkin. To'g'ri, individual huquq ko'p hollarda jamoa shaklida ham amalgam oshirilishi mumkin. Ammo u jamoa huquqidan farqli ravishda, odatda, individual tarzda amalga oshirilishi va himoya

qilinishi mumkin. Jamoa huquqini esa uning mohiyatiga ko'ra individual tarzda amalgam oshirilish mumkin emas. Masalan, ish tashlash huquqi – jamoa huquqidir. Individual tarkibda ish tashlash – ish tashlash hisoblanmasdan, balki u ishga kelmaslik deb baholanishi mumkin. Ko'pincha hollarda huquq, erkinlik va burchlar o'z harakteriga ko'ra individualdir. Biroq bu holat konstitutsiyada doimo aniq va ravshan qilib belgilanmaydi. Bundan tashqari huquq, erkinlik va burchlarni, asosiy va qo'shimcha turlarga ajratish mumkin. Masalan, davlatni boshqarishda ishtirok etish asosiy huquq hisoblansa, saylov huquqi undagi hosila huquq bo'lib, uning mazmunini ifodalash shakli hisoblanadi. Fikrimizcha, huquq, erkinlik va burchlarni mazmuni va mohiyati bo'yicha tasniflash alohida ahamiyat kasb etadi. Tasniflash shart-sharoitlariga doir yuqoridagi fikr va mulohazalarni hisobga olib, inson huquqi, erkinliklari va burchlarini asosiy guruhlariga ajratish quyidagicha qabul qilingan. Birinchi guruh: inson shaxsiy huquqlari, erkinliklari va burchlari, ya'ni yashash huquqi, shaxsiy daxlsizlik va turar joy daxlsizligi kabi huquq, erkinlik va burchlar. Ikkinchi guruh: davlat va jamiyatni boshqarishda ishtirok etish, ovoz berish, yig'ilish huquqi, vatanni himoya qilish bilan bog'liq qator siyosiy huquq, erkinlik va shu kabilar iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquq erkinlik va burchlar guruhini tashkil etadi. Aynan xuddi shunday turkumlash asosida o'zbek qonunchiligi tomonidan O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida huquq, erkinlik va burchlarning tizimi mustahkamlab qo'yilgan:

eng avvalo, umumiy qoidalar ifodalangan bo'lib, inson va fuqarolarning o'z huquq, erkinlik va burchlarida o'zaro tengligi;

fuqarolar o'zlarining huquq va erkinliklarini amalgam oshirishlari jamiyat va davlat hamda boshqa shaxslarning huquqiy va erkinliklariga, ularning qonuniy manfaatlariga putur etkazmasliklari;

huquq, erkinlik va burchlarning daxlsizligi qoidalari belgilanadi.

Inson va fuqarolarning asosiy huquq, erkinlik va burchlarining keyingi joylashuvi tegishli huquq, erkinlik va burchlarning mazmuniga asosan mustahkamlab qo'yiladi:

1. shaxsiy huquq va erkinliklar;
2. siyosiy huquqlar;
3. iqtisodiy va ijtimoiy huquqlar;
4. fuqarolarning burchlari.

Yuridik adabiyotlarda inson huquqlarini boshqa mezonlar asosida ham tasniflash uchraydi. Mustaqil O'zbekiston inson huquqlarini hurmat qilish va himoya qilish borasida butun dunyoda ish boshlagan va ish olib borayotgan barcha kishilarni va barcha davlatlarni juda e'zozlaydi. O'zbekiston Respublikasi dunyo hamjamiyatini teng huquqli a'zosi sifatida ma'rifatparvar demokratik adolatli davlat bo'lishga harakat qiladi, inson huquqlarini himoya qilishga va mustahkamlashga qat'iy kafolat beradi. Inson huquqlari umumbashariy va milliy davlat va huquq tushunchalarini o'zida mujassamlashtiradi. O'zbekiston o'zining boy va ko'p ming yillik ma'naviy-huquqiy merosiga asoslanib inson huquqlarining umuminsoniy qadriyatlarini hamda e'tirof etgan xalqaro huquq talablarini ta'minlash borasida muntazam ish olib bormoqda.

Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar

1. O'zbekiston Respublikasida mustaqillik yillarida inson huquq va erkinliklariga oid qaysi xalqaro hujjatlar tan olingan?
2. Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy Markazining maqsadi va vazifalari nimalardan iborat?
3. 1996-yil 15-noyabr Toshkentda o'tkazilgan xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyaning asosiy mavzusi nima haqida edi?
4. O'zbekiston Respublikasida qaysi qonunning qabul qilinishi inson huquqlari va erkinliklari to'g'risidagi qonun hujjatlarini mukammallashtirishda muhim ahamiyatga ega?
5. 1997-yil aprel oyida "Oliy Majlisning inson huquqlari bo'yicha vakili (ombudsman) to'g'risidagi" qonunning qanday muhim ahamiyati mavjud?
6. O'zbekiston Ombudsmani o'z faoliyati uchun qanday ustuvor yo'nalishlarni belgilab olgan?
7. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida inson huquq va erkinliklariga oid qanday moddalar mavjud?
8. 2006-yil 18-22-noyabr Karl ovi Vari shahridagi VII davra suhbatida qaysi mamlakatlar vakillari qatnashgan va qanday masalalar muhokama etilgan?
9. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida fuqarolarning belgilab qo'yilgan qanday burchlari mavjud?
10. 1991-2007-yillarda O'zbekiston Respublikasida fuqarolarning huquqlarini aks ettiruvchi, himoya qiluvchi, ularning turli sohalardagi faoliyatini tashkil qilish bo'yicha qancha qarorlar qabul qilingan?

Testlar

1. O'zbekiston Respublikasida qaysi qonunning qabul qilinishi inson huquqlari va erkinliklari to'g'risidagi qonun hujjatlarini mukammallashtirishda muhim ahamiyatga ega?
 - A) Oliy Majlisning "Inson huquqlari bo'yicha vakili (Ombudsman) to'g'risida"gi Qonun
 - B) "Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida"gi Qonun
 - C) "Fuqarolarning huquq va erkinliklarini buzuvchi harakat va qarorlar ustidan sudga shikoyat qilish to'g'risida"gi Qonun
 - D) "Siyosiy partiyalar to'g'risida"gi Qonun
2. 1995-yil 30-avgustda inson huquqlariga oid qabul qilingan qonunni belgilang
 - A) "Fuqarolarning huquq va erkinliklarini buzuvchi harakat va qarorlar ustidan sudga shikoyat qilish to'g'risida"gi Qonun
 - B) Oliy Majlisning "Inson huquqlari bo'yicha vakili (ombudsman) to'g'risida"gi Qonuni
 - C) Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy Markazi to'g'risida" gi Qonun
 - D) Jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish milliy dasturi to'g'risida"gi Qonun

3. O'zbekiston Respublikasida nechanchi yillarda fuqarolarning huquqlarini aks ettiruvchi, himoya qiluvchi 500dan ortiq qonun, va Parlamentning Qonunga tenglashtirilgan 1000ga yaqin qarori qabul qilingan?
- A) 1995-2007-yil B) 1991-2007-yil
C) 1998-2005-yil D) 1996-2001-yil
4. Oliy Majlisning Inson huquqlari bo'yicha vakili (ombudsman) to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonuni qachon qabul qilingan?
- A) 1995-yil avgust oyida B) 1993-yil aprel oyida
C) 1997-yil aprel oyida D) 2000-yil may oyida
5. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 13-moddasi nima haqida?
- A) Har bir inson malakali tibbiy xizmatdan foydalanish huquqiga ega
B) O'zbekiston Respublikasining poytaxti-Toshkent shahri
C) Tarixiy, ma'naviy va madaniy merosni asrab avaylash to'g'risida
D) Inson ,uning hayoti, sha'ni qadr-qimmatini va boshqa daxlsiz huquqlari oliy qadriyat
6. Jahonda inson huquqlari sohasida 70dan ortiq standart qabul qilingan. O'zbekiston hozirda bu standartlardan nechtasiga qo'shilgan?
- A) 15ta B) 20 ta C) 30 ta D) 50 ta
7. Respublikamizda 1996-yil oktabr oyida inson huquqlariga oid qanday Farmon qabul qilingan?
- A) "Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy Markazini tuzish"
B) "Fuqarolarning murojaatlari to'g'risidagi" Farmon
C) "Vijdon erkinligi to'g'risida"
D) "Aholini ish bilan ta'minlash" to'g'risidagi Farmon
8. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining nechanchi bo'limi "Inson va fuqarolarning asosiy huquqlari, erkinliklari va burchlari" deb nomlanadi?
- A) 4-bo'lim B) 2-bo'lim C) 5-bo'lim D) 3-bo'lim
9. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining "Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida"gi Qonuni qachon qabul qilingan?
- A) 1998-yil B) 1999-yil C) 1997-yil D) 2000-yil
10. 1997-yil avgustda milliy dasturi qabul qilingan.
- A) "Jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish"
B) "Inson huquqlari bo'yicha Milliy Markazni tuzish"
C) "Fuqarolarni huquqiy himoya qilish"
D) "Axborotni erkin olish to'g'risidagi"

9-Mavzu: Iqtisodiy islohotlar, xususiy mulkchilikning shakllanishi. O‘zbekistonda bozor munosabatlarining rivojlanishi

Reja:

1. O‘zbekistonning o‘ziga xos ijtimoiy-iqtisodiy yangilanish yo‘lini tanlashi. Xususiylashtirishning amalga oshirilishi, mulkdorlar sinfining shakllantirilishi
2. Bozor iqtisodiyotiga o‘tish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning rivojlantirilishi, mamlakatimizdagi iqtisodiy o‘tish
3. O‘zbekiston iqtisodiyotida qishloq xo‘jaligining o‘rni. Agrar islohotlar
4. O‘zbekiston iqtisodiyotining yangi istiqbollari

Darsning o‘quv maqsadi: *Talabalarga O‘zbekistonning o‘ziga xos ijtimoiy-iqtisodiy yangilanish yo‘lini tanlashi, mamlakatda xususiylashtirishning amalga oshirilishi, mulkdorlar sinfining shakllantirilishi, bozor iqtisodiga o‘tishning asosiy tamoyillari, O‘zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning rivojlantirilishi, mamlakat hayotida qishloq xo‘jaligining o‘rni hamda agrar islohotlar, O‘zbekiston iqtisodiyotining yangi istiqbollari to‘g‘risida atroflicha tushuntirish berish.*

Mavzu yuzasidan tayanch so‘z va iboralar: *iqtisodiy islohotlar, strategik maqsadlar, taraqqiyotning “O‘zbek modeli”, xususiylashtirish, ko‘p ukladli iqtisodiyot, kichik va o‘rta biznes, agrar islohotlar, bozor infratuzilmasi, mashinasozlik va yoqilg‘i sanoati, g‘alla mustaqilligi.*

O‘zbekistonning o‘ziga xos ijtimoiy-iqtisodiy yangilanish yo‘lini tanlashi. Xususiylashtirishning amalga oshirilishi, mulkdorlar sinfining shakllantirilishi. Butun dunyodagi rivojlangan davlatlar iqtisodining asosini bozor iqtisodiyoti tashkil etadi. Bozor iqtisodiyoti tovar-pul munosabatlariga asoslangan va ularga xos iqtisodiy qonunlar asosida ishlaydigan iqtisoddir. Bozor iqtisodiyoti qadim zamonlardan boshlab ming yillar davomida shakllanib, takomillashib kelmoqda. Iqtisodiy taraqqiyotda bozor munosabatlari ikki xil shaklda namoyon bo‘ldi. Birinchisi, tartibsiz, stixiyali faoliyat yurituvchi bozor iqtisodiyoti. Bunda ishlab chiqaruvchilar va iste‘molchilar tarqoq, o‘zibo‘larchilik asosida, maqsadi va harakati oldindan kelishilmagan holda faoliyat yuritadilar. Ikkinchisi, davlat, iqtisodiy qonunlar va iqtisodiy vositalar bilan tartibga solinadigan, boshqariladigan bozor iqtisodiyoti.

Jahon tarixi tajribasi guvohlik beradiki, insoniyat birdaniga tartibga solinuvchi bozor iqtisodiyotini yaratolmagan, necha ming yillar davomida stixiyali bozor iqtisodiyoti sharoitida yashab, vaqt-vaqti bilan iqtisodiy larzalarni, chuqur iqtisodiy inqirozlarni boshidan kechirgan. XX asrda jahon sivilizatsiyasi insoniyat manfaatlarini yo‘lida yanada jadal taraqqiy etdi. Bu jarayon iqtisodiy tafakkurga ijobiy ta‘sir etib, tartibga solinuvchi bozor iqtisodiyoti g‘oyasini keltirib chiqardi. Unga amal qilgan davlatlarda iqtisodiyot jadal o‘sa boshladi, aholi turmushi, farovonligi yaxshilanib bordi. Shu tariqa dunyoda tartibga solinadigan bozor munosabatlari iqtisodiyotning yetakchi shakliga aylanib bordi. Sobiq Ittifoq hukmronligi davrida esa hokimiyat tepasida turgan kommunistlar mulkni yoppasiga davlat ixtiyoriga olish, resurslarni

markazlashtirilgan tarzda ma'muriy-buyruqbozlik, rejalashtirish asosida boshqarish va taqsimlash yo'li bilan ijtimoiy adolatni qaror toptirish va xalq farovonligini oshirishga urinib ko'rdi. Oxir-oqibatda ma'muriy buyruqbozlik asosida boshqariladigan o'ta siyosiy lashgan, mafkuralashgan iqtisodiyot tanazzulga uchradi.

Mustaqillik yillarida O'zbekiston iqtisodiyotidagi yangilanish, tub o'zgarishlarni o'rganishga kirishar ekanmiz, avvalo, mustabid sovet tuzumidan bizga qanday iqtisodiyot meros bo'lib qolganini tushunib, chuqur anglab yetishimiz lozim. O'zbekiston qaramlik davrida o'z tabiiy boyliklariga, yer-suv, o'rmon va boshqa resurslariga o'zi egalik qila olmasdi, iqtisodiy taraqqiyot yo'lini o'zi belgilay olmasdi. Respublika hududida qurilgan va faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar markazga, uning manfaatlariga bo'ysundirilgan edi. O'zbekiston rahbariyati, xalqi o'z hududida qancha mahsulot ishlab chiqarilayotganini, ular qayerda realizatsiya qilinayotganini va qancha daromad keltirayotganidan bexabar edi. Mustaqillikni qo'lga kiritgan O'zbekiston moliya-kredit, bank siyosati yuritishda qaram edi, o'zining milliy valyutasiga, valuta jamg'armasiga ega emasdi. Sobiq Ittifoqdan mo'rt, zaif xomashyo yetishtirishga yo'naltirilgan, ya'ni arzon xomashyo va strategik mineral resurslar tayyorlanadigan iqtisodiyot meros bo'lib qolgan edi. Respublika iqtisodiyotida boy mineral xomashyo resurslaridan ayovsiz, nazoratsiz foydalanish hukmronlik qilardi. Respublika korxonalari sobiq Ittifoq bo'yicha boshqa korxonalar bilan bog'langan bo'lib, endi ular o'rtasidagi aloqalar uzilib, xo'jalik yuritish murakkablashib qolgan edi. Mavjud korxonalar chetdan keltiriladigan texnologik asbob-uskunalar va butlovchi qismlarga butunlay qaram edi. O'zbekiston yoqilg'i va oziq-ovqat masalasida Markazga qaram edi. Ekin ekiladigan yerlarning paxta maydonlariga aylantirilishi, paxta yakka hokimligining o'rnatilishi natijasida O'zbekiston un, go'sht, sut mahsulotlari va boshqa eng muhim oziq-ovqat mollari, xalq iste'moli tovarlari, tayyor mahsulotlarni chetdan keltirishga mahkum etilgan edi. Paxta, oltin, rangli metallar, strategik ahamiyatga ega bo'lgan boshqa materiallar tashib ketilar, ularni sotishdan keladigan daromad O'zbekiston xazinasiga tushmas edi. O'ziga qarashli bo'lgan mablag'ni markaz-dan dotatsiya sifatida so'rab, yolvorib olishga majbur edi.

Aholi turmush darajasi bo'yicha nochorlik, sobiq Ittifoq miqyosida eng oxirgi o'rinlardan biri meros bo'lib qoldi. Ittifoqdan mustaqil bo'lgan Rossiya, Ukraina va Belorusiyadan farqli o'laroq, O'zbekiston aholisining deyarli uchdan ikki qismi qo'l uchida tirikchilik qilardi. Eski mustabid tuzumdan o'tkir ijtimoiy, ekologik muammolar meros bo'lib qolgan edi. Aholi yerning nihoyat darajada sho'rlanishi, havoning va suv zaxiralarning ifloslanganligi, radioaktiv ifloslanish, Orol dengizining qurib borishi oqibatida juda katta ekologik xavfga duch kelib qolgan edi. Mutaxassislarining ma'lumotlariga ko'ra, birgina Orolning qurib qolgan tubidan yiliga bo'ron tufayli 1575 million tonna chang-to'zon ko'tarilib, uzunligi 400 km va eni 40 km maydonni ifloslantirardi, aholini turli-tuman kasalliklarga muhtalo qilardi. Iqtisodiy mustaqillik xalqimizni iqtisodiy zug'um, mutelikdan ozod etdi, o'z yeri, yer osti boyliklari, suv, o'simlik va hayvonot dunyosi va boshqa tabiiy zaxiralarga to'la egalik qilish huquqini berdi. O'z hududimizdagi barcha mulk, korxonalar O'zbekiston tasarrufiga olindi, mustaqil iqtisodiy siyosat yuritish, o'z iqtisodiy taraqqiyot yo'lini o'zi belgilash erkinligi qo'lga kiritildi. Iqtisodiy mustaqillik

mamlakatimizga mustaqil moliya-kredit, bank siyosatini yuritish, o'z davlat budjetini yaratish va unga to'la egalik qilish, milliy valuta, oltin zaxirasi va valuta jamg'armasini tashkil etish va ulardan xalqimiz farovonligi, yurtimiz obodonligi yo'lida mustaqil foydalanish imkoniyatini yaratdi. Iqtisodiy mustaqillik tufayli ishlab chiqarish munosabatlarini ma'muriy buyruqbozlik, markaziy rejalashtiruvchi mexanizmdan erkin, bozor iqtisodiyoti sharoitlariga o'tkazish, jahon xo'jaligi aloqalari tizimiga kirish mumkin bo'ldi.

Davlat mustaqilligi qo'lga kiritilgach, O'zbekiston umumbashariy, jahon sivilizatsiyasining katta yo'lga tushib oldi. Mustaqillikning dastlabki yillarida O'zbekiston bozor munosabatlarini shakllantirish, milliy an'analarga asoslangan o'z taraqqiyot yo'lini tanlab oldi. Chunki turli mamlakatlardagi bozor iqtisodiyoti, u xoh Amerika yoki Germaniyada bo'lsin, xoh Yaponiya yoki Janubiy Koreyada bo'lsin, baribir umumiy qonunlar bo'yicha rivojlanib borgan holda har biri o'zining o'ziga xos xususiyatlariga ham ega bo'lgan. Bu xususiyatlar xo'jalikning tuzilishi va shart-sharoitlari, tabiati va iqlimi, milliy rasm-rusumlari, an'analari va milliy xarakteri orqali belgilanadi. O'zbekistonda bozor munosabatlariga o'tishning o'ziga xos yo'li ishlab chiqildi. Bu yo'lning asosiy qoidalari Birinchi Prezidentimiz Islom Karimovning "O'zbekiston – bozor munosabatlariga o'tishning o'ziga xos yo'li" nomli asarida, Respublika parlamentida qilgan ma'ruza va nutqlarida, mamlakat parlamenti qabul qilgan qonunlarda bayon etib berilgan. Bu yo'lga, birinchidan, xalqaro tajriba asos qilib olindi. Ikkinchidan, respublikamiz xo'jalik imkoniyatlari, shart-sharoitlari, eski tuzumdan meros bo'lib qolgan muammolar hisobga olindi.

Iqtisodiy islohotlarning butun ichki mantiqini, rivojlanib borishi va xarakterini belgilab beradi, belgilangan maqsadlarga erishish uchun mavjud kuchlarni va imkoniyatlarni mujassam etish, eng muhim va birinchi o'rindagi vazifalarni aniqlash va ularni islohotlar muvaffaqiyati yo'lida xizmat qildirishga sharoit yaratadi. Bu tamoyil bozor munosabatlarini qadam-baqadam shakllantirishni, bir bosqichini oxiriga yetkazib va tegishli asos, zamin yaratib, keyin yangi bosqichga o'tishni taqozo etadi.

O'zbekistonda iqtisodiy islohotlarning uzoqni ko'zlagan quyidagi strategik maqsadlari belgilab olindi:

- milliy boyliklarning o'sishini, kishilar turmushi va faoliyati uchun munosib sharoitni ta'minlaydigan kuchli va muntazam rivojlanib boruvchi tizim yaratish;

- ko'p ukladli iqtisodiyotni vujudga keltirish, kishining mulkdan begonalashuvini bartaraf etish, tashabbuskorlik va tadbirkorlikning har taraflama o'sishi uchun asos bo'ladigan xususiy mulkchilikning davlat tomonidan himoya qilinishini ta'minlash;

- korxonalar va fuqarolarga keng iqtisodiy erkinliklar berish, ularning xo'jalik ishlariga davlatning to'g'ridan to'g'ri aralashuvidan voz kechish, iqtisodni boshqaruvning ma'muriy-buyruqbozlik usullarini yo'q qilish, iqtisodiy vositalar va rag'batlantirishlarni keng qo'llash;

- moddiy, tabiiy va mehnat resurslaridan unumli foydalanishni, raqobatbardosh tayyor mahsulotlarni ishlab chiqarishni, jahon iqtisodiyot tizimiga kirib borishni ta'minlaydigan chuqur iqtisodiy o'zgarishlarni amalga oshirish;

– kishilarda yangicha iqtisodiy tafakkurni shakllantirish, ularning dunyoqarashini o'zgartirish, har bir kishiga o'z mehnatini qo'llash sohalari va shakllarini o'zi mustaqil belgilab olishi uchun imkoniyat yaratish.

O'zbekiston Respublikasida iqtisodiy islohotlarning huquqiy negizini yaratishga yo'naltirilgan 400 dan ortiq qonun hujjatlari qabul qilindi va joriy etildi. Ularni bir necha yo'nalishlarga bo'lish mumkin:

1. Mulkchilik munosabatlari va ko'p ukladli iqtisodiyotni shakllantiruvchi qonunlar. Bu yo'nalish doirasida mulkchilik to'g'risida, mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish to'g'risida, ijara to'g'risida, davlat uy-joy fondini xususiylashtirish to'g'risida va boshqa qonunlar qabul qilindi.

2. Xo'jalik yuritishni tartibga soluvchi qonunlar, ya'ni xususiy korxonalar to'g'risida, kooperatsiya to'g'risida, dehqon xo'jaligi to'g'risida, shirkat xo'jaligi to'g'risida qonunlar qabul qilindi. Bozor infratuzilmasini yaratuvchi va uning faoliyatini tartibga solib turuvchi, banklar va bank faoliyati to'g'risida, pul tizimi to'g'risida, tadbirkorlik to'g'risida, sug'urta to'g'risida, birjalar va birja faoliyati to'g'risida, qimmatli qog'ozlar va fond birjasi to'g'risida va boshqa qonunlar qabul qilindi. Korxonalar bilan davlat o'rtasidagi, korxonalar o'rtasidagi munosabatlarni yo'lga qo'yuvchi qonunlar, Soliq kodeksi, Bojxona kodeksi, monopolistik faoliyatni cheklash, korxonalarining bankrot bo'lishi haqida qonunlar qabul qilindi, Xo'jalik protsessual kodeksi ishlab chiqildi, Xo'jalik sudi tuzildi.

3. O'zbekistonning tashqi iqtisodiy faoliyatini belgilab beruvchi huquqiy normalar yaratildi. Tashqi iqtisodiy faoliyat to'g'risida qabul qilingan qonunlar, xalqaro pakt va bitimlar, ularning O'zbekiston tomonidan imzolanishi mamlakatimiz tashqi aloqalarining rivojlanishi tarixida yangi sahifa ochdi. Respublika iqtisodiyotining huquqiy asoslari Prezident farmonlarida, hukumat qarorlari va boshqa me'yoriy hujjatlarda yanada takomillashtirib borildi.

Qabul qilingan qonunlar amalga oshirilayotgan bozor islohotlarining ortga qaytmasligining kafolati bo'lib xizmat qilmoqda. Iqtisodiy islohotlarning muhim yo'nalishlaridan biri bozor infratuzilmasini yaratishdan iboratdir. Bozor infratuzilmasi deganda bozor munosabatlarini shakllantirish va rivojlantirishga, ularni samarali faoliyat yuritishiga xizmat qiluvchi muassasa, tashkilot va korxonalar majmuasi tushuniladi. Respublikamizda bozor munosabatlarini shakllantirish va rivojlantirishga xizmat qiluvchi infratuzilmaning asosiy bo'g'inlari - turli muassasalar, tashkilotlar va korxonalar majmuasi yaratildi. Avvalambor, ishlab chiqarishga xizmat qiluvchi transport, aloqa, suv va energetika ta'minoti, yo'l va ombor xo'jaligi tuzilmalari yaratildi. Bozor munosabatlarini shakllantirishda birjalar alohida o'ringa ega. Iqtisodiy islohotlarning dastlabki bosqichidayoq "Respublika ko'chmas mulk birjasi", "Tovar xomashyo birjasi", "Toshkent fond birjasi" tashkil etildi. Bu tarmoq yanada rivojlantirildi. 1991-2000-yillarda xo'jalik yurituvchi subyektlar uchun xizmat qiluvchi 58 ta tovarlar va xomashyo birjalari, 24 ta biznes inkubator, 496 ta auditorlik va konsalting firmalari, ko'plab savdo uylari, auksionlar, tijoratchilik idoralari, reklama firmalari, savdo-sotiq va ularni nazorat qiluvchi davlat muassasalari tashkil etildi. Bozor munosabatlarini rivojlantirishda axborot infratuzilmasi alohida ahamiyatga ega. Shu boisdan iqtisodiy faoliyat uchun zarur bo'lgan axborotlar, xabarlar va ma'lumotlarni to'plovchi, umumlashtiruvchi

vositalar, firmalar vujudga keladi. Xo‘jalik yurituvchi subyektlarning moliya-kredit munosabatlariga xizmat qiluvchi infratuzilma - yangi bank tizimi, o‘z-o‘zini kreditlash idoralari, sug‘urta kompaniyalari, moliya kompaniyalari, soliq undirish idoralari, pul jamg‘armalari yaratildi. Bozor iqtisodiyotiga xizmat qiluvchi bank-moliya tizimi yaratildi. “O‘zbekiston Respublikasining Markaziy banki to‘g‘risida”, “Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida”gi qonunlarda banklarning maqomi va faoliyatining huquqiy asoslari belgilab berildi. Markaziy bank banklar faoliyatini nazorat qiluvchi maqomga ega. Tijorat banklari ixtisoslashtirildi. Mustaqillikning dastlabki yilida 6 ta bank faoliyat ko‘rsatgan bo‘lsa, 2010-yilda 31 ta tijorat banklari, ularning 810 ta filiali aholiga xizmat ko‘rsatdi. Viloyat, shahar va tumanlarda aholiga xizmat qiluvchi minibanklar ochildi. Minibanklar soni 2011-yil boshlarida 4000 dan oshdi. Respublika iqtisodiyotini rivojlantirishga yo‘naltirilgan kredit qo‘yilmalari qo‘yish va chet el sarmoyalarini jalb qilishda banklar faol qatnashmoqdalar. Tijorat banklarining iqtisodiyotning real sektoriga kreditlar berish imkoniyati, moliya bozoridagi ishtiroki yildan yilga mustahkamlanib bormoqda. To‘lovlarni naqd pulsiz plastik kartochkalar vositasida amalga oshirish tizimi yaratildi. So‘mdagi plastik kartochkalar 1996-yilda paydo bo‘ldi. 2011-yilda muomaladagi bank plastik kartochkalari soni 8 million donani tashkil etdi. Savdo va xizmat ko‘rsatish shoxobchalarida plastik kartochkalariga xizmat ko‘rsatadigan terminallar soni 86 mingtaga yetdi. Respublikamizda tadbirkorlar va aholini ehtimoli bo‘lgan turli zararlardan himoya qiluvchi sug‘urta bozori vujudga keldi. Davlat ishtirokida bozor munosabatlariga xizmat qiluvchi “Kafolat”, “Agrosug‘urta”, “O‘zbekinvest” kabi uchta yirik sug‘urta kompaniyasi tashkil etildi. Ko‘plab xususiy sug‘urta kompaniyalari, shuningdek, xorijiy mamlakatlar bilan hamkorlikda ishlaydigan qo‘shma sug‘urta kompaniyalari ham vujudga keldi. 2002-yilda sug‘urta kompaniyalarining soni 28 taga yetdi, ular moliya bozorida mamlakatimiz fuqarolari va tashkilotlariga 150 turdan ortiq yo‘nalish bo‘yicha sug‘urta xizmati ko‘rsatmoqdalar. “Sug‘urta faoliyati to‘g‘risida”gi Qonunning qabul qilinishi (2002), Prezident farmoni bilan 2002 - yil 1- fevralidan boshlab sug‘urta tashkilotlarining 3 yil muddatga daromad solig‘idan ozod qilinishi mamlakatimizda sug‘urta bozorini yanada erkinlashtirish va rivojlantirishga xizmat qilmoqda. Bozor iqtisodiyotiga o‘tish sharoitida ish bilan bandlik masalasi jiddiy muammoga aylanadi. Negaki, iqtisodiy tizim o‘zgarayotgan paytda malakasiz kishilargagina emas, ma‘lum ixtisosga ega bo‘lgan xodimlarga ham talab cheklanadi, ishsizlar toifasi kengayadi. Bunday sharoitda ishsizlar sonining ko‘payishiga yo‘l qo‘ymaslik tadbirlari ko‘rildi. Keyinchalik Respublika “Mehnat birjasi” va joylardagi 225 dan ortiq mehnat birjasini o‘z ichiga oluvchi katta tarmoq barpo etildi. Har bir tumanda mehnat birjasi tashkil etildi. Ishsizlarni ro‘yxatga olish, ularni kasbini o‘zgartirish mexanizmi yaratildi, ishsizlik bo‘yicha nafaqa to‘lash yo‘lga qo‘yildi. Yangi ish o‘rinlarini tashkil etishga e‘tibor berildi. 1993-yilda Respublikada tadbirkorlikni rivojlantirish hisobiga 185,1 ming yangi ish o‘rinlari tashkil etilgan bo‘lsa, 1998-yilda bu ko‘rsatkich 345,9 mingni tashkil etdi yoki 1,8 marta ko‘p yangi ish o‘rinlari yaratildi. 2000-yilda faqat kichik va o‘rta biznes rivoji hisobiga 192,5 mingta, 2001-yilda esa 372 mingta, 2002-yilda 370 mingta yangi ish o‘rinlari yaratildi. Iqtisodiy islohotlarning birinchi bosqichidayoq, narxlar erkinlashtirildi. Bu jarayon ijtimoiy larzalarsiz o‘tdi. Negaki,

davlat turli kompensatsiya jamg'armalari tuzdi, bolalar uchun nafaqalar joriy etdi, eng kam ish haqi, pensiya, nafaqalar va stipendiyalar muntazam suratda oshirib borildi. Narxni erkinlashtirish iqtisodiyotda raqobatchilik muhitini vujudga keltirish bilan bevosita bog'liq. 1992-yil avgust oyida O'zbekiston Respublikasining "Monopol faoliyatni cheklash to'g'risida" gi Qonuni kuchga kiritildi. Bu qonun asosida raqobatchilikni rivojlantirishga qaratilgan bir qator normativ hujjatlar ishlab chiqildi va amalga oshirildi. Moliya vazirligi tizimida tuzilgan Antimonopol va narxnavo siyosatini o'tkazish bosh boshqarmasi monopol mavqeyidagi korxonalarni belgilab, ularning mahsulotlari bo'yicha narxlarni va rentabellikni tartibga solib turibdi. Xulosa qilib aytganda, O'zbekistonda bozor iqtisodiyotiga o'tishning o'ziga xos yo'li ishlab chiqildi va unga amal qilinmoqda. Bozor munosabatlarini shakllantiruvchi va unga xizmat qiluvchi huquqiy negizlar hamda bozor infratuzilmasi yaratildi.

Bozor iqtisodiyotiga o'tish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning rivojlantirilishi, mamlakatimizdagi iqtisodiy o'sish. Mustaqillikning dastlabki o'n yilligida mamlakatimizning Birinchi Prezident Islom Karimov tomonidan ishlab chiqilgan mustaqil taraqqiyot yo'li xalqimiz tomonidan ham, xalqaro maydonda ham taraqqiyotning "O'zbek modeli" deb qabul qilindi. O'zbek modeli ishlab chiqishda, birinchidan, xalqaro tajriba asos qilib olindi. Ikkinchidan, xo'jalik imkoniyatlari, shart-sharoitlari, eski tuzumdan meros bo'lib qolgan muammolar hisobga olindi.

Barchaga ma'lumki, taraqqiyotning bozor iqtisodiyotiga asoslangan yo'lini tanlagan O'zbekistonda mustaqillikning ilk kunlaridan boshlab, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik – jamiyatda ham iqtisodiy, ham siyosiy vaziyatni mo'tadillashtirishga yordam beradigan o'rta mulkdorlar tabaqasining paydo bo'lishi demakdir. Bu borada qator qonunlar qabul qilindi. Darhaqiqat, O'zbekiston o'z mustaqilligini qo'lga kiritgandan so'ng, dastlabki kezlarda, kichik biznes faoliyatini shakllantirish va rivojlantirish uchun quyidagi dastlabki normativ-huquqiy normalari va qonun hujjatlari qabul qilindi. Bu borada ayniqsa 1991-yil 18-noyabrdagi O'zbekiston Respublikasining "Mulknii davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish to'g'risida" gi qonuni muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Unga ko'ra mulkchilik shakllarini o'zgartirish sohasidagi ishlar respublika hamda hududiy maqsadga bosqichma-bosqich ishlab chiqiladigan va tasdiqlangan maxsus dastur asosida amalga oshirilishi qat'iy belgilab qo'yildi. Albatta, ushbu qonunning qabul qilinishi sohani bosqichma-bosqich rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlarini belgilab berdi. Qabul qilingan qonunlar va boshqa normativ-huquqiy hujjatlarga muvofiq, xalq xo'jaligidagi barcha soha tarmoqlarini ommaviy xususiylashtirish uchun keng imkoniyat yaratildi, bu boradagi cheklashlar olib tashlandi. Birgina 1992-1996-yillarda davlat mulki ob'ektlarini xususiylashtirish tufayli 1 million 7-4 ming kishi turar-joy egasi, 2 million kishi xalq xo'jaligining barcha tarmoqlarida xususiylashtirilgan korxonalar aksiyalari, paylarining egalari, qishloq joylarida esa, 3 million kishi yordamchi xo'jalik, 19 ming kishi ko'chmas mulk egasi bo'lib qoldilar. Bu raqamlar, shubhasiz jamiyatda mulkdolar sinfini shakllantirish yo'lidagi muhim qadamlar qo'yilganligini anglatar edi.

Amalga oshirilgan dastlabki islohotlar natijasida 1991-1996-yillar mobaynida iqtisodiy islohotlarning barcha yo'nalishlarida salmoqli institutsional o'zgarishlar

sodir bo'ldi. Xususan, turar joylar, savdo xizmat ko'rsatish sohalari, matlubot jamiyati ob'ektlari va turli tarmoqlarning mayda korxonalarini xususiylashtirish amalda tugallandi, o'rta va yirik korxonalarni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish jarayoni jadal davom ettirildi. Bu borada mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va hususiylashtirish, ko'p ukladli iqtisodiyotni barpo qilish, qishloq xo'jaligida islohotlarni chuqurlashtirish, agrar munosabatlarning yangi tipini yaratish jarayonlari amalga oshirildi. Bu tadbirlarning natijasi o'laroq iqtisodiyotda tub sifat o'zgarishlari vujudga keldi. Davlatga qarashli bo'lmagan, nodavlat, ya'ni xususiy sektorning iqtisodiyotdagi ulushi keskin oshdi. Bu sektor 1995-yilda sanoat mahsulotlarning 44 foizini, qishloq xo'jaligi mahsulotlarining esa 97 foizini berdi. Barcha kapital mablag'larning 44 foizdan ortiqrog'i uning hissasiga to'g'ri keldi. 2000-yilgacha xalq xo'jaligida band bo'lganlarning 64 foizi ana shu sektorda mehnat qilgan. Bu esa o'sha kezlarda bozor munosabatlariga o'tish muammolarini sinchkovlik bilan o'rganib, ularni hal etishda ehtiyotkorlik bilan yondashishga e'tibor qaratishni taqozga etar edi. Ayniqsa endigina bozor psixologiyasi odamlar ongida shakllanib kelayotgan bir sharoitda respublikada birinchi navbatda maishiy xizmat, umumiy ovqatlanish, savdo-sotiq, mahsulotni qayta ishlovchi kichik korxonalarni ochish zarur edi.

O'zbekiston o'z mustaqilligining dastlabki yillarida, kichik biznesga ko'maklashish maqsadida respublika va hududiy miqyosda faoliyat olib boruvchi – Xususiy tadbirkorlik va kichik biznesni qo'llab-quvvatlash fondi (Biznes fond, 1995-yil iyul), «Madad» sug'urta agentligi (1995-yil 26-iyun), O'zbekiston Tovar ishlab chiqaruvchilar va tadbirkorlar palatasi (1996-yil mart) hamda ularning hududiy bo'limlari tashkil etildi. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning rivojlanishiga Dehqon va fermer xo'jaliklari uyushmasi, "Hunarmand" uyushmasi, Tadbirkor ayollar uyushmasi tashkil etildi. Ammo o'sha paytlarda sohada qator muammolar ham mavjud bo'lib, ularning mavjud holati bir necha yillar taraqqiyotga to'siq bo'lib keldi. Xususan, 1999- yil 1-iyungacha qadar ro'yxatdan o'tgan korxonalar tarkibida kichik va o'rta korxonalar salmog'i kommunal xo'jalikda 42,9%, maishiy xizmat sohasida 85,0%, qurilishda 89,3%, qishloq xo'jaligida 89,9%, sanoatda 93,5%, savdoda 95,3%, umumiy tijoratda 96,6%ni tashkil etgan bo'lsada, amalda esa ro'yxatdan o'tib, o'z faoliyatini davom ettirayotgan korxonalar ulushi 20% ni tashkil etgan xolos. Qolganlari esa turli sabalar bilan yopilib ketgan bo'lib, buni quyidagi misollar ham tasdiqlaydi. Statistik ma'lumotlarga murojaat qilinsa, respublika bo'yicha 1996- yilda tashkil qilingan 7 -400 kichik korxonadan 20%, 1998 yili esa 37 -00 ta korxonadan 7 -0% tugatilib ketgan. Shu boisdan ko'pgina tadbirkorlar faoliyat bilan shug'ullanishdan sekin-sekin uzoqlashganlar yoki ish boshlab qo'yib, uni oxirigacha etkazmasdan, javobgarlikni davlatga tashlab qo'yganlar. Masalan, 2000 -yilning o'zida faqat Toshkent shahar bo'yicha tugatish jarayonida turgan kichik biznes sub'ektlari 4666 ta bo'lib, ulardan 54,7 -% yoki 25 -52 tasida ta'sischi bo'lmagan. Tugatilish holida turgan jami korxonalardan tugatilganlari 25 -,6% ni tashkil qilgan yoki 1194 ta bo'lgan. Ushbu muammolarni to'g'ri anglagan va unga tanqidiy asosda yondoshgan Prezident Shavkat Mirziyoyev 2017 - yil 22 - dekabrda Oliy Majlisga qilgan Murojaatnomasida "Yurtimizda tadbirkorlik nima uchun kutilgan darajada rivojlanmayapti ? Chunki bu soha vakillarini asossiz ravishda tekshirish

holatlari ko‘p. Ochig‘ini aytganda tadbirkorlikning erkin rivojlanishiga o‘zimiz, davlat idoralari yo‘l qo‘ymayapmiz. Hech kimga kerak bo‘lmagan tartib-tamoyillar hamon saqlanib qolmoqda, joylarda ko‘pgina amaldorlar faqat o‘z shaxsiy manfaatini o‘ylab ish ko‘rmoqda. Bundan buyon bu sohani qo‘llab-quvvatlash, biznes sub‘ektlarini jadal barqaror rivojlantirish yo‘lidagi to‘siq va g‘ovlarni bartaraf etish bo‘yicha zarur choralar ko‘riladi”, deya qayd qilganligi bejiz emas, albatta. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning 1998- yil 9- apreldagi “Xususiy tadbirkorlik, kichik va o‘rta biznesni rivojlantirishni yanada rag‘batlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni e‘lon qilindi. 2001- yil 22 - avgustda esa O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi “Tadbirkorlik sub‘ektlarini davlat ro‘yxatidan o‘tkazib va hisobga qo‘yish tizimini takomillashtirish to‘g‘risida” qaror qabul qildi. Qarorga binoan kichik va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishni rag‘batlantirish bo‘yicha respublika muvofiqlashtiruvchi kengashi tashkil etildi. Kichik va o‘rta biznes sub‘ektlariga Respublika tovar-xomashyo birjasi, Agrosanoat birjasi, “O‘zulgurjisavdo” orqali moddiy-texnika resurslari sotildi. Mustaqillik yillarida soha rivoji tahliliga ko‘ra yana raqamlarga murojaat etilsa, 2003 - yili yurtimizdagi 5 ming 630 ta aholi yashash manzilgohlarida ko‘plab kichik va o‘rta biznes korxonalari tashkil etilib, qariyb 155 mingta yangi ish o‘rinlari yaratilgan. Dastur doirasida aholiga 2003-yilda 1 milliard 200 million so‘mlik xayriya yordami ko‘rsatilgan. Ikki yoshgacha bo‘lgan bolalar tarbiyasi bilan shug‘ullanayotgan 400 mingdan ziyod ayolga davlat tomonidan nafaqa puli tayinlangan. 180 ming kam ta‘minlangan oilaga qariyb 4 milliard so‘m miqdorida moddiy ko‘maklar berilgan. 2003-yilda 25-mingdan ziyod yolg‘iz pensioner va nogironlarga 630 million so‘mlik moddiy yordamlar ko‘rsatilgan. So‘ngi yillarda joylarda kichik korxonalar ochish va fermer xo‘jaliklarida ish bilan band aholi soni ham yil sayin ortib, 2007-yildagi 2094,2 ming kishidan 2011-yilda 2338,4 ming kishiga yoki 11,6 foizga ko‘paygan.

Respublikada tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishga alohida e‘tibor qaratilayotgani bois, bu sohada ish bilan band bo‘lgan aholi soni yil sayin ortib bormoqda. 2007-2011-yillarda respublika bo‘yicha yuridik shaxs maqomiga ega bo‘lmagan, lekin litsenziyaga ega tadbirkorlikda band bo‘lganlar soni 140,8 ming kishidan 698,4 ming kishiga yoki 4,96 marta ko‘paygan. Mashinasozlik va avtomobilsozlik sanoati Mustaqillik mashinasozlik sanoati jadal rivojlanishi uchun ham zamin yaratdi. 1994-yilda barpo etilgan O‘zbekiston–Isroil “O‘zIsmash” qo‘shma korxonasida paxta terish mashinalarining gorizontall shpindelli yangi xili yaratildi. Bu agregat jahon mashinasozligining eng yangi yutug‘i, deb e‘tirof etildi. 1992-yilda Janubiy Koreya bilan hamkorlikda O‘zbekistonda avtomobil ishlab chiqaruvchi korxonalar barpo etishga kelishib olindi. 1993-1996-yillarda Asaka shahrida “Uz-DAEWOOavto” zavodi barpo etildi va “Damas”, “Tico”, “Nexia” rusumli avtomobillar ishlab chiqarish yo‘lga qo‘yildi. 1996-yilda 2,5-3 ming, 1997-yilda 64.9 ming, 1998-yilda 54,4 ming, 1999-yilda 58,4 ming, 2004-yilda 7 ming dona yengil avtomobil ishlab chiqarildi. “Uz-DAEWOO” zavodida 1999-2003 - yillarda “Matiz”, “Lacetti” rusumli avtomobillar ishlab chiqarish yo‘lga qo‘yildi. O‘zbekiston dunyoda avtomobil ishlab chiqaruvchi 28 mamlakatga aylandi. “Uz-

DAEWOO avto” zavodi 10 yil (1996-2006-yil iyun) davomida 571580 ta avtomobil tayyorladi, ularning 198609 tasi xorijga eksport qilindi.

Samarqandda avtobus va yuk mashinalari ishlab chiqarishga ixtisoslashgan “SamKochavto” zavodi qurildi va 1999-yilda ishga tushirildi. 2000 -yilda “SamKochavto” zavodi 483 ta avtobus, 102 ta yuk avtomobili ishlab chiqardi. Respublikamizda avtomobillarga butlovchi qismlar ishlab chiqaruvchi o‘nlab yangi korxonalar bunyod etildi. Andijon, Namangan, Farg‘ona viloyatlarida avtomobillarga butlovchi qismlar tayyorlaydigan 61 ta qo‘shma korxonalar qurilib ishga tushirildi.

2007-yilda “O‘zavtosanoat” uyushmasi bilan AQSHning General Motors kompaniyasi o‘rtasida GM-Uzbekistan qo‘shma korxonasi tashkil etildi. 2012-yilning 20-mart kuni “GM-Uzbekistan” qo‘shma korxonasi ishlab chiqarilgan “Chevrolet Malibu” avtomobillarining taqdimoti bo‘lib o‘tdi. 2009-yildan Germaniyaning “MAN Nutzfahrzeuge AG” konserni hamkorligida “MAN Avto-Uzbekistan” qo‘shma korxonasi tashkil etilib, “MAN” yuk mashinalari ishlab chiqilmoqda. Samarqandda barpo etilgan va ishga tushirilgan “SamKochavto” zavodida avtobus va yuk avtomobillari ishlab chiqarilmoqda. Mashinasozlik sanoatining yirik korxonalari - Toshkent traktor zavodi, O‘zbekiston qishloq xo‘jaligi mashinasozligi, Toshkent va Chirchiq qishloq xo‘jaligi mashinasozligi, Toshkent agregat zavodi va boshqa korxonalar mustaqillikning dastlabki yillarida uchragan qiyinchiliklarni yengib o‘tdi. Birgina Toshkent traktor zavodida 2000-yilda 954 ta, 2001-yilda 1002 ta traktor ishlab chiqarilgan bo‘lsa, hozirgi paytda yiliga 3,5-4 ming donagacha traktor, minglab tirkamalar ishlab chiqarilmoqda. 1995-yil oktabr oyida O‘zbekiston bilan AQSHning “ABB Lummus Global” kompaniyasi o‘rtasida Sho‘rtan gaz-kimyos majmuasini qurish bo‘yicha hamkorlik yo‘lga qo‘yildi. Qurilish ishlari 1997-2001-yillarda amalga oshirildi, majmua qurilishiga 1 mlrd AQSH dollari hajmida sarmoya o‘zlashtirildi. 2001-yil dekabrda Sho‘rtan gaz-kimyos majmuasi ishga tushirildi. Majmua yiliga 125 ming tonna polietilen, 137 ming tonna suyultirilgan gaz va 126 ming tonna gaz kondensati ishlab chiqarish quvvatiga ega. Sanoatning yengil va to‘qimachilik kabi turlari tez sur‘atlar bilan rivojlanib bormoqda. Janubiy Korea ishtirokida paxtani qayta ishlovchi “Qabul-O‘zbekKO”, “Kosonsoy-Tekmen”, “Papfen”, “Asnam tekstil”, “Karakulteks”, “Chinoz to‘qimachi”, “Qabul-FerganaKO”, “Oqsaroy to‘qimachi” qo‘shma korxonlari barpo etildi. Faqat 2004-yilda 17 ta yengil sanoat korxonalari qurilib ishga tushirildi. Bu tarmoqda xalq iste‘mol mollari ishlab chiqarish kengaydi, minglab yangi ish o‘rinlari yaratildi. Agar 1991-yili respublikamizda paxta tolasini qayta ishlash 12 foizni tashkil etgan bo‘lsa, 2004 -yilda bu ko‘rsatkich 28 - foizga yetdi. Kalava, ip, paxta va shoyi gazlamalarini eksport qilish hajmi ancha oshdi.

Mustaqillik yillarida “Zarafshan-Newmont” korxonasi, Qizilqum fosforit kombinati, Qo‘ng‘irot soda zavodi, Quvasoy kvarts zavodi, Yangiyo‘l va Andijon spirt zavodlari, Toshloq ip yigiruv fabrikasi va boshqa ko‘plab korxonalar bunyod etildi. Mustaqillik yillarida iqtisodiyot tarkibidagi tub o‘zgarishlar, yangi korxonlarning bunyod etilishi sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish sohasida samarali natijalar berdi. 1991-2002-yillarda 1872 korxonalar va boshqa ishlab chiqarish muassasalari qurildi, mahsulotning 9,5 mingdan ortiq yangi turlarini ishlab chiqarish o‘zlashtirildi. 1990 -yilda respublika bo‘yicha ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari

hajmini 100 foiz deb olsak, undan keyingi yillarda kamayib bordi. 1995-yilga kelib makroiqtisodiyotda barqarorlikka erishildi va 1995-yildan boshlab barqaror o'sish ta'minlandi. 1990-yilda sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini 100 foiz deb olsak, 2000 -yilda 123,6 foizga, 2010 -yilda 3 martaga o'sdi. Un va un mahsulotlari, kiyim-kechak, poyabzal, shakar va qand mahsulotlari ishlab chiqarish sezilarli darajada ko'paydi, iste'mol buyumlari importi kamaydi. Dastlab, Yalpi ichki mahsulot ishlab chiqarish 1991-1995-yillarda pasayib bordi, 1996-yildan boshlab o'sish boshlandi. Natijada O'zbekistonda 2000-yilda ishlab chiqarilgan yalpi ichki mahsulot (xarid qobilyati pariteti bo'yicha) 1990-yilga nisbatan 1,3 marta, 2010-yo'lda esa 3,4 marta o'sishiga erishildi.

O'zbekiston MDH davlatlari orasida birinchi bo'lib iqtisodiy barqarorlikka erishgan, iqtisodiy ko'rsatkichlari izchil o'sib borayotgan mamlakatdir. O'zbekistonda yalpi ichki mahsulotning yillik o'sish sur'atlari so'nggi 11 yil - 2005-2015-yillar davomida 8 foizdan yuqori bo'lib kelmoqda. O'zbekistonning umumiy eksport hajmida tayyor mahsulot va xizmatlar ulushi oshdi, tashqi savdoda ijobiy saldogga erishildi. Istiqloq yillarida olib borilgan islohotlar natijasida shahar va qishloqlarimizning qiyofasi o'zgarib, aholi turmush saviyasi o'sib bordi. Yirik inshootlar, korxonalarining bunyod etilishi, iqtisodiyotdagi tarkibiy o'zgarishlar, izchil o'sish sur'atlari odamlarning moddiy va ijtimoiy hayotini, farovonligini yildan yilga yaxshilanishiga xizmat qilmoqda. Aholini tabiiy gaz, ichimlik suvi bilan ta'minlash darajasi salmoqli darajada o'sdi. Birgina 1999-yilda 4,5 ming kilometr gaz tarmog'i (shundan 4,3 ming kilometri qishloq joylarida), 2 ming kilometrdan ziyod ichimlik suv tarmog'i (shundan 1,9 ming kilometri qishloq joylarida) ishga tushirildi. Transport sohasida ham jahon standartlariga qiyosan jahondagi yetakchi kompaniyalarning havo kemalari bilan ta'minlangan O'zbekiston Havo yo'llari aviakompaniyasi dunyoning 25 mamlakati bilan havo aloqalarini o'rnatgan, yo'lovchilarga xizmat ko'rsatmoqda.

So'nggi yillarda tadbirkorlik subyektlarining faol qo'llab quvvatlanishi natijasida uning mamlakat yalpi ichki mahsulotidagi ulushi yildan-yilga ortib bormoqda. Xususan, 2000-yilda yalpi ichki mahsulotning qariyb 31 foizi iqtisodiyotning faol rivojlanib borayotgan ushbu sektori ulushiga to'g'ri kelgan bo'lsa, 2008- yilda bu ko'rsatkich 48,2 foizni, 2009-yilda 50,1 foizni, 2010 - yilda 52,5 foizni, 2011- yilda esa 54 foizni tashkil etdi yoki 2000-yilga nisbatan 23 foizga o'sgan. 2010-2016- yillar davomida respublikada tadbirkorlik orqali tashkil etilgan ish o'rinlari soni 3,9 foizga ortgan. 2017-yilda esa dasturga muvofiq sanoatni (5440 ta loyihada 131 - mingta ish o'rni bilan), qishloq xo'jaligini (8430 loyihada 55,8 mingta ish o'rni bilan) va xizmat ko'rsatishni (11 mingta loyiha 69,5 mingta ish o'rni bilan) rivojlantirish bo'yicha viloyatlar, tumanlar va shaharlar hokimliklarining faoliyati kuchaytirildi. Kelajakda mamlakatda 25 mingga yaqin investitsiya loyihalarini amalga oshirish hisobiga, 256, 4 mingdan ortiq ish o'rinlari tashkil etishga erishiladi.

Jismoniy shaxslarning o'z sarmoyasi negizida 85 mingdan ko'proq xususiy va kichik korxonalar tashkil etildi. Ularga umumiy sahni 793,5 ming kvadrat-metr bo'lgan 3768 ta foydalanil- mayotgan va kam foydalanilayotgan xonalar ijaraga berildi; umumiy sahni 104,5 kvadrat-metr bo'lgan 282 xonani ular kimoshdi

savdolarida sotib oldilar. Ulami moddiy-texnika resurslari bilan ta'minlash uchun 1469 ta mayda ulgurji bozori va tuzilmalar, shu jumladan 1256 ta tijorat markazlari va savdo uylari tashkil etildi. Xomashyo va tayyor mollami sotish bo'yicha 1128 yarmarka va savdolar o'tkazildi. Tadbirkorlar tomonidan 512 ta qurilishi tugallanmagan obyekt sotib olindi. O'zbekistonda tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlashning noyob, o'ziga xos tizimi ish olib bormoqda. Unga davlatning o'zi rahnamolik qilmoqda. Bu tizimga muvofiq xususiylashtirishdan tushgan deyarli barcha mablag'lardan iqtisodiyotning nodavlat sektorini shakllantirish va mustahkamlash uchun foydalanilmoqda. Mamlakat tovar-xomashyo birjasi o'z faoliyatini ancha kengaytirdi, undagi bitimlar hajmi 1995-yilda 7,7 mlrd. so'mga yetdi. 1995-yilda 8481 obyekt 859,8 mln. so'mga sotgan Respublika ko'chmas mulk birjasi ham milliard dovonidan oshish arafasida turibdi. To'plangan tajriba katta-katta sanoat korxonalarini davlat tasarrufidan chiqarish imkonini berdi. Chkalov nomidagi Toshkent aviatsiya-ishlab chiqarish birlashmasi ochiq turdagi davlat-aksiyadorlik jamiyatiga aylantirildi.

Mamlakatda tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash tizimi yaratildi. U Qonunlar, Prezident Farmonlari, Vazirlar Mahkamasi qarorlarini o'z ichiga oluvchi tegishli me'yoriy-huquqiy hujjatlarga asoslanadi. Xalqaro tashkilotlar (Jahon Banki, BMT, YuNIF) tomonidan qayd qilinishicha, korxonalar va tadbirkorlar faoliyatini xususiylashtirishdan keyingi qo'llab-quvvatlashning O'zbekistonda amal qila-yotgan tizimi, MDH mamlakatlari orasida o'xshashi yo'q ekanligini xalqaro ijtimoiy tashkilotlar mutaxassisleri ham tan ola boshladilar. Bozor iqtisodiyotiga o'tishda O'zbekiston hukumati tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlashning samarali yo'llarini qidirib topa boshladi. Xususiylashtirish va davlat tasarrufidan chiqarishning davlat Dasturidan tashqari O'zbekistonda xalq xo'jaligining barcha tarmoqlarida, shu jumladan, qishloq xo'jaligida alohida tadbirkorlikni rivojlantirish dasturlari qabul qilindi. 1994-yili Qoraqalpog'iston Respublikasi, barcha viloyatlar va Toshkent shahrini qamrab oluvchi mintaqaviy dasturlar ishlab chiqildi va amalga oshirila boshlandi.

O'zbekiston iqtisodiyotida qishloq xo'jaligining o'rni. Agrar islohotlar. O'zbekiston mustaqillikka erishgach qishloq xo'jaligida tub iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish jarayonida davlat xo'jaliklari tugatilib, jamoa, shirkat xo'jaliklariga aylantirildi, chorvachilik, aksariyat xo'jaliklarning qoramolchilik fermalari xususiylashtirildi, dehqon va chorvachilik yo'nalishidagi fermer xo'jaliklari tashkil etila boshlandi. Agar mamlaktimizda fermerlik harakatining shakllanish tarixi va rivojlanishiga murojaat qilinsa, fermerlikni shakllantirish chorvachilik sohasi islohotlaridan boshlangan edi. Qishloq xo'jaligida ishlab chiqarish tarkibini takomillashtirishga e'tibor berildi. Xo'jaliklar ekin ekish sohasida mustaqil bo'ldilar. Respublikada don mustaqilligiga erishish, shakar va boshqa oziq-ovqat mahsulotlari tayyorlashni tiklash yo'li izchillik bilan amalga oshirildi. Paxta ekiladigan maydonlar qisqartirilib, donli ekinlar maydoni kengaytirildi. Umumiy ekin maydonlarida donli ekinlar salmog'i 1991-yilda 18,8 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2000 -yilda 42 foizga o'sdi.

Mustaqillikning dastlabki yillarida Respublikamizda don mustaqilligiga erishish, shakar va boshqa oziq-ovqat mahsulotlari tayyorlash yo'li izchillik bilan amalga

oshirildi. Agar 1991-yilda mamlakatimizda 1,9 mln tonna don tayyorlagan bo'lsa, 2012-yilda 7 -,5 mln tonna don yetishtirildi. 2014-yilda 8 mln 50 ming tonnalik g'alla xirmoni tayyorlandi. Yaqin tariximizda chorvachilik sohasini rivojlantirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1993- yil 15 martdagi "Respublika chorvachiligida iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish chora – tadbirlari to'g'risida"gi, 1994 - yil 23 fevralda "Chorvachilikda iqtisodiy islohotlarni takomillashtirish hamda dehqon (fermer) xujaliklari va xususiylashtirilgan fermalar manfaatlarini himoya qilish choralari to'g'risida", 1995- yil 24 - martdagi "Chorvachilikda xususiylashtirishni davom ettirish va xususiylashtirishni qo'llab – quvvatlash chora – tadbirlari to'g'risida" gi qarorlari muhim ahamiyat kasb etdi. Bu qarorlarga ko'ra, 1995-yilda jamoa xo'jaliklarining zarar bilan ishlayotgan 1499 qoramolchilik fermalari xususiylashtirildi. Natijada respublikada ishlab chiqarilayotgan go'sht va sutning 7 -5% ni xususiylashtirish sektor bera boshladi. Ushbu davrda agrar soha fermerlik yo'nalishining shakllanishida davlat tasarrufidagi qo'y, echki, qoramollar, yilqi, tuya kabi hayvonlarni fermerlarga bo'lib berish, davlat mulkchiligini tugatish, ularni xususiylashtirishga katta e'tibor qaratildi. Natijada 1990 -yilda respublikada bironta ham fermer xo'jaligi faoliyat yuritmagan bo'lsa, qishloq xo'jaligi ekin maydonlarining xo'jalik shakllari bo'yicha taqsimlanishiga e'tibor qaratilib, 2000-yilga kelib ular tasarrufidagi erlar 632,2 ming gektarga, 2010-yilga kelib esa 3 mln 143 ming gektarga etgan. Vaholanki 1990 - yilda O'zbekistonda sovxozlar, kolxozlar, yordamchi xo'jaliklar maxsus shirkatlar, qorako'lchilik fermalariga tegishli yer maydonlari 3 mln 974 ming gektar bo'lgan bo'lsa, 2000-yilga kelib ularning yerlari fermer xo'jaliklariga bo'lib berilib, o'sha qishloq xo'jalik korxonalarining yirkashtirilishi natijasida 2010-yilda umumiy er maydonlari qisqartirilib, zarar bilan ishlayotgan yoki dotatsiyaga tushgan xo'jaliklar erlari 93 ming 900 gektarga kamaytirilgan edi.

2000-yillardan boshlab agrar sohada fermer xo'jaliklarining tashkil etilishi barqaror va muntazam tus oldi. Fermer xo'jaligining yuzaga kelish asoslari Vazirlar Mahkamasining 2002-yil 5 yanvardagi 8-sonli "Qishloq xo'jaligi korxonalarini fermer xo'jaliklariga aylantirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi qarori va 2003-yil 27-oktabrdagi "2004-2006 yillarda fermer xo'jaliklarini rivojlantirish konsepsiyasi to'g'risida"gi Prezident Farmonida batafsil yoritib berilgan. Agar 2001- yilda respublikada faoliyat ko'rsatayotgan fermer xo'jaliklarining soni 55445 birlikdan iborat bo'lgan bo'lsa, 2006 -yilga kelib 189235 birlikka etgan, yoki 3,4 baravar oshgan. Xo'jaliklar sonining tahlil davridagi o'rtacha yillik o'sishi 40,2 foizni tashkil etgan. Jami 428 - ta shirkat xo'jaligi negizida 22 - mingdan ortiq fermer xo'jaliklari tashkil etiladi.

Respublikamizda fermerlikning kelgusidagi rivojlanishi va yangi imkoniyatlaridagi o'zgarishlar 2000 - yillar oxiriga to'g'ri keladi. Puxta o'ylangan dastur asosida 2008-2010 - yillar davomida o'tkazilgan maqbullashtirish jarayoni natijalariga ko'ra fermer xo'jaliklarining er maydonlari hajmi kamaytirildi. Amalga oshirilgan maqbullashtirish jarayoni natijasida, 2011- yil yakuniga ko'ra, Respublikamizdagi fermer xo'jaliklarining soni 215776 tadan 66134 taga yoki 69,4 foizga kamaytirildi, bunda bir fermer xo'jaligiga to'g'ri keladigan o'rtacha yer maydoni hajmini 27,4 gektardan 80,1 gektargacha ko'paytirishga erishildi. O'rtacha

bir fermer xo‘jaligiga to‘g‘ri keladigan yer maydonini tarmoqlar bo‘yicha olib qaraydigan bo‘lsak, bu ko‘rsatkich o‘sha davrda paxtachilik va g‘allachilikda 106,3 gektarga, sabzavotchilik va polizchilikda 23,5 gektarga, bog‘dorchilik va uzumchilikda 13,1 gektarga, chorvachilikda 205 gektarga teng bo‘lgan. So‘nggi yillarda mamlakatimizda agrar islohotlarga ustuvorlik berib kelinmoqda. Chunki, Respublika aholisining 62% qishloqda yashaydi, qishloq xo‘jaligida YaIMning 30 foizi, mamlakat valuta tushumlarining 55 foizi shakllanardi. Agrar islohotlar natijasida qishloq xo‘jaligida davlat tasarrufidagi mulk xususiylashtirildi.

Qishloq xo‘jaligida nodavlat sektorining ulushi qariyb 100 foizni tashkil qilmoqda. Islohot yillarida odamlarga shaxsiy tomorqa uchun qo‘shimcha ravishda 550 ming gektar sug‘oriladigan yer ajratildi va shaxsiy tomorqa uchun berilgan yer maydoni 700 ming gektarga yetdi, 9 milliondan ortiq odam ana shu yer hosilidan foydalanmoqda. Istiqloq yillarida qishloqda xo‘jalik yuritishning maqbul shakllarini yaratishga alohida e‘tibor berildi. Agrar islohotlarning dastlabki yillarida sovxoz va kolxozlar jamoa xo‘jaliklariga aylantirilgan edi. Ammo ular xo‘jalik yuritishda o‘zlarini to‘la-to‘kis oqlamaganliklari tufayli mulk paylari asosida shirkatlarga aylantirildi. 1999-yilda 898 ta, 2000 -yilda 856 ta qishloq xo‘jaligi korxonalarini shirkatlarga aylantirildi. Ularning umumiy soni 2002 -yilning 1-yanvar holatiga ko‘ra, respublika bo‘yicha 1900 taga yetdi, ularda 1 mln 400 ming kishi shirkat a‘zosi sifatida mehnat qildi. Biroq shirkat xo‘jaliklari ham o‘zini oqlamadi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2003-yil 24-martdagi “Qishloq xo‘jaligida islohotlarni chuqurlashtirishning eng muhim yo‘nalishlari to‘grisida”gi Farmonida agrar islohotlarining yangi yo‘nalishlari belgilab berildi. Farmonga binoan 2003 -2007 -yillar- da shirkat xo‘jaliklari tugatildi, ularning negizida fermer xo‘jaliklari tashkil etildi. 2007 -2008-yillarda paxtachilik, sabzavotchilik, chorvachilikka ixtisoslashgan fermer xo‘jaliklarining yer maydonlari qariyb 2,5 baravarga kengaytirildi. Fermer xo‘jaliklari qishloq xo‘jaligi ishlab chiqaruvchining asosiy shakliga aylandi. Qishloqlarda shaxsiy yordamchi xo‘jaliklar dehqon xo‘jaliklari sifatida qayta shakllantirildi. Dehqon xo‘jaligi - bu oilaviy mayda tovar xo‘jaligi bo‘lib, tomorqa yer uchastkasi oila boshlig‘iga umrbod meros qilib berildi, mahsulotlar oila a‘zolarining shaxsiy mehnat asosida yetishtiriladi va sotiladi. 2004 -yil boshlarida mamlakatimizda 3,5 millionga yaqin dehqon xo‘jaliklari yuridik va jismoniy shaxs maqomida faoliyat yuritdi, ularda 8 milliondan ortiq ishga yaroqli kishilar mehnat bilan band bo‘ldi. Dehqon va fermer xo‘jaliklari O‘zbekistonda asosiy ishlab chiqarish subektlariga aylandi. Mamlakatimiz qishloq xo‘jaligida ishlab chiqarilayotgan yalpi mahsulotning qariyb 100 foizi dehqon va fermer xo‘jaliklarida yetishtirilmoqda. Mustaqillik yillarida amalga oshirilgan agrar islohotlar natijasida qishloq hayoti yangilandi, dehqon va fermerning mehnatga munosabati, dunyoqarashi o‘zgardi. Ular yerning haqiqiy egasiga, o‘z mehnati evaziga yetishtirgan mahsulotning egasiga aylandi. «O‘zbekiston qishloq xo‘jaligi davlat tomonidan eng ko‘p boshqariladigan iqtisodiyot tarmoqlaridan biri hisoblanadi. Katta yirik qishloq xo‘jaligi ishlab chiqaruvchilari - dehqonlarning mulk huquqi juda zaif himoyalangan. Ularning faoliyatini tartibga solish usullari aslida sovet o‘tmishidan olingan, qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining ko‘p turlari, ishlab chiqarish resurslari va sektor uchun xizmatlar ishlab chiqilmagan.

Qishloq xo'jaligi - O'zbekiston iqtisodiyotining yetakchi tarmoqlaridan biri. 2018 yilda qishloq xo'jaligining O'zbekiston yalpi ichki mahsulotidagi ulushi 28,8 foizni tashkil qildi (bu va boshqa joylarda, agar boshqa ilova keltirilmagan bo'lsa, O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari). 2018-yilda qishloq xo'jaligi mahsulotlarining 53,2 foizi o'simlik mahsulotlarini, 46,8 foiz chorvachilik mahsulotlarini tashkil etdi. 2017 yilda qishloq xo'jaligida 3,7 million kishi ish bilan ta'minlandi (jami ish bilan ta'minlanganlarning 27,2 foizi). Mamlakat aholisining deyarli yarmi qishloq joylarida yashaydi (2019 yil 1 yanvar holatiga ko'ra O'zbekistonda 33,25 mln. kishi, shu jumladan, qishloq joylarda 16,45 mln kishi (aholining 49,5 foizi) yashaydi). Shu bilan birga, qishloq xo'jaligi iqtisodiyotning eng ko'p boshqariladigan tarmoqlaridan biri hisoblanadi. Katta yirik qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilari, dehqonlarning mulk huquqi o'ta himoyasiz, ularning faoliyatini tartibga solish usullari, de fakto sovet o'tmishidan olingan, qishloq xo'jaligi mahsulotlari va ishlab chiqarish resurslari hamda sektor uchun xizmatlar bozori ishlab chiqilmagan. Qishloq xo'jaligi sektori islohotga muhtoj bo'lib qolmoqda. O'zbekiston ikki yil davomida tizimli iqtisodiy islohotlar kursini aniqlagan bo'lsada, qishloq xo'jaligida deyarli o'zgarish yo'q. Sobiq sovet ittifoqining boshqa respublikalari singari O'zbekiston 1980-yillar oxiridan boshlab bozor iqtisodiyotiga, shu jumladan qishloq xo'jaligiga o'tishni boshladi. 1989 yildan buyon sobiq qishloq va fermer xo'jaliklaridan qishloq aholisi uchun qishloq xo'jaligi yerlarining ko'p qismi alohida fermer xo'jaliklarini tashkil etish uchun ajratildi. 1994 yilga kelib barcha kollektiv va fermer xo'jaliklari kooperativ fermer xo'jaliklariga yoki shirkat xo'jaliklariga aylantirildi. 2000-yillarning boshida shirkat xo'jaliklari qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarishning asosiy sub'yektlari sifatida fermer xo'jaliklariga almashtirildi. Shu bilan birga, qishloq xo'jaligi mahsulotlarining ko'pchiligi ular tomonidan emas, balki kichik dehqon xo'jaliklari tomonidan ishlab chiqariladi. 2018-yilgi ekin maydonlari, bog'lar va uzumzorlar uchun ajratilgan yerlarning 85,2 foizini fermer xo'jaliklari tashkil etadi (2017 yildagi ma'lumotlar). 2018 yilda qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarishning 70,0 foizi dehqon xo'jaliklari hisobiga amalga oshirilib, ekin maydonlari, bog'lar va uzumzorlar uchun ajratilgan yerlarning atigi 11,3 foizini tashkil etadi.

O'zbekiston iqtisodiyotining yangi istiqbollari. Mamlakat rahbari tomonidan 2019-yil O'zbekistonda "Faol investitsiyalar va ijtimoiy rivojlanish yili", deb e'lon qilindi. Bu borada Davlat Dasturiga muvofiq, mamlakatda biznes va xususiy tadbirkorlik rivojini rag'batlantirish, hududlar, tuman va shaharlarni kompleks va mutanosib holda ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiy ettirish, investitsiyaviy muhitni yaxshilash orqali mamlakatimiz iqtisodiyoti tarmoqlari va hududlariga xorijiy sarmoyalarni faol jalb etish masalalari keng o'rin olganligi istiqbolda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni yanada taraqqiy ettirish vazifasini qo'yimoqda. 2017-yilda ko'zlangan rejaga muvofiq sanoatni (5440 ta loyihada 131 - mingta ish o'rni bilan), qishloq xo'jaligini (8430 loyihada 55,8 mingta ish o'rni bilan) va xizmat ko'rsatishni (11 mingta loyiha 69,5 mingta ish o'rni bilan) rivojlantirish bo'yicha viloyatlar, tumanlar va shaharlar hokimliklarining faoliyati kuchaytirildi.

Kelajakda mamlakatda qishloq xo'jalik sohasi bilan bog'liq 25 mingga yaqin investitsiya loyihalarini amalga oshirish hisobiga, 256, 4 mingdan ortiq ish o'rinlari

tashkil etishga erishilishi ko‘zlangan. Vaholanki, mamlakatda to‘g‘ridan to‘g‘ri investitsiyalarni jalb qilish uchun qulay investitsiya muhitini shakllantirish maqsadida iqtisodiyotni liberallashtirish, davlat boshqaruvini isloh qilish, tadbirkorlik sub‘ektlari faoliyatiga aralashuvni cheklash, litsenziyalash va ruxsat berish tartib-tamoyillarini qisqartirish hamda soddalashtirish maqsadida 2018-yil 1-avgustda “O‘zbekiston Respublikasida investitsiya muhitini tubdan yaxshilash chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi Prezident Farmoni e‘lon qilindi. Farmonda investitsiya muhitini yanada yaxshilash, to‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalarni jalb etishni rag‘batlantirish, investitsiyalarning bu boradagi davlat siyosatining izchilligiga bo‘lgan ishonchini mustahkamlashga asosiy urg‘u berilgan. Unda shuningdek, qator yillar mobaynida sohadagi dolzarb muammolar ko‘rsatib o‘tilgan bo‘lib, ular orasida ayniqsa joylarda, investorlarning qo‘llab-quvvatlanmasligi, bu borada tegishli vazirlik va idoralar faoliyati aniq muvofiqlashtirilmaganligi bilan bog‘liq byurokratik to‘siq va g‘ovlar hali ham mavjudligi, soliq yukini kamaytirish va investorlar uchun soliqqa tortish tizimidagi muammolar hamda ularni bartaraf etish yuzasidan aniq vazifalar belgilangan.

Agar raqamlarga murojaat qilsak, 2017 - yilgacha 90 dan ziyod mamlakatning xorij mablag‘lari ishtirokidagi 4 mingdan ziyod korxonalari faoliyat yuritgan edi. Har yili jalb qilinayotgan investitsiyalarning 20 foizini xorij investitsiyalari va kreditlari tashkil etgan. Masalan, mamlakatimizning investitsion loyihalarni amalga oshiruvchi asosiy chet el hamkorlariga “Djeneral motors” , “Boing” , “Xonevell” , “Eyrbas” , “MAN” , “Klaas” , “Knauf” , “Lemken” , “Nestle” , “Teknip” , “ABB” , “Maksam” , “Isuzu” , “Itochu” , “Mitsibisu” , “Xitachi” , “Marubeni” , “Xyunday” , “Samsung” , “Eldji” , “Lotte kemikal” , “Xuavey” , “Si En Pi Si” , “SITIK” va boshqa ko‘plab kompaniyalar kiradi. 2017 - yilgacha O‘zbekiston iqtisodiyoti deyarli olti martaga, aholining real daromadlari esa to‘qqiz martaga yaqin o‘sdi. Aholi jon boshiga ichki yalpi mahsulot ulushi 6,9 martagacha ortdi, bu esa, O‘zbekistonga o‘rta darajadagi daromadli davlatlar qatoriga kirish imkonini berdi. O‘shanda jahon banki reytingiga binoan iqtisodiy darajasiga ko‘ra, O‘zbekiston 190 mamlakat orasida 63 o‘rinni egalladi. Butunjahon iqtisodiy forum bahosiga ko‘ra, 2014 va 2015 yakuni va 2016-2017 - yillar o‘shish prognozlarini bo‘yicha O‘zbekiston dunyoda eng tez rivojlanayotgan beshta davlatdan biri hisoblanishi qayd qilingan.

Iqtisodiy o‘shishning yuqori sur‘atlari aholi o‘rtasida daromadlarni nisbatan mutanosib ravishda taqsimlanishini ta‘minlagan edi. O‘zbekiston o‘z mustaqilligini qo‘lga kiritgach, 2002 - yilgacha respublikaga 12 mlrd AQSH dollaridan ortiq investitsiya kiritilgan. Yoki xorijlik fuqarolar va tashkilotlar tomonidan tashkil qilingan qo‘shma korxonalar jalb qilingan investitsiyalar ulushi 2000 - yildagi 6,9 % dan 2001- yilda 26,0 % ga, ya‘ni 3,7 - baravar oshgan. Respublika bo‘yicha 2007 - 2011- yillarda umumiy investitsiyalar hamjmidan xorijiy investitsiyalar ulushi 22 -25 - % ni tashkil qildi. Lekin hali ham xorijiy investitsiyalarni jalb etishni ko‘ngilagidek, deb bo‘lmaydi. Agar mustaqillik yillaridagi statistik ma‘lumotlarga e‘tibor qaratsa, jumladan, 2002-yilgacha respublikaning 31 - tumanida xorijiy investitsiyalar ishtirokida birorta ham korxonalar tashkil etilmagan. Agar 2000 - yilning boshida 143,5 ming korxonalar faoliyat ko‘rsatgan bo‘lsa, 2002 - yilda yurtimizda 240 mingta o‘rta va kichik korxonalar faoliyat ko‘rsatgan. Shulardan 85 mingtasi fermer xo‘jaliklaridir. Xususi sektor aholining 30% ni ish bilan ta‘minladi. Xususi korxonalarini

YAIMdagi ulushi 35% bo'lgan. Tashqi iqtisodiy faoliyat milliy banki huzurida maxsus tashkil etilgan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining eksportini qo'llab-quvvatlash jamg'armasining roli esa bu borada oshib bormoqda. Jamg'arma tomonidan tadbirkorlik sub'ektlariga o'z tovar va xizmatlarini tashqi bozorlarga chiqarish bo'yicha huquqiy, moliyaviy va tashkiliy xizmatlar ko'rsatilgan. O'zaro tuzilgan shartnomalar asosida 2015-yili qiymati 840 million dollardan ziyod tovarlar eksport qilingan. Jamg'arma ko'magida 2016- yilda tadbirkorlik sub'ektlari tomonidan 1 milliard 250 million dollar miqdoridagi eksport shartnomalari tuzilgan. Ushbu ko'rsatkich O'zbekistonning bugungi imkoniyatlari nuqtai nazaridan olib qarganda albatta past. Shu boisdan, Prezident o'zining "Tanqidiy tahlil qat'iy tartib intizom va shaxsiy javobgarlik -har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak" nomli kitobida muhim vazifalardan biri sifatida – "O'ztadbirkoreksport" va "O'zsanoateksport" aksiyadorlik jamiyatlari, shuningdek, Milliy bank huzuridagi Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarining eksportini qo'llab-quvvatlash jamg'armasi yo'nalishi bo'yicha kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlari eksporti bilan bog'liq kamida 1 milliard 500 million dollarlik eksportni ta'minlashi kerakligini uqdirgan edi. Keyingi yillarda qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirish hajmining o'sishi o'rtacha 67 foizdan kam bo'lmagan. Birgina 2015 yilda dalalardan 7.3 million tonnadan ortiq don, 12,8 mln tonnadan ziyod sabzavot va kartoshka, salkam ikki million tonna poliz mahsulotlari, qariyb 2,8 million tonna meva, 1,5 million tonnadan ziyod uzum mahsulotlari yig'ishtirib olindi. Go'sht ishlab chiqarish hajmi 2014 yilga nisbatan 106,7 -, sut ishlab chiqarish 107 -,1 tuxum ishlab chiqarish 111,1 foizni tashkil etdi. Bu qishloq mehnatkashlari, soha mutaxassislari va mutasaddilarining qilgan mehnatlari samarasidir. 2017-yilgacha yurtimizda 160 mingdan ziyod fermer xo'jaliklari faoliyat ko'rsatayotgan bo'lib, ularning 36 mingdan ortig'i ko'p tarmoqli yirik subyektlarga aylandi. Buning quvonarli jihati shundaki, ayni paytda ular faqatgina dehqonchilik yoki chorvachilik bilan cheklanib qolmasdan, balki zamonaviy texnologiyalar, ixcham qayta ishlash uskunalari jalb etgan holda, qo'shimcha tarmoqlarni o'zlashtirishga harakat qilishyapti. O'zbekistonda yetishtirilgan meva-sabzavotlariga bo'lgan talab dunyo miqiyosida talab ortib bormoqda. Shu bois ham, hukumat tomonidan istiqbolda oziq ovqat ekinlari maydonlarini kengaytirishga jiddiy e'tibor qaratilmoqda. Ayniqsa, Prezidentning 2015-yil 29 dekabrda "2016-2020- yillar davrida qishloq xo'jaligini qayta shakllantirish va rivojlantirish chora tadbirlari to'g'risida"gi qarori bu boradagi muhim dasturilamadir. Chunki, bu hujjatda tuproq unumdorligi nisbatan past, suv ta'minoti og'ir, kam rentabelli ekin maydonlariga paxta va g'alla o'rniga meva sabzavot, kartoshka, moyli, ozuqabop ekinlar ekish vazifasi belgilab berildi. Ularning amalga oshirilishi natijasida yaqin besh yilda boshqoli don yetishtirish hajmini 8,5 mln tonnaga etkazish, kartoshka yetishtirishni 35% ga, sabzavotlarni 30 foizga, meva va uzumni 21,5 foizga, go'sht yetishtirishni 26,2 foizga, sutni 43,7 - foizga, tuxum yetishtirishni 74,5 foizga ko'paytirish, baliq etishtirishni 2,5 martaga oshirish mo'ljallanmoqda.

Mamlakatimizda ishlab chiqarilayotgan yalpi qishloq xo'jalik mahsulotining 40 foizdan ortig'ini chorvachilik mahsulotlari tashkil etadi. Chorvachilik sohasida ham erkin bozor mexanizmlari shakllantirilgani, ko'plab imtiyozlar berilayotgani

natijasida chorva mollari bosh soni va chorvachilik ishlab chiqarish hajmi muttasil ortib boryapti. Chorvachilik fermer xo'jaliklarini rivojlantirish, ularda naslli qoramollar podasini ko'paytirish maqsadida keyingi 10 yil mobaynida Polsha, Avstriya, Gollandiya, Germaniya kabi mamlakatlardan 60 mingdan ko'proq naslli qoramollar olib kelindi.

Bugungi kunda agrar sohada salohiyatli kadrlar tayyorlash masalasi ham muhim hisoblanadi va hali bu borada qator muammolar borligi barchaga ayon. Agrar sohada zamonaviy fan texnikani puxta biladigan trener-o'qituvchilarni tayyorlovchi maxsus kurslarning muttasil ishlab turganligiga qaramay, yuqorida ko'rsatilgan o'qitish tizimlarida mahoratli, bilimli pedagog kadrlarning etishmasligi ham dolzarb muammolardan biridir. Shu boisdan yoshlarning agrar sohada biznes tashabbuslari, startaplari, g'oyalari va loyihalarini ro'yobga chiqarishga ko'maklashish va qo'llab-quvvatlash, band bo'lmagan yoshlarni mehnat bozorida talab yuqori bo'lgan mutaxassisliklar va biznes yuritish ko'nikmalariga o'qitish, umuman yoshlarning ijtimoiy-iqtisodiy faolligini oshirish orqali ularning bandligini ta'minlashga qaratilgan "Yoshlar – kelajagimiz" Davlat dasturi qabul qilindi. Shuningdek, "Har bir oila – tadbirkor" dasturi doirasida ularning oila a'zolariga issiqxona tashkil etish, qoramol, parranda sotib olish va tadbirkorlik faoliyati uchun 3 yillik muddatga, 6 oylik imtiyozli davr bilan, yillik 7 % stavkasi miqdorida kreditlar ajratilishi o'qituvchilarning jamiyatdagi mavqeini oshirishga xizmat qiladi.

Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar

1. Mustaqillikning dastlabki yillarida mamlakatimizning iqtisodiy strategiyasi qanday vazifalarni hal etishga yo'naltirildi?
2. 1995 - 1998 - yillarda mamlakatimizning eksport va import tarkibida qanday o'zgarishlar ro'y berdi?
3. Mustaqillik yillarida yurtimizda soliqlarni kamaytirish bo'yicha qanday chora-tadbirlar amalga oshirildi?
4. O'zbekiston Respublikasida 2008 - yilda qabul qilingan ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish dasturining eng muhim vazifalarini sanab bering.
5. O'zbekiston Respublikasida qabul qilingan qaysi qaror asosida butunlay yangi tipdagi soliq tizimi yuzaga keldi?
6. Yurtimizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish bo'yicha qanday ishlar amalga oshirilgan?
7. O'zbekiston Respublikasida qabul qilingan qaysi huquqiy hujjatlar Xalqaro valyuta fondi va Jahon banki tomonidan yuqori baholangan?
8. Yurtimizda bank-kredit tizimini liberallashtirishda muhim qadam bo'lgan voqeani ayting?
9. YIMning yuqori sur'atlarda o'sishiga sabab bo'lgan omillarni sanab bering?
10. O'zbekiston Respublikasida xorijiy investitsiyalarning kiritilishi haqida ma'lumot bering?

Testlar

1. "Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishni davlat yo'li bilan qo'llab-quvvatlash chora tadbirlari to'g'risida"gi qonun qachon qabul qilingan?
A) 1996-yil 3-aprel B) 1998-yil 3-may

- C) 1999-yil 5-iyun D) 1997-yil 3-avgust
2. Nima sababdan mustaqillikning dastlabki yillaridanoq qishloq xo'jaligiga alohida ahamiyat qaratildi?
- A) valuta tushumining 60% yalpi mahsulot muomalasi ning 70% i qishloq xo'jaligiga to'g'ri keladi
 B) yalpi mahsulot muomalasining 40% i qishloq xo'jaligiga to'g'ri keladi
 C) valuta tushumining 80% i qishloq xo'jaligiga to'g'ri keladi
 D) yalpi mahsulot muomalasi ning 90%i va valuta tushumining 70% i qishloq xo'jaligiga to'g'ri keladi.
3. Davlat mulkini boshqarish va xususiylashtirish davlat qo'mitasi tuzilgani ko'rsatilgan javobni aniqlang?
- A) 1992-yil iyun B) 1992-yil avgust
 C) 1992-yil oktabr D) 1992-yil dekabr
4. Iqtisodiy taraqqiyotda bozor munosabatlarini nechta xil yo'li namoyon bo'ldi
- A) 2 B) 3 C) 4 D) 5
5. Tovar va xomashyo bozoriga xizmat qiluvchi infratuzilmalarni aniqlang? 1) savdo uylari 2) transport 3) bahklar 4) auksionlar 5) birjalar 6) sug'urta kompaniyalari 7) pul jamg'armalari
- A) 1,4,5 B) 2,3,6 C) 1,3,7 D) 1,2,3,4,5,6,7
6. Respublikamizda banklar soni 40 taga yetgan yilni aniqlang?
- A) 1998-yil B) 1999-yil C) 2001-yil D) 2002-yil
7. Respublikamizda biokimyoviy zavodlar barpo etilgan shaharlarni aniqlang?
- 1) Qo'ng'iro't 2) Andijon 3) Qo'qon 4) Termiz 5) Jomboy 6) Yangiyo'l 7) Baxt
- A) 1,2,5 B) 3,6 C) 3,5,7 D) 2,4
8. Tajan-Seraks-Mashhad temiryo'li foydalanishga topshirilgan yilni aniqlang?
- A) 1996-yil B) 1997-yil C) 1998-yil D) 1999-yil
9. O'zbekiston "SamKochavto" qo'shma korxonasi qaysi davlat bilan hamkorlikda bunyod etgan edi
- A) Janubiy Koreya B) Germaniya
 C) Turkiya D) Yaponiya
10. Respublikamizda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarga asos bo'lgan to'rtinchi tamoyilni aniqlang?
- A) kuchli ijtimoiy siyosat yuritish
 B) davlat bosh islohotchi
 C) qonun ustivorligi
 D) islohotlarni bosqichma-bosqich amalga oshirish

10-Mavzu: Mustaqillik yillarida O‘zbekistonda irrigatsiya sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar

Reja:

1. Mustaqillik yillarida O‘zbekistonda irrigatsiya sohasini rivojlantirishga yo‘naltirilgan strategik vazifalar
2. Mustaqillik yillarida irrigatsiya sohasida huquqiy asoslarning yaratilishi
3. Irrigator kadrlar tayyorlashdagi innovatsiyalar va ularning ahamiyati

Darsning o‘quv maqsadi: *Talabalarga mustaqillik yillarida O‘zbekistonda irrigatsiya sohasini rivojlantirishga yo‘naltirilgan strategik vazifalar, irrigatsiya sohasida huquqiy asoslarning yaratilishi, mazmun-mohiyati, irrigator kadrlar tayyorlashdagi innovatsiyalar va ularning ahamiyati to‘g‘risida tushuntirish berish.*

Mavzu yuzasidan tayanch so‘z va iboralar: *O‘zbekiston, irrigatsiya sohasi, strategik vazifalar, huquqiy asoslar, Suv xo‘jaligi vazirligi, Suv xo‘jaligida kapital qurilish loyihalarini amalga oshirish agentligi, Toshkent irrigatsiya va qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti, o‘quv faoliyati va laboratoriyalar.*

Mustaqillik yillarida O‘zbekistonda irrigatsiya sohasini rivojlantirishga yo‘naltirilgan strategik vazifalar. Jahondagi globallashuv jarayonlari chuqurlashib borayotgan ayni paytda dunyo miqyosida irrigatsiya tizimini intensiv ravishda rivojlantirish, suv xo‘jaligini samarali boshqarish va sug‘orish infrastrukturasi takomillashtirish, dehqonchilikda agrotexnik tadbirlarni qo‘llash, sug‘orma yerlarning meliorativ holatini yaxshilash bo‘yicha innovatsiyalarni tatbiq etish, suv resurslaridan tejimli va oqilona tarzda foydalanish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ta’kidlash joizki, agrar va sanoat ishlab chiqarishi, ijtimoiy hayot rivojlanishining asosini, shubhasiz, suv xo‘jaligi tizimi tashkil etadi. Zero, qishloq xo‘jaligi va iqtisodiyotning taraqqiy etishi bevosita irrigatsiya-melioratsiya sohalari bilan uzviy bog‘liqdir.

Bugungi kunga kelib, jahon miqyosida qishloq va suv xo‘jaligi sohasini tadqiq etish ilmiy markazlarida sug‘orish tizimi hamda melioratsiya tarixini o‘rganish bo‘yicha muayyan darajada izlanishlar olib borilmoqda. Shu bilan birga, XXI asrda Markaziy Osiyo hududi ijtimoiy-iqtisodiy hayot jabhasi uchun ham qayd etilgan tadqiqot ishi muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ta’kidlab o‘tilgan mavzuga aloqador bo‘lgan tarixiy voqea-hodisalarga qiyosiy-tahliliy jihatdan baho berish, uning mintaqaviy xususiyatlarini aniqlash, mintaqada davlatlari sug‘orish tizimida amalga oshirilgan transformatsiya jarayonlarini inobatga olgan holda muammoga doir yechimini kutayotgan masalalarga e’tiborni kuchaytirish zaruriyatini ham keltirib chiqarmoqda.

Mustaqillik yillarida asosan, 1. Mustaqillikning dastlabki yillarida iqtisodiyotning agrar sohasida amalga oshirilgan islohatlar natijasi. 2. O‘zbekistonda

mavjud irrigatsiya va melioratsiya sohasiga oid ob'ektlarning rekonstruksiya qilinishi, ta'mirlanishi va tozalanishi. 3. Respublikada yer-suv resurslaridan samarali va oqilona foydalanish hamda sug'oriladigan yerlarning meliorativ holatini yanada yaxshilashga yo'g'rilgan davlat siyosatning mazmun va mohiyati. 4. Respublika suv xo'jaliklarining zamonaviy texnika vositalari hamda mutaxassis kadrlar bilan ta'minlanganligi.

Mustaqillik yillarida irrigatsiya va melioratsiya sohasida qator islohotlar amalga oshirilib kelmoqda. Mustaqillik yillarida O'zbekistonda irrigatsiya va melioratsiya rivojlanishining huquqiy asoslari yaratildi.

Irrigatsiya va melioratsiya bo'yicha davlat dasturlarini bajarishdagi ustuvor vazifalariga quyidagilar kiritildi.

1. Suv resurslarini oqilona boshqarish va ulardan samarali foydalanish.
2. Meliorativ ob'ektlarni rekonstruksiya qilish va qurish ishlari.
3. Meliorativ ob'ektlarni ta'mirlash va tiklash ishlari.
4. Suv xo'jaligi tashkilotlari va suv iste'molchilari uyushmalarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, melioratsiya texnikasi saroyini yangilash orqali yerlarning meliorativ holatini tubdan yaxshilashdan iboratdir.

Sug'oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash davlat dasturlari doirasida quyidagilar amalga oshirildi. Kuchli va o'rtacha sho'rlangan maydonlar 149,4 ming gektarga kamaydi, sizot suvlar sathi yer yuzasiga yaqin (2 metrgacha) joylashgan maydonlar 302,9 ming gektarga qisqardi, 897 ming ga dan ko'proq maydonning meliorativ holatini saqlash chora-tadbirlari amalga oshirildi, sug'oriladigan 1,3 million ga dan ko'proq yerlarning suv ta'minoti yaxshilandi. O'zbekistonda mustaqillikdan keyingi yillarda 180 ming km sug'orish tarmoqlari, 140 ming km kollektor-drenaj tarmoqlari, 47105 dona davlat hisobidagi suv xo'jaligi inshootlari, shundan 800 tasi yirik inshootlar, 134 ming dona Suv iste'molchilari uyushmasi va fermer xo'jaliklari hisobidagi gidrotexnik inshootlar, yillik elektr energiyasi sarfi 7,8-8,0 mlrd.kVt bo'lgan davlat hisobidagi 1693 dona nasos stansiyalari, suv iste'molchilari uyushmalari va fermer xo'jaliklari hisobidagi 9397 dona nasos agregatlari, umumiy hajmi 19,8 mlrd.m³ bo'lgan 55 ta suv omborlari, 5000 dan ortiq tik sug'orish quduqlari, shundan 900 donasi Suv iste'molchilari uyushmasi va fermer xo'jaliklari hisobidagi, 3787 ta tik drenaj quduqlari, 25 mingga yaqin kuzatuv quduqlari, 3777 ta turli xildagi meliorativ mashina va mexanizmlar, shu jumladan 1178 ta ekskavator va 320 ta buldozerlar mavjud.

Yerlarning meliorativ holati yomonlashishi natijasida, 2007-yilga kelib, jami qishloq xo'jaligi yerlari 25621,4 ming gektarni tashkil etgani holda, 1990 yilga nisbatan qariyb 9,9 % ga qisqargan. Lekin shu davrda o'tkazilgan islohotlar natijasida, ko'p yillik bog'lar, daraxtzorlar 2% ga ko'paygan, ekinzorlar aksincha 3,2 % ga, yaylov va pichanzorlar 10 % qisqargan. Bu davrda meliorativ texnikalarni chet ellardan sotib olish ko'paytirilib 2013-yilda 1544 donaga yetkazilgan. Bu davrdagi o'sish juda keskin bo'lib, yiliga o'rtacha 310 dona meliorativ texnikani tashkil qilgan.

2005-2018-yillarda qurilgan yirik gidrotexnik inshootlar: Jizzax viloyatidagi Arnasoy va Mirzacho'l tumanlaridagi 37 ming ga maydonlarni suv bilan ta'minlovchi umumiy quvvati 40 m³/s nasos stansiyalar bilan birga sig'imi 1000,0 mln.kub metr bo'lgan Arnasoy suv ombori, Namangan viloyatidagi 49,98 ming ga sug'oriladigan

maydonlarni suv ta'minotini ta'minlovchi sig'imi 300 mln.kub metr bo'lgan Rezaksoy suv ombori, 4,7 ming ga yerlarni o'zi oqar suv bilan ta'minlovchi sig'imi 44 mln.kub metr bo'lgan Jiydalisoy suv ombori, Navoiy viloyatidagi 1,1 ming ga sug'oriladigan maydonlarni suv ta'minotini ta'minlovchi sig'imi 7,5 mln.kub metr bo'lgan Ko'ksaroy suv ombori, Samarqand viloyatidagi "Aqchobsoy" va "Kamangaron" suv omborlari qurildi.

Keyingi yillarda mamlakatimizda atrof-muhitni muhofaza qilish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, ekologik muammolarni bartaraf etish, aholi salomatligini himoyalash masalalariga e'tibor yanada kuchayib, mazkur sohalarida ijobiy o'zgarishlar ro'y bermoqda.

Ayniqsa, mintaqadagi global ekologik muammo hisoblangan Orol fojiasi oqibatlarini yumshatish va Orolbo'yi mintaqasini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish,



hududning ekologik holatini sog'lomlashtirishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar ijrosini ta'minlashga jiddiy e'tibor qaratilmoqda. Darhaqiqat, Orol dengizi fojiasi natijasida suv resurslari tanqisligi, yer degradatsiyasi, cho'llanishning kuchayishi, bioxilma-xillikning keskin kamayishi va boshqa jiddiy iqlim o'zgarishlari tobora chuqurlashib borayotgani nafaqat mintaqamizdagi, balki dunyodagi ekologiya va atrof-muhit muhofazasiga befarq bo'lmagan har bir insonda jiddiy tashvish uyg'otmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-yanvardagi "Birlashgan Millatlar Tashkiloti shafeligida Orolbo'yi mintaqasi uchun Inson xavfsizligi bo'yicha ko'p tomonlama sheriklik Trast jamg'armasi faoliyatini qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori mazkur jamg'arma oldiga qo'yilgan asosiy vazifalarni amalga oshirish yo'lidagi muhim qadam bo'ldi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2018-yil 28-dekabr kuni Oliy Majlisga Murojaatnomasida barcha sohalar qatori ekologik xavfsizlik masalasiga ham e'tibor qaratdi. Jumladan, Yurtboshimiz "Har yili 100 million tonna qum va tuz havoga ko'tarilmoqda. Bu esa Orol halokati global muammo ekanini yana bir bor isbotlamoqda. Orol dengizining

suvsiz qolgan yerlarida yashil oʻrmonlar barpo etishga alohida eʼtibor bermoqdamiz... Qabul qilinayotgan maxsus dasturga koʻra, Orol dengizining suv osti hududida kelgusi yilning oʻzida yana 500 ming gektar oʻrmonzor barpo etiladi”, deya taʼkidlab oʻtgan edi. Ayni paytda bu borada quruq soʻz emas balki, amaliy harakatlar olib borilmoqda. Xususan, bugungi kunda Qoraqalpogʻiston Respublikasining Moʻynoq tumanida oʻrmonzorlar barpo etish boʻyicha alohida shtab tashkil etilib, ishlar jadallik bilan olib borilmoqda. Maʼlumotlarga qaraganda, bugungi kunga qadar Orolning qurigan tubida 150 ming gektarga yaqin maydonda saksovul urugʻlari ekilgan.

Mustaqillik yillarida irrigatsiya sohasida huquqiy asoslarning yaratilishi. Mustaqillik yillarida Oʻzbekistonda irrigatsiya va melioratsiya rivojlanishining huquqiy asoslari yaratildi. Jumladan, Oʻzbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 55-moddasida “Yer, yer osti boyliklari, suv, oʻsimlik va hayvonot dunyosi hamda boshqa tabiiy zaxiralar umummilliy boylikdir, ulardan oqilona foydalanish zarur va ular davlat muhofazasidadir” - deb belgilangan. “Suv va suvdan foydalanish” toʻgʻrisidagi Oʻzbekiston Respublikasi qonunida esa, suvga doir munosabatlarni tartibga solish, suvdan oqilona foydalanish, bulgʻanish, kamayib ketishdan saqlash, uning zararli taʼsirini oldini olish, suvga doir munosabatlar sohasida korxonalar, tashkilotlar, dehqon va fermer xoʻjaliklari va fuqarolarning huquqlarini himoya qiladi.

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 29.10.2007-yil PF-3932 sonli Farmoni “Yerlarning meliorativ xolatini yaxshilash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari toʻgʻrisidagi”, “Oʻzbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi sugʻoriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash jamgʻarmasi faoliyatini tashkil etish toʻgʻrisida” gi PQ-718-sonli Qarori (31.10.2007), “2008-2012 yillarda sugʻoriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash davlat dasturi toʻgʻrisida”gi PQ-817-sonli Qarori (19.03.2008), “2013-2017 yillar davrida sugʻoriladigan yerlarning meliorativ holatini yanada yaxshilash va suv resurslaridan samarali foydalanish boʻyicha chora-tadbirlar toʻgʻrisida”gi PQ-1958-sonli Qarori (19.04.2013), “2018-2019 yillarda irrigatsiyani rivojlantirish va sugʻoriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash davlat dasturi toʻgʻrisida”gi PQ-3405-sonli Qarori (27.11.2017), “Paxta xom ashyosini yetishtirishda tomchilatib sugʻorish texnologiyalaridan keng foydalanish uchun qulay shart-sharoitlar yaratishga oid kechiktirib boʻlmaydigan chora-tadbirlar toʻgʻrisida” gi PQ-4087-sonli Qarori (27.12.2018) kabi qarorlar qabul qilingan.

Mustaqillik yillarida Oʻzbekistonda irrigatsiya va melioratsiyani rivojlantirish boʻyicha davlat konsepsiyasi ishlab chiqildi va hal qiluvchi qarorlar hamda farmonlar qabul qilindi. “Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi «Oʻzbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish boʻyicha harakatlar strategiyasi toʻgʻrisida»gi PF-4947-sonli Farmoni, 2017-yil 24-maydagi «Qishloq va suv xoʻjaligi tarmoqlari uchun muhandis-texnik kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida»gi PQ-3003-sonli, 2019-yil 6-sentabrdagi «Professional taʼlim tizimini yanada takomillashtirishga doir qoʻshimcha chora-tadbirlar toʻgʻrisida»gi PF-5812-sonli Farmon va Qarorlari hamda sohaga oid boshqa meʼyoriy-huquqiy hujjatlarda xam Oʻzbekistonda irrigatsiya va melioratsiyani rivojlantirishga yoʻnaltirilgan strategik vazifalari aniq belgilab berildi. Jumladan,

Respublikani rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasida belgilab berilgan vazifalarda sug‘oriladigan yerlarni meliorativ holatini yanada yaxshilash, irrigatsiya va melioratsiya ob‘ektlarini rivojlantirish hamda suv resurslaridan oqilona tejamli foydalanishga katta e‘tibor qaratilmoqda.

2013-yil 19-aprelda qabul qilingan “2013-2017-yillar davrida sug‘oriladigan yerlarning meliorativ holatini yanada yaxshilash va suv resurslaridan oqilona foydalanish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorda ham qator ustuvor vazifalar belgilab berilgan. Xususan, sug‘oriladigan yerlarni meliorativ yaxshilash va suvni tejaydigan texnologiyalarni joriy etish bo‘yicha loyihalarning har yilgi ro‘yxati shakllantirilishi va tasdiqlanishini, zarur hollarda, mazkur qaror bilan tasdiqlangan Davlat dasturida nazarda tutilgan umumiy parametrlar doirasida ularga yil davomida o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritilishini;

Davlat dasturining tasdiqlangan parametrlari amalga oshirilishi to‘g‘risida davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlari, mahalliy ijro etuvchi hokimiyat hamda boshqa tashkilotlar rahbarlarining hisobotlarini har chorakda tinglagan holda, davlat dasturida nazarda tutilgan chora-tadbirlarni amalda ro‘yobga chiqarish bo‘yicha faoliyati samarali monitoring qilinishi va muvofiqlashtirilishini ta‘minlash, davlat dasturining tasdiqlangan parametrlari amalga oshirilishi to‘g‘risida davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlari, mahalliy ijro etuvchi hokimiyat hamda boshqa tashkilotlar rahbarlarining hisobotlarini har chorakda tinglagan holda, Davlat dasturida nazarda tutilgan chora-tadbirlarni amalda ro‘yobga chiqarish bo‘yicha faoliyati samarali monitoring qilinishi va muvofiqlashtirilishini ta‘minlash kabi vazifalar belgilab berildi.

2021-yil 7-aprelda kuchga kirgan “O‘zbekiston Respublikasi Suv xo‘jaligi vazirligi faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarorida ham sohani rivojlantirish bo‘yicha qator ishlar belgilab berilgan. Qaror asosida Suv xo‘jaligi vaziriga zarur hollarda, Suv xo‘jaligi vazirligi markaziy apparati, shuningdek, hududiy bo‘linmalar, tizimdagi tashkilotlar tuzilmalariga boshqaruv xodimlarining umumiy cheklangan soni doirasida o‘zgartirish kiritish, yirik gidrotexnika inshootlarining, eng avvalo, loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqishda, qurilishida va ekspluatatsiya ishlari olib borilishida xavfsizlik choralari ko‘rilishi yuzasidan buyurtmachi, loyiha va pudrat tashkilotlari hamda suv xo‘jaligi obyektlaridan foydalanuvchi tashkilotlarning javobgarligini oshirish vazifalarini belgilash, yuklatilgan vazifalarni bajarish doirasida davlat organlari va boshqa tashkilotlar, ilmiy-tadqiqot va ta‘lim muassasalari, shuningdek, xalqaro tashkilotlar va xorijiy kompaniyalarning yuqori malakali mutaxassislarini maslahatchi sifatida jalb etish huquqlari berildi.

O‘zbekiston Respublikasi Suv xo‘jaligi vazirligi huzuridagi Suv xo‘jaligida kapital qurilish loyihalarini amalga oshirish agentligining asosiy vazifalari va faoliyat yo‘nalishlari ham belgilab berildi: suv xo‘jaligida kapital qurilish tizimini takomillashtirishga qaratilgan ustuvor investitsiya loyihalarini oshkoralik asosida tanlash, ularning yillik, qisqa va uzoq muddatli dasturlarini ishlab chiqish; suv xo‘jaligida kapital qurilish loyihalarining manzilli ro‘yxatlarini belgilangan tartibda tegishli vazirlik va idoralar bilan kelishilgan holda tasdiqlash; suv xo‘jaligi obyektlarini qurish, rekonstruksiya qilish va ta‘mirlash-tiklash ishlari bo‘yicha

loyiha-smeta hujjatlari belgilangan tartibda ishlab chiqilishi, ekspertizadan o'tkazilishi va bosh pudrat tashkilotlarini tanlov (tender) asosida aniqlashni hamda tegishli shartnomalar rasmiylashtirishni tashkil qilish; suv omborlari va boshqa toifalangan suv xo'jaligi obyektlarini qurish va rekonstruksiya qilish loyihalarini ishlab chiqish hamda ekspertiza qilish, shuningdek, ularning xavfsizlik mezonlarini ishlab chiqishga xorijiy mutaxassislarni jalb qilish; kapital qurilish loyihalarini amalga oshirish yuzasidan tizimli monitoring yuritish, shuningdek, buyurtmachi va pudrat tashkilotlari tomonidan shaharsozlik normalari va qoidalari talablariga rioya etilishini ta'minlash, loyihalarni amalga oshirish jarayonida yuzaga kelgan muammolarni bartaraf etish choralari ko'rish. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Suv xo'jaligi vazirligi huzuridagi Suv xo'jaligida xorijiy investitsiya loyihalarini amalga oshirish markazining asosiy vazifalari va faoliyat yo'nalishlari ham belgilangan:

suv xo'jaligi tizimini takomillashtirishga qaratilgan xorijiy investitsiya loyihalarini, shu jumladan xalqaro moliya institutlari va xorijiy hukumat moliya tashkilotlarining (keyingi o'rinlarda - XMI va XHMT) mablag'lari ishtirokidagi ustuvor investitsiya loyihalarini oshkoralik asosida tanlash, ularning qisqa va uzoq muddatli dasturlarini ishlab chiqish va shakllantirish;

suv xo'jaligi sohasidagi xorijiy investitsiya loyihalarini amalga oshirish uchun XMI va XHMT mablag'larini jalb qilish;

XMI va XHMT mablag'lari ishtirokidagi xorijiy investitsiya loyihalari manzilli ro'yxatlari belgilangan tartibda tasdiqlanishini tashkil qilish;

suv xo'jaligi sohasidagi xorijiy, shu jumladan XMI va XHMT mablag'lari ishtirokidagi investitsiya loyihalarini amalga oshirish;

suv xo'jaligi sohasidagi xorijiy, shu jumladan XMI va XHMT ishtirokidagi investitsiya loyihalarini amalga oshirish bo'yicha tender savdolari asosida bosh pudrat tashkilotlarini belgilangan tartibda aniqlash hamda tegishli shartnomalarni rasmiylashtirish;

loyihalar va subloyihalar amalga oshirilishining tizimli monitoringini olib borish, shuningdek, buyurtmachi va pudratchi tashkilotlar tomonidan shaharsozlik normalari va qoidalari talablariga rioya etilishini ta'minlash.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 10-iyuldagi "O'zbekiston Respublikasi suv xo'jaligini rivojlantirishning 2020-2030-yillarga mo'ljallangan konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-6024-son Farmoniga muvofiq O'zbekiston Respublikasida suv resurslarini boshqarish va irrigatsiya sektorini rivojlantirishning 2021-2023-yillarga mo'ljallangan strategiyasi ishlab chiqildi. Strategiya mamlakatning suv resurslarini barqaror boshqarish va irrigatsiya sektorini takomillashtirishni qamrab oladigan bir qator infratuzilmaviy, siyosiy, institutsional va salohiyatni rivojlantirish choralari o'z ichiga oladi, uning doirasida irrigatsiya tizimi kanallarining beton qoplamali qismi 35 foizdan 38 foizgacha oshishi, irrigatsiya tizimi va sug'orish tarmoqlarining foydali ish koeffitsiyenti 0,63 dan 0,66 gacha oshishi, suv ta'minoti darajasi past bo'lgan sug'oriladigan maydonlar 526 ming gektardan 424 ming gektargacha kamaytirilishi, Suv xo'jaligi vazirligi tizimidagi nasos stansiyalaridagi 518 ta nasos agregati va 807 ta elektrodvigatel zamonaviy energiya tejamkorlariga almashtirilishi, ularning yillik elektr energiyasi iste'moli 7,6

mlrd kVt.sdan 7,15 mlrd kVt.s gacha kamaytirilishi, suvni tejaydigan sug'orish texnologiyalarini joriy qilish 308 ming gektardan 1,1 mln gektargacha, shu jumladan tomchilatib sug'orish texnologiyasi 121 ming gektardan 822 ming gektargacha yetkazilishi, sho'rlangan maydonlar 1 926 ming gektardan 1 888 ming gektarga, shu jumladan o'rtacha va kuchli darajada sho'rlangan yerlar 581 ming gektardan 532 ming gektargacha qisqartirilishi, yer osti suv sathi muammoli holatda (0 - 2 metr) bo'lgan sug'oriladigan yer maydonlari 988 ming gektardan 900 ming gektargacha kamaytirilishi, qishloq xo'jaligida foydalanishdan chiqib ketgan jami 232 ming gektar sug'oriladigan yer maydonlari qayta foydalanishga kiritilishi, daryo va soylarda 6 ta gidrologik post qurilishi va qayta tiklanishi, 6 ta gidrologik post raqamli texnologiyalar asosida avtomatlashtirilgan uskunar bilan jihozlanishi, "Smart Water" ("Aqlli suv") raqamli texnologiyasi asosida suvning hisobi yuritiladigan suv xo'jaligi obyektlari soni 18 576 tagacha yetkazilishi, 60 ta yirik suv xo'jaligi obyekti raqamli texnologiyalar asosida avtomatlashtirilgan boshqaruvga o'tkazilishi, Suv xo'jaligi vazirligi tizimidagi 1 688 ta nasos stansiyasidagi 5 231 ta nasos agregatining elektr energiyasi iste'moli va suv sarfi hisobining monitoringi "onlayn" rejimda olib borilishi, mavjud meliorativ kuzatuv quduqlarining 2 100 tasida raqamli texnologiyalar orqali monitoring olib borilishi, suv xo'jaligida davlat-xususiy sheriklik tamoyillari asosida jami 124 ta loyiha amalga oshirilishi, sug'orish uchun suv yetkazib berish xarajatlarining 9 foizi suv iste'molchilari tomonidan qoplanishi ta'minlanadi.

Irrigator kadrlar tayyorlashdagi innovatsiyalar va ularning ahamiyati. Istiqlolning ilk bosqichi va bozor iqtisodiyotiga o'tish davrining dastlabki yillaridagi ba'zi iqtisodiy qiyinchiliklarga qaramay, institut qishloq va suv xo'jaligi sohasi bo'yicha muhandis kadrlar tayyorlashda ko'plab ijobiy natijalarga erishdi. Ayni shu davrda Ta'lim to'g'risidagi, Kadrlar tayyorlash Milliy Dasturi to'g'risidagi, Yer kodeksi, Fermer xo'jaliklari to'g'risidagi, Suv va suvdan foydalanish to'g'risidagi Qonunlar, Oliy ta'limning Davlat ta'lim standarti qabul qilindi. 2 bosqichli oliy ta'lim tizimiga o'tildi.

O'zbekiston Respublikasi mustaqilligi munosabati bilan ilmiy- tekshirish ishlarining 1991-1995-yillar uchun mo'ljallangan rejalari tuzildi. Keyingi yillarda bu rejalalar asosida ilmiy-tadqiqot ishlari olib borish davom etdi. Istiqlolning dastlabki yillarida Respublikamizning bozor iqtisodiyoti tomon yuz tutishi sababli yerga munosabatlarning o'zgarayotganligi o'quv rejalari qayta ko'rib chiqishni, shu bilan bir qatorda yangi ixtisosliklarni ochishni talab qildi.

Bo'lajak muhandislarning bilimi mustahkamlanib borildi. Mazkur mashg'ulotlar asosan, Toshkent viloyati O'rta Chirchiq tumanidagi Kirov nomli davlat xo'jaligi yerlaridan 2471 gektar yer ajratilib tashkil qilingan Toshkent irrigatsiyalash va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalashtirish muhandislari o'quv-tajriba xo'jaligida o'tkazildi.

Istiqlol davridagi o'zgarishlar va bozor iqtisodiyotiga o'tish sharoitida respublikamizning kelajagi, uning har tomonlama taraqqiy etishi mutaxassislarining ma'naviy barkamolligi, zukkoligi va yetuk malakaga ega ekanligiga bog'liq bo'ldi. Bu o'z navbatida o'quv tizimining tubdan o'zgartirilishi, shuningdek oliy o'quv yurtigacha bo'lgan tayergarlikni kuchaytirishni talab etardi. Shuning uchun,

abituriyenglar o'quvi sifatini yaxshilash maqsadida institut qoshida ikki yillik litsey tashkil etildi.

1993-yili TIQXMMI qoshida "Interneshnl-Xaus-O'zbekiston" (IXU) deb nomlangan yangi yo'nalishdagi umumta'lim maktabi ish boshladi. Bu maktab o'z faoliyatini vatanimizdagi va chet ellardagi diqqatga sazovor bo'lgan tajribalarni amalda qo'llab kelmoqda. IXU ta'limi yo'nalishga umumiy ta'lim fanlari, iqtisod va huquq asoslari, ingliz tilini o'rganish va kompyuter bilan ishlashga tayyorlash kabilar kiradi. EHMLardan o'quv jarayonida keng foydalanish talabalar o'zlashtirishining keskin sur'atda oshishiga olib keldi. O'quv markazlarida va fakultetlarda zamonaviy kompyuterlar bilan jihozlangan sinflar tashkil etildi.

Istiqlol yillarida institut xodimlari yuksak muvaffaqiyatlarni qo'lga kiritdilar, mustaqil O'zbekiston respublikasining iqtisodiy, ilmiy- texnik o'sishiga muayyan hissa qo'shdilar. Institut o'z faoliyatini O'zbekiston Respublikasi Melioratsiya va suv xo'jaligi vazirligi tarkibida olib bordi va bu davrda institutning moddiy-texnika va o'quv bazasi yanada mustahkamlandi, mutaxassislar tayyorlash uslublari o'zlashtirildi professor-o'qituvchilar tizimining hamda talabalarning madaniy-maishiy sharoiti yaxshilandi. O'quv faoliyati va laboratoriyalar uchun zarur bo'lgan to'qqiz qavatli bino qurilib, ishga tushirildi, 21400 o'rinli beshta yotoqxonona, 221 xonali to'rtta yashash uylari, 500 kishi ovqatlanadigan oshxonalar qurildi.

Institut zamonaviy o'quv va ilmiy-tajriba, moddiy manbaga, umumiy foydalaniladigan maydoni 110 ming kv.m. bo'lgan hashamatli o'quv-amaliy bo'linmalari joylashgan binolarga ega bo'ldi. Ana shu tajriba laboratoriyalari bugungi kun talabiga javob bera oladigan asbob-uskunalar bilan jihozlandi. O'quv jarayonini takomillashtirish maqsadida hozirgi zamon kompyuter tizimi qo'llanila boshladi. Sinovdan o'tkazilgan besh tizimlar to'plami ishlab chiqilib (ASU-VUZ) tadbiq etildi.

Talabalarning har tomonlama, umumilmiy va maxsus tayyorgarliklarini yaxshilash maqsadida 1991-yili O'zbekiston Respublikasi Melioratsiya va suv xo'jaligi vazirligining buyrug'iga binoan institutda Umummuhandislik o'quv markazi (UMO'M), Irrigatsiya muxandislari tayyorlash o'quv-ilmiy markazi (IMTO'IM) va Qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalashtirish muxandislari tayyorlash o'quv-ilmiy markazi (QXMMTO'IM) tashkil topdi. Markazlar bilan bir qatorda Qishloq xo'jaligini elektrlashtirish va avtomatlashtirish, Yer tuzish, Suv xo'jaligi iqtisodi va uni tashkil etish fakultetlari tuzildi. O'rta bo'g'in mutaxassislariga bo'lgan ehtiyoj katta bo'lganligi sababli institutimizda 1992-yili fermerlar tayyorlaydigan maxsus bo'lim tashkil etildi.

1994-yilda institutdagi 50 kafedrada faoliyat ko'rsatayotgan olimlar qishloq va suv xo'jaligi sohasida fan-texnika jarayonini yuksaltirish uchun Ilmiy-tadqiqot ishlarini olib bordilar. Bu kafedralarda 643 ta yuqori malakali pedagoglar faoliyat ko'rsatdilar. Profesor-o'qituvchilar tarkibida 43 professor, 319 fan nomzodlari - dotsentlar bor edi. Mustaqillikning dastlabki o'n yili ichida 14 ta ixtisoslik bo'yicha 876 aspirant aspiranturada o'qidi. Melioratsiya va sug'orma dexqonchilik hamda Qishloq xo'jaligini elektrlashtirish bo'yicha institutda doktorlik hamda nomzodlik dissertatsiyalari yoqlash uchun Maxsus Kengash ishlashni boshladi. 1993-yili 28 dissertatsiya yoqlangan bo'lsa, shundan 3 tasi doktorlikdissertatsiyasidir.

Bu davrda professor-o'qituvchilar tarkibining malakasini oshirishga katta ahamiyat berildi. O'zbekiston respublikasi Vazirlar mahkamasining 1993-yil 5-iyundagi 270-sonli Qaroriga asosan 2-3 yilda bir marotaba Toshkent texnika universiteti qoshidagi oliy muhandis-pedagoglar institutida va Toshkent davlat universiteti qoshidagi malaka oshirish institutida, bulardan tashqari o'qituvchilarning qolganlari ilmiy-tadqiqot institutlarida hamda ilg'or xo'jaliklarda bilim-saviyalarini oshirishlari tizimi shakllandi.

Xalqaro hamkorlikka hissa qo'shgan holda, institut oliy o'quv yurtining yetakchi olimlari chet ellik o'quvchilar uchun alohida fanlardan, ayrim murakkab bo'limlar bo'yicha o'quv qo'llanmalari tayyorladilar. Ular uchun har yili Osiyo va Afrika mamlakatlari mintaqa xususiyatlarini hisobga olgan holda qishloq xo'jalik ishlab chiqarishini mexanizatsiyalash, irrigatsiya va melioratsiyaning dolzarb muammolari bo'yicha maxsus kurslar o'qildi. Oliy o'quv yurtining bunday muvaffaqiyatlarga erishishiga turli yillarda institut rektori lavozimida ishlagan prof. S.P.Po'latov (1961-1978), prof. S.I.Iskandarov (1978-1986), akademik O.U.Salimov (1986-1992), o'z mehnatlari bilan munosib hissa qo'shdilar.

Institutda ilmiy sohalar bo'yicha chet davlatlar bilan bo'lgan aloqalar yanada kengaydi, ilmiy hamkorlik haqida AQSHning Ayova va Missisipi shtatlaridagi universitetlar, Nebraska shtatidagi kollej, Buyuk Britaniyaning Eydj Xill kolleji kabi o'quv yurtlari bilan memarandumlar imzolandi, Jahon bankini iqtisodiy rivojlantirish masalalariga bagishlangan anjumanida institut olimlari ishtirok etishdi, o'z navbatida institutga Missisipi shtati Universitetning olimlaridan professorlar G.Smit, O.Klivlend va D.Uokerlar kelishdi. Ular o'qituvchilar va yuqori bosqich talabalari uchun ma'ruzalar o'qishdi.

Mustaqillik yillarida institutda mutaxassislarni malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash faoliyatiga katta e'tibor berildi. Malaka oshirish fakulteti 1995-yilga kelib quyidagi asosda ish olib bordi. TIQXMMIga Samarqand, Qarshi, Andijon, Nukus, Guliston, Buxoro va boshqa shaharlardagi oliy o'quv yurtlaridan ham agrosanoat- birlashmasi xodimlari va melioratsiya ham suv xo'jaligi mutaxassislari, vazirlik qishloq xo'jalik mutaxassislari, agrosanoat birlashmasi rahbarlari va mutaxassislari malaka oshirish uchun keldilar. O'zbekiston Respublikasi Melioratsiya va suv xo'jaligi vazirligi tasdiqlagan o'quv dasturi ko'rsatmasiga binoan o'quv mashg'ulotlari ishlab chiqarishdan ajralgan holda olib borildi. Qishloq xo'jaligi sohasi xodimlaridan 1720 nafar, melioratsiya va suv xo'jaligi vazirligidai 540 xodim va boshqa tashkilotlardai 2130 xodim malaka oshirishdan o'tdilar.

Mustaqillik davrida o'quv-tajriba xo'jaligi salmoqli yutuqlarga erishdi. Bundan tashqari gidrotexnika ishlaridan va qishloq xo'jalik mashinalaridan foydalanish bo'yicha xizmat ko'rsatish shirkatlari tuzilib, ular ham dehqonlarga ma'lum haq evaziga shartnoma asosida ishlarini bajarib berganlar. Agronomlik, zootexnik, iqtisodchilik va boshqa vazifalar bo'yicha ham xizmat ko'rsatish shirkati tuzilgan. Ilmiy ishlar, tajriba o'tkaziladigan joylar ham ajratilgan, olimlar tomonidan yaratilgan fan yangiliklarini sinab ko'rish uchun alohida 16 gektarlik maydon belgilangan. Bundan tashqari har bir ishlab chiqarish shirkatiga berkitib qo'yilgan yerlardan 5-10 gektari olimlar, aspirantlar, talabalar tomonidan ochilgan kashfiyotlarni sinab ko'rish uchun ajratib berildi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi 1997-yil 10-mart farmoniga muvofiq respublikada kadrlar tayrlash bo‘yicha milliy dastur ustida ish olib borildi. Milliy dastur tuzish uchun belgilangan tamoyillarning asoslaridan yoshlarga milliy uyg‘onish va umuminsoniy qadriyatlarni idrok etish mafkurasi asosida Vatanga mehr-muxabbat, mustaqillik ideallariga sadoqat ruhida ta‘lim tarbiya berish belgilangan. Kadrlar tayyorlash masalasi ma‘naviyat bilan bog‘liqligi va qolaversa o‘quvchilarga ma‘naviyat asoslarini necha yoshdan o‘rgatish zarurligi xaqida to‘xtab o‘tildi. Bu esa yoshlarni mustaqil fikrlovchi inson darajasida tarbiyalash va shu asosda ularni Vatanga fidoiy insonlar qilib yetishtirish muqaddas vazifa deb belgilandi.

Institut tarkibida 1997-1998-o‘quv yilida 7 fakultet mavjud bo‘lib, bularning 5 tasi kunduzgi ta‘lim talabalariga taaluqli bo‘lsa, 2 tasi sirtqi ta‘lim talabalari hamda horijiy talabalar bilan ishlash va malaka oshirish fakultetlari edi. Institutning tarkibida ikki litsey bo‘lib, ulardan biri o‘quvchilarni uch yil mobaynida umumta‘lim sikli bo‘yicha bepul o‘qitib, institutimiz va boshqa texnika oliy o‘quv yurtlariga kirishga tayyorlasa, ikkinchisi xalqaro ingliz tili “Interneshnl-Xaus-London” institutining filiali xisoblanib, o‘quvchilarga ikki yil mobaynida iqtisodiy, huquqiy bilimlar berib ingliz tilini o‘rgatdi. 1997-1998-o‘quv yilidan boshlab institutda kichik kasblar beruvchi kasb litseyi ochilib, faoliyat ko‘rsata boshladi.

Xalqaro aloqalarni rivojlantirish va malaka oshirish departamentining 1998-1999-o‘quv yilida bajargan ishlari: 1998-1999-o‘quv yilida “Kamminz” o‘quv kursi bo‘yicha 205 nafar tinglovchilar bilim olib malaka oshirgan bo‘lsalar, bulardan: 5-f shartnomasi bo‘yicha – 159 nafar tinglovchi; Aeroport Toshkent SSS – 6 nafar tinglovchi; “S” seriyasi bo‘yicha – 24 nafar tinglovchi; ToshORMZ bo‘yicha – 6 nafar tinglovchilarni tashkil etadi. “O‘zKeys Servis” qo‘shma o‘quv markazi bo‘yicha: Bir oylik kursda - 74 nafar tinglovchi; Bir haftalik kursda - 79 nafar tinglovchilar malaka oshirganlar. “Yer tuzish va kadastr” o‘quv kursida - 15 nafar tinglovchilar malaka oshirdilar. Kurs ikki haftaga mo‘ljallangan. Chet tilini o‘rganish kurslarida - 127 nafar tinglovchilar bilim oldilar. Ushbu kurslar bir oylik hamda 6 oylardan iborat bo‘lgan. Kompyuter kurslarida hisobot yilida 200 nafar tinglovchilar saboq olganlar.

Mamlakat ta‘lim tizimining barcha bosqichlari kabi, ushbu yo‘nalishda ham kadrlar tayyorlash milliy dasturini muvaffaqiyatli hamda sifatli bajarilishini ta‘minlash maqsadida irrigatsiya sohasini salohiyatli, raqobatbardosh kadrlar bilan ta‘minlash, axborot bazalarini yanada mustahkamlashga alohida ahamiyat qaratildi.

Bu esa, o‘quv-tarbiya, o‘quv-tajriba jarayonini dala maydonlarida, xo‘jaliklarda, korxonalarda o‘tkazish, o‘quv jarayonini ilg‘or pedagogik texnologiyalar bilan to‘la ta‘minlash imkonini yaratdi. Ayni paytda mazkur sohada uzluksiz ta‘lim tizimini jahon axborot tarmog‘iga ulanadigan kompyuter axborot tarmog‘i bilan to‘liq qamrab olishni va boshqa talablarni sifatli bajarilishini ta‘minlashga xizmat qildi, albatta.

Maktabgacha ta‘lim muassasalari, maktablar va aholi o‘rtasida suvni muhofaza qilish, suv resurslaridan samarali va tejimli foydalanishni tashkil etish borasidagi huquqiy ongini va madaniyatni oshirish maqsadida ommaviy axborot vositalari orqali maktabgacha ta‘lim tashkilotlari, umumiy o‘rta ta‘lim maktablarida hamda aholi o‘rtasida keng targ‘ibot-tashviqot tadbirlari tashkil etiladi.

Respublikada irrigator kadrlar tayyorlashda asosiy oliygoh hisoblangan Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash injinerlari instituti 2004-yil 30-martda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining qarori bilan Toshkent irrigatsiya va melioratsiya institutiga aylantirildi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 24-maydagi PQ-3003- sonli qaroriga binoan Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari institutiga aylantirildi.

Keyingi yillarda cheklangan suv zaxiralaridan samarali foydalanish, qishloq xo'jaligi yerlari biofondini tiklash, sho'rlangan va eroziyaga uchragan maydonlarni qayta foydalanishga kiritish, ekotizimlar biologik xilma-xilligini saqlab qolish, "yashil energetika" va agrotexnologiyalar kabi muhim yo'nalishlarda ta'lim, ilmiy tadqiqot va ishlanmalar transferini samarali yo'lga qo'yish talab etilmoqda. Bunday dolzarb global muammolarni yechish uchun investitsiyalar va ilmiy tadqiqotlarni kengaytirish, raqamli texnologiyalarni keng joriy etish orqali ilmiy salohiyatni yangi bosqichga ko'tarish hamda ishlanmalarni amaliyotda qo'llashga qodir bo'lgan muhandislarni tayyorlash masalalari ustuvor ahamiyat kasb etadi.

Respublikada innovatsion ta'lim va texnologiyalar transferini qo'llab-quvvatlash tizimini yaratish, ta'lim va ishlab chiqarishni uzviy bog'lash, oliy ta'lim muassasalari faoliyat yo'nalishlarini tubdan takomillashtirish, ularning xalqaro nufuzini oshirish, samarali boshqaruv tizimini tashkil etish, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son farmoni bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida belgilangan vazifalar ijrosini izchil ta'minlash maqsadida 2021-yil 11-dekabrda Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti "Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti deb qayta nomlandi.



Quyidagilar universitetning asosiy faoliyat yo'nalishlari etib belgilandi:

- gidroenergetika, irrigatsiya tizimlarini boshqarish, suv xo'jaligi obektlari qurilishi, kadastr va geoinformatika, "yashil iqtisodiyot", "yashil energetika", ekologiya va atrof-muhit muhofazasi, qishloq xo'jaligi mashinasozligi, raqamli texnologiyalar tarmoqlari uchun oliy ma'lumotli muhandis kadrlarni tayyorlash;
- sug'orish tizimlari samaradorligini oshirish, tejamkor sug'orish texnologiyalarini yaratish, "raqamli qishloq xo'jaligi" va geoaxborot tizimlari asosida yerlarning meliorativ holatini baholashni yo'lga qo'yish hamda tuproq unumdorligini oshirishning takomillashgan usullarini ishlab chiqish;
- zamonaviy o'quv va ilmiy-laboratoriya bazasini shakllantirish, uni ilg'or texnologik asbob-uskunalar bilan jihozlash hamda sohani rivojlantirishga qaratilgan ilmiy-innovatsion tadqiqotlarni kengaytirish va ularning transferi bo'yicha samarali tizimni shakllantirish;

ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasidagi ilmiy tadqiqotlar natijadorligini oshirish, suv resurslarini hisobga olish va boshqarish tizimini takomillashtirish, gidrotexnika inshootlarini loyihalash, qurish va foydalanishni raqamlashtirish borasida ilmiy yechimlarni ishlab chiqish;

ilmiy va ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish bo'yicha uzluksiz ta'lim tizimini yaratish;

yetakchi xorijiy oliy ta'lim muassasalari bilan qo'shma ta'lim dasturlari va ilmiy loyihalarni joriy etish, Universitet professor-o'qituvchilarining malakasini oshirish, bitiruvchilarning respublika va xorijiy oliy ta'lim muassasalarida (ilmiy markazlarda) magistratura va doktorantura dasturlari bo'yicha tahsil olishlarini tashkil etish;

o'quv jarayonini talabalarda mustaqil ta'lim olish, tizimli tahlil qilish, ijodiy fikrlash va amaliy, jumladan, tadbirkorlik ko'nikmalarini shakllantirishga yo'naltirish;

o'quv jarayoniga xalqaro ta'lim standartlarini joriy etish, ta'lim va tadqiqotni uyg'unlashtirish orqali iqtisodiyot tarmoqlari uchun eng ilg'or innovatsion texnologiyalarni ishlab chiqish;

tasarrufidagi ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari faoliyatini muvofiqlashtirish, ularning moddiy-texnika bazasini mustahkamlash.

Universitet gidroenergetika, irrigatsiya, melioratsiya, qishloq xo'jaligida innovatsion texnika va texnologiyalar, suv tejevchi sug'orish texnologiyalari, qayta tiklanuvchi energiya manbalari, geodeziya va geoinformatika, ekologiya va atrof-muhit muhofazasi yo'nalishlarida kadrlar tayyorlovchi tayanch oliy ta'lim muassasasi hisoblanadi.

Respublikada qishloq va suv xo'jaligi uchun yuqori malakali kadrlar tayyorlash dolzarb masala hisoblanadi. Hozirda institutda 4860 dan ortiq talaba 18 ta'lim yo'nalishi, 15 magistratura mutaxassisliklari bo'yicha 5 ta fakultetda ta'lim olib kelmoqdalar. Institutda ularga 30 ta kafedrada 353 nafar malakali professor o'qituvchilar ta'lim berishib, ularning 31 nafari fan doktori professorlar, 157 nafari fan nomzodi dotsentlardir. Institut zamon talablariga javob beradigan to'rtta o'quv, uchta o'quv laboratoriya binolari, zamonaviy o'quv ilmiy markazlar, umumiy fondi 700 ming nusxaga yaqin axborot resurs markazi, 1200 o'rinli 3 ta talabalar uyi, 460 o'rinli talabalar oshxonasi va istirohat bog'iga ega. Institut jamoasining asosiy e'tibori ta'lim to'g'risidagi qonun va kadrlar tayyorlash milliy dasturining vazifalaridan kelib chiqib bozor iqtisodiyoti sharoitida suv xo'jaligi uchun yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlashga qaratilgan.

Xulosa qiladigan bo'lsak, mustaqillik yillarida respublikamizda suv xo'jali sohasini rivojlantirishda oliy va o'rta maxsus ma'lumotli suv xo'jaligi mutaxassislari bo'lgan talab ancha oshdi. Mutaxassislarning kasbiy bilim darajasi, zamonaviy texnikani boshqaruvi va uni ta'mirlashga oid tajribalari umumlashtirildi. Bu borada erishilgan yutuqlar, yuzaga kelgan xato va kamchiliklar doimiy ravishda o'rganildi. Suv xo'jaligi mutaxassislarni tayyorlash ishlari davr talabidan kelib chiqqan holda takomillashtirib borildi.

Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar

1. Mustaqillikning dastlabki yillarida fermer xo'jaligini rivojlantirish bo'yicha qanday islohotlar amalga oshirildi?
2. O'zbekiston mustaqillikka erishgach qishloq xo'jaligini isloh qilish bo'yicha mamlakatimiz dehqonlariga qanday yengilliklarni berdi?
3. Yurtimizda paxtachilikni rivojlantirish bo'yicha qanday strategiyalar ishlab chiqildi?
4. Nima sababdan mustaqillikning dastlabki yillaridanoq qishloq xo'jaligiga alohida ahamiyat qaratildi?
5. Yurtimizdagi qishloqlarda yangi ish o'rinlarini yaratish bo'yicha qanday chora-tadbirlar amalga oshirildi?
6. Mustaqillik yillarida qishloq aholisining salomatligini ta'minlash bo'yicha qanday vazifalar amalga oshirildi?
7. Vazirlar Mahkamasining qishloqlarni rivojlantirish bo'yicha qabul qilgan qaysi qarori ushbu sohada keskin o'zgarish yaratishga asos bo'ldi?
8. Hozirgi paytda respublikamizda qancha fermer xo'jaligi faoliyat ko'rsatmoqda va ularda qancha aholi ish bilan band?
9. Agrofirmalar haqida qanday ma'lumotlarni bilasiz?
10. Qishloq xo'jalik texnikasini rivojlantirish bo'yicha qanday islohotlar amalga oshirilgan?

Testlar

1. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash injenerlar instituti qachon Toshkent irrigatsiya va melioratsiya institutiga aylantirildi?
A) 2004-yil 30-mart B) 2006-yil 30-may
C) 2009-yil 30-iyun D) 2002-yil 20-aprel
2. O'zbekiston Respublikasi Kontitutsiyasining nechanchi moddasida "Yer, yer osti boyliklari suv, o'simlik hayvonot dunyosi va boshqa tabiiy zaxiralar umummilliy boylikdir, ulardan oqilona foydalanish zarur va ular davlat muhofazasidir." deyilgan?
A) 55-modda B) 66-modda C) 42-modda D) 78-modda
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007-yil 29-oktabrda qabul qilgan Farmonini belgilang.
A) "Yerlarning meliorativ holatini yaxshilash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"
B) "Paxta xomashyosini yetishtirishda tomchilab sug'orish texnologiyasidan foydalanish to'g'risida"
C) "O'zbekiston Respublikasi Suv xo'jaligi faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"
D) "2018-2019-yillarda irrigatsiyani rivojlantirish va sug'oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash davlat dasturi to'g'risida"
4. Samarqand viloyatida joylashgan suv omborlarini belgilang.
A) Aqchabsoy va Kamangaron B) Ko'ksaroy va Jiydalisoy
C) Rezaksoy va Ko'ksaroy D) Jiydalisoy va Rezaksoy

5. 2013-2017-yillarda sug'oriladigan yerlarning meliorativ holatini yanada yaxshilash va suv resurslaridan oqilona foydalanish to'g'risidagi" qaror qachon qabul qilingan?
A) 2013-yil 19-aprelda B) 2012-yil 18-aprelda
C) 2011-yil 20-may D) 2010-yil 29-iyun
6. TIQXMMI qoshida qachon "Interneshni-Xaus Uzbekiston" deb nomlangan umumta'lim maktabi ochilgan?
A) 1993-yil B) 1995-yil C)1997-yil D)1999-yil
7. Bugungi kunga qadar Orolning qurilgan tubida necha gektar maydonda saksovul urug'lari ekilgan?
A) 150 ming gektarga yaqin B) 130 ming gektarga yaqin
C) 110 ming gektarga yaqin D) 170 ming gektarga yaqin
8. "O'zbekiston Respublikasi Suv xo'jaligini rivojlantirishning 2020-2030-yilga mo'ljallangan konsepsiyani tasdiqlash to'g'risidagi" Farmon qachon qabul qilingan?
A) 2020-yil 10-iyul B) 2018-yil 20-iyul
C) 2019-yil 15-may D) 2018-yil 20-aprel
9. Prezident Shavkat Mirziyoyev Oliy Majlisga Murojaatnomasida ekologik xavfsizlik masalasiga alohida e'tibor qaratgan yilni aniqlang?
A) 2018-yil 28-dekabr B) 2019-yil 29-dekabr
C) 2020-yil 22-dekabr D) 2017-yil 26-dekabr
10. Irrigatsiya va melioratsiya bo'yicha davlat dasturlarini bajarishdagi ustuvor vazifalar nechta reja asosida olib boriladigan bo'ldi?
A. 3 ta B. 7 ta C. 10 ta D. 5 ta

11-Mavzu: O‘zbekiston Respublikasidagi ijtimoiy o‘zgarishlar.

Reja:

1. Mustaqillik arafasida respublikadagi ijtimoiy-iqtisodiy vaziyat.
2. Ijtimoiy-iqtisodiy sohada yangicha islohotlar.
3. Aholini ijtimoiy himoya qilish va sog‘liqni saqlash tizimini takomillashtirish.
4. Xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish hamda aholining hayot sharoitlari o‘zgartirish borasida amalga oshirilayotgan islohotlar.

Darsning o‘quv maqsadi: Talabalarga mustaqillik arafasida respublikadagi ijtimoiy-iqtisodiy vaziyat, ijtimoiy-iqtisodiy sohada yangicha islohotlar, ijtimoiy himoya va sog‘liqni saqlash tizimidagi islohotlar, xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish, insonlar hayot sharoitini yaxshilanishini ta‘minlovchi infratuzilma rivojlanishi hamda modernizatsiya qilinishi borasida atroflicha tushunchalar berish.

Tayanch so‘z va iboralar: Demografik vaziyat, ijtimoiy soha, aholining bandligi, ijtimoiy ta‘minot, Sog‘liqni saqlash tizimi, qishloq joylarda yangilangan namunaviy loyihalar, xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish.

Mustaqillik arafasida respublikadagi ijtimoiy-iqtisodiy vaziyat. XX asrda 70 yildan ko‘proq vaqt hukmron bo‘lgan, dunyo xaritasida “Sovet Sotsialistik Respublikalar Ittifoqi” degan nom bilan katta hududni egallagan, soxta kommunistik mafkuraga, ma‘muriy-buyruqbozlik tizimiga asoslangan yirik mamlakatdagi to‘g‘ri bo‘lmagan, samarasiz ijtimoiy-iqtisodiy siyosat 1980-yillarning oxiriga kelib barcha ittifoqdosh respublikalar qatorida O‘zbekiston aholisining ham yashash sharoitlarini og‘irlashtirib, uni ko‘plab muammolar iskanjasiga solib qo‘ydi.

XX asrning 80-yillari oxirida sobiq Ittifoqda vujudga kelgan ijtimoiy-iqtisodiy muammolar:

- Oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta‘minlash darajasining pasayib borishi;
- Transport, savdo, sog‘liqni saqlash, uy-joy qurilishi sohalaridagi xizmat ko‘rsatish sifatining pasayishi;
- Ko‘plab xalq iste‘moli mollari taqchilligining sezilarli oshib borishi;
- Mehnat rejimi va unga haq to‘lash, dam olish sharoitlarining yomonlashib borishi;
- Pulning tobora qadrsizlanib borishi;
- Davlat byudjetining kamomadi o‘shishi Ishlab chiqarish va mehnat intizomining keskin pasayib ketishi.

Bu muammolarning barchasi 1980-yillarning oxiri, 1990-yillarning boshlarida O‘zbekistonda ijtimoiy keskinlikning kuchayishiga sabab bo‘ldi. Xususan:

- respublikada demografik vaziyatning murakkablashdi. Statistik ma‘lumotlar tahlili aholi ro‘yxatga olingan davr oralig‘ida, ya‘ni 1979-1989 yillar davomida respublikada jami aholi soni 15379,4 ming kishidan 19810,0 ming kishiga yoki 28,8 foizga ko‘payganini ko‘rsatadi. Bu davrda aholining o‘rtacha yillik o‘shish sur‘ati 2,8 foizni tashkil qilgan. 1991 yilga kelib mamlakatda aholi soni 20,7 million kishidan ortib, 1990 yilga nisbatan 386,0 ming kishiga o‘sgan. Bu esa O‘zbekistonda aholining o‘shish sur‘atlari Ittifoq sur‘atlariga qaraganda uch barobardan ziyod yuqori bo‘lganini ko‘rsatadi. Biroq, aholining bunday o‘shishi uzoq yillar davomida sanoat va

iqtisodiyotning boshqa tarmoqlarida ish joylarini ko'paytirish hamda aholining hayot ta'minoti uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish bilan mustahkamlab borilmadi. Bu esa odamlar turmush sharoitining og'irlashuvi, ishsizlar sonining ko'payishi, ijtimoiy mehnat unumdorligi va aholi daromadlarining kamayishi, pirovard natijada xalq farovonligining pasayishiga olib keldi;

-respublika iqtisodiyotining biryoqlama, haddan tashqari nomaqbul ixtisoslashtirilishi natijasida qishloq xo'jaligi bilan bir qatorda sanoatda ham asosan xomashyoni birlamchi qayta ishlash tarmoqlari ustunlik qilib, tayyor mahsulot, avvalo xalq iste'moli mollari ishlab chiqaruvchi tarmoqlarning ulushi juda past edi. Qishloq xo'jaligi xomashyosining talaygina hajmi (paxta tolasi, xom ipak va boshqa ko'pgina xomashyo mahsulotlari) respublikadan olib ketilgan bir vaqtda aholining iste'mol tovarlariga bo'lgan ehtiyojini qondirish uchun 8-9 milliard so'mlikka yaqin tayyor mahsulot chetdan olib kelingan. O'zbekistonda aholini ish bilan ta'minlash imkonini beruvchi elektronika, asbobsozlik, radiotexnika, murakkab ro'zg'or texnikasi ishlab chiqarish kabi va boshqa ko'pgina ilg'or tarmoqlar qoniqarli rivojlantirilmagan. Aksincha, respublikada suv ko'p sarflanadigan va zararli ishlab chiqarishlar asossiz ravishda rivojlantirildi;

- ishlab chiqaruvchi kuchlar va avvalo sanoat ob'ektlari asosan stixiyali ravishda, aniqrog'i, buyruqbozlik bilan qabul qilingan qarorlar asosida, ko'pincha ilm-fan vakillari, bilimli va obro'li mutaxassislarning tavsiyalari mutlaqo e'tiborga olinmay joylashtirilgan. Bu esa respublika iqtisodiyoti hamda aholi punktlarining ekologiyasiga salbiy ta'sir o'tkazib, aholining hayot ta'minotiga, odamlarning yashashi va uyg'un kamol topishi uchun zarur sharoitlarni yaratish imkonini bermagan;

-respublikadagi ijtimoiy ahvolning, odamlarning ijtimoiy ta'minoti va ularni ijtimoiy himoya qilishning mutlaqo qoniqarsizligi. Ayniqsa, qishloq aholisining kanalizatsiya va vodoprovod bilan ta'minlanishi atigi 5 foizni, ichimlik suv bilan ta'minlanishi salkam 50 foizni, tabiiy gaz bilan ta'minlanishi 17 foizni tashkil etar edi. Aholini uy-joy, sog'liqni saqlash, madaniyat, maishiy xizmat ob'ektlari, maktablar, bolalar bog'chalari va hokazolar bilan ta'minlash ishlarida siljishlar sezilmadi. Vaholanki, aholining ko'pchilik qismi qishloq joylarida istiqomat qilar edi.

Yuqorida qayd etilgan holatlar O'zbekiston aholisi daromadlari va turmush darajasining keskin pasayishiga olib keldi.

Bu davrda respublika barcha asosiy iqtisodiy va ijtimoiy ko'rsatkichlar bo'yicha Ittifoqdagi o'rtacha darajadan ham ancha orqada bo'lib, mamlakatda oxirgi o'rinlardan biriga tushib qoldi. Jumladan, aholi jon boshiga yalpi ijtimoiy mahsulot ishlab chiqarish bo'yicha ittifoqdosh respublikalar orasida 12-o'rinni, daromad darajasi, asosiy turdagi mahsulotlarni iste'mol qilish jihatidan eng oxirgi o'rinlardan birini egallab keldi. Aholi jon boshiga milliy daromad ishlab chiqarish bo'yicha Ittifoqdagi o'rtacha darajadan 2 barobar, xalq iste'moli mollari ishlab chiqarish bo'yicha 2,5 barobar, sanoatdagi mehnat unumdorligi jihatidan 2,5 barobar, qishloq xo'jaligidagi mehnat unumdorligi jihatidan esa 2 barobar, aholining o'rta hisobda go'sht mahsulotlari, tuxum, sut va sut mahsulotlari iste'moli bo'yicha 2 barobar orqada qolgan.

Ijtimoiy-iqtisodiy ko'rsatkichlarning pasayishi, o'z navbatida, aholining turmush darajasiga ham ta'sir ko'rsatib, yashash sharoitlarining og'irlashuviga sabab bo'ldi. O'sha davrda kun kechirish uchun oyiga o'rta hisobda kamida 85 so'm zarur bo'lgani holda, 75 so'mdan kamroq yalpi daromad oladigan aholining ulushi Ittifoq bo'yicha 12 foizdan sal ko'proq bo'lsa, O'zbekistonda bu ko'rsatkich 45 foizga yetgan, ya'ni 8 million 800 ming kishini tashkil etgan.

Ijtimoiy infratuzilma tarmoqlari: sog'liqni saqlash, xalq ta'limi, maktabgacha bolalar muassasalari juda og'ir ahvolda bo'lib, maktab va kasalxonalarining 60 foizi nobop binolarda joylashtirilgan. Bu esa o'sha davrda insonning har tomonlama uyg'un kamol topishi, uning shaxs sifatida ma'naviy rivojlanishi u yoqda tursin, ko'pincha yashash uchun kerak bo'lgan eng oddiy narsalar ham yetishmaganini ko'rsatadi.

Respublikada shakllangan vaziyat iqtisodiy tanazzulning oldini olish, ijtimoiy sohadagi ziddiyatlarni yumshatish va eng asosiysi – ijtimoiy mojarolarni bartaraf etish bo'yicha tezkor choralar ko'rishni talab qilardi. Bevosita Islom Karimov rahbarligida respublikada tartibsizliklarning oldini olish, huquqiy tartibotni saqlab qolish hamda aholining eng asosiy va hal etilishini kechiktirib bo'lmaydigan ehtiyojlarini ta'minlashga qaratilgan preventiv choralar ko'rildi. Islom Karimov tashabbusi bilan 1989 yil 17 avgustda "Qishloqda yashovchi har bir oilani tomorqa yer bilan ta'minlash, ularga yakka tartibda uy-joy qurish uchun barcha shart-sharoitlarni yaratib berish haqida" qaror qabul qilindi. Shu yilning o'zidayoq aholiga 350 ming gektar yer berish masalasi hal qilindi.

Jahon tajribasi va o'z amaliyotimizdan, tarixiy taraqqiyotimizdan olingan jamiyki foydali tajribalarni rad etmagan hol-da O'zbekiston bozor iqtisodiyotini qurishda o'ziga xos yo'ldan borib, ijtimoiy sohaga kuchli e'tibor qaratdi. O'zbekistonning o'z yangilanish va tarakqiyot yo'liga asos qilib olingan yetakchi tamoyillaridan biri kuchli ijtimoiy siyosat amalga oshirildi. O'zbekistonda ijtimoiy himoya tizimi mustaqillik yillarida bozor iqtisodiyotiga o'tish asosida amaldagi islohotlarga mos ravishda yangidan tashkil etiddi. Ayniqsa, milliylik, o'zlikni anglash, e'tiqod va an'analarning tiklanishi ijtimoiy himoya tizimiga muhim yangilik bo'lib qo'shildi. O'zbekistonda aholini ijtimoiy himoya qilish iqtisodiy islohotlar dasturida uzluksiz ustuvor yo'nalishlardan biri hisoblanadi, ya'ni islohotlarning hamma bosqichlarida ustuvor hisoblanadigan vazifalar qatoriga kiradi. Mamlakatda ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyoti barpo kilishda davlat tomonidan kuchli ijtimoiy himoya siyosati olib borilmoqda. Kuchli ijtimoiy siyosat O'zbekistonning o'z istiqloq va taraqqiyot yo'lining yetakchi tamoyillaridan biri hisoblanadi.

Ijtimoiy-iqtisodiy sohada yangicha islohotlar. Ijtimoiy adolat ta'minlangan davlatda xalqning bunyodkorlik salohiyati, yaratuvchanlikka intilishi va ishtiyoqi hosil beraveradi. Shu ma'noda mustaqil Vatanimiz tarixida, xalqimiz hayotida yana bir yangi davr, yangi taraqqiyot bosqichi boshlandi, deyishga barcha asosimiz bor. Strategik maqsadlarimiz aniq va ravshan – demokratik, insonparvar davlat qurish, erkin fuqarolik jamiyatini rivojlantirish, Vatanimiz iqtisodiy qudratini yuksaltirish, pirovardida, xalqimizni hayotdan rozi qilish, uning yanada farovon yashashi uchun barcha shart-sharoitni yaratish. Bunday yuksak marralarga xalq bilan

muloqot qilib, odamlarning ichiga kirish, ularning dardu tashvishlari bilan yashash, inson manfaatlarini ta'minlash orqaligina erishish mumkin.

“Xalqni tadbirkor qilish” shiori ostida tijorat banklaritomonidan fuqarolarning shaxsiy yordamchi xo'jaliklarida qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirish, qoramol, qo'y, echki, quyon boqish va go'sht yetishtirish, parrandachilik va asalarichilikni rivojlantirish, ixcham issiqxonalar tashkil etish, xizmat ko'rsatish va servis sohasini yanada rivojlantirish, ayollarning tadbirkorligini moliyaviy qo'llab-quvvatlash maqsadida 2,5 trln.so'm kreditlar ajratildi.

“Xalq bilan muloqot va inson manfaatlari yili” Davlat dasturiga muvofiq 2016/2017 o'quv yilidagi 450 ming bitiruvchini ish bilan ta'minlash bo'yicha aniq chora-tadbirlar belgilangan. Jumladan, 800 dan ortiq ixtisoslashtirilgan bo'sh ish o'rinlari yarmarkasini bevosita kasb-hunar kollejlari o'tkazish, tadbirkorlik faoliyatini yo'lga qo'yimoqchi bo'lgan talabalarga 360 milliard so'mlik imtiyozli kreditlar ajratish, nogiron va kam ta'minlangan oilalar farzandlari bo'lgan kollej bitiruvchilari uchun 50 mingta ish o'rnini band qilish rejalashtirilgan.

2020 yilda Tijorat banklari tomonidan kasb-hunar kollejlari bitiruvchilarni tadbirkorlikka jalb qilish maqsadida 360 mlrd.so'm miqdorida kredit mablag'lari ajratish bo'yicha banklar va hududlar kesimida prognoz ko'rsatkichlar tasdiqlandi. Hisobot davrida 79,2 mlrd.so'm miqdorida kredit mablag'lari ajratildi.

Hisobot davrida sanoat, qishloq xo'jaligi va xizmat ko'rsatish sohalarini rivojlantirish yo'nalishidagi hududiy dasturlar doirasida 2 633 ta investitsiya loyihasi amalga oshirilib, 17 599 ta yangi ish o'rni tashkil etilgan. Shu jumladan, sanoat tarmog'ida 491 ta loyiha (6 946 ta ish o'rni), xizmat ko'rsatish sohasida 1 363 ta loyiha (6 482 ta ish o'rni), qishloq xo'jaligi sohasida 779 ta loyiha (4 171 ta ish o'rni) amalga oshirilgan.

Hayotiy misol. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev joylarda amalga oshirilayotgan bunyodkorlik va obodonlashtirish ishlari, ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarning borishi, yirik loyihalar bilan yaqindan tanishish, xalq bilan muloqot qilish maqsadida 27 apreľ kuni Jizzax viloyatida bo'ldi.

Jizzax viloyatida. Davlatimiz rahbari tashrifini Zafarobod tumanida Jizzax neftni qayta ishlash majmuasi qurilishiga tamal toshi qo'yildi.

Bu yangi zavod nafaqat O'zbekiston, balki Markaziy Osiyo mintaqasida noyob sanoat ob'ekti. Qiymati 2,2 milliard dollar bo'lgan ushbu loyiha yiliga 5 million tonna neft xom ashyosini qayta ishlash imkonini beradi.

Majmuada 2 mingdan ziyod, sohaga xizmat ko'rsatish tarmoqlarida yana 14 mingdan ortiq kishining bandligi ta'minlanadi.

Viloyatda 2017-2018 yillarda yengil sanoatni rivojlantirishda dasturi doirasida qator istiqbol liloyihalarni amalga oshirish rejalashtirilgan. Milliy bank tomonidan “Elegans teks”, “Paxtakor gold teks”, “Forishgold teks”, “Zomin tekstil”, “Zarbdor tekstil” kabi korxonalarda umumiy qiymati 111 million dollarlik loyihalar natijasida 2 ming 890 yangi ish o'rni yaratiladi.

Agrologistika. “Bonu shirinliklari”. Agro logistika markaziga qishloq xo'jalik mahsulotlarini qayta ishlash uchun zarur bo'ladigan asbob-uskunalarni Italiyadan keltirish ko'zda tutilmoqda. Loyiha amalga oshirilgandan so'ng qishloq xo'jaligi mahsulotlarini saqlashga mo'ljallangan 2 ming tonnalik sovutgich, shuncha sig'imga

ega dukkakli mahsulotlarni saqlash omborxonasi, 3 ming tonna meva-sabzavotni qayta ishlash quvvatlari, 4 gektarda issiqxonatashkil etiladi. Ishchilar soni 150 nafarga yetkaziladi.

Jizzax shahridagi "Bonu shirinliklari" korxonasi tomonidan eksportga yo'naltiriladigan qandolat va shokolad mahsulotlari ishlab chiqarish liniyalarini o'rnatilmoqda. Qo'shimcha 150 ish o'rni yaratiladi.

2020 yilda mamlakatimizning 34 tumanida, hududlarni kompleks rivojlantirish dasturlari doirasida amalga oshirilgan 401 ta loyiha hisobiga jami 2 195 ish o'rni, shu jumladan:

sanoat tarmog'ida 53 ta loyiha (733 ta ish o'rni), xizmat ko'rsatish sohasida 188 ta loyiha (752 ta ish o'rni), qishloq xo'jaligi sohasida 160 ta loyiha (710 ta ish o'rni) amalga oshirildi. Tumanlar kesimida:

Muynoq tumanida – 13 ta loyiha (271 ta ish o'rni), To'rtko'l tumanida – 28 ta loyiha (129 ta ish o'rni), Sho'manay tumanida – 8 ta loyiha (64 ta ish o'rni), Qo'rg'on tepa tumanida – 3 ta loyiha (9 ta ish o'rni), Paxtaobod tumanida – 7 ta loyiha (126 ta ish o'rni), Ulug'nor tumanida – 3 ta loyiha (49 ta ish o'rni), Olot tumanida – 18 ta loyiha (67 ta ish o'rni), Romitan tumanida – 1 ta loyiha (15 ta ish o'rni), Baxmal tumanida – 7 ta loyiha (37 ta ish o'rni), Forish tumanida – 11 ta loyiha (36 ta ish o'rni), Yangiobod tumanida – 8 ta loyiha (12 ta ish o'rni), Dexqonobod tumanida – 20 ta loyiha (82 ta ish o'rni), Mirishkor tumanida – 16 ta loyiha (70 ta ish o'rni), Chiroqchi tumanida – 23 ta loyiha (125 ta ish o'rni), Xatirchi tumanida – 4 ta loyiha (21 ta ish o'rni).

Mingbuloq tumanida – (loyihalar II-IV choraklarda ko'zda tutilgan), To'raqo'rg'on tumanida – (loyihalar II-IV choraklarda ko'zda tutilgan), Bulung'ur tumanida – 4 ta loyiha (14 ta ish o'rni), Narpay tumanida – 3 ta loyiha (32 ta ish o'rni), Paxtachi tumanida – 1 ta loyiha (3 ta ish o'rni), Qo'shrabot tumanida – (loyihalar II-IV choraklarda ko'zda tutilgan), Boysun tumanida – (loyihalar II-IV choraklarda ko'zda tutilgan), Uzun tumanida – 31 ta loyiha (86 ta ish o'rni), Qiziriq tumanida – (loyihalar II-IV choraklarda ko'zda tutilgan), Xovos tumanida – 1 ta loyiha (4 ta ish o'rni), Bekobod tumanida – 10 ta loyiha (36 ta ish o'rni), Bo'ka tumanida – 7 ta loyiha (45 ta ish o'rni), Chinoz tumanida – 22 ta loyiha (195 ta ish o'rni), Yozyovon tumanida – 19 ta loyiha (99 ta ish o'rni), Sox tumanida – 13 ta loyiha (63 ta ish o'rni), Uchko'prik tumanida – 7 ta loyiha (42 ta ish o'rni), Yangiariq tumanida – 11 ta loyiha (37 ta ish o'rni), Yangibozor tumanida – 44 ta loyiha (161 ta ish o'rni), Qo'shko'pir tumanida – 58 ta loyiha (265 ta ish o'rni) amalga oshirilgan.

Aholini ijtimoiy himoya qilish va sog'liqni saqlash tizimini takomillashtirish. O'zbekiston mustaqillikni qo'lga kiritishi bilan mamlakat sog'liqni saqlash infratuzilmasini rivojlangan davlatlar darajasiga olib chiqish, aholi sog'lig'ini himoya qilish tizimidagi kamchilik va nuqsonlarni bartaraf etish vazifasi yuzaga keldi.

O'zbekistonda asosiy islohotlar 1990 yil o'rtalarida boshlandi. 1996 yilning 29 avgustida "Fuqarolar sog'lig'ini saqlash to'g'risida»gi Qonun kuchga kirdi, ushbu Qonunda davlat siyosatining sog'liqni saqlash tizimiga yangicha yondashuvi ifodalangan edi.

Mavjud muammolarni hal qilish maqsadida O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti Islom Karimov tomonidan 1998 yil 10 noyabrda "O'zbekiston Respublikasi sog'liqni saqlash tizimini isloh qilish davlat dastur"i haqidagi Farmon qabul qilindi.

Ushbu dastur sog'liqni saqlash tizimini isloh qilish, aholini ijtimoiy muhofazasi printsiplariga to'laqonli amal qilish, tibbiy yordamning kafolatligi va ommabopligini ta'minlashga qaratilgan edi. Davlat dasturida quyidagi muhim yo'nalishlar o'z aksini topdi:

- sog'liqni saqlash sohasini moliyalashtirish tizimini mukammallashtirish;
- tibbiy yordamning dastlabki bosqichini isloh qilish;
- davlat tomonidan kafolatlangan, samarali tez tibbiy yordam tizimini yaratish;
- ona va bolaga ko'rsatilayotgan tibbiy yordamni takomillashtirish;
- davlatning mustahkam sanitar-epidemiologik tinchligini ta'minlash.

Shu maqsadlardan kelib chiqib, O'zbekistonda sog'liqni saqlash tizimining maqsadli dasturi hayotga tatbiq etildi, Dastur tibbiy xizmatlar ko'rsatish tizimini tubdan modernizatsiya qilish, muhim yo'nalish bo'lgan maxsus ambulator-poliklinika va profilaktik meditsinani rivojlantirish, shuningdek, qishloq joylarda ona va bola sog'lig'ini himoya qilish tizimining sifatini oshirish, tashxis qo'yish va davolash jarayonida yangi tibbiy texnologiyalardan keng foydalanish, yuqori toifali tibbiyot hodimlari tayyorlash tizimini mukammallashtirishni ko'zda tutgan edi.

Sog'liqni saqlash tizimida qabul qilinayotgan chora-tadbirlar aholi salomatligini yaxshilash samaradorligining jahon tajribasida umumqabul qilingan monitoring ko'rsatkichlariga asoslandi. Ularning ichida asosiy ko'rsatkich (indikator) bu – insonning o'rtacha umr ko'rish ko'rsatkichi hisoblanadi. Ushbu ko'rsatkich ob'ektiv va majmuaviy tarzda aholining turmush tarzini aks ettiradi. Shuningdek, ushbu indikator millatning salomatligi holatini xarakterlab, davlat olib borayotgan ijtimoiy-iqtisodiy siyosat, tibbiyot xizmatlari, tashqi muhit muhofazasi, ta'lim va boshqa omillarga bog'liq.

Davlat ijtimoiy-iqtisodiy holatining muhim indikatoridan biri, bu – ona va bola salomatligi ko'rsatkichidir. O'zbekistonda ona va bola sog'lig'i muhofazasi bo'yicha xalqaro standartlarni hayotga tatbiq etishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Ona va bolaning reproduktiv salomatligi bo'yicha olib borilayotgan ishlar XSXT hamda BMTning UNISEF va UNFPA agentliklari tomonidan yuqori baholangan. Xalqaro «Save children» (Buyukbritaniya) tashkilotining ma'lumotlariga qaraganda, ayollar uchun yaratilgan shart-sharoitlar borasida O'zbekiston jahondagi 125 ta davlat o'rtasida 19-o'rinni, onalikni himoya qilish bo'yicha esa 27-o'rinni egallaydi.

Davlatimizda maqsadli amalga oshirilayotgan profilaktik va epidemiyalarga qarshi faoliyat samarasi natijasida ko'p kasalliklarning ko'rsatkichlari pasaydi, ayrimlari barham topdi.

O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash tizimi bugun yetarli darajada moddiy-texnika bazasi va kadrlar potentsialiga ega. Mustaqillik yillarida tibbiy xizmat ko'rsatish sohasida tub o'zgarishlar amalga oshirildi. Yangi, jahon talablariga javob beradigan Tez tibbiy yordam ko'rsatish markazlari barcha viloyatlarda o'z filiallariga ega, maxsus tibbiy (kardiologiya, jarrohlik, urologiya, ko'z mikrojarrohligi), ilmiy-amaliy (pediatriya, akusherlik va ginekologiya, terapiya va

tibbiy rehabilitatsiya, dermatologiya va venerologiya, endokrinologiya, ftiziatriya va pulmonologiya) markazlar tashkil etildi.

Sog'lom avlodni tarbiyalash mamlatimizda amalga oshirilayotgan ijtimoiy siyosatning muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Mustaqillikning o'tgan yillari davomida bolalar sporti millat genofondini sog'lomlashtirishning muhim omili bo'lib xizmat qildi. O'zbekistonda dunyoning boshqa davlatlaridan farqli o'laroq, bolalar sportini rivojlantirishga ixtisoslashgan jamg'arma tashkil etilgan. Ushbu jamg'arma vasiylik kengashining raisi Respublikamiz Prezidenti bo'lib, jamg'arma oldiga qo'yilgan vazifa – yosh avlod ma'naviy va jismoniy jihatdan sog'lom bo'lishi uchun bolalar sportini ommalashtirish va rivojlantirish, sog'lom turmush tarzidan iborat.

Mazkur sohadada 2017 yilda amalga oshirilishi nazarda tutilgan maqsadlar uchun hisobot davrida 37,0 mlrd. so'm (5%) va 9,2 mln. AQSh dollari (9%) yo'naltirildi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahridagi 9 766 ta fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organida fuqarolar yig'ini raisining o'rinbosari – keksalar va faxriylar ishlari bo'yicha maslahatchilari saylovlari o'tkazilmokda. Bugungi kungacha 1 371 ta mahallada fuqarolar yig'ini raisining o'rinbosari – keksalar va faxriylar ishlari bo'yicha maslahatchilari saylangan. Saylov jarayonlari davom etmoqda.

978 nafar pensiya yoshidagi shaxsga pensiyaga chiqishdan oldin bir yo'la moddiy yordam berilib, ularga qimmatbaho sovg'alar topshirildi, 835 nafar xodimga yubiley sanalari munosabati bilan qimmatbaho sovg'alar berildi, 1 284 nafar ishlamaydigan pensionerga (korxonalarining sobiq xodimlariga) moddiy yordam berildi.

Nukus shahrida nogiron ayollar uchun yangi "Muruvvat" internat-uyi, Andijon shahridagi "Saxovat" internat-uyi, Namangan viloyatidagi Namangan "Saxovat" uyi, Samarqand viloyati Kattaqo'rg'on shahridagi "Marvarid" sihatgohi, Toshkent viloyati Ohangaron shahridagi "Sahovat" uyi, Toshkent shahridagi "Nuroni" sihatgohi ob'ektlarida 5,5 mlrd.so'mlik (11%) qurilish-ta'mirlash ishlari bajarildi.

Tibbiy xizmat inson manfaatlarini ta'minlashning muhim omillaridan biridir. Tibbiyot xodimlari uyma-uyyurib, kasalliklarni profilaktika qilishi, sohadagi o'zgarishlarni odamlar sezishi kerakligi va buning uchun shifokorlarning madaniyatini, ma'naviyatini, mas'uliyatini oshirish, ishga va bemorlarga munosabatini o'zgartirish zarurligi xar doim prezidentimiz tomonidan doimo takrorlanib keladi. Davlatimiz rahbarining 2016 yil 31 oktyabrda qabul qilingan «Aholini dori-darmon vositalari va tibbiyot buyumlari bilan ta'minlashni yanada yaxshilashga doir chora-tadbirlar to'g'risida»gi qaroriga muvofiq bu mahsulotlarning narxi ancha arzonlashdi. O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi departament, tegishli vazirlik va hokimliklar vakillari ishtirokida dori-darmon vositalarining belgilangan narxlarda sotilishi nazorat qilib borilmoqda.

Respublikamizda aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarini, imkoniyati cheklangan shaxslar, "Muruvvat", "Sahovat", "Mehribonlik" uylari, maxsus maktab-internatlar va davolash profilaktika muassasalari tarbiyalanuvchilari 54,2 mln. so'mlik 284 dona nogironlik aravachalari, 2,0 tn. 16,6 mln. so'mlik quritilgan,

vitaminga boy oziq-ovqat mahsulotlari, 74,8 mln. so'mlik 4 996 juft yozgi oyoq-kiyimlaridan iborat insonparvarlik yuklari ajratildi.

“Sog'lom avlod uchun” fondi tibbiy-ijtimoiy patronaj ko'chma brigadalari tomonidan Qoraqalpog'iston Respublikasi, Toshkent shahri va viloyatlardagi 840 ta mahalla va 537 ta qishloqdagi oilalarning ijtimoiy sharoiti, ulardagi psixologik muhit, oila a'zolarining sog'ligi va ayniqsa tug'ish yoshidagi ayollar, bolalar va qariyalarning sog'ligi o'rganildi.

“Sog'lom avlod uchun” fondi va “O'zbekiston temir yo'llari” AJ bilan hamkorlikda Surxondaryo va Qashqadaryo viloyatlarining chekka hududlariga 2017 yilning 21-29 mart kunlari Toshkent – Sariosiyo – Qumqo'rg'on – Boysun – Darband – Oqrabod – Dehqonobod – Qarshi – Toshkent yo'nalishida “Salomatlik” poezdi tashkil etildi.

Homilador ayollar va chaqaloqlarda nuqsonlarni barvaqt aniqlash bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish uchun respublika va mintaqaviy skrining markazlari tomonidan 2017 yilning 3 oyi davomida 99 524 nafar yangi tug'ilgan chaqaloq tug'ma gipotireoz va 99 524 nafari FKU (fenilketonuriya) kasalligiga skrining tekshiruvlaridan o'tkazildi. Tekshiruv natijasiga ko'ra 1 376 nafar chaqaloqda tug'ma gipotireoz va 612 nafarida fenilketonuriya kasalligiga moyilligi borligi aniqlandi.

2017 yil yanvar oyida “Sog'lom avlod uchun” fondi tomonidan umumiy qiymati 244,1 ming AQSh dollariga teng bo'lgan prenatal va neonatal skrining tekshiruvlari o'tkazish uchun reaktiv va reagentlar Respublika Skrining markaziga berildi.

Qoraqalpog'iston Respublikasida “Sog'lom ayol-sog'lom oila”, Namangan, Jizzax viloyatlarida “Sport nafislik-sog'lomlik manbai” shiori ostida sport musobaqalari o'tkazildi. Farg'ona viloyatida xotin-qizlar o'rtasida sportning voleybol turi bo'yicha musobaqalar o'tkazildi. Mazkur musobaqada 1 037 ta fuqarolar yig'inining 20 yoshdan 40 yoshgacha bo'lgan 100 000 nafarga yaqin yoshlari, xususan, 300 nafardan ortiq diniy-ekstremistik oqimlarga aloqador oila farzandlari qamrab olindi.

Qashqadaryo viloyatida sportning voleybol, basketbol, stol tennisi, yengil atletika, gimnastika, shaxmat-shashka, qo'l to'pi turlari bo'yicha oilaviy sport musobaqalari o'tkazilib, jami 4 100 nafar xotin-qizlar ishtirok etishdi.

Joriy yilning 1 choragida 1941-1945 yillardagi urush va mehnat fronti faxriylari, pensioner, nogiron, yolg'iz qariyalar va aholining boshqa nochor qatlamlaridan 6 955 nafari sanatoriylarda bepul sog'lomlashtirildi.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoevning joriy yil 4 apreldagi “Ikkinchi jahon urushi qatnashchilarini rag'batlantirish to'g'risida”gi farmoni hamda “Xotira va qadrlash kuniga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish chora-tadbirlari to'g'risida”gi qaroriga muvofiq, Ikkinchi jahon urushi qatnashchilari, mehnat fronti faxriylari moddiy va ma'naviy qo'llab-quvvatlandi. Ularning xonadonlariga borib, alohida hurmat-ehtirom ko'rsatilmoqda, moddiy-ma'naviy ko'mak berildi.

Masalan, Namangan viloyatida shunday tadbirlar doirasida 3 nafar urush faxriysi – Namangan shahridan Nizomxon ota Sattorov, Tursunboy ota Tojimirzaev, Uychi tumanidan Jakbarali ota Yusupovga ko'p qavatli zamonaviy uylardan yangi xonadonlar kaliti topshirildi.

2019 yilda 8 467 ta mahalladagi 4 mln. dan ziyod xonadonlarning muammolari o'rganildi. 12,8 mln. fuqarolar bilan muloqot o'tkazilib, iqtisodiy yo'nalishda 185 ming, ijtimoiy-ma'naviy muhit yo'nalishida 82 ming, diniy faoliyat yo'nalishida 7 ming, mahalla fuqarolar yig'inlari faoliyati yo'nalishida 43 ming, ta'lim yo'nalishida 29 ming, sog'liqni saqlash yo'nalishida 41 ming, xizmat ko'rsatish yo'nalishida 427 mingdan ortiq muammolar borligi aniqlandi.

Aniqlangan muammolarning 42%, shundan, iqtisodiy yo'nalishda 46%, ijtimoiy-ma'naviy muhit yo'nalishida 44%, diniy faoliyat yo'nalishida 28%, fuqarolar yig'inlari faoliyati yo'nalishida 55%, ta'lim yo'nalishida 66%, sog'liqni saqlash yo'nalishidagi 69%, xizmat ko'rsatish yo'nalishida 36% joyida hal etildi.

Aholi bilan muloqotlar davomida 10 193 nafar fuqaroning ish bilan bandligini ta'minlash, 3 709 nafar fuqaroning ish haqi muammosi, 5 705 nafar fuqaroning imtiyozli kredit olishdagi muammolari, 2 529 nafar davolanishga ehtiyoji bor fuqaroga tibbiy yordam ko'rsatildi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar xotin-qizlar qo'mitalari tomonidan huquqshunoslar, tegishli korxonalar va tashkilot rahbarlari bilan hududlarda 208 marotaba sayyor qabullar tashkil qilinib, 3 665 nafar fuqaroga zarur huquqiy, psixologik va tibbiy yordamlar ko'rsatildi.

Xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish hamda aholining hayot sharoitlari o'zgartirish borasida amalga oshirilayotgan islohotlar. O'zbekistonda mustaqillikning dastlabki yillaridanoq xotin-qizlarning huquqiy, iqtisodiy va ijtimoiy himoya qilinishini ta'minlash, ularning har tomonlama rivojlanishini, jamiyatdagi o'rni va mavqeini oshirishga davlat siyosati darajasida e'tibor qaratib kelinmoqda. Mazkur yillar jamiyatda ayollarni ulug'lash, ularning ijtimoiy, iqtisodiy, huquqiy va ma'naviy manfaatlarining davlat tomonidan himoya qilinishi bilan bog'liq izchil siyosat yuritilganligi bilan muhim ahamiyat kasb etgani holda, ayollarni ulug'lash, ularga hurmat va ehtirom ko'rsatish sharqqa xos azaliy qadriyat ekanligini yana bir isbotladi. Shu ma'noda, O'zbekistonda xotin-qizlarning jamiyatdagi o'rni va mavqeini mustahkamlash borasida davlat ahamiyatiga molik tarixiy ishlar amalga oshirilayotgani chuqur hayotiy asosga egadir.

O'tgan 29 yil davomida Konstitutsiyamiz hamda O'zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksi, Oila kodeksi, Fuqarolik kodeksi, Jinoyat kodeksi, "O'zbekiston Respublikasida nogironlarning ijtimoiy himoyasi to'g'risida"gi, "O'zbekiston Respublikasida yoshlarga oid siyosat to'g'risida"gi, "Aholini ish bilan ta'minlash to'g'risida"gi, "Mehnat muhofazasi to'g'risida"gi, "Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risida"gi, "Fuqarolar salomatligini muhofaza qilish to'g'risida"gi, "Ta'lim to'g'risida"gi, "Xotin-qizlarga qo'shimcha imtiyozlar to'g'risida"gi va boshqa normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilinib, ayollarni ijtimoiy-huquqiy jihatdan qo'llab-quvvatlash, siyosiy faolligini oshirish, kasbiy, jismoniy, ma'naviy va intellektual salohiyatini yuksaltirish, onalik va bolalikni muhofaza qilish, sog'lom oilani shakllantirishga yo'naltirilgan keng ko'lamli islohotlar bosqichma-bosqich, tizimli ravishda amalga oshirib kelinmoqda. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 18-moddasida xotin-qizlarning barcha sohalarda erkaklar bilan teng huquqli ekani e'tirof etilgan. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, xotin-

qizlarmizning huquq va manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan barcha qonun hujjatlari xalqaro huquqiy me'yorlarga asoslanadi.

Xotin-qizlar qo'mitasi va hamkor tashkilotlar bilan birgalikda "Mahallaning eng namunali tadbirkor ayoli" tanlovining mahallalararo va tuman (shahar) bosqichlarini o'tkazish nizomi ishlab chiqildi. Joriy yilning iyun oyida har bir mahallada tanlov o'tkazilib, bittadan eng yaxshi deb topilgan biznes loyiha tanlab olinadi. Tuman (shahar) bosqichi iyul-avgust oyida o'tkazilishi belgilangan.

"Tadbirkor qizning eng yaxshi loyihasi-2017 yil" tanlovini o'tkazish to'g'risida qo'shma qaror 2017 yil 20 mart kuni imzolandi. Tanlovning nizomi, tashkiliy ishchi guruh a'zolari shakllantirildi.

Qo'rg'ontepa, Olot, Dehqonobod, Koson, Nurota, Qo'shko'pir, Uzun tumanlarida ayollarni kasbga o'qitish va qayta tayyorlash ishlari bo'yicha kurslari tashkil etildi. Ushbu kurslarda 300 nafarga yaqin ayol o'qitildi.

Mehnat vazirligi tomonidan aholining bandligi va real daromadlarini bosqichma-bosqich oshirishga yo'naltirilgan 3 ta qonun loyihasi va 5 ta Vazirlar Mahkamasi qarori loyihasi ishlab chiqilmoqda.

Ma'lumki, ayollar ijtimoiy faolligini oshirishda o'zbek xalqi tarixan o'ziga xos mentalitetga egadir. Ayollarning an'anaviy ravishda o'z Vataniga va oilasiga sodiqlik ruhiyati ma'naviyat mezoni darajasiga ko'tarilgan. Shunga ko'ra milliy mentalitet tizimida ayollarga bo'lgan e'tibor muayyan o'rin egallaydi. Mustaqillik sharofati bilan ayollar faolligini oshirish imkoniyatlari ko'lamini kengaya boshladi. Bu imkoniyatlar avvalo, bozor iqtisodiyotiga o'tishning besh tamoyili asosida respublikada amalga oshirilayotgan huquqiy-demokratik davlat, adolatli fuqarolik jamiyati qurish yo'lida ayol huquqi himoya etilayotganligida; shaxs manfaati va ta'lim ustuvorligi qaror topishi munosabati bilan ayollar faollashuvining yuz berayotganida; milliy va umuminsoniy qadriyatlarning tiklanishi asosida shaxs ma'naviyatini, jamiyat ma'naviyatini tiklash darajasiga o'sib yetishida o'z ifodasini topmoqda. Butun ma'rifiy dunyoda xotin-qizlar manfaati degan alohida masala bor va uni o'rganish, yechimini topishga juda katta ahamiyat berilishi bejiz emas. Agar ayollarga yetarli e'tibor berilmasa, bunday jamiyatning kelajagi bo'lmaydi.

Mustaqillik tufayli o'zbek xotin-qizlari tom ma'nodagi teng huquqlilikka ega bo'ldilar, jamiyatdagi barcha ayollarning ijtimoiy adolat, tenglik, barqarorlik to'g'risidagi fikr-o'ylarini amalga oshirish, ularni jamiyatning faol ishtirokchisi sifatidagi rolini yanada oshirishga shart-sharoit yaratildi. Bosqichma-bosqich, tadrijiy yo'l tanlagan davlatimiz o'ziga xos «o'zbek modeli»ni rivojlantirmoqda. Bunday tarixiy sharoitda ayollarning jamiyat hayotidagi o'rni va mavqei yanada yuksaltirish o'ta muhim masaladir. Chunki, o'zbek ayollari tabiatidagi azaliy o'ziga xos xususiyatlar ya'ni, vatanparvarlik, fidoiylik, mehnatsevarlik, oilaparvarlik, tadbirkorlik fazilatlarini mustaqil O'zbekistonning buyuk kelajagini ta'minlashga xizmat qiladi. Xususan:

Kelajagi buyuk davlatni quruvchi yoshlarni avvalombor millat tayanchi bo'lgan ayollar tarbiyalar ekan, ularning ma'naviy-madaniy saviyasini ko'tarish davr talabidir. Shuning uchun ham, xotin-qizlarni ilm-ma'rifatli qilish, uy-ro'zg'or yumushlarini yengillatish borasida va farzand tarbiyasida barcha imkoniyatlar yaratib berilmoqda.

Ikkinchidan, jamiyat negizi, tarbiya o'chog'i bo'lgan oilaning mavqeini oshirish, ayollarning oiladagi faoliyatini ijtimoiy mehnat darajasiga ko'tarish, moddiy va ma'naviy rag'batlantirish, ona va bola salomatligini ta'minlash borasida ham alohida g'amxo'rlik siyosati olib borilmoqda.

Uchinchidan, xotin-qizlarni ham moddiy, ham ma'naviy qo'llab-quvvatlash uchun davlat tomonidan ko'rsatilayotgan g'amxo'rlik siyosati bilan birga ularni ish bilan ta'minlash orqali faol ijtimoiy hayotiy pozitsiyaga ega bo'lishlarini ta'minlash maqsadida vaqtinchalik ish o'rinlari barpo etish, kasanachilik mehnati va oilaviy biznesni tashkil qilish hamda xotin-qizlarni ishga joylashtirishning boshqa shakllaridan keng foydalanilmoqda.

To'rtinchidan, xotin-qizlarning iqtisodiy mustaqilligini ta'minlashga xizmat qilayotgan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasini yanada rivojlantirishga yo'naltirilgan izchil siyosat yuritilmoqda.

Ayollarimizning haq-huquqlari va manfaatlarini ta'minlash, eskidan qolgan qarashlardan voz kechish, ularni tom ma'noda hayotni boshqaradigan hal qiluvchi o'rinlar va vazifalarga ko'tarish, ularga ishonch bildirish masalasi bugungi kunda ham hali-beri o'z dolzarbligi va ahamiyatini yo'qotgani yo'q.

Xotin-qizlarni ish bilan ta'minlash maqsadida 2019-2020 yillarda barcha tumanlarda 195 ta tikuv-trikotaj korxonasi barpo etish uchun aholi zich yashaydigan, mehnat resurslari ko'p joylar tanlab olindi. Natijada 24 mingdan ortiq doimiy ish o'rni yaratish nazarda tutilgan.

Shuning uchun ham bugungi kunda rivojlangan, o'zini rivojlangan deb hisoblagan davlatlar tomonidan ayollar muammosi ijtimoiy masalalar doirasida o'rganilmoqda. Chunki eng avvalo ayol kelajak avlod tarbiyachisidir.

Arzon uy-joylar qurish bo'yicha maqsadli dasturlarni amalga oshirish, aholining hayot sharoitlari yaxshilanishini ta'minlovchi yo'l-transport, muhandislik-kommunikatsiya va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish hamda modernizatsiya qilish.

Muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoevning 2016 yil 21 oktyabrdagi "2017-2021 yillarda qishloq joylarda yangilangan namunaviy loyihalar bo'yicha arzon uy-joylar qurish dasturi to'g'risida"gi qarori mamlakatimiz aholisining yashash sharoitlarini yanada yaxshilashda yangi bosqichni boshlab berdi.

2017 yilda qurilishi rejalashtirilgan 15 000 ta uying tuman va massivlar kesimida manzilli ro'yxati ishlab chiqilib, tasdiqlandi. Ushbu uylarning bir qismi, ya'ni Qoraqalpog'iston Respublikasi va viloyatlarning tanlangan tumanlarida, jami 546 ta uylar tajriba tariqasida qurilib, joriy yilning boshida foydalanishga topshirildi.

Jahon banki ishtirokida Sirdaryo viloyati Boyovut, Xovos, Mirzaobod, Sardoba va Oqoltin tumanlari, Buxoro viloyati Olot va Qorako'l tumanlari ichimlik suvi ta'minotini yaxshilash loyihasi hamda Buxoro va Samarqand shaharlari kanalizatsiya tizimini rekonstruktsiya qilish loyihalarini amalga oshirish natijasida birinchi chorak yakuni bilan 23 km magistral suv quvurlari, 57 km suv tarqatish tarmoqlari, 6 dona nasos stantsiyasi qurilishi yakunlanmoqda.

Aholiga transport xizmati ko'rsatish tizimini yaxshilash maqsadida, dasturga muvofiq Buxoro viloyatida 2 ta, Jizzax viloyati 1 ta, Navoiy viloyatida 4 ta,

Surxondaryo viloyatida 1 ta, Sirdaryo viloyati 3 ta, Toshkent viloyatida 1 ta Xorazm viloyatida 2 ta, jami 14 ta yangi yo'nalish ochildi.

2017 yilgi Davlat dasturi doirasida 2017 yilda 537 ta avtobus sotib olinishi rejalashtirilgan. Shundan 116 ta "Isuzu" rusumli avtobusi xarid qilindi va yo'nalishlarda xizmat ko'rsatmoqda. Jumladan: Jizzax viloyatida – 26 ta, Namangan viloyatida – 12 ta, Xorazm viloyatida – 8 ta, Farg'ona viloyatida – 13 ta, Qoraqalpog'iston Respublikasida –10 ta, Samarqand viloyatida – 2 ta, Buxoro viloyatida – 43 ta, Sirdaryo viloyatida – 2 ta.

2017 yilda 7 ta yangi avtostantsiya qurilishi va 10 ta mavjud avtostantsiyani rekonstruksiya qilish rejalashtirildi va amalga oshirildi.

Respublikada songi yillarda ijtimoiy himoyaning xuquqiy muhiti yaratildi, unga qonuniy asos solindi. Ijtimoiy himoya tamoyillari O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida kafolatlanib, qabul qilingan qonunlarda o'z aksini topdi.

Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar

1. Yuksak bilimli va intellektual rivojlangan avlodni tarbiyalashda nimalarga e'tibor berish kerak?
2. Mustaqillik arafasida ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatga respublikada qanday edi?
3. Respublikamizda aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlariga nisbatan qanday siyosat olib borilmoqda?
4. O'zbekistonda gender masalalarining o'ziga xos jihatlari nimalardan iborat?
5. Mamlakatda yangi ish o'rinlarini tashkil qilish va ishsizlar sonini keskin kamaytirishda jamoat tashkilotlarining o'rnini qanday baholaysiz?
6. O'zbekistonda xizmat ko'rsatish sohasidagi islohotlarning o'ziga xos jihatlari nimalardan iborat?
7. O'zbekistonda aholining kommunal xizmatlar bilan ta'minlanish masalalariga oid chora-tadbirlar nimalardan iborat?
8. Mustaqillik yillarida sog'liqni saqlash sohasida amalga oshirilgan islohotlar mohiyati nimalarda namoyon bo'lmoqda?
9. O'zbekistonda ijtimoiy siyosatning asosiy yo'nalishlari nimalardan iborat?
10. Kam ta'minlangan oilalarni muhofaza qilish bo'yicha davlat tadbirlari nimalardan iborat bo'lishi kerak?

Testlar

1. 1996-yil nechta ish o'rin yaratildi?
A) 10 ming B) 16 ming C) 12 ming D) 25 ming
2. Ekologik tanglik tufayli aholining kasallanishi 1996-yilda 1991-yilga nisbatan necha foizga ko'paydi?
A) 10 % B) 12,5 % C) 20,3 % D) 26,3 %
3. Nukusda Markaziy Osiyoning beshta davlat Prezidentlari uchashuvi qachon bo'lib o'tdi?
A) 1994-yil 14-yanvar B) 1992-yil 10-yanvar
C) 1996-yil 6-fevral D) 1993-yil 4-yanvar
4. 2002-yilda Respublikamizda 2008 ilda esa taga yetkazildi?
A) 50-150 ta B) 45-ta 100 ta C) 95-171 ta D) 26-145 ta
5. 2006-yil mamlakatimizda nechta ish o'riini yaratildi?

- A) 20000 ta B) 105000 C) 109000 D) 25000
6. 2002-yil o'rtacha oylik ish haqi qanchaga yetdi?
A) 10 ming B) 13 ming C) 17,5 ming D) 30 ming
7. 1995-yilda Qoraqalpog'iston Respublikasida Orol dengiziga atab qanday qonun qabul qilindi?
A) Orolni qutqarish bo'yicha B) Nukus deklaratsiyasi
C) Mo'ynoq aeroportini tiklash D) Ekologik holat bo'yicha
8. 1996-yilda aholiga qancha iste'mol mollari sotilgan?
A) 7,2 milliard B) 5 milliard C) 3.milliard D) 2,5 milliard
9. 1996-yilda aholi jon boshiga pul daromadlari so'mni tashkil etdi.
A) 9628,8 B) 5674,6 C) 3547,7 D) 9856,7
10. Chaqaloqlar o'limi 1996-yil 1991-yilga nisbatan necha barobar kamaydi?
A) 1,8 marta B) 2.5 marta C) 1,5 marta D) 3,4 marta

12-Mavzu: Mustaqillik yillarida O'zbekistondagi ma'naviy va madaniy taraqqiyot

Reja:

1. Tarixiy xotira yosh avlodni tarbiyalashning muhim omili sifatida.
2. Tarixiy meros, mutafakkir avlodlarning ma'naviy meros kelajak yutuqlarimiz garovi.
3. Milliy va diniy qadriyatlarimizning jahon sivilizatsiyasida tutgan o'rni.
4. Mustaqil yurt san'ati, adabiyoti va me'morchiligida milliy qadriyatlarning aks etishi.

***Darsning o'quv maqsadi:** O'zbekistonda tarixiy xotira yosh avlodni tarbiyalash muhim omil ekanligi, tarixiy meros, mutafakkir avlodlarning ma'naviy meros, milliy va diniy qadriyatlarimizning jahon sivilizatsiyasida tutgan o'rni hamda san'at, adabiyot va me'morchilikda milliy qadriyatlarning aks etish haqida asosiy tushunchalar berish.*

***Tayanch so'z va iboralar:** Milliy urf-odatlar, qadriyatlar va an'analarning qayta tiklanishi, Mustaqillik yillarida buyuk ajdodlar va tarixiy shaxslarga bo'lgan e'tiborning ortib borishi, ajdodlar merosi va milliy qadriyatlarni tiklash borasidagi islohotlar, Beshta tashabbus va uning yuksak ma'naviy madaniyatni ta'minlashdagi o'rni, O'zbekistonda millatlararo va dinlararo munosabatlardagi barqarorlikni ta'minlash borasidagi davlat siyosati.*

Tarixiy xotira yosh avlodni tarbiyalashning muhim omili sifatida. Biron bir jamiyat ma'naviy imkoniyatlarini, odamlar ongida ma'naviy va axloqiy qadriyatlarni rivojlantirmay hamda mustaxkamlamay turib o'z istiqbolini tasavvur eta olmaydi. Xalqning madaniy qadriyatlari, ma'naviy merosi ming yillar mobaynida Sharq xalqlari uchun qudratli ma'naviyat manbai bo'lib xizmat qilgan. Uzoq vaqt davom etgan qattiq mafkuraviy tazyiqqa qaramay, O'zbekiston xalqi avloddan avlodga o'tib kelgan o'z tarixiy va madaniy qadriyatlarini hamda o'ziga xos an'alarini saqlab qolishga muvaffaq, bo'ldi.

Mustaqilligimizning dastlabki kunlaridanoq ajdodlarimiz tomonidan ko'p asrlar mobaynida yaratib kelingan g'oyatulkan, bebaho ma'naviy va madaniy merosni tiklash davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan nihoyatda muhim vazifa bo'lib qoldi. Darhaqiqat, O'zbekistondagi ijtimoiy sohaning tub ildizlaridan bo'lmish ma'naviy sohning keng rivojlanishi xalqimiz ko'z o'ngida, uning faol ishtiroki bilan bo'ldi. Xalqimiz o'z tarixi, urf-odatlari, milliy va diniy qadriyatlariga o'zgacha ehtirom bilan munosabatda bo'lishi jahon ahli tomonidan e'tirof etilgan. Shuningdek, bozor munosabatlari sharoitida ma'naviyat va ma'rifat ishlariga g'oyat katta e'tibor berilishi mustaqil O'zbekistonda yangi jamiyat ko'rinishining o'zigaxos hususiyatlaridan biridir.



Biz ma'naviy qadriyatlarni tiklashni, milliy o'zlikni anglashning o'sishidan, xalqning ma'naviy sarchashmalariga, uning ildizlariga qaytishdan iborat uzviy, tabiiy jarayon deb xisoblaymiz. Tarix xotirasi, xalqning, jonajon ulkan, davlatimiz xududining xolis va xaqqoniy tarixini tiklash milliy o'zlikni anglashni, ta'bir joiz bo'lsa, milliy iftihorni tiklash va o'stirish jarayonida g'oyat muhim o'rin tutadi. Tarix millatning xaqiqiy tarbiyachisiga aylanib bormokda. Buyuk ajdodlarimizning ishlari va jasoratlari tarixiy xotiramizni jonlantirib, yangi fuqarolik ongini shakllantirmokda, ahloqiytarbiya va ibrat manbaiga aylanmokda.

O'zbekistonning Birinchi Prezidenti Islom Karimov mustaqillik ostonalarida, ya'ni 1990 yil 20 yanvarda Toshkent shahar faollari bilan yig'ilish o'tkazdi. Unda Toshkentni yuksak madaniyatli shaharga aylantirish kerakligi, zamondoshlarini emas, kelajak avlod ham u bilan haqli ravishda faxrlanadigan shaharga aytantirish masalasi qo'yildi. Ushbu yig'ilishda I. Karimov shunday degan edi: "Tariximiz uchun ham, hozirgi kun uchun ham o'zbek ishchilarining, o'zbek dehqonlarining, o'zbek ziyolilarining uyalishlariga hech bir asos yo'q. Aksincha, ular juda og'ir sinovlarga, ba'zan esa nohaq sinovlarga qaramay, o'zlarining mashaqqatli ishlarini munosib ravishda ado etib kelmoqdalar, bu bilan ular haqli ravishda faxrlanishlari mumkin.

Biz yaqinda bo'lajak Navro'z bayramini an'anaviy bayram sifatida nishonlash to'g'risida masalani muhokama qildik. Har jihatdan diqqat e'tibor bilan muhokama qildik, "qosh qo'yaman deb, ko'z chiqarilgan", o'zboshimchalik bilan zararli, halqqa begona qarorlar qabul qilingan, an'analarimiz, urf-odatlarimizning asriy negizi oyoq osti qilingan o'tmish davr saboqlarini hisobga oldik. Avvalo, odamlarning, butun xalqimizning ko'pdan-ko'p istak va talablarini hisobga olib, biz bu yil Navro'zni yangichasiga, katta umumxalq bayrami sifatida tantana bilan o'tkazish haqida qaror qabul qildik". 1992 yil Prezident farmoni bilan Ramazon va Qurbon hayit kunlari umumxalq bayrami, deb e'lon qilindi. Xalqimiz asrlar davomida nishonlab kelgan bayramlaridan biri - «Navro'z» umumxalq bayrami sifatida qayta tiklandi.



Hali SSSR tarkibidagi O'zbekiston SSRda xalqimizning diniy ulamolari xotirasini sharaflab, ilmiy anjumanlar o'tkazish an'anasini boshlab yuborildi. O'zbekiston SSR Prezidenti I.Karimov Abu Iso Muhammad ibn Iso at-Termiziyning 1200 yilligiga bag'ishlab o'tazilgan ilmiy anjuman (1990 yil 14 sentyabr) ishtirokchilariga yuborilgan tabrigidan qisqa keltirish o'rinli bo'lar edi: "O'zbekiston hukumati mo'minlarning istaklarini inobatga olib, musulmon dunyosining eng muqaddas yodgorliklaridan biri – Xalifa Usmon "Mushafi"ni ular ixtiyoriga qaytarib berdi. Qator tarixiy obidalar diniy tashkilotlar ixtiyoriga o'tkazildi. Yangi masjidlar ochilmoqda. Makka va Madinani ziyorat etishga borayotgan musulmonlar ko'paydi... Davr shu kunning zarur muammolarini hal etishga intilish barobarida ona tarixning ilg'or an'analardan saboq olishni ham taqazo etadi.

Qadimiy Movarounnahr va Xuroson farzandlarining jahon ilmu-ziyosi tarixiga zarvaraqlar ila bitilgan asarlari oz emas. Imom Buxoriy, Abu Rayhon Beruniy, Ibn Sino, Muso Xorazmiy, Abu Nasr Farobiy, Rudakiy, Ulug'bek, Jomiy, Navoiy, Bobur, Abdulla Qodiriy, Cho'lpon, Fitrat va boshqa yuzlab zotlarni jahon yaxshi biladi. Bu zakiylar silsilasida Imom-At Termiziyning aziz nomlari ham yorug' yulduzday charaqlab turibdi".

Mustaqil O'zbekistonda ma'naviy yuksalishning bosh yo'li deb avvalo, avlodlar merosini chuqur o'rganish, undan faxrlanish dastlabki o'rinlarga qo'yildi. Markaziy Osiyo tarixida siyosiy aql-idrok bilan ma'naviy jasoratni, diniy dunyoqarash bilan qomusiy bilimdonlikni o'zida mujassam etgan buyuk arboblarning ko'p bo'lgan. Ularning nomlari, jaxon sivilizatsiyasi tarakqiyotiga ko'shgan buyuk hissalarini hozirgi kunda butun dunyoga ma'lum. Tarixiy tajriba, an'analarning meros bo'lib o'tishi - bularning barchasi yangidan-yangi avlodlarni tarbiyalaydigan qadriyatlarga aylanib qolmog'i lozim.

O'zbekiston Respublikasida iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish bilan bir vaqtda ma'naviy merosimizni, madaniy qadriyatlarimizni tiklash va ularni xalqimizga yetkazish borasida keng ko'lamda faoliyat olib borilmokda.

Shu borada «Ma'naviyat va ma'rifat» jamoatchilik markazini tashkil qilish va ularning ish samaradorligini oshirishga qaratilgan. 1994 yil 23 apreldagi va keyingi Prezident farmonlari respublikada ma'naviy va mafkuraviy ishlarni yuksaltirishda katta ahamiyatga ega bo'ldi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2000 yilning 2

iyunidagi Respublika ma'naviyat va ma'rifat kengashini qo'llab-quvvatlash to'g'risidagi yangi farmoni esa mamlakatimizda ma'naviy-ma'rifiy isloxotlarni izchil amalga oshirish, milliy istiqol g'oyasining asosiy tushuncha va tamoyillarini xalqimiz ongi va qalbiga singdirish borasida ulkan ishlarni amalga oshirishga karatilgan muhim dastur bo'ldi.

O'zbekistonning Birinchi Prezidentining I.Karimov "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch" nomli asarida ma'naviyatning mustaqil O'zbekiston uchun ahamiyatiga shunday to'xtalgan edi: "Biz xalqimizning dunyoda xech kimdan kam bo'lmasligi, farzandlarimizning bizdan ko'ra kuchli, bilimli, dono va albatta baxtli bo'lib yashashi uchun bor kuch va imkoniyatlarimizni safarbar etayotgan ekanmiz, bu borada ma'naviy tarbiya masalasi, hech shubhasiz, beqiyos ahamiyat kasb etadi... Mana shunday qarash fikrlari umumlashtirilib, insonga xos orzu-intilishlarni ro'yobga chiqarish, uning ongli hayot kechirishu uchun zarur bo'lgan moddiy va ma'naviy olamni bamisli parvoz qilayotgan qushning ikki qanrotiga qiyoslasak, o'ylaymanki, o'rinli bo'ladi."

Shu sababli muallif tomonidan qadriyatlar, urf-odatlar, buyuk otabobolarimizning bizga qoldirgan meroslarini o'rganish va targ'ib etish uchun keng yo'llar ochildi. Bu boradagi tadbirlar mustaqilligimizning dastlabki kunlaridanoq amalga oshirila boshlandi.

Xususan, ma'naviy-ma'rifiy ishlarning rivojlanishi uchun davlat tomonidan katta mablag'lar ajratildi. O'zbekistondagi barcha davlat teatrlari, madaniyat uylari, san'at oliy o'kuv yurtlari, folklor-etnografik guruxlar madaniyat o'choklariga aylanib qoldi. Teatr sahnalarida yangi zamonaviy spektakllar qo'yila boshladi.

Badiiy adabiyotda partiyaviylik, sinfiylik nuqtai nazaridan yondashishga chek qo'yildi. Bahovuddin Naqshband, Feruz, Xo'ja Axror, Cho'lpon, Fitrat kabi allomalarning nomlari tiklanib, asarlari chop etidtsi. XX asrning

90-yillarida SSSRning parchalanishi va O'zbekistonning mustaqillikka erishishi bilan o'zbek adabiyoti taraqqiyoti tarixining yangi davri boshlandi. Bu davr adabiyotining o'ziga xos xususiyatlari haqida gap ketganda eng avvalo,sovet davrida qoralanib kelingan Amir Temur singari tarixiy siymolar va o'zbek xalqining tarixiy qahramonlarohaqida asar yozish imkoniyati yaratildi. O'zbek adabiyoti milliy adabiyot sifatida kamol topa boshladi.

Tarixiy meros, mutafakkir avlodlarning ma'naviy meros kelajak yutuqlarimiz garovi. 1991 yili buyuk alloma, g'azal mulkinging sulтони Alisher Navoiy yubileyini o'tkazish katta voqea bo'ldi. Bu tantanaga bag'ishlanib respublikamizda shoirning asarlari nashrdan chiqarildi. Alisher Navoiyning 550 yilligi munosabati bilan haykalning ochilish marosimida (1991 yil 1oktabr) O'zbekistonning Birinchi Prezidenti I.Karimov shunday niyat bildirgan edi: "O'z tarixi va ajdodlarini siylagan xalqning kelajagi albatta porloq bo'ladi. Ishonamizki, O'zbekistonimiz tez orada dunyo xamdo'stligi o'rtasida o'ziga munosib o'rinni egallaydi, inshoollo. Ana o'shanda ham Alisher Navoiyning qutlug' nomi bizga madadkor bo'ladi". O'zbekistonning mustaqilligi natijasida badiiy ijod, tasviriy san'atga e'tibor davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Sharqning buyuk musavviri Kamoliddin Behzod tavalludining 540 va 550 yilligi keng nishonlandi. Rassom tavalludining 545 yilligi YuNESKO qaroriga binoan xalqaro miqyosda Toshkentda

o'tkazildi. Behzod nomidagi muzeyga asos solindi. 1994 yil Mirzo Ulug'bek tavallud topgan kunining 600 yilligi keng ko'lamda, jahon miqyosida nishonlandi. YuNESKOning Parijdagi qarorgohida yubileyga bag'ishlangan haftalik o'tkazildi. Mustaqillik yillarida buyuk sohibqiron Amir Temurning 660 yilligi bo'lib o'tdi. YuNESKO tomonidan 1996 yil «Amir Temur yili» deb e'lon qilindi. Shu yili YuNESKOning Parijdagi qarorgoxida «Temuriylar davri, fan, madaniyat va maorifning gullab-yashnashi» mavzuida anjuman va unga bag'ishlangan ko'rgazma ochildi. Mamlakatimizda «Temur va temuriylar» muzeyi, Amir Temur nomi berilgan bog'lar, ko'chalar barpo etildi. Barcha viloyatlar va shaxarlarda har yili Alisher Navoiy, Bobur, Mashrab, Ogahiylarga bag'ishlanib kechalar o'tkazildi, 1999 yili mamlakatimizda Jaloliddin Manguberdining 800 yillik tavalludiga, «Alpomish» dostoni yaratilishining 1000 yilligiga bag'ishlangan turli kechalar, ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar tashkil etildi. O'zbekistonda unga atab bir nechta haykallar o'rnatilgan, Xorazm viloyatida Jaloliddin Manguberdiga bag'ishlangan memorial majmua qurilgan.



Mustaqillik yillarida buyuk vatandoshlarimiz fiqh ilmining bilimdoni, nomi Sharq va G'arbda mashhur bo'lgan Abul Xasan ibn Abu Bakr ibn Abduljalil al Farg'oniy al-Marg'inoniy tavalludining 910 yilligi, Kalom ilmining asoschisi Imom Abu Mansur

Al-Moturidiy tavalludining 1130 yilligi butun mamlakatimizda keng nishonlandi. Islom olamining allomasi Iso at-Termiziyning 1200 yilligi, Maxmud az-3amaxshariyning 920 yilligi, Najmiddin Kubroning 850 yilligi, Baxovuddin Naqshbandiyning 675 yilligi keng ko'lamda nishonlandi. Ularning boy asarlari nashrdan chiqarildi.

Ma'naviy hayotni takomillashtirish maqsadida Imom al-Buxoriyning yubileyiga bag'ishlab, Qur'oni Karimdan keyin ikkinchi o'rinda turadigan

«Al-jome' as-saxih» (Ishonarli to'plam), «Al-adab al-mufrad»

(Adab durdonalari) o'zbek tiliga tarjima qilinib, nashrdan chiqarildi.

1998 yili Imom al-Buxoriy tavalludining 1225 yilligi, Ahmad al-Farg'oniy tavalludining 1200 yilligi jahon miqyosida keng nishonlandi. Respublikada yubileylar munosabati bilan allomalar hayotiga bag'ishlangan ilmiy anjumanlar va badiiy ko'rgazmalar ochildi.

Yurtimiz hali ittifok tarkibida bo'lgan, Kremning hukmronlii xali kuchini yo'qotmagan bir paytda - 1990 yil iyun oyida Respublika rahbari I. Karimov «Musulmonlarning Saudiya Arabistoniga haj qilishi to'g'risida»gi farmonga imzo chekdi.

O'zbekiston hukumatining har tomonlama qo'llab-quvvatlashi bilan 1991 yilda haj qilish baxtiga 350 kishi sazovar bo'lgan bo'lsa, 2001 yili xojilarning soni 3801 kishiga yetdi. Jami mustaqillik yillari xaaj ibodatini ado etishga muvaffaq bo'lganlarning soni 31 057 kishini tashkil qildi.

«Movarounnaxr» diniy boshqarmasi faoliyati respublikamiz hayotida o'z o'rnini egalladi. Din inson ruhini poklashi, odamlar o'rtasida mexr-oqibat tuyg'ularini mustahkamlashi, milliy qadriyat va an'analarni asrashga xizmat qilishi bilan jamiyat hayotida muhim o'rin tutib kelgan. O'zbek yurti azaldan qadimiy dinlar rivoj topgan makondir. Hozirgi kunda ko'p millatli O'zbekiston Respublikasida islom dini bilan bir qatorda o'n yettita diniy konfessiyalar yonma-yon yashab kelmoqda.

1995 yili rus pravoslav cherkovi Toshkent va O'rta Osiyo yeparxiyasi tashkil etilganligining 125 yilligi yubileyi, O'zbekiston yevangel-lyuteran jamoasi tashkil etilganining 100 yilligiga bag'ishlangan «Bir osmon ostida» shiori bilan musulmon va xristian dinlari vakillari o'rtasida o'tkazilgan muloqot katta ahamiyat kasb etdi. Toshkentda 2000 yilning sentyabrida YUNESKO rahnamoligida «Jaxon dinlari tinchlik madaniyati yo'lida» mavzuida dinlararo muloqot, xalqaro anjuman bo'lib o'tdi. Unda AQSh, Fransiya, Rossiya, Eron, Isroil, Xindiston, Xitoy, Vatikan kabi o'ttizga yaqin mamlakat, shuningdek, xalqaro diniy muassasalar vakillari qatnashdilar. Anjumanni o'tkazish uchun aynan O'zbekiston tanlangani bejiz emas. Zero, bu ulkadan dunyoga dong'i ketgan buyuk allomalar, islom olamida kata hurmatga ega bo'lgan buyuk zotlar yetishib chikkan. Shunidek, Islom konferensiyasi tashkilotining tuzilmalaridan biri bo'lgan Ta'lim, fan va madaniyat masalalari bo'yicha xalqaro islom tashkiloti (ISESCO) tomonidan Toshkent shahrining 2007 yilda islom madaniyati poytaxti deb e'lon qilinishi O'zbekiston, xususan uning poytaxti islom sivilizatsiyasi tarixida o'ziga xos o'ringa ega ekanidan yana bir dalolatdir.

O'zbekiston mustaqilligi sharofati bilan arxitektura ilgarigi cheklovlar iskanjasidan qutildi, odat bo'lib qolgan tizginlar kesib tashlangan edi. Arxitektura ustidan o'rnatilgan davlat monopoliyasi o'z kuchini qisman yo'qotdi, ayniqsa, xususiy uy-joy qurilishida yangi sifat va sur'at darajasi tez ko'tarildi. O'zbekiston shaharlari, ayniqsa, poytaxt Toshkent qisqa muddat ichida me'moriy jihatdan juda o'zgarib ketdi, zamonaviy talablarga javob beradigan ko'rkam, obod, sarishta bog' shahriga aylandi. Istiqlol davrining qaldirg'och binolari qatorida Oliy Majlis, Oqsaroy qarorgohi, Toshkent hokimiyati, Turkiston saroyi, Milliy bank, Interkontinental, «Markaziy mehmonxona» kabi mehmonxonalar diqqatga sazovor. O'zbek Milliy akademik drama teatri binosi juda ulug'vor ko'rinishli sifat bilann ta'mir etildi, O'zbekiston konservatoriyasiga muhtasham yangi bino qurildi, Temuriylar muzeyi barpo etildi. O'zbek xalqi tarixiy xotirasini tiklash yo'lida juda muhim me'moriy tadbirlar amalga oshirildi. Ayniqsa, Imom Buxoriy tavalludining 1225 yilligi munosabati bilan Samarqand viloyati Xartang qishlog'ida ulkan me'moriy majmuot (maqbara, masjid, me'moriy idora, kutubxona va oshxona) yangi loyiha asosida tiklanishi (1998) musulmon dunyosida g'oyat minnatdorlik va katta olqish bilann kutib olindi. Ahmad al-Farg'oniyning 1200 yilligi munosabati bilan Quva va Farg'ona shaharlarida haykal va saylgoh bog'lar barpo etildi. Samarqandda Imom Moturidiy qabri ustiga me'moriy yodgorlik tiklandi, Burhoniddin Marg'inoniy xotirasiga bag'ishlangan me'moriy

majmuot Marg‘ilon shahrida bunyod etildi. Toshkentda qatag‘on qurbonlari xotirasiga bag‘ishlangan me‘moriy muzey bog‘ tashkil qilindi, u “Shahidlar xotirasi” muqaddas ziyoratgohiga aylandi.

Mustaqillik davri dramaturgiyasida o‘zbek xalqining tarixiy takdirida katta rol o‘ynagan, ammo sovet davrida qoralanib kelingan Amir Temur, Bobur, shuningdek, Ulug‘bek va Jaloliddin Manguberdi singari davlat arboblari obrazini yaratishga alohida e‘tibor berildi. Yubileylari xalqaro miqyosda nishonlangan Alpomish, Ahmad al-Farg‘oniy, Jaloliddin Manguberdi, Amir Temur, Mirzo Ulug‘bek, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Boburlarga haykallar o‘rnatildi, ularga bag‘ishlangan rasmlar ijod qilindi. Nafis mo‘jaz rasm, xattotlik va kitob naqqoshligi qayta tiklandi. Ayniqsa, Kamoliddin Behzod yubileylari nishonlanishi, bu sohaga katta e‘tibor natijasida respublikada miniatyura, naqqosh va xattotlar guruhi yuzaga keldi. H.Soliyev xattotlik asarlari xalqaro miqyosda tan olindi. Kamoliddin Behzod nomidagi Davlat mukofoti ta‘sis etilib, T.Boltaboyev, H.Nazirov, G‘.Kamolov uning birinchi sohiblari bo‘ldilar.

1999 yil Toshkentda Markaziy Osiyodagi birinchi Islom Universiteti ochildi. Mamlakatimizda 10 ta diniy ta‘lim muassasasi, jumladan, Toshkent islom instituti, 9 ta o‘rta maxsus o‘quv yurti faoliyat ko‘rsatmoqda. Ularning ikkitasi xotin-qizlar o‘quv muassasasidir.

Milliy va diniy qadriyatlarimizning jahon sivilizatsiyasida tutgan o‘rni. Ma‘naviy sohadagi o‘zgarishlarning keng ko‘lami ayniqsa so‘nggi uch yilda yanada aniq namoyon bo‘la boshladi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoev 2016 yil 16 oktabrda Islom hamkorlik tashkiloti Tashqi ishlar vazirlari kengashi 43-sessiyasining ochilishi marosimida nutq so‘zlar ekan “anjumanning “Ta‘lim va ma‘rifat – tinchlik va bunyodkorlik sari yo‘l” shiori bizning ustivor yo‘nalishlarimizni aniq ifoda etadi” deb alohida ta‘kidladi. Shuningdek, O‘zbekiston rahbari “Buyuk tarixda hech narsa izsiz ketmaydi. U xalqning qonida, tarixiy xotirasida saqlanadi va amaliy ishlarda namoyon bo‘ladi. Shuning uchun ham u qudratlidir. Tarixiy merosni asrab avaylash, o‘rganish va avlodlardan-avlodlarga qoldirish davlatimiz siyosatining eng muhim ustivor yo‘nalishlaridan biridir. Yangi tahdidlar, jumladan “ommaviy madaniyat” xavfi va boqimandalik kayfiyati paydo bo‘layotgan, odob-axloq, qadriyatlarining yo‘qolishi xavfi yuzaga kelayotgan hozirgi globallashuv sharoitida bu g‘oyat muhim ahamiyat kasb etmoqda.” deb fikr bildirdilar.¹

Diniy qadriyatlarga bo‘lgan munosabat tubdan o‘zgardi. Diniy qadriyalardan xavfsirash emas, undan ilmu ma‘rifat yo‘lida, yosh avlodning tarbiyasi yo‘lida foydalanish o‘z natijalarini bera boshladi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoev diniy qadriyatlarga o‘ziga xos yondashuv, ya‘ni xalqimiz kelajagi va yoshlarimiz tarbiyasidagi beqiyos o‘rinni teran anglash lozimligini doimo uqtirib keldi. Jumladan, “Azaliy qadriyatlarimiz va axloqiy fazilatlarini o‘zida mujassam etgan muqaddas dinimizni asrash va qadrlash har birimizning sharaflı burchimizdir. Islom haqiqatni anglash demokdir, u odamzodni ezgu amallarni bajarishga undaydi, har birimizni yaxshilik va tinchlikka chorlaydi, haqiqiy inson bo‘lishni o‘rgatadi”.

¹ Мирзиёев Ш., Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. “Ўзбекистон, Тошкент, 2016, 29 б.

Samarqandda Imom Buxoriy nomidagi ilmiy-tadqiqot markazi, Toshkent shahrida Islom sivilizatsiyasi markazi barpo etilishi boshlandi. Bundan maqsad – islom dinining haqiqiy insonparvarlik mohiyatini, ma’rifiy islomni bolalarimiz ongiga singdirish uqtirib o’tildi. Shu yo’lda bizning buyuk ajdodlarimiz qanday ulug’ ishlarni amalga oshirganliklari haqida ular ana shu maskanlarga kelib o’zlari uchun kerakli, eng muhim bo’lgan bilim va tasavvurlarga ega bo’ladi. Eng asosiysi ularning qalbida boy tariximiz, madaniy merosimiz bilan faxrlanish tuyg’usi kamol topadi (O’zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganligining 25 yilligiga bag’ishlangan tantanali marosimda so’zlangan nutq, 2017 yil 7 dekabr).

Shuningdek, Imom Termiziy nomlaridagi ilmiy tadqiqot markazlari, islom akademiyasi kabi ilmiy-ma’rifiy muassasalar faoliyatini yo’lga qo’yish ishlari boshlandi. Toshkent shahrida Islom sivilizatsiyasi markazining tashkil etilishi, “Jaholatga qarshi – ma’rifat” shiori ostida kurash olib borishga imkoniyat yaratildi. Demak, Prezidentimiz tashabbusi bilan Samarqandda Imom Buxoriy ilmiy markazida xadissunoslik, Imom Motrudiy markazi qoshida Kalom ilmi, Farg’onada - Marg’iloniy markazida Islom huquqi maktabi, Buxoroda – Bahouddin Naqshband markazida Tasavvuf, Qashqadaryoda Abu Muin Nasafiy markazida Aqida ilmi maktablari tashkil etildi.

O’zbekistonda milliy adabiyotni va jahon adabiyotining eng sara namunalarini ijtimoiy tarmoqlarga joylashtirish va ularni keng targ’ib qilish davlat siyosati darajasiga ko’tarildi. Kitobxonlik xalqimiz, ayniqsa, yoshlarimiz o’rtasida keng targ’ib qilindi. Bunda yangicha, ta’sirchan uslublardan, moddiy rag’batlashtirishdan unumli foydalanildi. Shunisi bilan quvonarliki, ilmga chanqoq millatimiz yoshlari orasidan yuzlab badiiy, tarixiy asarlarni o’qigan, taxlil qilgan, minglab misra she’rlarni yod olib uni xalqimiz ma’naviy kamoloti yo’lida foydalanayotgan yosh avlod shakllandi.

Shoir, yozuvchi, ilm axliga bo’lgan ehtirom hali bu sohadagi ulkan siljish bo’ldi. Yurtboshimiz Sh.Mirziyoev bu sohadagi davlat siyosatini shunday izohlaydilar: “O’zining noyob iste’dodi va mohoratini xalqimiz ma’naviyatini yuksaltirishga bag’ishlagan, inson qalbining muxandislari bo’lgan ijodkor ziyolilar doimiy g’amxo’rlik masalasi bizning dasturimizda alohida o’rin egallaydi”.

Ijodiy tashkilotlar, badiiy uyushmalar faoliyatini qo’llab-quvvatlash, ularning moddiy texnik bazasini, infratuzilma tarmoqlarini mustahkamlash ishlariga e’tibor yanada kuchaytirildi. Ayniqsa, madaniyat, san’at, adabiyot va matbuot olamiga kirib kelayotgan iqtisoriy yoshlarni moddiy va ma’naviy jihatdan rag’batlashtirishga, ularni uy-joy sharoitlarini yaxshilashga e’tibor qaratildi. O’zbekiston Milliy bog’ining eng so’lim go’shasida Adiblar xiyoboni, Yozuvchilar uyushmasi binosi barpo etildi. Ijodkorlar uyi qurilib, foydalanishga topshirildi.

Mamlakatda olib borilayotgan islohotlarning halqchilligini, insonparvarligi, ijtimoiy adolat mezonlarining muvozanati jamiyatda ayollarga munosabat, ularni qo’llash borasidagi davlat siyosatini samarasiga bog’liq. 2017 yilda mamlakatimiz xotin-qizlari orasida 514 nafar fan doktori, 6 nafar akademik, 15 nafar O’zbekiston Qahramoni, 17 nafar senator, 154 nafar Qonunchilik palatasi deputati borligi, shuningdek, mahalliy kengashlar deputatlarining 23 foizidan ziyodini aynan ayollarimiz tashkil etdi.

O'nlab xotin-qizlarimiz "O'zbekiston fan arbobi", "O'zbekiston xalq shoiri", "O'zbekiston xalq o'qituvchisi", "O'zbekiston xalq artisti" singari davlatimizning yuksak faxriy unvonlariga sazovor bo'lganlar. Shular qatorida 240 nafar yosh iste'dod egalari "Zulfiya" nomidagi Davlat mukofoti bilan taqdirlangan.

Bu sohada O'zbekistondagi nodavlat notijorat tashkilotlarining beminnat xizmatlarini ham ta'kidlab o'tish lozim. Misol uchun, O'zbekiston "Olima ayollar uyushmasi" tomonidan xotin-qizlarimiz orasida ilmiy tadqiqot ishlarini rivojlantirish, ilmiy tadqiqotlardan innovatsion g'oyalarni ro'yobga chiqarish, ilmiy natijalarni chop etish, ayniqsa, yosh tadqiqotchilar o'rtasida turli tanlovlar tashkil etish, g'oliblarni munosib taqdirlash kabi xayrli ishlarni amalga oshirib kelmoqda.

2017 yilda madaniyat, adabiyot va san'at, ommaviy axborot vositalari sohasiga taalluqli 12 ta muhim xujjat qabul qilindi.

Yurtimizdagi ijodiy uyushmalarning ijtimoiy hayotimizdagi o'rni va nufuzini oshirish, moddiy-texnik bazasini mustahkallash maqsadida O'zbekiston ijorkorlarini qo'llab-quvvatlash "Ilxom" jamoat fondi, shuningdek, madaniyat va san'at muassasalari hamda yirik kompaniya va boshqalar hamkorligida "Do'stlar klublari" tashkil etildi.

2017 yil 3 fevral kuni Prezident Shavkat Mirziyoev Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy bog'iga tashrif chog'ida Adiblar xiyoboni majmuasini barpo etish begilangan edi. Shu yili 18 aprelda davlatimiz rahbarining tegishli qarori qabul qilinib, xiyobonning me'moriy-g'oyaviy loyihasi ishlab chiqildi va Toshkent shahridagi Milliy bog' hududida 8 gektardan ziyod maydonda Bobur, Ogahiy, Berdaq, Muqimiy, Furqat, Behbudiy, Avloniy, Cho'lpon, Qodiriy, To'lepbergen Qayipbergenov, Ibroyim Yusupov, Aleksandr Faynberg singari atoqli namoyandalar xotirasiga bag'ishlangan yangi yodgorlik majmualari iborat Adiblar xiyoboni barpo etildi. Hazrat Navoiy bobomizning muhtasham haykali atrofida 20 dan ziyod atoqli shoir va adiblarning haykallari yaxlit me'moriy va badiiy kompozitsiya asosida yaxlit me'moriy ansambli yaratildi. Shuningdek, bu yerda Yozuvchilar uyushmasining yangi binosi barpo etilgani ham hamohanglik kasb etdi.

Qoraqalpog'istonda va bir qator viloyatlarimizda ulug' adiblarimizning nomlari bilan atalgan ijod maktablari barpo etildi. Shuningdek, Qo'qon shahri, Jizzax va Xorazm viloyat teatrlari qayta rekonstruksiya qilindi. O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutining Farg'ona mintaqaviy filiali tashkil etildi.

Mustaqil yurt san'ati, adabiyoti va me'morchiligida milliy qadriyatlarning aks etishi. Mamlakatimizda so'nggi yillarda olib borilayotgan ijtimoiy islohotlar, ma'naviy barkmollik sari yo'l o'ziga xos kechmoqda. Bu boradagi davlat siyosatini, zamon ruhini anglashda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoevning 2017 yil 3 avgustda ijodkor ziyolilar bilan uchrashuvdagi ma'ruzasi ahamiyatga molikdir. Mamlakatimiz rahbarining chiqishlari bu boradagi yutuqlarni e'tirof etishlari va shuning barobarida sohadagi muammolarni chuqur taxlil etilari zamirida kechdi. Zero ma'naviy taraqqiyot mamlakat va millat taraqqiyotining o'ziga ekanligi asrlar davomida o'z tasdig'ini topgan.

Ochiq muloqot, madaniyatimiz va san'atimizning rivojlanish jarayonlarini xolisona va tanqidiy takomili, muammolar yuzasidan atroflicha fikrlashning ohangida kechgan uchrashuv ko'plab masalalarni o'z yechimini topishga xizmat qildi.

Prezidentimiz ijodkor ziyolilarga qarata: “Albatta biz xalqimizning ma’naviy kamol topishida madaniyat namoyondalarining ulkan xizmatlari borligini doimo minnatdorlik bilan e’tirof etamiz. Lekin, qo‘limizni ko‘ksimizga qo‘yib xolisona aytaylik: ijodkor ziyolilarimizning bugungi faoliyati jamiyatimizni, eng avvalo el-yurt taqdiri ulun doimo kuyunib, yonib yashaydigan, bedor qilib egalari bo‘lgan sizlarning o‘zingizni qoniqtiradimi? O‘ylaymanki, hozirgi kunda madaniyat va san’at axlida, yangi-yangi ijodiy g‘oya va tashabbuslar bilan yashash, izlanish ruhi yetishmayotganini o‘zlaringiz ham xis qilib turibsiz”. Biz ushbu fikrlarni keltirar ekanmiz, bugungi kunda mamlakat taraqqiyotiga barcha fuqarolar birdek daxldor ekanligi, befarqlik va loqaydlik bugungi kundagi eng dolzarb odatlar ekanligi tinimsiz uqtirib borilayotgani, ijtimoiy faollik bugungi tezkor xalqaro jarayonlarda barqaror ishtirok etishning muhim omili ekanligini teran anglashimiz kerak.

Yig‘ilishda bugungi kunda O‘zbekiston ulkan qurilish va bunyodkorlik makoniga aylanib borayotgan davrda adabiyot va san’at, ommaviy axborot vositalari ma’naviyatning turli jabhalari oldiga muhim vazifalar belgilandi.

O‘zbekistondagi eng katta ma’naviy hodisalardan biri 1997 yildan beri o‘tkazib kelinayotgan “Sharq taronalari” musiqali festivalidir. O‘zining betakror ruhi bilan takrorlanmas, haqiqiy san’at bayrami bo‘lmish ushbu musiqa festivalida 1997 yil 31 ta ta davlatdan 57 nafar san’atkor ishtirok etgan bo‘lsa, 2018 yilda 58 nafar davlatdan 241 nafar mohir xonanda va sozandalar ishtirok etdi.

Buyuk alloma va adiblarimiz, aziz-avliyolarimizning bebaho merosi, yengilmas sarkarda va arboblarning jasoratini yoshlar ongiga singdirish, ularda milliy g‘urur va iftixor tuyg‘ularini kuchaytirish maqsadida O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi tarkibida “O‘zbekiston tarixi” kanali o‘z faoliyatini boshladi.

O‘zbekiston Respublikasi birinchi Prezidentining «O‘zbekiston Respublikasi xalq baxshisi” faxriy unvonini belgilash to‘g‘risida” 2000 yil 14 mart Farmonidagi baxshichilik san’atini yanada rivojlantirish, milliy qadriyatlarimizni e’zozlash va o‘zbek xalq og‘zaki ijodiyotini keng targ‘ib etishdagi, o‘z ijodi va ijrochilik faoliyati bilan xalqimizni, ayniqsa yoshlarni ko‘p ming yillik madaniyatimiz sarchashmalaridan bahramand qilishdagi salmoqli hissalarini hamda Vatan istiqloli va shon-sharafini ulug‘lash yo‘lida O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarini rag‘batlantirishning maqsadida “O‘zbekiston Respublikasi xalq baxshisi” faxriy unvoni ta’sis etildi. Shuningdek, 2019 yil 5-10 aprel kunlari Termiz shahrida xalqaro baxshichilik san’ati festivali o‘tkazildi. Termiz shahrida baxshilar maktabi yangidan tashkil etildi. Respublikasiz bolalar musiqa va san’at maktablarida yuzlab yoshlarimiz folklor san’atini o‘rganmoqdalar. O‘zbekistonda 100 tomlik “O‘zbek xalq ijodi yodgorliklari” nashr etilmoqda.

Yoshlarimizga bo‘lgan e’tiborni yanada kuchaytirish, ularni madaniyat, san’at, jismoniy tarbiya va sportga keng jalb etish, yoshlarda axborot texnologiyalaridan foydalanish ko‘nikmalarini shakllantirish, yurtimiz yoshlari o‘rtasida kitobxonlikni targ‘ib qilish, xotin-qizlar bandligini oshirish maqsadida Prezidentimiz tomonidan ilgari surilgan 5 ta muhim tashabbus muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur 5 tashabbus keng jamoatchilik tomonidan, ayniqsa, yoshlarimiz katta qiziqish bilan kutib oldi. Shuni alohida ta’kidlash lozimki, 5 ta muhim tashabbusning har bir yo‘nalishi ma’lum bir sohani o‘z ichiga qamrab oladi.

Birinchi tashabbus - yoshlarning musiqa, rassomlik, adabiyot, teatr va san'atning boshqa turlariga qiziqishlarini oshirishga, iste'dodini yuzaga chiqarishga xizmat qiladi.

Ikkinchi tashabbus - yoshlarni jismoniy chiniqtirish, ularning sport sohasida qobiliyatini namoyon qilishlari uchun zarur sharoitlar yaratishga yo'naltirilgan.

Uchinchi tashabbus- aholi va yoshlar o'rtasida kompyuter texnologiyalari va internetdan samarali foydalanishni tashkil etishga qaratilgan.

To'rtinchi tashabbus – yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish, ular o'rtasida kitobxonlikni keng targ'ib qilish bo'yicha tizimli ishlarni tashkil etishga yo'naltirilgan.

Beshinchi tashabbus xotin-qizlarni ish bilan ta'minlash masalalarini nazarda tutadi.

5 ta muhim tashabbus doirasida mamlakatimiz yoshlari o'rtasida kitobxonlik an'anasini yanada jonlantirish, kitob mutolaasiga keng e'tibor qaratish bo'yicha amalga oshirilayotgan sa'y-harakatlar diqqatga sazovordir. 2017 yil sentyabr oyida ta'lim muassasalarida "Men sevib o'qigan kitob", "Eng yaxshi kitobxon" tanlovlari tashkil etiladi. Buning uchun budjetdan tashqari mablag'lar, xayriya mablag'larni hisobidan 160 mln. so'm ajratildi. Har bir tuman markazlarida kitob do'konlari ochildi va yangi asarlar bilan boyitildi.

Davlatimiz rahbari tomonidan 2017 yil 28 iyulda qabul qilingan "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish va sohani rivojlantirishning yangi bosqichga ko'tarish to'g'risida"gi Qarori bilan Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi tashkil etildi. Ushbu markazning faoliyati bilan bog'liq asosiy vazifalarda, xususan, milliy g'oyani yurtimizda yashayotgan barcha millat va elatlar, ijtimoiy toifa vakillari orasida keng targ'ib qilish, bunyodkorlik ruhini yalpi ijtimoiy xarakterga aylantirish, ertangi kunga ishonch tuyg'ularini kuchaytirish bo'yicha vazifalar belgilandi.

Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar

1. O'zbekistonning mustaqilligini dastlabki kunlarida milliy qadriyatlarni tiklash borasida qanday ishlar olib borildi?
2. O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidentining Respublika ma'naviyat va ma'rifat kengashini qo'llab-quvvatlash to'g'risidagi yangi farmoni qachon qabul qilindi?
3. Markaziy Osiyo tarixida siyosiy aql-idrok bilan ma'naviy jasoratni, diniy dunyoqarash bilan qomusiy bilimdonlikni o'zida mujassam etgan buyuk ajdodlarimiz haqida nimalarni bilasiz?
4. O'zbekistonda o'zbek adabiyoti taraqqiyoti tarixining yangi davri qachon boshlandi?
5. Toshkentda YUNESKO rahnamoligida «Jaxon dinlari tinchlik madaniyati yo'lida» mavzuida dinlararo muloqot, xalqaro anjuman nechanchi yilda bo'lib o'tdi?
6. Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy bog'iga barpo etilgan Adiblar xiyoboni maydoni qancha va qaysi adiblar haykallari joy olgan?
7. Mamlakatimizda nechta diniy ta'lim muassasasi faoliyat ko'rsatadi?

8. 2017 yilda madaniyat, adabiyot va san'at, ommaviy axborot vositalari sohasiga taalluqli jami nechta muhim xujjat qabul qilindi?
9. Yurtimizdagi ijodiy uyushmalarning ijtimoiy hayotimizdagi o'rni va nufuzini oshirish, moddiy-texnik bazasini mustahkamlash maqsadida qanday fondlar tashkil etildi?
10. Prezidentimiz tomonidan ilgari surilgan 5 ta muhim tashabbus yo'nalishlarini aytib bering?

Testlar

1. Qachon Prezident farmoni bilan Ramazon va Qurbon hayit kunlari umumxalq bayrami deb e'lon qilindi?
 - A) 1994 yil
 - B) 1997 yil
 - V) 1992 yil
 - S) 2010 yil
2. 1994 yil Mirzo Ulug'bek tavallud topgan kunining 600 yilligi keng ko'lamda, jahon miqyosida nishonlandi. Yevropaning qaysi shahrida yubileyga bag'ishlangan haftalik o'tkazildi?
 - A) Parij
 - B) London
 - V) Milan
 - S) Madrid
3. Nechanchi yilda mamlakatimizda Jaloliddin Manguberding 800 yillik tavalludiga, «Alpomish» dostoni yaratilishining 1000 yilligiga bag'ishlangan ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar tashkil etildi..?
 - A) 1998 yil
 - B) 1999 yil
 - V) 2000 yil
 - S) 2002 yil
4. Islom konferensiyasi tashkilotining tuzilmalaridan biri bo'lgan ta'lim, fan va madaniyat masalalari bo'yicha xalqaro islom tashkiloti (ISESCO) tomonidan Toshkent shahri qachon islom madaniyati poytaxti deb e'lon qilindi?
 - A) 2007 yilda
 - B) 2008 yilda
 - V) 2009 yilda
 - S) 2010 yilda
5. O'zbekistondagi 1997 yildan beri o'tkazib kelinayotgan "Sharq taronalari" musiqali festivalida, dastlab nechta davlat ishtirok etdi?
 - A) 31 ta
 - B) 57 ta
 - V) 58 ta
 - S) 41 ta
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti «O'zbekiston Respublikasi xalq baxshisi» faxriy unvonini belgilash to'g'risida" Farmoni qachon qabul qilingan?
 - A) 1999 yil 25 iyun

B) 2000 yil 14 mart

V) 1994 yil 15 aprel

S) 2001 yil 14 mart

7. 2019 yil 5-10 aprel kunlari Respublikamizning qaysi shahrida xalqaro baxshichilik san'ati festivali o'tkazildi.

A) Qarshishahrida

B) Kitob shahrida

V) Termiz shahrida

S) Buxoro shahrida

8. Qachon Prezident Shavkat Mirziyoev O'zbekiston Milliy bog'iga tashrif buyurib, Adiblar xiyoboni majmuasini barpo etishligi begilangan edi.

A) 2016 yil 25 iyun

B) 2019 yil 14 mart

V) 2018 yil 15 aprel

S) 2017 yil 3 fevral

13- Mavzu: O'zbekiston Respublikasida ta'lim sohasida amalga oshirilgan islohotlar

Reja:

1. O'zbekistonda mustaqillik yillarida ta'lim tizimidagi islohotlar
2. Ta'lim tizimining mazmun mohiyatining jaxon standartlariga mos keltirish borasidagi o'zgarishlar
3. Yangilanayotgan O'zbekistonda ta'lim sohasining sifat o'zgarishlari hamda xalqarolashtirish tamoyillari
4. Fan, oliy ta'lim va ishlab chiqaruvchilar integratsiyasining qabul ko'rsatkichlardagi o'rni

***Darsning o'quv maqsadi:** O'zbekistonda mustaqillik yillarida ta'lim tizimidagi islohotlar, ta'lim tizimining mazmun mohiyatining jaxon standartlariga mos keltirish borasidagi o'zgarishlar, yangilanayotgan O'zbekistonda ta'lim sohasining sifat o'zgarishlari haqida asosiy tushunchalar berish.*

***Tayanch so'z va iboralar:** O'zbekistonda ta'lim sohasidagi davlat siyosatining huquqiy asoslarining yaratilishi, innovatsiyalar, ta'lim tizimidagi islohotlar, ta'limning moddiy-texnik bazasi, oliy ta'lim muassasalarining xalqaro hamkorligi, ta'lim va fan sohasini rivojlantirishning yangi bosqichga ko'tarilishi, oliy ta'lim tizimini rivojlantirish konsepsiyasi.*

O'zbekistonda mustaqillik yillarida ta'lim tizimidagi islohotlar.

O'zbekistonda malakali kadrlarni tayyorlashdagi, aholining ilmiy madaniy, ta'lim-tarbiyaviy taraqqiyotini ta'minlashda yetarlicha natijalar an'analarni o'zida jamlagan kuchli potensial jamlangan. Shuning uchun O'zbekistondagi oliy ta'lim oldida to'plangan ijobiy tajribalarni saqlash va mazmunan boyitish dunyo ta'lim kengliklarida o'zining munosib o'rnini egallash kabi favqulodda jiddiy vazifa turib qoldi. Ayniqsa, bir necha o'n yillab mafkuraviy iskanjada bo'lgan fan, madaniyat, ta'limning undan bo'shatish, yangi qadriyatlar, innovatsiyalar orqali jonlantirish mustaqil O'zbekiston xalqi oldida sharafli va sermashaqqat vazifalardan biri edi.

O'zbekiston mustaqillik ostonasida turar ekan, respublika rahbariyati dastlabki vazifalardan biri ilm-fanni, ta'lim tizimini isloh qilish, modernizatsiya qilish lozimligini chuqur anglar edi. O'zbekistonning o'sha paytdagi rahbari I.Karimov 1988 yil 20 noyabrda O'zbekiston SSR Fanlar Akademiyasida bo'lgan uchrashuvda shunday degan edi: "Respublika hayotining barcha sohalarida ilm-fan mavqeini prinsip e'tibori bilan yangi sifat darajasiga ko'tarish respublika Fanlar Akademiyasining asosiy vazifasidir, deb o'ylaymiz. Ilm-fan ahliga buyruq berish, quruq ma'muriyatchilik, olimlarga apparat xodimlari kabinetlarida paydo bo'ladigan "ijtimoiy buyurtmani" ro'baro' qilish davri o'tib ketdi. Ijodiy izlanishlarning natijalarini qamrab olgan Fanlar akademiyasi olimlarining asarlari va tavsiyalari respublika taraqqiyotining istiqbolini belgilaydigan keklajakdagi hisob-kitoblar va siyosatning poydevori bo'lishi darkor..

Fanga iste'dodli yoshlarning kirib kelishini ta'minlash uchun kompleks tadbirlar turkumini amalga oshirish zarur. Bu borada oliy maktabning, hatto umumiy ta'lim maktablarining faoliyatini tubdan qayta qurish kerak".

Mustaqillik yillarida O'zbekiston Respublikasida islohotlarni boshidan kechirgan va natijasini ko'rsata olgan sohalardan biri ta'lim tizimidir. O'zbekiston ilm-fanga alohida e'tibor qaratila boshlandi. Zamonning tezkor taraqqiyotiga xizmat qiluvchi yangi fan sohalari bo'yicha tadqiqotlar yo'lga qo'yildi. Tabiiy va aniq fanlarni o'qitish va ilmiy tadqiqotlar olib borish davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. O'zbekiston Respublikasida ilm-fanni rivojlantirishda O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasining o'рни beqiyosdir. Shuningdek, respublika oliy ta'lim muassasalaridagi professor-o'qituvchilar faoliyatining salmoqli qismi ilmiy tadqiqotlarga qaratilganligi o'z samarasini bera boshladi. "Fan, ta'lim va ishlab chiqarish integratsiyasi" O'zbekistonda ilmu-fan rivojlanishiga bosh maqsadlardan biri etib belgilandi.

1992 yilda O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidentining farmoniga binoan Respublika Vazirlar Mahkamasi huzurida Oliy Attestatsiya Komissiyasi tashkil etilishi munosabati bilan ilmiy tadqiqotlar va texnologik ishlanmalar sifatiga qo'yilgan talablarga muvofiq, ilmiy texnika va innovatsiya faoliyatini yanada rivojlantirish, shuningdek, mamlakat ilmiy salohiyatidan samarali foydalanishda muhim ahamiyatga ega bo'ldi.

O'zbekistonning mustaqillikka erishuvi xalq ta'limi tizimi taraqqiyotiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi. Milliy pedagogik tafakkur ta'sirichan ta'limning sog'lomlashtirish jarayoni boshlandi. Uzoq vaqt mobaynida tashqi dunyodan uzib qo'yilgan, o'zga mamlakatlar tarixiy tajribasidan ham, milliy ma'rifiy merosdan ham bahramand bo'lmagan milliy pedagogika jahon maydoniga chiqdi. Erishilgan natijalarni o'zgalarniki bilan qiyoslash, boshqalardan ijobiy jihatlarni o'zlashtirish imkoniyati paydo bo'ldi.

Respublikamizda ta'limning yangi tizimini amalga oshirishda O'zbekiston xukumati tariximizdagi ta'lim jarayonlarini o'rganib chiqib, ta'limni isloh qilish dasturini tayyorladi. Barcha e'tibor ta'lim tizimlarini demokratik va insonparvarlik tamoyillari asosida takomillashtirilib, uning moddiy-texnik bazasini zamon va davr talablari darajasiga ko'tarish va O'zbekiston ma'rifiy salohiyatini kuchaytirishga qaratildi.

O'zbekiston Respublikasida 1992 yil 2 iyulda qabul qilingan "Ta'lim to'g'risidagi" qonun ilgari erishilgan muvaffaqiyatlarni saqlab qolishga xizmat qildi. Ushbu qonun o'z vaqtida muhim bo'lgan bo'lsa-da, ammo ta'lim tizimini isloh qilishning amaliy chora-tadbirlari, ta'lim tarbiya va o'quv jarayonlarining tarkibini, bosqislarini bir-biri bilan uzviy bog'lash, ya'ni uzluksizlikni ta'minlash muammolarini yecha olmadi. Ta'lim tizimidagi yig'ilib qolgan muammolar 1997 yil 29 avgustda qabul qilingan "Ta'lim to'g'risida"gi yangi qonunni va kadrlar tayyorlash milliy dasturining yaratilishiga sabab bo'ldi.

Milliy dastur muammolar va kadrlar tayyorlash tizimini tubdan isloh qilish omillari, milliy dasturning maqsadi, vazifalari va uni ro'yobga chiqarish bosqichlari, kadrlar tayyorlashning ilmiy modeli, kadalr tayyorlash tizimini rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari kabi bo'limlarni qamrab olgan. O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risidagi" Qonunning mohiyatini o'zida aks ettirgan bu dastur respublika ta'lim tizimining istiqbolli kelajagiga mo'ljallangan bo'lib, uni kompleks rivojlantirishga qaratilgan. Milliy Dastur va dasturlarning xayotga tatbiq etilishi

natijasida mazkur soha tubdan isloh qilindi, zamonaviy uzluksiz ta'lim va tarbiya tizimi yaratildi.

Mamlakatimizda yangicha ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarda shakllanayotgan maktabgacha ta'lim tizimi bir qator o'ziga xos xususiyatlarga ega. Maktabgacha ta'lim muassasalarining yangi tarmog'i paydo bo'lmoqda. Misol tariqasida "Xonadon bog'chasi", "Fermer xo'jaligi bog'chasi", "Bolalar bog'chasi – boshlang'ich maktab" majmualari vujudga kelmoqda. So'nggi uch yilda yangi ijobiy yutuqlardan biri maktabgacha ta'lim muassasalari xususiy sektorning ulushi oshib bormoqda. MDH davlatlari doirasida noyob tajribalardan biri maktabgacha ta'lim xalq ta'limidan mustaqil Vazirlik tasarrufida boshqarilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Miziyoevning 2017 yil 30 sentyabrdagi Qaroriga muvofiq yurtimizda birinchi marta Maktabgacha ta'lim vazirligi tashkil etildi. Bu sohada faoliyat tubdan yangiga negizga qurildi. O'tgan qisqa davrda 980 dan ortiq bog'chalar ishga tushirildi. So'nggi 2 yil ichida esa bolalar bog'chalari soni 1 ming 400 taga ortib, 6 ming 367 taga yetdi. Ularda ta'lim va tarbiya ishlari mazmun va sifat jihatidan eng ilg'or usul va vositalar yordamida olib borilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Miziyoev Oliy majlisga Murojaatida O'zbekistonda ta'lim tizimi taraqqiyoti davlat siyosatining ajralmas qismi ekanligini ta'kidlab shunday dedi: "Uchinchidan, ilm-fan, zamonaviy va uzluksiz ta'lim tizimini yanada takomillashtirish zarur. Xalqimizda "ta'lim va tarbiya beshikdan boshlanadi" degan bir xikmatli so'z bor. Faqat ma'rifat insonni kamolga, jamiyatni taraqqiyotga yetaklaydi. Shu sababli, ta'lim sohasidagi davlat siyosati uzluksiz ta'lim tizimi prinsipiga asoslanishi, ya'ni, ta'lim bog'chadan boshlanishi va butun umr davom etishi lozim." ²

Ta'lim tizimi aholining katta qismini jalb qiladi. Umumiy o'rta ta'lim uzluksiz ta'lim tizimidagi asosiy bo'g'in bo'lib, u bilimlarni zarur xajmini beradi, mustaqil fikrlash, tashkilotchilik qobiliyati va amaliy tajriba ko'rikmalarini rivojlantiradi.

Ta'lim tizimining eng mas'uliyatli bo'g'inlaridan biri bo'lgan oliy ta'limni tubdan o'zgartirilishi mustaqil O'zbekistonda islohatlarning tarkibiy qismi bo'ldi. Mamlakat kelajagi va taraqqiyoti bevosita yoshlarning milliy istiqloq g'oyasi ruhida tarbiyalanganligi bilan belgilanadi. Bu murakkab vazifa esa zamonaviy ta'lim va tarbiya tizimini vujudga keltirish orqali amalga oshiriladi. Shu bois ta'lim tizimida ma'naviy-ma'rifiy ishlarni zamon talablari darajasida rivojlantirish ustivor vazifa sifatida belgilangan. Yoshlarning tegishli mutaxassislik, hunar va kasblarini chuqur egallashlari Vatan va millat manfaatlarini yo'lida fidoyilik ko'rsata oladigan barkamol shaxsni tarbiyalash ham oliy ta'lim zimmasidagi asosiy vazifa ekanligi belgilangan.

Oliy ta'lim uzluksiz ta'lim tizimini bosh bo'g'inlaridan biri hisoblanadi. Bu soha jamiyatning iqtisodiyoti, fani, madaniyati va texnologik jarayoni bilan yaxlit xolda chasbarchas bog'liqdir. Shuning uchun uning taraqqiyoti umummilliy rivojlanish strategiyasining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. XXI asr globalizatsiya bilan bog'liq holda oliy ta'limga yangi an'analar va yangi muammolarni yetkazib berdi. Bu jarayon dunyoning barcha universitetlariga o'z ta'sirini o'tkazmoqda. Bugungi kunda

² Mirziyoyev Sh. Niyati ulug' xalqning ishi ham ulug', hayoti yorug' va kelajagi farovon bo'ladi. Toshkent, "O'zbekiston, 2019, 29-b.

barcha universitetlar uchun dunyo ta'lim kengliklarida o'z mavqeini saqlab qolish, teng huquqli hamkor sifatida bo'lish muhim vazifalardan biri bo'lib qolmoqda.³

Birinchi galda universitetlar ta'lim tizimini zamonaviy loyihasi tayyorlanib, ta'lim tizimining asosi bo'lgan yangi o'quv rejalar, dasturlar yaratildi. 1993 yildan davlat ta'lim standartlari ishlab chiqildi va bakalavrlar tayyorlashda qo'llanila boshladi. Viloyat markazlarida tashkil etilgan oliy o'quv yurtlarida mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirish, ularning ilmiy intellektual imkoniyat va moddiy texnika bazasini mustahkamlash maqsadida 1995 yil 31 mayda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi "O'zbekiston Respublikasi mintaqaviy oliy o'quv yurtlarini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" maxsus qaror qabul qilindi.

O'zbekiston Respublikasi ning "Ta'lim to'g'risida" qonuni va Kadrlar tayyorlash milliy dasturi asosida oliy ta'lim muassasalari moddiy texnika bazasini mustahkamlash va rivojlantirish, ularni zamonaviy o'quv laboratoriya uskunalari va kompyuter texnikasi bilan jihozlash, darslik va o'quv uslubiy materiallar, pedagog kadrlar bilan ta'minlash amalga oshirildi. Bu davrda Toshkent Islom universiteti, Jahon iqtisodiyoti va diplomatika universiteti kabi o'nlab universitet va institutlar tashkil etildi. Moskva Davlat universitetining filiali, xalqaro Vestminster universiteti, Turin politexnika instituti kabi nufuzli oliy ta'lim dargohlari minglab yoshlarga ilg'or xorijiy tajribani qo'llab, ta'lim berishi mamlakatimizda kadrlar tayyorlashni yana bir pog'ona yuqori ko'tarilishiga omil bo'ldi. Shuningdek, mamlakatimiz oliy o'quv yurtlarida ta'lim sifatini oshirish, xorijda tayyorlanadigan mutaxassisliklarni qo'shma fakultet va institutlar ko'magida tayyorlash tajribasi yo'lga qo'yildi. O'zbekistonda oliy o'quv yurtlari nufuzini oshirish, nodavlat ta'lim maskanlari sonini ko'paytirib, sohaga yuqori malakali kadrlarni jalb etish va raqobatni kuchaytirish yo'lga qo'yilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi 2008 yil 28 yanvardagi Farmoni bilan Toshkent Davlat universitetiga "Milliy universitet" maqomi berildi. Respublikamizda emas balki Markaziy Osiyoda oliy ta'limni tashkil topishida va rivojlanishida Toshkent Davlat Universiteti katta o'rin tutadi. Davrlar mobaynida ushbu universitetning qator fakultetlari negizida bir nechta mustaqil institutlar tashkil topdi. "Milliy universitet" mustaqillik yillarida oliy ta'lim rivojiga munosib xissasini qo'shdi va kadrlar tayyorlash Milliy Dasturining ijrosida haqiqiy bayroqdorlik qildi. Shu o'rinda oliy ta'lim sohasida ko'plab sohalarga bosh mezonni belgilovchi O'zbekiston Milliy universitetida 30 dan ziyod ilmiy maktablar shakllangan bo'lib, ulardagi ilmiy natijalar ilmu fan taraqqiyotiga xizmat qilayotganligi quvonarli xoldir.

Oliy ta'limdagi tubdan o'zgarishning asosiylaridan biri yangi avlod darsliklarini yaratilishi, davlat ta'lim standartini shakllantirish bo'ldi. Bu oliy ta'lim, shuningdek, akademik tizimdagi olimlarning ulkan hajmdagi mashaqqatli, mas'uliyatli vazifalaridan biri bo'lib, zamonaviy ilmiy qarashlarni o'zida jamlagan bilimlar to'plami vujudga keldi.

Oliy ta'limning maqsadi mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy rivojini ta'minlashga, o'zi tanlagan mutaxassislik bo'yicha bozor iqtisodiyoti sharoitida

³Сиддиқов Р.Б. Вопросы инноваций в изучении реформирования высшего образования Республики Узбекистан. Ўзбекистон тарихи фанидаги инновациялар (илмий тўплам), "Noshir", Тошкент, 2012, 232 б.

mustaqil ishlashga layoqatli, yuqori malakali, raqobatdardosh kadrlarni tayyorlashdan iborat. Respublika oliy o'quv yurtlarida talabalar bilim olish bilan birgalikda ilmiy tadqiqot ishlarini ham olib boradilar. Ilmiy mavzularp ko'pincha talabalarning ixtisosligi bo'yicha tegishli ishlab chiqarish korxonalarini, ilmiy tadqiqot muassasalari bilan bog'liq holda amalga oshiriladi.

Ta'lim tizimining mazmun mohiyatining jaxon standartlariga mos keltirish borasidagi o'zgarishlar. O'zbekiston oliy ta'lim muassasalarining xorijdagi nufuzli oliy ta'lim muassasalari bilan aloqani kuchaytirish, chet el investitsiyalarini ta'lim sohasiga jalb etishga alohida e'tibor qaratilgan. Oliy ta'lim muassasalarining xalqaro hamkorligi ta'lim tizimini takomillashtirish va uni jahon andozalariga ko'tarish, malakali ilmiy-pedagog kadrlar tayyorlash, xorijiy ta'lim muassasalari bilan o'zaro manfaatli aloqalar o'rnatish, professor-o'qituvchi, doktorant aspirant va talabalarning til va kasbiy malakasini oshirish hamda ta'limning turli yo'nalishlari bo'yicha tajriba almashtirish maqsadlarida amalga oshirilmoqda.

AQSh, Janubiy Koreya, Rossiya hamda Yevropa mamlakatlarining yetakchi oliy o'quv yurtlarida malaka oshirishning tizimli asosi yaratildi. Shuningdek, oxirgi yillarda yana bir ijobiy yutuq xorijdagi vatandoshlarimiz ilmiy salohiyatidan unumli foydalanish, iqtidorli xorijlik olimlarning O'zbekiston oliy ta'lim muassasalarida dars berishlari yo'lga qo'yildi. Shuningdek, o'qitishning yangi texnologiya va usullarini o'rgatmoqdalar. Ilm ahli chet eldagi olimlar bilan mustahkam ijodiy aloqalar o'rnatildi. "Umid", "Iste'dod" hamda "El-yurt umidi" fondlari tomonidan ilm fan, ta'lim namoyondalarini xorijiy tajribaga o'rganish muhim vazifa qilib qo'yildi. Buning natijasida tabiat va texnika-texnologiya haqidagi fanlar ham jahon andozasi darajasiga ko'tarila boshlandi. 1997 yilning dekabrda "Ustoz" jamg'armasi tashkil topdi. Ushbu jamg'armaning asosiy maqsadi professor-o'qituvchilar orasidan yuqori malakali pedagog-ustozlarni tayyorlashdan iborat. Bu jarayonni amalga oshirishda rivojlangan demokratik mamlakatlarda mavjud bo'lgan tajribalar o'rganildi va ular tatbiq etildi.

Davlatimiz rahbarining 2018 yil 25 sentyabrdagi farmoni bilan Vazirlar Mahkamasi huzurida "El yurt umidi" jamg'armasi tashkil etildi. Ushbu jamg'arma chet ellarda faoliyat ko'rsatayotgan salohiyatli vatandagi olimlar, mutaxassislar va ekspertlarini O'zbekistonda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohatlarga faol jal etishga shuningdek iqtidorli yoshlarning rivojlangan mamlakatlarda ta'lim olish, yetakchi xalqaro institutlar xamda xorijiy tashkilotlarda malaka oshirishda ko'maklashadi.

Mustaqilligimiz kelajagi yoshlar qo'lida ekan bilimdon, ma'naviyatli, mustaqil fikrlab, mustaqil ish yuritadigan yoshlarni, mamlakat rahbari ta'biri bilan aytganda, jamiyatimizning eng katta boyligi, millatimizning intellektual, aql-zakovat boyligi bo'lmish yigit-qizlarimizni tarbiyalash mamlakatimiz hayotida birinchi darajali vazifa ekanligi ko'p bor ta'kidlandi.⁴

Respublikadan tashqarida ham keng tanilgan – Toshkent va Samarqand davlat universitetlari, Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universitetlari, Jahon tillari universiteti, Toshkent iqtisodiyot universiteti, Texnika universiteti, Agrar universitet,

⁴ Муртазаева Р.Х. Ўзбекистон тарихи.

Konservatoriya, San'at instituti, shuningdek, respublikaning barcha mintaqalarida joylashgan tibbiyot, gumanitar tarmog'i ta'lim tizimining o'zagi bo'lib qoldi.

Bozor munosabatlarini rivojlantirish, xo'jalik yuritishning ilg'or usullari va ishlab chiqarishni ilmiy-texnikaviy rivojlantirish, tashqi iqtisodiy faoliyat bilan bog'liq bilim sohalari bo'yicha mutaxassislar tayyorlash kengayib bordi. Shu yillarda oliy va o'rta maxsus o'quv yurtlarida 360 mingdan ortiq talaba o'qib, malaka egalladi.⁵

Mamlakatimizda 2016 yilda siyosiy-huquqiy, iqtisodiy, ma'naviy sohalar bilan bir qatorda, ijtimoiy sohalarda ham chuqur sifat o'zgarishlari ro'y berdi. Jamiyat ijtimoiy sohasining eng muhim tarkibiy qismlaridan biri ta'lim-tarbiya sohasi bo'lib, uning rivoji siyosiy, huquqiy iqtisodiy va ma'naviy sohalarga bevosita ta'sir etadi hamda ijtimoiy sohalar me'yoriy mohiyati, kamolot darajasini belgilab beradi.

2017 yil yilda ta'lim davlat siyosatining eng ustivor yo'nalishiga aylandi. Davlat budjetidan ta'limga ajratilgan mablag'lar budjet xarajatilari qismining 33.7 foizi darajasida rejalashtirilib, ta'lim sohasiga yo'naltirilayotgan harajatlar hajmi mamlakatimiz YaIM tarkibida 10-12 foizni tashkil etadi.

O'zbekiston ta'lim maydoni ulkan hajmga ega bo'lib, 10 mingga yaqin maktab, 1556 ta litsey va kollejar, 100 dan ziyod oliy o'quv yurtlarida yangi ta'lim tizim asosida bilim va tarbiya olib, zamonaviy kasb-hunarlariga ega bo'lib, mamlakatimiz ta'lim modelining samarasini namoyon etmoqdalar.

Yangilanayotgan O'zbekistonda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar zahirida oliy ta'limning o'rni va ahamiyatiga ulkan xissa qo'shildi. O'zbekistonda amalga oshirilayotgan ilm-fan taraqqiyoti, ta'lim rivojlanishining kelgusidagi har bir muvaffaqiyati, muammoli masalalari yechim topishi xayotiy masala ekanligi teran tushuntirildi.

Biz yuqorida ta'kidlaganimizdek ta'lim tizimi bir necha million fuqaroni birlashtirib, mamlakatning ertangi kuniga birinchi galdagi daxldor soha ekanligi barchamizga ayon bo'lib bormoqda. Shuningdek, globallashuv jarayoni shiddat bilan rivojlanishni taqazo etayotganligi ham kundek ravshan. Bejizga 2016-2020 yillarning may oyigacha oliy ta'lim tizimini yangi bosqichga olib chiqishga qaratilgan 62 dan ortiq me'yoriy huquqiy xujjatlar qabul qilinmaganligini teran anglamog'imiz lozim. Biz shu o'rinda ularning ba'zilariga to'xtalib o'tsak, mavzuning mazmun mohiyatini tushunarli bo'ladi. Oliy ta'limning yangi sifat bochqichiga ko'tarilishiga xizmat qiluvchi ushbu Farmon va qarorlarning qabul qilishni yoshlarimizning jaxonning rivojlangan mamlakatlardagi ta'lim standartlariga to'la mos keladigan bilimlarni egallashlariga, ularning ijodiy va intellektual salohiyatini oshirishga xizmat qilmoqda. Ushbu me'yoriy xujjatlar yana shunisi bilan e'tiborliki unda faqatgina yutuqlar sanab o'tilmay, ishchan tanqid, muammolarni e'tirof etish orqali kelajak taraqqiyot uchun konstruktiv g'oya va takliflar belgilangan.

Yangilanayotgan O'zbekistonda ta'lim sohasining sifat o'zgarishlari hamda xalqarolashtirish tamoyillari. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev 2016 yil 30 sentyabrda "1 oktabr – O'qituvchilar va murabbiylar kuni" munosabati

⁵ Каримов И. Ўзбекистон XXI аср бўсағасида: хавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари. "Ўзбекистон", Тошкент, 1997, 25-б.

bilan yo'llagan tabrigida shunday degan edi: "Ayni paytda bugungi kunda oldimizda yanada muhim va dolzarb vazifalar turganini hammamiz yaxshi tushunamiz. Shu borada ilm-fan va ta'lim tarbiya sohasini moddiy texnika bazasini yanda mustahkamlash, uning nafaqat davr bilan hamohang bo'lishini, balki zamondan oldinda yurishini ta'minlash, pedagog kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlashning ilg'or usullaridan keng foydalanish, bu ishlarni xorijdagi nufuzli markazlar bilan hamkorlikda olib borish, sohaga zamonaviy texnologiyalarni joriy etish, o'qituvchi va domlarning mashaqqatli va mas'uliyatli mehnatini har tomonlama rag'batlantirish bilan bog'liq vazifalarni amalga oshirish, qisqa qilib aytganda, hayotimizga katta kuch bo'lib kirayotgan yangi avlodimizni kamol toptirish uchun davlatimiz tomonidan barcha imkoniyatlar safarbar etiladi".⁶

Ilm-fan namoyondalarining, ta'bir joiz bo'lsa "igna bilan quduq qaziydigan" zahmatkash olimlarimizning mashaqqatli ilmiy izlanishlari mamlakatimiz, uning bugungi va kelgusi ravnaqi uchun juda katta ahamiyatga ega. Bu fidoyi insonlar uchun har tomonlama qulay sharoitlar yaratish maqsadida biz bor kuch va imkoniyatlarimizni safarbar etamiz. Bugungi kunda dunyoda innovatsion g'oyasiz, ilm-fan yutuqlarisiz bironta sohani rivojlantirish mumkin emas.⁷ Ushbu niyat va fikrlar kelgusida aniq rejalar asosida amalga oshirildi va ta'lim tizimida ulkan sifat o'zgarishlariga asos bo'ldi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev prezidentlik lavozimiga kirishgan kunlardan oq O'zbekistonda ilmu-fanni taraqqiy toptirish, ta'lim tizimini shu jumladan, oliy ta'limni zabardast sohaga aylantirishga tizimli amaliy ko'mak berishga bosh bo'ldi. O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi salohiyati oshirildi. O'zbekiston Fanlar Akademiyasi tizimi takomillashtirildi, moddiy texnika bazasi mustahkamlandi, uning tarkibida bir qator ilmiy tadqiqot institutlari va markazlar faoliyati tiklandi. Ko'p yillik tanaffusdan so'ng Fanlar akademiyasiga saylov o'tkazilib, o'zining ilmiy ishlari bilan mamlakatimiz va xalqaro miqyosda nom qozongan iste'dodli olimlar akademik degan yuksak sharafiga sazovor bo'ldilar. 2016 yil 30 dekabrda O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning mamlakatimizning yetakchi ilm-fan namoyondalari bilan uchrashuvida qayt etilganidek, fan, ta'lim va ishlab chiqarish integratsiyasiga yanada takomillashtirishni muhim ahamiyatga ega. Bugun jahonning yetakchi universitetlari iliy markazlari va fanlar akademiyalari bilan ilmiy xamkorlikni yanada mustahkamlashni zamoni o'zi talab etmoqda. Mamlakatimiz va jamiyatimizning zamon talablari darajasi rivojlanishini ilm-fansiz tasavvur qilish qiyin.

Olimlarni qo'llab-quvvatlash, ilmiy tadqiqotlarni yangi bosqichga ko'tarish ilmu fanni iqtisodiyot tarmoqlaridagi ulushini oshirish maqsadida Innovatsion rivojlanish Vazirligi tashkil etildi.

⁶ Mirziyoyev Sh. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz (1-qism), O'zbekiston, Toshkent, 2018, 25-b.

⁷ Mirziyoyev Sh. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz (1-qism), O'zbekiston, Toshkent, 2018, 85-b.



Bugungi kunda Innovatsion rivojlanish vazirligi tomonidan ilm-fan va ishlab chiqarish o'rtasidagi integratsiyani ta'minlash uchun zarur tizim yaratildi. Ilmiy tadqiqot muassasalari va olimlarning innovatsion g'oya va loyihalari qo'llab-quvvatlanib, qiymati 28.2 milliard so'mlik 31 ta startap loyiha moliyalashtirildi. Xalqaro hamkorlik doirasida 2020 yil birinchi choragi davrida Germaniya, Rossiya, Belorusiyadagi sheriklar bilan 9.6 mlrd so'mlik 38 ta qo'shma loyiha amalga oshirilmoqda.

Davlatimiz rahbari 2019 yil 24 may kuni O'zbekiston Milliy universitetida oliy ta'lim va ilm-fan namoyondalari bilan uchrashdi. Uchrashuv chog'ida bugunda ilmiy tadqiqotlar, ta'lim tizimida sifat jihatidan tubdan yaxshilash borasida qator fikrlar bildirildi va moddiy texnika bazasini yaxshilash uchun 6 mln dollar hajmida moliyaviy ko'mak ajratishga ko'rsatmalar berildi.

Olim va pedagoglarning ijtimoiy sharoitlarini yaxshilash masalalari alohida e'tibor qaratib, ular uchun ko'p qavatli uylar qurish bo'yicha ko'rsatmalar berildi. Shunga muvofiq Talabalar shaharchasi 6 ta 9 qavatli uylardagi 216 ta xonadon tayyor xolda foydalanishga topshirildi. Davlatimiz rahbari Olmazor tumaniga tashrifi doirasida mazkur uylarda yaratilgan sharoitlarni ko'zdan kechirdi, xonadon egalari bilan suhbatlashdi. Xonadon egalari tabriklar ekanlar, "Biz olim va pedagoglardan natija kutardigu, sharoitini so'ramasdik. Sizlarni ham rozi qiladigan vaqt soat keldi. Ilmli odamlar – mamlakatimizni oltin fondi. Ularning qo'lida kelajagimiz bo'lgan bolalarimiz tarbiyalanadi"- deb niyat bildirdi. yuqoridagi fikrlar, niyatlar amaliy ish xarakteriga aylanayotganligi xayotning o'zi ko'rsatib turibdi.

Olimlarga yaratilayotgan sharoitlar, ilmiy tadqiqotlar natijalari bilan tanishuv chog'ida davlatimiz rahbari talaba yoshlarning chuqur bilim olishlari masalasiga to'xtalib, "Yoshlar imtixonidan o'tish uchun emas, bilimli mutaxassis bo'lish uchun o'qishlari lozim", deb ta'kidladi. Chunki davlatimiz tomonidan amalga oshirilayotgan barcha sa'yi-harakatlar, xalqimizning orzu-umidi yoshlarimizning yetuk, bilimdon, sog'lom fikrli bo'lishida namoyon bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 20 apreldagi "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish" to'g'risidagi Qarori oliy ta'lim rivojlanishiga katta hissa qo'shdi. Qarorda "har bir oliy ta'lim muassasasi tomonidan xorijdagi yetakchi

turdosh ilmiy-ta'lim muassasalari bilan istiqbolli hamkorlik aloqalarini yaqindan yo'lga qo'yish, o'quv jarayoniga xalqaro ta'lim standartlariga asoslangan eng zamonaviy pedagogik texnologiyalar, ta'lim dasturlari va o'quv metodik materiallarini keng joriy etish, ilmiy-pedagogik faoliyatga yuqori malakali chet el o'qituvchilari va olimlarini jalb etish" belgilandi.

Shuningdek, belgilangan vazifalar sirasiga "oliy ta'lim muassasalarining ilmiy salohiyatini mustahkamlash, oliy ta'lim tizimida ilmiy tadqiqotlarni yanada rivojlantirish, ularning akademik ilm-fan bilan integratsiyasini kuchaytirish, professor-o'qituvchilar tarkibining ilmiy faoliyati samaradorligini oshirish, iqtidorli talaba yoshlarni ilmiy faoliyat bilan shug'ullanishga jalb etish"ga ham e'tibor berildi.

Oliy ta'lim tizimini yanada takomillashtirish borasida ham ko'plab ishlar amalga oshirildi. Jumladan, 2017-2021 yillarda oliy ta'lim tizimini kompleks rivojlantirish Dasturi qabul qilindi. Dasturga muvofiq 48 ta OTMlarda 180 ta o'quv, ilmiy-laboratoriya binosi, sport inshootlari va ijtimoiy-muxandislik infratuzilmalarida qurilish va kapital ta'mirlash olib boriladi. 53 ta OTMlarda 400 ta o'quv laboratoriyalari bosqichma-bosqich eng zamonaviy o'quv-laboratoriya uskunalari bilan jihozlanadi. Bakalavriat va magistraturaga talabalar qabul qilishni 2021 yilgacha 18 foizga oshirish ko'rsatib o'tildi. Ushbu Dasturning amalga oshirilishiga yo'naltiriladigan mablag'lar 1.7 trillion so'mdan ziyod ekanligi ko'rsatib o'tildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar Strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni bilan Harakatlar strategiyasini "Xalq bilan muloqot va inson manfaatlari yili"da amalga oshirishga oid Davlat dasturining "Ijtimoiy sohani rivojlantirish" deb nomlangan to'rtinchi yo'nalishida maktabgacha ta'lim muassasalarining qulayligini ta'minlash, umumiy o'rta, o'rta maxsus va oliy ta'lim sifatini yaxshilash hamda ularni rivojlantirish chora-tadbirlari turadi.

2017 yilda yangi ta'lim muassasalari qurish, mavjudlarini ta'mirlashga alohija e'tibor qaratildi. 12 ta umumta'lim maktabi yangitdan barpo etildi, 320 tasi rekonstruksiya qilindi, 152 ta maktab kapital ta'mirlandi.

Ko'plab ota-onalar, o'qituvchilar va o'quvchilar hamda keng jamoatchilik tomonidan bildirilgan takliflar asosida 11 yillik ta'lim qayta tiklandi.

Joylardagi o'qituvchilarga bo'lgan ehtiyojni qoplash uchun 2017 yilda Toshkent viloyatida Chirchiq davlat pedagogik instituti tashkil etildi. Bundan tashqari, 15 ta oliy ta'lim muassasalarida tashkil etilgan maxsus sirtqi bo'limlarda o'rta maxsus ma'lumotga ega bo'lgan 5 mingdan ortiq pedagoglar uchun oliy ma'lumotlar olish imkoniyati yaratildi.

Ta'lim tizimidan innovatsion va kreativ yondashuvlar asosida Muxammad Xorazmiy va Mirzo Ulug'bek nomlari bilan ataladigan, aniq fanlar chuqur o'qitiladigan maxsus maktablar tashkil etildi.

O'zbekistonda 2017 yilda yangi tashkil etilgan institut va filiallar hisobidan yurtimizdagi oliy ta'lim muassasalari soni 81 tani, hududlardagi filiallar soni 15 taga, xorijiy universitetlar filiallari 7 taga yetdi. Oliy ta'lim muassasalarida iqtisodiyot real sektordagi talab va ehtiyojlardan kelib chiqib, sirtqi va kechki bo'limlar ochildi. Bunda 260 mingdan ziyod talaba 850 dan ortiq yo'nalish va mutaxassisliklar bo'yicha bilim olishdi.

Ta'lim tizimining keyingi bosqichi oliy ta'lim sohasida ham ulkan islohatlar olib borishmoqda. 2018 yilda yurtimizda xalqaro talablarga javob beradigan oliy ta'lim tizimini yaratish bo'yicha keng qamrovli ishlar amalga oshirildi. 2018 yilning o'zida mamlakatimizda jami 13 ta oliy ta'lim muassasasi jumladan Samarqanda "Ipak yo'li" turizm xalqaro universiteti, Janubiy Koreyaning Puchon universiteti, Inxa universitetlari filiallari, AQShning Vebster universiteti filiali ish boshladi. Turkiyaning Iqtisodiyot va texnologiyalar universitetining Toshkent shahridagi filiali, Toshkent shahridagi "MEI" Milliy tadqiqot universiteti" Federal davlat budjeti oliy ta'lim muassasasi filiali, "MMFI" milliy tadqiqot yadro universiteti" federal davlat avtonom OTMning Toshkent filiali, Toshkent shahridagi Belarus-O'zbekiston qo'shma tarmoqlararo amaliy texnik kvalifikatsiyalar instituti faoliyat olib bormoqdalar. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 8 iyundagi PQ-4740-son qaroriga muvofiq Geologiya fanlari universiteti tashkil etildi.

Fan, oliy ta'lim va ishlab chiqaruvchilar integratsiyasining qabul ko'rsatkichlardagi o'rni.

2018 yilda ilk bor xalqaro tajribalar asosida oliy ta'lim muassasalarining milliy reytingi yaratildi, ta'lim ilmiy tadqiqot jarayoni tahlil etildi.

Mazkur taxlil sohada qator muammo xamda kamchiliklar borligini ko'rsatdi. Xususan oliy ta'lim muassasalari qabul kvotasi qamrovi umumta'lim maktablar, akademik litsey va kasb-xunar kolleji bitiruvchilarining atigi 7-9 foizini tashkil etadi. Bu ko'rsatkich Rossiyada 74, Koreya respublikasida 96 foizdir.

Oliy ta'lim 2019 yilda, yangi oliy ta'lim muassasalarining tashkil etilishi va oliy ta'limga qamrovning oshishi quyidagicha bo'ldi:

2019 yilda jami 14 ta yangi oliy ta'lim muassasasi tashkil etildi: 6 ta mahalliy oliy ta'lim muassasasining filiali; 8 ta xorijiy oliy ta'lim muassasasining filiali.

Yangi tashkil etilgan 14 ta oliy ta'lim muassasasida:

40 ta yangi ta'lim yo'nalishi (bakalavriatura); 41 ta yangi mutaxassislik (magistratura) ochildi.

Oliy ma'lumotli kadrlarga bo'lgan ehtiyoj yuqori bo'lgan olis, chekka va tog'li hududlarda joylashgan umumta'lim maktablari uchun maqsadli qabul ko'rsatkichlari belgilandi.

Yoshlarning oliy ta'lim bilan qamrovi 20 foizga yetkazildi. Oliy ta'lim muassasalarida talabalar soni 423 ming nafardan oshdi (2016 yilda 273 ming nafar). Oliy ta'lim muassasalariga qabul ko'rsatkichlari 121 mingdan oshdi (2016 yilga nisbatan ikki barobar).

Magistraturaga qabul 7705 tani tashkil etib, 2016 yilga nisbatan 1,5 barobarga (54%) oshirildi:

Tabiiy va muhandis-texnik soha mutaxassisliklari bo'yicha to'liq davlat granti asosida belgilandi hamda davlat granti ulushi 54 % ga oshirildi;

55 ta oliy ta'lim muassasasida 21 ta xorijiy davlatning (AQSh, Germaniya, Turkiya, Finlyandiya, Fransiya, Gollandiya, Indoneziya, Isroil, Italiya va boshqa) yetakchi universitetlari bilan hamkorlikda qo'shma ta'lim dasturlari asosida kadrlar tayyorlash yo'lga qo'yildi. Jumladan:

83 ta ta'lim yo'nalishi (bakalavriatura)

64 ta mutaxassislik (magistratura) bo'yicha.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev 2020 yil 29 iyunda O‘zbekiston yoshlarga yo‘llagan bayram tabrigida oliy ta‘limda kechayotgan taraqqiyot va sifat o‘zgarishlariga to‘xtalib o‘tdi. Jumladan, shunday degan edilar: “Bugungi shiddatli zamonda, global miqyosda raqobat kuchayib borayotgan murakkab vaziyatda yuksak intellektual salohiyatga ega kadrlarga ehtiyoj har qachongidan ham ortib bormoqda. Shu bois biz o‘z oldimizga qo‘ygan ulkan va mas‘uliyatli vazifalardan kelib chiqib, mamlakatimiz oliy ta‘lim tizimida tub o‘zgarishlarni amalga oshirmoqdamiz.”

Jumladan, 2020 yilda respublikamizdagi oliy o‘quv yurtlari soni 60 foizga oshib, 116taga yetdi. Ular orasida nufuzli xorijiy universitetlarning filiallari borligi alohida e‘tiborga loyiq. Mamlakatimizda oliy ta‘lim muassasalariga qabul kvotalari soni izchil oshirib borilmoqda.

Agar 2016-2017 o‘quv yilida bu raqam 58 mingtani tashkil etgan bo‘lsa, joriy yilda 150 mingtaga yetadi. Ya‘ni, bu yil maktab bitiruvchilarining 25 foizi oliy o‘quv yurtlarida o‘qish imkoniga ega bo‘ladi. Holbuki, 2017 yilda bu raqam 9 foizga teng edi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim Vazirligi huzuridagi oliy ta‘limni rivojlantirish tadqiqotlari va ilg‘or texnologiyalarni tadbiq etish markazi faoliyatini takil etish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risidagi” Qarori 2020 yil 10 fevral O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning “Oliy ta‘lim muassasalarida ta‘lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta‘minlash to‘g‘risida”ga Qarori (2018 yil 5 iyun, PQ-3775) sohasidagi qator muammolar keltirib o‘tilgan: “birinchidan, oliy ta‘lim tizimida o‘qitishni tashkil etish jarayoni, ta‘lim olayotgan talabalar bilimni baholash tizimi bugungi kun talablariga javob bermayapti; ikkinchidan, professor-o‘qituvchilarning faoliyatini bilimni va pedagogik ko‘nikmasini baholashning zamonaviy tizim mavjud emasligi ta‘lim sifatiga salbiy ta‘sir ko‘rsatmoqda.

Oliy ta‘lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasining maqsadli ko‘rsatkichlari:

- Xorijiy oliy ta‘lim muassasalari dasturlari asosida o‘qitish tashkil qilingan OTMLar soni 23 tadan 45 taga ko‘payadi.

- O‘quv va ilmiy adabiyotlarning elektron shaklini yaratish 20 foizdan 30 foizga oshiriladi.

- Magistratura mutaxassisligi bitiruvchilari ilmiy faoliyatga yo‘naltirish 15 foizdan 45 foizgacha ko‘tariladi.

- Xorijda malaka oshirgan va stajirovka o‘tagan professor-o‘qituvchilarning ulushi 2 foizdan 20 foizgacha oshiriladi.

- Muxandislik – texnik ta‘lim yo‘nali shlarida taxsil olayotgan talabalar ulushi 20 Foizdan 50 foizgacha ko‘payadi.

- 2019 yil aholini oliy ta‘lim bilan qamrab olish 20 foizni tashkil etgan bo‘lsa, 2030 yilga borib 50 foizga oshadi.

- Nodavlat, shu jumladan davlat-xususiy sheriklik shartlari asosida oliy ta‘lim uasasalari soni 35 taga yetkaziladi.

- Kredit – moddiy tizim joriy etiladigan oliy ta'lim muassasalari soni ham 2 tadan 85 taga ko'payadi.

Ushbu Farmonning ilovasida mamlakatda 114 ta oliy ta'lim muassasi mavjud bo'lib, ulardan 93 tasi maxalliy hamda 21 tasi xorijiy oliy ta'lim muassasi va ularning filiallari hisoblanishi aytib o'tildi. Jumladan, so'nggi 3 yilda yangi 6 ta oliy ta'lim muassasi, 17 ta filial va 14 ta xorijiy oliy ta'lim muassasi filiallari tashkil etildi. Kadrlar buyutmachilari takliflari asosida Oliy ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatoriga 329 ta ta'lim yo'nalishi va 582 ta magistratura mutaxassisliklari kiritildi. 2019-2020 o'quv yilida 59 ta oliy ta'lim muassasida sirtqi ta'lim, 10 ta oliy ta'lim muassasida kechki ta'lim joriy etildi.

Respublikada oliy ta'lim muassasalarida ta'lim tahsil olayotgan talabalar soni bakalavriat ta'lim yo'nalishlari bo'yicha 410 ming, magistratura mutaxassisliklari bo'yicha 13 ming nafarni tashkil etib, so'nggi uch yilda 1,7 baravarga oshdi. So'nggi 3 yilda 1693 693 nafar professor o'qituvchi doktorlik dissertatsiyasini ximoya qilishi natijasida oliy ta'lim muassasalarida ilmiy darajaga ega pedagog xodimlar soni 9636 taga yetdi.

So'nggi 3 yilda oliy ta'lim muassasalarining 1611 nafar professor o'qituvchisi xorijiy oliy ta'lim muassasalarida stajirovka o'tashi malaka oshirishi ta'minlandi. Xalqaro hakorlik doirasida xorijiy oliy ta'lim va ilmiy muassasalar magistratura mutaxassisliklariga 112 nafar, doktoranturasiga 51 nafar yoshlar ta'lim olishga qabul qilindi.

Ushbu Farmonning ilovasida bugungi ta'lim tizimining shaffofligi va demokratik ruxda ekanligi butkul namoyon bo'ladi. Muammolarni xaspo'shlanmay ochiq berildi va faqat tanqid bilan cheklanmay, uning yechimi yo'llari batafsil yoritib berildi.

Yuqorida keltirilgan me'yoriy xujjatlarning amalga oshirilishidan kelgan natijalar oliy ta'lim muassasalarining taraqqiyotida qanday aks etganligi bugungi kun uchun xam kelajak rivojlanishimiz uchun xam katta axamiyatga molik masaladir. Oliy ta'lim muassasalarining real imkoniyatlaridan kelib chiqib, qabul kvotalarini mustaqil belgilash tizimi joriy etishga yo'l ochildi. Shu bilan birgalikda bu oliy ta'lim olish istagidagi yoshlarimizga bir vaqtning o'zida bir necha oliy o'quv yurtlariga xujjat topshirish imkoniyati oliy ta'lim olishda teng imkoniyatlar yaratilishini ta'minlaydi. Oliy ta'lim tizimida kvota institutning yo'q qilish sari izchil qadam tashlanmoqda. Fuqarolarimizning chet davlat OTM larda O'zbekiston OTM lariga o'qitishni ko'chirish soddalashtirildi. 2019-2020 o'quv yilida o'qishni ko'chirishga yalpi ravishda ruxsat berildi. Minglab talaba yoshlar respublikamiz OTM larida o'qishni davom ettirishga muvaffaq bo'ldilar.

Oliy ta'limdagi sifat o'zgarishlari bilan birgalikda uning jamiyat xayotidagi insonparvarlik jixatlariga xam aloxida to'xtalib o'tish joiz bo'ladi. Buning uchun oliy ta'limga qabul bo'yicha qilingan qarorlarning mazmun mohiyatiga e'tibor qaratish lozim. Davlat komissiyasi majlisining 2020 yil 1-son bayoni bilan, Respublika OTMlariga umumiy belgilangan davlat granti asosidagi qabul ko'rsatkichlariga nisbatan xotin-qizlar uchun to'rt foizli qo'shimcha davlat granti asosidagi qabul ko'rsatkichlarining hududlar kesimidagi taqsimoti tasdiqlandi. Unga ko'ra, yangi

o'quv yilida xotin-qizlar uchun OTMLar bakalavriatning kunduzgi ta'lim shakliga qo'shimcha 940 ta kvota ajratildi.

2020/2021 o'quv yili uchun respublika OTMLariga abituriyentlarni qabul qilishning umumiy soniga nisbatan nogironligi bo'lgan shaxslar uchun qo'shimcha ikki foizli davlat granti asosidagi qabul ko'rsatkichlari belgilandi. Unga ko'ra, respublika miqyosda nogironligi bo'lgan shaxslar uchun jami 2799 ta kvota ajratilgan.

2020 yil 12 iyundagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-4947-son qarori bilan "2020/2021 o'quv yilida O'zbekiston Respublikasining oliy ta'lim muassasalariga o'qishga qabul qilishning davlat buyurtmasi parametrlari to'g'risida" qarori tasdiqlandi.

O'zbekiston Respublikasi ta'lim muassasalariga o'qishga qabul qilish bo'yicha Davlat komissiyasi majlisining 2-son bayoni qaroriga muvofiq:

Iqtisodiyot tarmoqlarida kamida besh yil ish stajiga ega bo'lgan fuqarolarni 2020/2021 o'quv yilida respublika oliy ta'lim muassasalarining sirtqi va kechki ta'lim shakliga suhbat natijalariga ko'ra tabaqalashtirilgan to'lov-kontrakt asosida o'qishga tavsiya etish huquqiga ega bo'lgan vazirlik, idora va yirik xo'jalik birlashmalarining ro'yxati tasdiqlandi.

2020 yil 20 iyulda respublika bo'yicha jami 1 452 789 nafar (joriy yilgi bitiruvchilar 530 496 nafar) abituriyent ro'yxatdan o'tganligi o'zi mamlaktimiz fuqarolarining oliy ta'limdagi o'zgarishlarni chuqur anglayotganligi va yurtimiz kelajagida oliy ta'limning kata o'rni borligini anglayotganligidan dalolatdir.

Oliy ta'limdagi katta isloxotlar ijtimoiy adolatni barqaror bo'lishi bilan xamoxang kechdi. Bolalarning majburiy mexnatiga chek qo'yildi. Paxta "umumilliy xarakati" islox etildi. O'qituvchi va sog'liqni saqlash xodimlari, talabalar xamda va boshqa davlat tashkilotlari xodimlarining beminnat xizmatidan foydalanishi amaliyoti deyarli tugatildi.

Oliy ta'lim tizimidagi mavjud muammolar tan olinmoqda va ochiq munosabat bildirilmoqda. Oliy ta'lim tizimining shaffofligi, mobil tezligi oshirib borilmoqda. Ta'lim va sog'liqni tizimidagi muammolar e'tirof etildi. Ularning yechimiga qaratilgan islohatlar xayotga tadbiiq etilmoqda.

Xalq ta'limi vazirligi, oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining, nufuzli universitetlar rektorining, taniqli professor-o'qituvchilarning olimlarning press-klublardagi ochiq muloqotda ishtirok etishlari muammolar yuzasidan ochiq, bevosita fikr bildirishlari xam bu soxadagi jamoatchilik bilan aloqa yo'lga qo'yilishida muxim qadam bo'ldi.

Maktab o'qituvchilarining oylik ish haqlarini oshirish yuzasidan amaliy xarakatlar qilindi. Pedagog xodimlarni namunaviy arzon uy-joylar, avtotransport bilan ta'minlash maqsadida uzoq muddatli imtiyozli kreditlar beprish, ularning oila a'zolariga tadbirkorlik faoliyati uchun imtiyozli kreditlar ajratish tizimi yo'lga qo'yildi. 2019 yilda boshlab mutaxassis o'qituvchilarning oshirilgan haqi miqdori 54 foizga oliy toifali pedogogklarning esa 64 foizga yetkazildi. Ushbu sa'iy xarakatlar natijasida 2018 yilda umumiy o'rta ta'lim maktablari 16 ming nafar oliy ma'lumotli yosh kadrlar bilan to'ldirildi. Qariyb 13 ming nafar erkak o'qituvchilar maktablarga qaytishdi. Professor-o'qituvchilar oyligi va mavqiyeni oshirish siyosati tizimli davom

ettirilmoqda. O'qituvchilarning boshqa majburiy mehnat va jamoat ishlariga jalb etish amaliyotiga chek qo'yildi. Oylik moashlari bir necha barobar oshirildi. Ilg'or o'qitish tizimini kengroq joriy etish, ilmiy tadqiqot ishlariga rag'batlantirish maqsadida 20 foizda 60 foizgacha ustama xaq to'lash albatta o'z natijasi ko'rsatadi.

Xalqimiz azaldan ilm va ma'rifatga intilib kelgan. Istiqlol yillarida ushbu soha davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlari qatoridan o'rin oldi. Buni olib borilayotgan keng ko'lamdagi islohotlar yaqqol tasdiqlaydi. Bu jarayonda jismonan sog'lom, ma'naviy yetuk barkamol yoshlarni tarbiyalash va ularning bilim olishi bo'yicha bergilangan vazifalarning amalga oshirilishi mamlakatimizda farovon hayotni ta'minlashning muhim omili bo'lib xizmat qiladi. Shuningdek ustoz va shogirdlarning birgalikdagi sa'i-xarakatlari, olimlarning fidokorona mehnatlari tufayli masafaviy ta'lim va on-layn dars berishda xam ijobiy tajribalar tuplandi. Endilikdagi uzluksiz ta'lim tizimini takomillashtirish, malakli kadrlar siyosatini rivojlantirishni xamda uning moddiy texnik bazasini mustaxkamlash borasida qilinayotgan ishlar muxim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, ta'lim va o'qitish sifatini baxolashning xalqaro standartlariga o'tishda oliy ta'lim muassasalari faoliyati va samaradorligini oshirish taqazo etilmoqda.

Fan-texnika taraqqiyoti va ta'lim tizimini raqobat bardosh sohaga aylantirish O'zbekiston uchun xayotiy masala ekanligi xalqimiz ongu-shuuridan mustaxkam o'rin oldi. Ilmsevar, ma'rifatga ehtirom bilan qarovchi O'zbekiston xalqining ushbu sohadagi orzu- istaklari amalga oshirishda barcha kuch g'ayrat sarflanmoqda. Bu tizim yuksak ma'naviyat zaminida qurilib, davlat ta'lim standartlari va tegishli ta'lim dasturlari bilan ta'minlandi.

Oliy ta'lim sifatini, universitetlarning jaxonning nufuzli universitetlari qatoridan joy olish O'zbekistondagi oliy ta'lim oldiga qo'yilgan birlamchi talablardan bo'lib qolmoqda. Ilm-fan taraqqiyotining yangi bosqichi, yangi fan, ilm tadqiqot, innovatsion yutuqlarning rag'batlantirish va ularni amaliyotga joriy etishning samarali mexanizmi yaratilmoqda. Umuman aytganda, mustaqillik yillarda mamlakatimizda uzluksiz ta'lim tizimini jaxon talablari darajasiga ko'tarish doimo kun tartibida turdi.

Ta'lim tuzilishini modernizatsiyalash, uni demokratlashtirish, kompyuterlashtirish va insonparvarlashtirish, ta'lim dasturini erkin tanlash, uzluksiz ta'lim tizimini rivojlantirish tobora kuchayib bormoqda. Ta'limni fundamentallashtirish, ma'naviy mas'ul shaxsni shakllantirish, bilishni emas, balki fikrlashni o'rgatish zarurligi yaqqol ko'zga tashlanmoqda. Zero, yosh avlodning har tomonlama kamol topishi uchun zamon ruhiga mos yangidan-yangi qonun loyihalarini ishlab chiqish va ularni amaliyotga tadbiiq etish bo'yicha innovatsion loyihalar ishlab chiqish, ta'lim tizimining barcha bosqichlarida sifat o'zgarishlariga erishish bo'yicha aniq chora-tadbirlar yanada kuchaytirilmoqda.

Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar:

1. XXI asr globalizatsiya bilan bog'liq holda oliy ta'limga qanday muhim vazifalardan qo'yilmoqda?

2. “El-yurt umidi” fondlari tomonidan ilm fan, ta’lim namoyondalarini xorijiy tajribaga o‘rganishida nimalarga e’tibor qaratiladi?
3. O‘zbekiston Respublikasida Maktabgacha ta’lim vazirligi tashkil etilishidan maqsad nima edi?
4. 2017 yil yilda dvlrat budjetidan ta’limga ajratilgan mablag‘lar budjet xarajatlari qismining necha foizi darajasida rejalashtirilgan?
5. Mamlakatimizda aholining necha foizini 30 yoshgacha bo‘lganlar tashkil qiladi?
6. O‘zbekistonda bepul majburiy ta’lim necha yil?
7. Bilimli, iste’dodli va qobiliyatli yoshlarni rag‘batlashtirish bo‘yicha qanday ishlar bajarilgan va qaysi imtiyozlar bor?
8. Yoshlarni xorijiy ta’lim muassasalarida ta’lim olishlari uchun
9. qanday imkoniyatlar yaratilgan?
10. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi bosqichlarini ayting?

Testlar

1. 1992-yil nechta pedagogika institutiga universitet maqomi berildi?
A) 5 ta B) 8 ta C) 3 ta D) 10 ta
2. Boborahim Mashrab tavalludining 350-yilligi keng nishonlangan yilni aniqlang?
A) 1992-yil B) 1993-yil C) 1994-yil D) 1995-yil
3. UNESCO qarori bilan Amir Temur tavalludining 660 yilligiga bag‘ishlangan bir haftalik tantanalar bo‘lib o‘tgan shaharni aniqlang?
A) Toshkent B) Parij C) Samarqand D) London
4. 1993 yilda mamlakatimizda nechta maktab faoliyat yuritayotgan edi.
A) 8963 ta B) 5000 ta C) 5634 ta D) 6745 ta
5. 2007-yil nechta akademik litsey qurib foydalanishga topshirildi?
A) 54 ta B) 200 ta C) 34 ta D) 25 ta
6. “Ulug‘bek va temuriylar davri” mavzusida xalqaro konferensiya bo‘lib o‘tgan shaharni aniqlang?
A) Toshkent B) Samarqand C) Parij D) Strasburg
7. “Xotira” kitobini tayyorlashda tashabbus ko‘rsatgan jamg‘armani aniqlang?
A) Oltin meros B) Mahalla C) Nuroniy D) Umid
8. “Alpomish”ga atab yodgorlik o‘rnatilgan shaharni aniqlang?
A) Sherobod B) Termiz C) Qo‘ng‘irot D) Toshkent
9. Toshkentda Islom Unversiteti ochilgan yilni aniqlang?
A) 1999-yil B) 1998-yil C) 1997-yil D) 1996-yil
10. Boshqa xalqlar orasidan o‘zbek xalqiga xos quyidagi qaysi jihatlar milliy qadriyatlar deb e’tirof etilib kelinmoqda. 1) kattalarga hurmat, 2) diniy bag‘rikentlik, 3) muomalada mulozamat, 4) xushyorlik, 5) xotirjamlik, 6) bolajonlik, 7) bir so‘zlik.
A) 1,2,4 B) 1,3,6 C) 2,4,5 D) 4,5,7

14-Mavzu: Mustaqillik yillarida Qoraqalpog‘iston Respublikasi.

REJA.

1. Mustaqillik yillarida Qoraqalpog‘iston Respublikasi ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy islohotlar.
2. Qoraqalpog‘iston Respublikasining ma‘naviy-madaniy va ta‘lim sohasidagi o‘zgarishlar.
3. Qoraqalpog‘iston Respublikasida ekologik ahvol. Orol fojiasi.

***Darsning o‘quv maqsadi:** Mustaqillik yillarida Qoraqalpog‘iston Respublikasi ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy islohotlar hamda ma‘naviy-madaniy, ta‘lim sohasidagi o‘zgarishlar, ekologik ahvol va Orol fojiasi haqida bilimlarni rivojlantirishdan iborat.*

***Tayanch so‘z va iboralar:** Suveren Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Jo‘qorg‘i kengesi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi davlat ramzlari, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Konstitutsiyasi, Orol fojeasi, Orolni qutqarish jamg‘armasi.*

Mustaqillik yillarida Qoraqalpog‘iston Respublikasi ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy islohotlar. 1990-yil 14-dekabrda Qoraqalpog‘iston Respublikasi Oliy Kengashi o‘zining XV sessiyasida “O‘zbekiston Respublikasi tarkibida Qoraqalpog‘iston Respublikasi Davlat suvereniteti to‘g‘risidagi” Deklaratsiyani qabul kildi. Mazkur Deklaratsiya 1991-yil 31-avgustda qabul qilingan “O‘zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligi asoslari to‘g‘risidagi” qonunda ham o‘zining huquqiy asosini topib, 1 va 17-moddalarida Qoraqalpog‘istonning hududiy yaxlitligi va mustaqilligi e‘tirof etildi. Har ikki respublika o‘rtasidagi siyosiy, iqtisodiy va madaniy munosabatlar O‘zbekiston Respublikasining 1992-yil 8-dekabrda qabul qilingan Konstitutsiyasida (70-75 moddalar) ham o‘z aksini topdi.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining XVII bobida Qoraqalpog‘iston Respublikasi maqomi alohida bobda mustahkamlangan. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 70-moddasida “Suveren Qoraqalpog‘iston Respublikasi O‘zbekiston Respublikasi tarkibiga kiradi. Qoraqalpog‘iston Respublikasining suvereniteti O‘zbekiston Respublikasi tomonidan muhofaza etiladi” deyiladi. Shuningdek, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Konstitutsiyasining 1-moddasida “Qoraqalpog‘iston - O‘zbekiston Respublikasi tarkibiga kiruvchi suveren demokratik respublikadir” deb mustahkamlangan.

Suveren Qoraqalpog‘iston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilingan kun xalq bayrami sifatida e‘lon qilindi. Qoraqalpog‘iston Respublikasi Konstitutsiyasining ahamiyati quyidagilarda o‘z aksini topgan:

- Qoraqalpog‘iston Respublikasi O‘zbekiston Respublikasi tarkibiga kirishi hamda ular o‘rtasidagi o‘zaro do‘stona munosabatlarning huquqiy asosi;
- Qoraqalpog‘iston Respublikasi o‘z davlat ramzlariga ega ekanligini belgilaydi;
- suveren hamda mustaqil davlat ekanligining kafili;
- davlat va ma‘muriy hududiy tuzilish masalalarini mustaqil hal qilishi;

Qoraqalpog'iston Respublikasi Konstitutsiyasining 70-moddasining 15-bandida "O'zbekiston Respublikasining Oliy davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari hujjatlarining O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaga muvofiqligi haqida O'zbekiston Konstitutsiyaviy sudiga taklif kiritish" huquqi belgilangan. 81-moddasida esa "Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi raisining vakolatlari jumlasiga, O'zbekiston Respublikasi qonunlarini va Oliy Majlisning boshqa qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari va boshqa hujjatlarini hayotga tatbiq etishni tashkil qiladi" deyilgan.

Ushbu konstitutsiyaviy normalardan xulosa qilib aytish mumkinki, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlariga zid kelsa, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlari amalda bo'ladi. Qoraqalpog'iston Respublikasida O'zbekiston va Qoraqalpog'iston Respublikasining Konstitutsiyalari va qonunlarining ustunligi so'zsiz tan olinadi. O'zbekiston fuqarolari uchun majburiy bo'lgan qonunlar uning tarkibiga kiruvchi Qoraqalpog'iston hududida ham majburiydir.

Qoraqalpog'iston Respublikasining ma'muriy-hududiy tuzilishini uning o'zi ko'rib chiqadi, davlat hokimiyati organlari va boshqaruv tizimini belgilaydi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 73-moddasida "Qoraqalpog'iston Respublikasining hududi va chegaralari uning roziligisiz o'zgartirilishi mumkin emas. Qoraqalpog'iston Respublikasi o'z ma'muriy-hududiy tuzilishi masalalarini mustaqil hal qiladi". Qoraqalpog'iston Respublikasi tumanlardan, shaharlardan, shaharchalardan, ovullardan iborat. O'zbekiston Respublikasi davlat siyosatiga mos holda o'z siyosatini yurgizadi. Qoraqalpog'iston Respublikasining hududi bo'linmas va daxlsizdir.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 71-moddasida, Qoraqalpog'iston Respublikasining o'z Konstitutsiyasiga ega bo'lishligi, uning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga zid bo'lmasligi ko'rsatilgan. Shuni ta'kidlash joizki sobiq Ittifoq davrida Avtonom Respublikalarning Konstitutsiyalari ular qaysi Respublikalar tarkibiga kiritilgan bo'lsa o'sha davlat hokimiyatining oliy organlari tomonidan tasdiqlanishi shart edi. O'zbekiston o'z mustaqilligini qo'lga kiritib bu adolatsizlikka chek qo'ydi. Qoraqalpog'iston suveren Respublikasi bilan mustaqil O'zbekiston Respublikasining bir-butun yaxlitligi mustahkamlangan Qoraqalpog'iston Respublikasi Oliy Kengashi o'zining XII sessiyasida (1993-yil 9-aprelda) Qoraqalpog'iston Respublikasi Konstitutsiyasini qabul qildi. Qoraqalpog'iston milliy davlatchiligi o'z taraqqiyoti tarixida birinchi marta insonparvar, adolatli, demokratik imtiyozlarga ega bo'ldi. Ayni paytda u suveren respublikaning barcha atributlariga ega. Jumladan, Qoraqalpog'iston Respublikasi Oliy Majlisining 1992-yil 14-dekabrda bo'lib o'tgan XI sessiyasida Qoraqalpog'iston Davlat bayrog'i, 1993-yil 9-aprelda bo'lib o'tgan XII sessiyasida Davlat gerbi, 1993-yil 4-dekabrda bo'lib o'tgan XIV sessiyasida Davlat madhiyasi tasdiqlandi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi parlamenti - Jo'qorg'i Kengesi hisoblanadi. 86 deputatdan iborat. Xususan, Jo'qorg'i Kengesinde 1991-1992-yillarda Dauletbay Shamshetov, 1992-1997 yillarda Ubbiniyaz Ashirbekov, 1997-2002 yillarda Timur Kamalov, 2002-2020 yillarda Musa Tajetdinovich Erniyozov faoliyat yuritgan.

2020 yil 2-oktabr kuni Shavkat Mirziyoyev ishtirokidagi Qoraqalpog'iston Jo'qorg'i Kengesining navbatdan tashqari 8-sessiyasida Kamalov Jo'qorg'i Kenges Raisi etib saylangan. O'sha sessiyada Oqsoqollar kengashining qaroriga muvofiq, Jo'qorg'i Kenges raisi lavozimiga Murat Qallibekovich Kamalov nomzodi tavsiya etilgan va Shavkat Mirziyoyev Murat Kamalovning "insoniy fazilatlari, fidoyiligi va rahbarlik qobiliyatini hisobga olib", uning nomzodiga o'z roziligini bildirgan edi.



Avvalgi Oliy Kengashdan farqi Jo'qorg'i Kengashga savlov ko'ppartiyaviylik asosida o'tkaziladi. Avvalgi saylovlarda Oliy Kengashni shakllantirish jarayonida ishchilar sinfi, kolxozchi dehqonlar, xalq ziyolilarining o'rni va soni oldindan belgilab qo'yilar edi. Buning ustiga Parlamentda vazifasi bo'yicha albatta deputat bo'luvchi o'rinlar ham mavjud edi. Keyingi saylovlarda bunday yondoshuvdan voz kechildi. Deputatlarning o'z saylovchilari bilan kundalik munosabati, yaqin muloqoti yo'lga qo'yildi. Avvalgi parlamentda bu masalaga uncha e'tibor berilmagan edi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi o'z Konstitutsiyaviy nazorat organiga ega bo'lib, uni Qoraqalpog'iston Respublikasining Konstitutsiyaviy nazorat qo'mitasi amalga oshiradi. Konstitutsiyaviy nazorat qo'mitasi Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi tomonidan tarkibi saylanadi. Konstitutsiyaviy nazorat qo'mitasiga saylangan sudyalarning vakolat muddati 5 yildir. Konstitutsiyaviy nazorat qo'mitasiga saylangan shaxslar o'z vazifalarini bajarishda daxilsizdirlar va faqat Qoraqalpog'iston Respublikasi Konstitutsiyasiga bo'ysunadilar. Uni tashkil etish va ish tartibini belgilash Qoraqalpog'iston Respublikasining "Konstitutsiyaviy nazorat qo'mitasi to'g'risida"gi qonuni bilan belgilangan.

Qoraqalpog'iston Respublikasining sud tizimi besh yil muddatga saylanadigan Qoraqalpog'iston Respublikasining Oliy Sudi, Xo'jalik sudi, shu muddatga tayinlanadigan tuman, shahar sudlaridan iborat. Ular O'zbekiston Respublikasining "Sudlar to'g'risida"gi qonuniga muvofiq o'z faoliyatini olib boradilar. Ushbu qonunda jumladan, "Qoraqalpog'iston Respublikasi Oliy sudi, fuqarolik va jinoyat ishlari bo'yicha, fuqarolik ishlari bo'yicha tumanlararo sudlari, Qoraqalpog'iston Respublikasi xo'jalik sudi faoliyat ko'rsatadi" deb belgilangan. Ular faoliyatining tashkil etilishi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining vakolatlari jumlasiga kirib

unga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti roziligi bilan Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesinde, Qoraqalpog'iston Respublikasi Oliy sudi raisi va a'zolari, shuningdek, tuman, shahar sudlarining sudyalari, lavozimlariga nomzodlarni tavsiya qiladi. Qoraqalpog'iston Respublikasi Oliy sudi jinoiy, fuqaroviy va ma'muriy sud ishlarini yuritish borasida, sud hokimiyatining oliy organi hisoblanadi. Tuman, shahar sudlarining sudlov faoliyati ustidan nazoratni olib boradi.

Ijroiya organi -Vazirlar Ministrlar Kengashi hisoblanadi. Quyidagi davlat arboblari Ministrlar Kengashi raislari bo'lib ishladi: Amin Tojiev (1989-1992), Radjapboy Yo'ldashev (1992-1995), Baxram Jumaniyazov (1995-1996), Saparbay Avezmatov (1996-1998), Amin Tojiev (1998-2002), Tursunbay Tangirbergenov (2002-2006). Hozirgi kunda Ministrlar Kengashi raisi bo'lib Sariyev Kaxraman Ramatullayevich ishlaydi.

Bugungi kunda O'zbekiston markaziy byudjetidan Qoraqalpog'istonga berilayotgan subvensiya, ya'ni moliyaviy yordam miqdori 9 milliarddan oshiq so'mni, yoki butun Qoraqalpog'iston byudjeti xarajatlarining 75 %ni tashkil etmoqda. O'zbekiston hukumatining amaliy yordami qoraqalpoq xalqining fidoiy mehnati tufayli keyingi yillarda Qoraqalpog'istonda aholi turmush sharoitini yaxshilash, tub iqtisodiy isloxlarni amalga oshirish borasida qator ijobiy natijalarga erishildi. Eng avvalo, elda tinchlik va barqarorlik mustahkamlandi. Hamjihatlik bilan yurt istiqboli yo'lida mehnat kilishga sharoit yaratildi.

Respublikada mulkchilikning yangi shakllari paydo bo'la boshladi. Ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohasida nodavlat sektorning xissasi oshib bordi. Sanoat, qishloq xo'jaligi va savdoda nodavlat sektori xissasi 80-90 %ni tashkil etmoqda. Respublika iqtisodiyotining boshqa yo'nalishlarida ham islohotlar izchil amalga oshirila boshlandi. Jumladan, bank tizimida xam jiddiy islohotlar amalga oshirildi. Bu yerda davlat banklar bilan birga tijorat va xususiy banklari ham faoliyat ko'rsatmoqda. Agrosanoat banki va sanoat-qurilish banki ixtisoslashtirilgan hissadorlik tijorat banklariga aylantirildi. "Tadbirkorbank", "Asakabank", "Aloqabank", "Sabzavotbank", "Zaminbank", "Turanbank", "Savdogarbank", "G'allabank" kabilarning Qoraqalpog'iston bo'limlari tashkil etildi.

Qoraqalpog'iston tarixida birinchi marta Tashqi iqtisodiy faoliyat milliy banki tashkil etildi. Qoraqalpog'istonda ulgurji va birja savdosi bilan shug'ullanuvchi xissadorlik uyushmalari keng faoliyat ko'rsatmoqda. Tovar ishlab chiqaruvchilar, iste'molchilar va ishbilarmonlarning butun imkoniyatlarini ishga solish maqsadida ularning erkinligi va teng huquqligini ta'minlash choralari ko'rildi.

Qoraqalpog'istonda 51 ta mayda ulgurji tizim, shu jumladan 4 ta savdo uyi, 35 ta mayda ulgurji savdo do'konlari va omborlar, 32 ta ko'tara savdo bazasi xamda O'zbekiston tovar xom ashyo birjasining Qoraqalpog'iston bo'limi, 19 ta supermarket do'konlari faoliyati yo'lga qo'yildi. 1999-yilning 1-yanvarigacha bo'lgan ma'lumotlarga qaraganda xususiylashtirishdan tushgan mablag'larning umumiy xajmi 650 million so'mni tashkil etdi. Uning 20% respublika ijtimoiy taraqqiyotiga ajratildi. 50% esa tadbirkorlarni qo'llab-quvvatlash maqsadida imtiyozli kreditlar ajratishga sarflandi. Shu bilan birga Qoraqalpog'iston Respublikasi davlat mulkini xususiylashtirish qo'mitasi xususiylashtirilgan korxonalar va tadbirkorlarni qo'llab-quvvatlash maqsadida 13,8 million so'm kredit ajratdi. 2000-yilga kelib 2932

ta sanoat korxonasi xususiy lashtirildi. Bozor fondining faoliyati sezilarli ravishda faollashdi. 2000-yilga kelib respublika fond birjalari filiallarida 958 million so'mlik aksiyalar sotildi. Respublikada 7807 ta kichik va o'rta ishbilarmon korxonalar, 8977 ta yakka tartibdagi tadbirkorlar ro'yxatga olindi. 1996-yil yakunlariga ko'ra ishlab chiqarilgan mahsulot xajmi 10 mlrd 355,7 mln so'mni tashkil etdi. Jami sanoat ishlab chiqarish hajmida nodavlat korxonalarining ulushi 90% ga o'sdi. Respublikada 1996-yilda amaldagi narxlarda 10 mlrd 754,4 mln so'mlik sanoat mahsuloti ishlab chikarildi.

1991-2010-yillarda hududda gaz va gaz kondensati, shisha, kungaboqar yog'i, kalsiy lashtirilgan soda, vermikulit konsentrat, talkomagnezit, glitserizin ishlab chiqarish yo'lga qo'yildi.

Paxtadan ip ishlab chiqarish, ip gazlamalari, tayyor trikotaj buyumlar, iste'mol mahsulotlaridan un, makaron, mineral suvlar ishlab chiqarish ko'paydi. Yigma temir-beton konstruksiyalari va detallari, toshdan bezakli materiallar tayyorlash, qandolatchilik mahsulotlari, o'simlik yog'i, uzum vinosi, salqin ichimliklar, osh tuzi ishlab chiqarish sohalari o'sdi. Sanoatda bir qator ijobiy o'zgarishlar yuz berdi. Jumladan, 1995-yilda Xo'jayli shahrida shisha idishlar zavodi qurilib foydalanishga topshirildi. 1996-yilda Qo'ng'irotda "Urga" gaz sanoati korxonasida gaz kondensati va tabiiy gaz qazib chiqarilishi boshlab yuborildi. Aholini gaz bilan ta'minlash darajasi 83% ga etdi. "Qoraqalpoqqurilish" aksionerlik jamiyatida Italiya firmalarining yuqori sifatli jihozlari bilan ta'minlangan, yiliga 60 ming kv.m. marmar bloklari va plitalari ishlab chiqaradigan yangi mramor sexi ochildi. "Nukusun" zavodida esa spirt ishlab chiqaradigan yangi sex qurildi. Yengil sanoat ishlab chiqarishning bazasi kengaya bordi. 1993-yili Nukusda "Kateks" to'qimachilik majmuasi, 1995-yili Ellikqal'a tumanida "Elteks" to'qimachilik majmuasi foydalanishga topshirildi.

Nukus va Qo'ng'irotda un kombinatlari, To'rtko'lda 3 mln shartli banka konserva mahsulotlari ishlab chiqaradigan zavod, Ellikkal'a tumanida esa shunday quvvatga ega konserva sexi foydalanishga topshirildi. 1995-yilda Qo'ng'irotda tumanida Markaziy Osiyoda yagona 600 mln dollarga qiymatga ega yiliga 190 ming tonna kalsiyli soda ishlab chiqaradigan zavod qurilishi boshlandi. Zavod tarkibida kimyoviy yo'l bilan ekologik toza va energiya sarflanmaydigan kaustik soda ishlab chiqarish ham ko'zda tutilgan edi.

Qoraqalpog'iston Respublikasida yengil sanoatni rivojlantirish, jumladan, paxta yetishtirishda zamonaviy texnologiyalarni, madaniy o'simliklarning yangi navlarini sohaga joriy etish asosida ishlab chiqarish samaradorligini ta'minlashga alohida e'tibor qaratilayotir. 2016-yilda bu yo'nalishda uchta yangi korxonalar tashkil etilib, to'rttasi modernizatsiya qilinadi.

2000-yili Nukus shahrini Xo'jayli tumani bilan bog'laydigan ulkan ko'priklar, 2001-yilda 345 kilometrlik Nukus-Sultonuvaystog'-Miskin-Uchquduq-Tinchlik-Navoiy temir yo'li ishga tushirildi. Yuzlab kilometr avtomobil yo'llari rekonstruksiya qilindi. Bu ravon yo'llarning uzunligi 4 ming 100 kilometrdan oshib ketdi. Bu yo'nalishdagi ishlar izchil davom ettirilmoqda.

Yer osti boyliklarini izlash, qazib olish va ulardan samarali foydalanishga ham alohida e'tibor qaratilmoqda. Xorijlik sheriklar bilan "Jel", "G'arbiy Orol" kabi

istiqbolli konlar ochildi. “Ustyurt va Orol dengizi atroflarida geofizika ishlarini amalga oshirishni kuchaytirish” dasturi ishlab chiqildi. Unga ko‘ra, Ustyurt kengliklarida seysmik tadqiqotlar jadal olib borilmoqda. Ayniqsa, “O‘zbekgeofizika” aksiyadorlik jamiyatining “Ustyurt geofizika ekspeditsiyasi” filiali jamoasining sa‘y-harakatlari tahsinga munosib. Hozir kuniga 45 ming kubometr gaz berayotgan “Tillali”, “Sayxun”, “In‘om”, “Arslon” singari yangi konlar ana shu ekspeditsiya izlanishlarining samarasidir.

Bugun dunyo xalqlarining e‘tiborini tortayotgan, havasli, hayratli nigohlariga sabab bo‘layotgan Ustyurt gaz-kimyoy majmuasi Prezidentimiz tashabbusi bilan barpo etildi. Asrlar osha qaqrab yotgan bepoyon dashtda ulkan ishlab chiqarish quvvati qad rostladi. Korxonalar jahonning nufuzli nashrlari tomonidan 2012-yilning eng yaxshi loyihasi, deb topildi. 2014-yili nufuzli “Infrastructure Journal” xalqaro nashri mazkur loyiha qurilishini “2014-yilning neft-gaz sohasidagi eng yirik bitimi”, deb e‘lon qildi. Umumiy qiymati 4 milliard AQSh dollarini tashkil etgan bu mashhur loyiha amalga oshirilishi mamlakatimiz sanoati rivojini yangi bosqichga ko‘tarishi shubhasiz. Hozir bu yerda yiliga 4,5 milliard kub metr gaz qayta ishlanmoqda. Buning samarasida xalqimiz ehtiyoji va eksport uchun 3,7 milliard kub metr gaz, 387 ming tonna polietilen, 83 ming tonna polipropilen, 102 ming tonna piroliz distillyati va boshqa qimmatbaho mahsulotlar ishlab chiqarilmoqda.

Qoraqalpog‘istonda 1991-2000 yillar orasida mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish natijasida 144 ta sanoat korxonasidan 113 tasi mulkchilikning turli shakllariga o‘tib ishlay boshladi. Lekin ko‘p sanoat korxonalarining asosiy ishlab chiqarish fondlari (dastgohlar, mexanizmlar) holati eskirganligi sezilib qoldi. Ularning eskirish darajasi 35 %dan yuqori edi. Eng avvalo, yigiruv-tikuv fabrikalari, go‘sh-tut va oziq-ovqat sanoati korxonalari (konserva zavodi, vino zavodi) ishlab chiqarish parklarini yangilash talab etildi.

Qoraqalpog‘istonda mehnatga layoqatli aholining asosiy qismi qishloqda istiqomat qiladi. Agrar sektorda ham iqtisodiy qayta qurish, bozor munosabatlariga o‘tish ro‘y berdi. Xususan, 1997-yil 1-yanvar holatiga respublikada 263 ta qishloq xo‘jalik korxonasi faoliyat ko‘rsatardi. Nodavlat sektorning jami ishlab chiqarilgan mahsulotdagi ulushi 98,3% ni tashkil etdi. Paxta yetishtirishda nodavlat korxonalarining xissasi 97,8% ni, donchilikda 98,1% ni, kartoshkachilikda 99,7 % ni, sabzavotchilikda 98,8% ni, polizchilikda 95,1% ni, bog‘dorchilikda 98,5% ni, pillachilikda 100% ni, go‘sh yetishtirishda 98,9% ni, sut va tuxum ishlab chiqarishda 99,4% ni, qoraqul teri va jun yetishtirishda 100% ni tashkil etdi.

Dehqonchilikda ekin maydonlarining tarkibi o‘zgardi. G‘alla maydonlari ekin maydonlarining 35,8% ni tashkil etdi. Bug‘doy va kartoshka yetishtirish 3 marta, uzum etishtirish 4 martaga ko‘paydi. Qoraqalpog‘istonda dehqon fermer xo‘jaliklari tashkil etish bo‘yicha yetarli tajriba to‘plandi. 1998-yilga kelib 1686 ta fermer shirkatlar uyushmalari tashkil etildi. Ellikqal‘a tumanida mavjud 14 ta jamoa xo‘jaliklari dehqon-fermer xo‘jaliklari uyushmasiga aylantirildi. Dehqonlarga meros qilib qoldirish huquqi bilan yerlar uzoq muddatga ijaraga berildi. Lekin Qoraqalpog‘istonda ana shu tajribani ommalashtirishga mutlaqo e‘tibor berilmadi.

1992-yili Qoraqalpog‘iston Respublikasi Tashki iqtisodiy aloqalar vazirligi tashkil etildi. 1992-2000-yillarda Jahon banki, Yevropa taraqqiyot banki va boshqa

moliyaviy tashkilotlar bilan 100 ortiq shartnomalar tuzildi. Respublikada 303dan ortiq qo'shma korxonalar faoliyat ko'rsatmoqda. Qoraqalpog'iston Respublikasining tashqi savdodagi asosiy sheriklari Rossiya, AQSH, Janubiy Koreya, Shveysariya, Niderlandiya hisoblanadi. Asosan paxta tolasi, toladan olinadigan mahsulotlar, qayta ishlangan neft mahsulotlari sotiladi. Eksport qilingan tovarlar hajmi 1996-yilda 122,9 mln dollarga teng bo'ldi. G'arb mamlakatlariga eksport qilingan xom ashyo 113,6 mln dollarni tashkil etdi. Paxta tolasi jami eksport mahsulotlarining 95% ni tashkil etdi. Tashqi savdo aylanmasida importning salmog'i 1996-yilda 46,2% ni tashkil kildi. Import mahsulotlari tarkibiga asosan xalq iste'mol mollari, qora va rangli metallar, oziq-ovqat mahsulotlari kiradi. Yaqin xorijiy mamlakatlardan asosan shakar, bug'doy, mashina va jihozlar, agregatlar va ularning ehtiyot qismlari, quvurlar, avtomashinalar, ishlab chiqarishni komplektlovchi materiallar keltirildi. Lekin respublikaning imkoniyatlaridan to'la foydalanilmayapti. Masalan, 1999-yili respublika hududida 70 ga yaqin foydali qazilma konlari aniqlandi.



Mustaqillik yillarida respublikada ijtimoiy sohalar rivojlanishiga e'tibor kuchaydi. Respublika aholisi 1,5 mln kishiga ko'paydi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi 1992-yili 2-sentyabrda "Qoraqalpog'iston Respublikasi hududidagi tabiiy ofatlar oqibatlarini bartaraf etish, ijtimoiy va ekologik muammolarni yechishni jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 405-sonli qarorini qabul qildi. Qoraqalpog'iston Respublikasi aholi punktlarini elektrlashtirish to'la hal qilindi. Aholini toza ichimlik suvi bilan ta'minlash darajasi 59,5% ga etdi. 1992-1996 yillarda Tuyamo'yin suv omboridan respublika aholi punktlariga 2 ming 885 km vodoprovod tarmog'i olib kelindi. 4057,5 km gaz tarmoqlari yetkizildi va tabiiy gaz bilan ta'minlash 85,4% ni, shu jumladan, shaharda 99,4% ni, qishloqda 72,4% ni tashkil etdi. Ko'plab sog'liqni saqlash ob'ektlari, kasalxonalar, poliklinikalar, tug'ruqxonalar va turar-joy binolari qurildi.

Qoraqalpog'iston Respublikasining ma'naviy-madaniy va ta'lim sohasidagi o'zgarishlar.

Mustaqillik yillarida Qoraqalpog'iston Respublikasida barcha sohalarda bo'lganidek madaniy-ma'naviy sohalarda ham sezilarli o'zgarishlar bo'ldi. Xususan, bu davrda Nukus shahrining 60 va 70 yilligi, To'rtko'l shahrining 120 yilligi, Ajiniyoz Kasiboy o'g'li va Berdaq Qarg'aboy o'g'lining 170 yilligi, Nukus

pedagogika institutining 60 va 70 yilligi, Qoraqalpoq Davlat universitetining 25 yilligi, Allayor Do'stnazarovning 100 yilligi, Ernazar Alakozning 200 yilligi, I.Yusupov va T.Kaipbergenovlarning 70 yilligi keng nishonlandi. Qoraqalpoq xalqining atoqli farzandlarini nomini abadiylashtirish maqsadida Nukus pedagogik institutiga Ajiniyoz shoir nomi, Qoraqalpoq universitetiga Berdaq nomi berildi. Berdaq va Ajiniyoz, Ulug'bek haykallari o'rnatildi, Berdaq muzeyi, Amet va Aimxon Shamuratovlar muzeyi tashkil etildi.

1994-yili Qoraqalpog'istonda "Ma'naviyat, madaniyat va ma'rifat markazi" tashkil etildi. Dastlab markaz raisi sifatida - Ibroxim Yusupov tayinlangan bo'lsa, hozirda Ulmambet Xo'janazarov faoliyat olib bormoqda. Shuningdek "Oltin meros", "Amir Temur", "Nuroni", "Navro'z" fondlari tashkil etildi. Qoraqalpog'iston Respublikasining fidoyi farzandlari Allaniyoz Uteniyozov, Agitoy Adilov, Onesya Saitova, Tulepbergen Qaipbergenov, Ibroxim Yusupovlar "O'zbekiston Qaxramoni" yuksak unvoniga sazovor bo'ldilar.

1993-yili respublika Ministrlar Kengashi qoraqalpoq tilidan yangi lotin yozuviga o'tish hakida qaror qabul qiladi. "Bilim" nashriyotidan 1996-1997-yillarning o'zida 65 bosmada darsliklar lotin yozuvi asosida chop etildi. 1993-yili Nukusda turk-qoraqalpoq litseyi tashkil etildi. 1996-yili respublikada 743 ta umumta'lim maktabi faoliyat ko'rsatdi. Hozir Qoraqalpog'istonda 6 ta gimnaziya, 13 ta litsey, 19 ta kollej, 18 ta maktab-litsey, 6 ta bank-klass va biznes-maktablar faoliyat ko'rsatmoqda. Respublikadagi 22 ta o'rta maxsus o'quv yurtlarining kunduzgi bo'limlarida 11,8 ming o'quvchi ta'lim olmoqda. 1990-yili Qoraqalpoq universiteti uchta fakulteti va ikkita bo'limi asosida Nukus davlat pedagogik instituti qayta tashkil etildi. 1991-yili universitetning tibbiyot fakulteti asosida Toshkent pediatriya tibbiyot instituti Nukus filiali tashkil etildi. Unda talabalar soni 2001-yili 1000 taga yetdi. 1995-yili yana universitetning qishloq xo'jaligi va iqtisodiyot fakultetlari asosida Toshkent agrar universiteti Nukus filiali, Toshkent arxitektura-qurilish instituti Nukus filiallari tashkil etildi. 2005-yili Toshkent informatsion texnologiyalar universiteti Nukus filiali tashkil etildi. Beshta oliy o'quv yurtlarida 9 ming nafar talaba o'qimoqda.

Yosh avlodning hech kimdan kam bo'lmagan sharoitlarda ta'lim-tarbiya olishi, iste'dod va salohiyatini yuzaga chiqarishi uchun zarur sharoit yaratish davlatimiz siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biridir. O'tgan davr mobaynida hududda zamonaviy sharoitlar yaratilgan 99 kasb-hunar kolleji, 9 akademik litsey foydalanishga topshirildi. 2015-yilda 9 ming 700 o'rinli 22 ta zamonaviy maktab binosi barpo etildi. Ayni paytda hududdagi 370 umumta'lim va ixtisoslashtirilgan maktablarda 170 mingdan ziyod o'g'il-qizlar zamonaviy bilimlarni o'rganmoqda.

1991-yilda O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Qoraqalpog'iston filiali bo'lim statusiga ega bo'ldi. Bo'lim tarkibida Tarix, arxeologiya va etnografiya instituti, Bioekologiya, Orolbo'yi ijtimoiy-iqtisodiy muammolar instituti tashkil etilib, mustaqillikdan avvalo uchta institut bo'lsa, endi 6 ta institut tashkil etildi. Bo'limni akademik S.Kamalovdan keyin akademiklar Ch.Abdirov, T.Eshanovlar boshqardilar. Hozirgi vaqtda bo'lim raisi bo'lib professor Nagmet Aimbetov ishlaydi.

Shuningdek, O'zbekiston qishloq xo'jaligi ilmiy markazi Qoraqalpog'iston bo'limi tashkil etilib, tarkibiga Shamurat Musaev nomidagi Chimboy dehqonchilik instituti, "Sholi" uyushmasi, Oltinko'l stansiyasi, molchilik, bog'chilik, uzumchilik

muassasalari kirdi. Qishloq xo'jaligi va iqtisodiyot sohalari bo'yicha J.Mambetullaev va B.Mambetnazarov kabi akademiklarimiz mavjud. Bugungi kuni Qoraqalpog'istonda 65 fan doktori, 600 dan ortiq fan nomzodi faoliyat ko'rsatmoqda, shu jumladan 60% fan doktori va 40% fan nomzodlari mustaqillik davrida ilmiy unvonga ega bo'ldi. Ilgari O'zbekiston Fanlar akademiyasi haqiqiy a'ziligiga saylangan S.Kamalov (1979), Ch.Abdirovlar (1989) qatoriga 1994-2000 yillari J.Bazarbaev, A.Baxiev, T.Eshanov, A.Dauletov, H.Hamidov ham qabul qilindilar. 1997-yili esa ikki nafar rassom J.Izentaev va J.Qulmurotov O'zbekiston Respublikasi Badiiy akademiyasining akademikligiga saylandi. Tilshunos olimlar M.Kalenderov, R.Esemuratova, A.Turabaev, K.Dauletbayevlar, faylasuf Po'lat Seitov O'zbekiston Respublikasi Beruniy nomidagi davlat mukofatini oldilar. Qoraqalpog'iston Respublikasi Berdaq nomidagi davlat mukofatini A.Baxiev, R.Reimov, L.Konstantinova, J.Bazarbaev, K.Dauletova, M.Ametov, J.Sapar-niyazov, T.Eshanov, M.Ajibekov, S.Kamalov, K.Allambergenovlar oldilar. Ginekolog Oral Ataniyazova xalqaro "Goldman" nomidagi ekologik mukofatiga sazovor bo'ladi. Qoraqalpog'iston davlat universiteti qoshida qoraqalpog'iston tili va adabiyoti bo'yicha doktorlik va nomzodlik, UzFA Qoraqalpog'iston bo'limi tarix, arxeologiya va enografiya instituti yonida tarix bo'yicha nomzodlik dissertatsiyalarni himoya qiluvchi ixtisoslashgan kengashlar tashkil etilib fan doktorlari va nomzodlari o'zimizda himoya qiladigan bo'ldi. Tarix fanidan hozirgacha 51 fan nomzodi himoya qildilar.

Respublika olimlari mustaqillik yillarida chet el mutaxassislari bilan hamkorlikda ilmiy izlanishlar olib bormoqda. Bioekologiya instituti olimlari Germaniya olimlari bilan birgalikda 1993-yildan beri Orolbo'yi ekologiyasi muammolari bo'yicha tadqiqotlar olib borishmoqda. 1995-yili Mo'ynoqda Germaniya yordamida bioekologiya institutining xalqaro ekologiya stansiyasi ochildi. Tarix, arxeologiya va etnografiya instituti olimlari Avstraliyaning Sidney universiteti olimlari va fransuz arxeologlari bilan birgalikda ekspeditsiyalar tashkil etmoqda. Tarixchilar Qoraqalpog'iston hududida turizmni targ'ibot qilish maqsadida "Oltin marshrut"-ni ishlab chiqib, unga Mizdaxkon, Ellikal'a yodgorliklarini kirgizdilar. 1997-yili sentyabrda Nukusda "Qirqqiz" dostoni va turkiy folklorini tadqiq etish muammolariga bag'ishlangan xalqaro ilmiy anjuman bo'lib o'tdi. Mustaqil O'zbekiston va Qoraqalpog'iston dolzarb masalalari respublika shoir va yozuvchilari ijodida katta o'rin egallaydi. O'zbekiston qahramonlari, O'zbekiston va Qoraqalpog'iston xalq shoiri Ibroxim Yusupov, O'zbekiston va Qoraqalpog'iston xalq yozuvchisi Tulepbergen Qaipbergenovlar qatoriga Tolibay Kabulov, Xalmurat Saparov, Gulaysha Esemuratova, Kengesbay Raxmonov, Uzakbay Abduraxmanov, Murotbay Nizonov, Kengesbay Reimov, Saginbay Ibroximov, Kengesbay Karimov, Xalila Dauletnazarov, Jiyanbay Izbaskanov, Baktiyar Genjemuratov, SHarapatdin Ayapov, Gulistan Matyakupova, Nabiya Toreshova, Munayxan Jumanazarova, Gulnara Nurlepesova, Abdimurat Atajanov, Xurliman Utemuratova, Sharigul Payzullaeva, Saylaubay Jumagulov, Bazarbay Kazakbaev va boshqalar kelib qo'shildi.

1993-yili yanvarda Toshkentda Qoraqalpog'iston madaniyati kunlari, noyabrda esa Qoraqalpog'istonda Toshkent madaniyati kunlari o'tkazildi. 1993-yili Toshkent

konservatoriyasida milliy “Ajiniyoz” operasi ijro etildi. 1996-yili qoraqalpoq xoreografiyasi tarixida birinchi marta “Oyjamol” nomli balet sahnalashtirildi. Kompozitorlardan N.Muxammaddinov, K.Zaretdinov, G.Amaniyazov, Sh.Paxratdinov, T.Esirkepov va boshqalar mustaqillik yillari yaxshi faoliyat ko‘rsatmoqda.

Muyassar Razzakova, Kegesbay Serjanov, Mirzagul Sapaeva, Gulxatiysha Aimbetova, Roza Kutekeeva, Makset Xo‘janiyozov, Makset O‘temuratov, Gulnara Utepova, Eleonora Qutlipulatova, Anifa Artikova, Gulnara Allamberganova va boshqa qo‘shiqchilarimiz butun O‘zbekiston va Markaziy Osiyoga taniqli bo‘ldi. Jumabay jirov Bazarov, Baxtiyar jirov Esemuratov, baxshilar Turg‘unbay Qurbanov, Ziyada Sharipova, Zulfiya Arzymbetova, Jarilkagan Eshanov, Tenel Kalliev va boshqalar Germaniya, Fransiya va boshqa davlatlarda qoraqalpoq dostonlari va she‘rlarini ijro etib, butun dunyoga tanildi. Qoraqalpoq universiteti “Xurliman” ansambli 2000-yili Toshkentda “O‘zbekiston - Vatanim manim” konkursida 1-o‘rinni egalladi. Mustaqillik yillari Savitskiy nomidagi Qoraqalpoq milliy san‘at muzeyi va Qoraqalpoq o‘lkashunoslik muzeyi, Berdaq muzeyi milliy o‘zligimizni targ‘ibot qilishda katta faoliyat ko‘rsatmoqda.

2002-yili may oyidan boshlab milliy televideniya “Assalom Qoraqalpog‘iston” tonggi ko‘rsatuvi tashkil etildi. Shuningdek, “Mavrit”, “Tarix va taqdir”, “Boyterek”, “Shanarak”, “Yoshlar kanali” ko‘rsatuvlari tashkil etildi. Prezidentimiz Erkin Kutibaev, Alisher Avazbayev, Baxtiyar Nurullaev, Muratbay Baltaniyazov, F.Orazimbetov va boshqalarning sport sohasidagi mardliklarini tan oldi. Mustaqillikning o‘tgan davri - tarix uchun bir lahzadir. Lekin shu muddatda Qoraqalpog‘istonda amalga oshirilgan ishlar salmog‘i va ko‘lami bilan bir necha un yilliklarga teng keladi. Tarixan qisqa davrda mamlakatimiz hayotida ham, odamlar turmushida ham keskin burilish yasaldi.

Qoraqalpog‘iston Respublikasida ekologik ahvol. Orol fojiasi.

Mintaqada ekologik barqarorlikni ta‘minlash masalasi davlat rahbarlariining doimiy e‘tiborida bo‘lib kelmoqda. Mustaqillikning dastlabki kunlaridanoq yurtboshimiz Islom Karimov bu masalaga jahon hamjamiyati e‘tiborini qaratdi. Xalqaro Orolni qutqarish jamg‘armasi ana shunday olijanob sa‘y-harakatlar samarasida tashkil etildi.

Qoraqalpog‘iston Respublikasi xalqi O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.Karimovning BMT minbaridan turib dunyo mamlakatlarini Orol dengizini saqlab qolishga qarata chaqirig‘ini katta quvonch bilan kutib oldi. Uning tashabbusi bilan 1994-yili 14-yanvarda Nukusda Markaziy Osiyoning beshta davlat Prezidentlari hamda Rossiya Federatsiyasining vakillari ishtirokida o‘tkazilgan uchrashuvda Orolga va Orolbo‘yi aholisiga amaliy yordam berish masalasi muhokama etildi. 1995-yili xalqaro konferensiyada “Nukus Deklaratsiyasi” qabul qilinish, unda butun dunyo jamoatchiligi e‘tibori Orol muammosiga qaratildi. Deklaratsiyada ovul va o‘rmon xo‘jaliklarin ilmiy tizimga o‘tkazish, suv resurslarin foydalanishning iqtisodiy usullari va texnologiyasi ishlab chiqish, hududning tabiiy resurslarini boshqarish tartibini yengillashtirish, ushbu hududda yashovchi odamlarning turmush darajasini yaxshilash masalalari kun tartibiga qo‘yildi. 1995-

yili 24-oktyabrda BMTning 50 yilligiga bag'ishlangan Bosh Assambleya majlisida O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A.Karimov "Bugungi kunda xalqaro moliya tizimlari bilan rivojlangan davlatlar qo'llab-quvvatlashsiz, BMTning tashkiliy rolisiz bu muammoni yechish mumkin emas" deb aytdi.

Orolni qutqarish fondi Nukus filiali tashkil etildi va Markaziy Osiyo davlatlari o'z kuchlari va chet el donorlari yordami bilan 2 mlrd 686 mln dollar investitsiya to'plab, shundan 856,25 ming dollar 1997-yili yuqoridagi muammolarni yechishga to'g'ridan-to'g'ri yo'naltirildi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Atrof-muhitni muhofaza qilish bo'yicha 2013-2017-yillarga mo'ljallangan dasturi bu boradagi ishlarni yangi bosqichda davom ettirishda muhim ahamiyat kasb etayotir. Dasturda Orolbo'yini ekologik sog'lomlashtirish ishlariga alohida e'tibor qaratilgan. Xususan, cho'llanishning oldini olish, Orol dengizining qurigan hududlarida sun'iy o'rmonlar barpoetish uchun keng ko'lamli ishlar olib borilmoqda. Dasturga ko'ra, mazkur ishlarga 89,39 milliard so'm, 1635,55 million AQSh dollari va 57,63 million yevro mablag' yo'naltirish ko'zda tutilgan.

Xalqaro Orolni qutqarish jamg'armasi Nukus filiali tomonidan 2014-yilda Mo'ynoq tumanida, Orol dengizining Axantay qismida 1500, Oqqum qismida 34 gektarlik saksovulzor – sun'iy o'rmon barpo etildi.

Ayni paytda xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikda 90 million AQSh dollari miqdoridagi loyiha asosida Orol dengizining qurigan qismida cho'llanishdan himoyalovchi mitti o'rmonlar bunyod etishga kirishilayotgani ham hudud aholisi turmush farovonligini yuksaltirish borasidagi ezgu ishlarning davomidir.

O'zbekiston Respublikasining Prezidenti SH.M.Mirziyoyev 2017-yil 19-sentabrda BMTning 72-sessiyasida so'zlagan nutqida Orol fojeasi masalasida yana bir bor jahon jamoatchiligiga yuzlandi.



"Bugungi kunning eng o'tkir ekologik muammolaridan biri – Orol xalokatiga yana bir bor e'tiboringizni qaratmoqchiman. Mana, mening qo'limda Orol fojeasi aks etgan xarita. O'ylaymanki, bunga ortiqcha izohga xojat yo'q.

Dengizning qurishi bilan bog'liq oqibatlarini bartaraf etish xalqaro miqyosdagi say-harakatlarni faol birlashtirishni taqazo etmoqda. Biz BMT tomonidan Orol

fojeasidan jabr ko'rgan aholiga amaliy yordam ko'rsatish bo'yicha shu yil maxsus dastur to'liq amalga oshirilishi tarafdorimiz".

Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar

1. Qoraqalpog'iston Respublikasi qachon tashkil topdi?
2. Suveren Qoraqalpog'iston Respublikasi Davlar bayrog'i qachon tasdiqlandi?
3. Suveren Qoraqalpog'iston Respublikasi Davlar gerbi qachon tasdiqlandi?
4. Suveren Qoraqalpog'iston Respublikasi Davlar madhiyasi qachon tasdiqlandi?
5. Suveren Qoraqalpog'iston Respublikasining Konstitutsiyasi qachon tasdiqlandi?
6. O'zbekiston Respublikasi tarkibidagi Qoraqalpog'iston Respublikasining huquqiy holati haqida nimalarni bilasiz?
7. Qoraqalpog'iston Respublikasining qonun chiqaruvchi hokimiyati qanday tarkibiy tuzilishga ega va uning xususiyati?
8. Qoraqalpog'iston Respublikasining ijro hokimiyati qanday tarkibiy tuzilishga ega va uning xususiyati?
9. Mustaqillik yillarida Qoraqalpog'iston Respublikasida qanday sanoat korxonalarini barpo etildi?
10. Qoraqalpog'iston Respublikasining ijtimoiy hayotidagi asosiy muammolar nimalardan iborat edi?
11. Qoraqalpog'iston Respublikasining xalqaro savdo-iqtisodiy munosabatlardagi asosiy hamkor davlatlari qaysilar?
12. Mustaqillik yillarida Qoraqalpog'iston Respublikasining ma'naviy-madaniy hayotida qanday tub burilishlar ro'y berdi?

Testlar

1. Qoraqalpog'istonda sanoatni rivojlantirish borasida 2017 yilgacha necha milliard so'mlik loyiha bajarildi?
A) 160 milliard so'mga yaqin 242 loyiha
B) 130 milliard so'mga yaqin 262 loyiha
S) 140 milliard so'mga yaqin 246 loyiha
D) 120 milliard so'mga yaqin 230 loyiha
2. Shavkat Mirziyoyevning qaysi farmoni asosida Maktabgacha ta'lim vazirligi tashkil etildi?
A) 2017 yil 30 sentyabrdagi "Maktabgacha ta'lim tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni
B) 2018 yil 30 sentyabrdagi "Maktabgacha ta'lim tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni
S) 2016 yil 20 sentyabrdagi "Maktabgacha ta'lim tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni
D) 2019 yil 30 noyabrdagi "Maktabgacha ta'lim tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni
3. Nechinchi yilda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoev Toshkent davlat agrar universiteti Nukus filialining Chimboy tumanidagi akademik litseyiga tashrif buyurdi?
A) 2017 yil

- B) 2018 yil
S) 2019 yil
D) 2020 yil
4. Chimboy tumanidagi qaysi qo'shma korxonasida qizilmiya ildizidan ekstrakt ishlab chiqariladi.
A) "Lanextrakt"
B) "Pharma"
S) "Dental"
D) "Pharmextrakt"
5. Dunyoda "Sahrodagi Luvr" deb shuhrat qozongan Qoraqalpoq davlat san'at muzeyining nomi nima bo'lgan?
A) I.Savitskiy
B) A.Lavrov
S) Ivanenko
D) Y.Rajabiy
6. Prezidentning qaysi farmoni asosida Qoraqalpog'istonda farmatsevtika sohasida keskin o'zgarishlar amalga oshirildi?
A) 2017 yil 3 maydagi "Nukus-farm", "Zomin-farm", "Kosonsoy-farm", "Sirdaryo-farm", "Boysun-farm", "Bo'stonliq-farm" va "Parkent-farm" erkin iqtisodiy zonalarini tashkil etish to'g'risida"gi farmoni
B) 2019 yil 5 martdagi "Zomin-farm", "Sirdaryo-farm", "Boysun-farm", "Bo'stonliq-farm" va "Parkent-farm" erkin iqtisodiy zonalarini tashkil etish to'g'risida"gi farmoni
S) 2018 yil 3 maydagi "Nukus-farm", "Kosonsoy-farm", "Sirdaryo-farm", "Boysun-farm", va "Parkent-farm" erkin iqtisodiy zonalarini tashkil etish to'g'risida"gi farmoni
D) 2016 yil 3 maydagi "Zomin-farm", "Kosonsoy-farm", "Sirdaryo-farm", "Boysun-farm", va "Parkent-farm" erkin iqtisodiy zonalarini tashkil etish to'g'risida"gi farmoni.
7. 2018-2019 yillarda Qoraqalpog'istonda qiymati qancha miqdordagi loyiha amalga oshirilgan?
A) 17 million dollarga teng
B) 27 million dollarga teng
S) 20 million dollarga teng
D) 18 million dollarga teng
8. Qoraqalpog'iston Respublikasini 2018-2019 yillarda kompleks rivojlantirish dasturi doirasida nechki turdagi farmatsevtika mahsulotlari ishlab chiqarish rejalashtirilgan?
A) 37 turdagi
B) 20 turdagi
S) 17 turdagi
D) 27 turdagi

15-Mavzu: O'zbekiston va jahon hamjamiyati

Reja:

1. O'zbekistonning jahon hamjamiyati tomonidan tan olinishi va xalqaro hamkorlikni yo'lga qo'yishi
2. O'zbekistonning xorijiy mamlakatlar bilan iqtisodiy-siyosiy aloqalarining yo'lga qo'yilishi.
3. O'zbekistonning Markaziy Osiyo davlatlari hamda Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi bilan hamkorligi.
4. O'zbekistonning jahon hamjamiyatidagi faol tashqi siyosatining tobora integratsiyalashuvi va rivojlanish strategiyasi.

***Darsning o'quv maqsadi:** O'zbekistonning jahon hamjamiyati tomonidan tan olinishi, xorijiy mamlakatlar bilan iqtisodiy-siyosiy aloqalarining yo'lga qo'yilishi, O'zbekistonning jahon hamjamiyatidagi faol tashqi siyosatining tobora integratsiyalashuvi va taraqqiyot strategiyasi to'g'risida bilimlar tizimini shakllantirish va rivojlantirishdan iborat.*

***Tayanch tushunchalar:** Xalqaro tashkilotlar, mintaqaviy xavfsizlik va barqarorlik, tashqi siyosat tamoyillari, BMT, MDH, SHHT, Yevropa Ittifoqi, jahon iqtisodiyoti integratsiyasi.*

O'zbekistonning jahon hamjamiyati tomonidan tan olinishi va xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikni yo'lga qo'yishi. Mustaqillik yillarida mamlakatimiz chet davlatlar va xalqaro tashkilotlar bilan teng huquqlilik asosida diplomatik, savdo, iqtisodiy, madaniy, ijtimoiy hamkorlik qilish yo'lini tutdi. Xususan 2010 yilgacha bo'lgan davrda O'zbekiston dunyoning 100 dan ortiq davlati bilan diplomatik aloqalari o'rnatdi.

Eng muhim voqealardan biri 1992 yil 2 martda O'zbekiston xalqaro munosabatlarning to'la huquqli sub'ekti sifatida Birlashgan Millatlar Tashkilotiga a'zo bo'ldi. 1995 yil BMTning 50 yilligi munosabati bilan Bosh Assambleyaning tantanali yig'ilishida asosiy e'tibor bu tashkilotning faoliyatini yanada kengaytirish bilan bir qatorda, yana mintaqaviy xavfsizlik va barqarorlik, ekstremizm, terrorizm, narkobiznesga qarshi kurash masalalariga qaratildi. Shu bilan birga Markaziy Osiyo mintaqasi xalqlari uchun o'ta dolzarb masala Orol muammosining ko'tarilishi muhim ahamiyat kasb etdi.

Shu bilan birga O'zbekiston jahon jamoatchiligini tashvishga solayotgan xalqaro muammolardan biri bo'lgan terrorizm, uyushgan jinoyatchilikka qarshi birgalikda kurashish, diniy ekstremizm masalalariga o'z e'tiborini qaratdi. Davlatimiz rahbari o'tgan vaqt davomida dunyoning ko'pgina notinch mintaqalarida, jumladan, Afg'oniston hududida ildiz otgan diniy aqidaparastlik va terrorizm xavfidan jahon jamoatchiligini birinchilardan bo'lib ogoh etdi. 1993 yil Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 48-sessiyasida, 1995 yil 2 martda Kopengagendagi xalqaro konferensiyasida bu borada o'z takliflari bilan chiqdi.

1995 yil 15 sentyabrda Markaziy Osiyoda xavfsizlik va hamkorlik masalalariga bag'ishlangan Toshkent seminar kengashida, 1995 yil 24 oktyabrda

BMTning 50 yilligiga bag'ishlangan maxsus tantanali yig'ilishda, 1999 yil 18 noyabrda EXHTning Istanbul sammitida, 2000 yili BMT Bosh Assambleyasining sammitida va boshqa nufuzli anjumanlardagi chiqishlarida O'zbekiston birinchi prezidenti I.Karimov Afg'onistonning dahshatli vayronkorlik kuchiga ega xalqaro terrorizm o'chog'iga aylanib qolganidan dunyo jamoatchiligini ogohlantirdi. Bu xatarning oldini olish bo'yicha ko'plab amaliy choralarni taklif qildi.

O'zbekiston Respublikasi NATO ning kollektiv xavfsizlikni ta'minlashga qaratilgan «Tinchlik yo'lida hamkorlik» loyihasini 1994 yilning iyulida imzoladi hamda 1995 yilning iyul oyida ushbu dasturga qo'shildi. 1995-2001 yillar mobaynida «Tinchlik yo'lida hamkorlik» dasturi doirasida o'tkazilgan harbiy o'quv mashqlarida O'zbekiston Qurolli Kuchlari bo'linmasining tinchlikni saqlash kuchlari o'ndan ortiq harbiy o'quv mashqlarida qatnashdilar. O'zbekiston - NATO munosabatlariga va uning «Tinchlik yo'lida hamkorlik» dasturida hamkorlik qilish, bu NATOga a'zo bo'lish emas. O'zbekiston - NATO munosabatlarining asl mohiyati davlatimizning xavfsizligi va tinchligini ta'minlash, qolaversa mintaqada barqarorlikni qaror toptirish uchun shart-sharoitni imkon qadar kengaytirish va mustahkamlashdan iborat ekanligini ta'kidlandi.

Mustaqillik yillarida O'zbekistonning "Tinchlik yo'lida hamkorlik" Dasturida ishtiroki Markaziy Osiyo mintaqasida kollektiv xavfsizlik va barqarorlikning keng tizimini vujudga keltirishni rejalashtirishda O'zbekistonning ishtirokini kafolatlabdi. 1992 yil 26 fevralda O'zbekiston yana bir nufuzli tashkilot EXHT ga a'zo bo'ldi. SHu bois 1994 yildan O'zbekistonning EXHTdagi vakolatxonasi Venada, 1995 yildan esa EXHTning Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan aloqalari bo'yicha byurosi Toshkentda faoliyat yuritmoqda. 1999 yilda ushbu byuroga EXHTning mintaqadagi markazi maqom berildi. Markaz faoliyati nazariy jihatdan siyosiy-harbiy, iqtisodiy-ekologik va inson xuquqlari kabi sohalarda O'zbekistonda amalga oshirilayotgan tub islohotlarni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan.

O'zbekistonning 1996 yil Lissabon Sammitida ishtiroki respublika rahbariyatining xavfsizlik doirasiga kiruvchi qarashlarini bayon etishga ham imkon berdi. Anjumanda O'zbekiston xavfsizlik muammosiga doir o'z qarashlarini bayon etish huquqiga ega bo'ldi. Markaziy Osiyo mintaqasini yadro qurolidan xoli zona deb e'lon qildi. 1999-yil 18-19-noyabr kunlari mazkur tashkilotga a'zo 54 mamlakat rahbarlari uchun Turkiyaning Istanbul shahrida Oliy darajadagi uchrashuvda Prezident xalqaro terrorizmga qarshi markazini tuzish taklifi bilan chiqdi.

1996 yilning boshlarida O'zbekistonda Britaniya Kengashi bo'limining ish boshlashi hamkorlikni mustahkamlash va kengaytarish yo'lidagi yangi qadam bo'ldi. O'zbekistonning Niderlandiya, Finlyandiya, Avstriya, Belgiya, Shveysariya, Italiya, Ispaniya, Gretsiya, Polsha, Vengriya, Chexiya, Slovakiya, Xorvatiya, Bolgariya kabi Evropa mamlakatlari bilan siyosiy, diplomatik, iqtisodiy va madaniy aloqalari o'rnatildi va kengayib bormoqda. Shveysariyaning Altendorf shahrida O'zbekiston Savdo uyining ochilishi muhim voqea bo'ldi. Bu maskan bugungi kunda savdo uyigina bo'lib qolmay, O'zbekistonning Evropa va jahonda biznes va savdo markazi hisoblanadigan mamlakat - Shveysariyadagi vakolatxonasi ham aylandi. 1995 yil oktyabrda Jenevada "O'zbekistonda xususiy lashtirish: hamkorlik uchun

imkoniyatlar" mavzusida konferensiya bo'lib o'tdi. Shu yil noyabr oyida esa Londonda o'tgan "O'zbekistonda biznes" konferensiyasida iqtisodiy islohotlarning xususiyatlari muhokama qilindi.

O'zbekiston jahon iqtisodiyotida integratsiyalashish yo'lidan borib, Jahon banki, Xalqaro Valyuta fondi, Xalqaro moliya korporatsiyasi, Iqtisodiy taraqqiyotga ko'maklashuv tashkiloti va boshqa moliyaviy, iqtisodiy tashkilotlarga a'zo bo'lib kirdi va ular bilan hamkorlikni yo'lga qo'ydi. Shu bilan birga O'zbekiston BMT doirasidagi ixtisoslashgan muassasalar Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti, Xalqaro Mehnat tashkiloti, Jahon intellektual mulk tashkiloti, BMT ning bolalar fondi, Xalqaro pochta ittifoqi, Elektr aloqasi bo'yicha xalqaro ittifoq, Jahon meteorologiya tashkiloti, Xalqaro olimpiya qo'mitasi kabi yana bir qancha tashkilotlarga a'zo bo'ldi.

O'zbekiston 2001 yilning iyun oyida «Shanxay xalqaro hamkorlik tashkiloti» ga a'zo bo'ldi. Unga Xitoy, Rossiya, Qozog'iston, Qirg'iziston va Tojikiston Respublikalari ham doimiy a'zodirlar. Bugungi kunda izchil faoliyat ko'rsatayotgan xalqaro siyosiy-iqtisodiy tashkilotlar xaqida so'z yuritilganda, shubhasiz, birinchi navbatda Shanxay Hamkorlik Tashkiloti tilga olinmoqda. Dastlab "Shanxay beshligi" deb nomlangan bu tashkilotga 2001 yilda O'zbekiston Respublikasi a'zo bo'lib qo'shilgach, "Shanxay Hamkorlik Tashkiloti" deb ataladigan bo'ldi. Ayni paytda unga Rossiya Federatsiyasi, Xitoy Xalq Respublikasi, O'zbekiston, Qozog'iston, Tojikiston va Qirg'iziston Respublikalari rasman a'zodirlar.

Tashkilotning "Terrorizm, separatizm va ekstremizmga qarshi kurash to'g'risida Shanxay konvensiyasi" imzolangan bo'lib, 2002 yil iyulida Sankt-Peterburgda u yanada mustahkamlandi. 2003 yil may oyida Moskva SHXTning tashkiliy organlari, ramzlari tasdiqlanib, O'zbekiston Tashkilotining yangi raisi etib belgilandi. 2003 yil sentyabrda Pekinda "SHHTga a'zo davlatlarning 20 yilga mo'ljallangan savdo-iqtisodiy hamkorlik dasturi" qabul qilinib, mahsulot, kapital, xizmat va texnologiyalar erkin aylanishi shartlari belgilab olindi, SHHTning moliyaviy byudjeti ko'rildi. 2004 yil iyundan Tashkilot to'la ravishda ishga kirishdi. 2005 yil iyulida Ostona sammitida Mongoliya, Hindiston, Pokiston va Eron kuzatuvchi maqomiga ega bo'ldi. 2010 yilda Toshkentda o'tkazilgan navbatdagi anjuman a'zo davlatlar tashqi siyosatida muhim voqea bo'ldi.

O'zbekiston mustaqillikning dastlabki kunlarida boshlab chet mamlakatlar bilan teng huquqli hamkorlik aloqalarini yo'lga qo'ydi. Mustaqillikning dastlabki kunlaridan e'tiboran mamlakatimiz jahon hamjamiyatiga kirishga intila boshladi. Jumladan mamlakatimiz mustaqilligini birinchi bo'lib tan olgan mamlakat bu Turkiya respublikasi edi. 1991 yil 16-19 dekabr kunlari O'zbekiston davlat delegatsiyasi Turkiyada bo'ldi. Safar chog'ida O'zbekiston Respublikasi bilan Turkiya jumhuriyati o'rtasidagi davlatlararo munosabatlarning asoslari va maqsadlari to'g'risida shartnoma, konsullik vakolatxonalarini ayirboshlash to'g'risida Protokol, iqtisodiy va savdo sohasidagi hamkorlik to'g'risida bitim, madaniyat, fan, ta'lim, sog'liqni saqlash, sport va turizm sohasidagi o'zaro hamkorlik to'g'risida bitim, transport va kommunikatsiyalar sohasidagi hamkorlik to'g'risida bitim, axborot ayirboshlash, televidenie va radio eshittirish bo'yicha hamkorlik qilish haqida protokollar va boshqa hujjatlar imzolanadi.

O'zbekistonning xorijiy mamlakatlar bilan iqtisodiy-siyosiy aloqalarining yo'lga qo'yilishi.

O'zbekiston Respublikasi o'zining tashqi siyosatdagi yo'nalishlarini demokratik prinsiplarga asoslangan holda olib borar ekan, 1991 yil dekabrda 1992 yil iyul oyigacha bo'lgan davr ichida respublikani 111 davlat, hozirgi kunga qadar esa O'zbekiston mustaqilligini 180 dan ortiq davlat tan oldi. Ularning 100 dan ortig'i bilan diplomatik, siyosiy, iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy va madaniy aloqalar o'rnatildi. Dastlab Toshkentda AQSH, Turkiya, Germaniya, Fransiya, Buyuk Britaniya, Xitoy, Hindiston, Pokiston, Malayziya va boshqa rivojlangan mamlakatlarning elchixonalari ochildi. SHuningdek, O'zbekistonda 88 ta xorijiy mamlakatlar va xalqaro tashkilotlarning, 24 ta hukumatlararo va 13 ta nohukumat tashkilotlarning vakolatxonalari ochildi. O'z navbatida O'zbekistonning elchixonalari dunyodagi 20 dan ortiq yirik davlatlarda faoliyat ko'rsatib turibdi.

Mamlakatimiz har tomonlama diplomatik, siyosiy, iqtisodiy aloqalarni toboro kengaytirib bormoqda. 1992 yil 27-28 iyun kunlari Pokiston Islom Respublikasi Bosh vaziri Muhammad Navoz Sharifning O'zbekistonga rasmiy davlat tashrifi asosida ikki davlat o'rtasidagi aloqalarga asos solindi. 1992 yil 24-25 noyabr kunlari respublikamiz rahbarining Eron Islom Jumhuriyatiga rasmiy davlat tashrifi O'zbekiston va Eron o'rtasida davlatlararo aloqalarga asos soldi. Shu yili O'zbekiston davlat delegatsiyasi rasmiy tashrif bilan Saudiya Arabistoni, Misrda bo'ldi va ular bilan davlatlararo munosabatlarning asoslari to'g'risida shartnomalar imzolandi.

Mustaqil O'zbekistonni Osiyodagi yirik davlat - Hindiston bilan aloqalari yildan-yilga kengayib bormoqda. Bunga 1992 yil 12-13 oktyabr kunlari Hindiston tashqi ishlar vaziri R.L. Bxatiya davlat tashrifi bilan O'zbekistonga kelishi diplomatik aloqalarga asos soldi.

O'zbekiston Yaponiya bilan o'zaro manfaatli hamkorlikni rivojlanishiga 1994 yil 16-19 may kunlari Respublikamiz davlat delegatsiyasining Yaponiyada bo'lishi o'zaro munosabatlarimizni rivojlanishiga keng yo'l ochdi. Respublikamizda Yaponiyaning dunyoga mashhur «Mitsui va KOLTD», «Mitsubisi korporeyshn», «Sumitoto korporeyshn», «Chori» va boshqa ko'plab kompaniya firmalari samarali faoliyat ko'rsatmoqda. Yaponiya davlati Respublikamizdagi Ko'kdumaloq neft-gaz kondensati konini o'zlashtirishda, Toshg'uzor-Boysun-Qumqo'rg'on temir yo'l tarmog'ini barpo etishda, Buxoro, Farg'ona neftni qayta ishlash zavodlarini qurish va ta'mirlashda, telealoqa tarmoqlarini ta'minlashda o'z sarmoyalari bilan faol qatnashmoqda.

O'zbekiston Sharqning yana bir rivojlangan davlati Janubiy Koreya davlati o'rtasidagi diplomatik aloqalar 1992 yil yo'lga qo'yilgan. 1992 yil 19 iyunda iqtisodiy, savdo, transport, elektronika, telekommunikatsiya, aloqa, to'qimachilik, maorif, ommaviy axborot, sport aloqalarining rivojlanishiga asos solindi. Shuningdek bu ikki davlat o'rtasida o'zaro hamkorlik munosabatlarining uzoq muddatga mo'ljallangan rejalari belgilab olindi. Janubiy Koreyaning olamga mashhur «Samsung», «DEU» korporatsiyalari bilan hamkorlikda Asaka shahrida «O'zDEUavto» O'zbekiston-Koreya qo'shma avtomobil zavodining 1996 yil 25 martda qurib ishga tushirildi. Bugungi kunga kelib, mamlakatimizda Janubiy Koreya

davlati bilan hamkorlikda tuzilgan 80 dan ortiq qo'shma korxonalar keng faoliyat ko'rsatmoqda.

O'zbekiston mustaqillikka erishgach dunyodagi rivojlangan mamlakatlar qatoridan o'rin egallagan Malayziya va Indoneziya davlatlari bilan davlatlararo aloqalar o'rnatildi. Yurtboshimiz I.A.Karimovning 1992 yil 19-23 iyun kunlari bu ikki davlatga safari diplomatik aloqalar boshlanishida muhim ahamiyatga molik bo'ldi. Ushbu davlatlar bilan savdo-iqtisodiy, madaniy va ma'rifiy sohalardagi aloqalar tobora kengayib bormoqda.

O'zbekiston Respublikasi va XXR o'rtasidagi ikki tomonlama hamkorlik tizimida o'zaro munosabatlar muhim rol o'ynaydi. Xitoy O'zbekiston mustaqilligini 1991 yil 27 dekabrda tan olgan. 1992 yil 2 yanvarda ushbu mamlakat bilan diplomatik aloqalar o'rnatilgan. Har ikki mamlakat o'rtasida hamkorlik aloqalari o'rnatilgandan keyin iqtisodiyot, savdo, fan va texnika, madaniyat va san'at sohasida o'zaro manfaatli hamkorlik jadal rivojlanishi uchun ko'pdan ko'p imkoniyatlar vujudga keldi. O'tgan yillar maboynida ikki davlat o'rtasida sheriklik munosabatlari va hamkorlikni yanada rivojlantirish to'g'risida bir qancha deklaratsiyalar, memorandumlar va boshqa hamkorlikka oid bitimlar imzolangan.

Agar raqamlarga murojaat qilinsa, 1992 yildan to 2009 yilga qadar O'zbekiston va XXR o'rtasida o'zaro tovar aylanmasi o'sha davrga nisbatan 6 barobarga oshgan bo'lsa, 2008-yilda dunyoda kechayotgan moliyaviy inqiroz tufayli bu ko'rsatkich 1.200 mln. dollarni tashkil qilgan va 2007-yilga nisbatan o'zaro tovar aylanmasi 25% ga kamaygan. 2008 yilga qadar O'zbekistonga kiritilgan Xitoy investitsiyalari hajmi 11 mlrd. dollarni tashkil qilgan. Kiritilayotgan investitsiyalar nafaqat neft-gaz sohasiga, balki transport, telekommunikatsiya, gidroenergetika, engil sanoat kabi sohalarga ham jalb qilinmoqda. O'zbekiston Xitoyga energiya resurslari, neft va neft kimyosi mahsulotlari, paxta tolasi, ipak, o'g'it, meva-sabzavot kabi mahsulotlar eksport qiladi. Xitoydan esa mamlakatimizga mexanik va elektron uskunalar, optik apparatlar, dori-darmon, to'qimachilik mahsulotlari, plastmassa va plastmassa buyumlar, rangli va qora metallar, yog'och va yog'ochdan tayyorlangan mahsulotlar import qilinadi. Agar raqamlarga murojaat qilinsa, 2016 yilgacha O'zbekistonda Xitoy sarmoyasi ishtirokida tuzilgan 700 dan ortiq qo'shma korxonalar mavjud bo'lgan. Ular asosan engil sanoat, to'qimachilik, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlash, axborot texnologiyalari kabi sohalarda ish olib boradi. Toshkent shahrida faoliyat ko'rsatib kelayotgan "Elektron hisoblagich" O'zbekiston - Xitoy qo'shma korxonasi bunga misol bo'la oladi.

So'nggi yillarda ikki mamlakat hamkorligida mobil telefon apparatlari ishlab chiqarish bo'yicha hamkorlik memorandumini, "Markazsanoateksport" kompaniyasi tomonidan Xitoyga mis etkazib berish to'g'risida bitim ham olib borilayotgan amaliy ishlar natijasidir. Shuningdek "O'zsanoatmashimpeks" kompaniyasi tomonidan Xitoyga paxta etkazib berish to'g'risida bitim, "O'zkimyosanoat" kompaniyasi bilan "Luyang Lanbin" kompaniyasi o'rtasida anglashuv protokoli, "O'zkimyosanoat" kompaniyasi bilan "Grinkul" kompaniyasi o'rtasida qo'shma korxonalar tashkil etish to'g'risida bitim imzolangan.

XXR kompaniyalari bilan investitsion hamkorlikning muhim yo'nalishi hisoblangan neft-gaz sektorini alohida qayd etish lozim. Mazkur tarmoq bo'yicha

hamkorlik ham o'zining evolyusiyasiga ega. Masalan, bu borada 2005-yilda «O'zbekneftgaz» kompaniyasi va Xitoy milliy neft-gaz korporatsiyasi (NP) o'rtasida to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar kiritish bo'yicha hajmi taxminan 600 mln. AQSH dollari bo'lgan qo'shma korxonalar tashkil etish to'g'risida bitim imzolandi. 2006-yilda O'zbekistonda Xitoyning kapitali ulushi 100% bo'lgan «NP Silk Road» sho'ba kompaniyasi tashkil etilib, u hozirgi vaqtda O'zbekistondagi Buxoro, Xiva, Farg'ona va Ustyurt neft-gaz mintaqalarida beshta investitsion blokda geologiya - qidiruv ishlarini amalga oshirishga kirishdi. Bunda Xitoy korporatsiyasi O'zbekistondagi geologiya-qidiruv ishlariga 5 yil mobaynida 208,5 mln. AQSH dollari miqdoridagi mablag'larni investitsiya qiladi.

Birinchi Prezident Islom Karimovning 2005-yil Xitoyga tashrifi chog'ida «O'zbekneftgaz» va Xitoy milliy neft-gaz korporatsiyasi o'rtasidagi o'zaro kelishuvga asosan Buxoro viloyatining Jondor tumanidan boshlanadigan O'zbekiston - Xitoy gaz quvurini qurilishi 2008-yilning iyun oyidan boshlandi. Ushbu loyihaning umumiy qiymati 2 mlrd. AQSH dollarini tashkil etadi va 500 kilometrlik ikkita liniyani qurilishini o'z ichiga oladi. Ushbu liniyalarning birinchisi 2009-yilning dekabrda, ikkinchisi 2011 -yilda qurib bitkazildi .

O'zbekistonda Xitoy investorlari ishtirokida tuzilgan 122 korxonalar ro'yxatdan o'tgan. Shulardan 102 tasi qo'shma korxonalar, 20 tasi 100% Xitoy sarmoyasi hisobidan Xitoy kompaniyalarining 23 ta korxonasi faoliyat ko'rsatmoqda. 2017 yilga kelib Xitoyning O'zbekistonga kiritilgan sarmoyasi xajmi 435 mln AQSH dollarini tashkil etadi.

2011-2017 yillarda o'zaro tovar ayirboshlash hajmi qariyb to'rt barobar oshgan. 2017 yilning birinchi yarmida o'zaro savdo yanada jadallashib, 59 foiz o'sdi va 2,3 milliard dollarni tashkil etdi. Davom etayotgan global moliyaviy-iqtisodiy inqiroz oqibatida jahon iqtisodiyotidagi umumiy pasayishga va muammolarga qaramay, mamlakatlarimiz o'rtasidagi savdo barqaror sur'atlarda o'sayotganini alohida ta'kidlash joiz.

Investitsiyaviy hamkorlik- O'zbekiston va Xitoy o'rtasidagi o'zaro hamkorlikning eng muhim yo'nalishidir. Ushbu hamkorlik ayni paytda har ikki tomon uchun ustuvor loyihalar xisobidan kengayib, eng muhim barcha yo'nalishlar bo'yicha sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarildi.

Xitoy O'zbekiston iqtisodiyotiga eng ko'p investitsiya kiritayotgan yirik sarmoyadorlardan biridir. O'zlashtirilgan to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar hajmi 6,7 milliard dollardan oshdi. Bular qatorida Qo'ng'irotda soda zavodi, Dehqonobod kaliyli o'g'itlar zavodini qurish va ishga tushirish, Yangi Angren issiqlik elektr stansiyasi va Angren ko'mir konini texnik qayta jihozlash, Xitoy kompaniyalari bilan hamkorlikda neft, gaz hamda uran konlarini qidirish, razvedka qilish va o'zlashtirishga oid qator qo'shma loyihalar bunday o'zaro manfaatli investitsiyaviy hamkorlikning yaqqol dalillaridir.

O'zbekistonning Markaziy Osiyo davlatlari hamda Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi bilan hamkorligi.

1991 yil 8 dekabrda Belorusiyaning Belovejskoe Pushche qarorgohida uch davlat Rossiya, Ukraina, Belorusiya Mustaqil Davlatlar hamdo'stligini tuzish to'g'risidagi shartnomani imzoladilar. Shartnomada SSSRning mavjudligi va SSSR

Konstitutsiyasi to'xtatiladi, deb e'lon qilindi. 1991 yil 21 dekabrda Almatida Rossiya, Ukraina, Belarus, Qozog'iston, O'zbekiston, Qirg'iziston, Tojikiston, Turkmaniston, Ozarbayjon, Armaniston, Moldaviya davlat boshliqlarining kengashida ushbu davlatlarning MDH ga a'zo bo'lganligi to'g'risidagi bayonot qabul qilindi.

1992 yil 15 may kuni Toshkentda MDH mamlakatlari rahbarlarining navbatdagi kengashi bo'lib o'tdi. Toshkent Kengashida bir qator hujjatlar imzolandi. 1993 yil yanvarda Minskda MDH davlatlari boshliqlarining uchrashuvi bo'ldi. Unda MDH ning Nizomi imzolandi va MDHning huquqiy rasmiylashtirish jarayoni yakunlandi. 1993 yil 24 sentyabrda Moskvada MDH davlatlari boshliqlarining Kengashi bo'lib o'tdi. Unda MDH doirasida iqtisodiy ittifoq barpo etish masalasi muhokama etildi va iqtisodiy ittifoqni tuzish haqidagi shartnoma imzolandi. 1994 yil 21 oktyabrda Moskvada MDH davlat boshliqlarining Kengashi bo'lib o'tdi. Kengashda Iqtisodiy ittifoqning Davlatlararo iqtisodiy qo'mitasi tuzildi.

Shuni qayd etish zarurki 1991-2001 yillarda MDH davlat boshliqlarining 30 ga yaqin kengashi bo'lib, ularda hammasi bo'lib iqtisodiy, ijtimoiy, harbiy-siyosiy, tashkiliy va umumiy sohalarga oid 1300 ga yaqin masalalar muhokama etilib, tegishli hujjatlar imzolandi. 1993 yil MDH davlatlari bilan imzolangan "Iqtisodiy ittifoq" haqidagi shartnoma ham bu davlatlarning iqtisodiy taraqqiyoti va o'zaro hamkorliklarining yanada mustahkamlanishiga katta ta'sir ko'rsatdi.

O'zbekistonning Gruziya, Moldova davlatlari bilan ikki tomonlama davlat aloqalari yo'lga qo'yilgan. Respublikamiz bilan Gruziya o'rtasidagi qadimiy aloqalarni tiklash muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Ikki mustaqil davlat o'rtasida do'stlik va hamkorlik, sarmoyalarni o'zaro himoya qilish va rag'batlantirish, fan-texnika, bank, qishloq xo'jaligi, bojxona, xalqaro transport aloqalari, erkin savdo va ishlab chiqarish, maorif, madaniyat, sport, sog'liqni saqlash, sayyohlik, atrof-muhit muhofazasi, pochta aloqasi, soliq, bojxona tizimi, jinoyatchilikka qarshi kurash kabi 30 dan ortiq hukumatlararo va muassasalararo bitim va hujjatlar imzolangan.

O'zbekistonning Boltiq bo'yi davlatlari bilan o'zaro hamkorligi katta ahamiyatga ega. Bunga O'zbekiston bilan Litva, Latviya va Estoniya Respublikalari o'rtasidagi ikki tomonlama hamkorlikni rivojlantirish va chuqurlashtirish to'g'risidagi qo'shma Deklaratsiyasining imzolanihi bu davlatlar bilan bundan keyingi aloqalarni rivojlanishini yangi bosqichga ko'tardi. O'zbekiston bu davlatlarga rangli metallar, ipak paxta, neft va boshqa mahsulotlar eksport qiladi. Respublikamiz Litva, Latviya va Estoniyadan elektr mashinalari, ularning ehtiyot qismlari, shakar, efir moyi, qora metal, sut mahsulotlari, mebel sanoati mahsulotlarini sotib oladi. O'zaro hamkorlikka asosan Toshkentda bu davlatlarning qo'shma korxonalarini ish yuritmoqda.

Ayniqsa O'zbekiston va Rossiya o'rtasidagi 1992 yil o'rnatilgan diplomatik aloqalardan so'ng siyosiy, iqtisodiy sohalarda 150 dan ortiq shartnomalar imzolangan. Rossiya Federatsiyasi bosh vaziri V.Chernomirdin, keyinroq E.Primakov 1998 yil Rossiya Federatsiyasi prezidenti B.F.Yelsin, 1999-yil dekabr va 2000 yil may oyida prezident V.V.Putinning O'zbekistonga qilgan tashriflari Rossiya va O'zbekistonning o'zaro iqtisodiy hamkorliklarini yo'lga qo'yishda yangi davrni boshlab berdi. 2003-2004 yillarda Rossiya va O'zbekiston o'rtasidagi munosabatlar

yana ham mustahkamlandi. Jumladan, Rossiya davlati xavfsizlik kengashining raisi, Mudofaa, Tashqi ishlar, Transport vazirlari o'zbekistonlik davlat rahbarlari bilan muhim masalalar bo'yicha bitimlar tuzdi. 16 iyun kuni strategik hamkorlik to'g'risida bitim tuzildi.

V. Putinning Rossiya Prezidenti etib saylanishi Rossiya va O'zbekiston o'rtasidagi hamkorlikni yangi bosqichga ko'tardi. V. Putin qisqa muddatda O'zbekistonda ikki marta – 1999 yil 10-11 dekabrda va 2000 yil 18-19 may kunlarida davlat tashrifi bilan keldi. Tashrif davomida ikki mamlakat Prezidentlari va rasmiy delegatsiyalari o'rtasida savdo iqtisodiy aloqalarni yanada kengaytirish xarbiy va xarbiy texnikaviy hamkorlik, xavfsizlik, jumladan, Afg'anistondagi vaziyatni barqarorlashtirish, xalqaro terrorchilikka qarshi birgalikda kurashish va boshqa masalalar muxokama etildi.

O'zbekiston bilan Rossiya o'rtasidagi tovar ayirboshlash xajmi 2000 yilda bir milliard AQSH dollarini tashkil etdi. O'zbekistonda 520 ta O'zbekiston- Rossiya qo'shma korxonasi, Shuningdek, Rossiya Fereratsiyasi firma va kompaniyalari ro'yxatga olingan. Rossiyada esa O'zbekiston sarmoyasi ishtirokida tushilgan 250 ga yaqin qo'shma korxonalar mavjud. O'zbekiston Rossiyadan mashinalar va jixozlar, kimyo mahsulotlari va plastmassa, qora metal va boshqa tovarlar sotib olib, Rossiyaga turli mashina va jixozlar, paxta tolasi, oziq-ovqat mollari eksport qiladi.

2004 yil 16 iyunda O'zbekiston Respublikasi va Rossiya Federatsiyasi o'rtasida strategik sherikchilik to'g'risida bitim imzolandi. Mazkur 2005 yil 14 noyabrda ittifoqchilik munosabatlari to'g'risida shartnoma xujjatlari o'zaro xavfsizlikni ta'minlash, global taxdidlarga qarshi xarakat qilish, siyosiy, iqtisodiy va gumanitar sohalardagi hamkorlikni kengaytirishga qaratilgan mustaxkam poydevor bo'lib xizmat qiladi. "O'zbekneftegaz" milliy xolding kompaniyasi bilan "Lukoil" neft kompaniyasi OAJ xamda "Gazprom OAJ" o'rtasida mahsulot taqsimotiga oid bitim imzolandi. Bu xujjat Rossiya tomonidan O'zbekiston yoqilg'i- energetikasi sohasiga 2.5 milliard AQSH dollari miqdorida investitsiya kiritishni nazarda tutadi. Ikki davlat o'rtasidagi savdo xajmi 2004 yilda 1 milliard 642 million AQSH dollarini tashkil etdi.

O'zbekistonning Markaziy Osiyo respublikalari bilan olib borayotgan o'zaro hamkorligi yanada diqqatga sazovordir. Xususan O'zbekiston va Qozog'iston davlatlari o'rtasidagi o'zaro hamkorlik mustaqillik yillarida yanada kengaygan. Jumladan 1994 yil yanvar oyida Qozog'iston Prezidenti N.Nazarboevning O'zbekistonga tashrifi natijasida "Yagona iqtisodiy hudud" to'g'risidagi shartnomaga imzo chekdilar. Bu shartnomaga keyinchalik Qirg'iziston va Tojikistonning ham kirishi Markaziy Osiyo mintaqasida iqtisodiy integratsiya jarayonining chuqurlashuviga katta imkoniyat yaratdi.

Markaziy Osiyo mintaqasida xavfsizlik va barqarorlikni ta'minlash uchun O'zbekiston davlati rahbariyati qat'iyat bilan harakat qilib kelmoqdalar. Masalan, Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining 1993 yil 4 yanvar Toshkentdagi tarixiy uchrashuvi ushbu davlatlar hayotida muhim voqea bo'ldi. Uchrashuvda mintaqalar taqdiriga taalluqli masalalar birinchi marta muhokamaga qo'yildi. Orol dengizini saqlab qolish bo'yicha xalqaro jamg'arma tuzish to'g'risida qaror qabul qilindi. SHunday uchrashuvlar bir yilda ikki marta (1993 yil, mart, Qizil-O'rda, 1994 yil,

yanvar. Nukus; 1994 yil, aprel. Cho'lpon-ota, 1995 yil, mart. Tashhovuz; 1996 yil, yanvar. Ko'kchatov; 1997 yil, yanvar, Bishkek; 1997 yil dekabr, Oqmola; 1998 yil mart Toshkent) kengashlarida mintaqadagi ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va harbiy masalalar to'g'risida shartnomalar, bitimlar imzolandi.

Birgina Qozog'iston Respublikasi bilan hamkorlik misolida oladigan bo'lsak, O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti I.Karimov 2008 yil 22 -24 aprel kunlari rasmiy tashrif bilan Qozog'iston Respublikasida bo'lishi mamlakatlar yangi tarixida o'ziga xos davrni boshlab berdi. O'zbekiston bilan Qozog'iston o'rtasidagi iqtisodiy aloqalarda 1997 yilda imzolangan Erkin savdo to'g'risidagi bitimga amal qilinar edi. So'nggi yillarda o'zaro tovar ayirboshlash ko'rsatkichi jadal o'sib bormoqda. Xususan, 2006 yilda 39,1 foizlik o'sish qayd etilgan bo'lsa, 2007 yilda o'zaro savdo hajmi 63,3 foiz yuksalib, 1 milliard 193,3 million AQSH dollarini tashkil etdi. Ya'ni, 2007 yilda mamlakatlarimiz ilk bor 1 milliardlik dovondan oshdi. Shuni ham ta'kidlash kerakki, bunda O'zbekistonning ijobiy saldosi 129,5 million AQSH dollaridan iborat bo'lgan.

I. Karimovning 2007 yil oktabr oyida Ashxobodda bo'lib o'tgan uchrashuvlar va imzolangan hujjatlar O'zbekiston bilan Turkmaniston o'rtasidagi yangicha munosabatlarni qaror toptirish, uni sifat jihatidan yangi pog'onaga ko'tarish uchun poydevor bo'ldi. 2008-2012 yillarga mo'ljallangan iqtisodiy hamkorlik to'g'risidagi bitim va dastur ushbu sohadagi istiqbolli vazifalarning ijro etilishini ta'minlashiga shubha yo'q.

Shu bilan birga Markaziy Osiyo mintaqasida Orol dengizi suvidan oqiloana foydalanish, mintaqada ekologik vaziyatni asrashga qaratilgan pozitsiyamiz so'ngi 20 yil mobaynida jahon jamoatchiligining diqqat e'tiborida bo'lib kelmoqda. 2009 yil 28 aprel kuni Qozog'iston Respublikasining Olmaota shahrida Orolni qutqarish xalqaro jamg'armasi ta'rischi davlatlari rahbarlarining uchrashuvida u yana bir bor o'z aksini topdi. Sammit ishida O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti I. Karimov ishtirok etdi va ushbu masala yuzasidan o'zining fikr-mulohazalarini bildirdi.

Markaziy Osiyo respublikalarining diqqat markazida turgan xalqaro terrorizmga qarshi jipslashish masalasi mintaqadagi respublikalar rahbarlarining 2000 yil 20-23 aprel kunlari Toshkentda bo'lib o'tgan uchrashuvda yana yuzaga chiqdi. Xalqaro terrorizmga qarshi kurash Xalqaro markazi tuzish haqidagi tashabbusini qo'llab-quvvatladilar. To'rt davlat rahbarlari mintaqada xalqaro terrorizm, siyosiy va diniy ekstremizm va boshqa tahdidlarga qarshi birgalikda harakat olib borish haqida hujjatni imzoladilar. Shuningdek, uchrashuvda ikki davlat Qozog'iston va O'zbekiston respublikasi prezidentlari chegaralar masalasida ikkala davlat orasida erkin harakatlanish to'g'risida, yo'lovchi va yuk tashish transportlarini kengaytirish to'g'risida kelishib olindi.

Ushbu mamlakatlarni birlashtirib turgan muhim muammolar qatorida Orol dengizi masalasi katta o'rin tutadi. SHu bois bu masalani to'la qonli hal etish mintaqadagi davlatlarning global muammolari qatoriga kiradi. Prezidentimiz so'zi bilan aytganda "Orol bo'yining barcha ne'matlarini "yagona sovet xalqi" bilan baham ko'rilgan" bo'lsa, "uning achchiq mevasi Orol bo'yi fojiasidan qutulish Markaziy Osiyo xalqlarining ishi bo'lib qoldi." 2002 yil 28 fevral -1 mart kunlari Almati

shahrida Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining uchrashuvida "Markaziy Osiyo hamkorligi" tashkilotini tuzish to'g'risidagi shartnomaga imzo chekildi.

Afg'onistondagi vaziyat yuzasidan mamlakat Birinchi Prezidenti I.Karimov tomonidan 2008 yilning aprel oyida Buxarestda bo'lib o'tgan NATO samitidagi ma'ruzasida ilgari surilgan takliflari mohiyatan o'ta dolzarb edi. Unda faqat Afg'oniston emas balki butun musulmon olamida og'ir vaziyat va keskinlikka sabab bo'layotgan islom diniga nisbatan mutlaqo asossiz xuruj va bo'htonlarga yo'l qo'ymaslik muhimligi uqdiriladi. SHu o'rinda mamlakatimiz prezidentining 2001 yilgacha faoliyat ko'rsatgan "6+2" muloqot guruhini NATO vakolatxonasi ham albatta ishtirok etishini nazarda tutib, "6+2"ni "6+3" guruhiga aylantirish zarurligi haqidagi tashabbuslari keng jamoatchilik tomonidan iliq kutib olinadi. Jumladan shu munosabat bilan O'zbekiston tashabbusi bilan 1998 yilda tashkil topgan 6+2 guruhining Afg'oniston masalasini hal qilishda va Toshkent Deklaratsiyasining ahamiyati muhim edi.

Markaziy Osiyo davlatlari hududida diniy ekstremizm va xalqaro terrorizmning xavfi yanada xatarli ekanligi ko'p bora qayd etiladi. Uning ildizlari 1990 yilda Namangan va Andijonda, 1990-1996 yillarda Tojikistondagi fuqarolar urushi va mojarolar davomida, 1999 yil 19 fevralda Toshkent shahrida, 1999-2001 yillari Qirg'izistonning Botkent, O'zbekistonning Surxondaryo va Toshkent viloyatida, 2004 yil mart-aprel oylarida Toshkent shahri va Buxoro viloyatida 2005 yil 12-13 may kunlari Andijon shahrida, 2010 yil Qirg'izistonning Osh, Jalolobod viloyatlarida amalga oshirilgan terrorchilik harakatlari, millatlararo nizolar timsolida o'zini ko'rsatdi. Ammo, O'zbekiston hukumati olib borgan oqilona ichki va tashqi siyosati tufayli millatlararo nizolarning oldi olindi, qardosh o'zbek va qirg'iz xalqlari orasiga rahna solishga intilgan ayrim qora niyatli kuchlarning intilishlari asossiz ekanligi namoyon bo'ldi.

O'zbekistonning jahon hamjamiyatidagi faol tashqi siyosatining tobora integratsiyalashuvi va rivojlanish strategiyasi.

O'zbekiston o'z mustaqilligiga erishgandan so'ng jahon hamjamiyati orasida munosib o'rin egallashga qarakat qilmoqda. O'zbekistonning o'z taraqqiyot istiqbollari uchun qulay jo'g'rofiy-siyosiy imkoniyatlarga ega ekanligi ham mustaqil tashqi siyosat yuritish, jahon hamjamiyatidan munosib o'rin olish uchun imkon bermoqda.

Shavkat Mirziyoevning O'zbekiston Prezidentligiga saylanishi mamlakatning faol tashqi siyosat borasidagi imkoniyatlarini yanada kengaytirdi. Xususan, avvalombor yaqin qo'shni davlatlar bilan barcha sohalarda hamkorlik aloqalarini yo'lga qo'yilishi muhim voqea bo'ldi. Jumladan, Turkmaniston, Qirg'iziston, Tojikiston, Qozog'iston kabi davlatlar bilan uzoq yillar mobaynida yopilgan chegaralar ochildi. Mazkur davlatlar aholisining chegaradan bemalol o'tib qaytishi uchun keng imkoniyatlar yaratildi.

O'zbekiston tashqi siyosatining asosiy yo'nalishlaridan biri Markaziy Osiyo mintaqasida tinchlik, xavfsizlik, barqarorlikni ta'minlashdir. Ayniqsa qo'shni Afg'oniston Respublikasida siyosiy barqarorlikka erishish uchun sa'y harakat olib borish, asosiy o'rinda turadi.



Biz xalqaro hamjamiyatni Afg'oniston hukumati rahbarligida tinchlik muzokaralarini boshlash zaruratini qo'llab-quvvatlashga da'vat etdik, dedi Prezidentimiz. Shu munosabat bilan 2018 yilning mart oyida Afg'oniston bo'yicha o'tkazilgan yuqori darajadagi Toshkent konferensiyasi zamonaviy Afg'oniston tarixida xalqaro miqyosdagi eng qamrovli anjuman bo'lganini ta'kidlash lozim. Konferensiya yakuni bo'yicha qabul qilingan, uning barcha qatnashchilarining yakdil pozitsiyasi ifoda etilgan «Toshkent deklaratsiyasi» Afg'onistonda tinchlik o'rnatish bo'yicha o'ziga xos dastur bo'ldi. Aynan ushbu konferensiyadan so'ng Afg'onistondagi barcha siyosiy kuchlar, jumladan, «Tolibon» harakati ishtirokida muzokaralar jarayonini boshlashga qaratilgan xalqaro harakatlar yanada faollashdi.

O'zbekiston Afg'oniston rahbariyati va mamlakatning etakchi siyosiy kuchlari, jumladan «Tolibon» harakati vakillari bilan bir qator muhim muzokaralar o'tkazdi. Ushbu siyosiy kuchlar afg'on muammosini hal qilishda O'zbekiston samarali vositachi bo'la olishi mumkinligini e'tirof etdi. Biz uchun eng muhim pirovard natija – Afg'onistonda tinchlik muzokaralarini boshlash va milliy yarashuvga erishishdan iborat.

Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining yalpi majlisi tomonidan muhim bir hujjat – «Ma'rifat va diniy bag'rikenglik» rezolyusiyasi qabul qilindi. Ushbu rezolyusiyani qabul qilish tashabbusi 2017 yil sentyabr oyida Bosh Assambleyaning 72-sessiyasida O'zbekiston tomonidan ilgari surilgan edi. Bizning taklifimizni Birlashgan Millatlar Tashkilotiga a'zo bo'lgan 193 ta davlat keng qo'llab-quvvatlagani jahon hamjamiyati tomonidan O'zbekistonning sa'y-harakatlariga berilgan yuksak baho va e'tirof sifatida barchamizga katta mamnuniyat va g'urur-iftixor bag'ishlaydi. 2018 yilda jahonning etakchi davlatlari bilan ham o'zaro manfaatli aloqalar sezilarli darajada jadallashdi.

Qisqa vaqt ichida O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoevning tashriflari va xorijiy davlatlar rahbarlari bilan muzokaralari natijasida Rossiya, Belarus, AQSH, Xitoy, Fransiya va boshqa Evropa Ittifoqi mamlakatlari, Turkiya, Misr, hamda Osiyo-Tinch okeani mintaqasi va YAqin SHarq davlatlari bilan strategik sheriklik munosabatlari sifat jihatdan yangi bosqichga ko'tarildi.

Rossiya Federatsiyasi Prezidenti Vladimir Putinning 2018 yil 19–20 oktyabr kunlari yurtimizga amalga oshirgan davlat tashrifi davomida o‘tkazilgan muhokamalar yakunlari bo‘yicha yadro energetikasi va kosmos sohasidagi hamkorlikni o‘z ichiga olgan turli yo‘nalishlarda umumiy qiymati 26 milliard dollarlik investitsiya loyihalarini amalga oshirish bo‘yicha 20 ta hukumatlararo hujjat imzolandi. Bu tashrif asosida tuzilgan shartnomalar asosida 79 ta O‘zbekiston–Rossiya qo‘shma korxonalari, 23 ta yangi savdo uylari, 20 ta ulgurji va chakana savdo markazlari ochilishi rejalashtirilgan. Turkiya Prezidenti Rejep Tayyip Erdo‘g‘onning 2018 yil 29 aprel – 1 mayda O‘zbekistonga amalga oshirgan davlat tashrifi doirasida oliy darajadagi O‘zbek–Turk strategik hamkorlik kengashi tashkil etildi. Tomonlar yaqin yillarda o‘zaro tovar aywaboshlash hajmini 5 milliard dollarga etkazish bo‘yicha aniq tadbirlar yuzasidan kelishib olishdi.

Prezidentimizning 2018 yil 15–16 may kunlari AQSHga rasmiy tashrifi O‘zbekiston – Amerika strategik hamkorligini rivojlantirishga kuchli turtki berdi. Tarixiy tashrif davomida savdo, fan, qishloq xo‘jaligi, energetika va boshqa sohalarda o‘zaro manfaatli aloqalarni har tomonlama mustahkamlashga qaratilgan qator hujjatlar imzolandi. Ikki mamlakat kompaniyalari qiymati 4,8 milliard dollarlik 20 dan ortiq yirik shartnomalarni imzolashdi. Misr Arab Respublikasi Prezidenti Abdulfattoh Said Husayn Halil as-Sisi 2018 yil 4–5 sentyabr kunlari rasmiy tashrif bilan mamlakatimizda bo‘ldi.

Davlatlarimiz o‘rtasida yoshlar, sport, investitsiya, qishloq xo‘jaligi sohasida hamkorlik to‘g‘risida Anglashuv memorandumlari, ta‘lim, turizm, arxeologiya, madaniy meros va muzeyshunoslik sohasida hamkorlikni yo‘lga qo‘yish va rivojlantirishga doir bitimlar, ikki mamlakat tashqi ishlar vazirliklari o‘rtasida 2019–2020 yillarga mo‘ljallangan hamkorlik dasturi va adliya vazirliklari o‘rtasida hamkorlik memorandumlari jami 12 ta hujjat imzolandi. Belarus Prezidenti Aleksandr Lukashenkoning 2018 yil 12–14 sentyabrda O‘zbekistonga rasmiy tashrifi davomida 19 ta kelishuv va umumiy qiymati 263 million dollarlik 56 ta savdo shartnomasi imzolandi. Prezidentimizning 2018 yil 30 sentyabr – 1 oktyabrda Hindistonga davlat tashrifi davomida 20 dan ziyod hukumatlararo hujjatlar va qiymati 3 milliard 200 million dollarlik shartnomalar imzolandi. Prezidentimizning Fransiyaga 2018 yil 8–9 oktyabr kunlari amalga oshirgan rasmiy tashrifi O‘zbekiston rahbari Shavkat Mirziyoev Evropa Ittifoqi davlatlariga qilgan birinchi safari bo‘ldi. Tashrif yakunida 10 ta hukumatlararo shartnoma va umumiy qiymati 5 milliard evroga teng bo‘lgan investitsiyaviy loyihalar bo‘yicha bitimlar imzolandi. Umuman olganda, 2018 yil mobaynida 30 dan ortiq davlatlararo va halqaro tuzilmalar rahbarlari bilan oliy darajadagi muzokaralar olib borildi, 180 ta ikki tomonlama shartnoma hamda kelishuvlar tuzildi.

Shuningdek, hukumat, vazirlik, idoralar va xalqaro tashkilotlar rahbarlari darajasida 360 ta tashrif amalga oshirildi. O‘zbekiston diplomatiyasining yutuqlaridan biri o‘zbekistonlik taniqli diplomat Vladimir Norovning 2019 yil 1 yanvardan boshlab SHHT Bosh kotibi lavozimiga tasdiqlanganligi ham tarixiy voqea bo‘ldi. 3 yanvarda O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoev V. Norovni SHHT Bosh kotibi sifatida qabul qildi. O‘zbekiston tashqi siyosatidagi ijobiy o‘zgarish va natijalarni yana boshqa ma‘lumotlar misolida ko‘rish mumkin.

Faol tashqi siyosat tufayli mamlakati mizning xalqar obro' - e'tibori 2018 yil – “Faol tadbirkorlik, innovatsion g'oyalar va texnologiyalarni qo'llab quvvatlash yili” O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoev dunyoning turli mamlakatlariga 30ga yaqin oliy darajadagi tashriflar bilan bordi hamda nufuzli tashkilotlarning sammitida qatnashdi. Keyingi ikki yil ichida xorijiy mamlakatlar prezidentlari mamlakatimizga 16 ta tashrifni amalga oshirdi. Davlatimiz rahbari BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida nutq so'zladi. Unda bildirilgan takliflar xalqaro hamjamiyat tomonidan katta qiziqish bilan kutib olindi. Prezidentimiz tashabbusi bilan, ilk bor Markaziy Osiyo davlat rahbarlarining maslahat uchrashuvi tashkil etildi. Afg'oniston bo'yicha “Tinchlik jarayoni, xavfsizlik sohasida hamkorlik va mintaqaviy sheriklik” mavzusidagi yuqori darajadagi Toshkent konferensiyasi o'tkazildi. Prezidentimiz Xitoyning Sindao shahrida SHHT Davlat rahbarlari Kengashining o'n sakkizinchi majlisida ishtirok etdi; BMT shafeligida Orolbo'yi mintaqasi uchun Trast fondi faoliyati yo'lga qo'yildi va hokazo.

2018 yil 22 sentyabr kuni Toshkent shahridagi “Miran International” mehmonxonasida xalqaro va mahalliy ekspertlar ishtirokida tashkil etilgan “O'zbekistonning Harakatlar strategiyasi doirasidagi tashqi siyosiy faoliyati” mavzusida davra suhbat bo'lib o'tdi. Unda tashkilotchi O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi va Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti vakillari bilan bir qatorda AQSH, Rossiya, Buyuk Britaniya, Shvetsiya, Belgiya, Fransiya, Xitoy, Yaponiya, Pokiston va Hindistondan tashrif buyurgan, jami 26 nafar ekspert ham ishtirok etdi.

O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoevning BMT minbarida so'zlagan ilk nutqidan so'ng tashkil etilishi ramziy ma'noga ega bo'lib, O'zbekistonning xalqaro maydonda ijobiy imijini oshirish, olib borilayotgan islohotlar bilan jahon hamjamiyatini xolisona tanishtirish kabi tashabbuslar kelgusida yanada qo'payishi tabiiydir.

Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligiga a'zo davlatlar, birinchi navbatda, Rossiya Federatsiyasi bilan, shuningdek, Xitoy Xalq Respublikasi, Amerika Qo'shma Shtatlari, Evropa Ittifoqi mamlakatlari, Koreya Respublikasi va Yaponiya bilan munosabatlarini yanada rivojlantirishga qaratilgan faol tashqi siyosat olib borishda muhim rol o'ynadi. O'zbekiston 2017 yildan boshlab Xitoy tashabbusi bilan tashkil qilingan “Bir makon, bir yo'l” xalqaro forumining ishtirokchisidir. Mazkur hamkorlik ikki yo'nalish- quruqlik va dengiz orqali davlatlararo hamkorlikni musathkamlashga qaratilgan. U hozigi kunda Osiyo, Afrika va Evropadagi 65 mamlakatni qamarab olgan. 2019 yilda O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoev mazkur forumda nutq so'zlab, O'zbekiston va Xitoy sheriklik aloqalarini yuksaltirishdan minnatdorligini qayd qilgan edi. Umuman, qayd qilingan malumotlarga tayanib, O'zbekiston va Xitoy davlatlari o'rtasidagi iqtisodiy aloqalar jadal rivojlanayotganligining guvohi bo'lishimiz mumkin. Bu esa kelajakda har ikki davlat o'rtasidagi sherikchilik aloqalarining strategik imkoniyatlaridan yanada samarali foydalanishni taqoza etadi.

So'nggi yillarda respublikamizda ta'lim sohasida ham xalqaro hamkorlikda sezilarli ijobiy siljishlarga erishildi. Agar raqamlarga murojaat qilinsa, 2019 yil 1 iyul holatiga ko'ra O'zbekistonda 102 ta oliy ta'lim muassasasi faoliyat yuritgan. Birgina

2018 yilda mamlakatimizda jami 13 ta yangi oliy ta'lim muassasasi, jumladan, Samarqandda "Ipak yo'li" turizm xalqaro universiteti, Rossiya Federal davlat avtonom oliy ta'lim muassasasi "Milliy texnologik tadqiqotlar universiteti"ning Olmaliq shahridagi filiali, Toshkent shahrida Janubiy Koreyaning Puchon universiteti filiali faoliyat boshladi. Davlatimiz rahbarining 2018 yil 25 sentyabrdagi Farmoni bilan Vazirlar Mahkamasi huzurida "El-yurt umidi" jamg'armasi tashkil etildi. 2018 yilda ilk bor xalqaro tajribalar asosida oliy ta'lim muassasalarining milliy reytingi yaratildi, ta'lim va ilmiy tadqiqot jarayonlari tahlil qilindi. Mamlakatimizda o'nga yaqin oliy ta'lim muassasasi va ularning filiallari tashkil etildi.

Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar

1. O'zbekiston bugungi kunga kelib qanday xalqaro tashkilotlarga a'zo bo'lgan?
2. O'zbekiston YUNESKO bilan hamkorlikda so'nggi yillarda qanday tadbirlarni amalga oshirdi?
3. O'zbekistonning MDH davlatlari bilan munosabatlari qanday rivojlanmoqda?
4. Prezident Sh.Mirziyaevning Respublika iqtisodiyotiga xorijiy investisiyalarni jalb etish yuzasidan qanday ishlarni amalga oshirmoqda?
5. O'zbekiston va Turkiya aloqalari haqida so'zlab bering.
6. O'zbekiston va Markaziy Osiyo davlatlari o'rtasidagi hamkorlik aloqalari
7. O'zbekiston va Xitoy o'rtasidagi aloqalar haqida nimalarni bilasiz?
8. O'zbekiston bilan Koreya Respublikasi o'rtasida qanday sohalarida hamkorlik qilinmoqda?
9. O'zbekiston va Yaponiya o'rtasida o'zaro manfaatli aloqalar nimalarda o'z ifodasini topmoqda?
10. MDH qachon tashkil topdi, unga qaysi respublikalar a'zo bo'lib kirdi? MDH faoliyati haqida nimalarni aytaolasiz?
11. O'zbekiston Respublikasi bilan Rossiya Federatsiyasi o'rtasida davlatlararo munosabatlar haqida nimalarni bilasiz ?
12. Markaziy Osiyo mintaqasiga Orol muammosini hal qilish yo'lida qanday tadbirlar amalga oshirilmoqda?

Testlar

1. 1993-yil yanvar oyida Toshkentda tashkil etilgan uchrashuvda qaysi tashkilot tuzildi?
 - A) Mustaqil davlatlar hamdo'stligi
 - B) Markaziy Osiyo Hamdo'stligi
 - C) Kollektiv xavfsizlik kengashi
 - D) Mintaqaviy xavfsizlik tashkiloti
2. Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlari 1993-yilda qayerda Orol dengizi muommasiga bag'ishlangan uchrashuv o'tkazdilar?
 - A) Qizil O'rda shahrida
 - B) Nukus shahrida
 - C) Toshhovuz shahrida

- D) Turkmaniston prezidenti saroyida
3. Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlari 1999-yilda qayerda Orol dengizi muommasiga bag'ishlangan uchrashuv o'tkazdilar?
- A) Qizil O'rda shahrida
 B) Nukus shahrida
 C) Toshhovuz shahrida
 D) Turkmaniston prezidenti saroyida
4. Amir Temur tavalludining 660 yilligi tantanalari halqaro miqiyosda qaysi shaharda nishonlandi?
- A) Parij B) London C) Samarqand D) Shahrisabz
5. Shahrisabz shahri qaysi yili YuNESKO madaniy qadriyatlari ro'yhatiga kiritildi?
- A) 1996 yil B) 1995 yil C) 1997 yil D) 1998 yil
6. O'zbekiston Prezidenti Sh. Mirziyoyevning Tojikistonga oliy darajadagi uchrashuvi qachon amalga oshirildi?
- A) 2018-yil mart oyida
 B) 2018-yil aprel oyida
 C) 2018-yil may oyida
 D) 2018-yil iyun oyida
7. 2017-yil qaysi shaharda "Markaziy Osiyo: yagona tarix va umumiy kelajak, barqaror rivojlanish va tarqiyot yo'lidagi hamkorlik?"
- A) Toshkentda B) Buxoroda
 C) Xorazmda D) Samarqandda
8. 2017-yil o'tkazilgan "Markaziy Osiyo: yagona tarix va umumiy kelajak, barqaror rivojlanish va tarqiyot yo'lidagi hamkorlik? Mavzusidagi anjuman qaysi tashkilot homiyligida o'tkazildi?
- A) BMT B) YUNESKO
 C) YUNESIF D) MDH
9. 2017-yil iyun oyida qaysi tashkilotning Ostona sammiti o'tkazildi va unda O'zbekiston Prezidenti Sh. Mirziyoyev qatnashdi?
- A) Shanhay Hamkorlik Tashkiloti
 B) BMT
 C) MDH
 D) Millatlar ligasi
10. Qachon O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev BMTning 72-sessiyayasi munosabati bilan Amerika Qo'shma Shtatlarida bo'ldi?
- A) 2017-yil may B) 2017-yil iyun
 C) 2017-yil dekabr D) 2018-yil aprel

16-Mavzu: O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishda Harakatlar strategiyasining tutgan o'rni

Reja:

1. O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirishning Harakatlar strategiyasining mazmun va mohiyati.
2. Harakatlar strategiyasidagi ustuvor yo'nalishlarida "Buyuk kelajak dasturi"da ifodalangan kontseptual g'oyalar.
3. Harakatlar strategiyasida belgilangan ustuvor yo'nalishlar natijalari.

***Darsning o'quv maqsadi:** Talabalarga O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirishning Harakatlar strategiyasining mazmun va mohiyati, Harakatlar strategiyasidagi ustuvor yo'nalishlarida ifodalangan kontseptual g'oyalar hamda strategiyada belgilangan ustuvor yo'nalishlar natijalari haqidida atroflicha ma'lumotlar berish.*

***Tayanch so'z va iboralar:** Keng ko'lamli islohotlar, innovatsiya, davlat va jamiyat qurilishi takomillashtirish, qonun ustivorligi, sud islohotlari, iqtisodiyotni liberallashtirish, davlat xavfsizligi, diniy bag'rikenglik, millatlararo totuvlik.*

O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirishning Harakatlar strategiyasining mazmun va mohiyati.

Mamlakatimizda mustaqillik yillarida amalga oshirilgan keng ko'lamli islohotlar milliy davlatchilik va suverenitetni mustahkamlash, xavfsizlik va huquq-tartibotni, davlatimiz chegaralari daxlsizligini, jamiyatda qonun ustivorligini, inson huquq va erkinliklarini, millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglik muhitini ta'minlash uchun muhim poydevor bo'ldi, xalqimizning munosib hayot kechirishi, fuqarolarimizning bunyodkorlik salohiyatini ro'yobga chiqarish uchun zarur shart-sharoitlar yaratdi.

Iqtisodiyotda ma'muriy-buyruqbozlikka asoslangan boshqaruv tizimidan mutlaqo voz kechilib, bozor islohotlari bosqichma-bosqich amalga oshirilgani va pul-kredit siyosati puxta o'ylab olib borilgani makroiqtisodiy barqarorlikni, iqtisodiyotning yuqori sur'atlar bilan o'sishini, inflyatsiyani prognoz ko'rsatkichlari darajasida saqlab qolishni ta'minladi hamda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, fermerlik harakatini rivojlantirish uchun keng imkoniyatlar va qulay sharoitlar yaratilishiga xizmat qildi.

Ayni vaqtda mamlakatimiz bosib o'tgan taraqqiyot yo'lining chuqur tahlili, bugungi kunda jahon bozori kon'yunkturasi keskin o'zgarib, globallashtirish sharoitida raqobat tobora kuchayib borayotgani davlatimizni yanada barqaror va jadal sur'atlar bilan rivojlantirish uchun mutlaqo yangicha yondashuv hamda tamoyillarni ishlab chiqish va ro'yobga chiqarishni taqozo etmoqda.

Olib borilayotgan islohotlar samarasini yanada oshirish, davlat va jamiyatning har tomonlama va jadal rivojlanishi uchun shart-sharoitlar yaratish, mamlakatimizni modernizatsiya qilish hamda hayotning barcha sohalarini liberallashtirish bo'yicha ustuvor yo'nalishlarni amalga oshirish maqsadida, aholi va tadbirkorlarni o'ylantirayotgan dolzarb masalalarni har tomonlama o'rganish, amaldagi qonunchilik, huquqni qo'llash amaliyoti va ilg'or xorijiy tajribani tahlil qilish, shuningdek keng jamoatchilik muhokamasi natijasida ishlab chiqilgan hamda

quyidagilarni nazarda tutadigan **2017 - 2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi** 2017 yil 7 fevralda tasdiqlandi.

davlat va jamiyat qurilishini takomillashtirishga yo'naltirilgan demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va mamlakatni modernizatsiya qilishda parlamentning hamda siyosiy partiyalarning rolini yanada kuchaytirish, davlat boshqaruvi tizimini isloh qilish, davlat xizmatining tashkiliy-huquqiy asoslarini rivojlantirish, «Elektron hukumat» tizimini takomillashtirish, davlat xizmatlari sifati va samarasini oshirish, jamoatchilik nazorati mexanizmlarini amalda tatbiq etish, fuqarolik jamiyati institutlari hamda ommaviy axborot vositalari rolini kuchaytirish;

qonun ustuvorligini ta'minlash va sud-huquq tizimini yanada isloh qilishga yo'naltirilgan sud hokimiyatining chinakam mustaqilligini hamda fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini mustahkamlash, ma'muriy, jinoyat, fuqarolik va xo'jalik qonunchiligini, jinoyatchilikka qarshi kurashish va huquqbuzarliklarning oldini olish tizimi samarasini oshirish, sud jarayonida tortishuv tamoyilini to'laqonli joriy etish, yuridik yordam va huquqiy xizmatlar sifatini tubdan yaxshilash;

iqtisodiyotni yanada rivojlantirish va liberallashtirishga yo'naltirilgan makroiqtisodiy barqarorlikni mustahkamlash va yuqori iqtisodiy o'sish sur'atlarini saqlab qolish, milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish, qishloq xo'jaligini modernizatsiya qilish va jadal rivojlantirish, iqtisodiyotda davlat ishtirokini kamaytirish bo'yicha institutsional va tarkibiy islohotlarni davom ettirish, xususiy mulk huquqini himoya qilish va uning ustuvor mavqeini yanada kuchaytirish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik rivojini rag'batlantirish, hududlar, tuman va shaharlarni kompleks va mutanosib holda ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiy ettirish, investitsiyaviy muhitni yaxshilash orqali mamlakatimiz iqtisodiyoti tarmoqlari va hududlariga xorijiy sarmoyalarni faol jalb etish;

ijtimoiy sohani rivojlantirishga yo'naltirilgan aholi bandligi va real daromadlarini izchil oshirib borish, ijtimoiy himoyasi va sog'lig'ini saqlash tizimini takomillashtirish, xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish, arzon uy-joylar barpo etish, yo'l-transport, muhandislik-kommunikatsiya va ijtimoiy infratuzilmalarni rivojlantirish hamda modernizatsiya qilish bo'yicha maqsadli dasturlarni amalga oshirish, ta'lim, madaniyat, ilm-fan, adabiyot, san'at va sport sohalarini rivojlantirish, yoshlarga oid davlat siyosatini takomillashtirish;

xavfsizlik, millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglikni ta'minlash, chuqur o'ylangan, o'zaro manfaatli va amaliy ruhdagi tashqi siyosat yuritishga yo'naltirilgan davlatimiz mustaqilligi va suverenitetini mustahkamlash, O'zbekistonning yon-atrofida xavfsizlik, barqarorlik va ahil qo'shniçilik muhitini shakllantirish, mamlakatimizning xalqaro nufuzini mustahkamlash.

Avvalombor O'zbekiston milliy taraqqiyoti yangi bosqichining asosi deb e'tirof etilayotgan strategiya so'zining mazmun-mohiyatida to'xtalsak. Strategiya - uzoq muddatli davrga mo'ljallagan, umumiy holatda qat'iy rejalashtirilmagan keyinchalik inson faoliyatining orzu maqsadlariga etishi uchun ishlab chiqilgan yo'ldir. Strategiyaning asosiy maqsadi mavjud resurslardan samarali foydalanish evaziga inson faoliyati va ehtiyojlarini ta'minlashdir. Yuqorida tilga olingan mamlakatimizni

modernizatsiyalash, liberallashtirish, Innovatsiyon texnologiyalar yordamida rivojlantirish nimalardan iborat ekani bo'yicha quyidagicha jummalarni keltirib o'tish mumkin.

Modernizatsiya, yoki modernizatsiyalash (franc. moderne - eng yangi, zamonaviy) - biror narsani yangilash, unga zamonaviy tus berish, uni zamonaviy talablarga muvofiq o'zgartirish. Modernizatsiyada mashina, apparat, turli texnologik qurilmalar, muhim kashfiyotlar texnika taraqqiyoti talablariga muvofiq qayta ishlanadi. Lo'nda qilib aytganda mamalakatimizni modernizatsiya qilish deganda davlatimizning ishlab chiqarish va noishlab chiqarishga taa'luqli barcha tarmoqlarini yangilash, unga zamonaviy tus berish, zamonaviy talablarga muvofiq o'zgartirish nazarda tutilgan. Mamlakatimiz hayotning barcha sohalarini liberallashtirish bo'yicha ustuvor yo'nalishlarni amalga oshirish deganda esa, liberallashtirish quyidagi mazmun mohiyatdan kelib chiqqan.

Liberalizm - odamlarning o'zini, xatti-harakatlarini, mulkini boshqarishda erkin his etishi mazmunida qo'llaniladi. Liberallashtirish nafaqat odamlarning amaliy faoliyati, balki ularning o'z erkinliklarini ijtimoiy-iqtisodiy hayotda, o'zining siyosiy-madaniy dunyoqarashlarida namoyon etishi jarayoni hamdir. Umumiy ma'noda fuqarolarning iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy jabhalarida erkinliklari nuqtai nazaridan faoliyat yuritishi demakdir.

Keyingi besh yil mobaynida OAV, internet tarmoqlarida va radio-televediniya eshittirish va ko'rsatuvlarida, kundalik matbuot nashrlari hisoblangan gazeta va jurnallarda "Innovatsiya" so'zi ko'p yangraydigan bo'lib qoldi. E'tibor beradigan bo'lsak, yaqinlaringiz davrasida ham bu so'z tez-tez jaranglab turibdi. Bu atamaning ma'nosi qanday va uning kundalik hayotimizga singdirilishi mamlakat rivojlanishi va taraqqiyoti uchun naqadar muhim? "Innovatsiya" atamasi lotincha "novatio" so'zidan olingan bo'lib, "yangilanish" (yoki "o'zgarish"), "in" qo'shimchasi esa lotinchadan "yo'nalishida" deb tarjima qilinadi, agar buni yaxlit "Innovatio" ko'rinishida tarjima qilsak - "o'zgarishlar yo'nalishida" deb izohlanadi. Innovation tushunchasi birinchi bo'lib XIX-asrning ilmiy tadqiqotlarida paydo bo'ldi.

"Innovatsiya" tushunchasi o'zining yangi hayotini "Innovatsiyon kombinatsiyalar"ni tahlil qilish, iqtisodiy tizimlarning rivojlanishidagi o'zgarishlar natijasida XX-asrning boshida avstriyalik va amerikalik iqtisodchi Y.Shumpeterning ilmiy ishlarida boshlagan. Shumpeter 1900-yillarda iqtisodda ushbu termini ilmiy qo'llashga kiritgan dastlabki olimlardan edi.

Innovatsiyaga har qanday turdagi yangilik sifatida emas, balki mavjud tizimning samaradorligini jiddiy ravishda oshiradigan omil sifatida qarashimiz lozim. Keng tarqalgan yangilash fikrlashlarga qaramasdan innovatsiyalar kashfiyotlardan farq qiladi.

Innovatsiyalarning ilmiy kashfiyotlar va ixtirolardan farqi, ilm-fan - bu ma'lum mablag'larni bilimlar va g'oyalarga aylantirish. Innovatsiyalar - bu bilimlar va g'oyalarni mablag'larga aylantirishdir. Innovatsiya - bu bozor talabidan kelib chiqqan holda jarayonlar va mahsulotlarning sifatli o'sish samaradorligini ta'minlash uchun joriy etilgan yangilikdir. Inson intellektual faoliyati, uning fantaziyasi, ijodiy jarayoni, kashfiyotlari, ixtirolari va racionalizatorligining yakuniy natijasi hisoblanadi. Yangi iste'molchilik xususiyatlari yoki ishlab chiqarish tizimlarining

samaradorligini sifatli oshirish orqali bozorga mahsulot (tovarlar va xizmatlar)ni etkazib berish - innovatsiyaga misol bo'la oladi.

Ilm-fan va texnika yutuqlarini keng qo'llagan holda iqtisodiyot tarmoqlariga, ijtimoiy va boshqa sohalarga zamonaviy Innovatsiyon texnologiyalarni tezkor joriy etish O'zbekiston Respublikasi jadal rivojlanishining muhim sharti hisoblanadi. 2017 yil 2 dekabr kuni Toshkentdagi Talabalar shaharchasida Innovatsiyalarni tatbiq etish ilmiy-amaliy markazi barpo etilishi haqida e'lon qilgan Prezident Shavkat Mirziyoyev "Xalqimiz dunyoqarashida Innovatsiya muhitini yaratish eng muhim vazifamizdir. Innovatsiya bo'lmas ekan, hech bir sohada raqobat, rivojlanish bo'lmaydi. Bu sohadagi o'zgarishlarni xalqimizga keng targ'ib qilmasak, odamlarda ko'nikma paydo qilmasak, bugungi davr shiddati, fan-texnikaning mislsiz yutuqlari bilan hamqadam bo'lolmaymiz", degan edi.

Mamlakatimizda yetakchi soha va tarmoqlarni Innovatsiyon rivojlantirish, Innovatsiyon g'oyalar va texnologiyalarni ishlab chiqarishga keng joriy etish yuzasidan izchil ishlar amalga oshirilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 29 noyabrdagi «O'zbekiston Respublikasi Innovatsiyon rivojlanish vazirligini tashkil etish to'g'risida»gi PF-5264-son Farmoni asosida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 30 noyabr, PQ-3416-son tarkibida 105 kishini olgan Innovatsiyon rivojlanish Vazirligi tashkil etildi.

Ushbu sohaga e'tiborning kuchaytirilishini oradan qariyb bir yil o'tib O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 21 sentyabrdagi PF-5544-sonli Farmoni e'lon qilinishiga olib keldi. Farmon asosida 2019-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini Innovatsiyon rivojlantirish strategiyasi ishlab chiqildi.

Inson va uning manfaatlarini ko'zlab ishlab chiqilgan Harakatlar strategiyasining birinchi ustuvor yo'nalishi bu, davlat va jamiyat qurilishini takomillashtirishga yo'naltirilgan demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va mamlakatni modernizatsiya qilishda parlamentning hamda siyosiy partiyalarning rolini yanada kuchaytirishga qaratilganligi bilan ahamiyatlidir. Ya'ni davlat boshqaruvi tizimini isloh qilish, davlat xizmatining tashkiliy-huquqiy asoslarini rivojlantirish, davlat xizmatlari sifati va samarasini oshirish, jamoatchilik nazorati mexanizmlarini amalda tatbiq etish, fuqarolik jamiyati institutlari hamda ommaviy axborot vositalari rolini kuchaytirishga e'tibor qaratdi.

Harakatlar strategiyasida qonun ustuvorligini ta'minlash va sud-huquq tizimini yanada isloh qilishga yo'naltirilgan dastur bu ikkinchi yo'nalish hisoblanadi. Ya'ni sud hokimiyatining chinakam mustaqilligini hamda fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini mustahkamlash, ma'muriy, jinoyat, fuqarolik va xo'jalik qonunchiligini, jinoyatchilikka qarshi kurashish va huquqbuzarliklarning oldini olish tizimi samarasini oshirish belgilab berildi. Uning muhimligi shuningdek sud tizimini isloh qilish, yuridik yordam va huquqiy xizmatlar sifatini tubdan yaxshilashga yo'naltirilganligi bilan ahamiyatlidir.

Uchinchi ustuvor yo'nalish, strategik dasturning yana muhim ustuvor jabhasi bu, iqtisodiyotni yanada rivojlantirish va liberallashtirishga yo'naltirilgan makroiqtisodiy barqarorlikni mustahkamlash va yuqori iqtisodiy o'sish sur'atlarini saqlab qolish, milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish, qishloq xo'jaligini modernizatsiya qilish va jadal rivojlantirish, iqtisodiyotda davlat ishtirokini

kamaytirishni ko'zlaydi. Strategiyada xususiy mulk huquqini himoya qilish va uning ustuvor mavqeini yanada kuchaytirish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik rivojini rag'batlantirish, hududlar, tuman va shaharlarni kompleks va mutanosib holda ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiy ettirish, investisiyaviy muhitni yaxshilash orqali mamlakatimiz iqtisodiyoti tarmoqlari va hududlariga xorijiy sarmoyalarni faol jalb etish masalalari ham keng o'rin olgan.

To'rtinchi muhim ustuvor yo'nalish etib belgilangan keyingi masalalar ijtimoiy sohani rivojlantirishga yo'naltirilganligi aholi bandligi va real daromadlarini izchil oshirib borish, ijtimoiy himoya va sog'liqni saqlash tizimini takomillashtirish, xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish, arzon uy-joylar barpo etish, yo'l-transport, muhandislik-kommunikatsiya va ijtimoiy infratuzilmalarni rivojlantirish inson manfaatlariga yo'naltirilganligi bilan muhim ahamiyat kasb etdi. Unda barcha ijtimoiy sohalarni modernizatsiya qilish bo'yicha maqsadli dasturlarni amalga oshirish, ta'lim, madaniyat, ilm-fan, adabiyot, san'at va sport sohaslarini rivojlantirish, yoshlarga oid davlat siyosatini takomillashtirish ham belgilandi.

Beshinchi ustuvor yo'nalish bu, davlatimiz xavfsizlik tizimi, millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglikni ta'minlash, chuqur o'ylangan, o'zaro manfaatli va amaliy ruhdagi tashqi siyosat yuritishga yo'naltirilgan davlatimiz mustaqilligi va suverenitetini mustahkamlash,

O'zbekistonning yon-atrofida xavfsizlik, barqarorlik va ahil qo'shniçilik muhitini shakllantirish, mamlakatimizning xalqaro nufuzini mustahkamlash beshinchi ustuvor yo'nalishda belgilab berildi.

Harakatlar Strategiyasidagi ustuvor yo'nalishlarida "Buyuk kelajak dasturi"da ifodalangan konseptual g'oyalar.

2017 yildan e'tiboran barcha sohalarda davlatimiz taraqqiyotning yangi bosqichiga qadam qo'ydi. Barcha sohalarda keng ko'lamli qayta qurish va islohotlarning yangi davri boshlandi. O'zbekiston tubdan yangilana boshladi. Barcha rahbarlar faoliyati qaytadan ko'rib chiqildi, tanqidiy tahlil qilindi, ularga xalq oldida shaxsiy javobgarlik yuklandi. Asosiy e'tibor ancha yillar mobaynida etilib qolgan masalalarni hal qilish, xalq manfaatlarini va muammolarini hal qilishga qaratildi. 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi"da yuqorida ta'kidlanganidek, mamlakatimizni rivojlantirishning besh ustuvor yo'nalishi – davlat va jamiyat qurilishini takomillashtirish, qonun ustuvorligini ta'minlash va sud-huquq tizimini yanada isloh qilish, iqtisodiyotni yanada rivojlantirish va liberallashtirish, ijtimoiy sohani taraqqiy ettirish, xavfsizlik, millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglikni ta'minlash, chuqur o'ylangan, o'zaro manfaatli va amaliy ruhdagi tashqi siyosat yuritish bo'yicha aniq, hayotiy islohotlar, ularni amalga oshirish mexanizmlari belgilab berilgan.

"Buyuk Kelajak" XNNT(xalqaro nodavlat notijorat tashkiloti) O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev tomonidan amalga oshirilayotgan davlatning siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy sohaslarida O'zbekiston Respublikasining keng ko'lamli islohotlarini qo'llab-quvvatlash va ularga ko'maklashish bilan shug'ullanadi. "Buyuk Kelajak" XNNT tashkiloti O'zbekiston Respublikasi Harakatlar Strategiyasi qabul qilinganidan so'ng, chet elda ishlayotgan ziyoli, tadbirkor O'zbekistonlik tadbirkorlar ko'magi va ishtirokida tuzilgan.

Shuningdek sayt ushbu maqsadlar uchun “Buyuk Kelajak” Ekspert Kengashi tomonidan O‘zbekiston Respublikasining 2035 yilgacha bo‘lgan uzoq muddatli rivojlanish modelini tayyorlash haqida xabardor qiladi.

“Xalq manfaatlarini hamma narsadan ustun” tamoyili.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning BMT Bosh Assambleyasi 72-sessiyasida nutq so‘zlashiga mustaqil mamlakatimiz hayotidagi tarixiy voqea, deb baho berish mumkin. Prezidentimizning nutqi mamlakatimizda “Inson manfaatlarini hamma narsadan ustun” degan ustuvor tamoyildan kelib chiqdi. O‘zbekiston Respublikasining ichki siyosati ham, tashqi siyosati ham tinchlik, farovonlik, hamjihatlikka asoslanishi, inson manfaatlarini va taraqqiyotga qaratilgani ta’kidlandi. Davlatimiz ana shunday poziciyadagi davlatlar bilan ochiq va teng hamkorlik qilishga tayyorligi bayon etildi.

“Xalq davlat idoralariga emas, davlat idoralari halqimizga xizmat qilishi kerak” tamoyili.

2015 yil 25 sentyabrda Bosh vazirning internet tarmog‘ida Elektron qabulxonasi tashkil etildi. Ushbu qabulxonaga kelib tushgan shikoyat arizalarida asosan mamlakatimizdagi turli tarmoq sohalaridagi byurokratik to‘siqlarni olib tashlash, qonunga zid bo‘lgan ko‘plab idoraviy yo‘riqnomalarni bekor qilish, stavkasi optimal bo‘lgan bank kreditlari ajratish, tadbirkorlik bo‘yicha noqonuniy tekshirishlarga barham berish, huquq-tartibot idoralarining adolatsiz hukmlari haqida, aholidan uy-joy qurilishi, kommunal, transport va savdo xizmati, energiya ta’minotini, yo‘llarning holatini yaxshilash bo‘yicha ham ko‘plab murojaatlarning samarali yo‘llarini ishlab chiqish mexanizmi tufayli SH.Mirziyoyev tomonidan “Xalq davlat idoralariga emas, davlat idoralari xalqimizga xizmat qilishi kerak”- degan tamoyil asosida kelib chiqdi.

Dastlab bu jumla O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti vazifasini bajaruvchi Sh.Mirziyoyev tomonidan 2016 yilda o‘tkazilishi mo‘ljallangan saylov oldi dasturida Toshkent shahri, viloyat va shaharlar, yirik korxonalar va tashkilotlarida so‘zlagan ma’ruzalarida tilga olingan edi.

«Xalq davlat idoralariga emas, balki davlat organlari xalqimizga xizmat qilishi kerak» tamoyili.

2017 yil 31 avgust kuni O‘zbekiston Respublikasi Mustaqilligining 26 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimda Prezident SHavkat Mirziyoyev nutq so‘zladi. Nutqida “Harakatlar strategiyasi”da «Xalq davlat idoralariga emas, balki davlat organlari xalqimizga xizmat qilishi kerak» degan tamoyil davlat siyosatining eng ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylangani albatta bejiz emas”.- deb ta’kidladi.

2019 yil 17 yanvarda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Aholi muammolari bilan ishlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni qabul qilindi. Prezidentimiz tomonidan ilgari surilgan “Xalq davlat idoralariga emas, davlat idoralari xalqimizga xizmat qilishi kerak” ushbu tamoyil bugun hayotimizda tobora chuqur o‘rin olayotgan yurtdoshlarimizning hayotdan rozi bo‘lib yashashiga zamin yaratmoqda. Bugun poytaxt Toshkent shahridan to mamlakatimizning eng uzoq hududida yashayotgan yurtdoshimizga qadar islohotlarning real natijasini o‘z hayotida ko‘ra boshlagani, bu yangilanishlar minglab oilalar hayoti, millionlab insonlarning ongi, qalbi va dunyoqarashi o‘zgarishiga ham turtki bo‘layotgani buning yaqqol isbotidir. Prezidentimizning

“Aholi muammolari bilan ishlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi farmoni Xalq qabulxonalari faoliyatini yangi bosqichga ko’tarishi barobarida islohotlar ta’sirchanligini yanada oshirishga, xalqimizning hayotdan rozi bo’lishi uchun yanada keng imkoniyat va shart-sharoitlar yaratishga xizmat qilishi shubhasiz.

Harakatlar strategiyasida milliy iqtisodiyotni jadal rivojlantirish va liberallashtirish borasida eng dolzarb masalalar echimi yuzasidan aniq vazifalar belgilab berilgan “Xalq boy bo’lsa, davlat ham boy bo’ladi” degan jumla shaklida uchraydi. Zero Prezidentimiz 2017 yil 27 fevraldagi tadbirkorlar bilan uchrashuvlarida ta’kidlangan edi. Bu islohotlardan ko’zlangan pirovard maqsad bitta - xalqimizni hayotdan rozi qilish, boy qilish. Bunga odamlarni tadbirkorlikka, ishbilarmonlikka o’rgatish, kichik biznes va tadbirkorlik sohasini qo’llab-quvvatlash va rag’batlantirish orqali erishish mumkin. Zotan, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta’kidlaganidek, “xalq boy bo’lsa, davlat ham boy va qudratli bo’ladi”.

Harakatlar strategiyasida belgilangan ustuvor yo’nalishlar natijalari.

2020 yil 21 yanvar kuni Prezident Shavkat Mirziyoyev Oliy Majlisning Senati va Qonunchilik palatasiga navbatdagi Murojaatnomasida ilm-ma’rifat va texnologiyalar rivojiga alohida ahamiyat qaratdi va 2020 yilni “Ilm-ma’rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili” deb e’lon qildi.



Birinchi ustuvor yo’nalish davlat va ijtimoiy qurilishni takomillashtirishdir.

Ushbu yo’nalishdagi eng muhim qadamlar:

Prezident devoni va Vazirlar Mahkamasining tuzilmalari, funksiyalari va vazifalari o’zgartirildi.

Quyidagi lavozimlar kiritildi: Bosh vazirning o’rinbosari - Investitsiyalar, innovatsion rivojlanish, erkin iqtisodiy va kichik sanoat zonalarini muvofiqlashtirish, turizm masalalari bo’yicha direktor;

Bosh vazir o'rinbosari - Ta'lim, sog'liqni saqlash, ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish, jismoniy tarbiya va sport masalalari kompleksi rahbari.

O'zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash vazirligi, Iqtisodiy rivojlanish va qashshoqlikni kamaytirish vazirligi,

O'zbekiston Respublikasi Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi, Maktabgacha ta'lim vazirligi, Energetika vazirligi, Transport vazirligi tashkil etildi

O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy islohotlar konsepsiyasi qabul qilindi.

Ma'muriy islohotlar konsepsiyasining asosiy vazifalari:

ijro hokimiyati organlari faoliyatining institucional, tashkiliy va huquqiy asoslarini takomillashtirish;

ijro hokimiyati organlarining javobgarligi sohasida vazifalarni aniq belgilash, ularni amalga oshirish mexanizmlari, alohida tuzilmalarni muvofiqlashtirish va o'zaro ta'sir o'tkazish jarayonlarini takomillashtirish;

vertikal boshqaruv tizimi va ijro hokimiyati organlarining o'zaro hamkorligi mexanizmlarini qisqartirish va takomillashtirish;

davlat boshqaruviga zamonaviy strategik rejalashtirish usullari, innovacion texnologiyalar, g'oyalar va ishlanmalarni joriy etish;

professional davlat xizmatining yuqori sifatli tizimini shakllantirish, ijro etuvchi hokimiyat organlarida korrupciyaga qarshi kurashishning samarali mexanizmlarini joriy etish.

Xalq deputatlari Kengashlari tarkibi kiritildi.

Bu yangi tuzilgan bo'lib, Toshkent aholisi o'z vakillari - deputatlar orqali shahar tumanlarini boshqarishda ishtirok etishlari mumkin.

Parlament a'zolarining har oy dala tashriflari amaliyoti mavjud.

Parlament a'zolari ishlarning haqiqiy holatini o'rganish va mavjud muammolarni hal qilish choralari ko'rish uchun joylarga boradilar. Ushbu chora hukumat va aholi o'rtasida muloqot o'rnatish, fuqarolarning muammolariga davlat organlarining qiziqishini namoyish etish imkonini berdi.

Prezidentga va hukumatga murojaat qiladigan jismoniy va yuridik shaxslar tizimi ishlamoqda.

O'zbekistonning har bir mintaqasida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Xalq qabulxonalarini ochiq, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Virtual qabulxonasi mavjud.

Ilm, ma'rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili Davlat dasturi ijrosi haqida Davlat dasturida 2020 yil mobaynida jami 284 ta, joriy yilning 1 apreliga qadar esa 57 ta bandeda aks atgan tadbirlar amalga oshirilishi belgilangan.

(2020 yil 1 aprel holatiga)



Ikkinchi ustuvor yo'nalish - bu qonun ustuvorligini ta'minlash va sud-huquq tizimini isloh qilish. Ushbu yo'nalishdagi asosiy o'zgarishlar:

-Korrupsiyaga qarshi komissiya rahbari tayinlandi.

-Komissiyani O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori boshqargan. Komissiya korrupsiyaga qarshi kurashish, ushbu sohadagi qonunchilikni takomillashtirish va mamlakat hayotining barcha sohalarida korrupsiyaning oldini olish maqsadida tuzilgan. Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha agentlik tuzildi, u boshqa davlat organlari, tashkilotlari va ularning mansabdor shaxslaridan qat'iy nazar, qonuniylik, xolislik, javobgarlik, oshkoralik va oshkoralik prinsiplari asosida, O'zbekiston Respublikasi Prezidentiga bo'ysunadi va O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining palatalariga hisobot beradi.

-Sud-tibbiy faoliyatda faqat dalillarga asoslanib qaror qabul qilish taqiqlanadi.

-Qarorda dastlabki tergov davomida jabrlanuvchining, guvohning, gumon qilinuvchining, ayblanuvchining, sudlanuvchining ko'rsatuvlari asosida xulosa chiqarish va qaror qabul qilish taqiqlanadi, agar buning uchun dalillar yetarli bo'lmasa.

-Bosh prokuratura tarkibida yangi bo'limlar tashkil etildi.

-Bosh prokuratura huzurida ijtimoiy qonunlarning ijro etilishini nazorat qilish va iqtisodiy qonunlarning ijro etilishini nazorat qilish bo'yicha bo'limlar tashkil etildi. Ya'ni, ushbu bo'limlar boshqa ikkita ustuvor yo'nalish - ijtimoiy va iqtisodiy sohalardagi barcha qarorlar va yangiliklarning bajarilishini nazorat qilishlari kerak.

-Oliy sud va Oliy xo'jalik sudi birlashtirildi.

Ularning asosida O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi yaratildi - fuqarolik, jinoiy, ma'muriy va xo'jalik ishlari bo'yicha sud hokimiyatining yagona oliy organi.

Shuningdek, Oliy sud huzuridagi sudlar faoliyatini ta'minlash departamenti tashkil etildi.

-O'zbekiston Respublikasi Oliy sud kengashi tuzildi.

-Oliy sud kengashining ishi sudlarning tuzilishi va sudyalarni tanlash va tayinlash tizimini takomillashtirish, shuningdek, sud hokimiyati mustaqilligining Konstitutsiyaviy tamoyiliga rioya qilinishini ta'minlashdan iborat.

"Sud-huquq tizimini yanada isloh qilish, fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi qaror qabul qilindi.

Unda sud-huquq tizimini isloh qilish, sud hokimiyatining chinakam mustaqilligini ta'minlash, fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish, odil sudlovga erishish darajasini oshirish, sud, huquqni muhofaza qilish va nazorat organlarining vazifalarini belgilashning asosiy ustuvor yo'nalishlari belgilab berilgan.



Uchinchi ustuvor yo'nalish - bu iqtisodiyotni rivojlantirish va liberallashtirish.

Ushbu sohada muhim o'zgarishlar:

-Korxonalarni yangi ro'yxatdan o'tkazish tamoyili soddalashtirilgan.

-30 daqiqada Internetda tunu kun ro'yxatdan o'tish mumkin. Ushbu procedura uchun zarur bo'lgan hujjatlar soni qisqartirildi.

-Masalan, ilgari yakka tartibdagi tadbirkorni ro'yxatdan o'tkazish uchun 7 ta hujjatlar to'plamini taqdim etish kerak bo'lsa, endi - 1 ta, yuridik shaxs uchun oldinroq - 6 ta, endi - 2 ta. Milliy valyuta devalvasiya qilindi.

-Plastik kartochkalar orqali to'lov tizimi o'zgartirildi. Chet el valyutasini olib kirish va olib chiqish tartibi soddalashtirildi.

-7 ta yangi erkin iqtisodiy zonalar tashkil etildi. O'zbekiston hukumati bir vaqtning o'zida dorivor o'simliklarni etishtirish va qayta ishlash uchun ettita erkin iqtisodiy zonani rivojlantirishga e'tibor qaratish to'g'risida qaror qabul qildi.

Davlat investitsiya qo'mitasi tashkil etildi. U investitsiyalar sohasida yagona davlat siyosatini olib boradi, xorijiy investitsiyalarni jalb qilish uchun maqbul muhitni yaratish strategiyasini ishlab chiqadi, har yilgi investitsiya dasturlarini muvofiqlashtiradi va kuzatadi. Yakka tartibdagi tadbirkorlar va oilaviy tadbirkorlarni mikroreditlash mexanizmi soddalashtirildi.

To'rtinchi ustuvor yo'nalish - ijtimoiy sohani rivojlantirish. Ijtimoiy sohani rivojlantirish yo'nalishini amalga oshirish uchun quyidagi choralar ko'rildi:

-Ish o'rinlari yaratildi.

-Shaharlarda energiya tejaydigan arzon turar joy binolarini qurish va rekonstruksiya qilish dasturi tasdiqlandi va amalga oshirilmoqda.

-Oliy o'quv yurtlariga imtihon topshirish tartibi o'zgartirildi.

-Eng kam ish haqi, nafaqa va nafaqalar oshirildi.

-Nogironlarni qo'llab-quvvatlash dasturi qabul qilindi. Tibbiy yordam yaxshilanmoqda.

-Pasport tizimidagi o'zgarishlar - yashash huquqiga ega bo'lgan shaxslarga fuqarolik berishni boshladik. 2016 yil dekabr oyidan boshlab, O'zbekiston Respublikasida yashash uchun ruxsatnomasi bo'lgan shaxslarning fuqaroligiga qabul qilish boshlandi.

Taraqqiyot strategiyasining beshinchi ustuvor yo'nalishi xavfsizlik, millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglikni, shuningdek, muvozanatli va konstruktiv tashqi siyosatni ta'minlash bo'yicha chora-tadbirlarni qabul qilishdan iborat.

Prezident BMT Bosh assambleyasining 72-sessiyasida nutq so'zlab, mamlakatning ichki va tashqi siyosatining muhim yo'nalishlari haqida gapirdi

Mamlakatimiz rahbari o'z nutqida Bosh Assambleyaning "Ma'rifat va diniy bag'rikenglik" maxsus rezolyusiyasini qabul qilish bo'yicha taklifni ilgari surdi. Uning asosiy maqsadi bag'rikenglik va o'zaro hurmatni o'rnatish, diniy erkinlikni ta'minlash, dindorlarning huquqlarini himoya qilish va kamsitilishning oldini olishdir. BMTning Inson huquqlari bo'yicha maxsus ma'ruzachisi O'zbekistonga tashrif buyurdi. Бундан ташқари Ўзбекистонда Харакатлар стратегияси доирасида бир қатор қўйидаги ислохотлар ҳам амалга оширилди.

-Sayyohlik salohiyatini kompleks rivojlantirish dasturi tasdiqlandi.

-Hokimlarning turizm bo'yicha o'rinbosarlari tayinlandi.

-Viloyat ma'muriyatlari - hokimlarning turizmni rivojlantirish bo'yicha o'rinbosarlari tarkibiga yangi lavozimlarni kiritish bo'yicha pilot dastur amalga oshirilmoqda. Avvaliga 4 viloyat tanlandi - Toshkent, Samarqand, Buxoro va Xorazm viloyatlari. Kelgusida ushbu yangilik butun mamlakat bo'ylab tarqaladi.

-Yagona turistik viza joriy etildi va uning narxi pasaytirildi.

-Mehmondo'stlik sohasidagi o'zgarishlar.

-Erkin sayyohlik zonasini tashkil etish to'g'risida qaror imzolandi.

-Erkin sayyohlik zonasi Toshkent viloyatining "Chimyon-Chorvoq" kurort va rekreacion zonasida bo'ladi. Mehmonxonalar majmualari, madaniy-hordiq chiqarish, savdo-ko'ngilochar markazlar va boshqa sayyohlik ob'ektlari barpo etiladi.

Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar

1. O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirishning Harakatlar strategiyasining mazmun va mohiyatini aytib bering.
2. Harakatlar Strategiyasida belgilangan ustuvor yo'nalishlarni milliy va umuminsoniy negizga asoslanishi nimani anglatadi ?
3. Harakatlar strategiyasida keltirilgan jamoatchilik nazorati tushunchasining mohiyatini soz'lab bering?
4. O'zbekistonda "Ilm, ma'rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili"da amalga oshirishga oid Davlat dasturi doirasida 2020 yilning 1-yarim yilligida amalga oshirilgan ishlar Sharhi"da keltirilgan ma'lumotlardan milliy g'oyaning asosiy tamoyillariga oid qanday belgilarni ilg'ash mumkin?
5. Harakatlar strategiyasining birinchi ustuvor yo'nalishi va uning o'zigaxos jihatlari haqida so'zlang?
6. Harakatlar strategiyasining ikkinchi ustuvor yo'nalishi va uning o'zigaxos jihatlari haqida so'zlang?
7. Harakatlar strategiyasining uchinchi ustuvor yo'nalishi va uning o'zigaxos jihatlari haqida so'zlang?
8. Harakatlar strategiyasining to'rtinchi ustuvor yo'nalishi va uning o'zigaxos jihatlari haqida so'zlang?
9. Harakatlar strategiyasining beshinchi ustuvor yo'nalishi va uning o'zigaxos jihatlari haqida so'zlang?
10. Harakatlar strategiyasining milliy g'oyaning asosiy tamoyillari bilan mushtarakligi nimalarda aks etadi ?

Testlar

1. "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni loyihasi nechanchi yilda tasdiqlandi?
A) 2016 yil 12 noyabr
B) 2016 yil 10 noyabr
C) 2016 yil 8 dekabr
D) 2017 yil 7 fevral
2. 2017-2021 yillarda O'zbekistonni rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi nechta ustuvor yo'nalishni o'z ichiga qamrab oladi?
A) 5 ta
B) 6 ta
C) 7 ta
D) 4 ta
3. Harakatlar strategiyasiga qanday masalalar kiritilgan?
A) Ijtimoiy-siyosiy, sotsial-iqtisodiy, madaniy-gumanitar rivojlantirishning konseptual masalalari

B) Ijtimoiy, madaniy, siyosiy hayot sohalarining moddiy asosini rivojlantirish masalalari

C) Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish masalalari

D) barcha javoblar to'g'ri

4. Harakatlar strategiyasining maqsadi?

A) Ochiq demokratik huquqiy davlat qurish, inson, uning manfaatlari, huquq va erkinliklari so'zda emas, amalda ta'minlanishi hamda axborot, so'z yoxud saylov erkinligiga erishishda yangi huquqiy mexanizmlarni yaratish

B) Yoshlar huquqiy islohotlarning mazmun va mohiyatini anglash hamda idrok etish orqali davlat hokimiyati yoki boshqaruvi jarayonida qatnashish vositasida o'z huquqiy imkoniyatlaridan real foydalana olishini yaratish

C) Olib borilayotgan islohotlar samaradorligini tubdan oshirish, davlat va jamiyatning har tomonlama va jadal rivojlanishini ta'minlash uchun shart-sharoitlar yaratish, mamlakatni modernizatsiyalash va hayotning barcha sohalarini erkinlashtirish

D) Sud-huquq tizimini isloh etish jarayonidagi yaratilayotgan huquqiy mexanizmlarning mohiyatini tushunish

5. 2017-2021 yillarda O'zbekistonni rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasining yo'nalishlari to'g'ri keltirilgan qatorni toping?

A) Davlat va jamiyat qurilishini takomillashtirish. Qonun ustuvorligini ta'minlash va sud-huquq tizimini yanada isloh qilish. Davlat hokimiyati va boshqaruvini demokratlashtirish. Xavfsizlik, millatlararo totuvlik, diniy bag'rikenglikni ta'minlash, chuqur o'ylangan, o'zaro manfaatli va amaliy ruhdagi tashqi siyosat yuritish.

B) Davlat va jamiyat qurilishini takomillashtirish. Qonun ustuvorligini ta'minlash va sud-huquq tizimini yanada isloh qilish. Iqtisodiyotni yanada rivojlantirish va liberallashtirish, Ijtimoiy sohani rivojlantirish.

Xavfsizlik, millatlararo totuvlik, diniy bag'rikenglikni ta'minlash, chuqur o'ylangan, o'zaro manfaatli va amaliy ruhdagi tashqi siyosat yuritish.

C) Davlat va jamiyat qurilishini takomillashtirish. Sud-huquq tizimini isloh qilish. Davlat hokimiyati va boshqaruvini demokratlashtirish. Xavfsizlik, millatlararo totuvlik, diniy bag'rikenglikni ta'minlash, chuqur o'ylangan, o'zaro manfaatli va amaliy ruhdagi tashqi siyosat yuritish.

D) Davlat va jamiyat qurilishini takomillashtirish. Davlat hokimiyati va boshqaruvini demokratlashtirish. Xavfsizlik, millatlararo totuvlik, diniy bag'rikenglikni ta'minlash, chuqur o'ylangan, o'zaro manfaatli va amaliy ruhdagi tashqi siyosat yuritish.

Axborot sohasini isloh qilish, axborot va so'z erkinligini ta'minlash.

6. Harakatlar strategiyasini amalga oshirish bo'yicha Milliy komissiyaga kim rahbarlik qiladi.

A) O'zbekiston Respublikasi prezidenti Sh.M.Mirziyoev

- B) O'zbekiston Respublikasi bosh vaziri A.Aripov
 C) O'zbekiston Respublikasi bosh vaziri birinchi o'rinbosari A.Ramatov
 D) O'zbekiston Respublikasi bosh vaziri o'rinbosari R.Azimov
7. Harakatlar Strategiyasidagi birinchi yo'nalish bandlari to'g'ri keltirilgan qatorni toping?
- A) Demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va mamlakatni modernizatsiya qilishda Oliy Majlis palatalari, siyosiy partiyalarning rolini yanada kuchaytirish. Davlat boshqaruvi tizimini isloh qilish
 B) Demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va mamlakatni modernizatsiya qilishda Oliy Majlis Palatalari, siyosiy partiyalarning rolini yanada kuchaytirish. Davlat boshqaruvi tizimini isloh qilish. Jamoatchilik boshqaruvi tizimini takomillashtirish.
 C) Sud-huquq tizimida qonuniylikni yanada mustahkamlash. Demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va mamlakatni modernizatsiya qilishda Oliy Majlis palatalari, siyosiy partiyalarning rolini yanada kuchaytirish. Davlat boshqaruvi tizimini isloh qilish. Jamoatchilik boshqaruvi tizimini takomillashtirish.
 D) Davlat boshqaruvi tizimini isloh qilish. Jamoatchilik boshqaruvi tizimini takomillashtirish. Yuridik yordam va xizmat ko'rsatish tizimini takomillashtirish.
8. Harakatlar Strategiyasidagi davlat va jamiyat qurilishini takomillashtirish yo'nalishining birinchi bandida qanday vazifalar qamrab olingan?
- A) Davlat va xususiy sektorlarning o'zaro foydali hamkorligining zamonaviy shakllarini, "Elektron hukumat" tizimini rivojlantirish bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish.
 B) Davlat boshqaruvini markazlashtirishdan chiqarish, davlat xizmatchilarining kasbiy tayyorgarlik, moddiy va ijtimoiy ta'minot darajasini oshirish hamda iqtisodiyotni tartibga solishda davlat ishtirokini bosqichma-bosqich qisqartirish orqali davlat boshqaruvi va davlat xizmati tizimini isloh qilish;
 C) Davlat hokimiyati tizimida Oliy Majlisning rolini kuchaytirish, qonun ijodkorligi faoliyatining sifatini tubdan yaxshilash, davlatning hayotida siyosiy partiyalarning rolini kuchaytirish.
 D) Ma'muriy sudlarni, xo'jalik sudlari tizimida mintaqaviy apellyatsiya sudlarini tuzish, sudya yordamchisi lavozimini ta'xis etish orqali sudlarni kelgusida ixtisoslashtirish.
9. 2017-2021 yillarda O'zbekistonni rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasining ikkinchi yo'nalishi qanday nomlanadi?
- A) Axborot sohasini isloh qilish, axborot va so'z erkinligini ta'minlash
 B) Iqtisodiyotni yanada rivojlantirish va liberallashtirish
 C) Qonun ustuvorligini ta'minlash va sud-huquq tizimini yanada isloh qilish
 D) Ijtimoiy sohani rivojlantirish
10. Harakatlar strategiyasining uchinchi yo'nalishi qanday nomlanadi?
- A) Sud-huquq tizimida qonuniylikni yanada mustahkamlash
 B) Ma'muriy, jinoyat, fuqarolik va xo'jalik qonunchiligini takomillashtirish
 C) Saylov huquqi erkinligini ta'minlash va saylov qonunchiligini rivojlantirish
 D) Iqtisodiyotni rivojlantirish va liberallashtirishning ustuvor yo'nalishlari

17-Mavzu: Yangilanayotgan O‘zbekiston: milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari

Reja:

1. Milliy tiklanish va taraqqiyotning yangi bosqichga ko‘tarilishi.
2. O‘zbekiston - keng ko‘lamli demokratik islohotlar mamlakati.
3. Yoshlarga oid davlat siyosatini takomillashtirish.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga Murojaatnomasi – halq ishonchining yangi bosqichi.

***Darsning o‘quv maqsadi:** Talabalarga mamlakatimizda amalga oshirilayotgan barcha islohotlarning bosh maqsadi, xalqimizni turmush darajasini keskin ko‘tarish va bu borada rivojlangan davlatlar qatoridan munosib o‘rin olishga qaratilganligi, Milliy tiklanish va taraqqiyotning yangi bosqichga ko‘tarilishi, keng ko‘lamli demokratik islohotlarni amalga oshirilishi hamda yoshlarga oid davlat siyosatini takomillashtirish borasida atroflicha tushunchalar berish.*

***Tayanch so‘z va iboralar:** Mustaqillik, milliy yuksalish, Harakatlar strategiyasi, Xalq qabulxonalari, qonun ustuvorligi, iqtisodiyotni liberallashtirish, millatlararo totuvlik, beshta muhim tashabbus, jamoatchilik nazorati, Oliy Majlisga Murojaatnoma.*

Milliy tiklanish va taraqqiyotning yangi bosqichga ko‘tarilishi.

Mustaqillik yillarida milliy istiqloq g‘oyasi xalqimizning milliy tiklanishiga xizmat qildi. G‘oyaviy kurashlarda kunimizga yaradi. Xalqimizni birlashtirdi, buzg‘unchi g‘oyalar mohiyatini tushuntirdi. 2017 yildan boshlab O‘zbekiston o‘z taraqqiyotining yangi – Milliy yuksalish bosqichiga kirdi. Konstitutsiyamizga asoslangan, xalqimizning tub manfaatlariga javob beradigan O‘zbekistonni rivojlantirishning Harakatlar strategiyasi amalda. Keyingi yillarda erishilgan yuksak marralar xalqimizni baxtli qilishga qaratilgan islohotlar samaralarini yaqqol ko‘rsatmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev rahbarligida mamlakatimizda amalga oshirilayotgan barcha islohotlarning bosh maqsadi, xalqimizni turmush darajasini keskin ko‘tarish va bu borada rivojlangan davlatlar qatoridan munosib o‘rin olishga qaratilgandir. Bu borada Prezidentimizning 2020 yil 24 yanvar kuni O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga qilgan Murojaatnomasida biz hozir milliy taraqqiyotimizning mutlaqo yangi bosqichga o‘tayotganligimizni, milliy g‘oyani rivojlantirishimiz zarurligi alohida ta’kidladilar.

Ma’lumki, 2019 yil 8 aprel kuni Prezidentimizning O‘zbekiston taraqqiyotining yangi bosqichida milliy g‘oyani rivojlantirish konsepsiyasini ishlab chiqishga doir chora-tadbirlar to‘g‘risidagi farmoyishi qabul qilindi. Mazkur hujjat qabul qilinishining zarurati nimalarda namoyon bo‘ladi? Rivojlangan

mamlakatlarda milliy g'oya davlat maqsadlarini xalq maqsadlariga uyg'unlashtiradi. "Bir hudud – bir xalq" e'tiqodini shakllantirib, mamlakatlar aholisini birlashtirgani, umumiy maqsad yo'lida safarbar qilganiga misollar ko'p. Ularning aksarida milliy g'oya milliy qadriyatlarga bog'lab singdirilganini ko'ramiz.

Masalan, "Tarix – sintoizm – konfutsiylik – samuraylik irodasi" qadriyatlari negizida yapon milliy g'oyasi ishlab chiqildi. Odamlarga ishonch, rag'bat berildi. Maktabning tarbiyaviy ishlar tizimi, g'oyasi isloh qilindi. Uyushgan millatning juda qattiq mehnati o'laroq, dunyo "Yapon mo'jizasi"ning guvohi bo'ldi. Xitoyda ham milliy zaminga – Konfutsiy ta'limotiga murojaat qilindi. Konfutsiy merosidan diniy ta'limot emas, balki axloqiy (xulq uchun) asos sifatida foydalandi. Yoshlar tarbiyasi "Ona Vatanga xizmat qilish va sodiq bo'lish" g'oyasi asosida tashkil etildi. YOshlarga shaxsiy va milliy manfaatlarni uyg'un tutish o'rgatib borildi.

AQSHda davlat mafkurasi yo'q, deb hisoblanadi. Ammo amerikaliklarning ma'naviyatini o'rgangan olimlar AQSH kabi mafkuralashgan davlatni topish qiyin, deyishadi. AQSHda mafkura vazifasini "Amerika orzusi" (American Dream) bajarmoqda. U Amerika davlatining oliy qadriyatlari yig'indisi, millatning ma'naviy onasi deb tushuniladi. "Amerika orzusi"ning asosiy tushunchalarini shaxs erkinligi, erkin tadbirkorlik, demokratiya, muvaffaqiyatga erishishga qaratilgan mehnat tashkil qiladi. Amerikaliklar mafkura bo'lmasa, davlat boshqaruvida tizimlilik bo'lmaydi, tizimsiz esa samarali siyosat bo'lishi mumkin emas, deb hisoblashadi. Shu bois, amerikalik davlat arboblardan biri U.Sefayr "Agar Amerika tuzumi – skelet bo'lsa, amerikancha orzu – uning qalbidir" degan edi. Janubiy Koreyada ham milliy g'oya xalqning milliy o'zligiga va yoshlar tarbiyasiga qurildi. Maktabda milliy g'oya yoshlar ongiga urf-odatlar, axloqiy ideallar orqali singdirib borildi. YOshlarni hayotga tayyorlashda oila, maktabgacha ta'limga alohida e'tibor qaratildi. Hozir ham koreys oilalarida umumiy byudjetning ellik olti foizi bolaning ta'lim-tarbiyasi, inson kapitali – Human Capital uchun sarflanmoqda.

Mamlakatimizda milliy g'oyaga yangi davr, millatimiz tarixining yangi bosqichi talablaridan kelib chiqqan real talablar qo'yilmoqda. Ilgari milliy g'oyani tushunish va tushuntirishda noqulayliklar uchrab turar edi. Masalan, odamlarning quloqlari milliy g'oya davlat va xalq birligi tarannumini eshitardi. Lekin ko'zlarimiz hokimliklar, vazirlik va idoralarning oldidagi temir panjaralarni ko'rar edi. Xalq davlat organlariga xizmat qilishi kerak, degan noto'g'ri qoida amalda edi. Fuqaro hokimiyatga emin-erkin kirolmas, dardini aytolmas edi. Chunki amalda xalqdan davlatni ajratuvchi temir panjara bor edi. Panjaralar kesib tashlandi. Lekin ayrim amaldorlarimiz ongida bu panjara haligacha turibdi. Tafakkurdagi temir panjaralarni qo'porib tashlash qiyin kechyapti. Milliy g'oya ana shunday vaziyat talablaridan kelib chiqib yangilanmoqda.

Ilgari milliy g'oya ijtimoiy-gumanitar, ma'naviy-ma'rifiy masala, deb tushunildi. Bugun uning iqtisodiy-siyosiy poydevori – O'zbekistonni rivojlantirishning Harakatlar strategiyasi bor. Taktikasi – har yilning bosh Dasturi, mablag'i, ijrochilari bor. Demak, yangi davrda milliy g'oya gumanitar masala

bo'lib qolmaydi. Chunki uning natijasiga qaratilgan iqtisodiy tizim ishlamoqda. Milliy g'oya ro'yobi uchun demokratik muhit hal qiluvchi rol o'ynaydi. Demokratiya – to'g'rilik, rostlik, adolat, qonuniylikning sharti. Nohaqdan – haqni, zolimdan – mazlumni, zo'ravondan – o'jizni himoya qilishga xizmat qiladi. SHu haqda jar soladi. Jamoatchilik nazoratini ishga soladi. Chunki milliy g'oya aholining bir toifasi emas, hamma yaxshi yashasin, hayotdan rozi bo'lsin, deydi. Mamlakatda adolat, qonuniylik buzilar ekan, demokratiya ham, milliy g'oya ham quruq shiorlar bo'lib qoladi. Xalq norozi bo'ladi. Xalq norozimi, demak, milliy g'oya o'z bongini urmayotgan, vazifasini bajarmayotgan bo'ladi.

Xolisona aytganda, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoev tomonidan olib borilayotgan islohotlar milliy g'oya xalqimizning kuch-qudratiga aylanishi uchun sharoit yaratdi. Endi gap milliy g'oyani har bir O'zbekistonlikning niyatiga va harakatiga aylantirishda. Yaxshi fikr yaxshilikka, yomon fikr yomonlikka yo'l ochadi. Axborot maydonini nuqul negativ kontent egallab olmasligi uchun pozitiv, yaxshi, nekin mazmun, mavzular bilan mutanosib to'ldirishga alohida e'tibor qaratmog'imiz zarur. Negaki, biz kattalar ham, bolalarimiz ham har kuni yaxshi-yomon fikrlardan ta'sirlanamiz. Bir-birimiz bilan ijtimoiy tarmoqda tortishamiz, aytishamiz, urishamiz. Lekin biz bularning negativ fikrlardan boshlangan g'oyalar kurashi ekanligini anglamaymiz.

O'zbekiston - keng ko'lamli demokratik islohotlar mamlakati.

Mamlakatimizda mustaqillik yillarida amalga oshirilgan keng ko'lamli islohotlar milliy davlatchilik va suverenitetni mustahkamlash, xavfsizlik va huquq-tartibotni, davlatimiz chegaralari daxlsizligini, jamiyatda qonun ustuvorligini, inson huquq va erkinliklarini, millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglik muhitini ta'minlash uchun muhim poydevor bo'ldi, xalqimizning munosib hayot kechirishi, fuqarolarimizning bunyodkorlik salohiyatini ro'yobga chiqarish uchun zarur shart-sharoitlar yaratdiva amalga oshirilib kelinmoqda.

Iqtisodiyotda ma'muriy-buyruqbozlikka asoslangan boshqaruv tizimidan mutlaqo voz kechilib, bozor islohotlari bosqichma-bosqich amalga oshirilgani va pul-kredit siyosati puxta o'ylab olib borilgani makroiqtisodiy barqarorlikni, iqtisodiyotning yuqori sur'atlar bilan o'sishini, inflyatsiyani prognoz ko'rsatkichlari darajasida saqlab qolishni ta'minladi hamda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, fermerlik harakatini rivojlantirish uchun keng imkoniyatlar va qulay sharoitlar yaratilishiga xizmat qildi.

Ayni vaqtda mamlakatimiz bosib o'tgan taraqqiyot yo'lining chuqur tahlili, bugungi kunda jahon bozori kon'yunkturasi keskin o'zgarib, globallashuv sharoitida raqobat tobora kuchayib borayotgani davlatimizni yanada barqaror va jadal sur'atlar bilan rivojlantirish uchun mutlaqo yangicha yondashuv hamda tamoyillarni ishlab chiqish va ro'yobga chiqarishni taqozo etmoqda.

Prezident Shavkat Mirziyoyevning 2016-yil 28-dekabrda «Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash tizimini tubdan takomillashtirishga doir chora-tadbirlar to'g'risida»gi farmoniga binoan Xalq qabulxonalari tashkil etildi. Uning xodimlari esa O'zbekiston Respublikasi Prezidenti devonining

xodimlari hisoblanishi belgilab qo'yildi. 2017-yil dekabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 25 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruzasida Xalq qabulxonolari negizida, Prezident huzurida alohida tuzilma – Tezkor davlat xizmatlari agentligini tashkil etish g'oyasini ilgari surdi.

2017 yiln ya'ni bir yil davomida sinovdan o'tib, tobora takomillashtirilib borilgan ushbu mexanizm dunyo hamjamiyatiga chinakam demokratiya yo'lidagi muvaffaqiyatlarimizdan biri sifatida namoyish etildi. Shavkat Mirziyoyev Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida, xalq hokimiyatini nomiga emas, balki amalda joriy qilish mexanizmlarini mustahkamlashni global maqsad sifatida belgilab, mamlakatimiz barcha hududida Prezidentning virtual va Xalq qabulxonolari tashkil etilganini hamda hozirgi kungacha bir milliondan ortiq fuqarolarimiz bu qabulxonalar orqali o'zlarining dolzarb muammolarini hal qilganini ta'kidlabo'tdi.

Mamlakatimiz, xalqimiz hayotida har kuni yangidan-yangi o'zgarishlar, yangilanishlar ro'y bermoqda. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan hayotga tatbiq etilgan, yurtimizni har tomonlama rivojlantirish, xalq bilan ochiq-oshkora muloqot qilishning yangicha tizimi - Xalq qabulxonolari instituti o'tgan vaqt mobaynida bajarilgan ishlardan ko'ra hali etilishi lozim bo'lgan vazifalar yanada ko'proq ekanligini namoyon etdi. Zotan, haqiqat bahslarda, oshkora muloqotlarda bo'y ko'rsatadi. Prezidentning joylarda Xalq qabulxonolari, virtual qabulxonasi tashkil etilganidan keyin xalqning real hayotidan xabardor bo'lish, odamlarning ko'p yillik muammolarini, talab va ehtiyojlarini yaqindan o'rganish, ularni hatto joyida hal etish, zarur chora-tadbirlarni belgilab, ijtimoiy adolatni ta'minlash imkoniyati paydo bo'ldi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti devonining (keyinchalik Prezident Administratsiyasi) Fuqarolar huquqlarini himoya qilish, jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlashni nazorat qilish va muvofiqlashtirish xizmati tomonidan mamlakatimizning barcha shahar hamda tumanlarida, chekka-chekka qishloqlarda, mahallalarda ommaviy qabullar, xalq bilan yuzma-yuz suhbatlar tashkil etildi. Qisqacha qilib aytganda, xalq ichiga kirib borildi. Odamlarning yuraklarida yig'ilib qolgan dardlari, allaqachon hal qilinishi mumkin bo'lgan-u, lekin to'rachilik, o'zibo'larchilik, sansolarlik oqibatida yillar davomida yechilmay kelgan muammolar yuzaga chiqqa boshladi. Eng muhimi, odamlar dardlarini aytishi, kattayu kichik idoralar rahbarlari bilan yuzma-yuz gaplashishi, muammolariga qisqa fursatda yechim topishi uchun qulay imkoniyat yuzaga keldi. Nafaqat muammolar, ularning talab va takliflariga ham quloq tutildi, bu takliflar yig'ilib, tegishli chora-tadbirlar ishlab chiqilishi yo'lga qo'yildi. Prezidentimizning **“Rahbarlar xalqning xizmatkori bo'lishi zarur”**, **“Asosiy maqsadimiz – xalq roziligi, xalq bizdan rozi bo'lsa, ishimizda unum va baraka bo'ladi”**, degan qat'iy talablari amalda o'z ifodasini ko'rsatdi. Bugungi kunda ana shu izlanishlar samarasi sifatida ko'plab yangiliklar hayotga tatbiq etilmoqda.

Fuqarolar bilan ochiq muloqotlar o'tkazish yo'lga qo'yilib, Prezidentning virtual qabulxonasi va Xalq qabulxonalariga kelib tushgan murojaatlar tahlil qilinganda, qator muammolar bilan birga, aholiga davlat xizmatlari ko'rsatish borasida ham ko'plab yechimini kutayotgan muammolar mavjudligi aniqlandi. Holbuki, mamlakatimizda tadbirkorlikni rivojlantirish maqsadida 2003-yildan boshlab tadbirkorlik subyektlarini "Yagona darcha" tamoyili asosida ro'yxatdan o'tkazish uchun shahar, tuman hokimliklari huzurida maxsus inspeksiyalar tashkil etilgan. 2016-yildan esa ular negizida Davlat xizmatlari ko'rsatish markazlari ish olib borgan. Ammo ushbu sa'y-harakatlar ham aholining bugungi talab va ehtiyojlarini qondirish uchun yetarli emasligi ayon bo'ldi. Binobarin, odamlarning har bitta hujjat uchun turli-tuman idoralarga murojaat qilishi, soatlab navbat kutishlar, qog'ozbozlik, turli ovoragarchiliklar barham topmadi. Shu boisdan mamlakatimizda davlat xizmatlari ko'rsatishning milliy tizimini tubdan isloh qilish borasida keng ko'lamlı ishlar boshlandi.

Mamlakat Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning tashabbusi bilan olib borilayotgan islohotlar samarasini yanada oshirish, davlat va jamiyatning har tomonlama va jadal rivojlanishi uchun shartsharoitlar yaratish, mamlakatimizni modernizatsiya qilish hamda hayotning barcha sohalarini liberallashtirish bo'yicha ustuvor yo'nalishlarni amalga oshirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 - yil 7 - fevraldagi farmoni bilan 2017 - 2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi tasdiqlandi.

Shavkat Mirziyoev Oliy Majlis Senati va Qonunchilik palatasi a'zolariga Murojaatnomasida demokratiyaning ilg'or mexanizmi sifatida jamoa bo'lib elektron murojaat kiritish tartibini joriy etishni taklif etdi. Ya'ni, bir guruh fuqarolar tomonidan ilgari surilgan tashabbuslarni Oliy Majlis yoki xalq deputatlari kengashlari ko'rib chiqishi majburiy ekani qonunda belgilab qo'yilishi lozim.

Shu munosabat bilan mamlakatimiz fuqarolari davlat va jamiyat hayotiga daxldor muhim masalalar bo'yicha o'z fikrlarini bildirishlari uchun internet tarmog'ida "Mening fikrim" deb nomlangan maxsus veb-sahifa tashkil etish maqsadga muvofiqligi ta'kidlandi. 2018-yilda O'zbekistonda jamoaviy murojaatlar uchun yagona mahalliy portal paydo bo'ldi. U yerda fuqarolar davlat va jamiyat ahamiyatiga ega bo'lgan masalalar bo'yicha o'z fikr va tashabbuslarini e'lon qilishlari mumkin. "Mening fikrim" veb-portali mamlakatimizda fuqarolarning jamiyat va davlat ishlarini boshqarishda ishtirok etish imkoniyatlarini kengaytirish, davlat hokimiyati vakillik organlari faoliyatining ochiqligi, qabul qilinayotgan qonunlarning hayotiy va samarali bo'lishini ta'minlash maqsadida yaratildi.

Olib borilayotgan islohotlar samarasini yanada oshirish, davlat va jamiyatning har tomonlama va jadal rivojlanishi uchun shartsharoitlar yaratish, mamlakatimizni modernizatsiya qilish hamda hayotning barcha sohalarini liberallashtirish bo'yicha ustuvor yo'nalishlarni amalga oshirish maqsadida:

Milliy g'oyamizning bosh g'oyasi "Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari". Yuksalish – harakatni talab qiladi. Demak, milliy g'oyamiz harakatlar mafkurasi bo'ladi. Milliy g'oya odamlarga islohotlar kim uchun, nima uchunligini,

ahamiyatini tushuntiradi. Yotganni – o‘tqazadi, o‘tirganni – turg‘izadi, turganni – yurgizadi, yurganni – yugurishga undaydi. Tushuntiradi. Chunki shularni tushunmagan odamlar birlashmaydi, ko‘r-ko‘rona, yuzaki ishlaydi. Biri ishlasa, ikkisi tomoshabin bo‘ladi. Tushunganlar birlashib, ixtiyoriy, zavq bilan ishlaydi. Natijada hayotidan rozi bo‘ladi. G‘oyaviy birlik odamlarning qaysi xatti-harakatlarida ko‘rinadi? O‘zaro mehribon, hamfikir va bir-birini qo‘llab-quvvatlayotganida, ishda, o‘qishda, innovatorlikda, tadbirkorlik, ilm, ijodda faolliklarida va buni milliy g‘oyaga bog‘lab tushunishlarida, oila, ishxona, real va virtual hayotda o‘zaro ahilliklarida namoyon bo‘ladi. SHu bilan birga, milliy g‘oya ro‘yobiga xalaqit beruvchi buzg‘unchi g‘oyaga qarshi tez va uyushishlarida. Masalan, 2019 yil aprel-may oylarida davlat tili bo‘yicha boshlangan bahsmunozaralar bizning birlasha olishimizni ko‘rsatdi. Baxtli, hayotdan rozi bo‘lishiga ishonchida, so‘z va amal birligida ham milliy g‘oya yaqqol ko‘zga tashlanadi.

Milliy g‘oyamizning mohiyatini bitta so‘zda aytish mumkin bo‘lsa, bu so‘z-rozilik. Bu fikr davlatimiz rahbarining xalqimiz bilan samimiy suhbatlarida takror va takror ta‘kidlab, tushuntirilmoqda. Zero, milliy g‘oya ro‘yobi xalqning muayyan vaqt va makonda o‘zini baxtli deb his qilishida, bu esa uning shukronalarida – hayotdan roziligida namoyon bo‘ladi. Aslida bu jarayon boshlanib ketdi. Milliy g‘oya har bir o‘zbekistonlikning, oddiy odamlarning mana shunday shukronasiga vosita bo‘ladi. Mamlakatimizda rozilik, baxtiyorlik foizi borgan sari oshib boraveradi. Ertaga odamlar bugungidan yaxshiroq baxtni orzu qiladi. Bu esa milliy g‘oyamizni boyitadi, yangilaydi. Demak, xalqimizning o‘z hayotidan rozilik darajasi – milliy g‘oyamiz ro‘yobining darajasini ko‘rsatadi.

Mamlakatimizda milliy g‘oyaga yangi davr, millatimiz tarixining yangi bosqichi talablaridan kelib chiqqan real talablar qo‘yilmoqda. Ilgari milliy g‘oyani tushunish va tushuntirishda noqulayliklar uchrab turar edi. Masalan, odamlarning quloqlari milliy g‘oya davlat va xalq birligi tarannumini eshitardi. Lekin ko‘zlarimiz hokimliklar, vazirlik va idoralarning oldidagi temir panjaralarni ko‘rar edi. Xalq davlat organlariga xizmat qilishi kerak, degan noto‘g‘ri qoida amalda edi. Fuqaro hokimiyatga emin-erkin kirolmas, dardini aytolmas edi. Chunki amalda xalqdan davlatni ajratuvchi temir panjara bor edi. Panjaralar kesib tashlandi. Lekin ayrim amaldorlarimiz ongida bu panjara haligacha turibdi. Tafakkurdagi temir panjaralarni qo‘porib tashlash qiyin kechyapti. Milliy g‘oya ana shunday vaziyat talablaridan kelib chiqib yangilanmoqda.

Ilgari milliy g‘oya ijtimoiy-gumanitar, ma‘naviy-ma‘rifiy masala, deb tushunildi. Bugun uning iqtisodiy-siyosiy poydevori – O‘zbekistonni rivojlantirishning Harakatlar strategiyasi bor. Taktikasi – har yilning bosh Dasturi, mablag‘i, ijrochilari bor. Demak, yangi davrda milliy g‘oya gumanitar masala bo‘lib qolmaydi. Chunki uning natijasiga qaratilgan iqtisodiy tizim ishlamoqda. Milliy g‘oya ro‘yobi uchun demokratik muhit hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Demokratiya – to‘g‘rilik, rostlik, adolat, qonuniylikning sharti. Nohaqdan – haqni, zolimdan – mazlumni, zo‘ravondan – ojizni himoya qilishga xizmat qiladi. Shu haqda jar soladi. Jamoatchilik nazoratini ishga soladi. Chunki milliy g‘oya aholining bir toifasi emas, hamma yaxshi yashasin, hayotdan rozi bo‘lsin, deydi.

Mamlakatda adolat, qonuniylik buzilar ekan, demokratiya ham, milliy g'oya ham quruq shiorlar bo'lib qoladi. Xalq norozi bo'ladi. Xalq norozimi, demak, milliy g'oya o'z bongini urmayotgan, vazifasini bajarmayotgan bo'ladi.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tomonidan olib borilayotgan islohotlar milliy g'oya xalqimizning kuch-qudratiga aylanishi uchun sharoit yaratdi. Endi gap milliy g'oyani har bir o'zbekistonlikning niyatiga va harakatiga aylantirishda. Yaxshi fikr yaxshilikka, yomon fikr yomonlikka yo'l ochadi. Axborot maydonini nuqul negativ kontent egallab olmasligi uchun pozitiv, yaxshi, nekin mazmun, mavzular bilan mutanosib to'ldirishga alohida e'tibor qaratmog'imiz zarur. Negaki, biz kattalar ham, bolalarimiz ham har kuni yaxshi-yomon fikrlardan ta'sirlanamiz. Bir-birimiz bilan ijtimoiy tarmoqda tortishamiz, aytishamiz, urishamiz. Lekin biz bularning negativ fikrlardan boshlangan g'oyalar kurashi ekanligini anglamaymiz.

Davlatimiz rahbari "Ma'naviyat – eng ta'sirchan qurolimizdir", degan qat'iy fikrni bildirdi. Bu – bejiz emas. Chunki "Biz nima uchun o'zgarishimiz, birlashishimiz, kurashishimiz kerak?". Bu savolga yakdil g'oyaviy javobi yo'q jamiyat – quroli yo'q qo'shinga o'xshab qoladi. Ma'naviyat va ma'rifat, mafkuraviy tarbiya O'zbekistonning turli millat, din, kasb, yoshlarga mansub xalqini g'oyaviy qurollantiradi. Islohotlar nima uchun, kim uchun kerakligini xalqqa uning orzulari bilan bog'lab uqtiradi, ko'rsatadi. Tushungan xalq – g'oya bilan qurollangan xalqqa aylanadi. Har birimizdan Vatanning bir o'g'il-qizi sifatida o'z lavozimimizga munosib bo'lib ishlash va yashash burchini eslatadi. O'z milliy g'oyasini anglagan xalqni to'xtatib bo'lmaydi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev Oliy Majlisga qilgan Murojaatnomasida barcha sohalardagi muhim masalalarga birma-bir to'xtalib o'tib, jamiyatimizda aholi, ayniqsa, yosh yigit va qizlarimizning ma'naviy va ma'rifiy saviyasini doimiy yuksaltirish birinchi darajali ahamiyatga ega ekanligi, shu bois, "Milliy tiklanishdan — milliy yuksalish sari" dasturiy g'oya asosida yoshlarni ona yurtga sadoqat ruhida tarbiyalash, ularda tashabbuskorlik, fidoyilik, axloqiy fazilatlarni shakllantirish o'ta sharafli vazifaligini alohida ta'kidladilar.

Ayniqsa, Prezidentimiz tomonidan 2020 yilga «Ilm-ma'rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili» deb nom berilishi har bir fuqaroni qay lavozimda bo'lmasin, o'z ustida tinmay ishlashi, ilm-ma'rifatni o'rganishi, zamonaviy texnologiyalardan foydalangan holda faoliyatini yanada rivojlantirib borishida muhim ahamiyat kasb etadi

3. Yoshlarga oid davlat siyosatini takomillashtirish.

Bugungi kunda yoshlarning har tomonlama kamol topishi uchun keng imkoniyatlar yaratib berilgan. Ayniqsa, xorijiy tillarni bilish, o'rganish uchun mamlakatimizda mustaqillikning bir mevasi sifatida bir nechta oliy o'quv yurtlarining tashkil etilganligi katta tarixiy voqelik bo'ldi. Xususan, mamlakatimizda keng ko'lamli islohotlar boshlanganidan buyon oliy o'quv yurtlari soni 2 marta oshdi.

Chet mamlakatlar bilan savdo, ilmiy-texnikaviy va madaniy aloqalarni kengaytirish, O'zbekistonda xorijiy sarmoya bilan korxonalar barpo etish,

yoshlarning jahondagi ilg'or o'quv va ilmiy markazlarda keng ko'lamdagi ta'limini tashkil qilish - mana shularning hammasi respublikada iqtisodiy islohotlarni jadallashirishning, jahon xo'jalik aloqalariga kirishning, jahon hamjamiyatida teng huquqli munosib mavqega erishishning juda kuchli omillaridir.

Shuni ta'kidlash lozimki, ta'lim va tarbiya inson kamoloti hamda ma'naviyatni shakllantirishning eng asosiy sharti shu bilan birga, mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, g'oyaviy, madaniy hayotining muhim tarmog'i hisoblanadi. Chunki, jamiyat taraqqiyoti ma'naviy yetuk va axloqan barkamol yoshlarni tarbiyalash bilan bevosita bog'liqdir. Modomiki, yurtimizning ertangi kuni, taqdiri bugun ta'lim maskanlarida ulg'ayayotgan millionlab yoshlar qo'lida ekanini ko'z oldimizga keltirsak, yosh avlod tarbiyasini davlat siyosatining yetakchi masalalaridan biri darajasiga ko'targanining mohiyati ayon bo'ladi.

Yoshlarga oid davlat siyosatini takomillashtirish. Mamlakatimizda yoshlar uchun:

-yoshlarning bandligi va real daromadlarini izchil oshirish, ta'lim va fan sohasini rivojlantirish, yoshlarga oid davlat siyosatini takomillashtirish, oilaning farzand tarbiyasi borasidagi mas'uliyatini oshirish, yoshlar va voyaga yetmaganlarning manfaatlarini ta'minlash uchun yetuk va mas'ul mutaxassislarining sayyor qabullarini tashkil qilib, zarur yordamlar ko'rsatish.

-o'quvchi-yoshlarning mafkuraviy immunitetini mustahkamlash, yoshlarning intellektual va ma'naviy ehtiyojlarini yanada to'laroq qondirish, yuksak bilimli va intellektual rivojlangan avlodni tarbiyalash, ularning ma'naviyati va madaniyatini yuksaltirish,

-Milliy kontentni rivojlantirish, davlat tilidagi ta'lim, ilmiy-ma'rifiy, yoshlar ehtiyojlariga mos zamonaviy axborot resurslarini, multimedia mahsulotlarini yaratish va targ'ib qilish, mobil internet foydalanuvchilariga mo'ljallangan, yoshlarni yuksak axloqiy tarbiyalash, ularni intellektual salohiyati va ijtimoiy faolligini yanada oshirishga xizmat qiladigan milliy o'yinlarni tashkil etish, ota-onalarning pedagogik madaniyatini oshirish, farzand tarbiyasi borasidagi burch va mas'uliyatini oshirish, mustahkam mafkuraviy immunitetga ega yoshlarni tarbiyalash, notinch oilalar farzandlari, uyushmagan yoshlar, ish bilan band bo'lmagan, "ommaviy madaniyat" ta'siriga tushib qolgan yigit-qizlarning xatti-harakatlarini nazoratga olishda ota-onalarning mas'uliyatini oshirish, kashandalik, alkogolli ichimliklar iste'mol qilish va boshqa illatlar profilaktikasiga oid tadbirlarni tashkil qilish.

Diniy ekstremizm va missionerlik faoliyatiga qarshi kurashish, millatlararo va konfessiyalararo totuvlikni ta'minlash bo'yicha chora-tadbirlar dasturini ishlab chiqish va amalga oshirish vazifalari belgilab berildi.

Jismonan sog'lom, ruhan va aqlan rivojlangan, mustakil fikrlaydigan, Vatanga sodiq, qat'iy hayotiy nuqtai nazarga ega yoshlarni tarbiyalash, demokratik islohotlarni chukurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish jarayonida ularning ijtimoiy faolligini oshirish.

Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahrida jami 35 ta "Kamolot" uyi qurilishi rejalashtirilgan bo'lib, 15 ta uyda qurilish ishlari boshlangan.

Jumladan, Qoraqalpog'iston Respublikasi va Andijon viloyatida 2 tadan, Buxoro, Farg'ona va Qashqadaryo viloyatlarida 3 tadan, Navoiy, Samarqand viloyatlarida 1 tadan. Qolgan uylar bo'yicha loyiha-smeta hujjatlari ishlab chiqilmoqda.

O'quvchi-yoshlarning mafkuraviy immunitetini mustahkamlash maqsadida ta'lim muassasalarida "Men sevib o'qigan kitob" va "Eng yaxshi kitobxon" tanlovlarini tashkil etish bo'yicha O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi markazi tomonidan tanlovlar 2-bosqichda o'tkazilishi belgilangan bo'lib, hozirda birinchi bosqich ta'lim muassasalarida o'tkazilmoqda.

O'z tadbirkorlik faoliyatini boshlash istagidagi 34 mingdan ziyod bitiruvchilarimizning ro'yxati shakllantirildi. Ularning tadbirkorlik faoliyatidagi bilimlarini shakllantirish maqsadida, oddiy tilda va qulay shaklda tushuntiruvchi (aniq misollar bilan) biznesni boshlash va mehnat qonunchiligi bo'yicha amaliy o'quv kurslari kollej va akademik litseylarda joriy etiladi.

Yuksak bilimli va intellektual rivojlangan avlodni tarbiyalash, ularning ma'naviyati va madaniyatini yuksaltirish maqsadida Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahrida olimlar, shoirlar, adabiyotshunoslar, bastakorlar, rejissyorlar va aktyor-aktrisalar ishtirokida mahalla guzarlarida, ta'lim muassasalarida va korxonalar tashkilotlarida jami 1 543 dan ziyod ma'naviy-ma'rifiy, madaniyadbirlar, uchrashuvlar, davra suhbatlari tashkil etildi. Tadbirlar doirasida jami 306 586 nafardan ziyod aholi qamrab olindi, shundan 61% ini (187 017) yoshlar tashkil etdi.

Yoshlar ongiga tahdid soluvchi axborot xurujlarining oldini olish, yoshlarda internet va boshqa axborot resurslaridan foydalanish madaniyatini shakllantirishga qaratilgan hamkorlikdagi seminar-treninglar oliy ta'lim muassasalarida 2017 yil 9-18 mart kunlarida o'tkazildi. Seminar-treningda jami 410dan ortiq talaba ishtiroki ta'minlandi.

Uyushmagan yoshlarning sport bilan muntazam shug'ullanishi uchun yetarli shart-sharoit yaratish maqsadida mahallalarda 50 ta zamonaviy sport maydonchasi barpo etildi. Ular o'rtasida 1 460 ta musobaqa tashkil etilib, ularga 200 ming nafar yoshlar jalb etildi.

2017 yil Jizzax shahrida akademik litsey va kasb-hunar kollejlari o'quvchilari o'rtasida "Barkamol avlod-2017" sport musobaqalari o'tkazildi.

Respublika ma'naviyat va targ'ibot markazi tomonidan 8 ta mas'ul tashkilot bilan birgalikda mustahkam mafkuraviy immunitetga ega bo'lgan yoshlarni tarbiyalashga yo'naltirilgan qo'shma chora-tadbirlar dasturi doirasida Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahrida mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarga dahldorlik tuyg'usini shakllantirish, axloqiy va media-madaniyatni oshirishga qaratilgan jami 375 dan ziyod uchrashuvlar, davra suhbatlari, treninglar, viktorinalar, tushuntirish tadbirlari o'tkazildi. Tadbirlar doirasida 84 375 nafar ishtirokchi qamrab olindi. Shundan 72,7%ini (61

340) yoshlar tashkil etdi. Mazkur tadbirlarning 84tasi respublika va mahalliy OAVlarida yoritildi. Band ijrosi yuzasidan matbuotda 20ga yaqin maqolalar chop ettirildi.

Xolisona aytganda, O'zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosati aniq maqsadlarni ko'zlagan holda, bosqichma bosqich, kompleks chora-tadbirlarga asoslangan holda izchil davom ettirilmoqda.

Bu borada Shavkat Mirziyoyev tomonidan ijtimoiy, ma'naviy-ma'rifiy sohalardagi sa'y-harakatlarni tizimli asosda yo'lga qo'yish bo'yicha 5 ta muhim tashabbusning ilgari surilishi O'zbekiston tarixida yoshlar ta'lim-tarbiyasi bo'yicha yana bir yangi bosqichni boshlab berdi.

Birinchi tashabbus – yoshlarning musiqa, rassomlik, adabiyot, teatr va san'atning boshqa turlariga qiziqishlarini oshirishga, iste'dodini yuzaga chiqarishga xizmat qiladi.

Ikkinchi tashabbus – yoshlarni jismoniy chiniqtirish, ularning sport sohasida qobiliyatini namoyon qilishlari uchun zarur sharoitlar yaratishga yo'naltirilgan.

Uchinchi tashabbus – aholi va yoshlar o'rtasida kompyuter texnologiyalari va internetdan samarali foydalanishni tashkil etishga qaratilgan.

To'rtinchi tashabbus – yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish, ular o'rtasida kitobxonlikni keng targ'ib qilish bo'yicha tizimli ishlarni tashkil etishga yo'naltirilgan.

Beshinchi tashabbus – xotin-qizlarni ish bilan ta'minlash masalalarini nazarda tutadi.

Davlat rahbarining bu ezgu g'oyasi O'zbekiston xalqi, ayniqsa, yoshlari tomonidan katta qiziqish bilan qarshi olinib, qisqa vaqt ichida mamlakat bo'ylab keng quloq yozdi.

Kelgusida real hayotga keng joriy etiladigan ushbu besh tashabbusga ko'ra, hududlardagi madaniyat markazlari, musiqa va san'at maktablarining moddiy-texnik bazasi va ulardan foydalanish holati keskin yaxshilanadi, yoshlarning qiziqishidan kelib chiqib, qo'shimcha yana 1,5 mingta to'garak tashkil etiladi. Hatto eng chekka qishloqlardagi madaniyat markazlarida ham badiiy-havaskorlik jamoalari, yoshlar teatr-studiyalari va "Yoshlar klublari" faoliyati yo'lga qo'yiladi.

Shuningdek, mamlakat miqyosidagi 12 mingdan ziyod sport inshootiga yoshlarni maksimal darajada qamrab olish choralari ko'rib, barcha umumta'lim maktablari sport anjomlari bilan to'liq jihozlanadi. Shu bilan birga, olis va chekka hududlarda yengil konstruksiyali sendvich panellardan kichik sport zallari va sun'iy qoplamali maydonlar quriladi. Bolalar va o'smirlar sport maktablari soni yanada ko'paytiriladi.

Yoshlarni internetdagi zararli xurujlardan asrash, ularni axborot texnologiyalaridan unumli foydalanishga o'rgatish masalalari bo'yicha ilg'or xalqaro tajribalar asosida barcha hududlarda Raqamli texnologiyalar o'quv markazlari tashkil etiladi. Bu maskanlarda elektron tijorat va dasturlash bepul o'rgatiladi, axborot texnologiyalari sohasida biznes bo'yicha innovatsion ko'nikmalar shakllantiriladi, "startup" loyihalarga yordam ko'rsatiladi. Shuningdek, 2021 yilgacha barcha maktablardagi kompyuter sinflarini zamonaviy

texnologiyalar va yuqori tezlikdagi internet tarmog'i bilan ta'minlash bo'yicha chora-tadbirlar rejasi ishlab chiqilib, bosqichma bosqich amalga oshiriladi. Yangi tashkil etiladigan kompyuter o'yinlari markazlari yosh avlodning bilim va dunyoqarashini kengaytirishga qaratilgan test, viktorina, rivojlantirish strategiyalari va boshqa foydali dasturlar bilan ta'minlanadi.

Umuman, yoshlarning ta'lim olishi, kasb-hunar egallashi, yetuk insonlar bo'lib ulg'ayishi yo'lida zamonaviy, ilg'or-innovatsion shart-sharoitlarni yaratib berish uchun O'zbekiston bor kuch va imkoniyatlarini ishga solmoqda. Chunki yosh avlodni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ma'naviy yetuk, jismonan sog'lom, vatanparvar va fidoyi etib tarbiyalash, huquq hamda manfaatlarini himoya qilishga e'tibor qancha kuchaytirilsa, uning samarasi ham shuncha yuqori bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga Murojaatnomasi – halq ishonchining yangi bosqichi.

Barchamiz ma'lumki, butun insoniyat koronavirus pandemiyasi degan global ofatni boshidan o'tkazmoqda. Bunday ulkan falokat jahon miqyosida so'nggi yuz yilda ro'y berdi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga navbatdagi Murojaatnomasi 2020 yil 29 dekabrda bo'lib o'tdi. Ma'lumotlarga ko'ra, dunyoning 191 mamlakatida 81 million kishi koronavirus bilan kasallangan. Ulardan 1 million 765 ming nafari vafot etgan(2020 yil). Pandemiya jahon iqtisodiyoti uchun – shunga e'tibor bering – har oyda qariyb 400 milliard dollar miqdorida zarar keltirdi. Afsuski, bu ofat butun insoniyat qatori xalqimiz uchun ham kutilmagan tashvish va murakkab muammolarni keltirib chiqardi. Buxoro va Sardobada yuz bergan tabiiy va texnogen ofatlar ham el-yurtimizning irodasini yana bir bor sinovdan o'tkazdi. Xalqimizning bukilmis irodasi, fidokorona mehnati va matonati, aholi va davlat organlarining birgalikdagi sa'y-harakatlari tufayli mavjud qiyinchiliklarni mardona yengib o'tmoqda.

Pandemiya oqibatlarini yumshatish va bartaraf etish uchun davlat tomonidan jami 82 trillion so'mlik kompleks chora-tadbirlar amalga oshirildi. Jumladan, Inqirozga qarshi jamg'arma tashkil etilib, koronavirusga qarshi kurashish, aholi va korxonalarini qo'llab-quvvatlash bilan bog'liq tadbirlarga byudjetdan 16 trillion so'mdan ortiq mablag' yo'naltirildi. Shuningdek, davlat korxonalariga va 500 mingdan ziyod tadbirkorlik sub'ekti hamda qariyb 8 million fuqaroga jami 66 trillion so'mlik soliq imtiyozlari, kredit muddatlarini uzaytirish va moliyaviy qo'llab-quvvatlash bo'yicha amaliy yordamlar berildi. "Saxovat va ko'mak" umumxalq harakati doirasida fidoyi va olijanob vatandoshlarimizning faol ishtirokida 800 mingdan ziyod ehtiyojmand oilalarga 1 trillion so'mdan ortiq moddiy yordam ko'rsatildi. O'z paytida ko'rilgan tezkor va tizimli choralarimiz natijasida ushbu xatarli kasallikning keng tarqalishiga yo'l qo'yilmadi.

Xalqaro valyuta jamg'armasi va xalqaro reyting agentliklari tahlillariga ko'ra, bu yilgi sinovlarga qaramasdan, O'zbekiston dunyoning sanoqli davlatlari qatorida ijobiy o'sish sur'atlarini saqlab qoldi. 2020 yilda respublikamizda 197 ta yirik, minglab kichik va o'rta korxonalar hamda infratuzilma ob'ektlari barpo etildi. Jumladan, "Navoiyazot"da ammiak va karbamid ishlab chiqarish kompleksi hamda

azot kislotasi zavodi, Muborak, Gazli va Sho'rtan neft-gaz korxonalarida suyultirilgan gaz ishlab chiqarish qurilmalari, Toshkent metallurgiya zavodi kabi yirik quvvatlar ishga tushirildi. Birgina energetika sohasida xorijiy investorlar bilan davlat-xususiy sheriklik asosida 6 ta yangi elektr stantsiyasini barpo etish ishlari boshlandi. Ularning umumiy qiymati 2 milliard dollar bo'lib, 2 ming 700 megavatt quvvatga ega. Toshkent shahrida 2 ta yangi metro stantsiyasi va ilk bor 18 kilometrlik yer usti metrosi foydalanishga topshirildi.

Xalqaro valyuta jamg'armasi va xalqaro reyting agentliklari tahlillariga ko'ra, bu yilgi sinovlarga qaramasdan, O'zbekiston dunyoning sanoqli davlatlari qatorida ijobiy o'sish sur'atlarini saqlab qoldi. 2020 yilda respublikamizda 197 ta yirik, minglab kichik va o'rta korxonalar hamda infratuzilma ob'ektlari barpo etildi. Jumladan, "Navoiyazot"da ammiak va karbamid ishlab chiqarish kompleksi hamda azot kislotasi zavodi, Muborak, Gazli va Sho'rtan neft-gaz korxonalarida suyultirilgan gaz ishlab chiqarish qurilmalari, Toshkent metallurgiya zavodi kabi yirik quvvatlar ishga tushirildi. Birgina energetika sohasida xorijiy investorlar bilan davlat-xususiy sheriklik asosida 6 ta yangi elektr stantsiyasini barpo etish ishlari boshlandi. Ularning umumiy qiymati 2 milliard dollar bo'lib, 2 ming 700 megavatt quvvatga ega. Toshkent shahrida 2 ta yangi metro stantsiyasi va ilk bor 18 kilometrlik yer usti metrosi foydalanishga topshirildi. 2020 yil aholini ijtimoiy himoya qilish borasida tub burilish yili bo'ldi, desak, mubolag'a bo'lmaydi.

Avvalo, aholining muayyan qatlami o'rtasida kambag'allik mavjudligini birinchi marta tan olib, uni qisqartirish bo'yicha keng qamrovli ishlarni boshlandi. Barcha tuman va shaharlarda, har bir mahallada ehtiyojmand oilalar, ayollar va yoshlar bilan manzilli ishlash bo'yicha mutlaqo yangi – "temir daftar" tizimi joriy etildi. Qisqa muddatda bu tizim orqali 527 ming fuqaroning bandligi ta'minlandi. Bundan tashqari, o'zini o'zi band qilgan aholi uchun soliq imtiyozlari berilishi hamda ko'pgina cheklovlarning bekor qilinishi tufayli 500 ming nafar fuqaro mehnat faoliyatini qonuniy tarzda yo'lga qo'ydi. Dehqon xo'jaligi va tomorqa yer egalari 300 milliard so'm imtiyozli kredit va subsidiya ajratilgani ham qishloq aholisini ijtimoiy qo'llab-quvvatlashda yangi yo'nalishga aylandi.

Toshkent shahri, Andijon, Jizzax, Qashqadaryo, Samarqand, Sirdaryo va Farg'ona viloyatlarida tashkil etilgan "IT-Parklar"da 500 dan ortiq zamonaviy kompaniyalar ish boshladi. 2020 yilda markazlashgan ichimlik suv ta'minotini yaxshilash uchun 3 trillion so'm yoki 2016 yilga nisbatan 5 barobar ko'p mablag' ajratildi. Natijada aholining toza ichimlik suvi bilan ta'minlanish darajasi 73 foizga yetdi.

Ta'lim yo'nalishida murojaatnomada belgilangan vazifalar quyidagicha bo'ldi:

Birinchiidan, yosh avlodga bog'cha, maktab va oliygohda sifatli ta'lim-tarbiya berishni yo'lga qo'yamiz, ular jismoniy va ma'naviy sog'lom, vatanparvar insonlar bo'lib ulg'ayishi uchun barcha kuch va imkoniyatlarni safarbar etish;

Ikkinchiidan, yoshlarni zamonaviy bilim va tajriba, milliy va umumbashariy qadriyatlar asosida mustaqil va mantiqiy fikrlaydigan, ezgu fazilatlar egasi bo'lgan insonlar etib voyaga yetkazish;

Uchinchidan, o'g'il-qizlarimizni mehnat bozorida talab yuqori bo'lgan zamonaviy kasb-hunarlariga o'rgatish, ularda tadbirkorlik ko'nikmalari va mehnatsevarlik fazilatlarini shakllantirish hamda tashabbuslarini ro'yobga chiqarish, ish va uy-joy bilan ta'minlashga ustuvor ahamiyat qaratish.

Yangi O'zbekistonni bilimli va bunyodkor yoshlarimiz bilan birgalikda barpo etish va shu maqsadda 2021 yilga mamlakatimizda "Yoshlarni qo'llab-quvvatlash va aholi salomatligini mustahkamlash yili", deb prezidentimiz tomonidan nom berildi. 2021 yil nomida belgilangan sohalarni tubdan isloh qilish va yanada rivojlantirish bo'yicha quyidagi keng ko'lamli ishlarni amalga oshirish belgilandi:

Birinchidan, bola dunyoga kelganidan boshlab, unda aynan maktabgacha bo'lgan yoshda aqliy faollik oshadi, axloqiy-estetik va jismoniy xislatlar shakllanadi. Shu bois ham kelgusi yillarda maktabgacha ta'lim sohasini rivojlantirish borasidagi strategik maqsadimiz – bog'cha yoshidagi har bir bolani ushbu ta'lim yo'nalishi bilan to'liq qamrab olish uchun zarur sharoitlarni yaratishdan iborat. Kelgusi yil yakuni bilan maktabgacha ta'lim qamrovini 65 foizga, 2023 yil oxirida esa 75 foizga yetkazishimiz kerak. Bu ishlarga byudjetdan 600 milliard so'm subsidiya berish hisobidan qo'shimcha ravishda 2 mingta nodavlat bog'cha tashkil etilib, xususiy sektor ulushi 25 foizga yetkaziladi. Shuningdek, 2021 yilda maktabga tayyorlashning bepul tizimi bilan 560 ming nafar 6 yoshli bolalar yoki ularning 82 foizi qamrab olinadi. Uzoq qishloqlarda maktabgacha ta'limning muqobil shakllari yanada kengaytiriladi. Bunda YuNISEF hamda Jahon banki bilan hamkorlikda imkoniyati cheklangan bolalar uchun maktabgacha ta'limni uyda berish modeli ham yo'lga qo'yiladi.

Ikkinchidan, maktab ta'limini tubdan yaxshilash va uning sifatini oshirish, muallimlarga munosib sharoit yaratish borasidagi islohotlar jadal davom ettiriladi. Kelgusi yili 30 ta yangi maktab qurish, 320 ta maktabni ta'mirlash va moddiy-texnik bazasini yaxshilash maqsadida byudjetdan 2 trillion so'm ajratiladi. Sohada yagona "elektron ta'lim" tizimini joriy etishga kelgusi 2 yilda 250 milliard so'm yo'naltiriladi. Ta'lim sifatini tubdan yaxshilash maqsadida, avvalo, o'quv dasturlari, o'qituvchi va domlalar uchun metodik qo'llanmalarni ilg'or xalqaro mezonlarga moslashtirish lozimligi aytib o'tildi.

Yoshlarning iqtidori va salohiyatini to'g'ri yo'naltirishga qaratilgan uzluksiz tizim yaratiladi. Kelgusi yilda yurtimizda 10 ta Prezident maktabi, kimyo-biologiya, matematika, axborot texnologiyalariga ixtisoslashgan 197 ta maktab o'z faoliyatini boshlaydi. Iqtidorli o'g'il-qizlarimizning yuqori texnologiyalar va bilimlarni chuqur o'zlashtirishiga keng sharoit yaratish hamda raqobatbardosh milliy kadrlarning yangi avlodini tayyorlash maqsadida Toshkent shahrida yangi zamonaviy universitet tashkil etamiz. Ushbu oliygohda chet eldagi yetakchi olimlar va professor-o'qituvchilar jalb qilinib, yoshlarga eng zamonaviy dasturlar asosida ta'lim-tarbiya beriladi.

Bolalarimizning mehnat ko'nikmalarini maktab davridan boshlab shakllantirib borish maqsadida "kasbga o'rgatish tizimi" joriy etiladi. Bunday o'tkir talabga amal qilib, kelgusi yilda fizika va chet tillarini o'rganishni ustuvor yo'nalish etib belgilashni taklif etildi. Shu maqsadda kelgusi yilda ta'limning

barcha bo'g'inlarida ushbu fanlarni o'qitish sifatini tubdan oshirish, ixtisoslashgan maktablar ochish, malakali pedagoglarni jalb etish kabi tizimli ishlar amalga oshiriladi. Fizika bo'yicha Ahmad Farg'oniy nomidagi xalqaro fan olimpiadasi tashkil etiladi. Shuningdek, fizika yo'nalishida ilmiy izlanishlar ko'lami va sifatini oshirish, yosh olimlarga zarur shart-sharoitlarni yaratish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar amalga oshirish belgilandi.

Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar

1. 2016-yilda respublikamizda xalq bilan muloqotning yo'lga qo'yilishida qanday o'zgarishlar sodir bo'ldi?
2. Dastlab Bosh vazir, keyinchalik Prezident virtual qabulxonasining ishga tushirilishi qanday o'zgarishlarga sabab bo'ldi?
3. Xalq qabulxonalarining vazifalari nimalardan iborat?
4. Fuqarolar bilan ochiq muloqotlar o'tkazishdan asosiy ko'zlangan maqsad?
5. Yangilanayotgan O'zbekiston haqida nimalar deya olasiz?
6. 2017–2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning Harakatlar strategiyasi qanday ustuvor yo'nalishlardan ko'zlangan asosiy maqsad?
7. Davlat xizmatlari agentligi nima maqsadda tashkil etildi?
9. "Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari" deganda nimani tushunasiz?
10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga Murojaatnomasi qanday maqsadda amalga oshiriladi?

Testlar

1. "Fuqorolik jamiyatini rivojlantirish markazi faoliyatini qo'llab-quvvatlash chora tadbirlari to'g'risida"gi qaror nechanchi yilda chiqqan?
A) 2018-yil 18-fevral
B) 2019-yil 30-sentabr
C) 2019-yil 30-oktabr
D) 2020-yil 20-fevral
2. Mamlakatimizda ilk bor mamlakat aholisi va hukumatning to'g'ridan to'g'ri muloqoti qachon yo'lga qo'yildi?
A) 2016-yil
B) 2017-yil
C) 2018-yil
D) 2019-yil
3. "Sudlar tog'risida"qonunning yangi taxriri qachon qabul qilindi?
A) 2000-yil 10-sentabr
B) 2000-yil 14-dekabr
C) 2001-yil 12-noyabr
D) 201-yil 19-fevral

4. 2016-yilda qancha shaxsga nisbatan qo'zg'atilgan jinoyat ishi tomonlarning yarashganligi munosabi bilan tugatilib ushbu shaxslar "Sudlangan" degan ijtimoiy huquqiy oqibatdan halos bo'lgan?

A) 14645

B) 14843

C) 15677

D) 15883

5. O'lim jazosi qachon bekor qilindi?

A) 2008-yil 15-noyabr

B) 2008-yil 20-sentabr

C) 2007-yil 10-avgust

D) 2008-yil 1-yanvar

6. Qachon "Sud huquq tizimini yanada isloh qilish munosabati bilan O'zbekiston Respublikaning ayrim qonun hujatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi qonuni qabul qilindi?

A) 2012-yil 3-dekabr

B) 2012-yil 5-avgust

C) 2012-yil 18-sentabr

D) 2012-yil 20-oktabr

7. 2017-2021 yillarda umumiy qiymati 40 mlrd AQSH dollari miqdoridagi nechta investitsiya loyihasini nazarda tutuvchi tarmoq dasturlarini ro'yobga chiqarish rejalashtirilgan?

A) 604 ta

B) 649 ta

C) 656 ta

D) 666 ta

8. Harakatlar strategiyasi qachon qabul qilingan?

A) 2017-yil 7-fevral

B) 2017-yil 10-oktabr

C) 2017-yil 15-fevral

D) 2017-yil 12-dekabr

9. 2017-2020 yillarda Jahon bankining 3mlrd dollarlik kreditlari hisobidan nechta loyiha amalga oshirishi mo'ljallangan?

A) 20 ta

B) 25 ta

C) 27 ta

D) 31 ta

10. 2017-2021 yillarda Islom taraqqiyot bankining qancha miqdordagi krediti jalb qilindi?

A) 0,5mlrd

B) 1 mlrd

C) 2 mlrd

D) 3 mlrd

8-Mavzu: O'zbekiston Respublikasining xalqaro reyting va indekslardagi o'rnini hamda nufuzini ortib borishi

Reja:

1. O'zbekiston Respublikasining xalqaro maydondagi imijini ko'tarish bo'yicha davlat siyosatining ustuvor vazifalari.
2. O'zbekiston Respublikasining xalqaro reyting va indekslardagi o'rnini yaxshilash borasidagi davlat siyosati, huquqiy-normativ hujjatlarning qabul qilinishi.
3. Dunyoning yetakchi reyting va indekslarida O'zbekistonning iqtisodiy imkoniyatlarini e'tirof etilishi.

***Darsning o'quv maqsadi:** Talabalarga O'zbekiston Respublikasining xalqaro reyting va indekslardagi o'rnini yaxshilash borasidagi davlat siyosati, huquqiy-normativ hujjatlarning qabul qilinishi hamda Dunyoning yetakchi reyting va indekslarida O'zbekistonning iqtisodiy imkoniyatlari haqida ma'lumotlar berish.*

***Tayanch so'z va iboralar:** Reyting, xalqaro reyting va indekslar, global raqobatbardoshlik reyting ko'rsatkichlar, O'zbekiston Respublikasining reytingini yanada yaxshilash choralari.*

O'zbekiston Respublikasining xalqaro maydondagi imijini ko'tarish bo'yicha davlat siyosatining ustuvor vazifalari.

O'zbekiston xalqaro maydonda o'z nufuzini yuksaltirish yo'lidan bormoqda. Mamlakatimiz izchillik bilan islohotlarni amalga oshirar ekan, milliy reytingimizni belgilayotgan agentliklar ularni munosib baholamoqda. Avvalo, reyting nima uchun kerak, degan tabiiy savol tug'iladi. Reyting turlicha bo'lishi mumkin, biznes reytingi, investitsiyaviy jozibadorlik reytingi va boshqalar. Har qanday davlat reytinglarda ishtirok etsa va u yuqori o'rinda bo'lsa, bu ushbu davlatning ochiqligi, shaffofligi hamda iqtisodiy salohiyatini namoyon etadi. Shundan kelib chiqib aytish kerakki, iqtisodiy taraqqiyotni ta'minlash uchun keng ko'lamlı islohotlar olib borayotgan va rivojlanish pallasida bo'lgan davlatlar, albatta, reytinglarda munosib o'rinlarni egallashga intilishi tabiiy. Negaki, bugungi zamonaviy dunyoda hamkorlik o'rnatish istagida bo'lgan davlatlar va tashkilotlar umume'tirof etilgan reytinglarga, albatta, e'tibor qaratadi. Bugun O'zbekiston ochiqlik siyosatini olib borishi natijasida xalqaro maydonda o'z obro' - e'tiborini mustahkamlab bormoqda. Bu, avvalo, qo'shni davlatlar va nufuzli tashkilotlar bilan hamkorlik faoliyati, shuningdek, davlat organlarining xalq manfaatlarini to'la ifoda etishiga qaratilayotgan e'tiborning samarasidir.

So'nggi qisqa vaqt mobaynida mamlakatimizda amalga oshirilgan inson huquqlarini ta'minlash, so'z erkinligi, biznes yuritishda yengillik va imtiyozlar berish, korrupsiyani batamom tugatish borasidagi islohotlar jahon hamjamiyati tomonidan keng e'tirof etildi. Natijada O'zbekiston xalqaro reytinglarda yuqori o'rinlarga ko'tarilib, o'z ijobiy imijini yaxshilab bormoqda. Dunyo mamlakatlari, xalqaro tashkilotlar va investorlar mamlakatimizga istiqbolli hamkor sifatida munosabat bildirmoqda. Oddiy aytganda, O'zbekiston xorijiy arenada ishonchli

hamkor qiyofasida namoyon bo'lyapti. Lekin, ishonch bilan aytish kerakki, mamlakatimiz bundan-da yuqori ko'rsatkichlarni qayd etishga qodir.

Ma'lumotlarga ko'ra, davlatlar mavqeini belgilab beradigan 100 dan ortiq xalqaro reyting va indekslar bor. Ming afsuski, ba'zi bir reytinglarda umuman o'ringa ega emasimiz yoki quyi pog'onalardan o'rin olganmiz. Sabab esa bu borada tizim va faoliyat olib boruvchi organ bo'lmagan. Aslida o'sha reytingda bizning real holatimiz yuqori o'rinni egallashga munosib bo'lishi mumkin.

O'zbekiston izchil rivojlanayotgan, demokratik, xalqaro huquqning umume'tirof etilgan normalari va tamoyillariga sodiq, tinchlik, insonparvarlik, ma'rifatparvarlik, bag'rikenglik hamda davlatlar o'rtasidagi o'zaro hurmat va hamkorlik g'oyalarini faol targ'ib qiluvchi davlat sifatida dunyoda keng e'tirof etilmoqda.

O'zbekistonga turli mamlakatlar va xalqaro tashkilotlar tomonidan e'tibor ortib bormoqda, xorijiy sheriklarning O'zbekiston Respublikasi bilan barcha sohalarida hamkorlikni mustahkamlashga qaratilgan intilishi kuchaymoqda. Xorijiy samoyadorlar, ishbilarmonlar va turistlar tomonidan O'zbekistonga bo'lgan qiziqish sezilarli darajada oshmoqda.

Xalqaro maydonda O'zbekistonning ijobiy imijini samarali mustahkamlash va bu jarayonning barqarorligini ta'minlash uchun qator chora va tadbirlar ko'rilmogda.

Xususan, davlat va jamoatchilik darajasida O'zbekistonning xalqaro imijini shakllantirish va targ'ib qilishning yaxlit tizimini yaratish muhim ahamiyat kasb etadi.

Mamlakatimizning jahon hamjamiyatida ijobiy e'tirof etilishini yanada yaxshilash va O'zbekistonning salmoqli imij salohiyatidan ustuvor iqtisodiy, ijtimoiy, investitsiyaviy, ilmiy, ma'rifiy, madaniy va boshqa vazifalarni amalga oshirishda samaraliroq darajada foydalanish borasida davlat muassasalari faoliyatini jadallashtirishning ahamiyati ortib bormoqda. Ushbu yo'nalishdagi faoliyat davlat va jamoatchilik tuzilamalari va institutlarining yaqindan hamkorligi va muvofiqlashtirilishi orqali muntazam ravishda olib borilishi lozim.

Bu sohada eng dolzarb vazifalardan biri - mamlakatning betakror imij xususiyatlaridan foydalanish samaradorligini oshirish bo'lib, bular qatoriga boy madaniy, tarixiy, ma'naviy va intellektual meroslar, ko'p asrlik davlatchilik, mintaqaning jahon sivilizatsiyasi rivojiga qo'shgan hissasi e'tirofi, samimiy darajadagi millatlararo va dinlararo bag'rikenglik, ijtimoiy totuvlik, boy tabiiy resurslar, rivojlangan transport va kommunikatsiya infratuzilmalari, mafkuraviy dunyoqarashlardan qat'iy nazar teng huquqli hamkorlikka tayyorligi kabilardir.

O'zbekiston Respublikasining xalqaro reyting va indekslardagi o'rnini yaxshilash borasidagi davlat siyosati, huquqiy-normativ hujjatlarning qabul qilinishi.

Barchamizga ma'lumki, bugun dunyo hamjamiyatidagi har bir davlat xalqaro maydonda o'zining munosib o'rnini egallashga, mavjud salohiyatlarini yana-da yuksaltirishga intiladi. Shu jumladan, mamlakatimiz ham bugun dunyoning nufuzli

indikatorlari tizimida o'zining o'rnini egallashga, ko'rsatkichlari darajasini ijobiy tomonga siljitishda barcha zarur chora-tadbirlarni amalga oshirmoqda.

Shu o'rinda mavzuga oid yana bir ma'lumot: Prezidentimizning 2018 yil 13 iyuldagi "Jahon banki va Xalqaro moliya korporatsiyasining "Biznes yuritish" yillik hisobotida O'zbekiston Respublikasining reytingini yanada yaxshilash chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorida: "O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Loyiha boshqaruvi milliy agentligi manfaatdor vazirlik va idoralar bilan birgalikda uch oy muddatda eng muhim xalqaro reytinglarni va tarkibiy indikatorlarni, ularni shakllantirish metodologiyasini, shuningdek, O'zbekiston Respublikasining xalqaro reyting va indekslarda oxirgi ikki yilda egallab turgan mavqeini chuqur o'rganishni ta'minlasin", deya qayd etilgan edi. Bu esa O'zLiDeP uchun ham nihoyatda muhim masalalar sirasiga kiradi. Zero, Harakatlar strategiyasida ilgari surilgan g'oyalarni hayotga joriy etish borasida mas'uliyatni his etayotgan siyosiy kuch, partiyamizning asosiy elektorati bo'lgan tadbirkorlar esa investitsiyalarning kirib kelishidan bevosita manfaatdor qatlamdir.

Shuningdek, Prezidentimizning 2018 yil 28 dekabrda Oliy Majlisga Murojaatnomasida belgilangan ustuvor vazifalarni amalga oshirish bo'yicha ham partiyamiz kompleks chora-tadbirlar dasturini ishlab chiqqan. Xususan, O'zbekistonning global raqobatbardoshlik reytingi va boshqa xalqaro reytinglarda qatnashishi va unda mamlakatimizning egallagan o'rnini yaxshilab borishga qaratilgan chora-tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirish; mamlakatda qulay biznes va investitsion muhitni shakllantirish sohasida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar, qonunchilikning amaliyotga tatbiqi ustidan kuchli parlament va deputatlik nazoratini o'rnatish; iqtisodiyotni rivojlantirish va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlashning ustuvor yo'nalishlari bo'yicha belgilangan masalalar yuzasidan xalq deputatlari mahalliy kengashlaridagi O'zLiDeP deputatlik guruhlarini tomonidan alohida eshituvlar tashkil etish; hamkor tashkilotlar bilan birgalikda markazda va joylarda qulay biznes va investitsion muhitni shakllantirish borasida amalga oshirilayotgan ishlar monitoringini tashkil etish va jamoatchilik nazoratini o'rnatish; tadbirkorlar, fermerlar bilan doimiy muloqot o'rnatish kabi ishlarga alohida e'tibor qaratilishi belgilangan.

Xususan, davlatimiz rahbarining 2019-yil 25-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasining xalqaro reytinglar va indekslardagi o'rnini yaxshilash chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori, shuningdek 2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini amalga oshirish doirasida mamlakatimizning xalqaro maydondagi ijobiy obro'sini shakllantirish, O'zbekiston Respublikasining xalqaro reytinglardagi o'rnini xolis va haqqoniy baholashni ta'minlash bo'yicha aniq maqsadga yo'naltirilgan ishlar buning isbotidir.

2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini amalga oshirish doirasida mamlakatimizning xalqaro maydondagi mavqeini ko'tarish, ko'rsatkichlarning xolis va haqqoniy baholanishini ta'minlash bo'yicha tizimli ishlar amalga oshirilmoqda. Xususan, Prezidentimizning 2019 yil 25 fevraldagi "O'zbekiston

Respublikasining xalqaro reytinglar va indekslardagi o‘rnini yaxshilash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorida yurtimizda amalga oshirilayotgan islohotlarni baholashning yaxlit va mustaqil tizimini shakllantirish, shuningdek, respublikamizning xalqaro reytinglardagi o‘rnini yaxshilashni ta’minlash yo‘llari atroflicha belgilab berildi.

Mazkur hujjatga muvofiq boshqa vazifalar qatorida 3 ta asosiy yo‘nalishda ish olib borilayotgani alohida e’tiborga molik. Ya’ni:

1. O‘zbekiston Respublikasining xalqaro reytinglardagi o‘rnini monitoring qilish va baholash milliy tizimi, ya’ni Milliy monitoring tizimi yaratilmoqda.

2. Ko‘rsatilayotgan davlat xizmatlari sifatini yaxshilash, aholining davlat organlari faoliyatidan qoniqishi darajasini hamda ularning xodimlari kasbiy mahoratini oshirish maqsadida “davlat xizmatlarining sirli mijozlari” instituti joriy etilmoqda.

3. “O‘zbekiston Respublikasi xalqaro reytinglarda” yagona portalining yaratilishi esa ushbu yo‘nalishda samarali muloqot va axborot almashinuviga xizmat qiladigan imkoniyatlarni yuzaga chiqaradi.

Biroq mamlakatimizning xalqaro ko‘rsatkichlarini yaxshilashga bu tadbirlarning o‘zi yetarli hisoblanmaydi. Bunda sohadagi islohotlar ko‘lami va samaradorligiga jiddiy ta’sir qilayotgan huquqiy omillarning ham hissasi yuqoridir. Shu munosabat bilan 2020-yilning 19-may sanasida davlatimiz rahbarining “Davlat huquqiy siyosatini amalga oshirishda adliya organlari va muassasalari faoliyatini yana-da takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni bu boradagi ishlar samaradorligini oshirishda muhim ahamiyat kasib etdi. Ushbu farmon bilan O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligiga bir qator maqsadli vazifalar yuklatildi. Mazkur vazifalardan eng asosiysi sanalgan xalqaro reyting va indekslarda O‘zbekiston Respublikasi o‘rnining yaxshilanishiga to‘sqinlik qilayotgan huquqiy omillar yuzasidan fundamental huquqiy tadqiqotlar o‘tkazilishini ta’minlash masalasi esa, yuqorida qayd etilgan ustuvor maqsadlar uchun yo‘l xaritasi sifatida maydonga chiqadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Miziyoyevning 2019 yil 8 oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” Farmoni imzolandi. Ushbu Farmon yuqoridagi fikrlarni izchillik bilan amalga oshirish yo‘llarini ko‘rsatib berganligini oliy ta’limda to‘planib qolgan uzoq yillik muammolarga yechim topib berish barobarida, oliy ta’lim jahon standartlariga javob bera oladigan, mamlakatning kelajagi uchun xizmat qila oladigan darajada ko‘tarishning yangi bir davrini boshlab berdi.

Ushbu konsepsiyada oliy ta’lim sohasida davlat – xususiy sheriklikni rivojlantirish, Respublikadagi kamida 10 ta oliy ta’lim muassasini xalqaro e’tirof etilgan tashkilotlar (Quacquarelli Symonds World University Ranking, Times Higher Education yoki Academic Ranking of World Universities) reytingining birinchi 1000 ta o‘rindagi oliy ta’lim muassasalari ro‘yxatiga, shu jumladan O‘zbekiston Milliy universiteti va Samarqand davlat universiteti birinchi 500 o‘rindagi oliy ta’lim muassasalari ro‘yxatini kiritish oliy ta’lim muassasalarini

akademik mustaqilligi ta'minlash kabi qator muhim vazifalar belgilandi. Shuningdek, nodavlat notirojat tashkilot shaklidagi Respublika oliy ta'lim Kengashi tuzish belgilandi. Kengash vazifalari sirasiga professor-o'qituvchilar, talabalar o'rtasida so'rovlar o'tkazish, jamoatchilik va ish beruvchining fikrini o'rganish hamda ilg'or xorijiy tajribalarni taxlil qilish orqali oliy ta'lim sifatini oshirish, o'quv dasturlarini takomillashtirish va zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy etish yuzasidan tavsiyalar ishlab chiqish kabilar kiritildi.

Aytish joizki, bugun mamlakatimizni xalqaro indekatorlar tizimida o'zining munosib o'rnini shakllanishiga salbiy ta'sir qiluvchi ichki va tashqi huquqiy omillar negizi juda chuqur tahlillarga borib taqaladi. Shu munosabat bilan bu boradagi muammolarni o'rganish va bartaraf etishda dastlab milliy qonunchilik tizimimizdagi ayrim bo'shliqlar va kolliziyalarning huquqiy monitoringini yana-da takomillashtirish maqsadga muvofiqdir. Albatta, bu masalada o'tgan davr mobaynida ko'plab islohotlar amalga oshirildi. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 2-noyabrdagi "Huquqiy monitoringning zamonaviy mexanizmlari asosida qonun hujjatlari ijrosining samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4502 sonli qarori va uning asosida qabul qilingan nizom bu boradagi ishlarning nechog'lik zarurligini ko'rsatdi. Ta'kidlash joizki, vakolatli davlat idoralar tomonidan qabul qilinayotgan har bir normativ-huquqiy hujjatlarning mukammalligi, ularning qonunchilik texnikasi talablari asosida ishlab chiqilishi norma ziddiyatlarini bartaraf etibgina qolmay, balki kelgusida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan korrupsion holatlarning ham oldini oladi.

Yuqorida bayon qilingan jihatlarga alohida to'xtalish, birma-bir sharhlash, kamchilik va yutuqlarni sanash keng ko'lamli tadqiqot va chuqur o'rganishni talab qiladi. Bu boradagi ishlar allaqachon boshlab yuborilgan, xususan, partiyamiz ayni yo'nalishda Bank-moliya akademiyasi bilan yaqin hamkorlik qilib, o'rganishlar olib boryapti. Jumladan, Prezidentimizning "Jahon banki va Xalqaro moliya korporatsiyasining "Biznes yuritish" yillik hisobotida O'zbekiston Respublikasining reytingini yanada yaxshilash chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori ijrosini ta'minlash bo'yicha mas'ul idoralarga quyidagi aniq takliflar bildirilgan:

O'zbekistonning yetakchi global indekslarda, birinchi navbatda Global raqobatbardoshlik reytingida (GCI, Global Competitiveness Index) ishtirok etishi uchun tashkiliy-huquqiy asoslar yaratilishi, xususan, bu bo'yicha milliy markazlar loyihasini shakllantirishni maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz;

ekspertlar jamoasini shakllantirish va Global raqobatbardoshlik indeksida O'zbekistonning tegishli munosib o'rnini aniqlash uchun milliy tadqiqotlar o'tkazish, keyin esa ushbu reytingda mamlakatning kuchli va zaif pozitsiyalarini aniqlash;

bu yo'nalishda muvaffaqiyat qozonayotgan MDH mamlakatlarining xalqaro indekslar bo'yicha ilg'or taklif va fikrlarini to'plash, muhokama qilish hamda umumlashtiruvchi tajriba va ishtirok modellarini yig'ish, muvofiqlashtirishga qaratilgan kompyuterlashtirilgan kraudsorsing platformasini ishlab chiqish va tatbiq etish;

Yetakchi xorijiy davlatlar va xalqaro moliya institutlarining ekspertlari, mashhur olim va mutaxassislar ishtirokida maxsus xalqaro konferensiyalar o‘tkazish, shu orqali O‘zbekistonning xalqaro indekslarga bosqichma-bosqich kirib kelishi uchun chora-tadbirlar dasturini ishlab chiqish;

Global raqobatbardoshlik reytingi ko‘rsatkichlari bilan aniqlangan nomuvofiqlikni bartaraf etish va amaldagi xo‘jalik yuritish mexanizmlarini takomillashtirishga qaratilgan me‘yoriy-huquqiy hujjatlarni tayyorlash bo‘yicha milliy dasturni qabul qilish;

– investitsiya muhitini takomillashtirish va to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar jalb qilishni rag‘batlantirishga oid yangi qonun, farmon va qarorlar ishlab chiqishda “global indekslar talablariga muvofiqlikni ta‘minlash shartligi” majburiy prinsipini amalga oshirish.

Insoniyat taraqqiyoti, barcha sohalarida kechayotgan globallashuv jarayonlar, sifat va tarkibiy o‘zgarishlar xalqaro hamkorlik va aloqalarni yangi bosqichga ko‘tarish barobarida har bir mustaqil mamlakatning ushbu holatlarga yangicha qarashga, ular bilan birga odim tashlash vazifasini ko‘ndalang qo‘ymoqda. Bu esa, eng avvalo, o‘sha mamlakatning jahon miqyosidagi o‘rni, xalqaro reyting va ko‘rsatkichlarda tutgan mavqei bilan belgilanadi.

Aytish kerakki, xalqaro reyting va indekslar har bir mamlakatning rivojlanish jarayonini o‘zida namoyon etib, davlat boshqaruvi sifati, aholining turmush darajasi, inson huquqlari muhofazasi, tadbirkorlik faoliyati va xorijiy investorlar uchun qulay muhit, barqaror iqtisodiy o‘sish va raqobatbardoshlik kabi muhim jihatlarning ko‘zguvidir. Bu jihatlarda mamlakatimizdagi islohotlar mohiyatida ham mujassam. Bularning barchasi inson qadrini ulug‘lashga, odamlarning hayotdan rozi va mamnun bo‘lib yashashini ta‘minlashga xizmat qilishi bilan yanada teran mazmun kasb etadi.

Bu esa o‘z navbatida O‘zbekiston ko‘p yillardan beri ko‘zlab kelayotgan korrupsiyaga qarshi kurash bo‘yicha xalqaro shaffoflik indeksi (International Transparency Coalition Against Corruption) reytingida mavjud ko‘rsatkichlarni yaxshilashga yo‘l ochadi. Mazkur masalada aniq raqamlarga to‘xtaladigan bo‘lsak, International Transparency indeksining 2019-yilgi ko‘rsatkichlariga asosan, O‘zbekiston Respublikasi 183 ta davlat ichida 153-o‘rinni egallagan holda, reyting ko‘rsatkichlari 100 ballik tizimda 25 ballni tashkil qilayotgani salbiy natijadir. Qayd etilgan ball ko‘rsatkichi 2018-yilga nisbatan (Ma‘lumot uchun: 2018-yilda 23 ball) bor-yo‘g‘i 2 ballga ko‘tarilgan.

Ikkinchidan, bu masalada hozirga qadar juda ko‘p gapirilgan, amalda ko‘plab ishlar bajarilgan bo‘lsa-da, lekin baribir yana vaziyat shuni taqozo etmoqda. Bu mamlakatda qonun ustuvorligi va sud-huquq tizimini takomillashtirish vazifasidir. Ma‘lumki, davlatimiz rahbarining 2019-yil 25-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasining xalqaro reytinglar va indekslardagi o‘rnini yaxshilash chor-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori bilan Toshkent davlat yuridik universitetiga Huquq ustuvorligi indeksi (The Rule of law index) bo‘yicha milliy monitoring tizimi faoliyatini tashkil etish vazifasi yuklatilgan. Biroq bugun aniq raqamlarga murojaat qiladigan bo‘lsak, xalqaro qonun ustuvorligi loyihasining 2019-yilgi

ko'rsatkichlariga asosan, O'zbekiston Respublikasi mazkur indeksga kiritilgan 128 ta davlat ichida 92 o'rinda (ma'lumot uchun: ushbu ro'yxatda 91-o'rinda Filippin, 93-o'rinda Tanzaniya) ekanligi, bu yilgi o'sish surati atigi to'rttaga yuqorilaganlik fakti ham bu boradagi ishlarni yana-da jadallashtirish zaruriyatini anglatadi. Shu munosabat bilan, O'zbekiston Respublikasi milliy sudlov tizimini yangi bosqichga ko'tarib, sudga qadar ish yuritishning barcha bosqichlarini tubdan isloh qilish hamda uzog'i bilan 2022-yilga qadar mazkur indeksda O'zbekiston Respublikasining o'rnini qirqtaga yuqorilashiga (kamida 50 o'rin) erishish zarur. Buning uchun esa, ilg'or xorijiy davlatlarning qonunchilik tizimlarini chuqur qiyosiy tahlillar asosida o'rganish zarurdir.

Uchinchidan, ommaviy axborot vositalarining erkin faoliyat yuritish uchun mamlakatda aniq huquqiy kafolatlar tizimini yaratish, shu jumladan, axborot manbalarini huquqiy himoyalash mexanizmlarini ishlab chiqish sohasida tegishli chora-tadbirlarni amalga oshirish. Bundan ko'zlangan maqsad mamlakatimizni Worldwide press freedom index "Chegarasiz reportyorlar" xalqaro nohukumat tashkiloti (Reporters Without Borders) reytingida o'rnini sezilarli yaxshilashdir. Hozirgi kunda tashkilotning hisob-kitoblariga ko'ra, O'zbekiston mazkur indeksda 156-o'rinni (2019-yilda 160-o'rin) band qilib turmoqda. Bu esa mamlakatimizni xalqaro hamjamiyatda axborot resurslaridan foydalanishida ko'plab cheklovlarga duchor qilishi mumkin.

To'rtinchidan, mamlakatimizni The Economist Intelligence Unit tadqiqot markazining beshta muhim kategoriyalari bo'yicha ko'rsatkichlarining nihoyatda pastligi, bugun O'zbekiston Respublikasini mazkur xalqaro indeksdagi 165 ta suveren davlat ichida 157-o'rinni egallab qolishiga olib kelmoqda. Shu munosabat bilan, O'zbekistonni mazkur xalqaro reytingda o'rnini yaxshilash uchun milliy saylov tizimidagi huquqiy muammolarga yana bir bor e'tibor qaratish lozimdir. Shuningdek, fuqarolar erkinligi hamda siyosiy madaniyat borasida qonunchilik tarmoqlarini qayta isloh qilish zarurdir. Mazkur indeksning o'ziga xosligi uni baholash mezonlarining murakkabligi va qo'yilgan talablarni amalga oshirish faqatgina davlatga bog'liq bo'lib qolmay, balki fuqarolarning siyosiy faolligini ham taqozo etishidadir. Shu jihatdan olib qaraganda, ushbu indikator talablariga bosqichma-bosqich o'tishning milliy monitoring tizimini yaratish maqsadga muvofiqdir.

Dunyoning yetakchi reyting va indekslarida O'zbekistonning iqtisodiy imkoniyatlarini e'tirof etilishi.

Hozirgi davrda xorijiy reytinglar xalqaro iqtisodiy munosabatlarga kuchli ta'sir ko'rsatuvchi o'ziga xos omillardan sanaladi. Mustaqil ekspertlar xulosasi aks etgan reytinglar mamlakat xalqaro imijiga, kirib kelayotgan investitsiyalar miqdoriga katta ta'sir ko'rsatadi. Binobarin, rivojlanib borayotgan va o'z iqtisodiyotiga sarmoyalarni jalb qilishdan manfaatdor bo'lgan davlatlar mazkur reytinglarga kirish va o'z o'rnini bosqichma-bosqich ko'tarib borishga alohida e'tibor qaratmoqda. Keyingi yillarda Sharqiy Yevropa hamda MDHga a'zo ayrim mamlakatlar eng nufuzli xalqaro reytinglarda yuqori darajaga ega bo'lish bo'yicha maxsus dasturlar asosida ish olib borayotgani fikrimiz tasdig'idir. Zero, har qanday

chet ellik investor muayyan qarorga kelishdan avval o'zi qiziqayotgan davlatning iqtisodiy holati to'g'risidagi ob'yektiv, mustaqil baholarni sinchiklab o'rganib chiqadi.

Qayd etish kerakki, xalqaro reytinglarni tuzuvchi agentliklar iqtisodiy va moliyaviy ko'rsatkichlarni baholashda turli usullardan foydalanadi. Shu boisdan investorlar o'z tahlillarida faqatgina bitta reyting agentligining ma'lumotlariga tayanib qolmasdan, bir qancha reyting ko'rsatkichlarini kompleks tahlil qilishga harakat qiladilar. Ma'lumotlarga ko'ra, hozir jahonda 160 dan ortiq xalqaro reyting mavjud, ulardan 50 taga yaqini ta'sir darajasi yuqori mezonlar sirasiga kiradi. Global raqobatbardoshlik indeksi, Biznesni yuritish yengilligi indeksi, Iqtisodiy erkinlik indeksi, Sanoat raqobatbardoshligi indeksi, Global innovatsion indeks, Inson salohiyati rivojlanishi indeksi, Transchegaraviy investitsiyalash indikatorlari, To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni tartibga solish indeksi, To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar uchun jozibadorlik indeksi shular jumlasidandir. Ana shu kabi asosiy xalqaro reytinglar va indekslarda O'zbekistonning ham munosib o'rinlarda bo'lishi ulkan ahamiyatga ega.

2018 yilning 5 fevral kuni davlatimiz rahbari "Jahon banki va Xalqaro moliya korporatsiyasining "Biznes yuritish" yillik hisobotida O'zbekiston Respublikasining reytingini yaxshilashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarorni imzolagan edi. Unda mamlakatimizni xorijlik investorlar uchun yanada jozibador hududga aylantirish, yurtimizning xalqaro maydondagi nufuzi va investitsion imijini keskin yuksaltirishga xizmat qiladigan vazifalar bayon etilgan. Qarordan kelib chiquvchi asosiy strategik maqsad mamlakatda 2022 yilgacha Jahon banki va Xalqaro moliya korporatsiyasining "Biznes yuritish" hisobotidagi jahon mamlakatlarining birinchi yigirmataligi darajasiga mos keladigan qulay shart-sharoitlarni yaratishdir.

Mazkur qarorda ta'kidlanganidek: "So'nggi bir necha yillar davomida tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish sohasida normativ-huquqiy hujjatlar bazasini va tartibga solish jarayonlarini takomillashtirishga, qulay biznes muhitini va xalqaro maydonda mamlakatning ijobiy nufuzini shakllantirishga qaratilgan chora-tadbirlar ko'rildi. Oxirgi 5 yil davomida ko'rilgan chora-tadbirlar natijasida Jahon banki va Xalqaro moliya korporatsiyasining "Biznes yuritish" reytingida O'zbekiston jahonning 190 ta mamlakati orasida 146-o'ringan 76-o'ringa ko'tarildi. Shu bilan birga, amaliyotda, xususan, qurilishga ruxsatnomalar olishda, mulkni ro'yxatdan o'tkazishda va tashqi savdo operatsiyalarini amalga oshirishda tadbirkorlik sub'yektlari duch kelayotgan ortiqcha byurokratik tartib-taomillar hanuzgacha saqlanib qolmoqda". Anglashilmoqdaki, O'zbekiston 2022 yilga qadar yana kamida 56 pog'ona yuqorilashi kerak.

Shu o'rinda mavzuga oid yana bir ma'lumot: Prezidentimizning 2018 yil 13 iyuldagi "Jahon banki va Xalqaro moliya korporatsiyasining "Biznes yuritish" yillik hisobotida O'zbekiston Respublikasining reytingini yanada yaxshilash chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorida: "O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Loyiha boshqaruvi milliy agentligi manfaatdor vazirlik va idoralar bilan birgalikda uch oy muddatda eng muhim xalqaro reytinglarni va tarkibiy indikatorlarni, ularni

shakllantirish metodologiyasini, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasining xalqaro reyting va indekslarda oxirgi ikki yilda egallab turgan mavqeini chuqur o‘rganishni ta‘minlasin”, deya qayd etilgan edi. Bu esa O‘zLiDeP uchun ham nihoyatda muhim masalalar sirasiga kiradi. Zero, Harakatlar strategiyasida ilgari surilgan g‘oyalarni hayotga joriy etish borasida mas‘uliyatni his etayotgan siyosiy kuch, partiyamizning asosiy elektorati bo‘lgan tadbirkorlar esa investitsiyalarning kirib kelishidan bevosita manfaatdor qatlamdir.

Yana mavzuga qaytib, shuni ta‘kidlashimiz zarurki, reytinglar ichida eng mashhurlari, investitsiya jalb qilinishida muhim o‘rin tutadiganlari sirasiga “Standard and Poor’s”, “Moody’s”, “Fitch Ratings” agentliklari hamda yirik auditorlik va konsalting kompaniyalari tomonidan e‘lon qilib boriladigan baholash mezonlarini ham kiritish mumkin. Hozirgi kunda yuqorida qayd etilgan agentliklar tomonidan e‘lon qilinadigan suveren kredit reytingiga O‘zbekistonning ham kiritilishi bo‘yicha ishlar boshlangani, albatta, ijobiy holat. Biroq bu ishlarni hozircha ko‘ngildagidek deb bo‘lmaydi. Aytaylik, bir qator indekslar bevosita investitsion faoliyat bilan bog‘liq ko‘rsatkichlarni e‘lon qiladi. Jumladan, to‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalar indeksi (FDI index) 62 ta mamlakatda 22 sohani o‘z ichiga qamrab olgan holda qonunchilik tomonidan to‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalarning kirib kelishiga to‘sqinlik qiluvchi omillarni tahlil etadi. To‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalarning ishonchlik darajasini ko‘rsatuvchi “FDI Confidence” indeksi global konsultatsion kompaniya bo‘lmish “A.T.Kearney” tomonidan belgilanib, 40 ta mamlakat bo‘yicha tahlillarni reyting ko‘rinishida chop etadi. Afsuski, mazkur indekslardan o‘rin olgan davlatlar qatorida hozircha mamlakatimiz yo‘q. Bu esa yurtimizga potensial investorlarning kirib kelishiga salbiy ta‘sir ko‘rsatadi. Mamlakat ichkarisida investitsion muhit qanchalik qulay va jozibador bo‘lmasin, uning xalqaro maydondagi targ‘iboti yetarli darajada bo‘lmas ekan, bir joyda deysinib turilaveradi.

Yuqorida bayon qilingan jihatlarga alohida to‘xtalish, birma-bir sharhlash, kamchilik va yutuqlarni sanash keng ko‘lamli tadqiqot va chuqur o‘rganishni talab qiladi. Bu boradagi ishlar allaqachon boshlab yuborilgan, xususan, partiyamiz ayni yo‘nalishda Bank-moliya akademiyasi bilan yaqin hamkorlik qilib, o‘rganishlar olib boryapti. Jumladan, Prezidentimizning “Jahon banki va Xalqaro moliya korporatsiyasining “Biznes yuritish” yillik hisobotida O‘zbekiston Respublikasining reytingini yanada yaxshilash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori ijrosini ta‘minlash bo‘yicha mas‘ul idoralarga quyidagi aniq takliflar bildirilgan:

O‘zbekistonning yetakchi global indekslarda, birinchi navbatda Global raqobatbardoshlik reytingida (GCI, Global Competitiveness Index) ishtirok etishi uchun tashkiliy-huquqiy asoslar yaratilishi, xususan, bu bo‘yicha milliy markazlar loyihasini shakllantirishni maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz;

ekspertlar jamoasini shakllantirish va Global raqobatbardoshlik indeksida O‘zbekistonning tegishli munosib o‘rnini aniqlash uchun milliy tadqiqotlar o‘tkazish, keyin esa ushbu reytingda mamlakatning kuchli va zaif pozitsiyalarini aniqlash;

Bu yo‘nalishda muvaffaqiyat qozonayotgan MDH mamlakatlarining xalqaro indekslar bo‘yicha ilg‘or taklif va fikrlarini to‘plash, muhokama qilish hamda umumlashtiruvchi tajriba va ishtirok modellarini yig‘ish, muvofiqlashtirishga qaratilgan kompyuterlashtirilgan kraudsorsing platformasini ishlab chiqish va tatbiq etish;

yetakchi xorijiy davlatlar va xalqaro moliya institutlarining ekspertlari, mashhur olim va mutaxassislar ishtirokida maxsus xalqaro konferensiyalar o‘tkazish, shu orqali O‘zbekistonning xalqaro indeksarga bosqichma-bosqich kirib kelishi uchun chora-tadbirlar dasturini ishlab chiqish;

Global raqobatbardoshlik reytingi ko‘rsatkichlari bilan aniqlangan nomuvofiqlikni bartaraf etish va amaldagi xo‘jalik yuritish mexanizmlarini takomillashtirishga qaratilgan me‘yoriy-huquqiy hujjatlarni tayyorlash bo‘yicha milliy dasturni qabul qilish;

– investitsiya muhitini takomillashtirish va to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar jalb qilishni rag‘batlantirishga oid yangi qonun, farmon va qarorlar ishlab chiqishda “global indekslar talablariga muvofiqlikni ta‘minlash shartligi” majburiy prinsipini amalga oshirish.

Insoniyat taraqqiyoti, barcha sohalarda kechayotgan globallashuv jarayonlar, sifat va tarkibiy o‘zgarishlar xalqaro hamkorlik va aloqalarni yangi bosqichga ko‘tarish barobarida har bir mustaqil mamlakatning ushbu holatlarga yangicha qarashga, ular bilan birga odim tashlash vazifasini ko‘ndalang qo‘ymoqda. Bu esa, eng avvalo, o‘sha mamlakatning jahon miqyosidagi o‘rni, xalqaro reyting va ko‘rsatkichlarda tutgan mavqei bilan belgilanadi.

Aytish kerakki, xalqaro reyting va indekslar har bir mamlakatning rivojlanish jarayonini o‘zida namoyon etib, davlat boshqaruvi sifati, aholining turmush darajasi, inson huquqlari muhofazasi, tadbirkorlik faoliyati va xorijiy investorlar uchun qulay muhit, barqaror iqtisodiy o‘sish va raqobatbardoshlik kabi muhim jihatlarning ko‘zgidir. Bu jihatlarda mamlakatimizdagi islohotlar mohiyatida ham mujassam. Bularning barchasi inson qadrini ulug‘lashga, odamlarning hayotdan rozi va mamnun bo‘lib yashashini ta‘minlashga xizmat qilishi bilan yanada teran mazmun kasb etadi.

Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar

1. O‘zbekiston Respublikasining xalqaro maydondagi imijini ko‘tarish bo‘yicha davlat siyosatining ustuvor vazifalari nimalardan iborat?

2. O‘zbekiston Respublikasining xalqaro reyting va indekslardagi o‘rnini haqida nimalarni bilasiz?

3. Xalqaro reyting va indekslarni yaxshilash borasidagi davlat siyosati haqida nimalar deya olasiz?

4. Xalqaro reyting va indekslaryani yaxshilash borasida qanaqa huquqiy-normativ hujjatlar qabul qilingan?

5. Global raqobatbardoshlik reytingi ko‘rsatkichlari deyilganda nimalarni bilasiz?

6. Dunyoning yetakchi reyting va indekslarida O‘zbekistonning iqtisodiy imkoniyatlari haqida nimalarni bilasiz?

Testlar

1. BMT ning “Raqobat bardosh sanoat unumdorligi indeksi” bo’yicha hisoboti chop etildi.Unda mamlakatimizning ilk marotaba aks etirilib 152 ta mamlakat orasida nechanchi o’rinni egalladi?
A) 92 B) 96 C) 74 D) 86
2. 2020 yilda Jahon bankining “ Biznes yuritish ” indeksida mamlakatimiz 76 o’rindan nechanchi o’ringa kotarilganligi yahshilannishiga olib keldi?
A) 74 B) 69 C) 65 D) 62
3. BMTning “Barqaror rivojlanish maqsadlari ”da jami nechta milliy indekatorlar tasdiqlangan?
A) 190 B) 215 C) 206 D) 208
4. BMTning “Raqamli hukumatni barqaror rivojlanishi yo’lidagi o’n yillik harakat” nomli hisoboti e’lon qilindi. Ushbu retingda O’zbekiston 6 ta pog’onaga tushib nechanchi o’rinni egalladi.
A) 5 B) 6 C) 8 D) 9
5. 2020 yilda mamlakatimiz Normativ sifat indeksidan nechanchi o’rinda turibmiz?
A) 191 B) 183 C) 184 D) 182
6. 2020 yil reyting natijalariga ko’ra Biznes yuritish va Iqtisodiy erkinlik indeksida yuqori o’rinda turgan uchta davlatni ko’rsating?
A) Yangi Zelandiya, Gong Kong, Singapur
B) Yangi Zelandiya, Gong Kong, Indoneziya
C) Malayziya, Gong Kong, Singapur
D) Yangi Zelandiya, Vetnam, Singapur
7. “Raqobatbardosh sanoat unumdorligi indeksi” bo’yicha mamlakatimiz MDHga a’zo davlatlar orasida nechanchi o’rinni egalladi?
A) 2 B) 6 C) 4 D) 5
8. 2020 yilda mamlakatimiz so’z erkinligi va hisobdorlik indeksida nechanchi o’rinda turibmiz?
A) 191 B) 183 C) 184 D) 182
9. 2020 yilda mamlakatimiz Jahon matbuot erkinligi indeksida nechanchi o’rinda turibmiz?
A) 191 B) 183 C) 156 D) 182

GLOSSARIY

Avtonomiya – 1. yagona Davlat miqyosida hududiy-milliy tuzilmalarga (viloyat, o'lka) o'zini o'zi boshqarish vakolatlarini berish; 2. Ma'muriy-hududiy birlik; 3. Qandaydir organlar (xo'jalik, davlat, uyushma va boshqalar) faoliyatlaridagi o'zini o'zi boshqarish huquqi.

Adliya – (arab.-adolat) sud muassasalarining butun majmuini, ularning odil sudlovni amalga oshirish faoliyatini, Shuningdek, sud idorasini bildiruvchi atama.

Adolat (arab. – odillik, to'g'rilik) – u yoki bu qadriyatlarining o'zaro umumiy munosabatini va ularning individlar o'rtasida konkret taqsimlanishini ifodalovchi tushuncha; insonning mohiyati va uning ajralmas huquqlarini haqidagi tasavvurlarga mos bo'lgan jamoa tartibi.

Amnistiya – jinoyat sodir etgan shaxslarni jinoiy javobgarlikdan to'liq yoki qisman jazodan ozod qilish, Shuningdek, ilgari sud tomonidan belgilangan jazoni o'tab bo'lgan shaxslardan sudlanganlikni olib tashlash. Amnistiya akti normativ xususiyatga ega, ya'ni amnistiya akti bilan belgilangan talablarga javob beradigan barcha shaxslarga nisbatan qo'llaniladi.

Axborot madaniyati – jamiyatning axborot resurslar va axborotkommunikatsion texnologiyalardan samarali foydalanish, Shuningdek bu maqsadlarda axborotlashtirish vositalar va axborot texnologiyalarni rivojlantirish sohasida ilg'or yutuqlarni qo'llash qobiliyati. Axborot madaniyati kishida axborot muhiti bilan o'zaro munosabatda bilim, mahorat, ko'nikma va refleksi ko'rsatmalar mavjud bo'lishi bilan ifodalanadi. Kishining axborot madaniyatining eng muhim elementlaridan biri – axborot resurslarini bilish (ulardan erkin foydalanish imkoniyati).

Axborot erkinligi – fuqarolarning konstitutsiyaviy huquqlaridan biri bo'lib, so'z, matbuot va boshqa ommaviy axborotga ega bo'lgan axborotni olish huquqi va qonuniy asosda olingan axborotlarni tarqatish huquqi axborot erkinligi hisoblanadi. O'z.Res. Konstitutsiyasiga asosan, ommoviy axborot vositalari erkindir va qonunga muvofiq ishlaydi. Ular axborotning to'g'riligi uchun belgilangan tartibda javobgardirlar, ssenzuraga yo'l qo'yilmaydi (67 -modda).

Baynalmilal – (arabcha-millatlar o'rtasidagi, millatlararo) Xalqaro, umuminsoniy, umumxalqiy mazmunlarida qo'llaniladi. Bipartizm-ijtimoiy sheriklikning ikki sub'ekti o'rtasidagi kelishuv

Bozor iqtisodiyoti – tovar ishlab chiqarish, ayirboshlash va pul muomalasi qonun – qoidalari asosida tashkil etiladigan va boshqariladigan iqtisodiy tizimdir.

Vatanparvarlik – Vatanining ozodligi va obodligi, uning sarhadlari daxlsizligi, mustaqilligining himoyasi yo'lida fidoyilik ko'rsatib yashash, ona xalqining ornomusi, shon-sharafi, baxtu saodati uchun kuch-g'ayrati, bilim va tajribasi, butun hayotini baxsh etishdek dunyodagi eng muqaddas va olijanob faoliyatni anglatadigan insoniy his-tuyg'udir. Vatanparvarlik - ona-yurtning, xalqning tarixi va taqdiriga chuqur hurmat bilan qaraydigan, Vatan manfaatlarini yo'lida fidoiylilik namunalarini ko'rsatishga qodir bo'lgan shaxslarga xos fazilat.

Vijdon erkinligi – ijtimoi-falsafiy tushuncha; har kimning o'z e'tiqodiga ko'ra, mazkur jamiyatda mavjud ijtimoiy me'yorlarni buzmaganda holda vijdoni

buyurgani bo'yicha yashash, ishlash imkoniyati. Bunda dinga munosabat masalaning bir tomoni hisoblanadi. fuqarolarning istagan dinga e'tiqod qilish yoki hech qanday dinga e'tiqod qilmaslik huquqi.

G'oyaviy bo'shliq – deb, eski xukmron mafkura halokatga uchrab, u bilan bog'liq tushunchalarning qadrsizlanishi, bugungi hayot, o'tmish va kelajakka dahldor qadriyatlar, tushuncha va tasavvurlarni to'liq anglab etmasligi oqibatida odamlarning qalbi va ongida vujudga keladigan bo'shliqqa aytiladi.

Gumanizm (insonparvarlik) – tenglik, adolat, o'zaro hurmat, inson qadrini ardoqlash, odamlar farovonligi uchun g'amxo'rlik qilish g'oyalari singdirilgan dunyoqarash.

Daxldorlik hissi – fuqarolarning tug'ilgan joyi, ona Vatani, mustaqillikni anglash, uni asrab-avaylash, himoya qilish, uni yanada rivojlantirishga chorlaydigan, shart-sharoit, omillar majmui.

Demokratik institutlar – bu, davlat va jamiyatda demokratik tuzumni shakllantiruvchidemokratik tamoyillarni amalga oshirishning tashkiliy shakllari hisoblanadi. jamiyat hayotida demokratik tamoyillarni qaror topishga xizmat qiladigan tashkilotlar va tuzilmalar majmuasi.

Diaspora – yun. diaspora -tarqalish ma'nosida bo'lib, ma'lum bir davlat hududida yashovchi, ammo boshqa bir davlatda o'z davlat tuzilmasiga ega, ma'lum bir xalq millat vakillarining yig'indisi (masalan O'zbekistonda yashovchi rus, ukrain millatining diasporasi).

Diniy bag'rikenglik –bizning dunyomizdagi turli boy madaniyatlarni, o'zini ifodalashning va insonning alohidaligini namoyon qilishning xilma-xil usullarini hurmat qilish va to'g'ri tushinishni anglatadi. Uni bilim, samimiyat, ochiq muloqot hamda hurfikr, vijdon va e'tiqod vujudga keltiradi.

Dotatsiya (lot. - tuhfa) – ma'lum harajatlarni qoplash uchun iqtisodiyotning bir sub'yekta tomonidan ikkinchisiga qaytarib bermaslik sharti bilan pul mablag'i berilishi.

Ijtimoiy adolat – barcha ijtimoiy toifalarning jamiyatda o'z o'rnini mavjudligini va qonun oldida ularning o'zaro teng huquqlarga ega ekanligini e'tirof etish. Ijtimoiy manfaat – bu barcha jamiyat a'zolarining birgalikda ro'yobga chiqadigan manfaatlaridir.

Ijtimoiy uyushmalar – fuqarolar manfaatlari umumiyliigi va ixtiyoriylik asosida vujudga keluvchi, lekin o'z faoliyati natijasida daromad olishni ko'zlamaydigan tashkilotlar (siyosiy partiyalar, ommaviy harakatlar, kasaba uyushmalari, ayollar, keksalar, nogironlar, yoshlar, bolalar tashkilotlari, ilmiy texnik, madaniy-ma'rifiy, sport va boshqa ko'ngilli jamiyatlar, jamg'armalar, assotsiatsiyalar, boshqa tuzilmalar). Demak, fuqarolarning har qanday ko'ngilli uyushmasi – ijtimoiy uyushmadir.

Ijtimoiy sheriklik – davlat organlarining nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari bilan mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturlarini, Shu jumladan tarmoq, hududiy dasturlarni, Shuningdek normativ-huquqiy hujjatlarni hamda fuqarolarning huquqlari va qonuniy

manfaatlariga daxldor bo'lgan boshqa qarorlarni ishlab chiqish hamda amalga oshirish borasidagi hamkorligidir

Ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar – bu kishilar uchun zarur bo'lgan hayotiy ne'matlarni ishlab chiqarish, taqsimlash, ayirboshlash va is'temol qilish jarayonida vujudga keladigan munosabatlar.

Iqtisodiy mustaqillik – muayyan bir mamlakatning Shu mamlakatda mavjud ishlab chiqarish kuchlari va ishlab chiqarish vositalariga, tabiiy va ma'naviy boyliklarga va Shu boyliklar tufayli yaratilgan mahsulotdan tushgan milliy daromadga va uni taqsimlashga yagona egalik qilishi.

Iqtisodiy resurslar – ma'lum davrda ma'lum bir mamlakat ixtiyorida to'plangan va mavjud bo'lgan ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish, ularni iste'molchilarga etkazib berish va iste'mol jarayonlarida qo'llanilishi mumkin bo'lgan vositalar, qo'r-qutlar, imkoniyatlar va manbalardir

Innovatsiya – (ingl.— kiritilgan yangilik, ixtiro) Ilg'or texnologiya, boshqarish va boshqa sohalardagi yangiliklar va ularning turli sohalarda qo'llanishi.

Inson huquqlari – unga tor ma'noda faqat davlat himoya qiladigan va kafolat beradigan huquqlar kirib, bu huquqlarga barcha fuqarolarning qonun oldida tengligi, yashash va jismoniy daxlsizlik huquqi, inson qadr-qimmatini hurmat qilish, o'zboshimchalik va noqonuniy ushlab yoki qamash, vijdon va din erkinligi, otaonalarning o'z bolalarini tarbiya qilish huquqlari kiradi. Keng ma'nodagi inson huquqlari esa o'zida shaxs erkinligi va huquqlarining keng majmuasi va turlarini ifodalaydi

Integratsiya – (lot. — tiklash, to'ldirish) Ayrim qismlarning, elementlarni qo'shib birlashtirishni ifodalovchi tushuncha. Fanlarning yaqinlashishi va o'zaro bog'lanish jarayoni.

Interaktiv davlat xizmatlari – idoralar tomonidan jismoniy va yuridik shaxslarga idoralarning axborot tizimlari vositasida telekommunikatsiya tarmoqlari orqali ko'rsatiladigan xizmatlar. Bizning mamlakatimizda bu xizmatlar 2013- yil 1 iyuldan harakat qiluvchi hamda davlat organlarining aholi va xo'jalik yurituvchi sub'ektlar bilan o'zaro hamkorligining qulay va samarali vositasi sifatida xizmat qiluvchi **my.gov.uz** Interfaol Davlat xizmatlari yagona portali orqali ko'rsatiladi.

Infratuzilma – Ishlab chiqarishga xizmat qiluvchi va jamiyat hayoti uchun zarur bo'lgan me'yoriy sharoitni ta'minlashga xizmat qiladigan turli-tuman yordamchi xizmat ko'rsatuvchi sohalar majmui.

Kadrlar tayyorlashning milliy modeli tizimi – O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan 1997 - yilning 29 avgustida “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to'g'risida” qaror qabul qilindi. Ushbu dasturda (3-bandi) kadrlar tayyorlashning milliy modeli quyidagi tarkibiy qismlardan iboratligi belgilab qo'yilgan: 1. Shaxs – kadrlar tayyorlash tizimining bosh sub'ekti va ob'ekti, ta'lim sohasidagi xizmatlarning iste'molchisi va ularni amalga oshiruvchisi. 2. Davlat va jamiyat – ta'lim va kadrlar tayyorlash tizimining faoliyatini tartibga solish va nazorat qilishni amalga amlga oshiruvchi kadrlar tayyorlash va ularni qabul qilib olishning kafillari. 3. Uzluksiz ta'lim – malakali raqobatbardosh kadrlar

tayyorlashning asosi bo‘lib, ta’limning barcha turlarini, davlat ta’lim standartlarini, kadrlar tayyorlash tizimi va uning faoliyat ko‘rsatish muhitini o‘z ichiga oladi. 4. Kadrlar tayyorlash tizimida – fan yuqori malakali mutaxassislar tayyorlovchi va ulardan foydalanuvchi, ilg‘or pedagogik va axborot texnologiyalarini ishlab chiquvchi. 5. Kadrlar tayyorlash tizimida ishlab chiqarish – kadrlarga bo‘lgan ehtiyojini, Shuningdek, ularning tayyorgarlik sifati va saviyasiga nisbatan qo‘yiladigan talablarni belgilovchi asosiy buyurtmachi, kadrlar tayyorlash tizimini moliya va moddiy-texnik jihatidan ta’minlash jarayonining qatnashchisi

Konfessiya – lot. cōfessio dinlar va uning shaxobchalari, tarmoqlari, mazhab, oqim va yo‘nalishlarini ifodalovchi umumiy tushuncha.

Konsepsiya – biror sohani rivojlantirishga qaratilgan keng qamrovli loyiha yoki qarashlar majmui.

Konvertatsiya – (lot. convertatio – o‘zgartirish, aylantirish) Milliy valyutaning amaldagi kurs bo‘yicha boshqa xorijiy valyutalarga erkin va cheklanmagan miqdorda almashtirilishi.

Ko‘ppartiyaviylik – mamlakat parlamentida ko‘pchilik o‘rinni olish uchun teng imkoniyatga ega bir necha siyosiy partiyalar mavjud bo‘lgan siyosiy tizim.

Kuchli fuqarolik jamiyati – inson manfaatlari ustuvorligi va fuqarolik jamiyati institutlari orqali ularning davlat va jamiyat boshqaruvida faol ishtirok etishi ta’minlangan, qonun ustuvor bo‘lgan jamiyat.

Qonun ustuvorligi – ushbu tamoyilning mazmuni Shuni anglatadiki, qonun ijtimoiy hayotning barcha sohalarida qat’iy hukmron bo‘ladi. Ya’ni, hech kim, hech birdavlat organi, mansabdor shaxs, tadbirkor yoki boshqa bir fuqaro qonunga bo‘ysunishi, ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy munosabatlar faqat qonun bilan tartibga solinadi, uning barcha ishtirokchilari esa, hech bir istisnosiz, huquq normalarini buzganligi uchun javobgarlikka tortilishi kerak. Huquqiy normalarni tadbiiq etishda konstitutsiya va qonunlarning normalari boshqa huquqiy normalardan ustun turadi.

Legitimlik – (lot. qonuniy) muayyan davlat hokimyatining qonuniyligini a) fuqarolar tomonidan; b) xalqaro hamjamiyat tomonidan e’tirof etilishini anglatuvchi qadriyatiy tushuncha. Tarixan an’anaviy, xarizmatik, oqilona-qonuniy shakllarda nomoyon bo‘ladi.

Liberallashtirish – ijtimoiy hayotning barcha sohalarida erkinlik ustuvor bo‘lishini, jamiyatning evolyusion rivojlanish yo‘lini e’tirof etuvchi va asoslovchi nazariya, amaliyot.

Logistika – (yun. logistike – hisoblash, muhokama san’ati) Inson faoliyatining u yoki bu sohasini moddiy-texnik ta’minlashni boshqarish tizimi.

Mahalliy (yoki munitsipal) boshqaruv – ma’muriy-hududiy birliklardagi aholining manfaatlarini ifodalaydigan va saylab qo‘yiladigan organlar hamda ularning ma’muriy apparati tomonidan amalga oshiriladigan mahalliy ahamiyatga molik ishlarni boshqarish.

Mentalitet – (nem. – aql, idrok) Jamiyat, millat, jamoa yoki alohida shaxsning tarixiy tarkib topgan tafakkur darajasi. Jamiyat, millat yoki shaxsning mentaliteti ularning o‘ziga xos an’analari, rasm-rusumlari, urfodatlarini, diniy e’tiqod va irimlarini qamrab oladi.

Millat – til, ma’naviyat, milliy o‘zlikni angash ruhiyati, urf-odatlar, an’analar va qadriyatlar yagonaligi asosida muayyan hududda yashovchi iqtisodiy aloqalar bilan bog‘langan mustaqil sub’ekt sifatida o‘ziga xos moddiy va ma’naviy boyliklarni yaratuvchi kishilarning etnik birligidir.

Millatlararo munosabatlar – birga yoki ayri tarzda yashaydigan har xil millatlar o‘rtasida amalga oshadigan turli-tuman shakllardagi aloqalarni anglatuvchi tushunchadir.

Modernizatsiya – (modern – zamonaviy) yangilanish, zamonaviy; davlat, jamiyat, iqtisodiyot, texnologiya va boshqa sohalarning yangilanishi, yangi uslublar, ixtirolarning qo‘llanishi asosidagi o‘zgarishlar.

Mulkchilik munosabatlari – mulkka egalik qilish, undan foydalanish, uni o‘zlashtirish va tasarruf etish jarayonida vujudga keladigan munosabatlar.

Nodavlat notijorat tashkiloti (NNT) – jismoniy va (yoki) yuridik shaxslar tomonidan ixtiyoriylik asosida tashkil etilgan, daromad (foйда) olishni o‘z faoliyatining asosiy maqsadi qilib olmagan hamda olingan daromadlarni (foydani) o‘z qatnashchilari (a’zolari) o‘rtasida taqsimlamaydigan o‘zini o‘zi boshqarish tashkilotidir.

Ommaviy axborot vositalari – keng ko‘lamda axborotni yig‘ish, ishlash va tarqatishni ta’minlovchi ijtimoiy institutlar va kanallar (matbuot, kitob nashriyotlari, matbuot agentliklari, radio, televidenie va h.k.). Ommaviy axborotni davriy tarqatishning doimiy nomga ega bo‘lgan hamda bosma tarzda (gazetalar, jurnallar, axborotnomalar, byulletenlar va boshqalar) va (yoki) elektron tarzda (tele-, radio-, video, kinoxronikal dasturlar, umumfoydalanishdagi telekommunikatsiya tarmoqlaridagi veb saytlar) olti oyda kamida bir marta nashr etiladigan yoki efirga beriladigan shakli hamda ommaviy axborotni davriy tarqatishning boshqa shakllari ommaviy axborot vositasidir. “Ommaviy axborot vositalari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonuniga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish haqida. (O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2007 - y., 3-son, 20- modda) Parlament – ingl. parlament, frans. parlargapirmoq va so‘zlamog; parlament oliy qonun chiqaruvchi vakillik organi hisoblanadi.

Partiya – (lot. partio — bo‘lak, qism) G‘oyaviy jihatdan maslakdosh, manfaatlari bir bo‘lgan kishilar guruhidan iborat, muayyan ijtimoiy guruh yoki qatlamlarning manfaatlarini himoya qiluvchi siyosiy tashkilot.

Plyuralizm – lot. pluralis-turlicha, turli tuman; turli ijtimoiy qatlamlar manfaatlarini ifodalovchi turli tuman ijtimoiy-siyosiy kuchlar mavjud bo‘lgan siyosiy tizim.

Proporsional – (proportionalis-mutanosib; saylovlarda nomzodlar uchun beriladigan ovozlar ro‘yxatlar bo‘yicha beriladigan, har bir ro‘yxat uchun berilgan ovozlariga mutanosib ravishda joy egallanadigan saylov huquqi tizimi.

Ratsional – (lot. rationalis-oqilona); maqsadga muvofiq, asoslangan, dalillangan (eng to‘g‘ri yo‘l ma’nosida ham ishlatiladi).

Referendum – (lotincha – ma’lum qilinishi zarur bo‘lgan narsa) Davlat ahamiyatiga ega bo‘lgan muhim masalalar bo‘yicha o‘tkaziladigan va ba’zan

qonun qabul qilish uchun asos bo‘lib xizmat qiladigan umumxalq so‘rovi, ovoz berish yo‘li bilan xalq fikrini aniqlash.

Sammit – (ingl. – tepa, yuqori, cho‘qqi; yuksak daraja) ikki yoki bir necha davlat boshliqlarining muhim xalqaro masalalar bo‘yicha uchrashuvi; oliy darajadagi kengash.

Sanksiya – huquqshunoslikda huquqbuzarga nisbatan qo‘llaniladigan va uning uchun muayyan oqibatlar keltiruvchi chora.

Saylov – aholining rasmiy mansabni egallash uchun biror shaxsni tanlashi jarayonidir.

Senat – lot. senatus-eski, qariya; ko‘pchilik mamlakatlar parlamentining yuqori palatasi.

Sessiya – (lot. sessio – majlis, yig‘ilish) Ish, mashg‘uloti davriy ravishda amalga oshiriladigan vakolatli organlarning, sud yoki jamiyatlarning ish, yig‘ilish o‘tkazadigan davri.

Siyosiy partiyalar – ijtimoiy guruhlar manfaatlarini ifodalovchi, ularning eng faol vakillarini birlashtiruvchi siyosiy tashkilotlar. Siyosiy partiyalar jamiyat siyosiy tizimining muhim qismi, ular davlatning siyosiy yo‘nalishini belgilashda ishtirok etadi, hukumatning vakillik va ijro etuvchi muassasalarini shakllantiradi.

Strategiya – uzoqqa boruvchi ta’sir vositalari va uslublari; maqsadni istiqbolli dinamik aniqlab olish.

Struktura (lotincha “structura” –“tuzilma”, “tuzilish”) – ob’ektning bir butunligini va uning o‘ziga o‘zi aynanligini, ya’ni turli ichki va tashqi o‘zgarishlarda o‘zining asosiy xususiyatlarini saqlay olishini ta’minlovchi barqaror aloqalar yig‘indisidir.

Suverenitet – (fran. “souveränität”) davlatning ichki ishlar va tashqi munosabatlarda xorijiy aralaShuvlarga yo‘l qo‘ymagan holdagi mustaqilligi va muxtoriyati.

So‘z erkinligini ta’minlash – insonning fundamental va tabiiy huquqlaridan biri – o‘z fikrini (hayolini) oshkora (og‘zaki, yozma ravishda va/yoki ommaviy axborot vositalardan foydalangan holda) ifoda etish huquqini amalga oshirish uchun kompleksli shart-sharoitlarni yaratish.

Taraqqiyot – jamiyat rivojlanishining oddiydan murakkabga, quyidan yuqoriga yo‘nalgan, bir sifat bosqichidan yangi sifat bosqichiga o‘tishi jarayoni.

Tolerantlik – fr. tolyrant (lat. Tolerāns-tolerantis) hozirgi o‘zbek tilida lug‘aviy tarjima qilganda chidamlilik, sabrlilik, bardoshlilik, toqatlilik ma’nolarini anglatadi. Antik davr va o‘rta asrlarga qadar asosan tabobat sohasida keng istifoda etilgan mazkur tushuncha hayvonlar va insonlar organizmlarining turli-tuman kasalliklar, jarohatlar va umuman, hayot uchun kurashish jarayonlariga doir immun qobiliyatini o‘rganish masalalariga aloqador bo‘lgan. Keyinchalik boshqa fanlar doirasida ham e’tiborli asarlar yaratgan mashhur tabobat olimlari va aksincha, tabobat borasida ham diqqatga sazovor fikrlar bildirgan boshqa soha olimlari mazkur tushunchani kengroq ma’noda qo‘llay boshlaganlar (Epimenid, Gorgiy, Aristotel, Epiktet, Ibn Sino). XX asrga qadar tolerantlik tushunchasining ayniqsa din bilan bog‘liq muruvvat ma’nosidagi talqinlariga ko‘p duch kelish mumkin.

Lekin mazkur asr boshlaridan texnika taraqqiyoti va uning asosida mehnatni tashkil etish munosabatlarining jadal rivojlanishi natijasida tolerantlik tushunchasi davlat va xalq munosabatlarida, ayniqsa huquqiy munosabatlar tizimida keng mazmun kasb etadi. Endi tushuncha chidam, sabr-toqat ma'nolarini yo'qotmagan holda ko'proq bag'rikenglik, hamjihatlik, hamkorlik kabi mazmunda talqin etila boshlandi.

Totalitar – lot. totalis-butun, to'la, bir butun); davlat hokimiyati organlari tomonidan jamiyat hayotining hamma sohalarini nazorat qiladigan davlat shakli, amalda konstitutsion huquq va erkinliklarni tugatilishi; bu rejimda davlat hokimiyati biron-bir guruh (siyosiy partiya) qo'lida to'planib, mamlakatda demokratik erkinliklar va siyosiy muholifatni amal qilishi uchun imkoniyatlar bo'lmaydi.

Transformatsiya – lot. transformatio – o'zgarish; tuzilmalarni, shakllarni va usullarni o'zgartirish, faroliyatning maqsadli yo'nalishini o'zgartirish.

O'zini o'zi boshqarish – (ingl. municipal o'zini o'zi boshqarish); u yoki bu ma'muriy-hududiy birliklardagi aholining vakolatlarini ifodalovchi saylangan organlar va ularning ma'muriy apparati tomonidan amalga oshiriladigan mahalliy ahamiyatga ega bo'lgan ishlarni boshqarishga aytiladi. O'zbekistonda o'zini o'zi boshqarish organlari tarkibiga mahalla, qishloq, ovul va shaharcha fuqarolar yig'inlari kiradi.

Umuminsoniy qadriyatlar – butun insoniyatning tajribasini ifodalovchi va ma'lum farqlanishlar bo'lishidan qat'i nazar, barcha odamlar uchun mushtarak bo'lgan dunyoqarashning ideallari yoki axloqiy normalar.

Faol (aktiv) saylov huquqi – fuqaroning saylanadigan davlat organlari va mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlariga saylash huquqi.

Fikr erkinligi – bu jamiyat a'zosi bo'lgan har bir shaxs tabiiy va ijtimoiy jarayonlarga, fuqarolar bilan siyosiy tashkilotlarga va milliy, irqiy, diniy, sinfiy munosabatlarga ega bo'lgan mustaqil fikrlarini huquqiy, siyosiy diniy va boshqa muassasalar tomonidan bo'lishi mumkin bo'lgan turli tazyiqlardan muhofaza qiladigan ijtimoiy muhit.

Fraksiya – lot. fractio-buzish, sinish, darz ketish; parlament a'zoligiga yoki boshqa vakillik organlariga saylangan deputatlar birlashmasi.

Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarishi – O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va Qonunlari bilan kafolatlanadigan ularning o'z manfaatlaridan, rivojlanishning tarixiy xususiyatlaridan, Shuningdek milliy va ma'naviy qadriyatlardan, mahalliy urf-odatlar va an'analardan kelib chiqqan holda mahalliy ahamiyatga molik masalalarni hal qilish borasidagi mustaqil faoliyatidir.

Fuqarolik – insonlarni muayyan davlat, davlatchilik bilan bog'liq huquqiy holatlarini, munosabatlarini ifoda etuvchi tushunchadir.

Fuqarolik jamiyati – fuqarolarning davlat va jamiyat boshqaruvida tegishli fuqarolik institutlari orqali faol ishtirok etishi ta'minlangan ijtimoiy makondir.

Fuqarolik jamiyati institutlari – fuqarolarning davlat va jamiyat boshqaruvida ishtirok etishiga xizmat qiladigan nodavlat, notijorat tashkilotlari,

jamiyat birlashmalari, oila, mahalla, ijtimoiy harakatlar va boshqa tuzilmalar majmuidir.

Fuqarolik mas'uliyati – qonun ustivorligini tan olish va har bir shaxsning ijtimoiy hayotni takomillashtirish jarayonida ishtirok etish vazifasini teran his qilish.

Funksiya – lot. functio-faoliyat, o'tash, bajarish; faoliyat, majburiyat, ish, tayinlash, burch, vazifa, topshiriq.

Xalq farovonligi – milliy istiqlol mafkurasining asosiy g'oyalaridan biri. Xalq farovonligi har bir shaxs va oila farovonligi bilan bog'liqdir. Bunda insonning shaxsiy manfaatlari jamiyat manfaatlari bilan uyg'unlashib ketadi va har bir fuqaroning farovonligi butun jamiyat farovonligidir, degan tamoyil amalga oshadi.

Xususiylashtirish – mulkka egalik huquqining davlatdan xususiy shaxslarga o'tishi.

Hamkorlik siyosati – xalqaro siyosat sub'ektlarining birgalikdagi siyosiy harakatlarda vujudga keladigan masalalar yuzasidan yagona nuqtai nazarlarni ishlab chiqishida ifodalanuvchi munosabat turlaridan biri. Unga ko'ra tomonlar o'z faoliyatining asosiy yo'nalishlarida mustaqillikni saqlab qolgani holda qarashlar mos tushuvchi amaliy masalalarda birgalikda faoliyat ko'rsatadilar. Masalan, gitlerchi Germaniyasiga qarshi davlatlar hamkorligi.

Huquq – davlat qonunlari bilan beriladigan erkinlik, harakat qilish imkoniyati, nimanidir amalga oshirish yoki nimadandir foydalanish, nimagadir egalik qilish; jamiyatdagi munosabatlarni, kishilar va ularning harakati va xulqini muvofiqlashtirish, davlat va jamiyat organlarini yashashini ta'minlashga imkoniyat berish maqsadlarida davlat tomonidan o'rnatilgan va himoya qilinadigan umum majburiy ijtimoiy me'yorlar va qoidalar.

Huquqiy davlat – huquq, Konstitutsiya va Qonun hukmronlik qiladigan davlatdir. Davlat va uning institutlari, mansabdor shaxslar jamiyat va fuqaro oldidagi o'z ma'suliyatlarini his qilishlari, o'z navbatida jamiyat va fuqaro, uning tashkilotlari davlat oldidagi ma'suliyatlarini his qilishlari kerak. Bu ma'suliyatni oshirish orqali huquqiy demokratik davlat shakllantiriladi va rivojlantiriladi hamda bu jarayon uzoq muddatni talab etadi.

Shok terapiyasi (iqtisodiyotda) – iqtisodiyotni sog'lomlashtirishga yo'naltirilgan qator salbiy oqibatlarini (narxlarning o'sishi, inflyasiya, bandlikning pasayishi va Shunga o'xshash boshqa holatlar) o'z ichiga oluvchi radikal choratadbirlar majmuasi.

Elektorat – saylovlarda ma'lum siyosiy partiyaga (siyosiy lider)ga ovoz beruvchi saylovchilar davrasi; ma'lum bir saylov okrugi yoki mamlakat saylovchilari majmui.

Elektron hukumat – mamlakat miqyosida boshqaruv jarayonlarning butun majmuasini avtomatlashtirishga asoslangan hamda davlat boshqaruvining samaradorligini sezilarli darajada oshirish va jamiyatning har bir a'zosi uchun ijtimoiy kommunikatsiyalar harajatlarini kamaytirish maqsadiga xizmat qiluvchi davlat boshqaruvi elektron hujjat almashinuvi tizimi. Elektron xuqumatni yaratish hujjatlarni va ularni ishlash jarayonlarini boshqarish bilan bog'liq vazifalarning

to'liq ko'lamini hal etishni amalga oshiruvchi ijtimoiy boshqaruvining umumdavlat taqsimlash tizimi qurilishini nazarda tutadi.

Emissiya – fr. émission – chiqarish; pul emissiyasi - muomalaga yangii pullarni chiqarish, muamaladagi pul hajmini ko'paytirish. Emissiya naqd yoki naqd pulsiz bo'lishi mumkin.

Empirizm – yunon. emperia-tajriba; tajribani bilishning birdan-bir vositasi, deb tan oluvchi ta'limot.

Erkinlashtirish – mamlakatning demokratik jamiyatgao'tish va islohotlar o'tkazish jarayoni damavjud bo'ladigan turli to'siqlar, cheklashlar va yon berishga majbur etadigan omillardan qutilishga qaratilgan amaliy faoliyatdir. U demokratik jarayonlarning samarali rivojiga yangi kuch, quvvat va ilhom bag'ishlash imkoniyatini yaratadi.

Yuksak ma'naviyat – inson ma'naviyatining eng yuqori darajasi bo'lib, u insonlarni eng ezgu va ulug' maqsadlarga yo'naltirishga xizmat qiladigan ona Vatan baxti iqboli yo'lida buyuk jasoratga chorlaydigan yengilmas kuchdir.

Yurisdiksiya – (lotincha – sud qilish, sud jarayoni) Huquqiy masalalarni hal qilish, sudlov ishlarini olib borish huquqi. Muayyan davlat organi vakolatlari doirasidagi huquq sohasi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:
Rahbariy adabiyotlar:

1. Karimov I.A. O'zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura. T. 1. Toshkent: O'zbekiston, 1996.
2. Karimov I.A. Inson uning huquq va erkinliklari - oliy qadriyat. T. 14. Toshkent: O'zbekiston, 2006.
3. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat-engilmas kuch. Toshkent: Ma'naviyat, 2008.
4. Karimov I.A. Demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqorolik jamiyatini shakllantirish-mamlakatimiz taraqqiyotining asosiy mezonidir. T.19. Toshkent: O'zbekiston, 2011.
5. Karimov I.A. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. Toshkent: O'zbekiston, 2011.
6. Karimov I.A. Tarixiy xotira va inson omili – buyuk kelajagimiz garovidir / Xalq so'zi. 2012, 10 may.
7. Karimov I.A. Ona yurtimiz baxtu iqboli va buyuk kelajagi yo'lida xizmat qilish - eng oliy saodatdir. Toshkent: O'zbekiston, 2015.
8. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson ma'nfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 24-yiligiga bag'ishlangan tantanali marosimidagi ma'ruzasi. Toshkent: O'zbekiston, 2017.
9. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoevning 2018 yil 5 iyundagi "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-3775-sonli qarori.
10. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. - Toshkent: O'zbekiston, 2017.
11. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. T. 1. - Toshkent: O'zbekiston.. 2017.
12. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. - Toshkent: O'zbekiston. 2017.
13. Mirziyoyev Sh.M. Niyati ulug' xalqning ishi ham ulug', hayoti yorug' va kelajagi farovon bo'ladi. Toshkent, "O'zbekiston, 2019.
14. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston Strategiyasi. Toshkent, "O'zbekiston", 2021.

Asosiy adabiyotlar:

1. 2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi. Toshkent: Ma'naviyat, 2017.
2. Mustaqil O'zbekistan tarixining dastlabki sahifalari. Toshkent, 2000.
3. Mustaqil O'zbekiston tarixi. Mas'ul muharrir A.Sabirov. Toshkent: Akademiya, 2013.
4. Новейшая история Узбекистана (1991-2016 гг.): (Коллективная монография). - Ташкент. Фан, 2019.

5. Mustaqillik: Izohli ilmiy-ommabop lug'at // M.Abdullayev va boshqalar: to'ldirilgan uchinchi nashr. Toshkent: Sharq, 2006.

Qo'shimcha adabiyotlar:

1. Bobojonova D. O'zbekistonda ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar (1980-yillar misolida). Qo'llanma. Toshkent: Sharq, 1999.
- Haydarov I.M., Askarov M.M., O'zbekistonning eng yangi tarixi // O'quv qo'llanma. – T.:“TDSHU”, 2021.
2. Islomov Z.M. O'zbekiston modernizatsiyalash va demokratik taraqqiyot sari. Toshkent: O'zbekiston, 2005.
3. Levitin L. O'zbekiston tub burilish pallasida. Toshkent: O'zbekiston, 2005.
4. Murtazayeva R.H. O'zbekistonda millatlararo munosabatlar va tolerantlik / Darslik. Toshkent, 2019.
5. O'zbekiston mustaqillik yillarida. Toshkent: O'zbekiston, 1996.
6. O'zbekiston tarixi (1917-1991-yillar). 2 tom. Mas'ul muharrirlar: R.Abdullayev, Q.Rajabov, M.Rahimov. Toshkent: O'zbekiston, 2019.
7. O'zbekiston xalqining dini, madaniyati va urf-odatlar: tarix va hozirgi holat. Toshkent: TIU, 2011.
8. Qoraqalpog'iston tarixi (1917-1994-yy.). Nukus, 1995.
9. Usmonov Q. O'zbekistonning jahon hamjamiyatiga integratsiyalashuvi. Toshkent: Moliya, 2003.
10. Yunusova X. O'zbekistonda millatlararo munosabatlar va ma'naviy jarayonlar (XX asr 80-yillari misolida). Toshkent: Abu matbuot-konsalt, 2009.
11. Axmedov E. O'zbekiston shaharlari mustaqillik yillarida. Toshkent: Abu Ali ibn Sino nashriyoti, 2002.
12. Azizxo'jayev A.A. Chin o'zbek ishi. Toshkent, 2003.
13. Azizxo'jayev A.A. Mustaqillik: kurashlar, iztiroblar, quvonchlar. Toshkent: 2001.
14. Джумашев А., Нуржанов С., Уразова Л., Таджиева. Каракалпақстан тарийхи (1991-2015 жж). – Нөкис: Илим, 2018.
15. Ирзаев Б. Ўзбек ёшлари ва хорижий таълим. – Тошкент: “Академнашр”, 2018
16. Кобзева О.П., Сиддиков Р.Б. Международное сотрудничество Республики Узбекистан в годы независимости. – Ташкент, 2016.
17. Кощанов Б., Аметов Т. Очерки новейшей истории Республики Каракалпақстан. – Нукус: Qaraqalpaqstan, 2015.
18. Марозиқов А. Мустақиллик йиллари Ўзбекистонда қишлоқ хўжалигида тадбиркорликнинг дастлабки натижалари хусусида баъзи мулоҳазалар. // ЎЗМУ хабарлари. – Тошкент. 2018. №-1/5. Б. 103-107.
19. Норов Ш.С., Хайтов Ш.А. Исторический процесс разработки и принятие законов на основании региональных субъектов о молодежи Узбекистана в период 2016-2020 гг. // Central Asian Journal of Social Sciences and History – Vol. 2 – Issue 2. India, february 2021 – pp. 81-88. (AP:(31), AEI: (32), BOAS: (34)).

20. Нуриддинов Э. Международное сотрудничество Республики Узбекистан со странами Европы. – Тошкент: Чўлпон, 2002.
21. Обломуродов Н., Толипов Ф. Ўзбекистон мустақиллигининг дастлабки йилларида мулкчилик ва тадбиркорликнинг аҳволи: ютуқлар, муаммолар ва ечимлар // O'zbekistonda ijtimoiy Fanlar. 2019. -№2-3
22. Шакиров И. Из истории взаимоотношений Узбекистана и Сингапура в сфере туризма (1991-2020) // ЎЗМу хабарлари. – Ташкент, 2021. – № 1/3. – С. 24-28
23. Элмуратова У. Таълим тизими ислоҳоти: ҳуқуқий–меъёрий асосларининг яратилиши (1991-2014 йй.) // Ўзбекистонда ижтимоий фанлар. – Тошкент, 2016. – №3. – Б.32-40.
24. Ўзбекистон Республикаси: Мустақил давлатнинг бунёд бўлиши. Т.: Ўзбекистон, 1992.
25. Ўзбекистоннинг янги тарихи. Иккинчи китоб. Ўзбекистон совет мустамлакачилиги даврида. Т.: Шарқ, 2000.
26. Ўзбекистоннинг янги тарихи. Учинчи китоб. Мустақил Ўзбекистон тарихи. Т.: Шарқ, 2000.
27. Ўзбекистоннинг мустақиллик даври маданияти тарихининг ўрганилиши муаммолари // Ўзбекистоннинг энг янги тарихидан очерклар: методология, тарихшунослик ва манбашунослик масалалари. Илмий тўплам. – Тошкент: 2014.
28. Қирғизбоев А. Ўзбекистон Республикасининг Осиё мамлакатлари билан ҳамкорлиги. – Тошкент: Фан, 2004.
29. Қирғизбоев М. Фуқаролик жамияти: генезиси, шаклланиши ва ривожланиши. – Тошкент: Ўзбекистон, 2010.
30. Қосимова Н. Фуқаролик жамиятини ривожлантиришда нодавлат ноижорат ташкилотлари ва оммавий ахборот воситаларининг роли. – Тошкент: ООО Invite Design. 2015.

Elektron resurslar:

1. www.ziyonet.uz
2. www.edu.uz
3. www.google.uz
4. www.gov.uz
5. www.lex.uz

MUNDARIJA

Kirish	
1-Mavzu: “O‘zbekistonning eng yangi tarixi” o‘quv fanining predmeti, maqsadi va vazifalari, nazariy-metodologik tamoyillari.....	
2-Mavzu: Mustaqillikka erishish arafasida O‘zbekistondagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlar.....	
3-Mavzu: Mustaqil O‘zbekiston Respublikasining tashkil topishi va uning tarixiy ahamiyati.....	
4-Mavzu: O‘zbekistonning o‘ziga xos istiqlol va taraqqiyot yo‘li.....	
5-Mavzu: O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining ishlab chiqilishi va qabul qilinishi.....	
6-Mavzu: O‘zbekistonda demokratik, fuqarolik jamiyati asoslarining shakllanishi, amalga oshirilgan siyosiy islohotlar.....	
7-Mavzu: Korrupsiyaga qarshi kurashish – jamiyat taraqqiyotining asosi.....	
8-Mavzu: O‘zbekiston Respublikasida inson va fuqarolarning asosiy huquqlari, erkinliklari va burchlari.....	
9-Mavzu: Iqtisodiy islohotlar, xususiy mulkchilikning shakllanishi. O‘zbekistonda bozor munosabatlarining rivojlanishi.....	
10-Mavzu: Mustaqillik yillarida O‘zbekistonda irrigatsiya sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar	
11-Mavzu: O‘zbekiston Respublikasidagi ijtimoiy o‘zgarishlar.....	
12-Mavzu: Mustaqillik yillarida O‘zbekistondagi ma’naviy va madaniy taraqqiyot.....	
13-Mavzu: O‘zbekiston Respublikasida ta’lim sohasida amalga oshirilgan islohotlar.....	
14-Mavzu: Mustaqillik yillarida Qoraqalpog‘iston Respublikasi.....	
15-Mavzu: O‘zbekiston va jahon hamjamiyati.....	
16-Mavzu: O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishda Harakatlar strategiyasining tutgan o‘rni.....	
17-Mavzu: Yangilanayotgan O‘zbekiston: milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari.....	
18-Mavzu: O‘zbekiston Respublikasining xalqaro reyting va indekslardagi o‘rni va nufuzini ortib borishi.....	
Glossariy	
Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati	